

2025-yil, oktabr 16-son



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

"Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature" (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>



*1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni
umumxalq bayrami bilan barcha
ustoz-muallimlarni muborakbod etamiz!*





DOLZARB MAVZU

Abdulhay SOBIROV,
filologiya fanlari doktori, professor,
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi
Andijon davlat universiteti
sobirov-1957@mail.ru

DAVLAT TILI – MILLAT BIRLIGI VA JIPSLIGINING BOSH OMILI

Annotatsiya: maqolada o'zbek tilining jamiyatda tutgan o'rni, unga davlat tili maqomi berilishining obyektiv va subyektiv sabablari to'g'risida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: *til, davlat, jamiyat, davlat tili, turkiy til, o'zbek tili, o'zbek xalqi, o'zbek jamiyati, rus tili, Mustaqillik, tarix.*

Аннотация: в статье рассматривается роль узбекского языка в обществе, объективные и субъективные причины предоставления ему статуса государственного.

Ключевые слова: *язык, государство, общество, государственный язык, тюркский язык, узбекский язык, узбекский народ, узбекское общество, русский язык, независимость, история.*

Annotation: the article examines the role of the Uzbek language in society, objective and subjective reasons for granting it the status of state language.

Key words: *language, state, society, state language, Turkish language, Uzbek language, Uzbek people, Uzbek society, Russian language, independence, history.*

Til, millat, jamiyat, davlat tushunchalari bir-birini taqozo etadigan va bir-biridan aslo ayricha yashamaydigan tarixiy birliklar sanaladi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, *o'zbek tili, o'zbek millati, o'zbek jamiyati* va *O'zbekiston davlati* tushunchalarining ostida xalqimiz tarixi, bugungi hayoti, turmush tarzi, ma'naviyati, madaniyati, san'ati va hokazo jihatlari bilan bog'liq ulkan xazinalar yashirinib yotganiga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Tarixni varaqlab ko'rar ekanmiz, o'zbek tili uzoq va mashaqqatli taraqqiyot yo'lini bosib o'tganiga guvoh bo'lamiz. O'zbek tili ko'z oldimizda turkiy til shajara daraxtidagi eng baquvvat, hamma davrlarda gullab-yashnagan va har jihatdan uning ko'rkam shoxlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi va asrlar osha ona xalqimizning orzu-maqсадlarini, istaklarini, shodliklari-yu quvonchlarini, qayg'ularini, alamlarini, chekkan azob-uqubatlari o'zida yaqqol mujassam etgan ilohiy ne'mat sifatida gavdalanadi.

Ifoda imkoniyatlarining kengligi, grammatik jihatdan mukammalligi, uslubiy rang-barangligiga ko'ra o'zbek tili turkiy tillarning eng oldingi tillari qatorida turadi. Turkiy (o'zbek) tili azal-azaldan nafis adabiyot tili, jonli so'zlashuv tili, qadim karvon yo'llaridagi asosiy tillardan biri bo'lib kelgan. Xonlar, hoqonlar, saltanat egalari kelib-ketavergan; ular topgan boyliklar, ming azobda to'plagan xazinalar tarix sahnalaridan izsiz

yo'qolgan, osmono'par saroylardan darz ketgan, ammo ona tilimiz zavol topmagan, aksincha, yillar, davrlar o'tgani sari to'lib-to'lishib, boyib, kengayib borgan; egilgan, bukilgan, lekin sinmagan...

Bu haqda buyuk ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat o'tgan asrning boshlarida shunday deb yozgan edi: *"Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. Shoirlik qilmoqchi emasman, so'zning to'g'risi shudir. Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili xud turkchadir. Tillarning baxtsizligi sovet hukumati chog'inda bo'lg'an bir ishdir, bundan burun baxtli edilar deganlar tilimizning holini bilmasdan gapuralar.*

Bir tilning boylig'i u tildag'i so'zning ko'bligi (kasrati kalimot), undirik kengligi (vus'ati ishtiyoq), yusup tugalligi (mukammaliyati qavoyid) bilan bo'lur.

Tilimizdag'i so'z boylig'i, ishtiyoq kengligi, qoida tugallig'i, sarf-nahv ingichlari boshqa sharq tillaridan qolishmas, bu to'g'rularida fors tilini butunlay keyinga qoldiradur" [Fitrat, 2006: 336].

Ayni haq gap. O'zbek tilini boshqa turkiy tillardan ustun qo'yganimizni, uning sha'nini Fitratdek yuksaklarga ko'targanimizni shu millat farzandi, shu til sohibi ekanimizga yo'yinglar. Fitrat aytgan "turkcha" til ayni o'zbek tilining o'zidir.

Til daryosi to'xtamas, har vaqt teran oqar, hamma undan o'z imkoniyati, ehtiyojiga qarab ulush oladi.

Hech qaysi til tushmagan,
 Osmonlardan, falakdan.
 Ular bari tarqagan,
 Bitta o'zak – palakdan.

El koriga yaragin,
 Moziyga boq, qaragin.
 Bizlar kimmiz? Fikr qil –
 Bosma xalqing palagin.

Bizlar bergan oshni yeb,
 O'zlariga berib zeb,
 Ayrib, bo'lib ketishdi,
 Qirg'iz, qozoq, o'zbek deb.

Qirg'iz, tatar, qozoqmas,
 Hammamiz bir – turkiymiz.
 Shunchaki bir xalq emas,
 O'z yurtiga bek, biymiz.

Shu ma'noda turkiy adabiyotning nodir namunalari sanalgan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar"i, Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy"si, Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si kabi noyob asarlarning tili fonetik, leksik, grammatik, uslubiy jihatdan boshqa turkiy tillarga qaraganda o'zbek tiliga juda yaqin turadi va shunga ko'ra ular o'zbek tilining noyob manbalari qatorida tilga olinadi.

Boisi – turkiy qavmlarning tarixiy uyushmalari sanalgan qabila > urug' > ulus (xalq) > millat bosqichlarida o'zbek xalqi va uning tili (turkiy – chig'atoy tili) o'ziga yarasha mavqega, nufuzga ega bo'lgan. Manbalarga ko'ra, turkiy qavmning boshida turgan *qorluq, chig'il, arg'un, yag'mo, qipchoq, barlos, kenegas, jaloyir* va boshqa qabilalar o'zbek xalqining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin egallagan [Asqarov, 2010: 68].

Tarixiy holatiga mutanosib ravishda *o'zbek qabilalari, o'zbek urug'lari, o'zbek xalqi* deb atalib kelingan. Demak, til qaysi bosqichda bo'lishidan qat'i nazar qabila, urug', ulus va millatning bosh belgisi sanalar ekan.

Ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi aholining ko'pchiligi qaysi tilda gapirsa, o'sha til shu yerliklarning o'ziga xos tashrif qog'oziga, markasiga aylanishi tabiiy hol sanalarkan – *o'zbeklar yeri, o'zbek xalqi, o'zbek shaharlari, o'zbek qishloqlari* kabi.

Bu nimani anglatadi? Bu shuni anglatadiki, **til jamiyat, millat, davlat** kabi ulug' tushunchalar bilan bir qatorda turadi va millatning javhari, milliy qadriyatlarning boshi, xalq ma'naviyati va ma'rifatining gultoiji sifatida muayyan jamiyatni tuzish va taraqqiy ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lum bir davlatni barpo etishda siyosiy, hududiy, urf-odatlar va qadriyatlar birligi qatorida til birligiga alohida e'tibor qaratiladi. Shu davlat hududida qaysi xalq vakillari ko'pchilik sonni tashkil etsa, o'sha

xalqning tili haqli ravishda davlat tili maqomiga ega bo'ladi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida rus tili, Amerika Qo'shma Shtatlarida ingliz tili, Germaniyada nemis tili, Fransiya fransuz tili, Kolumbiyada ispan tili, Braziliyada portugal tili, Eronda fors tili davlat tili maqomiga ega.

Biroq, davr, sharoit taqozosiga ko'ra ayrim mamlakatlarda ikki yoki undan ortiq tillar davlat tili sanalishi mumkin. Kanadada ingliz va fransuz, Pokistonda urdu va ingliz, Keniyada ingliz va fransuz, Tanzaniya va Ugandada suaxili va ingliz, Filippinda ingliz va filippin tillaridan teng foydalaniladi.

Angliyada ingliz, irland, shodland, Belgiyada fransuz, niderland, nemis, Shveysariyada nemis, fransuz, italyan, retoroman, Singapurda ingliz, xitoy, malay, tamil tillari rasmiy til maqomiga ega.

Janubiy Afrika Respublikasida 11ta til: ingliz, afrikans, venda, zulu, kosa, ndebele, svati, shimoliy soto, sesoto, tsvana, tsonga tillari rasmiy til sanaladi.

Dunyodagi ikkita davlatda o'zbek tili davlat tili maqomiga ega: O'zbekiston Respublikasi va Afg'onistonda.

Afg'onistonlik tadqiqotchi Muhammad Humoyun Nadimning yozishicha, bu yerdagi turkiy tilli elatlar *turknajot* yoki *turktaborlar* deb ataladi va ular mamlakat shimolidagi Turkiston va Qatag'on mintaqalarida joylashgan 9 ta viloyatda istiqomat qilishadi. Turkiston mintaqasiga Foryob, Juvuzjon, Saripul, Balx, Samangon; Qatag'on mintaqasiga Bag'lon, Qunduz, Taxxor va Badaxshon viloyatlari kiradi. Mazkur viloyatlarda yashovchi xalq tili, ya'ni o'zbek tili ingliz, urdu, pashtun, tojik tillaridan keyin 5-davlat tili sanaladi [Muhammad Humoyun Nadim, 2022: 49].

Bizga ma'lumki, hozirgi Markaziy Osiyo hududida qadimda Turon podsholigi, Turk hoqonligi, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmiylar davlatlari, Temuriylar saltanati, Buxoro amirligi,

Xiva va Qo'qon xonliklari hukm surgan. Ularning tarkibiga turli qabilalar, urug'lar, xalqlar kirgan va bitta davlat, bitta g'oya atrofida birlashgan. Mazkur davlatlarda arab, fors, turk, mo'g'ul tillari yetakchi mavqega ega bo'lgan. O'z navbatida, jamiyatning har bir ilg'or kishisi mazkur tillardan yetarlicha boxabar bo'lgan va o'zaro muloqotlarda, ish yuritishda aholi o'rtasida hech qanday muammo kelib chiqmagan. Boisi tillarning qo'llanishi va rivolanishi uchun bosh mezon adolat hamda lisoniy bag'rikenglik bo'lgan. Masalan, Amir Temur o'zining "Temur Tuzuklari" asarida qo'l ostidagi *barlos, tarxon, arg'un, jaloir, tarxon, arg'un, jaloir, tulkuchi, dulday, mo'gul, suldus, tug'oy, qipchoq, orlot, totor* kabi 40 aymoqni teng ko'rganini ta'kidlab shunday deb yozadi: "*Turk-u tojik, arab-u ajamning turli toifa va qabilalaridan bo'lgan va mening panohimga kirgan kishilarning ulug'lariga hurmat ko'rsatdim, qolganlarini ham o'z holiga yarasha siyladim. Yaxshilariga – yaxshilik qildim, yomonlarini esa o'z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do'stlik qilgan bo'lsa, do'stligi qadrini unutmadi va unga muruvvat, ehson, izzat-u ikrom ko'rsatdim*" [Amir Temur, 1991: 66].

Anglashiladiki, Amir Temur bunyod etgan ulkan saltanat hududida o'ziga yarasha lisoniy muhit hukm surgan. Muloqotlardagi to'siqlar haqida bizgacha hech qanday salbiy tarixiy ma'lumotlar yetib kelmagan. Ko'hna Turon, Turkistonda til borasida birov birovni kamsitmagan, muloqotlar jarayonida mahkam ushlangan azaliy qadriyatlar asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelgan. Buning natijasida Markaziy Osiyo hududida yashagan ko'p sonli el va elatlar o'rtasida til borasida birona ham janjal kelib chiqmagan. Turkiy til barcha turkiy qavmlarni bir yerga jipslashtirib, birlashtirib turuvchi bebaho ne'mat sifatida e'zozlanib kelingan.

XIX asrni 2-yarmiga kelib vaziyat boshqa tomonga o'zgardi. O'rta Osiyoni chor Rossiyasi harbiy kuch bilan egallab oldi. Til siyosatida yangi davr boshlandi. Rus tili yetakchilik mavqeiga o'tdi. Undan keyingi darajaga qo'yish uchun turkiy tilni ichidan parchalashga, jamiyatdagi mavqeini pasaytirishga zo'r berildi. Turkiy tillik elatlar yashaydigan hududlarni katta qiyinchiliklar bilan qo'lga kiritgan chor Rossiyasi va uning merosxo'ri sanalgan sovet hokimiyati uzoqni ko'zlab ish yuritdi: tarixan bitta, yagona bo'lgan turkiy xalqlarni bir nechta bo'laklarga bo'lib yuborishdi. 1924-1936-yillar oralig'ida dunyo xaritasida O'zbekiston, Qozog'iston,

Qirg'iziston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Tojikiston degan rasman qardosh, ammo amalda bir-biriga qarshi qo'yilgan sovet sotsialistik respublikalari paydo bo'ldi. Pirovard natijada avval yagona sanalgan turkiy til o'zbek tili, qozoq tili, qirg'iz tili, turkman tili, tatar tili, boshqird tili kabi 30ga yaqin tillarga bo'lib tashlandi. Bu harakatning bir tomonlama bo'lganligini shundan ham ko'rish mumkinki, 1924-yilgacha O'zbekiston Turkiston ASR, Qozog'iston va Qirg'iziston RSFSR tarkibida Qirg'iz va Qara Qirg'iz avtonom oblasti deb yuritilgan.

Yangi tashkil topgan respublikalarga nom berishda sovetlar o'z siyosatini o'tkazishdi. Tarixdan ma'lumki, 1918-yilning 30-aprelidan 1924-yilning 27-oktyabriga qadar sobiq ittifoq tarkibida faoliyat ko'rsatgan Turkiston avtonom respublikasini 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralashda Turkiston SSR deb nomlash har jihatdan ma'qul edi, ammo bu yerdagi aholini o'z tarixidan, o'zligidan uzoqlashtirish maqsadida 1920-yil o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish ma'lumotlarida eng katta sonni tashkil qilgan xalq nomiga ta'kid berishib O'zbekiston SSR deb nomlashdi. O'shanda Turkiston aholisining umumiy soni 5221963 nafarni tashkil etgan. Shundan, 2050775 nafarini o'zbeklar (41,3 foiz), 1091925 nafarini qozoqlar (18,8 foiz), 522292 nafarini qirg'izlar (10,0 foiz), 399912 nafarini tojiklar (7,7 foiz), 266681 nafarini turkmanlar (5,1 foiz), 75334 nafarini qoraqalpoqlar (1,4 foiz) tashkil etgan [<https://ru.wikipedia.org/wiki/>].

O'zbeklarning son jihatidan ustunligi yangi tuzilgan respublikani O'zbekiston SSR deb atashga imkon bergan. O'z-o'zidan maktab-maorif, ommaviy axborot vositalari, radio-televideniye va rasmiy ish yuritish qog'ozlari o'zbek tilida amalga oshirila boshlandi.

O'zbek tilini davlat tili sifatidagi mavqeini mustahkamlashda o'sha davrda faoliyat ko'rsatgan jadidlar: Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy va ulardan so'ng o'zbek adabiyotining yalovbardorlariga aylangan Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Zulfiya kabi ijodkorlarning o'rni katta bo'ldi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, O'tkir Hoshimov kabi zamondosh yozuvchi va shoirlarning o'zbek tilini davlat tili sifatida o'z mavqeini saqlab qolishda fidoiylilik ko'rsatganlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Atoqli yozuvchi Abdulla Qodiriyning "O'zbek tili kambag'al emas, balki o'zbek tilini kambag'al

deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar" degan gapi fikrimizning yorqin isbotidir.

Demak, muayyan tilning rivoji va taraqqiysi uchun birinchi galda shu til amalda bo'lgan davlat hokimiyati hamda shu davlatda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolar birdek javobgar sanalar ekan. Davlat hududidagi asosiy tilning holati shu davlatning suverenitetidan, ichki va tashqi maydondagi nufuzidan, aholisining ma'naviy saviyasidan dalolat berib turarkan. Aslida ham, davlat – bu nafaqat hududiy, iqtisodiy makon va tranzit yo'lagi, balki madaniy makon, kommunikatsiyalar va yashash makonidir. Davlat xalqni, madaniy qadriyatlarni, tabiat va barcha tabiiy boyliklarni, insonlarni va inson huquqlarini asrash va himoya qilish maqsadida tashkil etiladi [Юло Бооглайд, 2023: 269-270].

Davlat o'z hududidagi milliy tillarni, birinchi galda o'zi ish yuritadigan asosiy tilni himoyasiga olib, me'yoriy-huquqiy jihatdan uning maqomini belgilab bergan taqdirdagina davlat suvereniteti namoyon bo'ladi, uning xalqaro maydondagi nufuzi ko'zga ko'rinadi.

Alohida ta'kidlab o'tish joiz, 1989-yilga qadar davlatimiz sobiq ittifoq edi. Shunga ko'ra butun ittifoqda va O'zbekistonda asosan, rus tilida ish ko'rilardi. Barcha ish yuritish hujjatlari, davlat tuzilmalaridagi tartibot-tashviqot ishlari, majlislar, yig'ilishlar, uchrashuvlar rus tilida olib borilardi. Ayniqsa, mamlakatlar va davlatlar bilan xalqaro aloqalar, diplomatik munosabatlar faqat rus tili orqali amalga oshirilardi. O'zbek tili ittifoq tarkibiga kirgan 150dan ortiq xalqlar, millatlarning tillaridan biri sifatida rus tiliga qaram tillardan biri edi. Ish hatto shu darajaga borib yetgan ediki, 1981-yilda chop etilgan 2 jildlik

"O'zbek tilining izohli lug'ati" ham Moskvada "Русский язык" nashriyotida chop etilgandi. Bir tomondan olib qargalganda, bunga ajablanmasa bo'lardi, chunki davr shuni talab qilardi. Hamma shu qonun-qoidaga bo'ysunishga majbur edi.

Dunyoni larzaga solgan 80-yillar o'rtasidagi "qayta qurish" siyosati o'zbek millatini ham g'aflet uyqusidan uyg'otdi... O'zbek xalqi o'z tarixi, qadriyatlari, milliy o'zligini ona tilimiz timsolida ko'rdi va mustaqillik uchun kurashning ilk harakatlarini o'zbek tiliga davlat tili maqomini olish uchun boshladi. O'zligini topgan, yuragida xalq, millat dardi uyg'ongan insonki bo'lsa, bari o'zbek tili atrofida birlashdi, jipslashdi. Ona tilimiz millat tug'i, millat nishoniga aylandi (!)

Xalqimizning qat'iy irodasi, matonati, talabi, sabr-bardoshi bilan 1989-yilning 21-oktabr kuni o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishiga erishildi. Bu tariximizga zarhal harflar bilan yozib qo'yishga arzigulik ulkan yutuq, olamshumul hodisa edi.

Bugun O'zbekiston "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" shiori ostida o'z taraqqiyotining Uchinchi Renessansiga dadil qadam qo'ydi. U o'zining Davlat bayrog'iga, Davlat Gerbiga va Davlat Madhiyasiga ega bo'lgan va dunyodagi 200dan ortiq mamlakatlar ichida munosib o'rin topib borayotgan davlatlardan biri sifatida tanildi. O'zbek tilining jamiyatimizda tutgan o'rni bosh qomusimizda alohida moddada belgilab qo'yildi: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir" [<https://constitution.uz/uz/clause/index>].

Hamma gap mana shu maqomni saqlab qolishga, uni har xil balo-qazolardan himoya qilishga va uning sha'ni, obro'si uchun muntazam kurashishga borib taqaladi.

Zero, o'zbek tili kelajagi uchun hammamiz birdek mas'ulmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 4-jild. Darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. 336-b.
2. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. 700-b.; Shukurov A. "O'zbek atamasining kelib chiqishi haqida". – Qarshi: Nasaf, 2010. 68-b.
3. Muhammad Humoyun Nadim. Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari to'y marosimi etnografizmlarining tizimiy va leksikografik xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss...avtorefati – Termiz, 2022. 49-b.
4. Тему́р тузу́клари. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 1991. 66-б.
5. Юло Бооглайд. Ватандошлик дастури. – Тошкент: Азон китоблари нашриёти, 2023. 259-260-б.
6. <https://constitution.uz/uz/clause/index>.
7. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.
8. <https://kh-davron.uz/dir/kutubxona/uzbek/ona-tili>.

Surayyo RAXIMOVA,
*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va
mutaxassislarini qayta tayyorlash va
ularning malakasini oshirish instituti
“Maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedrası mudiri*

DIREKTOR O'RINBOSARINING KASBIY RIVOJLANISHI VA UNING TA'LIM TASHKILOTI SAMARADORLIGIDAGI ROLI

Annotatsiya: maqolada direktor o'rinbosarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy menejment yondashuvlarini o'zlashtirish, pedagogik jamoani boshqarish, innovatsion loyihalarni joriy etish hamda sifat monitoringi tizimini yo'lga qo'yish orqali ta'lim tashkiloti faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, rahbar kadrlarning doimiy malaka oshirishi, mentorlik va kouching usullaridan foydalanish, natijaviylik va javobgarlikni kuchaytirishning ijobiy ta'siri ilmiy asosda ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: *direktor o'rinbosari, tashkiliy vazifalar, metodik vazifalar, nazorat, monitoring, tashabbuskorlik, innovatsion vazifalar, metodik rahbarlik, kompetensiya, boshqaruv.*

Аннотация: тема “Профессиональное развитие заместителя директора и его роль в обеспечении эффективности деятельности образовательной организации” является актуальной в повышении эффективности управления дошкольными образовательными организациями. В статье анализируются возможности более эффективной организации деятельности образовательной организации за счет развития профессиональных компетенций заместителя директора, освоения современных подходов к менеджменту, управления педагогическим коллективом, реализации инновационных проектов, создания системы мониторинга качества. Научно доказано также положительное влияние непрерывного профессионального развития управленческого персонала, использования методов наставничества и коучинга, повышения эффективности и ответственности. Данные подходы способствуют обеспечению качественного образовательного процесса и повышению эффективности деятельности дошкольных образовательных организаций.

Ключевые слова: *заместитель директора, организационные задачи, методические задачи, контроль, мониторинг, инициатива, инновационные задачи, методическое руководство, компетентность, управление.*

Annotation: the topic “Professional development of the deputy director and his role in the effectiveness of the educational organization” is a relevant issue in improving the effectiveness of management of preschool educational organizations. The article analyzes the possibilities of more effectively organizing the activities of an educational organization by developing the professional competencies of the deputy director, mastering modern management approaches, managing the pedagogical team, implementing innovative projects, and establishing a quality monitoring system. The positive impact of continuous professional development of management personnel, the use of mentoring and coaching methods, and increased effectiveness and accountability is also scientifically demonstrated. These approaches serve to ensure a quality educational process and increase efficiency in preschool educational organizations.

Key words: *deputy director, organizational tasks, methodological tasks, control, monitoring, initiative, innovative tasks, methodological leadership, competence, management.*

Ta'lim sifatini ta'minlashda rahbar kadrlarning professional hamda metodik tayyorgarligi alohida ahamiyatga ega. Jon Dyuy ta'limni “tajriba va mulohazaning uzluksiz rekonstruksiyasi” sifatida ta'riflab, faqat doimiy o'quv va tajriba orqali taraqqiyotga erishilishini ta'kidlagan [2]. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlari va ularning o'rinbosarlari doimiy ravishda o'z bilim hamda ko'nikmalarini oshirib borsagina, ta'lim tashkiloti natijalari yaxshilanadi. Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda rahbar kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2024-yildagi PQ-231-son qarorida maktabgacha va maktab ta'limi

muassasalari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini ta'minlash va rahbar-pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini muntazam oshirib borish vazifasi belgilangan. Shu bilan birga, mazkur hujjatda Prezident maktablarida to'plangan ilg'or tajribalarni umumta'lim maktablariga tatbiq etish orqali rahbar xodimlarning kasbiy malakasini oshirish maqsad qilingan. Bundan tashqari, 2024-yil 30-sentyabrdagi PF-152-son Farmon va 2024-yil 8-fevraldagi PQ-65-son qaror ham ta'lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo'lib, ularda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga oid chora-tadbirlar belgilangan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-sentabrdagi 531-son qaroriga muvofiq,

maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori lavozimiga nomzodlar uchun majburiy menejerlik o'quv kurslarini tamomlash talabi joriy etilgan bo'lib, bu ham ta'lim tashkilotlari rahbarlari uchun kasbiy rivojlanishning dolzarb ekanidan dalolat beradi. Keltirilgan me'yoriy hujjatlar mazmuni mazkur masalaning dolzarbligini ko'rsatadi va direktor o'rinbosarlarining kasbiy rivojlanishi ta'lim tashkiloti samaradorligida hal qiluvchi omil bo'lib borayotganini asoslaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida direktor o'rinbosari o'ziga xos ko'p qirrali kasbiy rolni bajaradi. U bir vaqtning o'zida ham boshqaruvchi, ham nazoratchi, ham tashabbuskor lider sifatida, shuningdek, pedagog jamoasiga metodik yordam ko'rsatish bo'yicha faoliyat yuritadi. Direktor o'rinbosari o'z vazifalari doirasida tashkiliy ishlaridan tortib metodik rahbarlikka, ichki nazoratdan tortib innovatsion loyihalargacha bo'lgan keng qamrovli masalalar uchun mas'uldir. Quyida direktor o'rinbosarining asosiy vazifalari toifalar bo'yicha bayon etilgan:

- **Tashkiliy vazifalarda** direktor o'rinbosari ta'lim tashkilotining kundalik ish faoliyatini tashkillashtiradi. Boshqaruvning tashkiliy jihatlarini puxta yo'lga qo'yish orqali u tashkilotning barqaror ishlashini ta'minlaydi.
- **Metodik vazifalarda** direktor o'rinbosari ta'lim sifati uchun javobgar shaxs sifatida pedagogik jamoaning metodik taraqqiyotini ta'minlaydi.
- **Nazorat va monitoring vazifalarda** direktor o'rinbosari mashg'ulotlarni kuzatadi, pedagoglarning tayyorgarligi va o'tkazish mahoratini baholaydi.
- **Tashabbuskorlik va innovatsion vazifalarda** zamonaviy ta'lim tashkilotida direktor o'rinbosari faqat ijro etuvchi emas, balki tashabbuskor rahbar ham bo'lishi kerak.
- **Metodik rahbarlik** o'z navbatida tarbiyachilarning kasbiy o'sishini rag'batlantiradi. MTT direktor o'rinbosari tarbiyachilar uchun metodik seminarlar, ko'rgazmali ta'limiy faoliyatlar tashkil etib, ularni zamonaviy metodlar bilan tanishtirishi, kasbiy kompetensiyalarini doimiy yangilab borishi zarur.
- **Nazorat vazifasi** ta'lim jarayonining umumiy sifati, davlat talablariga muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan. Bu vazifa ijrosida bolalar rivojlanishini

muntazam kuzatish, kuzatuvlar, rejalarni tahlil qilish, natijalar asosida fidbek berish muhimdir.

Tashabbuskorlik va innovatsion faoliyat esa direktor o'rinbosarining strategik fikrlashi, yangilik kiritish qobiliyati va loyiha boshqaruvi salohiyati bilan bog'liq. Zamonaviy MTTlarda "yangi resurslar joriy etish" va "texnologik yangilanish" kabi jarayonlar innovatsiya hisoblanadi.

Zamonaviy boshqaruvda **"kompetensiya"** tushunchasi muayyan kasb yoki vazifani samarali bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlarning majmuasi sifatida ta'riflanadi. Ya'ni, kompetensiya bu – shaxsning o'ziga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli ado etish imkonini beradigan integrativ xususiyatlar to'plamidir. Pedagogik boshqaruv sohasida kompetent rahbar kadr ta'lim jarayonini to'g'ri yo'naltirish, jamoani uyushtira olish, resurslarni boshqara olish va innovatsiyalarni joriy etish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

- **Strategik boshqaruv kompetensiyasi:** rahbar shaxsning ta'lim tashkiloti rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, aniq maqsad va vazifalar qo'ya olish, resurslarni strategik rejaga muvofiq taqsimlay olish qobiliyatini qamrab oladi.
- **Refleksiya (tahliliy tahlil) kompetensiyasi:** bunda rahbarning o'z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qila olishi, xatolaridan saboq chiqarishi va o'zi hamda jamoasi uchun xulosalar qilishi nazarda tutiladi.
- **Yetakchilik kompetensiyasi:** bu kompetensiya jamoani boshqara olish, xodimlarni rag'batlantirish, ularga ilhom bag'ishlay olish hamda samarali rahbarlik uslublarini qo'llay olish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.
- **Muloqot va hamkorlik kompetensiyasi:** bunda rahbarning samarali kommunikatsiya o'rnatish, turli manfaatdor tomonlar (pedagoglar, tarbiyalanuvchilar, ota-onalar, mahalliy hamjamiyat) bilan hamkorlikni yo'lga qo'ya olishi nazarda tutiladi.
- **Innovatsion yo'nalish va o'zgarishlarni boshqarish kompetensiyasi:** bu kompetensiya zamonaviy texnologiya va yondashuvlarni qabul qilishga tayyorlik, yangicha g'oya va usullarni tatbiq eta olish, o'zgarishlarni samarali boshqara bilishni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori. "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". – lex.uz, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmoni. "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". – lex.uz, 2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi – 2030: "Sifatli maktabgacha ta'limni berish asoslaridan biri boshqaruv va pedagog kadrlarni tayyorlash darajasi va ularning professionalizmi hisoblanadi". (PQ-4312-son, 2019).
4. Temirov A.A. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini innovatsion yondashuvlar asosida boshqarishni takomillashtirish". – Ta'limda menejment yo'nalishi bo'yicha PhD dissertatsiya. – Toshkent, 2024.

Sulaymon XAYDAROV,
“University of management and future technologies”,
Raqamli iqtisodiyot fakulteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, PhD
Email: haydarov_sulaymon82@mail.ru

OILAVIY TARBIYADA VA MAKTAB TARBIYASIDA YUZAGA KELADIGAN RISKLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada globallashuv sharoitida yoshlarning tarbiyasida muhim o‘rin tutuvchi oila va maktab muhitida yuzaga keladigan pedagogik risklar tahlil qilindi. Oilaviy tarbiyada nazoratning susayishi, oilaviy nizolar, moddiy qiyinchiliklar va qadriyatlarga befarqlik asosiy xavf omillari sifatida yoritildi. Maktab muhitida esa zo‘ravonlik, o‘quv jarayonining haddan tashqari akademiklashuvi, o‘qituvchilarning psixologik tayyorgarligi yetarli emasligi, texnologiyalardan noto‘g‘ri foydalanish va maktab-oila hamkorligining sustligi kabi risklar ko‘rib chiqildi. Shuningdek, maqolada ushbu xavflarni boshqarish yo‘llari, jumladan, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, maktab muhitini ijobiylashtirish, psixologik-pedagogik xizmatlarni kuchaytirish va milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishning ahamiyati nazariy jihatdan asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, tarbiya, pedagogik risk, oilaviy muhit, maktab muhiti, yoshlar, zo‘ravonlik, qadriyatlar, tarbiyaviy xavflar, boshqaruv mexanizmlari.

Annotation: this article analyzes pedagogical risks arising in the family and school environment, which play an important role in the upbringing of young people in the context of globalization. In family education, the weakening of parental control, family conflicts, financial difficulties, and indifference to values are highlighted as the main risk factors. In the school environment, issues such as violence, excessive academization of the learning process, insufficient psychological preparedness of teachers, misuse of technologies, and weak cooperation between school and family are examined. The article also theoretically substantiates ways of managing these risks, including raising the pedagogical culture of parents, improving the school environment, strengthening psychological and pedagogical services, and emphasizing the importance of education based on national values.

Key words: globalization, education, pedagogical risk, family environment, school environment, youth, violence, values, educational risks, management mechanisms.

Аннотация: в данной статье анализируются педагогические риски, возникающие в семье и школьной среде, которые играют важную роль в воспитании молодежи в условиях глобализации. В семейном воспитании основными факторами риска выделены ослабление контроля, семейные конфликты, материальные трудности и равнодушие к ценностям. В школьной среде рассматриваются такие риски, как насилие, чрезмерная академизация учебного процесса, недостаточная психологическая подготовка учителей, неправильное использование технологий и слабое сотрудничество семьи и школы. В статье также теоретически обоснованы пути управления данными рисками, включая повышение педагогической культуры родителей, улучшение школьной среды, усиление психолого-педагогических служб и важность воспитания на основе национальных ценностей.

Ключевые слова: глобализация, воспитание, педагогический риск, семейная среда, школьная среда, молодежь, насилие, ценности, воспитательные риски, механизмы управления.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida yosh avlod tarbiyasi masalasi dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi tezkor axborot oqimi, texnologik yangiliklar, turli madaniyatlarning keskin aralashuvi va qadriyatlar tizimining o‘zgarishi

bilan tavsiflanadi. Bu jarayonlar bir tomondan yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan ularning tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatuvchi yangi risklarni yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, oila va maktab yosh shaxsning shakllanishida eng muhim ijtimoiy institutlar sifatida

nafaqat ta'lim-tarbiyaning mazmunini, balki uning xavfsizligini ham ta'minlash vazifasini bajaradi. Oila – bolaning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti bo'lib, unda dastlabki axloqiy me'yorlar, qadriyatlar va dunyoqarash shakllanadi.

Maktab esa yoshlarni kengroq ijtimoiy muhit bilan bog'laydigan, ta'lim va tarbiya jarayonini tizimli ravishda olib boradigan asosiy ijtimoiy institutdir. Shu bilan birga, maktab muhitida ham tarbiyaviy risklar mavjud: o'quvchilarning bir-biriga nisbatan zo'ravonligi, o'qituvchilarning yetarli psixologik tayyorgarlikka ega emasligi, ta'limning haddan tashqari akademik yo'nalishga qaratilishi va internet texnologiyalaridan noto'g'ri foydalanish yoshlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishida muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda (Bronfenbrenner, 1979; Olweus, 1993; Epstein, 2001) qayd etilishicha, bola tarbiyasi faqat alohida muhitga emas, balki oilaviy, maktab va ijtimoiy omillar tizimiga bog'liqdir. Demak, tarbiyadagi risklarni kamaytirish uchun oilaviy va maktab muhitida yuzaga keladigan muammolarni kompleks tarzda o'rganish va boshqarish zarur. Bu esa o'z navbatida zamonaviy pedagogika fanidan yangi yondashuvlarni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligini, shuningdek, oilaviy-maktab hamkorligining mustahkamlanishini talab qiladi.

Oilaviy tarbiyada yuzaga keladigan risklar

Oilaviy tarbiya bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Insonning ilk axloqiy qarashlari, odatlari, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlari aynan oilada shakllanadi. Shu bois, oilaviy muhitdagi ijobiy yoki salbiy omillar bola tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda globallashuv, migratsiya, iqtisodiy o'zgarishlar va zamonaviy kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi oilaviy tarbiyaga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu jarayonlar oilaviy tarbiyada turli pedagogik risklarni yuzaga keltiradi.

Birinchidan, ota-onalarning bandligi va nazoratning susayishi muhim risklardan biridir. Ko'plab oilalarda ota-onalar moddiy ta'minot bilan shug'ullanishga ko'proq vaqt sarflab, farzandlari bilan muloqot qilishga yetarli vaqt ajratolmaydi. Natijada, bolalarning kunlik faoliyati, axborot manbalari va do'stlari ustidan nazorat zaiflashadi. Bu esa yoshlarni internetdagi zararli axborotlar,

g'ayriqonuniy guruhlar va salbiy ta'sir ko'rsatadigan doiralarga berilish ehtimolini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, oilaviy nizolar va psixologik muammolar bola tarbiyasida sezilarli risk hisoblanadi. Ota-onalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi doimiy janjal yoki befarqlik bolalarda stress, qo'rquv, ishonchsizlik, hatto agressiv xulq shakllanishiga sabab bo'ladi. Psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, bolalar ko'pincha oilaviy nizolarning bevosita guvohi yoki ishtirokchisi bo'lganida, ularning ijtimoiylashuv jarayoni buziladi va ruhiy barqarorligi izdan chiqadi.

Uchinchidan, moddiy qiyinchiliklar oilaviy tarbiya samaradorligini pasaytiruvchi muhim omillardandir. Daromadi past bo'lgan oilalarda bolalarning ta'lim olish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi, qo'shimcha mashg'ulotlar yoki rivojlantiruvchi resurslardan foydalanish imkoniyati kamayadi. Bundan tashqari, iqtisodiy qiyinchilik ota-onalarda asabiylikni kuchaytirib, oilaviy muhitni taranglashtiradi.

Shunday qilib, oilaviy tarbiyada yuzaga keladigan risklar ko'plab omillar bilan bog'liq bo'lib, ular bolaning ma'naviy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishida chuqur iz qoldiradi. Bunday xavflarni kamaytirish uchun ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, oilada sog'lom psixologik muhit yaratish, farzandlar bilan muntazam muloqot olib borish va milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tizimini rivojlantirish zarur.

Maktab tarbiyasida yuzaga keladigan risklar

Maktab yoshlarning ta'lim olishi, ijtimoiylashuvi va ma'naviy-axloqiy shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. U nafaqat bilim berish, balki shaxsning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirishi va xulq-atvorini shakllantirishda muhim ijtimoiy institutdir. Shu bilan birga, maktab muhitida ham ayrim pedagogik risklar mavjud bo'lib, ular tarbiya jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, o'quvchilarning o'zaro munosabatlaridan kelib chiqadigan xavflar mavjud. So'nggi yillarda ko'plab mamlakatlarda, jumladan, bizning hududimizda ham maktab zo'ravonligi (bullying) jiddiy muammoga aylangan. Bu holat nafaqat jismoniy tazyiq, balki kamsitish, masxara qilish, ijtimoiy izolyatsiya yoki kiberzo'ravonlik shaklida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabda muntazam zo'ravonlikka

uchragan o'quvchilarda o'ziga ishonchsizlik, past o'zini baholash, hatto depressiya va tajovuzkor xulq kuzatiladi.

Ikkinchidan, pedagogik jarayonning haddan tashqari akademik yo'nalishga qaratilishi ham risk manbai hisoblanadi. Ko'plab maktablarda o'quv dasturlarining mazmuni nazariy bilimlarga ortiqcha yuklama beradi, biroq tarbiyaviy jihatlar, ya'ni shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Natijada, yoshlarning ijodkorlik qobiliyati, ijtimoiy faolligi va mustaqil fikrlashi rivojlanmay qolishi mumkin.

Uchinchidan, o'qituvchilarning yetarli pedagogik va psixologik tayyorgarlikka ega emasligi tarbiya samaradorligiga ta'sir etadi. Har bir bola o'ziga xos qiziqish va ehtiyojlarga ega. Agar pedagoglar individual yondashuvni qo'llay olmasa yoki tarbiyaviy vazifalarga e'tiborsiz bo'lsa, bu o'quvchilarda o'qishga bo'lgan motivatsiyaning pasayishiga, intizomning sustlashishiga olib keladi. Shunday qilib, maktab tarbiyasida yuzaga keladigan risklar xilma-xil bo'lib, ular o'quvchilarning ruhiy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu xavflarni kamaytirish uchun pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish, maktab muhitini ijobiylashtirish, zo'ravonlikka qarshi samarali

mexanizmlarni joriy etish, texnologiyalardan oqilona foydalanish hamda maktab va oila hamkorligini mustahkamlash zarur.

Xulosa. Oilaviy va maktab tarbiyasida yuzaga keladigan risklar yoshlarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiylashuv jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oiladagi nizolar, nazoratning sustligi, moddiy qiyinchiliklar yoki qadriyatlarga befarqlik bolaning ma'naviy va ruhiy barqarorligini izdan chiqaradi. Xuddi shuningdek, maktab muhitida kuzatiladigan zo'ravonlik, akademik yuklamaning ortiqchiligi, pedagoglarning psixologik tayyorgarligining pastligi va texnologiyalardan bevosita nazoratsiz foydalanish tarbiya jarayonida salbiy oqibatlariga olib keladi.

Mazkur risklarni samarali boshqarish uchun kompleks yondashuv zarur. Bunda oila va maktabning hamkorligi, psixologik-pedagogik xizmatlarning kuchaytirilishi, otionalarning pedagogik savodxonligini oshirish, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiya jarayonidagi xavflarni erta aniqlash va ularni kamaytirish choralari yoshlarning sog'lom, barkamol va ijtimoiy faol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bronfenbrenner, U. (1979). *The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design*. Harvard University Press.
2. Coleman, J. (1998). *Social Capital in the Creation of Human Capital*. American Journal of Sociology, 94.
3. Epstein, J. L. (2001). *School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools*. Westview Press.
4. Grych, J. H., & Fincham, F. D. (1990). *Marital conflict and children's adjustment: A cognitive-contextual framework*. Psychological Bulletin, 108(2), 267–290.
5. Livingstone, S., & Helsper, E. J. (2008). *Parental mediation of children's internet use*. Journal of Broadcasting & Electronic Media, 52(4), 581–599.
6. Olweus, D. (1993). *Bullying at School: What We Know and What We Can Do*. Blackwell Publishing.
7. Rosen, L. D., Lim, A. F., Carrier, L. M., & Cheever, N. A. (2013). *An empirical examination of the educational impact of text message-induced task switching in the classroom*. Educational Psychology, 33(7), 776–792.
8. Mamarasulov, A. (2020). *Oila pedagogikasi*. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
9. Qodirova, F., & Yo'ldosheva, S. (2019). *Pedagogika*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
10. Karimov, I. A. (1998). *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat.
11. UNESCO (2015). *Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action*. UNESCO Publishing.



TILSHUNOSLIK



Moxigul ASRONOVA,
Andijon davlat universiteti dotsenti
filologiya fanlari doktori (DSc)

TIBBIY NUTQNING TUZILISHI: LEKSIK VA SINTAKTIK O'ZIGA XOSLIKLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada tibbiy nutq, xususan, tibbiy ilmiy-ommabop matnlarning grammatik xususiyatlari keng tahlil etiladi. Tibbiy matnlar tilining asosiy belgilari sifatida otlarning fe'llarga nisbatan miqdoriy ustunligi, shuningdek, mazkur matnlarda sodda va murakkab sintaktik tuzilmalarning o'ziga xos qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Tibbiy leksikada qo'llaniladigan terminlar, atamalar va kasbiy iboralarning sintaktik tizimdagi roli ham tahlil etilib, ularning gap qurilishiga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: *tibbiy nutq, tibbiy ilmiy-ommabop matn, hissiy bo'yoqdorlik, perifrAZ.*

Аннотация: в данной статье подробно анализируются особенности медицинской речи, в частности грамматические характеристики медицинских научно-популярных текстов. Рассматриваются такие основные признаки языка медицинских текстов, как количественное преобладание существительных над глаголами, а также своеобразное использование простых и сложных синтаксических конструкций в этих текстах. Также анализируется роль используемых в медицинской лексике терминов, понятий и профессиональных выражений в синтаксической системе и их влияние на построение предложений.

Ключевые слова: *медицинская речь, медицинский научно-популярный текст, эмоциональная окрашенность, перифраз*

Annotation: this article provides a comprehensive analysis of medical speech, particularly the grammatical features of popular scientific medical texts. It examines key characteristics of medical language, such as the quantitative dominance of nouns over verbs, as well as the specific use of simple and complex syntactic structures in such texts. The role of terms, concepts, and professional expressions used in medical vocabulary is also analyzed, highlighting their impact on sentence structure.

Key words: *medical speech, popular scientific medical text, emotional coloring, perifrAZ*

Tibbiy ilmiy matnlarning leksik tarkibi, eng avvalo, so'zlarning o'z ma'nosida yoki maxsus terminologik kontekstda qo'llanishi bilan ajralib turadi. Bunday matnlarda, odatda, kitobiy uslubga xos bo'lgan so'zlar ustuvorlik qiladi, xalq og'zaki nutqiga yoki badiiy uslubga oid leksik birliklar esa deyarli qo'llanilmaydi. Bu holat ilmiy matnning rasmiyligi, aniq ifoda va lo'ndalik talablariga to'la mos keladi. Terminlarning to'g'ri va aniq tanlanishi esa axborotni chalkashliksiz yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Tibbiy ilmiy-ommabop matnlarning grammatik tuzilishi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, bu turdagi matnlarda otlar fe'llarga nisbatan sezilarli darajada ko'proq qo'llanadi. Bunday yondashuv matnga obyektivlik baxsh etadi va voqelikni tavsiflashda muallifga betaraf, analitik pozitsiyani saqlab qolish imkonini beradi.

Ayniqsa, **passiv konstruksiyalar** (masalan, "was administered", "was observed") va **shaxssiz fe'l shakllari** (masalan, "it was found", "it is known") keng ishlatiladi. Bu uslubiy tanlov axborotni taqdim etishda muallifning subyektiv fikrini emas, balki ilmiy holatni ko'rsatishga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonlar tizimida **Present Simple**, **Past Simple** va **Present Perfect** zamonlariga alohida ustunlik berilishi kuzatiladi. Ayniqsa, **Simple** zamonlar guruhi (masalan, *we analyzed – biz tahlil qildik, we identified – biz aniqladik, we advise – biz maslahat beramiz*) ilmiy matnlarning asosiy vazifasi, ya'ni ma'lumotni aniq, sodda va tushunarli shaklda auditoriyaga yetkazish talabiga javob beradi. **Present Perfect** zamoni esa ko'pincha erishilgan ilmiy natijalarni bayon qilishda qo'llaniladi, bu esa o'rganilgan jarayonlarning hozirgi holat bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tibbiy ilmiy-ommabop matnlar o'zining leksik va grammatik soddaligi bilan birga, ilmiy aniqlik va mantiqiy tuzilmani saqlagan holda, keng auditoriyaga mo'ljallangan axborot vositasi sifatida xizmat qiladi.

Bunday matnlarning yana bir grammatik xususiyati terminlar bilan bog'liq: nolisoniy sabablarga ko'ra, mavhum tushunchalarni bildiruvchi ba'zi atamalar ikkala son ko'rinishda (birlik va ko'plik) qo'llanadi, shu bilan birga ularning lug'aviy ma'nosi o'zgarmaydi.

Ingliz tilidagi ilmiy-ommabop matnlar keng o'quvchilar ommasiga uchun mo'ljallanganligi sababli ifodalilik, ifodaning soddaligi va ishonchiligi xususiyatlariga ega. Ilmiy-ommabop matnlarning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) ilmiy ma'lumotlar batafsil beriladi;
- 2) ko'p sonli atamalardan foydalaniladi;
- 3) aniq hisob-kitob, ko'p sonli ilmiy

faktlardan tashkil topadi.

Gaplarning sintaktik qurilishi tibbiy ilmiy matnga nisbatan ancha soddaga va tavsiflovchi xarakterga ega. Leksik vositalardan frazeologik birliklarning ham qo'llana olishi bilan ajralib turadi. Masalan: try to fit some regular exercise into your daily routine, to match one's abilities.

Y.N.Sherbakova to'g'ri ta'kidlaganidek, tibbiy ilmiy-ommabop matnning uslubi hissiy bo'yoqdorlikka ega bo'lishi mumkin, u mutaxassis va bemor o'rtasidagi o'ziga xos dialog shaklida bo'ladi. Masalan:

1. Just be cautious, warns Dr. Jackson. "They can be drying and make you more sun-sensitive." Start slowly and use a pea-sized amount, she suggests.

2. To protect your eyes from the sun: Wear a hat with a wide brim. Buy sunglasses that block 99 percent of UVA and UVB.

3. Guidelines and Supporting Key Recommendations of the 2015-2020 Dietary: Limit calories from added sugars and saturated fats and reduce sodium intake.

4. Key Recommendations: A variety of vegetables from all of the subgroups Grains, at least half of which are whole grains Fat-free or low-fat dairy, including milk, yogurt, cheese, and fortified soy beverages[1].

Tibbiy ilmiy-ommabop matnlarda quyidagi hissiy bo'yoqdor yoki perizrazlar uchraydi: «one's best bet for a long life», «grandma's favorite cure-all» (perifraz, tovuq sho'rva), «a lousy situation», «brain-robbing disease» (perifraz, Alsgeymer kasalligi). Rohatlanish/norozilik, faxrlanish, hayrat, ikkilanish, qiziqish kabi hissiy holatlar ifodalanadi. Masalan:

1. It is disappointing, but not entirely surprising, to record that in this study only 50% of abortions...

2. Unfortunately, the activity of a single agent is limited, with only a few drugs showing a response rate > 10%.

3. The HDL undoubtedly went up but,...

4. ... even more striking were the observations in 1995 by Dr. Lawrence Mass. It is gratifying to note...

5. This observation is of particular interest as the enzyme contributes not only to PGD2 production but also to formation of the downstream cyclopentenone prostaglandin.

6. Viscum Fraxini-2 in our study showed encouraging results and...[1]

Tibbiy ilmiy nutqning uslubi aniqlik va hissiy bo'yoqdorlikdan xoli ekanligi bilan izohlanadi. Ilmiy nutqda bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar, majhul nisbat, ravishdosh va sifatdoshli qurilma, aniqllovchili birlikmalarning qo'llanishi bilan xarakterli: To evaluate trends in chronic kidney disease related to diabetes or to glomerulonephritis, we used two resources – one that tracks hospitalized persons and another that tracks the general population in China.

Tibbiy nutq leksikasi, umuman olganda, tarmoqlanuvchi terminlar tizimiga ega. Bu tizim umumiste'mol leksika va maxsus leksika (atama) ni qamrab oladi:

– bemorning shaxsi, yashash joyi va aloqa ma'lumotlarini aniqllovchi birliklar: name, patient ID, birth date, gender, status, race, contact by, address, home phone, office phone, email;

– tibbiy terminologiya: insomnia, allergy, depression, anxiety, mental disturbance, anemia, bleeding disorders, diabetes, blood pressure, pulse rate, temperature, flu vax;

– attributiv konstruktsiya: history of present

illness, pulse rhythm, pulse rate, resp rate, eye exam, foot exam, problem list;

– katta hajmda qisqartmalar: EKG, CXR, LDL, HDL, TD booster, BP systolic, BP diastolic, LDH, ALK PHOS, HT, WT;

– sonli birikmalar: height – 64, weight – 140, pulse rate – 72, calcium – 9.6 mg/dl, sodium – 135 mmol/l[2].

Tibbiy ilmiy va ilmiy-ommabop matnlarda sintaktik tuzilma ham o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Ushbu matnlarda mantiqiy izchillik, axborotning ixcham va aniq ifodalanishi asosiy talab bo'lganligi sababli, ba'zi sintaktik konstruksiyalar keng qo'llanadi.

Eng avvalo, **imperativ (buyruq shaklidagi) gaplar** tibbiy qo'llanmalar, yo'riqnomalar va tavsiyalar berilgan matnlarda juda keng tarqalgan. Bunday gaplar, odatda, bemorga yoki tibbiy xodimga aniq va lo'nda ko'rsatmalar berish uchun ishlatiladi.

Masalan: *"Mix to make powder, divide into thirty equal doses."*

"Directions for use: one sachet to be taken at bedtime."

"For pain, one pill four times a day by mouth."

Bu kabi gaplar, odatda, **fe'l bilan boshlanadi** va to'g'ridan to'g'ri harakatni bajarish buyrug'ini bildiradi, shu bilan birga tibbiyotda xavfsizlik va aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim xususiyat – **uyushiq bo'lakli gaplar** va **sanaluvchi qismlarning** faol qo'llanilishidir. Bu turdagi gaplar tibbiy

yozuvlarda, ayniqsa, bemor holatini tasvirlashda, tezkor va tizimli axborot berish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Masalan: **Eyes:** *conjunctiva and lids normal, PERRLA, EOMI, fundi WNL*

Ears, Nose, Mouth, Throat: *TM clear, nares clear, oral exam WNL*

Skin: *clear, good turgor, color WNL, no rashes, lesions, or ulcerations*

Gastrointestinal: *denies abdominal pain, dysphagia, nausea, vomiting, diarrhea, constipation*

Bunday sintaktik tuzilma qisqa, mustaqil bo'laklardan tashkil topadi va ular mantiqiy birlikni tashkil etgan holda umumiy ma'lumotni ixcham shaklda beradi. Shuningdek, **so'z boshi qisqartmalar (masalan, PERRLA, EOMI, WNL)** sintaktik soddalik va tezkorlikni ta'minlaydi.

Ushbu sintaktik konstruksiyalar tibbiy yozuvlarda samarali aloqa o'rnatish, diagnostik holatni aniqlik bilan ifodalash hamda vaqt tejallishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, kasalxonada yuritiladigan kunlik epikrizlar, shifokor yozuvlari va konsultatsiya xulosalarida bu kabi gaplar keng qo'llaniladi[2].

Tibbiy nutqning tuzilishi uning aniq, ixcham va obyektiv axborot yetkazishga yo'naltirilgan leksik va sintaktik birliklari bilan ajralib turadi. Unda terminlarga boy leksika, otlarning ustunligi, passiv va shaxssiz konstruksiyalar hamda imperativ va uyushiq bo'lakli gaplarning faol qo'llanilishi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Щербакова Е.Н. Особенности реализации медицинского дискурса в масс-медийных текстах, посвященных развитию и здоровью детей: выпускная квалификационная работа. – Екатеринбург, 2018. 89 с. С. 46..

2. Косицкая Ф.Л., Матюхина М.В. Английский медицинский дискурс в сфере профессиональной коммуникации / Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 2017. 6 (183). С. 44-48.

3. Сидельникова Е.А. Газетно-публицистический экономический дискурс как самостоятельный тип дискурса // Гуманитарные и юридические исследования. 2017. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gazetno-publitsisticheskiy-ekonomicheskiy-diskurs-kak-samostoyatelnyy-tip-diskursa> (дата обращения: 30.07.2025)

Gulbahor TOJIYEVA,
 Filologiya fanlari doktori, professor

Maxliyo XOLMURATOVA,
 Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
 kholmuratovamaxliyo9656@gmail.com



QISHLOQ XO'JALIGI TURIZM TERMINOLOGIYASINING TARKIBIY QISMLARI VA MAVZUIY GURUHLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada qishloq xo'jaligi turizmi terminologiyasining shakllanishi, uning tarkibiy qismlari va mavzuiy guruhlariga ajratilishi masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy turizm industriyasida agroturizm tushunchasining o'ziga xos terminlari, ularning lingvistik va semantik xususiyatlari hamda xalqaro tajribadagi qo'llanishi yoritilgan. Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligi turizmini rivojlantirish jarayonida terminologik aniqlikning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi turizmi, agroturizm, terminologiya, lingvistika, mavzuiy guruhlar, turizm industriyasi, fermer xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, madaniy meros.

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы формирования терминологии сельскохозяйственного туризма, её структурные компоненты и тематическая классификация. Освещаются специфические термины агротуризма в современной индустрии туризма, их лингвистические и семантические особенности, а также применение в международной практике. Результаты исследования показывают важность терминологической точности в процессе развития сельскохозяйственного туризма.

Ключевые слова: сельскохозяйственный туризм, агротуризм, терминология, лингвистика, тематические группы, индустрия туризма, Туристическая индустрия, Фермерское хозяйство, Обслуживание, Культурное наследие.

Annotation: this article analyzes the formation of agricultural tourism terminology, its structural components, and thematic groupings. It highlights the specific terms of agritourism in the modern tourism industry, their linguistic and semantic features, as well as their use in international practice. The findings demonstrate the importance of terminological accuracy in the development of agricultural tourism.

Key words: agricultural tourism, agritourism, terminology, linguistics, thematic groups, tourism industry, Farm household, Hospitality services, Cultural heritage.

Kirish. So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi turizmi (agroturizm) jahon turizm industriyasida barqaror rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Ushbu turizm turi nafaqat qishloq joylarda iqtisodiy faoliyatni jonlantirish, balki aholining bandligini ta'minlash, hududiy resurslardan samarali foydalanish va milliy madaniyatni targ'ib qilishda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan qishloq xo'jaligi turizmi terminologiyasini ilmiy asosda o'rganish va tizimlashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi turizmi bo'yicha ishlatiladigan terminlar keng ko'lamni qamrab oladi: qishloq xo'jaligi faoliyatiga oid tushunchalar, xizmat ko'rsatish jarayoni, mehmondo'stlik, madaniy meros, ekologik omillar va marketing atamalari shular jumlasidandir. Terminlarning mazmun-mohiyatini aniq belgilash ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratibgina qolmay, balki amaliy faoliyatda yagona tushunchaviy yondashuvni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, agroturizm sohasida xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, terminlarning semantik o'ziga xosliklari va lingvistik farqlari mavjud. Masalan, ingliz tilida "agritourism", "farm tourism",

"rural tourism" kabi atamalar keng qo'llanilsa, ayrim mamlakatlarda ular turlicha talqin qilinadi. Milliy ilmiy adabiyotlarda esa ko'proq "qishloq xo'jaligi turizmi" va "agroturizm" atamalari ishlatiladi. Shu bois terminlarni tizimlashtirish va mavzuiy guruhlariga ajratish ilmiy, amaliy hamda lingvistik nuqtayi nazardan zarurdir.

Mazkur maqolada qishloq xo'jaligi turizmi terminologiyasining tarkibiy qismlari va mavzuiy guruhlariga tahlil qilinib, ularning xalqaro va milliy tajribadagi qo'llanilish xususiyatlari o'rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qishloq xo'jaligi turizmi terminologiyasini o'rganishda xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda bir qator nazariy va amaliy yondashuvlar mavjud. Xususan, xorijiy tadqiqotchilar qishloq turizmi va agroturizm tushunchalarini o'zaro farqlashga, ularning semantik qamrovi hamda amaliy tatbiqini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratishgan.

Phillip, Hunter va Blackstock (2010) o'z tadqiqotida agroturizmni turli tipologik ko'rinishlarda tahlil qilib, uni qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bevosita bog'liq turizm shakli sifatida izohlaydi. [1] Lane va Kastenholz (2015) esa qishloq turizmining barqaror rivojlanishdagi o'rnini ko'rsatib, uning terminologiyasini ekologik omillar bilan bog'liq holda talqin qiladi. [2] Shuningdek,

Sharqiy Yevropa va Lotin Amerikasi mamlakatlarida olib borilgan izlanishlarda agroturizm terminlari milliy madaniy an'analar bilan uyg'unlashtirib tushuntirilgani kuzatiladi (Silva & Leal, 2017).[3]

O'zbekiston va Markaziy Osiyo olimlarining tadqiqotlarida esa "qishloq xo'jaligi turizmi", "ekoturizm" va "agroturizm" tushunchalari ko'proq ishlatiladi. Karimov (2020) O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlarini o'rgangan bo'lsa, Tojiboyev (2021) agroturizmning hududiy rivojlanish omillarini tahlil qilib, terminologik yondashuvning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikka ta'sirini ko'rsatib o'tadi.[4,5]

Lingvistik adabiyotlarda esa terminlarning semantik va morfologik xususiyatlari tadqiq etilib, turizm sohasidagi terminlarning milliy tillarga moslashuvi masalalari ko'tarilgan. Masalan, G'arb adabiyotida "farm tourism" yoki "rural tourism" atamaları ishlatilsa, o'zbek tilida ular "fermer xo'jaligi turizmi" yoki "qishloq turizmi" shaklida qo'llaniladi. Bu esa tarjima jarayonida semantik kengayish va qisqarish hodisalarini yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi turizmi terminologiyasi hali to'liq tizimlashtirilmagan bo'lib, uning tarkibiy qismlari va mavzuiy guruhlarini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifalardan biridir.

Metodologiya. Tadqiqotda qishloq xo'jaligi turizmi terminologiyasini o'rganishda deskriptiv-lingvistik tahlil, mavzuiy guruhlash va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Terminlar milliy va xorijiy adabiyotlardan yig'ilib, ularning semantik xususiyatlari, lingvistik kelib chiqishi hamda mavzuiy guruhlariga bo'linishi tizimlashtirildi. Shuningdek, xalqaro tajriba va mahalliy tadqiqotlar o'rtasida qiyosiy tahlil olib borildi.

Tahlil va natijalar. Qishloq xo'jaligi turizmi terminologiyasi turizm industriyasining o'ziga xos qismi sifatida murakkab, ko'p qirrali va tizimli xarakterga ega. Uni tahlil qilish natijalariga ko'ra, terminologiya faqatgina lingvistik birliklar yig'indisi emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik mazmunlarni ham o'zida mujassamlashtiradi. Bu holat agroturizmning transdisiplinar xususiyatini aks ettiradi, ya'ni sohada ishlatiladigan terminlar turizmshunoslik, lingvistika, iqtisodiyot, madaniyatshunoslik va ekologiya fanlari kesishmasida shakllanmoqda.

Xalqaro adabiyotlarda agroturizm terminlari ko'pincha uchta asosiy yo'nalishda talqin etiladi: birinchidan, qishloq xo'jaligi faoliyatiga bevosita bog'liq turizm shakli sifatida; ikkinchidan, qishloq hayoti va an'alarini tajriba qilish imkonini beruvchi madaniy turizm elementi sifatida; uchinchidan, barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan ekologik turizm yo'nalishi sifatida (Phillip, Hunter & Blackstock, 2010; Lane & Kastenholtz, 2015). Ushbu uch yo'nalish terminlarning semantik qamrovini belgilab beradi.[6]

O'zbekistonda esa terminlarning qo'llanishi ko'proq iqtisodiy mazmun bilan boyitilgan bo'lib, qishloq xo'jaligi turizmi hududiy rivojlanish omili sifatida talqin etiladi (Tojiboyev, 2021).[7] Milliy adabiyotlarda "qishloq xo'jaligi turizmi" va "agroturizm" atamaları sinonim sifatida ishlatiladi. Biroq xorijiy tajribada bu ikki termin o'rtasida ayrim farqlar mavjud: "rural tourism" qishloq hayoti bilan bog'liq keng qamrovli turizmni anglatgan bo'lsa, "agritourism" bevosita qishloq xo'jaligi faoliyatiga asoslangan turizmni ifodalaydi. Bu esa terminlarni milliy tilga moslashtirishda lingvistik va semantik aniqlikni talab qiladi.

Tahlil natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

1. Asosiy terminlar (agroturizm, qishloq turizmi, ekoturizm) ilmiy adabiyotlarda ko'proq qo'llaniladi va ularning qo'llanilishi xalqaro tajribaga mos keladi.

2. Tabiiy resurslarga oid terminlar (yer, suv, o'rmon, dala, bog') ekologik va iqtisodiy mazmun kasb etib, qishloq xo'jaligi turizmining asosiy omili sifatida talqin etiladi.

3. Mehmondo'stlik va xizmat ko'rsatish terminlari (homestay, agro-mehmonxona, dehqon bozori) turizm industriyasi va servis sohasini qamrab oladi.

4. Qishloq xo'jaligi faoliyatiga oid terminlar (chorvachilik, bog'dorchilik, vinochilik, asalarichilik) agroturizmning amaliy faoliyatini aks ettiradi.

5. Madaniy-ijtimoiy terminlar (xalq urf-odatları, milliy taomlar, hunarmandchilik, folklor tadbirlari) turizmni madaniy meros bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

6. Boshqaruv va marketing terminlari (agroklaster, agro-breeding, turizm mahsuloti) turizmni iqtisodiy samaradorlik va hududiy brendlash orqali rivojlantirishni ifodalaydi.

Bundan tashqari, semantik tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayrim terminlarning tarjima jarayonida ma'nodagi torayish yoki kengayish holatlari kuzatiladi. Masalan, ingliz tilidagi "farm tourism" o'zbek tilida "fermer xo'jaligi turizmi" deb berilsa-da, mahalliy amaliyotda bu termin ko'proq umumiy qishloq xo'jaligi turizmini anglatadi. Shuningdek, "eco-tourism" atamasi xalqaro tajribada ekologik omillarga asoslangan turizmni bildirsa, milliy tadqiqotlarda ba'zan "qishloq turizmi" bilan sinonim tarzda ishlatiladi.[8]

Amaliy natijalarga ko'ra, terminlarni mavzuiy guruhlariga ajratish ilmiy tadqiqotchilar, turizm sohasi mutaxassisleri va tarjimonlar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv:

- turizmning ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlash;
- terminlardan amaliy faoliyatda bir xilda foydalanishni ta'minlash;
- xalqaro hamkorlikda yagona tushunchaviy bazani shakllantirish;
- milliy turizm brendini global maydonda targ'ib qilish imkonini beradi.

Jadval 1.

Qishloq xo'jaligi turizm terminologiyasining mavzuiy guruhlar¹

№	Mavzuiy guruhlar	Asosiy terminlar misoli	Izoh
1	Tabiiy resurslar	Yer, suv, iqlim, flora, fauna	Qishloq xo'jaligi turizmining asosiy tabiiy zaminini tashkil etadi.
2	Fermer xo'jaligi va ishlab chiqarish	Ferma, agrokomples, chorvachilik, issiqxona	Qishloq turizmi xizmatlari fermer faoliyati bilan chambarchas bog'liq.
3	Turistik xizmatlar	Mehmonxona, homestay, agrohostel, servis	Qishloq hududlarida turistik xizmat ko'rsatish terminlari.
4	Ekologik va barqarorlik tushunchalari	Ekoturizm, yashil iqtisodiyot, bioxilma-xillik	Atrof-muhitni asrashga oid terminlar.
5	Madaniy meros va an'anaviy qadriyatlar	Folklor, milliy taom, hunarmandchilik, urf-odat	Turizm jarayonida mahalliy madaniyatni aks ettiruvchi terminlar.
6	Rivojlanish va boshqaruv	Strategiya, innovatsiya, klaster, marketing	Turizmni rivojlantirish, boshqaruv va menejmentga oid terminlar.

Jadvalda qishloq xo'jaligi turizm terminologiyasining mavzuiy guruhlar tizimlashtirib ko'rsatilgan. Terminlar oltita asosiy toifaga ajratilgan bo'lib, ular qishloq xo'jaligi turizmining asosiy yo'nalishlarini qamrab oladi. Jumladan, tabiiy resurslar guruhida turizmning ekologik va geografik omillariga asos bo'luvchi tushunchalar jamlangan. Fermer xo'jaligi va ishlab chiqarish guruhida esa bevosita qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bog'liq terminlar to'plangan. Turistik xizmatlar qatorida qishloq hududlarida mehmonlarga ko'rsatiladigan xizmatlarni ifodalovchi terminlar joy olgan.[9,10]

Shuningdek, ekologik va barqarorlik tushunchalari zamonaviy agroturizmning ekologik

barqarorlik tamoyillarini yoritadi. Madaniy meros va an'anaviy qadriyatlar guruhidagi terminlar esa qishloq turizmining milliy xususiyatlarini, urf-odat va qadriyatlar asosida shakllangan madaniy jihatlarini aks ettiradi. Nihoyat, rivojlanish va boshqaruv guruhida agroturizmni strategik rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etish va marketing boshqaruviga oid tushunchalar jamlangan.

Jadval terminlarni tizimlashtirish orqali ularning semantik, mavzuiy va amaliy ahamiyatini ko'rsatadi hamda qishloq xo'jaligi turizmi terminologiyasining ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jadval 2.

Qishloq xo'jaligi turizm terminlarining lingvistik xususiyatlari²

№	Termin turi	Misollar	Xususiyati va izoh
1	Mahalliy kelib chiqadigan terminlar	Ferma, dehqonchilik, bozor, hosil	Qishloq xo'jaligi faoliyatidan bevosita kelib chiqqan va xalq tilida shakllangan.
2	Xorijiy (internatsional) terminlar	Agrohostel, marketing, klaster, turizm	Ingliz va boshqa tillardan o'zlashtirilgan, zamonaviy boshqaruv va xizmatlarga oid.
3	Ikkilamchi ma'noda qo'llaniladigan terminlar	Mehmonxona, xizmat, resurs	Turizm sohasida yangi semantik ma'no kasb etgan umumiy til birliklari.
4	Atamalar birikmalari	Ekoturizm, yashil iqtisodiyot, agroklastar	Bir nechta so'zlardan tashkil topgan, murakkab tushunchalarni ifodalaydi.
5	Hududiy leksik birliklar	Oqtepa, qishloq, bog', yaylov	Mahalliy geografik va madaniy o'ziga xoslikni ifodalovchi terminlar.

Ushbu jadvalda qishloq xo'jaligi turizmi terminlarining kelib chiqishi, qo'llanish sohasi va lingvistik shakllanish xususiyatlari tizimlashtirilgan. Terminlar milliy va xorijiy manbalardan kirib kelishi,

semantik o'zgarishga uchrashi hamda mahalliy leksik birliklar orqali boyib borishi ilmiy jihatdan ko'rsatib berilgan.[11,12]

Shunday qilib, tahlillar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi turizmi terminologiyasi o'zbek tilida hali to'liq tizimlashtirilmagan bo'lsa-da, xalqaro tajribaga mos

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

keluvchi asosiy terminlar allaqachon amaliyotga kirib kelgan. Kelgusida ularni ilmiy asosda yanada mukammallashtirish, terminlarning semantik chegaralarini aniq belgilash va mavzuiy guruhlariga bo'lib o'rganish sohaga katta ilmiy va amaliy foyda keltiradi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi turizmi terminologiyasi mazmunan boy, ko'p qirrali va mavzuiy guruhlariga ajratilgan holda tizimlashtirilishi mumkin. Terminlar o'z tabiatiga ko'ra milliy (mahalliy) va xorijiy (internatsional) manbalardan shakllanadi hamda tilshunoslik nuqtayi nazaridan semantik kengayish, termin birikmalari, hududiy leksik birliklar kabi xususiyatlarni qamrab oladi. Shu bilan birga, agroturizm sohasi ekologik barqarorlik, madaniy meros, xizmat ko'rsatish, boshqaruv va innovatsiya terminlari bilan boyib borayotgani kuzatildi.

Mavzuiy guruhlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, qishloq xo'jaligi turizmi terminologiyasi nafaqat lingvistik, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan ham ahamiyatga ega bo'lib, u turizm industriyasining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida qishloq xo'jaligi turizmi terminologiyasini yanada boyitish va uni ilmiy hamda amaliy muomalada samarali qo'llash

uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Qishloq xo'jaligi turizmi bo'yicha qo'llaniladigan terminlarni yagona ilmiy-lug'aviy bazada to'plash, ularni izohli, ikki tilli va ko'p tilli lug'atlar ko'rinishida nashr etish.

2. Xalqaro tajribaga asoslanib, yangi terminlarni o'zbek tiliga moslashtirish va standartlashtirish jarayonini tezlashtirish, ularning ilmiy muomalaga to'g'ri va aniq kirib kelishini ta'minlash.

3. Hududiy leksik birliklar va dialektal terminlarni umumlashtirish, ularni ilmiy tasnif asosida rasmiy hujjatlar va turizm amaliyotiga tatbiq etish.

4. Qishloq xo'jaligi turizmini rivojlantirish jarayonida lingvistika, iqtisodiyot va turizm sohasi mutaxassislari o'rtasida integratsion hamkorlikni kuchaytirish.

5. Turizm va qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida o'qitiladigan ta'lim dasturlariga terminologiya, til siyosati va tarjima metodikasiga oid maxsus kurslarni kiritish.

6. Raqamli texnologiyalardan foydalanib, qishloq xo'jaligi turizmi terminologiyasiga oid onlayn platforma va ma'lumotlar bazasini yaratish, uni muntazam yangilab borish.

7. Agroturizmga oid milliy terminlarni xorijiy adabiyotlarda keng targ'ib qilish, bu orqali O'zbekistonning turizm brendini xalqaro miqyosda mustahkamlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Phillip, S., Hunter, C., & Blackstock, K. (2010). A typology for defining agritourism. *Tourism Management*, 31(6), 754–758. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2009.08.001>
2. Lane, B., & Kastenholz, E. (2015). Rural tourism: The evolution of practice and research approaches – towards a new generation concept? *Journal of Sustainable Tourism*, 23(8–9), 1133–1156. <https://doi.org/10.1080/09669582.2015.1083997>
3. Silva, L., & Leal, J. (2017). Rural tourism and national identity building in contemporary Europe: Evidence from Portugal. *Journal of Rural Studies*, 44, 117–124. <https://doi.org/10.1016/j.jrurstud.2016.12.010>
4. Karimov, S. *O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari*. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.
5. Tojiboyev, M. (2021). *Agroturizmning hududiy rivojlanish omillari*. – Samarqand: SamDU nashriyoti.
6. Barbieri, C., & Mahoney, E. (2009). Why is diversification an attractive farm adjustment strategy? Insights from Texas farmers and ranchers. *Journal of Rural Studies*, 25(1), 58–66. <https://doi.org/10.1016/j.jrurstud.2008.06.001>
7. Tojiboyev, M. *Agroturizmning hududiy rivojlanish omillari*. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
8. Xudoyberdiyev, A. (2022). Qishloq turizmining terminologik tizimi va lingvistik xususiyatlari. *Filologiya masalalari*, 2022. 2(3), 45–52.
9. Sharipov, B. *Turizm sohasida terminologik tizimni shakllantirish masalalari*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.
10. Xolmatova, D. Qishloq turizmi va uning hududiy rivojlanishdagi o'rni. *O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi*, 2020. 4(2), 88–94.
11. Getz, D., & Page, S. J. (2016). Progress and prospects for event tourism research. *Tourism Management*, 52, 593–631. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2015.03.007>
12. UNWTO. (2021). *International guidelines for rural tourism development*. – Madrid: World Tourism Organization. <https://doi.org/10.18111/9789284422583>
13. Jamal, T., & Robinson, M. (Eds.). (2009). *The SAGE handbook of tourism studies*. – London: SAGE Publications.

Zamira DJURABAYEVA,
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
zamiradjurabayeva-1958@gmail.com

TIL EKOLOGIYASI BO'YICHA BA'ZI BIR MULHAZALAR

Annotatsiya: maqolada hozirgi global dunyoda eng katta muammolardan biriga aylangan ekologiya va uning tilshunoslik fani bilan aloqasi haqida fikr yuritilgan. Ekologik muammolarning ijobiy va salbiy jihatlari, ularning tilda aks etishi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, tilshunoslik, til ekologiyasi, salbiy holat, ijobiy holat, tabiat, o'simliklar dunyosi, hayvonot olami.

Аннотация: в статье рассматривается экология, ставшая одной из самых актуальных проблем современного глобального мира, и её связь с лингвистикой. Показаны позитивные и негативные аспекты экологических проблем, их отражение в языке.

Ключевые слова: экология, лингвистика, экология языка, негативная ситуация, позитивная ситуация, природа, растительный мир, животный мир.

Annotation: the article examines ecology, which has become one of the most pressing problems of the modern global world, and its connection with linguistics. Positive and negative aspects of environmental problems, their reflection in language are shown.

Key words: ecology, linguistics, ecology of language, negative situation, positive situation, nature, flora, fauna.

Bugungi global dunyoda insoniyat ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Eng muhimlaridan birini ekologiya tashkil etadi. Ekologiyani nafaqat tabiatga, balki harakatdagi va mezondan chetga chiqqan har qanday hodisaga nisbatan qo'llash to'g'riroq bo'ladi. Shu ma'noda milliy tillarning, jumladan, o'zbek tilining ham nutq me'yorlari yillar davomida ancha buzildi, tilimizda til ekologiyasi degan tushuncha paydo bo'ldi.

Jahonda til ekologiyasi bo'yicha e'tiborga molik ko'plab ishlar bajarilgan.

M.Xollidey, V.Trampe, I.Shtork, M.Dyoring, P.Myulxoysler kabi tadqiqotchilar til ekologiyasi bilan jiddiy shug'ullangan.

Ekologiya til va nutqqa shu qadar singib ketdiki, birgina ekologiya so'zi ishtirokida o'zbek tilida yuzlab yangi so'z va tushunchalar paydo bo'ldi. Bunga *ekolog mutaxassis, ekologik bilim, ekologik burchak, ekologik vaziyat, ekologik depressiya, ekologik kelishuvlar, ekologik kuzatishlar, ekologik madaniyat, ekologik muammo, ekologik muvozanat, ekologik muhit, ekologik nazorat tizimi, ekologik oqsil, ekologik piramida, ekologik ta'lim, ekologik tozalik, ekologik uyushma, ekologik o'zgarish, ekologik fojia, ekologik xavfsizlik, ekologik holat, ekologik sharoit, ekologiya obyekt, ekologik sistemalarni modellashtirish, ekologik oziq zanjiri, ekologik toza yoqilg'i, ekologik holatni optimallashtirish, ekologik holatni sog'lomlashtirish, ekosistema, ekosistema komponentlari, ekosistemali*

daraja, ekosistemaning yuqori yarusi, ekotizim kabi leksik birliklarni misol qilib olishimiz mumkin.

Ma'lumki, ekologiya atrof-muhitni toza saqlash, tabiatni asrab-avaylash, unga nisbatan do'stona munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Afsuski, oxirgi yuz yillikda biz tabiat asosini tashkil qiladigan suv, havo, tuproqqa nisbatan yaxshi munosabatda bo'lmadik va bu munosabat tilimizda o'z zuhrini topdi.

G.Shamsiddinova va D.Karimovalar o'zlarining "Kimyoviy ekologiya" nomli darsligida: "O'zbekistonda eng xavfli muammolar toza havo, ichimlik suvi, tuproq tarkibining buzilishi va Orol dengizi muammolari hisoblanadi. Kimyoviy ekologiya mazkur muammolarni ilmiy asosda yechish chora-tadbirlarini belgilaydi", – deb yozadi [Shamsuddinova, Karimova: 2010, 10-11].

Bu munosabat ikki xil ko'rinishda yuzaga chiqmoqda. Misol uchun "suv" leksemasini olib ko'raylik. *Kristall, distillangan suv, aktiv suv, o'lik suv, tirik suv, yengil suv, kristall suv, radioaktiv suv, sokin suv, qattiq suv, xom suv, yumshoq suv, kumush suv, suv massasi, suv sig'imi, turg'un suv, filtrlangan suv* atamalarida bizning suvga bo'lgan ijobiy va salbiy munosabatimiz ko'rinib turibdi. Holbuki, tabiatda suv bir xil shaklda, rangsiz, hidsiz, shaffof ko'rinishda uchraydi, qolgan shakllariga biz – insonlar aybdormiz.

Matnga e'tibor bering: *"Xo'jamayxona suvi shunchalik shaffof, tiniqki, buloq tubidagi mayda toshchalar, to'da-to'da bo'lib suzayotgan kichik baliqlar aniq, ravshan ko'rinib turibdi"* [Toshqulov: 2012, 12].

“Xo‘jaimakon suvining shaffofligi, tiniqligi” bu – tom ma‘nodagi ekologik soflikdir.

Ikkinchi bir holatda tabiiylikka inson omili aralashadi va ekologik muvozanat buziladi. Bu ekologiyaga nisbatan salbiy munosabatimizni anglatadi.

Masalan:

“Tentaksoyning oqim bo‘ylab shundoqqina chap qirg‘og‘ida yastanib yotgan baland tepaliklar ichida tog‘ ko‘chkisi sodir bo‘lib, ortida “ushlanib” qolgan juda katta miqdordagi loyqa suv to‘satdan paydo bo‘lgan “xom” dambani xohlagan paytida urib ketish xavfi bor” [Qo‘ldoshev: 2012, 11].

Bu matnda e‘tiborimizni “tog‘ ko‘chkisi”, “loyqa suv”, “xom damba”ga qaratishimiz kerak.

“Sanoat korxonalari mavjud suv manbalarining 20 foizini ifloslaydi. Sanoat ishlab chiqarishidan chiqqan oqova suvlar tarkibida o‘ta zaharli moddalar, og‘ir metallar mavjud.

Ba‘zi korxonalarda suv tozalash inshootlari xo‘jako‘rsinga qurilgan bo‘lib, ularning ishlash samaradorligi o‘ta past.

Sug‘oriladigan dehqonchilik oqar suvlarni ifloslayotgan manbalardan biri bo‘lib, kollektor-zovurlarda oqayotgan suvning deyarli yarmi oqar suv tarmoqlariga va suv havzalariga tushmoqda. Ular tarkibida pestitsidlar va boshqa mineral tuzlar me‘yorida ancha yuqori” [Mo‘minov: 2022, 35-36].

“Suvning ifloslanganligi beligilangan tartibda suvdan tekshirish uchun namunalar olish yo‘li bilan aniqlanadi” [Abdujabborov: 2002, 19-20].

Gaplar tarkibidagi “oqova suv”, “zaharli moddalar”, “og‘ir metall”, “pestitsid”, “mineral tuzlar” – bular suvga nisbatan bo‘lgan salbiy munosabatimizni ifodalaydi.

Bu munosabatni yaxshilash uchun “Hayrov – ariqlarni tozalash” kabi ishlardan foydalanishimiz kerak. Bu haqiqiy ekologik madaniyat sanaladi. “Bu yilgi hayrov, ya‘ni ariqlarni tozalash ishlarini ancha erta boshladik” [Xolmirzaev: 2013, 1].

O‘zbek tilshunosligida lingvistik ekologiya sohasida sezilarli ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilmagan bo‘lsa-da, tilimizda hozirda ekologiya bilan bog‘liq bir qator muammolar paydo bo‘ldiki, ular ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish kelajakda tilshunoslikning istiqbolli yo‘nalishlaridan birini tashkil etishi mumkin. Bunga quyidagilar asosiy sababchi bo‘lishi mumkin.

1. XXI asrda fan va texnikaning jadal rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish hajmi haddan ziyod ko‘paydi, tabiiy boyliklardan pala-partish ravishda, zo‘ravonlik yo‘li bilan foydalanildi. Atmosferaga haddan ziyod ko‘p chiqindilar chiqaruvchi zavod va fabrikalar barpo etildi. Bu hodisalarning har biri ostida til ifodasi yotibdi.

2. Atmosfera, suv va tuproq me‘yorida ortiqcha ifloslantirildi, ichimlik suvi muammoga aylanib bormoqda. Bular ham tilda o‘z askini topib bormoqda.

3. O‘simliklar dunyosiga jiddiy zarar yetkazildi. Daraxtlar beayov qirqib tashlandi. Ular bilan birga o‘simliklar nomini ifodalovchi til birliklariga ham barham berilmoqda. Masalan: “Katta yo‘l bo‘ylariga, ko‘cha va maydonlarga shoshilinch tarzda, chala-chulpa ekilgan, ammo ko‘p o‘tmay qurib, cho‘pga aylangan nihollarni ko‘rib achinasan, kishi” [Norqulov: 2012, 111-112].

“Kechagina tilimizga “intensiv bog‘lar” degan tushuncha kirib kelgan bo‘lsa, bugun “ekobog‘” degan yana bir ko‘ngilga xushyoqar atama paydo bo‘ldi” [Abdullaev: 2012, 4].

“Chala-chulpa ekmoq”, “cho‘pga aylangan nihol” – salbiy ko‘rinish; “ekobog‘” – ijobiy holat.

4. Hayvonot dunyosi tobora kamayib bormoqda. Zoonimlarning qo‘llanish doirasi cheklanmoqda. Yovvoyi va uy hayvonlarining yashash sharoitlari yomonlashmoqda. Masalan: “Yo‘rg‘a tuvaloq erkagining chiroyli raqsga tushishi, o‘ziga xos jihatlari, xususan, go‘shining shifobaxsh xususiyati bu jonivorning qirilib ketishiga sabab bo‘ldi” [Aliqulov: 2012, 13].

“Yo‘rg‘a tuvaloq” nima ekanligini hozirgi avlod bilmaydi.

5. Atrof-muhitni asrash, biologik har xillikni saqlab qolish zaruriyati tug‘ildi.

6. Tabiatni asrash borasida xalqaro hamkorliklarni o‘rnatish ehtiyojlari kelib chiqdi.

7. Insoniyatning umumiy soni 7 milliardga borib yetdi. Ularning yeyishi, ichishi, yashashi uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratish masalasi global muammoga aylandi.

8. Dunyo miqyosida global ekologik tanglik paydo bo‘ldi. Uni ijobiy hal etish uchun insoniyatga birinchi navbatda ekologik ong, ekologik bilimlar, ekologik madaniyat zarur bo‘lib qoldi. Bularning pirovard natijasida tabiatni, o‘simliklar va hayvonot dunyosini saqlab qolishga, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishga bag‘ishlangan asarlarni yaratish ehtiyoji tug‘ildi. O‘tgan asrning 80-90-yillarida atrof-muhitni muhofaza qilish, o‘simliklar va hayvonot dunyosini o‘z holidan saqlab qolish masalalarini o‘z ichiga olgan tabiatshunoslik va biologiya yo‘nalishidagi asarlar yuzaga kelgan bo‘lsa, keyinchalik to‘g‘ridan to‘g‘ri ekologiya bilan bog‘liq muammolar o‘rtaga tashlangan yangi darsliklar va uslubiy qo‘llanmalar yaratildi, hatto aniq va gumanitar fanlar bilan ekologiya o‘rtasida oraliq fanlar shakllandi, o‘zbek tilida ekologiyaga

bag'ishlangan lug'atlar yuzaga keldi, ekologiya fanini o'qitish muammolari kelib chiqdi. Ekologiya bo'yicha dastlabki darsliklar xorijiy va rus tillarida yaratilganligi, o'zbek tilidagi darsliklarda ulardan tarjima qilingan o'rinlarning ko'plab uchrashi, matn tuzish va atamalarni qo'llashda uslubiy g'alizliklar, noaniqliklar, sun'iyliklarga yo'l qo'yilganligi fan yuzasidan bugungi kunda jiddiy lingvistik tadqiqotlarning olib borilishini taqozo etmoqda.

Bir so'z bilan aytganimizda, lingvistik ekologiya muammolari oldimizda ko'ndalang bo'lib turibdi.

A.Nurmonov va B.Yo'ldoshevlar o'zlarining "Tilshunoslik va tabiiy fanlar" nomli asarida: "Fanlar sistemasida turli fanlar o'zaro munosabatda, aloqada ekan, bu aloqa hech qachon bir tomonlama bo'lmaydi. Ma'lum bir fan boshqa bir fanga ta'sir qilar ekan, ayni paytda, u aksta'sirga ham uchraydi. Tilshunoslikning tabiiy fanlar bilan munosabatida ham shuni kuzatish mumkin. Tilshunoslik tabiiy fanlar yutuqlaridan bahramand bo'lish bilan birga, o'z navbatida, tilshunoslik ham bu fanlarga ma'lum ta'sirini ko'rsatadi. Ayniqsa, bu turli fanlar atamalarini me'yorlashtirish, atamalar lug'atini tuzish tamoyillarini belgilashda yorqin namoyon bo'ladi", – deb yozadi [Nurmonov, Yo'ldoshev: 2001, 147]. Aytilgan fikrlar lingvistik ekologiyaga ham to'la taalluqli sanaladi.

Ekologiya tor ma'noda uyimiz haqidagi ta'limot bo'lsa, keng ma'noda tirik organizmlar yashaydigan

makon haqidagi ta'limotni anglatadi. N.F.Reymars: "Ekologiya insonlarning yashab ketishi haqidagi ta'limot", – degan edi.

"Esimda, bolalik yillarimda Qo'ytosh tog' etaklarida qir-adirlar yastanib yotar edi. Biz – bolalar gulbarra terishga chiqardik. O'shanda yuzlab o'quvchilarning har biri bir tutam-bir tutam gulbarra kovlab olar va nodir gullarni piyoz bilan birga suvga qo'yib tomosha qilardik.

Bola ekanmiz, ko'p narsaga aqlimiz yetmagan ekan. O'qituvchilarimiz ham tabiat quchog'ida o'zimizni qanday tutishimiz kerakligi haqida saboq berishmagan ekanlar. Biz sevgan gullarimizning yo'qolib ketishiga o'zimiz sababchi bo'lgan ekanmiz, buni endi anglab yetdim.

Hech kimga sir emaski, har yili shu asnoda tabiatni vahshiyona talash, hatto qir-adir, bo'zlarni o'zboshimchalik bilan buzish holatlari uzluksiz davom etib kelmoqda. Hozir ham tabiatni asrashda ahvol o'zgargani yo'q. Ayniqsa, bahor chog'ida lolaqizg'aldoqlar, lolalar, binafshalar, qoqi o't (momaqaymoq) gullari juda ko'plab nobud qilinadi. Ravochlarni tag-tomiri bilan olish, kiyik o't, ziravorlar, kovullarga shafqatsizlarcha qiron keltirish odat tusiga kirib qolgan" [Nishonov: 2008, 46-47].

Matndan xulosa chiqarish har birimizga havola.

Demak, ekologik ongni rivojlantirish, jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirishda tilning o'rni beqiyos ekan. Buni hech qachon unutmaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdujabborov A. Suv muhofazasi qoidalarini buzish oqibatlarini//Ekologiya xabarnomasi, 2002-yil. 1-son.19-20-betlar.
2. Abdullayev M. Bobomeros fazilat//Jamiyat, 2012-yil. 8-iyun 22-son.4-b.
3. Aliqulov A. Yo'rg'a tuvaloqlar ko'paymoqda//Mohiyat, 2012-yil 21- sentabr, 39-son, 3-sahifa.
4. Мүминов С. Сув – ноёб табиий бойлигимиз// Экология хабарномаси, 2002 йил, 1-сон. 35-36-бетлар.
5. Нигматов А. Табиат ва жамият ўртасидаги муносабатлар//Экология хабарномаси. 2000. 2-3-сонлар. 22-26-б.
6. Норкулов А. Япон сафораси иқлимга мос//Ишонч, 2012 йил 13 сентябрь, 113-114-сонлар, 10-саҳифа.
7. Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акционерлик компанияси Бош таҳририяти, 2001. 162-бет.
- 8.Тошқулов О. Ер ости дарёси – Сурхон мўжизаси//Маърифат, 2012 йил 8 март сони, № 19. 12 -б.
9. Холмирзаев Ф. Ҳайров//Қишлоқ ҳаёти, 2013 йил, 14 февраль, 19-сон. 1-саҳифа.
10. Шамсуддинова Г., Каримова Д. Кимёвий экология. – Тошкент: Фан ва технологиялар Марказий босмаҳонаси, 2010. 160-б.
11. Қўлдошев Д. Қўқ қарғалар қайтиб келмади. –Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2012 йил. 96-бет.

Nilufar ALIBOYEVA,

Qo'qon davlat universiteti dotsenti, PhD
nilufarmuhammadjanovna2405@gmail.com

RASMIY USLUB VA UNING RAQAMLI SHAKLDAGI NAMOYONLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada adabiy tilning normalari, ba'zi muhim xususiyat va belgilar haqida fikr yuritish lozim bo'ladi. Chunki adabiy tilning bu kabi o'ziga xos tomonlarini bilmasdan turib adabiy normaning mohiyatini talqin qilish mushkul deb o'ylaymiz. Adabiy til normalariga xos ko'pgina sifatli xususiyatlar aslida adabiy til bajaruvchi alohida vazifalarning ehtiyoji, talabi tufayli yuzaga kelgandir. Shuningdek u – muayyan me'yorlarga solingan me'yoriy (normativ) tildir. Me'yoriylik xususiyati adabiy tilning markaziy va eng muhim belgisi ekanligi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: *ilmiy uslub, publitsistik, badiiy uslub, polisemantik, tilxat, chaqiriq xati, huquqiy (qonunlar va farmonlar tili).*

Annotation: in this article, it is necessary to consider some important features and characteristics of the norms of the literary language. Because we believe that it is difficult to interpret the essence of the literary norm without knowing such specific aspects of the literary language. Many of the qualitative features inherent in the norms of the literary language actually arose due to the needs and requirements of the specific tasks that the literary language performs. It is also a normative language that is subject to certain standards. It is highlighted that the characteristic of normativity is the central and most important feature of the literary language.

Key words: *scientific style, journalistic, artistic style, polysemantic, receipt, invitation letter, legal (language of laws and decrees).*

Аннотация: в данной статье необходимо рассмотреть некоторые важные особенности и характеристики норм литературного языка. Мы считаем, что без знания таких специфических аспектов литературного языка сложно интерпретировать сущность литературной нормы. Многие качественные особенности, присущие нормам литературного языка, фактически возникли в связи с потребностями и требованиями конкретных задач, которые выполняет литературный язык. Он также является нормативным языком, подчиняющимся определенным нормам. Подчеркивается, что нормативность является центральным и важнейшим признаком литературного языка.

Ключевые слова: *научный стиль, публицистический, художественный стиль, полисемантический, расписка, пригласительное письмо, юридический (язык законов и постановлений).*

Ilm-fan, san'at va madaniyat, ma'naviyat hamda ma'rifat haqida gap ketganda dunyo ma'rifatparvarlik maktabining taraqqiyotida tilning, ya'ni milliy tilning o'rni va roli alohida o'rin tutishini ta'kidlash zarur. Chunki har qanday ixtiro yoki kashfiyot til bois ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib yashab kelmoqda. Shu bois har bir til o'z egasi uchun nihoyatda qadrli va aziz hisoblanadi.

Eski o'zbek adabiy tilining rivojlanishida Alisher Navoiyning xizmatlari katta. U "Chor devon", "Xamsa", "Mahbub ul-qulub", "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon", "Muhokamat ul-lug'atayn" kabi asarlari bilan eski o'zbek adabiy tilini yuqori bosqichga ko'tardi. Navoiy o'z badiiy asarlari bilan o'zbek adabiy tilining imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa, ilmiy asarlari orqali o'zbek tilining boyligini nazariy jihatdan isbotlab berdi. Alisher Navoiy eski o'zbek adabiy tilida juda

ko'p yangi shakllar, yangi uslublar yaratdi, Shimol, Sharq, Janubdagi tarqoq holdagi adabiy til shakllarini birlashtirib, o'z davrining mukammal adabiy til me'yorini yaratdi. Shu ma'noda, Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilining asoschisi hisoblanadi. Yangi o'zbek adabiy tili XIX asrning ikkinchi yarmidan rivojlanib, bu vaqtga kelib Furqat, Zavqiy kabilarning tili jonli tilga yaqinlashdi. Asr oxirida turk tili haqidagi dastlabki kitoblar va amaliy grammatika qo'llanmalari paydo bo'ldi. XX asr boshlarida esa gazeta-jurnallarda turk, ozarbayjon, tatar tillarining ta'siri yaqqol ko'rinadi. Bu vaqtda o'zbek tilida yangi so'z, shakllar yasashga urinish kuchli bo'ldi, rus tilidan anchagina so'zlar qabul qilindi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili XX asrning 20-yillaridan shakllana boshlagan. Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Qahhor, Oybek, Hamid Olimjon,

G'afur G'ulom, Komil Yashin, Zulfiya asarlari hozirgi adabiy tilning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shuni aytib o'tish lozimki, o'zbek tilining rivojlanishi, undagi o'zgarishlar ijtimoiy-siyosiy hodisalarga bog'liq ravishda ro'y berdi. Jumladan, fors-tojik xalqi bilan uzoq vaqt yonma-yon yashash o'zbek tilida ko'plab forsha-tojikcha so'zlarning o'rin olishiga sabab bo'lgan. Arablar istilosi natijasida esa fan va ilmga oid arabcha so'zlar o'zbek tiliga kirib o'zlashgan. Sho'ro davrida esa ona tilimizga rus tilining ta'siri juda kuchli bo'ldi. Rus tili orqali o'zbek tiliga Yevropa tillariga oid juda ko'p so'z va atamalar qabul qilindi. Masalan, rasmiy ish hujjatlari rus tilida olib borilishi natijasida o'zbek tilining rasmiy-idoraviy uslubi deyarli yo'qoldi, atamalar asossiz ravishda rus tilidan olinaverdi, 1940-yilda kirill yozuvining qabul qilinishi bilan o'zbek tili talaffuzi va imlosi o'rtasida bir qancha nomutanosibliklar yuzaga keldi.

Bugungi kunda Yurtboshimiz tomonidan olib borilayotgan ulkan o'zgarishlarning zamirida ham milliylik deya ataluvchi azaliy qadriyatlar yotibdi. Bu degani har qanday milliylik tilda aks etadi demakdir. YUNESKO tashkiloti ekspertlari 1953-yilda davlat tili va rasmiy til tushunchalarini farqlashni taklif etgan. Unga ko'ra: **Davlat tili** – siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida ma'lum bir davlatda integratsiya (birlashtiruvchi) vazifasini amalga oshiradigan, shuningdek, ushbu davlatning ramzi sanaladigan tildir. **Rasmiy til** – davlat boshqaruvi, qonunchilik, sud jarayoni tilidir. Ushbu ikki ta'rif tushuntirish-tavsiya sifatida qabul qilinadi, barcha mamlakatlar uchun majburiy emas.

O'zbekiston Respublikasining Davlat tili to'g'risida"gi Qonuniga (yangi tahrir) muvofiq, O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi. Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar ¹.

Shu bilan birga, O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha millat va elat tillariga hurmat ko'rsatiladi va ularning rivoji uchun sharoitlar yaratadi. Ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda istiqomat qiluvchi millat va elatlarning bir necha tillarida efirga uzatiladi va chop etiladi.

Shuningdek, ish yuritish va kundalik foydalanishda tillarni tanlash va ishlatish bilan bog'liq muammolar mavjud emas. Davlat tili to'g'risidagi Qonunga binoan, korxonalarda ish yuritish va boshqa hujjatlar,

notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi, zurur hollarda rus tilida yoki boshqa tillarda amalga oshirilishi ham mumkin. O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

Adabiy tilning normalari – adabiy norma haqida gapirishdan oldin adabiy tilga xos bo'lgan ba'zi muhim xususiyat va belgilar haqida fikr yuritish lozim bo'ladi. Chunki adabiy tilning bu kabi o'ziga xos tomonlarini bilmasdan turib adabiy normaning mohiyatini talqin qilish mushkul deb o'ylaymiz. Adabiy til normalariga xos ko'pgina sifatiiy xususiyatlar aslida adabiy til bajaruvchi alohida vazifalarning ehtiyoji, talabi tufayli yuzaga kelgandir. Shuningdek u – muayyan me'yorlarga solingan me'yoriy (normativ) tildir. Me'yoriylik xususiyati adabiy tilning markaziy va eng muhim belgisidir.

Shubhasiz, adabiy til uslubiy tarmoqlangan tildir. Adabiy tilning boshqa har qanday ko'rinishidan uslubiy tarmoqlanganligi bilan ajralib turadi. Adabiy tilning turli mavzular, sharoitga, doiralarga, sohalariga moslanishi polivalentlikka olib keladi. Natijada adabiy til vositalari turli-tuman nutqiiy vaziyatlar, ko'rinishlarda o'ziga xos vazifa o'taydi, xilma-xil aloqaviy xoslanishlarga ega bo'ladi. Shu sababli adabiy til turli nutqiiy uslublarga ko'ra tarmoqlanadi, ularga moslashadi. Adabiy tilning uslubiiy tarmoqlanishi ayniqsa, adabiy tilning milliiy adabiiy tillik davrida aniq namoyon bo'ladi. Bunday xususiyat hozirgi o'zbek adabiiy tili uchun ham xosdir.

Adabiy tilning quyidagi vazifaviy uslublari mavjud: 1) so'zlashuv uslubi; 2) rasmiy uslub; 3) ilmiy uslub; 4) publitsistik uslub; 5) badiiiy uslub keng rivoj topgan. Ushbu uslublarni, o'z navbatida, yana bir qator yordamchi (kenja) uslublarga bo'linadi: ilmiy-ommabop uslub, maktubiiy uslub, adabiiy so'zlashuv uslubi, sodda so'zlashuv uslubi va boshqalar. Adabiiy tilning bu kabi keng ravishda uslubiiy tarmoqlanishi u xizmat qiladigan sohalarining qanchalik keng va serqirraligidan dalolat beradi. O'zbek tilining boshqa birorta yashash shaklida bu kabi uslublarni, uslubiiy tarmoqlar to'liq mavjud emas. Qayd qilingan uslublarning ba'zilari mohiyatan faqatgina adabiiy tilga xosdir. Masalan, ilmiy uslub, rasmiy uslub, publitsistik uslub.

Shu o'rinda uslub haqida to'xtalarkanmiz, uslub – bu tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog'liq vazifalariga ko'ra ajratilishidir. Kishilar faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik

vositalarni tanlash va ishlatishdan bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Nutq uslubi tilning vazifasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ular vazifaviy (funksional) uslub deb yuritiladi. Vazifaviy uslub deganda, tildan farq qiladigan qandaydir alohida narsa tushunilmaydi, balki aniq bir adabiy til tarkibi ichida qaraladigan, o'ziga xos xususiyatlari, xizmat qilish doirasi bilan o'zaro farq qilib turadigan yordamchi tizim tushuniladi. Vazifaviy uslub nutq ko'rinishlarining asosiy vazifalariga, ya'ni aloqa, xabar berish, ta'sir etish vositasi bo'lishiga ko'ra turli qismlarga bo'linadi. Vazifaviy uslubni nomlash va atash ham ularning qanday aloqa doirasida ishlatilganligiga qarab belgilanadi.

Rasmiy uslub – bu huquqiy, siyosiy, ma'muriy va diplomatik sohalarida qo'llaniladigan adabiy uslub bo'lib, asosiy vazifasi hujjatli aniqlik, lo'ndalik va betaraflikni ta'minlashdan iborat. Bu uslub rasmiy-huquqiy hujjatlar, farmonlar, qonunlar, bayonotlar, iltimosnomalar, arizalar, ma'lumotnomalar va boshqa shu kabi yozma shakllardagi matnlar uchun xos hisoblanadi. U o'zining ohangi, aniq til, grammatika va sintaksisning belgilangan qoidalariga qat'iy amal qilishi bilan ajralib turadi. Shubhasiz bu uslub rasmiy ish qog'ozlari – hujjatlarni yuritish yo'llarini o'rgatuvchi nutq uslubidir. Hujjatshunoslik davlatchilik bilan bog'liq bo'lib, uning ildizi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Har bir davlatning hujjatlari uning davlat tilida yoziladi. Hujjatlarni to'g'ri va bexato yozish insonning savodxonligi va yozma nutq madaniyati ko'rsatkichidir. Barcha muassasa va korxonalardagi buyruqlar, tashkiliy-ma'muriy hujjatlardan tortib hukumat tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, farmon va farmoyishlar, xalqaro diplomatik hujjatlar ham rasmiy uslubda yoziladi. Rasmiy ish qog'ozlariga quyidagilar misol bo'la oladi:

1. Ariza
2. Tarjimayi hol
3. Tushuntirish xati
4. Ishonchnoma
5. Ma'lumotnoma
6. Taklifnoma
7. Tilxat
8. E'lon
9. Bildirgi
10. Tavsifnoma
11. Tavsijanoma

Shuningdek, rasmiy uslub o'zining bir nechta xususiyatlariga ega va ular quyidagilar:

1. Aniqlik va lo'ndalik
2. Emotsional bo'yoqlarning yo'qligi
3. Me'yorga solingan til birliklaridan foydalanish
4. Qolipli (standart) iboralar
5. Qonuniy va ijtimoiy terminlarga boy bo'lishi
6. Murakkab sintaktik tuzilmalarning ustunligi

Rasmiy uslub bir necha texnikalarni o'z ichiga oladi (jumladan, texnik va sanoatga oid ish jargonlari) jaranglar, idiomalar yoki so'zlashuv so'zlari, undov belgilari, qisqarishlar, minimal olmoshlar, uzunroq yoki murakkabroq jumalarni qo'llash mumkin hisoblanmaydi.

Shuningdek, rasmiy ish uslubi, boshqa kitob uslublaridan farqli o'laroq, nisbatan barqarorlik, izolyatsiya bilan ajralib turadi. Vaqt o'tishi bilan, shubhasiz, unda muayyan o'zgarishlar yuz berdi, ammo uning asosiy xususiyatlari o'zgarishsiz qoldi. Ushbu yo'nalish quruqlik, qisqarish va hissiy rangga ega bo'lgan so'zlarning yo'qligi bilan tavsiflanadi. Rasmiy hujjatlarda ishlatiladigan til vositalarining ro'yxati oldindan belgilanadi. Uslubning eng yorqin xususiyati bu til belgilaridir. Hujjatlar uning tuzuvchisining individualligini namoyish qilishni taklif qilmaydi. Aksincha, qog'ozni qanchalik ko'p bossa, undan foydalanish qulayroq bo'ladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown, P. & Levinson, S. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press.
2. Grice, H.P. (1975). *Logic and Conversation*. Harvard University Press.
3. Leech, G. (1983). *Principles of Pragmatics*. Longman.
4. www.ziyouz.com кутубхонаси/ Qur'oni karim ma'nolari tarjimai. Tarjimon: A.Mansur
5. Abdullah Yusuf Ali. (2005). *The Meaning of the Holy Qur'an*. Amana Publications.
6. J.L.Austin "Speech Act Theory" (1962)
7. www.wikipedia.org//religioustexts //Date of access: 12.04.2019
8. <https://www.definitions.net/definition/religious+text> //Date of access: 12.04.2019

Qahramon SOBIROV,
Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi,
Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsenti
e-mail: s.kahramon72@gmail.com



PERSONAJLAR NUTQIDA OKSIMORONLARNING SEMANTIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek dramatik matnlarida oksimoronlarning qo'llanishi, ularning semantik va stilistik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Oksimoron san'ati personaj nutqida ziddiyatli, ammo o'zaro uyg'un obrazlarni yaratishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda turli dramatik asarlardan misollar keltirilib, oksimoronlarning semantik yuklamasi hamda ularning dramatik matnning umumiy g'oyaviy-badiiy mazmuniga qo'shgan hissasi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *oksimoron, dramatik matn, semantika, stilistika, badiiy nutq, ziddiyat, obraz.*

Аннотация: в данной статье рассматривается использование оксюморонов в узбекских драматических текстах, а также их семантические и стилистические особенности. Оксюмoron как художественный приём выступает важным средством создания образов, основанных на противоречиях, но обладающих внутренним единством. В исследовании приводятся примеры из различных драматических произведений, анализируется семантическая нагрузка оксюморонов и их роль в формировании идейно-художественного содержания драматического текста.

Ключевые слова: *оксюмoron, драматический текст, семантика, стилестика, художественная речь, противоречие, образ.*

Annotation: this article examines the use of oxymorons in Uzbek dramatic texts, focusing on their semantic and stylistic functions. As a literary device, the oxymoron serves as an effective means of creating paradoxical yet harmonious images in dramatic discourse. The study provides examples from various dramatic texts, analyzing the semantic load of oxymorons and their contribution to the overall ideological and artistic meaning of the drama.

Key words: *oxymoron, dramatic text, semantics, stylistics, literary discourse, contradiction, imagery.*

Kirish. O'zbek adabiyoti tarixida dramatik matnlar badiiy-estetik tafakkurning yuksak ko'rinishi sifatida shakllanib, inson taqdirining murakkab qirralarini, jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarni sahna orqali ifodalashga xizmat qiladi. Dramada til va uslubiy vositalar, xususan, badiiy tasvir va ifoda shakllari alohida ahamiyat kasb etadi. Shular ichida oksimoron hodisasi muhim stilistik birlik sifatida ajralib turadi. Oksimoron qarama-qarshi ma'nodagi tushunchalarni uyg'unlashtirish orqali yangi semantik qatlam hosil qiladi hamda dramatik matnda g'oyaviy-badiiy yuklamani kuchaytiradi. Oksimoronlarning obrazlar nutqidagi vazifasi, dramatik ziddiyatni ifodalashdagi roli, voqelikni badiiy yoritish va muallif maqsadini ochib berishdagi o'rni tadqiqot predmetini tashkil etadi. Bugungi kunda o'zbek adabiyotshunosligida

dramatik matnlarning badiiy-lisoniy xususiyatlarini har tomonlama o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ammo oksimoron hodisasining aynan dramatik asarlardagi semantik-stilistik xususiyatlari maxsus tadqiq etilmagan. Vaholanki, oksimoron dramatik ziddiyatlarni ochishda, obrazlarning ichki dunyosini ifodalashda, ijtimoiy hayotdagi qarama-qarshiliklarni estetik idrok qilishda beqiyos ahamiyatga ega. Shu bois, o'zbek dramatik matnlarida oksimoronlarning qo'llanishi va ularning badiiy imkoniyatlarini o'rganish dolzarb ilmiy vazifalardan biridir.

Asosiy qism. Ayrim adabiyotlarda oksimoron ham badiiy tasvir vositalari sirasiga kiritilgan. O. Axmanova lug'atida [1: 286] uni ikki antonimik tushuncha, ya'ni ma'no jihatidan bir-biriga qarama-qarshi ikki so'zni birlashtirishdan tuzilgan nutq figuralari, deb ko'rsatiladi.

Darhaqiqat, oksimoronda kishilarning xarakteri, fe'li-xo'yi, xatti-harakatlaridagi yoki ijtimoiy voqealar mohiyatidagi ichki qarama-qarshiliklar, qisqa va sinchkovlik bilan ilg'ab hamda qamrab olingan bo'ladi. Oksimoronda aniqlovchi kontrast holatida turadi, ya'ni aniqlanmishga nisbatan ma'no "teskarilangan" bo'ladi. Bu so'z ikki yunoncha so'zdan olingan, ya'ni "oxus" (o'tkir) va "moros" (zerikarli) [2].

Tatar tilshunosi X.Kurbatov oksimoronni satirik tiplar yaratishda bo'yoqlarni quyuqlashtirishda qo'l keluvchi leksik-stilistik usul deb ataydi va undan A.To'qay o'z asarlarida muvaffaqiyatli foydalanganligini ta'kidlaydi [3: 91].

O'zbek dramaturgiyasi personajlari nutqida ham oksimorondan turli uslubiy ma'no anglatish maqsadlarida foydalanilganligini kuzatamiz. Masalan, "Mirzo Ulug'bek" fojiasida Firuza haqida bo'hton, g'iybat tarqagach, Ulug'bek undan ajraladi, buni haqiqatning tagiga yetgunga qadar Firuzaning sha'ni, nomusini himoya qilish chorasi deb biladi. Bu hol har ikkalasi uchun ham og'ir edi. U o'zining ana shu iztirobli holatini "Firuzani seva-seva taloq beraman" [4] degan mulohazasida emotsional ifoda etadi. Chindan ham sevis va ajralish bir-biriga zid tushunchalar bo'lib, ularning birga kelishi Ulug'bekning qalb iztiroblarini ta'sirchan va o'ta aniqlikda ko'rsatadi.

Oksimoron – bir-biriga zid, mantiqan qarama-qarshi bo'lgan tushuncha va so'zlarning birikishi orqali badiiy ma'no yaratish usulidir. Masalan: "tirik murda", "jim qichqiriq", "yoqimli azob" va hokazo.

"Seva-seva" – bu yerda shaxsning chuqur muhabbati, mehr-muhabbatda davomiylik va samimiyatni anglatadi. "taloq beraman" – nikohni bekor qilish, ayolni o'zidan uzoqlashtirish, ajralish. Demak, biri yaqinlashtirish va bog'lash (sevgi), ikkinchisi esa ajratish va yiroqlashtirish (taloq) ma'nosini bildiradi.

Muallif yoki personaj bu ibora orqali: sevgi va majburiyat o'rtasidagi ichki ziddiyatni ko'rsatmoqda, paradoksal hayotiy vaziyatni ifodalamoqda: odam chin dildan sevadigan kishisini ijtimoiy, oilaviy, diniy yoki majburiy sabablar tufayli tark etishga majbur. O'quvchiga kuchli psixologik va dramatik ta'sir uyg'otadi, chunki inson ongida "seva-seva ajralish" mantiqan imkonsizdek tuyuladi.

"Firuzani seva-seva taloq beraman" jumlasini oksimoronning yorqin namunasi bo'lib, sevgi va ayrilishni birlashtirish orqali dramatik vaziyatning murakkabligini, qahramon ruhiyatidagi ichki qarama-qarshilikni va insoniy taqdirning fojiaiyatini badiiy kuch bilan ifodalagan.

Yoki shu asarda Abdullatif:

Menim boshqa qardoshlarim o'ldi yoshlikda,

Bunday yaxshi o'limlar ham mening omadim, [4] deydi. O'lim, ayniqsa, qardoshlar o'limi yaxshi voqea emas. Ammo Abdullatif toj-taxt orzusida. Unga tezroq yetishni istovchi xudbin obrazi. Uning dunyoqarashida qarindoshlari, yaqinlarining o'lib ketishi, ukasi Abdulazizning kasalmandligi o'zining bu niyati amalga oshishi yo'lidagi yaxshi ish bo'lib ko'rinadi.

"Yaxshi o'limlar" – mantiqan o'limning o'zi fojiaiy, salbiy hodisa. Uni "yaxshi" deb ta'riflash mazmunini qarama-qarshilik tug'diradi. "Omadim" – omad odatda, hayotda ijobiy natijani bildiradi. Ammo bu yerda "qardoshlarning yoshlikda o'lishi" – fojiaiy voqea omad sifatida ko'rsatilmoqda.

Dramaturg yoki personaj bu ifoda orqali hayotning paradoksal haqiqatini ochmoqda: bir tomondan, yoshlikda o'lim juda fojiali, boshqa tomondan esa, ehtimol, ular qiyinchilik, xo'rlik yoki iztiroblardan qutulgan deb tasavvur qilinadi. O'quvchida kuchli ruhiy zarba va ta'sirchanlik uyg'otish uchun ishlatilgan. Bu oksimoron fojia ichidagi irodiysizlikni, "hayot va o'lim" o'rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi.

Mazkur misrada oksimoron "yaxshi o'limlar" va "omadim" so'zlari orqali yuzaga keladi. Bu qarama-qarshi birlik insoniy iztirobni chuqur ochadi: yaqinlarini erta yo'qotgan odam fojiaga ham o'zicha tasalli topishga urinadi, biroq bu tasalli achchiq va paradoksal bo'lib qoladi.

"Muqanna" dramasida G'irdak kishilar orasida Muqanna haqida har xil gap-so'z, g'iybat tarqaganligi haqidagi mulohazalarni eshitar ekan, ular ustidan kulib va ularni rad etib:

Yangi chiqqan bir nayrangboz payg'ambar,

Shundaymi? Yo'q! Sehgarmas, donishmand! [5]

deydi. Bu yerda "nayrangboz payg'ambar" birikmasi personaj nutqida oksimoron hosil qilgan. Bu yerda oksimoron orqali g'iybatchilarning gapi mantiqsiz ekanligi kulgi qilingan. Chunki "payg'ambar" so'zi ilohiy haqiqatni yetkazuvchi, pok va rostgo'y zotni anglatadi. "nayrangboz" esa aldovchi, hiylakor, yolg'onchi odamni bildiradi. Shu tarzda, mutlaqo zid tushunchalar birga qo'yilgan.

Keyingi satrda ham qarama-qarshi ta'rif davom etadi: "Sehgarmas, donishmand!", ya'ni uni sehgarmas sifatida rad etib, aslida donishmand, bilimli inson deb ko'rsatadi.

Bu oksimoron orqali qahramonning munosabatidagi ikkilik ko'rsatiladi: odam bir vaqtning o'zida uni "nayrangboz" ham, "payg'ambar" ham deb baholaydi. Zamonaviy yoki yangi g'oyalar keltirayotgan insonni ko'pchilik boshida noto'g'ri tushunadi: kimdir uni "nayrangboz" deb biladi, boshqasi esa "donishmand"

deb ulug'laydi. Shu bilan muallif jamiyatdagi fikrlar qarama-qarshiligini va yangi g'oya, yangi shaxsning qabul qilinishi qanchalik murakkab jarayon ekanini ko'rsatadi.

Bu satrda oksimoron zid tushunchalarni yonma-yon qo'yish orqali yangi obraz yaratgan: *nayrang* – *haqiqat*, *sehr* – *donolik*, *payg'ambar* – *aldamchi* kabi qarama-qarshi jihatlar birlashib, o'quvchida kuchli dramatik va satirik ta'sir uyg'otadi.

Ba'zan oksimoron orqali personaj nutqida hazil-mutoyiba hosil qilinadi. Masalan:

Sasha. Yana ko'miri esiga tushib ketdi, shekilli.

Aram. Ha, shuning uchun ham *ko'ngli ko'mirday ravshan* bo'lib turgan ekan-da. [6]

Matndan kuzatiladigan zidlik **“Ko'mir”** – odatda qorong'ilik, qop-qora rang va zulmat timsoli. **“Ko'ngli ko'mirday ravshan”** – mantiqan qarama-qarshi birikma. Chunki ko'mir *qorong'ilik*ni, *“ravshan”* esa *yorug'lik*ni anglatadi.

Qahramonning ichki holatini kinoyaviy va istehzoli tarzda ko'rsatish uchun ishlatilgan. Odatda odam *“ko'ngli ravshan, ko'ngli yorug'”* deyiladi, lekin bu yerda *“ko'mir”* so'zini qo'shish orqali qorong'ilik va yorug'likning ziddiyati hosil qilingan. Natijada, bu gapning ohangi sarkazmga yaqinlashadi: Aramning so'zlari Sasha aytgan gapni mazax qiladi. *“General Rahimov”* dramasida bu kabi ifodalar: bir tomondan, qahramonlarning nutqiga xalqona istehzo beradi; ikkinchi tomondan, zid obraz orqali jamiyatdagi odamlarning ikkiyuzlamachiligi va mantiqsiz mulohazalarini fosh qiladi.

“Ko'ngli ko'mirday ravshan” iborasi oksimoron bo'lib, qorong'ulik va yorug'likni birlashtirgan. Bu esa sahna nutqida istehzo, kinoya va satirani kuchaytiradi,

tomoshabinga kulgili, lekin o'ylantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Oksimoron badiiy nutqning muhim stilistik vositalaridan biri sifatida semantik va stilistik darajalarda ko'p qirrali xususiyatlarga ega. Uning asosiy mohiyati qarama-qarshi, zid tushunchalarning birikishidan tug'iladi va bu orqali yangi, kutilmagan ma'no hosil qilinadi.

Birinchidan, oksimoronlar semantik darajada antonimik birliklarning uyg'unlashuvi asosida yuzaga keladi. Mazkur uyg'unlik mantiqan imkonsiz ko'ringan mazmunni tasvirlash orqali obrazni yanada yorqinlashtiradi. Masalan, *“jim qichqiriq”*, *“shirin azob”*, *“ko'ngli ko'mirday ravshan”* kabi birikmalar real hayotda qarama-qarshi tasavvurlarni birlashtiradi.

Ikkinchidan, oksimoronlar stilistik vazifasi jihatidan dramatik ziddiyatni kuchaytirish, personaj nutqiga kinoya va istehzo ruhini singdirish, shuningdek, o'quvchi yoki tomoshabinda kuchli estetik ta'sirchanlik uyg'otishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham ular ko'pincha satirik, tragik va falsafiy kontekstlarda qo'llanadi.

Uchinchidan, oksimoronlar til va badiiy tafakkurning imkoniyatlarini kengaytiradi: ular orqali yozuvchi yoki dramaturg insoniy ruhiyatdagi ikkiyuzlamalik, ichki qarama-qarshilik, jamiyatdagi paradoksal holatlarni ifodalaydi.

Shunday qilib, oksimoronlarning semantik-stilistik xususiyatlari ularni badiiy matnning o'ziga xos tasviriy quroli sifatida talqin etish imkonini beradi. Ularning mohiyatida qarama-qarshilik asosiy belgi bo'lib, bu qarama-qarshilik nafaqat semantik darajada, balki stilistik-estetik ta'sirchanlikda ham namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов.—М.: Советская энциклопедия, 1966.286-с.
2. <https://www.studiobinder.com/blog/what-is-an-oxymoron-definition/>
3. Курбатов Х. Р. Татарская лингвистическая стилистика и поэтика.—М.: Наука, 1978. — С. 91.
4. Шайхзода. Асрлар. 3 том. — Т.: Ф. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.272-б.
5. Олимжон Х. Мукамал асарлар тўплами. 10 томлик.—Т.: Фан нашриёти, 1981.348- б.
6. Яшин К. Пьесалар. —Т.: Ўздавнашр. 1951.428-б.

Nilufarxon MAHMUDOVA,
Qo'qon davlat universiteti doktoranti
nilufarmaxmudova722@gmail.com

TOPISHMOQLARDA MIQDORNI BILDIRUVCHI SO'ZLARNING ASSOTSIATIV XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek xalq topishmoqlari tarkibida ishlatilgan miqdorni bildiruvchi so'zlarning assotsiativ xususiyatlari tahlil qilingan. Tilshunoslikda miqdor kategoriya sifatida ko'p o'rganilgan bo'lsa-da, xalq og'zaki ijodida, xususan, topishmoqlardagi semantik va assotsiativ xususiyatlari hali to'liq ochib berilmagan. Maqolada miqdor ifodalovchi birliklarning semantik maydoni, ularning assotsiativ bog'liqligi, kontekstual qo'llanishi va bu elementlar orqali topishmoqlarning obrazlilik darajasi yoritiladi. Tahlillar xalq og'zaki ijodining o'ziga xos leksik-semantik tizimini anglashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *topishmoq, miqdorni bildiruvchi so'zlar, assotsiatsiya, semantika, xalq og'zaki ijodi.*

Аннотация: в данной статье анализируются ассоциативные свойства количественных слов, используемых в узбекских народных загадках. Хотя количественные слова как категория широко изучались в лингвистике, их семантические и ассоциативные свойства в народной литературе, в частности в загадках, до сих пор не полностью раскрыты. В статье рассматривается семантическое поле количественных единиц, их ассоциативные связи, контекстное использование и уровень образности загадок через эти элементы. Анализ служит важным инструментом для понимания специфики лексико-семантической системы народной литературы.

Ключевые слова: *загадка, количественные слова, ассоциация, семантика, народная литература.*

Annotation: this article analyzes the associative properties of quantitative words used in Uzbek folk riddles. Although quantitative words have been widely studied in linguistics as a category, their semantic and associative properties in folk literature, in particular in riddles, have not yet been fully revealed. The article covers the semantic field of quantitative units, their associative relationships, contextual use, and the level of figurativeness of riddles through these elements. The analysis serves as an important tool in understanding the specific lexical-semantic system of folk literature.

Key words: *riddle, quantitative words, association, semantics, folk literature.*

Topishmoqlar o'zbek xalq og'zaki ijodining qadimiy va sarmazmun janrlaridan biri bo'lib, ularda xalqning tafakkuri, hayotiy tajribasi va dunyoqarashi mujassam bo'lgan. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan topishmoqlar tahlili, ayniqsa, ularning leksik-semantik qatlamlari, tilning obrazli ifoda imkoniyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Miqdorni bildiruvchi so'zlar, ya'ni sonlar, ko'plik bildiruvchi birliklar, belgi miqdorini ko'rsatuvchi sifatlar va ularning kontekstual vazifalari topishmoqlarda qanday assotsiativ ma'no kasb etishini tadqiq qilish bugungi kunda tilshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

O'zbek tilshunosligida miqdor kategoriyasi grammatik va leksik aspektda ko'plab ishlar doirasida o'rganilgan, ammo badiiy va og'zaki ijodiy matnlar, xususan, topishmoqlarda bu elementlarning estetik, obrazli va assotsiativ yuklamalari hali yetarlicha o'rganilmagan. Shu boisdan, bu maqola xalq topishmoqlaridagi miqdor so'zlarining o'ziga xos assotsiativ imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan.

Bugungi kunda miqdor kategoriyasi inson tafakkurining ko'p qirrali kategoriyalaridan biridir, shuning uchun uni o'rganish turli sohalardagi olimlar, jumladan, tilshunoslik sohasi uchun ahamiyatlidir. Miqdorni nazariy va eksperimental bilish, eng avvalo, aniq fanlar, xususan, matematikaning maxsus sohalari, shuningdek, falsafa, mantiq, psixologiyaning vazifasidir.

Ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlarni quyidagi metodlar orqali tahlil qilishimiz mumkin: deskriptiv-tahliliy metod – miqdorni bildiruvchi so'zlar va ularning topishmoq matnlaridagi o'rni aniqlanib, ularning semantik funksiyasi tahlil qilinadi; semantik tahlil – so'zlarning asosiy va kontekstual ma'nosi, majoziy yuklamasi aniqlanib, ularning assotsiativ jihatlarini ochib beriladi; korpus metodlari – 300 dan ortiq o'zbek topishmoqlari korpusi asosida miqdorni bildiruvchi birliklar ajratib olinadi va ularning uchrash chastotasi tahlil qilinadi; komponent tahlil – so'zlarning tarkibiy semantik qismlari aniqlanib,

obrazli assotsiatsiyalarga bog'lanishi ko'rib chiqiladi. O'zbek topishmoqlarida ko'plab obyektlar, hodisalar boshqa timsollar orqali obrazli ifoda etiladi, bu esa konseptual metaforalarni aniqlash imkonini beradi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, mentaliteti, estetik didi va madaniy dunyoqarashini ifodalovchi ko'zgudir. Ularda yashiringan jumboqni tasvirlash va javobini topish jarayonida bevosita inson ongiga ana shu holat bilan aloqador assotsiatsiyalar ishlatilgan leksik birliklar orqali gavdalanadi. Shuningdek, miqdoriy mazmun ham bunda muhim hisoblanadi.

Topishmoqlarda uchraydigan miqdorni bildiruvchi so'zlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Aniq sonlar: bir, ikki, uch, to'rt, besh, o'n, yuz.
- Noaniq miqdor: ko'p, oz, bir oz, hamma, har.
- Ko'plik affiksleri bilan yasalgan birliklar: -lar, -zor, -lab (gulzor, yuzlab)
- Sifatlashgan miqdor: toladay, tog'dek, bir dunyo, mitti, ulkan.

Miqdor so'zlari topishmoqlarda asosiy semantik yuk tashuvchi birlik bo'lib xizmat qiladi. Ular ko'pincha vizual obrazlarni yaratishda, emotsional urg'u berishda yoki muammoni murakkablashtirishda qo'llaniladi. Shuningdek, topishmoqlardagi miqdor birliklari ba'zida madaniy, diniy va xalqona qarashlarga asoslangan assotsiatsiyalarni uyg'otadi:

- "Yetti" – muqaddas son; baxt, to'liqlik.
- "Qirq" – ayol onalik davri, marosimlarda keng ishlatiladi.
- "To'rt" – to'rt fasl, to'rt yo'nalish.

Shunday qilib, assotsiativlik – bu faqat semantik kengayish emas, balki obrazlilik, madaniy konnotatsiya va emotsional ta'sirning jamlanmasidir. Topishmoqlardagi miqdor so'zlari bu uchala omilni uyg'unlashtirgan holda, estetik va kognitiv yuklama kasb etadi. Masalan, "Ikki keng, orasi teng" (yer-u osmon); "Tom ustida bir anor, hadding bo'lsa, ushlab ol" (oy).

Miqdor so'zlari faqat matematik birlik emas, balki obrazli tafakkurning asosi sifatida ishlatiladi. "Bir", "ikki", "yuz", "besh", "qirq", "yetti" kabi sonlar topishmoqlarda ko'pincha an'anaviy-madaniy tasavvurlar bilan bog'liq holda assotsiatsiyalanadi. Bu esa ularning semantik maydonini kengaytiradi va ularni ko'p qirrali til birliklariga aylantiradi. Topishmoqlarda miqdor ifodalovchi birliklar majoziy obrazlar vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular orqali voqelikni o'ziga xos tarzda talqin qilish, undagi predmet va hodisalarni boshqacha ko'rinishda tasvirlashga erishiladi. Masalan, "Og'a-ini ming botir, ko'm-ko'k gilamda yotir" topishmog'ida "yulduzlar" jonlantiriladi, tasviriylikka urg'u beradi va esda qolarli obraz yaratadi. Bu o'rinda assotsiativlik orqali xalq tafakkuri va dunyoqarashi namoyon bo'lmoqda. Og'a-inilarning mingtaligi va ular gilamda birday yastanishi bevosita osmon va undagi yulduzlar bilan assotsiatsiyalashadi.

"Bir yaproqda o'ttiz kelin soch taraydi" (oy) topishmog'ida "Bir yaproqda" so'zi 30 sonini bir joyda jamlanganini va yangilik semasi borligini ko'rsatadi. O'rta hisobda har bir oy 30 kunligini anglagan holatda tinglovchi topishmoqni darhol topadi. Shuningdek, "kelin" so'zida ham ana shu yangilik semasi mavjud, go'zallik, bezak, yangi ko'rinish bilan bog'lanadi, "soch tarash"da esa tartib mazmuni ifodalanadi. Oy esa folklorda go'zal, oppoq, yorqin tasvirlanadi va "kelin" metaforasi mos keladi, shu bois, u milliy estetikani eslatadi va go'zallikni namoyon etuvchi metafora kabi qiyoslanadi.

O'zbek topishmoqlarida miqdorni bildiruvchi so'zlar ko'p hollarda metaforik va simvolik ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi. Bu birliklar obrazli tafakkur vositasi sifatida xalq og'zaki ijodining asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Tilshunoslikda miqdoriy birliklarning bunday o'ziga xos assotsiativ xususiyatlarini o'rganish, faqat leksik darajada emas, balki madaniy, estetik va kognitiv kontekstda ham yondashishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акуленко, В.В. Категория количества в современных европейских языках / В.В. Акуленко. – Киев: Наук. думка, 1990. 284-с.
2. Арутюнова, Н.Д. Проблема числа / Н.Д. Арутюнова //Логический анализ языка. Квантитативный аспект языка. – М.: Индрик, 2005. 6-21-с.
3. Абдуллаев Ж.Х. Узбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол.фанлари номзоди дис. автореф. – Тошкент, 1994. 114-б.
4. Qobulova U. Metaforik matnda integral va differensial semalar munosabati (o'zbek xalq topishmoqlari misolida). –Filol.fanlari nomzodi dis. avtoref. – Toshkent, 2007.
5. Saparniyazova M. O'zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari. –Filol.fanlari nomzodi dis. – Toshkent, 2005.

Mohinur ERNAZAROVA,

Qo'qon universiteti

o'qituvchi stajyor

Email: ernazamohinur@gmail.com

TILLARARO INTERFERENSIYA VA TRANSFER TUSHUNCHASI: ZAMONAVIY NAZARIYALAR

Annotatsiya: mazkur maqola ingliz tilini o'zbek tilida so'zlovchi auditoriyada o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan tillararo interferensiya va transfer hodisalarining nazariy talqiniga bag'ishlangan. Tadqiqot amaliy tajriba emas, balki mahalliy va xorijiy tilshunoslarning nazariy qarashlarini tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish asosida olib borildi. Maqolada interferensiyaning grammatik, fonetik, leksik va pragmatik-madaniy ko'rinishlari lingvistik nazariya va til kontaktlari haqidagi ilmiy qarashlar asosida yoritiladi. Ishning ilmiy yangiligi shundaki, o'zbek tili strukturasi va madaniy kontekstining ingliz tili o'zlashtirilishiga ta'siri tizimli ravishda nazariy jihatdan tahlil qilindi. Ushbu maqola chet tilini o'qitishda interferensiya hodisasini inobatga olish zarurligini ko'rsatib, lingvodidaktika va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalariga metodik asos yaratadi.

Kalit so'zlar: *tillararo interferensiya, transfer, lingvistik kontaktlar, nazariy tahlil, pragmatik interferensiya, madaniyatlararo kommunikatsiya.*

Аннотация: данная статья посвящена теоретическому анализу явлений межъязыковой интерференции и трансфера, возникающих в процессе изучения английского языка узбекоязычными учащимися. Исследование основано на сравнении и обобщении взглядов отечественных и зарубежных лингвистов. Рассматриваются грамматические, фонетические, лексические и прагматические проявления интерференции в рамках теорий языковых контактов. Впервые системно проанализировано влияние структуры узбекского языка и культурного контекста на усвоение английского языка. Статья подчеркивает необходимость учета интерференции в обучении иностранным языкам и создает методологическую основу для лингводидактики и межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: *интерференция, трансфер, языковые контакты, английский язык, узбекский язык, лингводидактика, межкультурная коммуникация.*

Annotation: this article is devoted to the theoretical analysis of cross-linguistic interference and transfer phenomena observed in the process of English language acquisition by Uzbek-speaking learners. The research is based on the comparison and synthesis of views of both local and foreign linguists. It highlights grammatical, phonetic, lexical, and pragmatic manifestations of interference within the framework of theoretical approaches to language contact. The influence of Uzbek language structures and cultural context on English acquisition is analyzed systematically for the first time. The article emphasizes the importance of considering interference in foreign language teaching and provides a methodological basis for linguodidactics and intercultural communication.

Key words: *interference, transfer, language contact, English, Uzbek, linguodidactics, intercultural communication.*

Kirish. Har bir til xalqning tafakkuri, dunyoqarashi va ruhiyatining oynasidir. Yangi til o'rganilayotganda shaxs uni ona tilining tajribasi orqali idrok qiladi, bu jarayonda tillararo ta'sir – interferensiya yuzaga keladi. O'zbek tilida shakllangan nutqiy stereotiplar ingliz tilini o'rganishda so'z tartibi, zamon ishlatilishi va iboralarning bevosita tarjimai orqali seziladi. Natijada til o'rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy va psixologik sinovga aylanadi.

Ko'plab tadqiqotchilar (Weinreich, Selinker, Odlin, Corder) interferensiyaning lingvistik va metodik nuqtayi nazardan o'rganganlar. Ingliz tilidagi analitik tuzilmalar o'zbek tilining sintetik qurilishiga zid keladi, zamon kategoriyasi esa milliy tafakkur

bilan har doim mos kelmaydi. Shu bois o'zbek tilida shakllangan nutqiy stereotiplar ingliz tilida g'ayritabiiy aks etadi.

U. Vaynreich fonetik, leksik va grammatik o'zgarishlarni, L. Selinker esa "intertil" nazariyasi orqali ona tilining chet tilidagi izini ilmiy asoslagan. Bugungi kunda interferensiyaga nutqiy kompetensiya, madaniyatlararo muloqot va kommunikativ strategiyalar nuqtayi nazaridan yondashish zarur.

O'zbek tilining agglyutinatativ tuzilishi, erkin so'z tartibi va zamon shakllarining ixchamligi ingliz tilini o'rganishda grammatik xatolarga sabab bo'ladi. Milliy obrazli iboralar va maqollar bevosita tarjima qilinib, g'ayritabiiy ko'rinish oladi. Shu bois lingvistik

interferensiya madaniy-pragmatik to'siqlar bilan chambarchas bog'liq.

Mahalliy tadqiqotlar (Abdulazizov, Sodiqov, Radjabov va boshq.) ona tilining o'quvchi nutqidagi izlari va madaniy faktorlarning rolini yoritgan. Shu bilan birga, o'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi interferensiyaning nazariy manbalarni tahlil qilib izchil o'rganish ehtiyoji mavjud. Mazkur tadqiqot interferensiyaning fonetik, grammatik va madaniy-pragmatik ko'rinishlarini tahlil qilish va ta'lim jarayonidagi muammolarini yoritishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi. Til kontaktlari masalasi tilshunoslikda XX asrning o'rtalaridan boshlab mustaqil tadqiqot sohasi sifatida shakllandi. Bu boradagi ilk nazariy poydevor U. Weinreichning "Languages in Contact" (1953) asarida qo'yildi. U til o'rganuvchilarning nutqida uchraydigan grammatik va fonetik xatolarni til tizimlarining o'zaro to'qnashuvi natijasi sifatida izohlab, "interferensiya" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi. Weinreichning qarashlari keyingi yillarda tilshunoslikda til kontaktlari, ikki tillilik va madaniyatlararo muloqotning psixolingvistik jihatlarini o'rganishga asos bo'ldi.

Weinreich ishlarini davom ettirgan olimlardan biri L. Selinker (1972) bo'lib, u "intertil" (interlanguage) nazariyasini ilgari surdi. Selinker til o'rganuvchi ona tili va o'rganilayotgan til o'rtasida o'ziga xos "oralik til" tizimini yaratishini ta'kidladi. Bu tizim til o'rganuvchining strategik qarorlarini, o'zlashtirishdagi soddalashtirish va umumlashtirish jarayonlarini aks ettiradi. Shuningdek, S. P. Corder (1967) xatolarni "nutqdagi kamchilik" emas, balki "til o'zlashtirishning tabiiy bosqichi" sifatida baholab, interferensiyaning didaktik ahamiyatini ochib berdi. Ushbu nazariy qarashlar til o'rganishdagi xatolarni ijobiy baholash va o'quvchi nutqidagi "o'zgarishlarni" rivojlanish belgisi sifatida ko'rishga zamin yaratdi.

Keyingi yillarda bu nazariy asoslar turli psixolingvistik va fonetik yondashuvlar bilan boyitildi. Masalan, J. Odlin (1989) transfer tushunchasini kengaytirib, uni "ona tilidan kelib chiqadigan ijobiy va salbiy ta'sirlar majmui" sifatida ta'rifladi. U interferensiyaning transferning salbiy ko'rinishi sifatida tushuntirib, bu jarayonni lingvistik va madaniy faktorlar bilan bog'ladi. J. Flege (1995)ning "Speech Learning Model"i fonetik interferensiyaning fiziologik va idrok mexanizmlarini izohlashda muhim rol o'ynaydi: yangi til tovushlari ona tilidagi fonemalar filtri orqali qabul qilinib, talaffuzdagi "aks-sado" (accent)ni yuzaga keltiradi. Shuningdek, A. Ellis (1994; 2008) ikkinchi til o'zlashtirish jarayonini kognitiv jarayon sifatida ko'rib, interferensiyaning psixolingvistik nuqtayi nazardan tushuntirdi. Bu qarashlar til o'qitish metodikasida

kontrastiv va kommunikativ yondashuvlarning ahamiyatini yanada oshirdi.

Tilshunoslikdagi bu klassik va zamonaviy qarashlar mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham rivojlantirildi. Masalan, Abdulazizov (1992) fonetik interferensiyaning o'zbek nutqiy tizimi bilan bog'lab, urg'u va intonatsiya farqlarining ingliz tilida talaffuzdagi xatolarni shakllantirishini ilmiy asoslab berdi. Sodiqov (2015) grammatik interferensiyaning morfologik va sintaktik sathlarda o'rgandi va o'zbek tilining agglutinativ xususiyatlari ingliz tilida gap qurilishiga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Radjabov (2019) va Turaev (2022) madaniyatlararo tafovutlarning muloqot jarayonidagi o'rniga e'tibor qaratib, pragmatik interferensiyaning milliy madaniy stereotiplar bilan bog'lashdi. Muborak (2023) esa bu hodisani psixolingvistik modellar bilan izohlash orqali til o'rganishda motivatsiya va shaxsiy kognitiv strategiyalarning ahamiyatini ochib berdi.

Til kontaktlari va interferensiyaning izohlagan bu asarlarning umumiy xulosasi shundan iboratki, interferensiya — bu xato emas, balki til o'zlashtirish jarayonining tabiiy bosqichi. Til o'rganuvchining ona tili bilan bog'liq tajribasi yangi til tizimini tushunishda ko'maklashishi yoki to'siq bo'lishi mumkin. Bu jarayonni chuqur tushunish o'qituvchilar va til siyosatini ishlab chiquvchilar uchun metodik va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ushbu maqolada interferensiya hodisasi nazariy manbalar asosida tizimli ravishda tahlil qilinadi va til o'qitishda lingvistik hamda madaniy faktorlarni hisobga olish zarurligi ko'rsatib o'tiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot nazariy-deskriptiv va qiyosiy-lingvistik yondashuv asosida olib borildi. Maqolada empirik kuzatuv va statistik ma'lumotlar tahlili emas, balki mavjud ilmiy manbalar, nazariy yondashuvlar va lingvistik konsepsiyalar chuqur o'rganilib, tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Deskriptiv tahlil. Interferensiya va transfer hodisalariga bag'ishlangan klassik va zamonaviy ilmiy manbalar (Weinreich, Selinker, Corder, Odlin, Ellis va boshqalar), shuningdek, mahalliy tilshunoslarning (Abdulazizov, Sodiqov, Radjabov va h.k.) qarashlari tizimli ravishda o'rganildi. Asosiy termin va tushunchalar lingvistik an'analarga tayangan holda izohlandi.

2. Qiyosiy yondashuv. O'zbek va ingliz tillarining fonetik, grammatik, leksik va pragmatik xususiyatlari o'zaro qiyoslandi. Til kontaktlari nazariyasi asosida ikki tilning strukturaviy farqlari interferensiya hodisasiga qanday ta'sir qilishi tushuntirildi.

3. Tipologik umumlashtirish. Turli olimlarning ilmiy qarashlari umumlashtirilib, interferensiya va transfer

hodisalarini tushuntiruvchi nazariy model ishlab chiqildi. Ushbu model ona tili va o'rganilayotgan til o'rtasidagi o'zaro ta'sirni sistematik tahlil qilish imkonini beradi.

4. Nazariy yondashuvning ustunligi. Tadqiqotning asosiy maqsadi mavjud empirik kuzatuvlarni emas, balki interferensiya va til kontaktlari bo'yicha yaratilgan ilmiy ishlanmalarni tahlil qilish va ularni o'zbek auditoriyasi uchun moslashtirishdan iborat. Shu jihatdan, maqola chet tili o'qitish jarayonida nazariy bilimlarni amaliy tavsiyalarga aylantirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida, ushbu metodologik yondashuv maqolaning nazariy asoslanganligini, izchilligini va lingvistik jarayonlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot yondashuvi mavjud nazariy qarashlarni tizimlashtirib, interferensiya masalasini yangi burchakdan yoritishga zamin yaratadi.

Natijalar. Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy tahlillar va qiyosiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida so'zlashuvchi ingliz tili o'rganuvchilarida interferensiya hodisasi murakkab va ko'p qatlamli jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Interferensiya til tizimlarining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelib, grammatik, fonetik, leksik hamda pragmatik sathlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tadqiqotda ko'rib chiqilgan nazariy ishlanmalar, jumladan, Weinreich (1953), Selinker (1972) va Corder (1967) asarlari interferensiyaning tabiiy jarayon sifatida qaralishi, uni xatolarni to'g'rilash vositasi emas, balki til o'rganuvchining rivojlanish bosqichlarini tushunishga xizmat qiluvchi ko'rsatkich sifatida talqin qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Grammatik interferensiya eng chuqur va tizimli ko'rinish sifatida ajralib chiqdi. O'zbek tilining agglutinativ xususiyatlari, so'z tartibi (SOV), zamon va fe'l shakllaridagi murakkabliklar ingliz tilidagi analitik tuzilishga zid bo'lib, bu ikki til o'rtasida morfosintaktik to'siqlarni yuzaga keltiradi. Sodiqov (2015) va boshqa mahalliy tadqiqotchilar ishlarida bu xatolar muntazam qayd etilgan va ular, ayniqsa, fe'llarning zamon shakllarini to'g'ri qo'llash, artikllarni ishlatish va so'z tartibini saqlashda yaqqol namoyon bo'lishi ta'kidlangan. Bu holat o'quvchilar nutqida qattiq "ona tili filtri" mavjudligidan dalolat beradi.

Fonetik va talaffuzdagi interferensiya ham alohida ahamiyatga ega. Flege (1995)ning "Speech Learning Model" nazariyasi va Abdulazizov (1992)ning kuzatuvlari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida mavjud bo'lmagan fonemalar (masalan, /θ/, /ð/, /v/, diftong tovushlar) ingliz tilidagi talaffuzda aks-sado (accent) va farqlashdagi qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, urg'u va intonatsiya tizimlarining turlicha bo'lishi talaffuzda xatolarni yanada kuchaytiradi. Shu

jihatdan fonetik interferensiya nafaqat fonologik, balki idrok va eshitish mexanizmlaridagi farqlar bilan ham izohlanadi.

Leksik interferensiya ham keng tarqalgan va bu ko'proq semantik transfer bilan bog'liq. O'zbek tilidagi ma'nolarni inglizchaga so'zma-so'z tarjima qilish, madaniy konnotatsiyalarni tushunmaslik yoki noto'g'ri ishlatish natijasida xatoliklar paydo bo'ladi. Ellis (2008) va Muborak (2023) tadqiqotlarida leksik interferensiyaning madaniyatlararo tafovutlar bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi. Ingliz tilidagi idiomatik iboralar va frazeologik birliklarni o'zbek tilidagi an'anaviy ma'nolar bilan almashtirish o'quvchining tabiiy nutq ko'nikmasini shakllantirishda qiyinchilik tug'diradi.

Pragmatik va madaniy interferensiya esa hozircha yetarlicha chuqur o'rganilmagan bo'lsa-da, uning o'quvchilar nutqidagi roli sezilarli. Radjabov (2019) va Turaev (2022) ishlarida ko'rsatilishicha, o'zbek tilidagi muloqot madaniyati ko'proq hurmat shakllari va ijtimoiy masofani ta'minlovchi iboralarga asoslangan. Ingliz tili esa qisqa va to'g'ridan to'g'ri muloqot uslubi bilan ajralib turadi. Shu sababli ingliz tilida to'g'ridan to'g'ri gapirish usuli o'zbek tilida so'zlashuvchilarda psixologik noqulaylik tug'dirishi mumkin.

Tadqiqotda shuningdek, psixolingvistik nazariyalarning (Selinker, Corder) ta'siri sezildi: xatolarni ijobiy baholash va ularni o'rganuvchining "intertil"ni shakllantiruvchi bosqich sifatida talqin qilish yondashuvi o'zbek auditoriyasida ham to'liq o'zini oqlaydi. Bu qarash o'qituvchining xatolarni "tuzatish" emas, balki "tahlil qilish" va "to'g'ri metod bilan yengib o'tish" zarurligini ko'rsatadi.

Nazariy tahlil natijasida interferensiyaning barcha turlarini umumlashtirgan holda quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Grammatik interferensiya eng kuchli va asosiy muammo sifatida ajralib turadi; bu o'zbek va ingliz tillari tipologik farqlarining bevosita oqibatidir.
2. Fonetik interferensiya talaffuzdagi aks-sado, urg'u va intonatsiya xatolarining asosiy sababchisi bo'lib, fiziologik va psixolingvistik mexanizmlar bilan izohlanadi.
3. Leksik interferensiya semantik va madaniy tafovutlardan kelib chiqib, ingliz tilida tabiiy nutq qurish jarayonida katta qiyinchilik tug'diradi.
4. Pragmatik interferensiya nisbatan kam o'rganilgan, ammo muloqot madaniyatidagi madaniy tafovutlar ingliz tilida erkin so'zlashuvni cheklashi mumkin.
5. Interferensiya hodisasi o'zbek auditoriyasi uchun faqat "xatolik manbai" emas, balki o'quvchilarning til tizimini shakllantirishdagi tabiiy bosqich sifatida qaralishi lozim.

Umuman olganda, nazariy manbalar tahlili interferensiyaning har bir sathdagi namoyon bo'lish mexanizmlarini ochib berdi. Shu asosda til o'qitish jarayonida kontrastiv tahlil, madaniyatlararo yondashuv va fonetik tayyorgarlikka alohida e'tibor qaratish zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqotning ushbu natijalari o'zbek auditoriyasida ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishga ham nazariy, ham amaliy asos bo'la oladi.

Muhokama. Tadqiqot davomida o'rganilgan nazariy manbalar va qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, interferensiya hodisasi o'zbek tilida so'zlashuvchi ingliz tili o'rganuvchilari uchun eng asosiy to'siqlardan biridir. Ushbu xulosa Weinreich (1953)ning "til kontaktlari" nazariyasi va Selinker (1972)ning "intertil" konsepsiyasini tasdiqlaydi: ona tili ta'siri o'rganuvchi til tizimining ajralmas qismidir. Shunday qilib, interferensiyaning faqat "xato manbai" sifatida emas, balki til o'rganuvchining rivojlanish jarayonini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich sifatida qabul qilish zarur.

Grammatik interferensiya eng ko'p kuzatilgan hodisa bo'lib, bu ikki tilning tipologik tafovutlari bilan bevosita bog'liq. O'zbek tilining agglyutinativligi va so'z tartibi (SOV), ingliz tilidagi analitik tuzilma va qat'iy so'z tartibi (SVO) bilan solishtirilganda, o'quvchilar nutqida zamon shakllari, artikl ishlatish va predlog tanlashdagi xatoliklar tabiiy oqibat sifatida namoyon bo'ladi. Bu fikrlar Sodiqov (2015) va boshqa mahalliy tadqiqotchilar ishlarida keng yoritilgan. Muhokama jarayonida shu jihatdan grammatik xatolarni "kamchilik" emas, balki ikki tilning strukturaviy farqlarini o'rgatuvchi nazariy imkoniyat sifatida baholash mumkinligi ko'rsatildi.

Fonetik interferensiya esa o'zbek auditoriyasida ingliz tilini o'rganishdagi eng barqaror muammolardan biri bo'lib, bu boradagi nazariy qarashlar (Flege, Abdulazizov) tadqiqot natijalarini to'liq qo'llab-quvvatlaydi. Ona tilida mavjud bo'lmagan fonemalar talaffuzda doimiy aks-sado keltirib chiqaradi, urg'u va intonatsiyaning farqlari esa nutqning tabiiyligini pasaytiradi. Ushbu holatni yengish uchun fonetik tayyorgarlikka chuqurroq e'tibor qaratish lozimligi aniqlandi.

Leksik interferensiya natijalarda qayd etilganidek, madaniy tafovutlar va semantik transfer bilan chambarchas bog'liq. Inglizcha idiomalar va frazeologizmlarni o'zbekcha kontekst bilan almashtirish nutqning tabiiyligiga salbiy ta'sir qiladi. Ellis (2008) va Muborak (2023)ning semantik transfer haqidagi qarashlari bu xulosani mustahkamlaydi. Shu sababli leksik bazani faqat lug'at o'rganish orqali emas, balki madaniyatlararo yondashuv asosida shakllantirish zarurligi muhim tahliliy natija sifatida ilgari suriladi.

Pragmatik interferensiyaga oid natijalar shuni ko'rsatadiki, bu yo'nalish hali yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Biroq o'zbek tilida hurmat shakllari va ijtimoiy masofani ifodalovchi muloqot madaniyati bilan ingliz tilidagi to'g'ridan to'g'ri uslubning farqlari psixologik to'siqlar keltirib chiqaradi. Radjabov (2019) va Turaev (2022) ishlarida bu tafovutlar sotsiolingvistik jihatdan izohlanadi. Shuning uchun kelgusida pragmatik interferensiyaning yanada chuqurroq o'rganish dolzarb masala sifatida baholanishi mumkin.

Metodologiyada tanlangan nazariy-deskriptiv va qiyosiy yondashuvlar interferensiya hodisasini kompleks tushuntirishga xizmat qildi. Bu yondashuvlar nazariy manbalardagi qarashlarni tizimlashtirish, o'zbek va ingliz tillari strukturasi orasidagi asosiy tafovutlarni ochib berish va ularni metodik jihatdan baholash imkonini berdi. Shu bois, maqola nafaqat lingvistik nazariyani yoritadi, balki ingliz tilini o'zbek auditoriyasida o'qitish jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga ham asos yaratadi.

Muhokama natijasida shuni aytish mumkinki, interferensiya masalasi nazariy jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, u hali ham o'zbek tilida so'zlashuvchilar uchun chet til o'rganishning eng muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biridir. Ushbu maqola interferensiyaning grammatik, fonetik, leksik va pragmatik qatlamlarini tizimli o'rganish orqali mavjud ilmiy qarashlarga yangicha nazar bilan yondashdi va ularni bir butun konseptual modelda birlashtirishga harakat qildi. Bu yondashuv kelgusida chet tili o'qitish metodikasini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy zamin bo'la oladi.

Xulosa. Mazkur maqolada o'zbek tilida so'zlashuvchi ingliz tili o'rganuvchilarida interferensiya hodisasi nazariy-deskriptiv va qiyosiy tahlil asosida kompleks o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, interferensiya til o'rganish jarayonining tabiiy va ajralmas qismi bo'lib, u grammatik, fonetik, leksik hamda pragmatik darajalarda turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ushbu tadqiqot grammatik interferensiyaning o'quvchilarda eng ko'p uchraydigan va tizimli muammo ekanligini aniqladi. Bu, avvalo, o'zbek tilining agglyutinativ tuzilishi va ingliz tilining analitik tizimi o'rtasidagi tipologik tafovutlar bilan izohlanadi. Fonetik interferensiya esa talaffuzdagi aks-sado, urg'u va intonatsiya farqlari bilan bog'liq bo'lib, ularni bartaraf etish uzoq muddatli fonetik tayyorgarlikni talab qiladi. Leksik va pragmatik interferensiyalar esa ko'proq madaniyatlararo tafovutlardan kelib chiqib, ingliz tilida tabiiy muloqotni shakllantirish jarayonida katta rol o'ynaydi.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, u interferensiyaning barcha sathlarini yagona konseptual

yondashuv asosida birlashtirdi, klassik nazariyalar (Weinreich, Selinker, Corder) bilan mahalliy tadqiqotlar (Abdulazizov, Sodiqov, Radjabov va boshqalar)ni integratsiya qildi hamda o'zbek tilida so'zlashuvchilar kontekstida pragmatik interferensiya masalasini alohida yoritdi. Tadqiqot natijalari interferensiyaning faqat xatolik sifatida emas, balki o'quvchilarning yangi til tizimini o'zlashtirish bosqichidagi tabiiy jarayon sifatida baholash zarurligini ko'rsatdi.

Ushbu izlanish shu nazariyalarni integratsiya qilib, ularni o'zbek auditoriyasi kontekstida tatbiq etish orqali interferensiyaning to'rtta asosiy qatlamini yagona konseptual modelda yoritdi. Bu esa zamonaviy lingvistika va metodika sohasidagi izlanishlarga yangi nazariy va amaliy yondashuv olib kirdi. Tadqiqot natijalari ingliz tilini o'qitish jarayonida kontrastiv tahlil, madaniyatlararo yondashuv va fonetik tayyorgarlikni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash zarurligini ko'rsatdi.

Shunday qilib, maqola til kontaktlari va interferensiya masalasini zamonaviy nazariy paradigmalarga tayanib qayta ko'rib chiqdi va o'zbek auditoriyasida chet tilni o'qitish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga nazariy asos yaratdi.

Shuningdek, ushbu ish nazariy yondashuv asosida til o'qitish jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodik tavsiyalarni ishlab chiqishga zamin

yaratdi. Tadqiqotda qo'llangan qiyosiy va deskriptiv tahlillar til kontaktlari masalasini kengroq kontekstda tushunishga, interferensiyaning o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu jihatdan maqola o'zbek auditoriyasi uchun ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy nazariy yondashuvlar ham ushbu masalaga alohida urg'u beradi. Masalan, U. Weinreich til kontaktida interferensiyaning "norma va sistema darajasidagi chatishtirish" sifatida izohlar ekan, H. Ringbom va J. Odlinlar ikkinchi tilni o'rganishda transfer va interferensiya ajralmas hodisalar ekanini qayd etadilar. Bu qarashlar o'zbek tilidagi milliy nutq stereotiplari ingliz tilida bevosita ko'rinishini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Shunday qilib, til o'rganish jarayonida interferensiya hodisasini faqat xato sifatida emas, balki o'rganuvchining "ona til tajribasi"ni ikkinchi tilga ko'chirish jarayoni sifatida talqin qilish zarur. Eng muhimi, madaniy interferensiyaning yengish uchun faqat grammatik mashqlar emas, balki madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish lozim. Zero, til va madaniyat bir-biridan ajralmas hodisa bo'lib, ularni uyg'un o'zlashtirishgina chinakam samarali til o'rganishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulazizov A.A. O'zbek tili fonetikasi va fonologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.320-b.
2. Byram M. Teaching and assessing intercultural communicative competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. 138-p.
3. Corder S.P. The significance of learners' errors // International Review of Applied Linguistics in Language Teaching. 1967. – Vol. 5, No. 4. – P. 161–170.
4. Ellis R. The study of second language acquisition. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2008. 824-p.
5. Flege J.E. Second-language speech learning: Theory, findings, and problems // Strange W. (Ed.). Speech perception and linguistic experience: Issues in cross-language research. – Timonium, MD: York Press, 1995. 233-277-p.
6. Muborak S. Interferensiya hodisasi va lingvistik transfer nazariyasi // Filologiya masalalari. 2023. – №4(2). 15-23-b.
7. Odlin T. Language transfer: Cross-linguistic influence in language learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. 232-p.
8. Radjabov K. O'zbek tilida pragmatik interferensiya masalalari // Til va adabiyot ta'limi. 2019. – №3. 45-52-b.
9. Selinker L. Interlanguage // International Review of Applied Linguistics in Language Teaching. 1972. – Vol. 10, No. 3. 209-231-p.
10. Sodiqov B. Ingliz va o'zbek tillaridagi grammatik interferensiya muammolari // O'zbekiston filologiyasi jurnali, 2015.№2. 56-62-b.
11. Turaev A. Madaniyatlararo kommunikatsiyada pragmatik interferensiya // O'zbekiston tilshunosligi. – 2022. – №1. 78-85-b.
12. Weinreich U. Languages in contact: Findings and problems. – New York: Linguistic Circle of New York, 1953. 148-p.

Aziz YULDASHEV,
ToshDO'TAU o'qituvchisi

E-Mail: yuldashevaziz@navoiy-uni.uz

ToshDO'TAU professori, f.f.d Sh.Hamroyeva taqrizi asosida

TABIIY TILNI QAYTA ISHLASHDA “REGULAR IFODA” VA “N-GRAM” IMKONIYATLARI VA UNDAN TIL KORPUSI QIDIRUV TIZIMIDA FOYDALANISH

Annotatsiya: mazkur maqolada regular ifoda, n-gram imkoniyatlari va undan til korpusi qidiruv tizimida foydalanish haqida fikr yuritiladi. Regular iboralar belgilar qatorlari to'plamini tavsiflash uchun belgidir. Agar satr regular ifoda bilan tavsiflangan to'plamda bo'lsa, regular ifoda satrga mos keladi deb hisoblanadi. Regular ifodalar matnni qidirish, matnni almashtirish, matnni ajratish, matnni tekshirish kabi bir necha funksiyani ishga tushirishda ahamiyatli. N-gramm – bu berilgan matndan olingan n element (so'zlar yoki belgilar) ketma-ketligidir. Bu vosita (usul) tabiiy tilni qayta ishlashda (NLP) turli vazifalar uchun keng qo'llaniladi. N-gramm matn tahlili, tilni modellash, mashina tarjimai, xatolarni aniqlash va tuzatish, matn klassifikatsiyasi kabi ishlarda faol qo'llanadi.

Kalit so'zlar: regular ifoda, n-gram, matn tahlili, tilni modellash, mashina tarjimai, xatolarni aniqlash va tuzatish, matn klassifikatsiyasi.

Аннотация: в данной статье рассматриваются возможности регулярных выражений и n-грамм, а также их использование в поисковой системе языкового корпуса. Регулярные выражения — это обозначения для описания наборов строк символов. Строка считается соответствующей регулярному выражению, если она находится в наборе, описанном этим регулярным выражением. Регулярные выражения играют важную роль в выполнении нескольких функций, таких как поиск текста, замена текста, разделение текста и проверка текста. N-грамма — это последовательность из n элементов (слов или символов), извлеченных из заданного текста. Этот инструмент (метод) широко используется для различных задач в обработке естественного языка (NLP). N-граммы активно применяются в таких задачах, как анализ текста, моделирование языка, машинный перевод, обнаружение и исправление ошибок, классификация текста.

Ключевые слова: регулярные выражения, n-граммы, анализ текста, ошибок, классификация текста.

Annotation: this article discusses the capabilities of regular expressions and n-grams, as well as their use in a search engine for a language corpus. Regular expressions are notations for describing sets of character strings. A string is considered to match a regular expression if it is in the set described by that regular expression. Regular expressions play an important role in performing several functions, such as text search, text replacement, text splitting, and text validation. An n-gram is a sequence of n elements (words or characters) extracted from a given text. This tool (method) is widely used for various tasks in natural language processing (NLP). N-grams are actively used in tasks such as text analysis, language modeling, machine translation, error detection and correction, and text classification.

Key words: regular expressions, n-grams, text analysis, language modeling, machine translation, error detection and correction, text classification.

Regular ifodalar haqida.

NLP (Tabiiy tilni qayta ishlash)da “regular ifoda” (ingliz tilida “regular expression”) matn ichidagi unsur (aniq shaklga ega biror birlik)larni qidirish va moslashtirish uchun ishlatiladigan belgilar ketma-ketligidir. Ular matnni tahlil qilish, ajratishda juda ahamiyatli vosita hisoblanadi.

Kompyuter dasturlarida matn bilan ishlashda, matndagi kichik satrlarni qidirish uchun ishlatiladigan rasmiy til – bu regular ifodalardir. Ular metasimvollaridan foydalanishga asoslangan, qidirish uchun belgilar va

metasimvollaridan iborat bo'lgan va qidiruv qoidasini belgilovchi namuna satri (inglizcha: “pattern”, rus tilida ko'pincha “shablon” deb ataladi) ishlatiladi¹.

Regular iboralar belgilar qatorlari to'plamini tavsiflash uchun belgidir. Agar satr regular ifoda bilan tavsiflangan to'plamda bo'lsa, regular ifoda satrga mos keladi deb hisoblanadi. Eng oddiy regular ifoda alifbo belgisidir.

Turli tillardagi regular ifodalarning imkoniyatlari farq qiladi:

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki>

PCRE (perl, php) – Perl’ga mos keluvchi regular ifodalar.

Python – Piton.

javascript – Javaskript.

Golang – Golang².

Regular ifodalar bir necha funksiyani ishga tushirishda ahamiyatli bo’lib, quyida ular haqida to’xtalamiz.

Matnni qidirish. Regular ifodalar matn ichidagi ma’lum bir shaklga mos keladigan so’zlarni yoki iboralarni topishda qo’llanadi.

Matnni almashtirish. Regular ifodalar matn ichidagi ma’lum bir shaklga mos keladigan qismlarni boshqa shakl bilan almashtirishda qo’llanadi.

Matnni ajratish. Regular ifodalar matnni ma’lum bir shakl asosida qismlarga ajratishda qo’llanadi.

Matnni tekshirish. Regular ifodalar matnning ma’lum bir shaklga mos kelishini tekshirishda ishlatiladi³.

Regular ifodalar tadqiqiga bag’ishlangan bir qator maqola, qo’llanma va ma’ruza matnlari e’tiborimizni tortdi⁴.

Regular ifodalarning asosiy elementlari sifatida quyidagilardan foydalaniladi:

Oddiy belgilar: harflar, raqamlar va boshqa belgilardan regular ifodalar shakllantiriladi.

Metaxarakterlar: maxsus ma’noga ega bo’lgan belgilar ishlatiladi. Masalan:

“.” (nuqta) – har qanday bitta belgiga mos keladi.

“*” (yulduzcha) – oldingi belgi 0 yoki undan ko’p marta takrorlanishiga mos keladi.

“+” (plyus) – oldingi belgi 1 yoki undan ko’p marta takrorlanishiga mos keladi.

“?” (so’roq belgisi) – oldingi belgi 0 yoki 1 marta takrorlanishiga mos keladi.

“[]” (kvadrat qavslar) – belgilar to’plamiga mos keladi.

“()” (oddiy qavslar) – belgilarni guruhlash uchun ishlatiladi.

“|” (vertikal chiziq) – “yoki” operatori.

“^” (karet) – satr boshiga mos keladi.

“\$” (dollar belgisi) – satr oxiriga mos keladi.

“\” (teskari chiziq) – maxsus belgining maxsus ma’nosini bekor qilish uchun ishlatiladi⁵.

Misollar:

[0-9]+ – bir yoki undan ko’p raqamlarga mos keladi.

[a-zA-Z]+ – bir yoki undan ko’p harflarga mos keladi.

[a-z]+@[a-z]+\.[a-z]+ – elektron pochta manziliga mos keladi.

[0-9]{3}-[0-9]{2}-[0-9]{2} – sanaga mos keladi (masalan, 2023-10-27).

alert(“IO”.match(/./)); // IO⁶

let regexp = /CS.4/;

alert(“CSS4”.match(regexp)); // CSS4

alert(“CS-4”.match(regexp)); // CS-4

alert(“CS 4”.match(regexp)); // CS 4 (probel ham simvol sanaladi)⁷.

Modifikatorlar. Ular, shuningdek, bayroqlar deb ham ataladi. Bular matnni qidirish yoki almashtirish uchun sozlamalarni belgilovchi muayyan parametrlardir. Modifikatorlar ko’p, quyida eng ko’p qo’llanadigan modifikatorlarni sanab o’tamiz:

i – harflar registrini e’tiborga olmaslik;

g – barcha mosliklarni qidirish;

u – unicode-belgilarni qo’llab-quvvatlash⁸.

Alternativlik. Oddiy qilib aytganda, bu shartdir. Alternatsiya | belgisi bilan belgilanadi va regular ifodaga mos kelishi mumkin bo’lgan bir nechta variantlarni ko’rsatadi. Masalan, (olma|banan) regular ifodasi “olma” yoki “banan” so’zini o’z ichiga olgan satrlarni qidiradi. Belgilar qavslarga guruhlanadi. Bunda istalgan miqdordagi belgilar uchun “yoki” shartini qo’shish mumkin: (a|b|c|d)⁹.

NLPda regular ifodalar aniq funksiyalarni bajarishda quyidagicha foydalanish mumkin:

Tokenizatsiya: matnni so’zlarga yoki boshqa kichik birliklarga ajratishda ishlatiladi.

Matnni tozalash: matndagi keraksiz belgilarni yoki naqshlarni olib tashlashda foydalaniladi.

Ma’lumotlarni ajratib olish: matndan ma’lum bir shaklga mos keladigan ma’lumotlarni ajratib olish (masalan, elektron pochta manzillari, telefon raqamlari, sanalar).

Matnni tahlil qilish: matndagi ma’lum bir shakllarning mavjudligini tekshirishda ishlatiladi.

Regular ifodalar NLPda juda muhim rol o’ynaydi va matnni qayta ishlashning ko’plab vazifalarini bajarishga yordam beradi.

Til korpusida regular ifodalardan foydalanish

Korpus matnlarida qidiruvni amalga oshirishda regular ifodalardan (regex) foydalanish qidiruv imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishga, uni yanada moslashuvchan va aniq qilishga imkon beradi. Buni amalga oshirish mexanizmi quyida keltiriladi.

6 <https://learn.javascript.ru/regexp-character-classes>

7 <https://learn.javascript.ru/regexp-character-classes>

8 <https://htmlacademy.ru/blog/js/regexp-howto>

9 <https://htmlacademy.ru/blog/js/regexp-howto>

2 http://www.machinelearning.ru/wiki/images/5/50/Korolev_RegExp.pdf

3 <https://learn.javascript.ru/regular-expressions>

4 Фридл Дж. Регулярные выражения, 3-е издание. – Пер. с англ. – СПб.: Символ-Плюс, 2008. – 608 с. (Mastering Regular Expressions Jeffrey E.F. Friedl.); Введение в регулярные выражения // <https://www.williamspublishing.com/PDF/5-8459-0937-6/part.pdf>; Zakharov, K. Регулярные выражения и их применение в работе с открытыми данными. // <https://www.academia.edu>

5 <https://learn.microsoft.com/ru-ru/deployedge/edge-learnmore-regex>

Buning uchun regular ifodalarning asoslari aniqlab olinishi talab etiladi. Avvalo, regexning asosiy elementlari o'zlashtiriladi:

- 1) belgilar ("a", "b", "1", "2");
- 2) metabelgilar (".", "*", "+", "?", "[]", "()");
- 3) kvantifikatorlar ("{n}", "{n,}", "{n,m}")¹⁰.

Bu elementlar qidiruv tizimida murakkab shablonlarni yaratishga imkon beradi.

Korpus menejerlarida regular ifodalardan foydalanish qator funksiyalarni ishlab chiqishni ta'minlaydi. Ko'pgina zamonaviy korpus menejerlari regular ifodalardan foydalangan holda qidiruvni qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, rus tili milliy korpusi (HKPР) shunday imkoniyatni taqdim etadi. Korpus menejerining interfeysida odatda regular ifodalarni kiritish uchun opsiya mavjud. Regular ifodalarni kiritishda muayyan vosita tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan sintaksisni hisobga olish kerak.

1. Muayyan qo'shimchalarga ega so'zlar qidiruvini quyidagicha amalga oshiriladi. Masalan, `.*(ov|ev)\b` "ov" yoki "ev" bilan tugaydigan barcha so'zlarni topadi.

2. Muayyan prefikslarga ega so'zlarni izlashda ishlatiladi. Masalan: `\b(bez|pod).*` "bez" yoki "pod" bilan boshlanadigan so'zlarni topadi.

3. Muayyan miqdordagi belgilarga ega so'zlarni izlashda ishlatiladi. Masalan: `\b\w{5}\b` 5 harfdan iborat barcha so'zlarni topadi.

4. Muayyan belgilar ketma-ketligini izlashda ishlatiladi. Masalan: `[aeoyiouieyuya]{2,}` ketma-ket ikki va undan ortiq unli harflarni o'z ichiga olgan so'zlarni topadi.

5. Tushirib qoldirilgan harflari bo'lgan so'zlarni izlashda ishlatiladi. Masalan: `k.r.v.a` "krova" va "kurva" so'zlarini topadi.

Regular ifodalardan foydalanishda oddiy regular ifodalardan boshlash, ularni asta-sekin murakkablashtirish maqsadga muvofiq. Talab qilinadigan shablonlarni tekshirish uchun onlayn regular ifoda testerlaridan foydalanish lozim. Korpus menejerining hujjatlari diqqat bilan o'rganilgach, u qanday regular ifodalar imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlashi aniqlanadi.

Regular ifodalar registrga sezgir bo'lishi mumkin. So'rovlarni tuzishda buni hisobga olish kerak. Murakkab regular ifodalar, ayniqsa katta korpuslarda, izlashni sekinlashtirishi mumkin. Turli dastur va korpuslar farqli regular ifodalar sintaksisidan foydalanishi mumkin. Korpus qidiruvida regular ifodalardan foydalanish matnlarda murakkab va o'ziga xos shakllarni topishga imkon berib, lingvistik tadqiqotlar uchun keng

imkoniyatlar ochadi. Ko'pgina korpus menejerlari regular ifodalarni kiritish uchun interfeys taqdim etadi. Ba'zi korpus menejerlari morfologik belgilar yoki sintaksis munosabatlarini hisobga olgan holda izlash kabi qo'shimcha funksiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Lisoniy birliklar qidiruvida regular ifodalardan foydalanishga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

1. *Muayyan morfologik belgilarga ega so'zlarni qidirish.* Masalan, muayyan kelishik yoki sondagi barcha otlarni qidirish uchun regular ifodalardan foydalanish mumkin.

2. *Sintaksis konstruksiyalarini qidirish.* Fe'llar va otlar kombinatsiyasi kabi muayyan sintaktik birlikma (qurilma)larni qidirishda regular ifodalardan foydalanish mumkin.

3. *Kollokatsiyalarni qidirish.* Ko'pincha birga keladigan so'zlarni (turg'un va erkin birlikma) qidirishda regular ifodalardan foydalanish mumkin.

4. *Yozilish variantlarini qidirish.* Regular ifodalar turli (o'zgaruvchan) yozilishga ega so'zlarni topishga imkon beradi.

Regular ifodalar yordamida korpusda qidiruv imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish, yanada aniq va to'liq natijalarga erishish mumkin.

O'zbek tili korpusida qidiruv uchun regular ifodalardan foydalanish lingvistik tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar ochadi. Buni amalga oshirish haqida quyida umumiy tartibda qisqacha izohlaymiz.

O'zbek tilining xususiyatlaridan kelib chiqib regular ifodalarni qo'llash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

1. *Agglyutativlik.* O'zbek tili agglyutativ til bo'lib, bu so'zlar asosga qo'shimcha(lar) qo'shish orqali hosil bo'lishini anglatadi: asosga qo'shimcha qo'shilganda so'z shakli grammatik jihatdan o'zgaradi yoki yangi so'z yasaladi. Bunday holda muayyan morfologik belgilarga ega so'zlarni qidirishda regular ifodalardan foydalanish juda yaxshi natija beradi.

2. *Unlilar uyg'unligi (singarmonizm).* O'zbek tilida unlilar uyg'unligi qonuni amal qiladi, buni regular ifodalarni tuzishda hisobga olish talab etiladi.

3. *Qo'shimchalarning xilma-xilligi.* O'zbek tilidagi qo'shimchalarning ko'pligi aniq izlash uchun regular ifodalarni yaratishni talab qiladi.

O'zbek tili korpusi birliklari qidiruvida ahamiyatli bo'lgan regular ifodalarning asosiy unsurlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- 1) `\b`: so'z chegarasi;
- 2) `\w`: harf belgisi;
- 3) `*`: nol yoki undan ko'p takrorlanish;
- 4) `+`: bir yoki undan ko'p takrorlanish;
- 5) `?`: nol yoki bir takrorlanish;

¹⁰ <https://habr.com/ru/articles/545150/>

- 6) []: belgilar to'plami;
- 7) (): guruhlash;
- 8) |: yoki.

O'zbek tili korpusida regular ifodalardan foydalanishni qisqacha ta'riflaymiz. Ishning keyingi boblarida bu masalaga maxsus to'xtalamiz.

1. O'zbek tili korpusida regular ifodalardan foydalangan holda muayyan qo'shimchalarga ega so'zlar qidiruvini amalga oshirish mumkin. Masalan:

- 1) ***(lar|larning)\b**: ko'plikni izlash.
- 2) ***(dan|ga)\b**: muayyan kelishikdagi so'zlarni izlash.

2. O'zbek tili korpusida regular ifodalardan foydalangan holda muayyan prefiks (old qo'shimcha) larga ega so'zlar qidiruvini amalga oshirish mumkin. Masalan: **\b(be|no)***: belgiga ega emaslik xususiyatli sifat yasovchi oldqo'shimchalarga ega so'zlarni izlash.

3. O'zbek tili korpusida regular ifodalardan foydalangan holda muayyan miqdordagi belgilarga ega so'zlar qidiruvini amalga oshirish mumkin. Masalan: **\bw{5}\b**: 5 harfli so'zlarni izlash.

4. O'zbek tili korpusida regular ifodalardan foydalangan holda ma'lum belgilar ketma-ketligi qidiruvini amalga oshirish mumkin. Masalan: **[aeyoiueiyuya]{2,}**: ketma-ket ikki va undan ortiq unli harflarga ega so'zlarni izlash.

5. O'zbek tili korpusida regular ifodalardan foydalangan holda ma'lum bir zamondagi fe'llar qidiruvini amalga oshirish mumkin. Masalan: ***(di|yapti)\b**: hozirgi zamondagi fe'llarni izlash.

6. O'zbek tili korpusida regular ifodalardan foydalangan holda ma'lum bir mavzuga tegishli so'zlar qidiruvini amalga oshirish mumkin. Masalan:

\b(kitob|maktab)\b: "kitob" yoki "maktab" so'zlarini izlash.

O'zbek tili korpusi bilan ishlash uchun turli vositalar mavjud bo'lib, regular ifodalarni qo'llab-quvvatlaydigan korpus menejerlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, o'zbek tili korpusi qidiruv tizimida regular ifodalarni tuzishda o'zbek morfologiyasi va fonetikasining xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Murakkab regular ifodalar qidiruvni sekinlashtirishi mumkin. O'zbek alifbosi bilan to'g'ri ishlash uchun "unicode"ni qo'llab-quvvatlaydigan vositalardan foydalanish lozim. O'zbek tili korpusida regular ifodalardan foydalanish chuqur lingvistik tahlil o'tkazish, tilning tuzilishi va qo'llanilishi haqida qimmatli ma'lumotlar olishga imkon beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zbek tili korpusi qidiruv tizimida regular ifodalardan foydalanish imkoniyati keng bo'lib, bu qidiruv tizimini

mukammallashtirish hamda foydalanuvchiga qulaylik yaratish imkonini beradi.

n-gram va uning imkoniyatlari xususida

N-gramm – bu berilgan matndan olingan n element (so'zlar yoki belgilar) ketma-ketligidir. Bu vosita (usul) tabiiy tilni qayta ishlashda (NLP) turli vazifalar uchun keng qo'llaniladi.

N-gramm – bu kontekstga qarab tovush, bo'g'in, so'zlar yoki harflardan iborat n elementdan tashkil topgan ketma-ketlikdir. Ko'pincha, N-gramma – bu so'zlar ketma-ketligi bo'lib, ularning barqaror kombinatsiyalari so'z birikmalari deb ataladi. Ikki elementdan iborat ketma-ketlik bigramma, uch elementdan iborat ketma-ketlik esa trigramma deb ataladi. To'rt yoki undan ortiq elementdan iborat ketma-ketlik N-gramma deb ataladi, bu yerda N – elementlar soni¹¹.

Quyida n-gram bilan yechilishi mumkin bo'lgan masalalarning ayrimlarini keltiramiz:

1. *Matn tahlili*. N-grammlar muayyan so'zlar yoki belgilar ketma-ketligining chastotasi (uchrash tezligi) ni tahlil qilishga imkon beradi. Bu tilning qonuniyat va xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

2. *Tilni modelashtirish*. N-grammlar ketma-ketlikda keyingi so'z yoki belgini taxmin qila oladigan tilning statistik modellarini yaratishda ishlatiladi.

N-grammlar matn ma'lumotlarini tahlil qilish va qayta ishlashda kuchli vosita bo'lib, tilning qonuniyatlari va xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi¹².

Korpusda n-grammlarni yaratish – bu matn ma'lumotlaridan n element (so'z yoki belgi) ketma-ketligini olish jarayonidir. Bu jarayon M.Nagao va S.Morilarning "A New Method of N-gram Statistics for Large Number of n and Automatic Extraction of Words and Phrases from Large Text Data of Japanese", G.Sidorovning "Syntactic Dependency Based N-grams in Rule Based Automatic English as Second

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yuqorida sanab o'tilgan omillarni inobatga olgan holda o'zbek tilining morfologik tahlili uchun vositalardan foydalanish; so'zlarni ularning asosiy shakliga keltirish uchun lemmatizatsiyani qo'llash; unlilar uyg'unligini va o'zbek tilining boshqa fonetik xususiyatlarini hisobga olish; matnlarning shevaga mansubligiga e'tibor berish; n-grammlarni yaratish vositasining "unicode"ni qo'llab-quvvatlashiga ishonch hosil qilish maqsadga muvofiq. Bu xususiyatlarni hisobga olgan holda, o'zbek tilini tahlil qilish uchun aniq n-grammlarni ajratib olish mumkin.

¹¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki>
¹²



ADABIYOTSHUNOSLIK

Gulchehra IMOMOVA,
QarshiDU. Filologiya fanlari doktori



ROMAN STRUKTURASIDA MILLIY XARAKTERLARNI TIPIK SHAROITLARDA HAQQONiy TASVIRLASH ZARURATI

Annotatsiya: badiiy ijodda yorqin tipik xarakterlar yaratishning muhimligi ko'p ta'kidlanadi. Ammo bu maqsadga yetishda milliy tilning ahamiyati kam o'rganiladi. Holbuki, hech bir tipik xarakter badiiy nutqning ishtirokisiz dunyoga kelmaydi. Tipiklashtirishning asosiy nuqtalari umumlashtirish, individuallashtirish va mubolag'a bilan cheklanmaydi, bizning qarashimizcha, tipiklik milliylikni ham talab qiladi

Jumladan, tip hayotda, adabiy tip badiiy asarda bo'ladi, deb ko'rsatiladi. Bu, umuman, to'g'ri. Ammo badiiy tip qaysi xalq adabiyotida yaratilmasin, avvalo, milliy qiyofaga ega bo'lishi lozim. Milliy qiyofa (xarakter)ni esa milliy muhit va sharoitda, hayotdagi hodisalarni haqqoniyat bilan umumlashtirib ifodalash orqali tipiklashtirish mumkin.

Albatta, tipiklashtirish yozuvchining dunyoqarashiga, uslubiga, yaratgan badiiy asarining hamma komponentlari (xarakter, syujet, kompozitsiya, konflikt va til)ga taalluqlidir. Adabiy tip esa ijtimoiy tipdagi kishilarning milliy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan individual (xususiy) qiyofadir. Demak, tipiklik xususiylik va yakka bilan umumiylik va milliylikning jamlanganidir.

Mazkur maqolada yuqoridagi ilmiy-nazariy qarashlar asosida roman strukturasidagi milliy xarakterlarni tipik sharoitlarda haqqoniy tasvirlash zaruriyatini tahlillarda ko'rib chiqdik.

Kalit so'zlar: *uslub, mahorat, milliylik, tipiklik, muhit, mafkura, sharoit, estetik ideal, badiiy til, poetik nutq, xarakter, obraz, hodisa, realistlik, jarayon.*

Annotation: the importance of creating vivid typical characters in artistic creation is often emphasized. However, the importance of the national language in achieving this goal is little studied. However, no typical character is born without the participation of artistic speech. The main points of typification are not limited to generalization, individualization, and exaggeration; in our view, typicality also requires nationality.

In particular, it is indicated that the type exists in life, and the literary type - in a work of art. This is generally true. However, regardless of the literature of the people in which the artistic type is created, it must first of all have a national character. The national image (character) can be typified in the national environment and conditions, by truthfully generalizing life events.

Of course, typification applies to the writer's worldview, style, and all components of the created work of art (character, plot, composition, conflict, and language). Literary type is an individual (private) image that embodies the national characteristics of people of the social type. Thus, typicality is the combination of specificity and individuality with commonality and nationality.

In this article, based on the above scientific and theoretical views, we analyzed the necessity of truthfully depicting national characters in the structure of the novel in typical conditions.

Key words: *style, skill, nationality, typicality, environment, ideology, conditions, aesthetic ideal, artistic language, poetic speech, character, image, phenomenon, realistic, process.*

Аннотация: в художественном творчестве часто подчеркивается важность создания ярких типичных характеров. Однако значение национального языка в достижении этой цели мало изучено. Однако ни один типичный персонаж не рождается без участия художественной речи. Основные моменты типизации не ограничиваются обобщением, индивидуализацией и преувеличением; на наш взгляд, типичность также требует национальности.

В частности, указывается, что тип существует в жизни, а литературный тип - в художественном произведении. Это, в общем, верно. Однако, независимо от того, в литературе какого народа создан художественный тип, он должен прежде всего иметь национальный характер. Национальный образ (характер) можно типизировать в национальной среде и условиях, обобщая жизненные события с достоверностью.

Конечно, типизация относится к мировоззрению писателя, стилю, всем компонентам созданного им художественного произведения (характер, сюжет, композиция, конфликт и язык). Литературный тип — это индивидуальный (частный) образ, воплощающий в себе национальные особенности людей социального типа. Таким образом, типичность - это сочетание частности и индивидуальности с общностью и национальностью.

В данной статье на основе вышеуказанных научно-теоретических взглядов мы рассмотрели необходимость правдивого изображения национальных характеров в структуре романа в типичных условиях.

Ключевые слова: стиль, мастерство, национальность, типичность, среда, идеология, условия, эстетический идеал, художественный язык, поэтическая речь, характер, образ, явление, реализм, процесс.

Biz tip va tipiklashtirishga oid tadqiqotlarni o'rganib shunday fikrga keldikki, badiiy obraz, avvalo, individual va takrorsiz bo'ladi. Ayni vaqtda individual obrazning badiiy asarda tutgan o'rni, ruhiy holati, maqsad va intilishlari hayotdagi maslakdoshlarining umumlashma ko'rinishidir. Yana shuni aytish kerakki, milliy qiyofalar ijtimoiy davr sharoiti zamirida vujudga keladi hamda milliy xarakterlar faqat ichki dunyo tasviri bilangina yaratilmaydi, balki ularni o'rab olgan, harakatga undovchi ijtimoiy muhit va sharoit tasviri bilan birga yaratiladi. Bundan tashqari, badiiy asarda yozuvchi qahramonlar qiyofasini, asardagi xarakterlarni turli xil muhit ichida (oila, jamiyat, davr va tarix) gavdalanitiradi.

Muhitdagi xilma-xillik badiiy asar bosh qahramonlarining qiyofasidagi o'ziga xos tipiklikni va individuallikni ko'rsatib berish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan milliy muhit bilan milliy qiyofaning bir-biriga muvofiqligi haqqoniy asarning bosh mezoni hisoblanadi. Albatta, tipik bo'lmagan sharoitda tipik milliy qiyofalar vujudga kelmaydi.

Fikrimizni dalillash uchun milliy adabiyotimizning durdonalari bo'lmish A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" va Oybekning "Qutlug' qon" romanlaridagi bir xil muhitga (to'y, turmushga chiqish) tushib qolgan, ikki Sharq xotin-qizlarida shakllangan mutelik, ota-ona, er orzusiga qarshi bormaslik, hayo va ibo, uyatchanlik kabi xislatlar Kumushbibi hamda Nuriy obrazlarida sharoit va muhitga mos holda berilganini qiyosiy tahlil etamiz.

"To'y! Bu xabarni eshitgan Kumushbibining qora ko'zlari jiqqa yoshga to'lib, kipriklari yosh bilan belandilar. Qizlar majlisi, Kumushbibi qizlar bazmi ichida bo'lsa ham xayollari allaqayoqlarda uchib

yurgandek ... bu qiziq majlis uning uchun bazm o'rnini emas, aza joyini tuggandek. Kumushbibidan vakolat olish ham juda qiyin bo'ldi. Domlanning vakolati so'rog'i olti-yetti qaytarilgandan keyin, yangalar qistovida arang uning rizoligi olindi. Nikohdan so'ng Otabek uyga kirganda uyning to'rida, ro'molining uchini tugibmi, yirtibmi Kumushbibi turadir va kim keldi, deb yoniga qaramaydir. Ro'mol tugish bilan mashg'ul latif qo'llarini yot qo'l kelib siqdi.

— Jonim!

Kumushbibi begona qo'ldan seskandi va qo'llarini qutqazmoqqa tirishib:

— Ushlamangiz! — dedi ham siquvchan qo'ldan qutilish uchun orqaga tislandi.

Titragan va qovjiragan bir tovushda:

—Nega qochasiz?! Nega qaramaysiz?! — dedi bek. Kumushbibi shu choqqacha qaramagan va qarashni ham tilamagan edi. Majburiyat ostida yovqarash bilan sekingina dushmaniga qaradi...

—Siz o'shami?"¹

Kumushbibi holatini tahlil qilishdan avval "Qutlug' qon" romanidagi Nuriyning turmushga chiqish tafsilotiga to'xtalamiz.

"To'y! Nuriy to'y munosabati bilan o'ziga atab yasalgan to'qqiz duxoba va to'qqiz nav shohi ko'rpachani tomosha qildi. Uning es-hushi erga tegish, bugungi kunni ikki, balki uch yildan beri kutar edi.

Qizlar majlisi. Nuri alohida xonada o'z o'rtoqlari — obro'li oilalarning qizlari oldida, ...quvonchi ko'ksiga sig'masa-da, nazokat va odob yuzasidan o'zini xomush, hazin tutishga tirishar edi. Ba'zi qizlar nikoh vaqtida uning shoshganligidan kulishar ekan, u o'zini soddalikka solib der edi:

¹ А.Қодирий. "Ўтган кунлар". – Т.: Адабиёт ва санъат. 1995. 62-б.

— Qaydan bilay, yana domla pochchamning jahllari chiqmasin, deb ikkinchi so'roqdayoq javob berib qo'ya qoldimda. O'zlariyam juda salmoqlanib so'zlar ekanlar.²

“...Kuyov Nurining o'ng qo'lidan ushladi...”

Nuri noz qilgandek sal burilib o'tirdi. Uning quloqlari shang'illar, ko'ksini hislar to'liqlantirar, yuragi qattiq urardi. Kuyov uyalgan kabi bir necha vaqt jim qoldi. Nuri, go'yo o'z-o'ziga degandek, sekingina dedi: “Juda isib ketdim”. Kuyov ikkinchi qo'li bilan ro'molini ko'tardi-da, shivirladi.

— Jonim, menga qarang. Xursandmisiz? Nuri ko'zlarini suzib nozli tabassum bilan unga yuzini o'girdi. Chuvak yuzli, siyrak, sarg'ish mo'ylovli, irjaygan quvgina yigitga bir oz tikildi-da, boshini asta quyi soldi va ichida xo'rsindi³.

Biz bir xil sharoit va muhitning qahramoni ruhiyatiga har xil ta'sirini ochibroq ko'rsatish maqsadida ilgarigi milliy to'y tasvirini va to'ygacha kuyovni ko'rmagan, eshitmagan kelinlar xarakterini qiyoslab keltirdik.

“O'tkan kunlar” romanidagi Kumushbibi ham “Qutlug' qon” romanidagi Nurioy ham o'tmish ayollarimizning tipik vakillaridir.

Faqatgina ularning xarakterlari, o'zlarini tutishlari, muhitga moslashuvlari o'zgachadir.

Yana qizig'i shundaki, A.Qodiriy Kumushbibi obrazini to'y muhitiga o'rab berganda ayollar nazokatini, to'y haqidagi xabarni eshitgan qizning holatini qanchalik tiniq qilib bersa, Oybekda ham xuddi shunday. Nurioyning to'y kunidagi o'zini tutishini “yolg'ondakam nazokati”ni bor holicha ochib beradi. Demak, ikkala obraz ham yozuvchilarning o'ziga xos ayollar haqidagi idealini ifodalaydi.

Kumushbibi to'y haqidagi xabarni eshitganda “qora ko'zlari jiqqa yoshga to'ladi”, Nurioy bu xabarni eshitganda esa “ikki-uch yildan beri kutib yurgan orzusiga yetganday quvonadi”. Lekin ikkalasi ham kimga, qanday odamga erga tegayotganini bilmaydi. Asarlardagi tasvir etilgan sharoit tabiiy, qizlar muhit ichida, ya'ni muhitdan chiqishni xayollariga ham keltirmaydi, faqat xarakter xususiyatlari bilan yaratilgan sharoitga individual yondashadilar.

Tabiatan ko'ngli nozik, muloyim, latofatli Kumushbibi unashilgandan keyin tun ham, kun ham yig'laydi, ammo hech kimga bildirmay cho'ntagidan ro'molchasini olib ko'z yoshini quritadi.

Uning qiyofasidagi bokiralik, bosiqlik, kamgaplik, ayollarga xos itoatkorlik tarbiyalangan muhitidan, onasi Oftoboyimdan o'tgan bo'lsa ajab emas. Romanda berilishicha, Oftob oyim ham boshqa

xotinlardek erining ra'yi va xohishini, umuman butun shaxsini ehtirom qiluvchi, kerak bo'lganda fikrini ochiq aytishga yuraksina olmaydigan, o'z dardi bilan o'zi qovuriladigan ayollarning tipik vakilidir.

Shunday ona qo'lida tarbiya olgan Kumushbibida uyatchanlik, hayo va ibo kuchli. Uning tortinchoqligi chiroyiga chiroy qo'shib tili vositasida anglashiladi. Otabekning “Nega qochasiz?! Qaramaysiz?!”, degan savoliga javoban majburiyat ostida yovqarash bilan dushmaniga qaraydi va hayajonlangan tovush bilan so'raydi: “Siz o'shami?!”

Shu birgina so'z yetti kundan beri tortgan azoblari, ko'z yoshlari, dardli qiynoqlari, “er” haqidagi vahimalarining, qolaversa, ariq bo'yidagi birgina nigohning mahsuli edi.

Nurining tabiatida esa yengillik bilan makr ustun, u “go'yoki to'yning umumiy nash'asiga qo'shilmaganday ko'rinadi, yuziga qayg'ulanish, ota yurtidan ketayotgani uchun o'ksinish hislarini beradi, ko'zlarini xasta noziklik bilan suzadi. Ba'zan bu rollarni juda qiyinlik bilan bajaradi, keyin yolg'iz qolganda o'zi qotib-qotib kuladi” (99-bet).

Nurioy qiyofasidagi shaddodlik, boylikka, bezanishga hirs qo'yishlik, o'zboshimchalik, sirli hislarini yashira olmaslik kabi xususiyatlar yashagan, tarbiya olgan otasining davlati, hovliqma, takabbur onasining erkalashi bilan qo'shib qizga ortiqcha g'urur bergan edi.

Bu yerda ham Nurioyning xakteri uni tarbiyalagan muhitda shakllanganligi ko'rinib turibdi.

U hatto to'y kuni oppoq chimildiq ichida ham xarakteriga mos holda bilmagan, tanimagan kuyovdan oldin gapiradi. Ko'ksini to'ldirib keladigan hislardan ko'zlari suzilib aytgan so'zi, ya'ni “Juda isib ketdim”, deyishining o'zigina uning yengiltabiat qizlar toifasidan ekanligini ko'rsatib turibdi.

Demak, yana bir bor ta'kidlaymizki, Kumushbibi bilan Nurioy bir-biriga o'xshash milliy muhit ichida o'z dunyoqarashlari bilan tasvirlanadilar. Ularning qiyofalari, xatti-harakatlari, ruhiy holatlari — milliy, shu yo'sinda, yaratilgan sharoit (urf-odatlar) — milliy. Shuning natijasida tipik milliy muhitda tipik murakkab xarakterlar yaratilgan. Umuman olganda, yozuvchilarning har biri o'ziga xos uslubda (“O'tkan kunlar”, “Qutlug' qon”) tarixiy sharoitning mavqeini bo'rttirib ko'rsatadilar, jumladan, ular tasviridagi muhit milliy qiyofalarni harakatga keltiruvchi vosita qilib olinadi.

O.Yoqubov va O'.Hoshimov o'zbek milliy romanchiligi an'analarini davom ettirib, tipik qiyofalarni tipik sharoitlarda haqqoniy tasvirlab (albatta, individual uslubda) asarlarining badiiyligini, ta'sirchanligini oshirgan.

² Oybek. “Qutlug' qon”. – T.: G'afur G'ulom. 2019. 102-b

³ Ўша асар, 104-105-бетлар.

Mashhur fransuz mutafakkiri Didro ta'kidlaganidek: "...xarakterlar sharoit bilan belgilanadi."⁴ Shu bilan birga, xarakterlar yo'nalishini belgilaydigan ijtimoiy muhit asardagi obrazlarning individualligini ham ta'minlaydi.

Ma'lumki, O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini" romanida XV asr fan va madaniyatining rivojiga ulkan hissa qo'shgan Ulug'bekning fojiali hayoti, yiqqan kitoblari-yu, shogirdlarining taqdiri asar markaziga qo'yiladi. Bundan tashqari, yozuvchi tarixiylik mezonlariga amal qilib, XV asrga mansub bo'lgan shart-sharoitni, ijtimoiy masalalarni inson taqdiri orqali ko'rsatib bergan.

"...Haqiqiy roman tarixiy faktlar, tarixiy voqealarning ichki tomonini, ularning avra-astarini rostakamiga ochib beradi.

Tarixiy romanning o'ziga xosligi, u qaysi bir mamlakat va yoki qaysi bir xalq hayotiga murojaat qilmasin, baribir uning asosida haqqoniylik yotadi".⁵

"Ulug'bek xazinasini" romanida ham Ulug'bek davri ichki ziddiyatlarining "avra-astari" rostakamiga ochib beriladi.

Bu asarda sharoit, muhit xarakterga ta'sir qiladimi yoki qiyofalar muhit ixtiyorida bo'ladimi? Biz shu qo'yilgan masalani yechish uchun Ulug'bekning ikki shogirdi Ali Qushchi va Mavlono Muhiddin taqdiriga murojaat qilamiz. Ikkala shogird ham ustozlari Mirzo Ulug'bek vafotidan so'ng zindon azoblariga duchor bo'ladilar. Bu muhitda ularga hayotiy kuch, sabrmatonat, metin iroda zarur bo'ladi.

Ammo bu kishilar xarakterlariga mos holda bir xil muhitda ikki xil holatga tushadilar.

Ali Qushchini zindonga olib kelganlarida ustozining boshini kesgan qilich uning ham boshida yarqirab turganini, ilm-ma'rifat yo'lida, bo'lg'usi avlodlarga Ulug'bek ziyosidan nur qoldirmoq niyatida bu xatarli yumushga bel bog'laganini xayolidan o'tkazdi.

"— Sabot qilg'aysen, birodari aziz! Hibsga tushganingga bir kun o'tmay bunday betoqat bo'lsang, keyin ne qilasan? Boshingga bundan qattiq musibat, bundan yomon savdolar tushganda holing ne bo'ladi, azizim? Yo, parvardigor! Osiy bandangni bu yolg'on dunyodan o'z rahmatingga chorlagaysan va lekin yulduzlar to'la koinotni ko'rmoq va mushohada qilmoq, falak sirlarini idrok etmoq saodatidan mahrum qilmag'aysen".⁶

4 Д.Дидро. Избранные произведения. — М.-Л.: НИХЛ, 1999. 206-с.

5 В.Г.Белинский. Собр.соч. в трех томах. Т.2. — М: ГИХЛ, 1998. 40-с.

6 О. Yoqubov. "Ulug'bek xazinasini" — Т.: Adabiyot va san'at 2000. 205-bet. (Bundan keyingi ko'chirmalarimiz shu nashrdan olinib, sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi).

Ana endi Mavlono Muhiddinning holatiga e'tibor qiling.

Mavlono Muhiddinni hibsonaga olib kelganlarida es-hushidan ayrilganday, qayerga kelib qolganini tushunolmay garang bo'lib qoladi. Jon talvasasida nimjon mushtlari bilan zindon eshigini taqillatadi, ko'zlaridan tirqirab oqqan yosh tomchilarini qo'llari bilan artib, dahriy shohga shogird bo'lib tushganiga ming pushaymonlar qiladi. "Nazarida, ko'kda milt-milt yongan yulduzlarga qarash shakkoklik bo'ladiganday tuyulib: "Gunohkor bandangni o'zing kechirgaysen, tangrim!" deb qo'ydi (223-bet). Yuqoridagi ko'chirmamizdan ko'rinib turibdiki, Ali Qushchi tushib qolgan muhitini to'g'ri anglaydi yoki muhitga qarshilik ko'rsatish tuyg'usi unda kuchli bo'ladi. Mavlono Muhiddin esa sharoitga qaraganda sust harakat qiladi, xarakterida qo'rqqoqlik kuchli. Har ikkala obraz o'ziga xos fojiasi, taqdiri, ruhiyati bilan zamon fojiasining turli qirralarini ochishga xizmat qiladi.

Asarda Ali Qushchi hamda Mavlono Muhiddinning tipik xakteri davrning tipik muhitida salbiy yoki ijobiy holda tahlil qilinmaydi. Aksincha, ularning qiyofalari voqealar girdobida, to'qnashuvlarda, nutqlarida, portretlarida o'sib, xuddi hayotdagi real kishilardек, kitobxonda jonli taassurot qoldiradi.

Ali Qushchi obrazi real shaxs, ayni paytda XV asr ziyoli olimlarining tipik vakilidir. Lekin "Ulug'bek xazinasini" romanida Ali Qushchi obrazi chinakam ijod kishisi sifatida ochilmaydi. U ustoz xazinasini saqlab qolish uchun ko'p azoblarga duchor bo'ladi. Lekin bu Ali Qushchining tariximizda qoldirgan asosiy xizmati emas... "Uning insoniy qiyofasi, shaxsiy hayoti ham to'liq ko'rsatilmagan".⁷

Biz olimning fikrlariga qo'shilgan holda, asarda faqatgina Ali Qushchi obrazining emas, balki real qiyofa Ulug'bek obrazining hayoti va amalga oshirgan ilmiy ishlari ham to'liq yoritilmaganini, romanda Ulug'bek umrining faqat oxirgi kunlari tasvirlanganini eslatib o'tmoqchimiz. Yana fikrimizcha, balki yozuvchi erkin ijodkor sifatida Ali Qushchi obrazini yaratishda sharoitdan kelib chiqib qahramonning tushkunlikdagi hayotini, iztiroblarini yoritishni maqsad qilib qo'ygandir.

Ali Qushchi ustozining riyoziyot ilmiga bag'ishlangan purhikmat kitoblarini mutolaa qilib, zehnini charxladi, mehri, sahovati tufayli olim bo'ldi, qisqasi, ustozining tuzlug'iga tupurmadi.

Uning bu sa'y-harakatlari xarakterga mos holda ichki kechinmalarida yaxshi berilgan. U sharoit va muhitdan chetga chiqib, "Sabot qilg'aysen, boshingga bundan yomon savdolar tushganda holing ne bo'ladi",

7 А.Каттабеков. Тарихий ҳақиқат ва бадий маҳорат. — Т.: Фан, 1992. 110-6.

deb o'ziga o'zi dalda beradi. Dalda beribgina qolmay, Alloh taolodan yulduzlar to'la koinotni ko'rmoq, falak sirlarini bilmoq saodatidan mahrum qilmasligini so'raydi.

Bundan tashqari, Ulug'bekning ilmiga, irodasiga boshini eggan Ali Qushchi ustozining o'limidan so'ng uning ruhi bilan bir qatorda Amir Temur ruhiga ham sajda qiladi.

Ali Qushchidek Mavlono Muhiddin ham Ulug'bekning sevimli shogirdi. Lekin u shogirdlarning boshqa toifasidan — zamonga, davrga, muhitga qarab ustoziga munosabatini o'zgartiradigan shogirdlar "qutbidan".

Mavlono Muhiddin Ulug'bek madrasasiga mudarris etib tayinlangan yili Salohiddin zargar butun Samarqand ahli irfoniga osh berib, suyuqlik o'g'li Mavlono Muhiddin uchun yig'gan nodir qo'lyozmalarini Qozizoda Rumi bilan onhazratlariga ko'z-ko'z qilgan edi. Qolaversa, Salohiddin zargarining boyligi, obro'si, mavqei, Movarounnahrda eng nufuzli savdogarlardan biriga aylanishi, "tarxon" deb nom olishi — hamma-hammasi Mirzo Ulug'bek tufayli ortirilgan edi.

Ana endi ustoz Ulug'bek taqdirini qora bulutlar qoplaganida, boshi tanasidan judo etilganida Mavlono Muhiddin bu xabarlarini eshitib, qizlarnikiday serkiprik ko'zlarini yumib oyog'ida zo'rg'a turar, yonida darg'azab otasi bo'lmasa, yiqilib tushar edi. U hatto padarkush Abdullatif huzurida ilmi riyoziyot va falakiyot bobida o'zi bitgan risolalaridan voz kechadi ("bandai g'ofil"ni shayton yo'ldan ozdirgan edi). Uning xarakteridagi qo'rqqoqlik, sharoitga moslashish, irodasizlik xislatlari shu darajada kuchli ediki, hatto atrofida hech kim yo'qligida ham umri bo'yi tikilib kelgan ko'kdagi yulduzlarga qarashni shakkoklik deb biladi. Tilida ham, dilida ham faqat bir kalimani ("Gunohkor bandangni o'zing kechirgaysen, tangrim!") qaytarib. Alloh taolodan madad so'raydi. Natijada u o'sha muhitning "quli"ga aylanadi.

Ali Qushchi esa asar davomida marhum ustoz Ulug'bek ruhidan madad oladi, uning mard qiyofasi ziddiyatlar, qiynoqlar to'la sharoitdan ustun turadi. Shu tufayli u Movarounnahr donolarining aql durdonalaridan yig'ilgan noyob xazina — kutubxonani bo'lg'usi avlodlarga, zurriyotlarga, shogirdlarga yetkazishga muvaffaq bo'ladi.

Mavlono Muhiddin esa marhumlar ruhidan emas, tirik odamlardan qo'rqadi. Uning salbiy qiyofasi, portreti, so'zlashuv tarzi asarda sharoit va muhitning "o'yinchog'i"ga aylangan tip sifatida yaxshi berilgan. Oxir-oqibatda voqealar silsilasini, zamon yukini ko'tarolmagan zaif Mavlono Muhiddin majnunsifat telbaga aylanadi.

Demak, "Ulug'bek xazinasi" romanida tasvirlangan qahramonlarning hayot sharoiti va ularning boshidan kechgan voqealar o'zbek xalqining tarixida, XV asrda ro'y bergan haqqoniy tipik hodisalardir.

Qiyosiy tahlil uchun O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" nomli zamonaviy asariga murojaat qilaylik. Roman qishloqdagi kollektivlashtirish davri, urush zahmatlari, davr kishilari taqdiri kabi bir qator masalalarni o'z ichiga olgan.

Yozuvchining bu romanida o'sha sinov kezlari ko'plab kishilarning hayot yo'li, achchiq turmushi xilma-xil ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy muammolari muallif tasvirida emas, balki qahramonlarning qismatida ochiladi. Boshqacha qilib aytganda, Abdulla Qodiriy, Oybek va O.Yoqubovlarning romanlarida qahramonlarning tipik xarakterlari tipik sharoitlarda yozuvchilarning bayonida ochib berilsa, O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida obrazlarning o'zlari qanday sharoitga tushib qolganliklarini va bu muhitdan qanday qilib chiqib ketish mumkinligi haqida real kishilardек "bosh qotiradilar".⁸ Qisqasi, "...muallif voqealarga bevosita aralashmaydi, muxtasargina so'z boshidan so'ng asarda u bevosita ko'rinmaydi, so'z, ixtiyor butunicha qahramonlarning o'ziga beriladi, qahramonlar esa o'z boshlaridan o'tganlarini o'zlari so'zlashga kirishadilar",⁸ sharoit va muhit haqida kitobxonga tasavvur beradilar.

"Muhabbat degani shu bo'lsa — uyiga o't tushsin!.. Rostini aytsam, Shomurod aka urushdan qaytganidan keyin undan allaqachon ko'nglim sovuganini tushundim. Go'yo erimga atab yoqib o'tirgan chirog'imni Umar aka o'chirib qo'ygandek, bu chiroq endi faqat shu odamni yoritishi kerakdek".⁹

Bolaning uvoliga qoldim. O'z bolamning o'limiga sababchi bo'ldim. Men ham odammanmi? Men ham onamanmi! Yo'q, hammasiga Shomurod aka aybdor!..

Hammasini Umar aka qildi. Meni abgor qilgan shu. Sovugan oshmi-balomi, turmushim o'tib turuvdi-ku (393-bet).

"Ana poyezd ketayapti. O'g'limni olib ketayapti. Bir umrga butunlay... Endi ko'rolmayman. Bolamni hech qachon ko'rolmayman. Ana, vagon eshigidan qarab kulib turibdi. Yolg'on-ku! Kulishi ham, qo'l siltashi ham yolg'on-ku! O'lganining kunidan kulyapti-ku!

— Muzaffar! Rozi bo'li! Endi ko'rishmaymiz, bolam!" (43-bet).

⁸ O'.Hoshimov "Ikki eshik orasi". So'ngso'z o'rinda U.Normatov. — "Taqdirlar romani". — T.: Adabiyot va san'at, 533-b.

⁹ O'. Hoshimov. "Ikki eshik orasi". — T.: Adabiyot va san'at, 2000. 362-b. (Bundan keyingi ko'chirmalar ham shu nashrdan olinib, sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi).

Ra'noning xarakteri ishonarli — murakkab. Og'ir urush, sinov yillari uning yuragiga katta jarohat muhrini qoldirdi, bilibmi, bilmaymi eriga xiyonat qildi. Asar davomida uni shu yo'lga boshlagan, ayollik latofatidan, sevimli farzandidan, binoyidek oilasidan yulqib olgan Umar zakunchini qarg'ab, aldamchilar muhitidan zorlanib, faryod qiladi. Baxtiqora bo'lishiga goh o'zini, goh la'nati urushni, goh Shomurod cho'loqni, goh Umar zakunchini aybdor deb o'zining qismatini o'zicha tahlil qiladi.

Biz Ra'no qiyofasining sharoit va muhit bilan birligini ko'rsatish maqsadida ataylab romanning turli sahifalaridan qisqa ko'chirmalar keltirdik. Birgina Ra'noning fojiasi, oilasiga xiyonati faqat o'zining hayotini emas, balki yolg'iz o'g'li Muzaffarni, o'g'lining sevgilisi Munavvarni, uning onasi Bashor opa taqdirini izdan chiqardi. Ularning obrazlari asarda baxtsiz, omadsiz kishilar toifasida beriladi.

Ne umidlarda Shomurod bilan bir yostiqqa bosh qo'ygan Ra'no eri urushda qon kechib, jon olib - jon berib yurgan paytda ayyor, faqat o'z manfaatini o'ylaydigan jirkanch tip Umar zakunchining iskanjasiga tushadi. Bolasi Muzaffar tirik yetim bo'lib, mahalladagi Bashor opani emib katta bo'ladi. Urush tugab, qancha suvlar oqib, hamma o'z ishi, o'qishi bilan har tarafga tarqab ketadi. Taqdiri qarangki, Muzaffar Bashor opaning qizi Munavvarni yaxshi ko'rib qoladi, qolaversa, Munavvar homilador bo'ladi. Hech narsadan bexabar Muzaffar va Munavvarning (bir ko'krakni talashib emishgan) qismatlari Ra'noning yengiltakligi, munofiqligi, Umar zakunchining xunrezligi, yaratilgan davrning to's-to'poloni oqibatida xazon bo'ladi. Bu kabi misollarni asardan ko'plab keltirish mumkin.

Qissadan hissa shuki, O'. Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida uzoq davrlik voqealar qahramonlar taqdirini qanday o'zgartirgani ishonarli detallarda berilgan. Asarda urush davri, urush yillaridagi o'zbek qishloq hayoti, milliy urf-odatlar, hatto o'sha davr milliy taomlari, kishilarning kiyinishlari har birining o'ziga xos qarashlarida, so'zlashuv nutqlarida jonli tasvirlangan.

Fransuz yozuvchisi Gi de Mopassan "...biz hayotni bir lahza rasmdagidek ko'rsatishga emas, balki uning hayron qolarli, haqiqatdan ko'ra to'liqroq, kengroq tasvirini berishga... harakat qilmog'imiz kerak" ¹⁰, deganda tasvirlanayotgan haqqoniy sharoit bilan shu sharoitda harakat qiladigan qahramonlarning o'ziga xos xususiyatlari ta'sirli, quyuq ranglarda berilishi lozimligini aytgan edi. Ma'lumki, real hayotda barcha tafsilotlar o'nlab-yuzlab jild kitobga ham sig'maydi. Ammo yozuvchi uning mag'zini topib, butun mohiyatini kichik hikoyada bo'rttirib berishi mumkin.

Ma'lum muhit ichida toblangan qahramonlar ruhiyatini haqqoniy tasvirlagan O.Yoqubov va O'. Hoshimov o'zlariga xos individual uslubda, avvalambor qahramonni harakatga undagan ichki kuchni, davr uchun xos bo'lgan g'oyalar kurashini asarlarida haqqoniy ko'rsatdilar. Bunday asarlar to'la ma'noda nutq hodisasi bo'la oladi. Yozuvchilarning san'atkorligi tufayli milliy qiyofalar tipik sharoitlarda milliy til va badiiy nutq vositasida ishonarli va ta'sirli qilib tasvirlanadi va o'ziga xos uslublari namoyon bo'ladi.

10 Ги де Мопассан. Предисловие к роману «Пьер и Жан» Литературные манифесты французских реалистов. – М.: Сов писатель 1990. стр. 133.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Т.: Фан, 2004.127-6.
2. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т.: Фафур Фулом, 2015.354-б.
3. П.Қодиров. Халқ тили ва реалистик проза. – Т.: Фан, 1973.166-б.
4. Норматов У., Қуроноф Д. Романнинг янги умри//Жаҳон адабиёти.2001. №9

Internet manbalari

- 1.<https://lib.adpi.uz/preview?filename=01adabiyotshunoslikasoslaritoxtaboboyev.pdf>
- 2.https://tiu-edu.uz/media/books/2025/01/13/Adabiyotshunoslik_nazariyasi_Abdulla_Ulugov_2.pdf
- 3.<https://library.uzfi.uz/ebooks/view?id=11783>
4. <https://uz.quilt-patterns.com/17199757-aristotle-poetics-a-brief-analysis>

Sharifa ISKANDAROVA,

Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrası professorı,

Filologiya fanlari doktori (DSc);

Odina AXMADALIYEVA,

Farg'ona davlat universiteti lingvistika: o'zbek tili

mutaxassisligi magistranti

POETIK MATNDA ARABCHA O'ZLASHMALARNING O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zlashma so'zlar, asosan, arabcha o'zlashmalar haqida mulohazalar yuritiladi. Ibrat ijodida uchraydiga ayrim arabcha leksemalar semantik va leksik tomondan tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: *leksik-semantik, o'zlashma so'zlar.*

Annotation: this article focuses on loanwords, primarily those of Arabic origin. Some Arabic lexemes found in the work Ibrat will be analyzed lexically and semantically.

Key words: *lexical-semantic, loanwords.*

Аннотация: в этой статье несколько слов в основном обсуждаются арабские сокращения. Некоторые арабские лексемы встречающиеся в произведении. Ибрата анализирующая с семантической и лексической точки зрения.

Ключевые слова: *лексико - семантические сокращения.*

Kirish. Dunyodagi barcha tillar o'zga tildan so'zlarni qabul qilish jarayonida kengayadi. Shuning uchun ham dunyoda birona ham sof til mavjud emas. Amaldagi til ikki xil usulda lug'at tarkibini kengaytiradi. Bulardan birinchisi, o'z qatlam, ya'ni o'z ichki imkoniyatlaridan: masalan, shevalardan so'z olish natijasida kengayishi mumkin. Ikkinchisi esa, tashqi manba hisoblanib, chetdan kirgan so'zlar hisobiga lug'at boyligini oshirishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Xalqaro munosabatlar, iqtisodiy-siyosiy va madaniy aloqalar natijasida bir tildan ikkinchi tilga so'zlar olinadi va lug'at tarkibiga joylashib, ana shu tilning qonun-qoidalariga moslashadi. Bunday jarayonlarning ahamiyati haqida atroflicha bahs-munozaralar olib borilmoqda. Bunday hodisalar bir necha yuz yillardan beri tilshunoslarning diqqat markazida e'tirof etilmoqda. O'zbek tili taraqqiyotida o'zga millatlarning lisoniy ta'siri, xususan, lug'at qatlamida yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'zbek tiliga tashqi manbalardan, asosan, arabcha, forsha-tojikcha va ruscha-internatsional so'zlar kirib, o'zlashib qolgan. Professor Fattoh Abdullayevning "Til qanday rivojlanadi?" risolasida ko'rsatilishicha, o'tgan asrning yigirmanchi yillarida tuzilgan bir lug'atdagi so'zlarning 28,6% arabcha, 16,9% tojikcha, 4,7% ruscha-internatsional, 50,3% asli o'zbek so'zlaridan iborat bo'lgan.

R.A.Budagov lug'aviy o'zlashmalarning o'z tildagi shakli bilan so'z qabul qilgan tildagi shakli 8 funksional qiymat bilan munosabatga kirishi haqida fikr bildiradi. Bu fikrni o'zbek tilidagi arabcha so'zlar tabiati ham to'la tasdiqlaydi:

1. Arab tilida konkret ma'noda ishlatiladigan lug'aviy birlik o'zbek tilida mavhum ma'no bildiradi,

sohib – ega, ayyom – kunlar, mavj – to'lqin;

2. Arab tilida jins ma'nosida ishlatiluvchi so'z o'zbek tilida tur ma'nosida qo'llanadi, murabbo – marmalad, ayol – bola-chaqa, oila;

3. Arab tilida bir ma'noda ishlatilgan so'z o'zbek tilida polisemantik xarakter kasb etadi, masalan, bisot;

4. Arab tilidagi otdan o'zlashgan ba'zi so'zlar o'zbek tilida uslubiy muqobiliga ega bo'lmaydi. Masalan, anhor, anqo, ariza, aruz;

5. Arab tilida noarxaiik tavsifdagi lug'aviy birlik o'zbek tilida arxaiiklashgan bo'ladi. Masalan, qozi, firqa, hikmat;

6. Arab tilida lug'aviy mustaqillikka ega bo'lgan so'z o'zbek tilida lug'aviy mustaqilligini inkor etadi. Masalan, almisoqdan beri;

7. Arab tilida lug'aviy birlik ba'zan o'zbek tilida so'z tavsifida bo'ladi. Masalan, lisoniy, lug'aviy, sifat, fe'l, taqriz;

8. Arab tilida so'z holida ishlatiluvchi birlik o'zbek tilida so'z birikmasi tarkibida qo'llaniladi. Masalan, nazar solmoq, avf etmoq, xayol surmoq, bahridan o'tmoq.

Arab tilidan so'z o'zlashtirish VIII asrdan boshlab, IX-X asrlargacha faollashgan. Arab tilidan so'z o'zlashtirilishiga olib kelgan sabablar ichida quyidagilari muhim ahamiyat kasb etadi:

- arablar istilosi;
- Islom dinining keng tarqalishi;
- arab yozuvining qo'llanila boshlanganligi;
- madrasalarda arab tilining o'qitilishi;
- turkiy arab tilining tarkib topganligi;
- olimlarning arab tilida ijod qilganligi.

Arab tili deyarli 300 yil davomida o'zbek, tojik va boshqa bir qator xalqlar uchun umumadabiy tillik vazifasini bajargan[1.165].

Natija va muhokama.

Arab tili va adabiyotining sharq xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi orasida keng yoyilishining o'zi muhim omillardan biridir. Islom mazhabi, arab tili va adabiyoti o'sha paytda arab so'zlarining o'zbek tiliga kirib kelishi xilma-xil bo'lganligi kabi, uning semantik tuzilishidagi o'zgarishlar ham turlicha hisoblanadi. T.I.Rahmonov o'zining ilmiy ishida o'zlashma so'z semantik tuzilishi 3 xil ekanligini aytib o'tgan:

1. So'z ma'nolarining kengayishi.
2. So'z ma'nolarining torayishi.
3. So'z ma'nolarining ko'chishi.

Etib ko'b xalqni majruhu ma'dum,
 Qo'lida **tasbehu** oqi hamoyil. (Ibrat)

Ushbu baytda bir nechta arabcha so'zlar ishtirok etgan. Masalan, majruh – bu arabcha macruh(un) shakliga ega; o'zbek tiliga cho'ziq u unlisi y unlisiga, xoyu xutti undoshini x undoshiga almashtirib qabul qilingan; Macruh – majruh, asli "jismoniy shikast yetkazdi" ma'nosini anglatuvchi caraha fe'lining I bob majhul nisbat sifatdoshi bo'lib, "jarohatlangan", "nogiron", "mayib" ma'nolarini anglatadi. Hozirgi zamon o'zbek tilida ham bu so'z xuddi mana shu semalari bilan ifodalanib kelinmoqda. Tasbeh – bu arabcha so'z tasbih(un) shakliga ega; o'zbek tiliga cho'ziq I unlisi e unlisiga, xoyi xutti undoshi x undoshiga almashtirib qabul qilingan: tasbix – tasbeh; ko'pma'noli sabaha fe'lining "maqtadi" ma'nosi bilan hosil qilingan II bob masdari bo'lib, asli "maqtov" ma'nosini anglatadi. Subxon ollo! Maqtov so'zlari maxsus miqdorda ipga tizilgan munchoqlarni birma-bir ayirib aytilagani uchun bu so'z keyinchalik "maxsus miqdorda ipga tizilgan munchoqlar" ma'nosini anglatish uchun ishlatiladigan bo'lgan[2.426]. O'zbek tilida ham tasbeh so'zi duolar va ibodat so'zlarini hisoblab borish maqsadida ishlatiladigan munchoqlar shodasi hisoblanadi. Tasbeh so'zining kelib chiqish tarixi uzoqqa borib taqaladi. "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir ayolning oldiga kirdilar, u paytda ayol danak yoki mayda toshlarni tasbeh sifatida ishlatib Allohga duo, zikr keltirayotgan ekan, shunda U zot "Men senga undan oson yoki afzal narsaning xabarini beraman deb, zikrni ko'p takrorlash va uni qo'ldan boshqa narsa bilan ham sanash mumkinligini aytganlar". Mana shu ma'noni anglatish maqsadida mashhur muhaddis imom Abu Dovud o'z kitobida "mayda tosh bilan tasbeh aytish" bobini yaratgan. Mana shu voqealardan keyin bizda "tasbeh" nomini olgan, arabcha "subha" deb nomlanadigan danak yoki dumaloq narsalarni ipga tizib yaratiladigan narsa paydo bo'lgan. Boshqa bir

hadis kitoblarida, tasbeh namozdan tashqari holatlarda Allohga ko'p martalab zikr aytish jarayonida ishlatilishi kerakligi haqida ham ma'lumotlar uchraydi, shunday qilib musulmon xalqi mana shunday tasbehlarni yasab foydalanarlar.

Bizdan odob usul etmang umid,

Odami qishloqidurmiz uch kishi. (Ibrat. Hikoyati uch kishi)

Ushbu parchadagi odam so'ziga diqqat qarataylik. Odam so'zi lug'atimizga arabchada kirib kelgan. O'TILda ushbu so'zga shunday ta'rif beriladi: ar-Odamato; inson. Fikrlash, so'zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, shu tufayli boshqa hamma maxluqotdan ustun turuvchi jonli zot; kishi, inson. Odam leksemasini semalarga ajratamiz: 1. Kishilik jamiyatining bir vakili. 2. Tarbiya ko'rgan, yaxshi xislatlarga ega insonga el orasida "odam bo'lgan" iborasi qo'llaniladi. 3. Oila a'zolarining har biriga nisbatan. Masalan: Odam boshiga uch so'mdan.

Ishq ichra chu man kibi nasibi,

Yori soridin jafo bo'lubdur. (Ibrat. Bo'lubdur)

Yuqoridagi ish so'zi asli arabcha hisoblanib, Sh.Rahmatullayevning o'zbek tilining etimologik lug'atida quyidagicha ta'rif berilgan: bu arabcha so'z ʻisq(un) shakliga ega; o'zbek tiliga kasrali ayn tovushini I tovushiga almashtirib qabul qilingan: ʻisq-ishq. Bu so'z "sevdi" ma'nosini anglatuvchi asiqa fe'ldan hosil qilingan I bob mastari bo'lib, "sevgi", "kuchli moyillik" ma'nolarini anglatadi. Haqiqatdan ham ishq so'zi inson ruhiyati bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Ishq ikki xil tasnif qilinadi; biri ishq haqiqiy, ya'ni bandaning Allohga bo'lgan haqiqiy ishq. Masalan, Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhoddagi ishq haqiqiy ishqdir. Ikkinchisi majoziy ishqdir, bunda ikki qarama-qarshi jins vakillarining bir-biriga muhabbat qo'yishi sanaladi.

Xulosa. Xulosa o'rni shuni ta'kidlash kerakki, olib borilgan kichik tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, o'zlashma so'zlar o'zbek tili lug'at tarkibining ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Tilimizda ishlatilayotgan faol so'zlarning kelib chiqishini o'rganish va tadqiq etish jarayoni o'tgan asrdan buyon tilshunos olimlarning diqqatini tortib kelmoqda. Bu mavzu yuzasidan ko'plab ilmiy ishlar yaratilgan. Shunday ekan, millatimizning ulkan va bebaho boyligi hisoblangan ona tilimizning so'z boyligini oshirishda qaysi tillar o'z ta'sirini o'tkazganligini aniqlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev A. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent, 1981.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent, 2003.
3. Kaye, A.S.(Ed). Semantic Studies in Honor of Wolf Leslau. – Wiesbaden: Otto Harrassowitz, 1987.
4. Qayumov A. Lug'aviy so'zlar tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
5. Abdurahmonov G'. O'zbek tilida arabcha so'zlar. – Toshkent: Fan, 1995.

Fayzulla ISKANDAROV,
Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU,
f.f.b.f.d. PhD, dotsent.



FORSIY ADABIYOTDA PAYG'AMBAR NA'TI

Annotatsiya: maqolada forsiy adabiyotda na'tlar yaratilishi, rivojlanishi hamda kitobotchilikdan mustahkam o'rin olishi bilan bog'liq adabiy jarayon tadrijiy tarzda o'rganilib, ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *payg'ambar, forsiy adabiyot, me'roj, maktub, na't.*

Annotation: the article examines the literary process of the creation and development of na'ts (religious eulogies) in Persian literature in a gradual manner and substantiates their firm establishment in the manuscript tradition from a scientific and theoretical perspective.

Key words: *Prophet, Persian literature, mi'rāj (the Prophet's ascension), manuscript, na't.*

Аннотация: в статье поэтапно изучен литературный процесс создания и развития нахид (религиозных гимнов) в персидской литературе, а также их прочное закрепление в книжной традиции, и это обосновано с научно-теоретической точки зрения.

Ключевые слова: *пророк, персидская литература, мирадж (вознесение Пророка), письмо, наът.*

Kirish. Keyingi yillarda olimlarimiz tomonidan dunyo adabiyotshunosligida keng qo'llanilayotgan yondashuvlar, yangicha tahlil usullari vositasida mumtoz adabiyotimizni qiyoslab, solishtirib o'rganish hamda tadqiq etish tendensiyalari kuchaydi. Ayniqsa, mumtoz asarlarning tasavvufiy-ta'limiy, diniy-irfoniy hamda genezisi bilan bog'liq ko'plab tadqiqotlar yaratilmoqda. Asrlar davomida bobolarimiz turkiy va forsiy tilda mukammal ijod qilib, mavzu, mazmun-mohiyat hamda dunyoqarash nuqtayi nazardan umumiy bo'lgan har ikki tilning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan ko'plab buyuk asarlarni bizga meros qoldirgan. Bugungi globallashuv jarayonida ana shunday adabiy-ma'naviy boy merosimizni tadqiq etish, o'rganish hamda o'rgatish dolzarblik kasb etmoqda. Mumtoz adabiyotni o'rganar ekanmiz, islom ahkomlari bilan adabiy an'analarning o'zaro uyg'unligi, doimo bir-birini to'ldirib, ko'plab mushtarak jihatlarga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz. Shu ma'noda ushbu maqolada islom

ma'rifati bilan sug'orilgan buyuk asarlar g'oyaviy-badiiy, adabiy-estetik, axloqiy-ta'limiy jihatdan o'rganildi. Mumtoz adabiyotning bosh g'oyasi KOMIL INSON masalasi forsiy adabiyotdagi na'tlar misolida ilk bor tekshirildi.

Asosiy qism. Musulmon sharq adabiyoti nasriy va nazmiy asarlarida Payg'ambarimiz madhi, siyratlari va Ul zot bilan bog'liq tarixiy voqea-hodisalarga bag'ishlangan na'tlar – shoirlarning komil inson haqidagi qarashlarini bilim va tasavvurlari o'rganishda muhim vosita ekanligi ochib berildi. Ijodkorlar, dastlab, devon va dostonlarining tarkibida Nabi alayhissalom uchun alohida o'rinlar ajratgan bo'lsa, keyinchalik kitobotchilik talabi an'anaviy debochalar tartibini rivojlantirib, "adabi tasnif"ning qat'iyashtirilganligi forsiy adabiyot misolida ko'rsatib berildi. Dastlab, fors adabiyotida na'tlar, asosan, didaktik mazmundagi oda, masnaviy, qit'a va g'azallar shaklida yozilgan bo'lib devonlarda alohida o'rin berilmagan bo'lsa, keyinchalik g'aznaviylar

davriga kelib, Firdavsiy "Shohnoma"sida, Fahriddin Asad Gurganiy "Vis va Romin" masnaviysida, Asad Tusiy "Gershaspnoma"sida vasfiy na't boblar hamda Nosir Husrav devonida "Muhammad" radifli alohida na't g'azalni ko'rishimiz mumkin. VI asrdan boshlab shoirlar tomonidan me'roj voqeasiga adabiy an'ana sifatida qarab, ko'plab me'rojga oid asarlar maktublar tarzida yaratildi. Bunday maktublar "ushbu asarlarni yaratgan zotlarning e'tiqodi, diniy qarashlari, ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etib, ijodkor shaxsiyati, hayotiy prinsiplari va dunyoqarashlarini o'rganishda" [5, 2012] asosiy ko'makchi hisoblansa-da, lekin "bu asarlarning mazmuni ko'pincha o'xshash va ba'zan bir xil bo'lib, Qur'oni Karimning me'roj voqeasi sabab nozil bo'lgan oyatlar, payg'ambar alayhissalomning hadislar va tarjimai holi bilan bog'liq kitoblar zaminida yaratilgan" [5, 2012]. Xamsachilik asoschisi Nizomiy Ganjaviy o'zining beshligida payg'ambarimiz madhini yaratishga alohida jiddiy e'tibor bilan qaragan. Dastlabki dostonida eng ko'p beshta na't bob bitgan. Birinchi bobda Rasulullohning umumiy ta'rifini keltirsa, undan keyingi bob Ul zotning hayotidagi eng buyuk hodisa me'roj talqiniga bag'ishlangan. Undan keyin yana to'rtta na't bob keltiriladi. Ushbu boblar islomiy an'ana va kitobotchilikdagi tartib o'laroq yaratilgan bo'lsa-da aslida, ushbu boblarda ijodkorning falsafiy-tasavvufiy, diniy-ma'rifiy qarashlari o'z aksini topgan.

***Jumla nabiylarki, chu avval kelur,
Berdi nabiyligni Muhammadga ul.
Oyki, uzukdoni zabarjad edi,
O'zi uzuk, muhri Muhammad edi.
Go'shi jahon halqakashi "mim"idir,
Ikki jahon halqayi taslimidir. [3, 260].***

Ilk misralardanoq, Odamning yaratilish tarixi va u bilan bog'liq tarixiy hodisalar mazmunini qisqa satrlarda bayon qilib, o'zining maqsadi "shukri duoying qilib", "ma'rifating joniga" yetish ekanligini ta'kidlaydi. Ijodkor fikricha, dunyoni bilishda payg'ambar ma'rifati asosiy kalitdir. Shu ma'noda Ul zot nabiylarning avvali ham, oxiri ham o'zidir. Agar dunyo bir uzuk bo'lsa, uning muhri sensan. Ikki jahon halqasi qo'lida

bo'lgan, xushxabarchi, ummiy va faqihlar faqihi bo'lgan zotdir. Adabi go'zal, so'zi suxan, sohibi ismat, fitna-yu fujurga sad, dillarni yoritguvchi, ayblarni aritguvchi, qalblar tabibi, Komillar komili ekanligini bot-bot ta'kidlaydi.

***Barcha go'zal so'zu suxan nuktasi,
Necha teran ersa, teran nuktasi.
Berdi "adab" so'ziga ovozae,
Ko'kka kamar bandidin andozae...***

Fors adabiyotining cho'qqisiga ko'tarilgan Nizomiy Payg'ambar madhini ham eng go'zal baytlar bilan yuksaklarga ko'taradi. Qur'oni Karim va Hadislarga tayangan holda Ul zotni ta'riflaydi, muhabbatini izhor qiladi. Payg'ambarga bo'lgan ishq shoir ijodidagi eng asosiy mavzulardan biridir. Nizomiy Ganjaviy an'anasining davomchisi bo'lgan Amir Xusrav Dehlaviy ham beshligida Komillar komiliga har bir dostonida alohida na't boblar ajratgan bo'lib, "Matla'ul anvor" dostonida salaflardan farqli o'laroq, 3 ta na't bob keltirgan. Amir Xusrav na'tlarida Payg'ambar hayotining qismlari, faoliyati davrlari alohida olib bayon etilmaydi. Xusravda Payg'ambar ishlarining konkret jihati voqea sifatida olib tasvirlash faqat me'roj tasvirida ko'rinadi. Avvaligi va uchinchi na'tlar bir-birini to'ldiradigan bo'lib, Payg'ambarimiz sifatlarini ta'riflovchi baytlardan tashkil topgan" [4, 206].

***Charx kaz in son ajad orostand,
Baxri rasuli arab orostand.
"Ahmadi mursal"ki nabishta qalam,
Hamd ba nomi vayu ho-mim ham.***

Rasululloh ta'rifi bilan boshlangan ushbu bobda shoir, butun koinotni payg'ambarning ikki sifati: Allohga eng ko'p hamd etuvchi hamda Allohning so'nggi elchisi – "Ahmadi mursal" ekanligi madh etib, "Haqiqatlar haqiqati" Muhammad Nuriga ishora qiladi. Ko'plab tasavvuf ahli bilan hamfikir bo'lgan Dehlaviy e'tiqodi bo'yicha, "Xudovandi karim barcha mavjudot – osmon-u yer, tog'-u vodiy, oy-u quyosh va hokazo, jonli va jonsiz ashyolarni Muhammad tufayli yaratgan. Muhammadning nomi ikki jahon (dunyo va oxirat)da mujassam"[4, 206]. Yuqoridagi fikrga

muvofig keladigan quyidagi baytlarda aynan shoir e'tiqodiy qarashlarini uqishimiz mumkin:

***Nuh falak az nomi Muhammad muqim,
 Har du jahon dar hadi nomai du "mim".
 Go'yi zamin burda ba chavgoni xud,
 Arsai maydonash azal to abad.***

Muhammad nomi sabab to'qqiz qavat osmon muqim turgan bo'lsa, ikki jahon(foniy va boqiy dunyo) Muhammad ismining ikki mimini ichida joylashgan. Go'yo zamin chavgon o'yini to'pidir, Uning (ya'ni, Muhammad- F.I) maydoni azaldan to abadgacha cheksiz. Harfiy san'atdan ustalik bilan foydalangan ijodkor, Muhammad ismidagi "mim" harfining arabcha yozilish shaklidan mohirona foydalanib, Muhammad nuriga ishora qilib, ikki "mim", ya'ni ikki dunyo Muhammad nuri ichidadir, – degan tasavvufiy-falsafiy qarashni ilgari suryapti. Dostonning ikkinchi na'tida, ijodkor Payg'ambar ta'rifi madhiga ko'proq e'tibor qaratib, uning ilohiy sifatlarini shoirona tasvirlaydi:

***Ey suxanat ganji xudoro kalid,
 Gavhari on ganj tu kardi padid,
 Az tu saloe ba bolast omada,
 Nest ba mehmoni hast omada.***

(ya'ni, ey sening so'zing xudo xazinasining kalidi, bu xazinaning gavharini sen ochding. Sendan abadiyatga bir ovoz yetishdi, yo'qlik borliqqa mehmon bo'ldi) [4, 43]. Buyuk Alloh jamiki yaratgan maxluqotlarining ichidan tanlagani inson edi. Ularning ichidan tanlab

olgani esa, Hazrati Muhammad alayhissalom edilar. Allohu taolo Isro surasida shunday deydi: "Biz odam bolalarini aziz-u mukarram yaratdik, Quruqlik (ot-ulov) va dengizga (kemalarga) chiqarib qo'ydik" [1, 289]. Qur'oni karim "Al-Isro" surasining 1-oyatida Me'roj kechasi mana shunday berilgan: "(Olloh) bir kecha, O'z bandasi(Muhammad)ni unga oyatmo'jizalarimizdan ko'rsatish uchun (Makkadagi) Masjid al-Haromdan (Quddusdagi) Biz atrofini barakotli qilib qo'ygan Masjid al-Aqsoga sayr qildirgan (barcha ayb-u nuqsondan) **pok** zotdir. Darhaqiqat, U eshitguvchi, ko'rguvchi zotdir" [2, 195]. Musulmon dunyosida kamdan kam shoir borki, bu mavzuda qalam tebratmagan. Bu zavqli samoviy sayohatni tasvirlash va tavsif qilish ming yildan beri shoirlar tomonidan an'ana tarzida uzluksiz davom ettirilib, me'roj mavzusidagi asarlar yangi-yangi ijob namunalari bilan boyitilyapti. Payg'ambar kamolotning eng yuksak darajalariga erishganliklari, Haqning jamoliga musharraf bo'lgani oshiq uchun katta baxt bo'lsa, so'fiy uchun oliy maqomdir.

Xulosa qilib aytganda, forsiy adabiyotda dastlab maktublar, oddiy she'rlar doirasida bitilgan na'tlar, Nizomiy sabab butun sharq adabiyotining muqaddas an'anasiga aylandi. Amir Xusrav Dehlaviy, Attor, Sheroziy, Jomiy kabi ijodkorlar na'tlarning eng go'zal namunalarni yaratib, islomning joriy qilinishi, payg'ambarning insoniyat oldidagi buyuk xizmatlarini e'tirof etib, ayni damda, ushbu baytlar orqali Komil inson haqidagi diniy-tasavvufiy, dunyoni anglash, tiriklik mohiyati, insonni tushunish bilan bog'liq adabiy-estetik qarashlarini bayon etganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Куръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. –Тошкент, 2011. 28-б.
2. Куръони Карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. –Тошкент, 1992.195- б.
3. Низомий Ганжавий. Махзанул асрор. Таржимон Жамол Камол. – Тошкент, 2016. 260-б.
4. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. –Тошкент, 2005. 206-б.
5. Hojizoda Majid. Fors adabiyotida tasavvuf. 2-son, 2012. <https://hawzah.net> sayti.



Mohiya MAMASHARIPOVA,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
Olmaliq filiali Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va
ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi muhandisi
mohiyajumaboyeva51@gmail.com

LIRIK QAHRAMON TASVIRIDA OMON MATJON MAHORATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoir Omon Matjon she'rlarida lirik qahramonning ruhiy kechinmalari ifodasi tahlil qilingan. Lirik qahramon qalbida kechayotgan o'y-xayollar va unga muallif munosabati shoir she'rlari orqali misollar bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: *lirik qahramon, muallif, kechinma, munosabat, badiiy tasvir.*

Annotation: this article analyzes the expression of the lyrical hero's spiritual experiences in the poems of the poet Amon Matjon. The thoughts and fantasies that are going on in the heart of the lyrical hero and the author's attitude towards him are explained with examples through the poet's poems.

Key words: *lyrical hero, author, experience, attitude, artistic image.*

Аннотация: в статье анализируется выражение духовных переживаний лирического героя в стихах поэта Амона Матжона. Размышления и фантазии, бушующие в душе лирического героя, отношение автора к нему раскрываются на примерах из стихотворений поэта.

Ключевые слова: *лирический герой, автор, переживания, отношение, художественный образ.*

Kirish. Adabiy turlarning biri – lirikaga mansub asarlarning ta'sirligini ta'min etadigan va uni tavsiflaydigan eng muhim xususiyati ijobiy ma'nodagi subyektivligidir. Lirik asarda dunyo ijodchining ichki dunyosi orqaligina o'z ifodasini topa topadi. Durust, yozuvchining ichki dunyosi har bir adabiy asarda ham hal etuvchi rol o'ynaydi, chunki dunyoning, voqelikning badiiy adabiyotdagi in'ikosi oddiy (oynadagi kabi) in'ikosi emas, balki yozuvchining ichki dunyosida "pishib yetishgan" manzaradir [1:267]. Epik asarda bu dunyoning tasviri obyektivlik qobig'iga buransa, dramatik turda bu obyektivlik alohida bir o'tkirlik va shiddat kasb etsa, lirikada muallifning shaxsiy kechinmalari tusini oladi. Shuning uchun lirika shoirni o'quvchi bilan sirdosh qilib qo'yadi. Sirdoshlik esa, o'ta yaqinlik demakdir. Belinskiy qayd etganidek, lirikada shoirning

shaxsiyati birinchi planda namoyon bo'ladi, biz hamma narsani faqat u orqaligina qabul etamiz va anglaymiz. Ammo lirikadagi subyektivlik ijodkorning birgina o'z shaxsiy fikr va hislari bilan cheklanib qolishini bildirmaydi.

Asosiy qism. Adabiyot insonshunoslik, yozuvchi esa, o'z zamonasining aktiv grajdani, vijdoni va sudyasi ekan, uling asarlarida faqat umumxalq, ko'pchilik uchun muhim, xarakterli hodisa va kechinmalar in'ikos etsagina keng kitobxonlar ommasining "qulog'iga kirishi" va qalbidan joy olishi mumkin. Shu sababli lirika oldiga qo'yiladigan zaruriy talablardan biri mazmunning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishidir. Bu – lirik asar sotsial va axloqiy mavzular bilangina cheklanib qolishi kerak yoki mumkin, degan so'z emas. Insonga nimaiki taalluqli bo'lsa, uning xushnudligi, orzu va alamlarini nimaiki

ifosa eta olsa, shularning hammasi lirikaning mazmuniga kiradi [9:269]. Shoir Omon Matjon tili bilan aytganda esa:

*Kimnidir axtardim, axtardim uzoq,
Ko'zimni panalab ba'zan quyoshdan.
G'ildirak izidan uzun tunlarda
Nomin hay-huladim uning tog'-toshdan* [6:73].

Ko'ramizki, o'zbek mumtoz she'riyatida o'zining muayyan shakliy belgilariga ega bo'lmish turg'un she'riy janrlar yetakchi o'rin tutgan. Ilgari ham aytdik, badiiy tafakkur taraqqiyotining muayyan davrida (traditsionalizm bosqichida) turg'un janr shakllarining yetakchi mavqe tutishi umuman jahon adabiyotida kuzatilgan hodisadir. Buning natijasi o'laroq, lirik asarlarni janrlarga ajratishda shakl xususiyatlaridan, aniqrog'i, ko'zga yaqqol tashlanadigan tashqi shakliy belgilardan kelib chiqish, demakki, janrni qat'iy aniqlikda tavsiflash ham, muayyan she'rni shunday qat'iylik bilan u yoki bu janrga mansub etish ham imkondan tashqaridagi ishga aylanib qoldi. Shu ma'noda T. Boboyev "mumtoz she'riyatimizdagi (aruzda yaratilgan) lirik she'rlarning janr xususiyatlarini aniqlash hozirgi zamon poeziyasidagi (barmoqda yozilgan) lirik she'rlarning janr xususiyatlarini aniqlashga nisbatan ancha oson va qulay [2:503]" deganida to'la haq. Olim buning sababini "poetik janrlar klassikada qat'iy norma va andozaga ega bo'lgani", hozirgi she'riyatda esa "poetik qolip u qadar sezilmasligi" bilan izohlaydi. O'z vaqtida I. Sulton buni asosli tanqid qilgan: "She'riy mahsulotni shartli ravishda "siyosiy lirika", "ishqiy (intim) lirika" va shunga o'xshaganlarga ajratish ham uchraydiki, buni ilmiy asosga ega deb hisoblash qiyin [3:266]". Chunki, olimning yozishicha, mashhur "O'rik gullaganda" she'ri, "odatda "tabiat lirikasi" deb atalsa ham, o'zining vatanparvarlik mazmuni jihatidan" sho'ro adabiyotidagi "siyosiy lirika"ning etaloni deb talqin qiluvchi asarlardan "prinsipial farq qilmaydi". Darhaqiqat, mazmunning o'zi janrni belgilovchi asos bo'la olmaydi, boz ustiga, bunday yondashuvda janr mohiyati buzib tushunilgan bo'lib chiqadi. Zero, janr – eng avval shakl hodisasi, muayyan mazmun tipini

shakllantirish va ifodalashga xizmat qiluvchi shakl hodisasidir.

Aytilganlardan anglashiladiki, she'riyat taraqqiyotining hozirgi – "poetik qolip u qadar sezilmaydigan", ijodiy izlanishlar va yangilanish jarayonlari g'oyat shiddatli va tig'iz kechib turgan bosqichida lirik asarlarni janrlarga ajratish g'oyat murakkab muammoga aylangan. Hozirgi she'riyatda janrlarning nihoyatda xilma-xil ekanligi ularni o'rganishda tavsiflashdan nariga o'tish amri maholdek taassurot qoldiradi.

E'tibor berilsa, I. Sulton aytgan "she'r" so'zi universal ma'no kasb etayotirki, bu hozirgi she'riyatda yagona - "lirik she'r" nomli janr mavjud degan qarashni eslatadi. Umuman, "poetik qolip sezilmaydigan" bo'lgach, "janrlar saqlanib qoladimi yoki yo'qolib ketadimi?" savoli qo'yilishi tabiiy. Ikki jildli "Adabiyot nazariyasi"da ham shu savol qo'yilgan-da, yo'q, "she'riy atimizda hozir ham ayrim janrlar yashab turibdi" deya javob berilgan. Ayni choqda, "Lirikamizning bugungi janr qiyofasini ko'proq qandaydir qorishiq, eski, "sof janr" talablaridan holi, "Universal", sintetik she'riy shakl belgilamoqda" deb ta'kidlanadi.

Ijroviy lirika haqida yuqorida aytilganlarga qo'shimcha qilish joizki, 70-80-yillar she'riyatida ijroviy lirika qahramonlari o'laroq bo'y ko'rsatgan tarixiy shaxslar obrazlari milliy ijtimoiy tafakkur rivojida g'oyat muhim rol o'ynadi. Bu nav she'rlarning ommalashuvi, bir tarafdin, milliy o'zlikni anglashga intilish boshlangani, ikkinchi tarafdin, bu xil she'rlarning "so'z aytish" uchun nisbatan kengroq imkoniyat yaratishi bilan izohlanishi mumkin. Masalan, shoir Omon Matjon "Haqqush qichqirig'i" asarida qirq afsonani sharhlab o'tadi. Ulardan biri "Alla" afsonasidir. Bunda shoir ayollar ruhiyatiga kiradi va uning tilidan alla aytadi. Va bu urf-odatga shoir shunday ta'rif beradi: "Odamni yillar o'tishi emas, urf-odatlar ulg'aytiradi" ya'ni inson yoshi o'tganligini qachonki farzand ko'rib unga alla aytganida his etadi demoqchi.

Hozirgi o'zbek she'riyatida tavsifiy lirika namunalari ham ancha keng tarqalgan. Tavsifiy lirikada epik unsurlar salmog'i nisbatan ustun, biroq tavsif (tasvir) zamirida hamisha lirik meditatsiya mavjud. Boshqacha aytsak, shoir o'zi tavsiflayotgan yoki tasvirlayotgan narsa-

hodisalar, hayotiy holat, tabiat manzaralarida his-kechinmalarini, o'y-fikrlarini suratlantiradi. Masalan, Omon Matjon she'rlarida ham shu kabi holatlarga ko'p marotaba duch kelamiz. Misol tariqasida shoirning "Ko'zingda munavvar dunyolar" she'riga diqqat qilaylik:

*Ko'zingda munavvar dunyolar,
Ko'zingda sevgining diyori.
Ko'zingda tazkira etilgan
Azaliy bir ishqning ash'ori [5:36].*

She'rda lirik qahramon ruhiyati prizmasidan o'tkazib berilgan tasvirda uning kayfiyati, kechinmalari, o'y-fikrlari o'z aksini topgan. Lirik qahramon o'zini yorining ko'zlarining asiri deb sezadi, tun tasviri uning ruhiyatidagi shu sezimni kuchaytirib ifodalaydi. She'rning kuchi shundaki, lirik qahramonning konkret holatdagi kayfiyati o'quvchi ruhiyatida shunga monand turfa kayfiyatlarni hosil qilishga, shu kayfiyat asosida ko'nglidan kechinmalar bo'ronini, ongidan o'y-fikrlar oqimini o'tkazishga imkon beradi. Aslida shoirning tub maqsadi ko'zlar manzarasini chizishgina emas, shu bois u konkret manzarani hissiy bo'yoqlar bilan chizganki, natijada ko'zlar manzarasi ayni paytda qalb manzarasiga

aylangan. Peyzaj lirikasi tavsifiy she'rlarning bir ko'rinishi, xolos. Zero, biror narsa-hodisa yoki holatni tavsiflash asosida lirik qahramon kechinmalarini ifodalovchi she'rlarning bari tavsifiy lirikaga mansubdir.

Xulosa. Omon Matjon o'zbek adabiyotiga o'tgan asrning 60-yillari oxiri va 70-yillari boshida kirib keldi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi singari ijodkorlar bilan bir davrda ijod qildi. U ham proza, ham poeziyada birday qalam tebrata oladigan, o'zbek adabiyotida o'z o'rni va so'ziga ega bo'lgan ijodkor edi. Uning ijodida janrlar rang-barang va u adabiy turlarning barchasida ijod qildi [4].

*Ko'rganing qoladi degan bir gap bor,
Tarix muzeyiga kirdik... ko'rgani.
Jahonni titratgan sohibqironning,
Qiziq-da, birpasda mahv bo'lgani [7:139].*

Qahhor aytganidek: "Zaruratsiz, ichki dardsiz, ehtirossiz yozilgan asar o'lik bo'ladi. Bundoq asarga hech qanaqa g'oya, muhim mavzu jon kiritmaydi [8]". Aksariyat shoirlar singari adib ham o'z ijodida tarixga ko'p marotaba murojaat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1979. 267-bet.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: "O'ZBEKISTON", 2002. 503-bet.
3. I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1986. 266-bet.
4. Jo'rayeva M, Omon Matjon ijodida janriy rang-baranglik, International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities Hosted from Livorno, Italy May 2 nd -3 rd 2022 98, <https://econferencezone.org>
5. Matjon Omon. Yonayotgan daraxt. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1977. 36-bet.
6. Matjon Omon. Maqsudam. – Toshkent: «Adabiyot», 2021. 73-bet.
7. Matjon O. "Ochiq derazalar". – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1970. 139-bet.
8. Qahhor A. Adabiyot va hayot haqida www.khurshiddavronkutubxonasi.
9. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: «Noshir», 2019. 269-bet.

Humoyun AHMADOV,
BuxDPI mustaqil izlanuvchisi



SA'DIY SHEROZIYNING "GULISTON"ASARIDA TARBIYA – NUTQ ODOBI XUSUSIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarida insonni yuksak ma'naviyat darajasiga ko'taradigan, uni pokiza va oliyjanob qiladigan ta'lim va tarbiyaning bosh omillaridan biri bo'lgan nutq odobi haqida ilmiy-nazariy tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, maktab, madrasa, ijtimoiy muammo, aqliy qobiliyat, rivojlantirish, fazilat, nutq odobi, so'zlash madaniyati, qimmatli fikrlar va hokazo.

Аннотация: в данной статье представлен научно-теоретический анализ речевого этикета, одного из главных факторов образования и воспитания, возвышающего человека на высокий уровень духовности, делающего его чистым и благородным, в произведении Саади Ширази «Гюлистан».

Ключевые слова: центральная Азия, школа, медресе, социальная проблема, умственные способности, развитие, добродетель, речевой этикет, речевая культура, ценные мысли и т. д.

Annotation: this article presents a scientific and theoretical analysis of speech etiquette, one of the main factors of education and upbringing that elevates a person to a high level of spirituality, makes him pure and noble, in Saadi Shirazi's work "Gulistan".

Key words: central Asia, school, madrasa, social problem, mental ability, development, virtue, speech etiquette, speech culture, valuable thoughts, etc.

Kirish. Sa'diy Sheroziyning asarlari o'zbek xalqi orasida qadimdan mashhur bo'lib, uning "Guliston" va "Bo'ston" asarlari O'rta Osiyo maktab va madrasalarida asosiy qo'llanma sifatida o'qitilgan. Mashhur fransuz faylasufi va yozuvchisi Volter "Guliston"asaridan xabardor bo'lgan va ba'zi she'rlaridan foydalangan. Ushbu o'lmas asar birinchi bor fransuz tiliga tarjima qililib, 1634-yilda Parijda nashr qilingan.

Sa'diy Sheroziy aqlni nafaqat inson hayoti va kundalik faoliyatida yo'l ko'rsatuvchi yulduz, balki ijtimoiy muammolarni hal etish vositasi ham hisoblagan. Binobarin, davlatni boshqarayotgan, davlat ishlari bilan shug'ullanuvchi kishilar aqli bo'lishi kerakligi, haqiqat va adolat qaror topishida, zulm va zo'ravonlikni barbod etishda aql muhim rol o'ynashi, insonning saodatga erishishi uchun aqlning zarurligi, aql va donolik tufayli inson dunyoda hamma narsadan ustun turishi, bu fazilatlari bilan faxr va nom qozonishini keltirib o'tadi.

Asosiy qism. Sa'diy Sheroziy aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishga katta ahamiyat bergan. U ilmiy bilimlarni egallash va ularni amalda qo'llay bilishni bu bilimlarning inson hayoti va faoliyatidagi to'laqonli ahamiyatini anglab yetish intellektual tarbiyaning eng muhim vazifasi deb bildi. Sa'diy Sheroziy ilm asoslarini o'rganishga, ularni amalda qo'llashga intilayotgan

kishilarnigina oqilona, deb hisoblagan. Shayx Sa'diy Sheroziy yosh avlod ongiga faqat tizimli ta'lim-tarbiya bilangina ilm singdirish mumkinligini to'g'ri ta'kidlagan.

Qadimgi Yunoniston – Gretsiya va Rimda notiqlik maktablari faoliyat ko'rsatgan. "Guliston"asarida ham nutq odobi, so'zlash madaniyatiga oid qimmatli fikrlar keltirilgan:

Aqllik bo'lsa gar javob beradi,

Faqat undan savol so'ralgan zamon.

Garchi haq bo'lsa ham sergapning so'zi,

Gaplarin yolg'onga yo'yishar oson¹.

Sa'diy nutqiy madaniyat atalmish oliy axloqni targ'ib etib, suhbatda madaniyatsizlik, riyokorlik, mutaassiblik va boshqa illatlarni qoralagan. Shu bilan birga, yoshlarni bunday illatlarga ega bo'lganlardan ehtiyot bo'lishga, bunday fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmasligiga harakat qilishga chaqiradi. Asarda yolg'on va bema'ni so'z namoyon bo'lishining asosiy sabablari yaqqol ko'rsatilgan hayotdan ko'plab misollar keltirilgan;

Gapning chinligini yaxshi bilmasdan,

Og'zing ochib aslo so'zga urma dam.

Yolg'on seni banddan qilsa ham ozod,

Post gapirgil agar bandda qolsang ham².

1 Sa'diy Sheroziy "Guliston". H. Homidiy tarjimasi. – Toshkent: G'afur G'ulom. 140-b.

2 O'sha joyda B-142.

Adib ushbu baytning sharhiga “Yolgʻon gapirmoq ham xanjar zarbi kabidir; jarohat tuzalsa-da, izi qoladi.Yusufning akalari yolgʻonchilikda shuhrat topganlaridan keyin, ularning rost soʻzlariga ham ishonch qolmadi”, - deb izohlaydi;

Ijodkor insoniy qadr-qimmatni birinchi galda mehnatda, oʻz mehnatiga, bilim va hunariga tayanishida, birovga xor boʻlmaslikda, deb tushunadi va shunday taʼlim beradi.

Oʻz mehnatiga non yegan kishi

Hotam minnatidan ozod er-kishi.

Hamma narsa faqat harakat va jasorat bilan qoʻlga kirishi mumkinligi „Guliston“ning koʻp hikoyatlarida loʻnda qilib koʻrsatib berilgan.“Guliston” asari koʻplab boshqa sharq adabiy asarlariga ilhom manbayi boʻlib xizmat qilgan. Masalan, Abdurahmon Jomiyning “Salomon va Abdurahmon”, Nizomiy Ganjaviyning qissalari, Kaykovusning “Qobusnoma” va sheʼriyat sultoni boʻlgan Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulb” asarlari ham aynan “Guliston” asarining taʼsirida yozilgan boʻlib, ularda asar mazmuniga yaqin boʻlgan hikoyalar mavjud.

Kimga odat boʻlsa rost gapirishlik,

Barcha ishonadi qilsa ham xato.

Yolgʻonchilik bilan nomi chiqsa-chi?

Hech kim ishonmaydi rost gapga hatto.[1, 141.]

Saʼdiy Sheroziy hayo tarbiyasiga, inson qadr-qimmatini hurmat qilishga alohida eʼtibor bergan. Bundan tashqari, u buni hamma odamlardan talab qiladi, yuqori martabalilarning oʻzini ham istisno qilmaydi. Bu gaplar tarbiyaviy jihatdan juda qimmatli boʻlib, ularni pedagogik jarayonda qoʻllash katta foyda keltirishi mumkin. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, buyuk mutafakkir Saʼdiy Sheroziyning pedagogik gʻoyalari hozir ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Saʼdiy yoshlarni mulohazalarni sabr va diqqat bilan tinglashga, kamchiliklarini tuzatishga oʻrgatgan. Aqlli va bilimli odamlar har doim maslahat va mulohazalarni diqqat bilan tinglaydilar va oʻz navbatida boshqalarga kamchiliklardan xalos boʻlishga yordam beradilar. Shu bilan birga, u boshqa odamlarning kamchiliklari haqida gapirishga faqat oʻzlarida hech qanday yomonlik boʻlmaganlar haqli ekanligini eslatadi. Faqat bu holatda uning maslahati samarali pedagogik taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Saʼdiy Sheroziy fikricha, birovning suhbatiga oʻrinsiz aralashish ham odobsizlikdir.

Maʼlumki, Sharqda bolalar va yoshlarning nutq mustaqilligini cheklash kerak boʻlgan odat bor edi. Ular yetuk odamlarning aytganlariga koʻr-koʻrona ergashishlari kerak edi. Qabul qilingan odob-axloq meʼyorlariga koʻra, yoshlarga oqsoqollar huzurida oʻz fikrlarini bildirish taqiqlangan. Agar ikkinchisi notoʻgʻri qarashlarni koʻrsatgan boʻlsa ham, yigit eʼtiroz bildirishga haqqi yoʻq edi. Saʼdiy Sheroziy bu zararli qoidaga qarshi gapirar ekan, agar kerak boʻlsa, suhbatdoshining yoshidan qatʼiy nazar, inson oʻz nuqtayi nazarini bildirishi lozimligini taʼkidlaydi.

Saʼdiy yosh avlodga murojaat qilib, shunday deydi: “Sizni maqtaganlarga dalda bermang. Aqlli, bilimli odam hech qachon oʻzining yuksak mavqei bilan maqtanmaydi, oʻz xitobida nолоyiq maqtovga yoʻl qoʻymaydi. Aqlsiz, odobsiz, johil kishi bu maqtovlarni oʻrinli deb biladi, odamlardan bunday zavq-shavqni koʻrib, odatda, unutib qoʻyadi. Intriganlar, tuhmatchilar, munofiqlar va ularning hammasi xushomadgoʻylardir;

Soʻz ayni savobligin bilmaguncha gapirma,

Unga soz javobligin bilmaguncha gapirma.[2, 143.]

Xulosa. Yuqoridagi mulohazalar tahlili asosida fikr qilsak, Saʼdiy nutq madaniyati tushunchasiga faqatgina til yoki ifoda vositasi sifatida emas, balki inson maʼnaviyati, axloqiy fazilatlar va ijtimoiy muomala madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida yondashgan. U soʻzni insonning ichki dunyosi, axloqiy qiyofasi va jamiyatdagi oʻrnini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida talqin etadi. Saʼdiy fikricha, nutq madaniyati nafaqat chiroyli gapirish yoki adabiy uslubda soʻzlashni, balki har bir soʻzning mazmuniy aniqligi, axloqiy masʼuliyati va ijtimoiy taʼsirini chuqur anglashni ham oʻz ichiga oladi.

Uning asarlarida nutq madaniyatiga oid ilgari surilgan gʻoyalar chuqur pedagogik va axloqiy mohiyat kasb etib, yosh avlodni komil inson sifatida shakllantirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Ayniqsa, Saʼdiy tomonidan ilgari surilgan fikrlar zamonaviy axloqiy-tarbiyaviy jarayonlar uchun ham dolzarbligini yoʻqotmagan boʻlib, bugungi kun sharoitida ham ularning amaliy ahamiyati katta. Shu maʼnoda, mutafakkirning fikrlari nafaqat adabiy meros sifatida, balki axloqiy-maʼnaviy kamolotga xizmat qiluvchi muhim manba sifatida oʻrganilishi va tadqiq etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saʼdiy Sheroziy “Guliston”. H. Homidiy tarjimai. — Toshkent: Gʻafur Gʻulom. 140, 142-b.
2. Семенов А.А. Саади Ширази о мире духовном и материальном. Сборник Туркестанского восточного института в честь проф. А.Э. Шмидта. — Ташкент, 1923. - С. 124-133.

Ozoda RAJABBAYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti tadqiqotchisi
Ozodarajabbayeva05@gmail.com



“IRQ BITIK” QO'LYOZMASIDA MIFOLOGIK TUSHUNCHALAR

Annotatsiya: maqolada “Irq bitik” qo'lyozmasining o'rganilishi, mifologiyadagi ahamiyati, mifologik tasavvurlarning bugungi kundagi roli asarning turli tabdillari asosida ko'rib chiqiladi. Turkcha, ozarbayjoncha tarjimalar orqali matnlar to'liq ko'rib, tahlil qilinadi. Asardan parchalar berilib, uning tarkibidagi mifologik obrazlar, ramzlar va kultlar tahlil qilinib, dolzarbligi aniqlanadi. Tush ta'biri asosida yozilgan mifologik tushunchalar izohlanadi.

Kalit so'zlar: *tush ta'biri, fol, yaxshilik, yomonlik, irq, obraz, shomonlik, moniylik.*

Аннотация: в статье рассматривается исследование рукописи «Ирк битик», её значение в мифологии и роль мифологических образов в современности на основе различных версий произведения. Тексты полностью проанализированы посредством турецких и азербайджанских переводов. Приводятся отрывки из произведения, анализируются содержащиеся в нём мифологические образы, символы и культы, определяется их актуальность. Разъясняются мифологические концепции, изложенные на основе сонников.

Ключевые слова: *сновидение, гадание, добро, зло, раса, образ, шаманизм, монизм*

Annotation: the article examines the study of the manuscript «Irq bitik», its significance in mythology, and the role of mythological images today based on various versions of the work. The texts are fully reviewed and analyzed through Turkish and Azerbaijani translations. Excerpts from the work are given, and the mythological images, symbols, and cults contained in it are analyzed and their relevance is determined. Mythological concepts written on the basis of dream interpretation are explained.

Key words: *dream interpretation, fortune telling, good, evil, race, image, shamanism, monism.*

Turkiy mifologiyani chuqur o'rganishda qadimiy turkiy yozma manbalar muhim o'rin tutadi. “Irq bitik” qo'lyozmasi uzoq tarixga ega bo'lib, mifologik ildizlar bu kabi asarlarga borib taqaladi. Ushbu qo'lyozma qog'ozga yozilgan ilk runik matnlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlarga ko'ra, bu asar IX asrda tush ta'birlarini izohlash va insonlarni yaxshilikka da'vat etish, hayvonlarga ham yaxshi munosabatda bo'lish lozimligini tushuntirish maqsadida yaratilgan. Uni ilk bor XIX asr oxirida ingliz olimi Arnold Steyn Dunxuan shahridagi buddaviylar ibodatxonasidan topgan. Qo'lyozmaning o'lchami taxminan 13,6 sm bo'lib, 57 sahifadan iborat, lekin sahifalari tartib bilan belgilanmagan. Matnda hayvonlar va tabiat hodisalaridagi ramziy obrazlar orqali inson hayotidagi yaxshilik va yomonliklarning kelib chiqishiga ishora qilinadi. “Irq bitik” nomi ham o'z mazmuni haqida

ma'lumot beradi: “irq” so'zi “fol”, “bitik” esa “kitob” degan ma'nolarga to'g'ri keladi.

Asar turli olimlar tomonidan tarjima qilinib, o'rganilgan. Masalan, V.Tomsen ingliz tiliga tarjimasida ayrim kamchiliklar borligi qayd etilgan: “ertalab” ma'nosidagi “yarın” so'zi “early” (barvaqt) deb noto'g'ri talqin qilingan. Shuningdek, H.N. O'rkunning turk tiliga, S.Y. Malovning rus tiliga tarjimalari, o'zbek olimlaridan Q. Sodiqov va N. Rahmonovning tabdillari ahamiyatlidir.

“Irq bitik” nafaqat til va adabiyot sohasida, balki mifologiya sohasida ham katta ahamiyat kasb etadi. Qo'lyozmadagi ramzlar tizimi va voqealar chizig'ida moniylik ta'siri ko'rinmaydi, asardagi hayvon ramzlari va boshqa tasavvurlar Ko'k Tangri dini va shomonlik e'tiqodlari bilan bog'liq ekanligi ko'zga tashlanadi. Shu bois, “Irq bitik”ni moniylik

Ushbu parchadan Ko'k Tangri hamisha insonlarga yaxshilik ulashishi, yordam qo'lini cho'zishga tayyorligi va har qanday ish u uchun oson ekanligini bilib olamiz. Ko'k Tangri hamisha insonlarga ezgulikni tilaydi. Erlikxon esa uning aksi hisoblanib, insonlarga yomonlik keltiradi. Shu bois ham u o'zi loyiq bo'lgan joyga, ya'ni yer osti olamiga badarg'a qilinadi.

Bundan tashqari, N. Rahmonov va Q. Sodiqovlarning tabdili qo'lyozma to'g'risida qimmatli ma'lumot berishi mumkin: "Irq bitik"da folklor motivlarini ham, kosmogonik va kalendar mifni ham, totemistik mifni ham, tabiatning jonli tasvirini ham ko'ramiz." [5:21]

O'zbek olimlari amalga oshirgan tabdillarni tahlil qilar ekanmiz, N. Rahmonov va Q. Sodiqov tabdillarida biroz farqlik ko'zga tashlandi. Ammo bu farqlar asar mazmuniga u qadar ta'sir etmaydi. Har bir insonning o'z individualligi bo'lganidek, N. Rahmonov har bir folni she'riy usulda, Q. Sodiqov esa nasriy usulda tabdilini amalga oshirgan. "Irq bitik"ning 20-foli N. Rahmonovning tabdilini tahlil qilib ko'ramiz:

"Urg'ochi tuyaman

Oq ko'pigimni socharman,

Yuqorida tangriga tegar,

Pastda yerga kirar, der.

Uxlayotganlarni uyg'otib,

Yotganlarni turg'izib boryapman,

Shunday kuchliman,

Shunday bilinglar, yaxshidir bu."

Q. Sodiqov tabdili:

"Men tuyaning erkagiman, oq ko'pigimni socharman. U yuqorida osmonga yetadi, pastda yerga kiradir. Uxlayotganini uyg'otib, yotganini

turg'izib yurarman, shunday kuchliman. Bilingki, yaxshidir." [2:4]

Har ikkala matnda ham ma'no deyarli bir xil, ammo biroz farq mavjud. Bu tush yaxshi ekanligini, oq ko'pigini sochib, uni osmonga yetkazgan, pastda yerga kirgizgan, hammani uyg'otib, yotganlarni turg'izib qo'yadigan tuyani tushda ko'rish yaxshilik alomati ekanligi umumiy. Ushbu yaxshilik keltiruvchi tuyaning jinsi matnda nima ekanligini aniqlash uchun asl matnga qarash lozim:

Titir : buqra : me n : *ürünq* : *köpükümin* : s a ç a
 r : me n : üze : te *nqrike* : te gir : a sra : yirke : kirür :
 tir : udiqma q : udqumur : ya t *ıqlıq* : turqu ru : yoriyur
 : me n : a nfa q : *küçlög* : me n : a nça : bilinçle r : e
 dgü : ol : [2:4]

Matndan tuyaning urg'ochi tuya ekanligi, N. Rahmonov tabdilining to'g'riroqligini bilish mumkin. Lekin bu Q. Sodiqovning ilmiy salohiyatini pasaytirishga sabab bo'la olmaydi.

"Irq bitik" qadimgi turkiy adabiyotning, qolaversa mifologiyaning o'ziga xos alohida bir bosqichi bo'lib, uning yuksak badiiyati, chuqur falsafiy g'oya bilan sug'orilganligi qadimgi turk davrida katta adabiy muhit bo'lganidan dalolatdir. Fol ochish, bashorat qilish, tush ta'birini aytish bugungi kun uchun ham ahamiyatli ekanligini hisobga olgan holda "Irq bitik" qo'lyozmasini muhim manba deyish mumkin. O'sha davr muhiti haqida, insonlarning yaxshilik va yomonlik to'g'risidagi fikrlari, tili va eng asosiysi, mifologik tasavvurlari, olam haqidagi qarashlari to'g'risida muhim ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Undagi mifologik tasavvurlar bugun ham ahamiyatini yo'qotmaganligi diqqatga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Soatova G. Turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi "Irq bitig" asarining o'rganilishi. – Toshkent, 2020. 7-b.
2. Soatova G. Turkologiyada Urxun-Enasoy yodgorliklari tadqiqi (O'zbekiston misolida): mag. diss. – Toshkent, 2020. 153-b.
3. T.Tekin. IRK BİTİG. – Ankara, 2013. 122-b.
4. Uluç G., Hüseyinli A., Mehdiyeva D., Qır Ö., İbrahimova İ., Sərxanbəyova C. "IRK BİTİG" Qədim Uyğur Dilində Yazılmış Fal Kitabı. – B., 2013. – 120 b.
5. Жўрақўзиев Н. Қадимги туркий ёзма ёдгорликларда космогоник мифология : Филол. фанл. бўй. фалс. докт...дисс. – Тошкент, 2018. – 157 b.

Наталья ПЕТРУХИНА,
д.ф.н., проф УзГУМЯ

ЗВУКООПИСАТЕЛЬНЫЙ РЯД КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПРИЕМ В ТВОРЧЕСТВЕ Ф.М. ДОСТОЕВСКОГО

Аннотация: цель исследования заключается в выявлении роли и значения звукового сопровождения в художественно-изобразительной системе Ф.М. Достоевского. На материале романного пространства писателя выделяются основные особенности, в контексте рассмотрения звукоописательного ряда как одного из приемов психологизма.

Ключевые слова: звуковой ансамбль, драматизм повествования, дисгармония, контрастность

Annotation: this study aims to explore the role and significance of sound accompaniment within the artistic and figurative system of F. M. Dostoevsky. Drawing on the novelistic space of the writer, the research identifies the key features of the sound-descriptive layer, interpreting it as one of the central techniques of literary psychologism.

Key words: sound ensemble, narrative

Annotatsiya: tadqiqotning maqsadi F. M. Dostoyevskiyning badiiy-obrazli tizimida tovushiy hamrohlikning o'рни va ahamiyatini aniqlashdan iborat. Yozuvchining roman makoni materiallari asosida tovushiy tasviriy qatlam psixologizm usullaridan biri sifatida ko'rib chiqilib, uning asosiy xususiyatlari ajratib ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: tovush ansambli, hikoya drammatizmi, disgomoniya, kontrastlik.

В творчестве Ф.М. Достоевского чрезвычайно значима роль музыкально-звуковых решений. Сопровождая текст, звуки являются важным фрагментом художественно-изобразительной системы писателя. Посредством звукового фона совершается переход от ментального плана к психологическому. А. В. Чичерина считал, что звуковой ряд Достоевским продуман до мельчайших подробностей: от описания звуков до звукописи и «У Достоевского под каждой буквой глубоко и прочно уложенный фундамент, крепко все слажено, в тугой грунт вбиты звуки слов и слова» [7, С.263]. В звуковом мире писателя исследователи выделяют несколько ярких особенностей. Первой из которых является повышенная напряженность звукового мира, доходящая до иступленности. С. М. Соловьев отмечает, что «Звук используется Достоевским весьма неравномерно. На фоне обычного, умеренного использования звуковых описаний резко выделяются звуковые

ансамбли, звуковые максимумы, звуковые пики, которые вбирают в себя как бы все голоса его оркестра» [6, С.310]. Эти звуковые пики представлены в тексте глагольными формами, которые отражают эмоциональную составляющую состояний героев. «— Едем! — **заревел** Рогожин, чуть не в иступлении от радости <...> Не подходи! — **завопил** Рогожин <...> Вся компания уже набилась в гостиную. Одни **пели**, другие **кричали и хохотали...**» [4, С.52]. Подобная какофония присутствует и при описании момента, когда Настасья Филипповна бросает деньги в камин: «крик раздался кругом», «кричали кругом», «все восклицали», «вопил», «провопив, он пополз было в камин», «закричала», «кричала», «вопил», «вскрикивал», «проскрежетал», «вскричал», «кричали все в один голос», «заревел», «закричали кругом», «вопил», «ревели со всех сторон», «крикнула» и наконец: «Вся рогожинская ватага с шумом, с громом, с криками пронеслась по комнатам к выходу...» [4, С.52]. Вторая особенность — это

отличие при описании звукового мира и мира реального, вещественного. По словам С. М. Соловьева, «вместе с Достоевским читатель словно погружается в первичные глубинные пласты чувствований и переживаний, где еще не ясен смысл, не подключено сознание, не определено слово, но звук, один лишь уплотненный звук выражает неистовство несдерживаемых страстей» [6, С.289]. Такова сцена бреда Раскольникова: «Он очнулся в полные сумерки от ужасного крику. Боже, что это за крик! Таких неестественных звуков, такого воя, вопля, скрежета, слез, побой и ругательств он никогда еще не слыхивал и не видывал. Он и вообразить не мог себе такого зверства, такого исступления. <...> Но драки, вопли и ругательства становились все сильнее и сильнее. И вот, к величайшему изумлению, он вдруг расслышал голос своей хозяйки. Она выла, визжала и причитала, спеша, торопясь, выпуская слова, так что и разобрать нельзя было, о чем-то умоляя, — конечно о том, чтоб ее перестали бить, потому что ее беспощадно били на лестнице. Голос бывшего стал до того ужасен от злобы и бешенства, что уже только хрипел, но все-таки и бывший что-то такое говорил, и тоже скоро, неразборчиво, торопясь и захлебываясь. Вдруг Раскольников затрепетал как лист: он узнал этот голос; это был голос Ильи Петровича. <...> Он бьет ее ногами, колотит ее головою о ступени, — это ясно, это слышно по звукам, по воплям, по ударам! <...> Но вот, наконец, весь этот гам, продолжавшийся верных десять минут, стал постепенно утихать. Хозяйка стонала и охала <...> Но <...> вот уходит и хозяйка, все еще со стоном и плачем... вот и дверь у ней захлопнулась... Вот и толпа расходится с лестниц по квартирам, — ахают, спорят, перекликаются, то возвышая речь до крику, то понижая до шепоту...» [5, С.73].

Палитра звукового мира Достоевского представляет контрастную картину звуков и безмолвия, беззвучия, тишины, которая не тождественна молчанию. Безмолвие у Достоевского «звучит» в пространстве, где все слова уже высказаны. «Безмолвие —

это граница слова, это не просто выход за пределы языка, но не за пределы смысла, оно продолжает символическую и смысловую цепь. Онтологическое безмолвие реализуется поэтически как символический жест (поцелуй Христа, поклон Зосимы, финальный жест Раскольникова и т. д.)» [3,51]. Безмолвие у Достоевского это предтеча целому морю звуков. Например, А. Гозенпуд отмечает: «С удивительным мастерством использует Достоевский контрасты безмолвия и шума, переходы от пиано к форте и обратно» [2, С.140]. Примером может служить фрагмент из «Преступления и наказания»: «Но ничто не отозвалось ниоткуда; все было глухо и мертво, как камни, по которым он ступал, для него мертво, для него одного... Вдруг, далеко, шагов за двести от него, в конце улицы, в сгущавшейся темноте, различил он толпу, говор, крики...» [5,135]. Для создания драматизма автор выстраивает контрастную схему, в которой перемежаются шум и тишина, причем, зачастую тишина предваряет взрыв, следовательно, пауза по своей значимости равносильна взрыву, который зачастую дополняет возбужденная речь оппонентов.

В творчестве Ф.М. Достоевского герои произведений при помощи звуков голоса передают целую гамму чувствований и ощущений, настроений, именно посредством особого интонационного рисунка, так голоса могут «дрожать от злости», передавать «радость обиды». Приведенные примеры свидетельствуют о сочетаемости полярных чувствований, позволяющих говорить о постоянных внутренних душевных и психологических изменениях, происходящих с его героями.

Помимо используемых Ф.М. Достоевским оксюморонных сочетаний при описании состояния героя, его отношения к миру и к самому себе автор использует внутренний речевой диалог с привнесением в голосоведение героев различных звуковых оттенков. М. Бахтин, анализируя отрывок из романа писателя «Бедные люди», где герой Макар Деушкин говорит о своей работе

переписчика, считает, что присутствие в речи героя «возможного чужого акцента» [1, С. 279] в ходе диалога усиливается «пока наконец не прорывается и не принимает форму прямой чужой речи. Героям Ф.М. Достоевского свойственна присутствующая в речи оттеночность интонаций, причем это «разнозвучие» основано на тщательно скрывааемых автором эмоциональных ощущениях, определяющих сложность бытийной сущности героя, находящегося всегда в некоей раздвоенности.

Звучащее слово текста не только подчеркивает сложность и неоднозначность человеческой натуры, но и становится одним из важных составляющих психологической характеристики героя.

Посредством оттеночной тональности человеческого голоса автор передает внутреннее психоэмоциональное состояние человеческой личности. В ситуации выбора, в моменты принятия решений, когда глубинное человеческое «я» определяется внешними проявлениями, изменения звуковой палитра их речи являются отражением внутренних осмыслений и переживаний.

Весьма показателен момент обдумывания генералом Епанчиным нужности знакомства своей семьи с князем Мышкиным (роман «Идиот»). Вначале генерал сомневается в этом, но «взгляд» князя вызывает в нем целый ряд мгновенных психологических эмоций, а «улыбка» князя при этом исключает все возможные негативные ощущения, в сознании генерала в одну минуту меняется отношение к князю и он говорит: «А знаете, князь, – сказал он совсем почти другим голосом – ведь я вас все-таки не знаю, да и Елизавета Прокофьевна, может быть захочет посмотреть на однофамильца». Важное в этом текстовом отрывке словосочетание «другим голосом» определяет не просто перемену отношения генерала к князю, но и отражает изменчивость его в звуковом исполнении. И голос приобретает другое звучание.

Таким образом, особенная звуковая амплитуда в творчестве Ф.М. Достоевского типологически аккумулирует в себе напряженность развития действия, психологический накал, создавая особую атмосферу для создания полноты художественного образа.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Ф.М. Достоевского. М., 1978, С.279
2. Гозенпуд А. А. Достоевский и музыкально-театральное искусство. Л., 1982.
3. Димитров Е. Безмолвие у Достоевского // Достоевский и современность. Ч. 1. Новгород, 1991.
4. Достоевский Ф.М. Идиот. М., 1984, С. 52
5. Достоевский Ф.М. Преступление и наказание. М., 1978
6. Соловьев С. М. Изобразительные средства в творчестве Ф. М. Достоевского. М., 1979.
7. Чичерин А. В. Достоевский - Искусство прозы // Достоевский – художник и мыслитель. М., 1972.

Л. Р. ШУКУРОВА,
 преподаватель русского языка и литературы
 негосударственного высшего образовательного
 учреждения Alfraganus University

ПОЭТИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК МЕСТО ПАМЯТИ: АНАЛИЗ ЛИРИКИ Н. Д. ИЛЬИНА В КОНТЕКСТЕ ТЕОРИЙ П. НОРА, К. ГИРЦА И Ю. М. ЛОТМАНА

Аннотация: в статье поэтическое творчество Н. Д. Ильина, русского поэта Узбекистана, анализируется как феномен межкультурной коммуникации, сформированный на пересечении русской литературной традиции и этнокультурного кода Средней Азии. Исследование опирается на теоретико-методологические подходы Ю. М. Лотмана, П. Нора и интерпретационные принципы К. Гирца. Центральное внимание уделяется поэтическому тексту как пространству семиозиса и «месту памяти», в котором реализуются механизмы культурной репрезентации и трансформации коллективной идентичности. Анализ лексической и символической структуры поэзии позволяет выявить ее медиаторную функцию между универсальным и локальным, сакральным и повседневным, индивидуальным и коллективным. Особое значение приобретают локальные топосы – махалля и старый Ташкент – как носители историко-культурной памяти.

Ключевые слова: Поэзия Н. Ильина, культурная память места памяти, семиотика культуры, семиосфера (Ю. М. Лотман), герменевтика (К. Гирц), коллективная идентичность, межкультурная коммуникация, поэтическое пространство, символика, махалля, локальная идентичность, пограничная идентичность, поэтический семиозис, суфийская образность, восточная поэтика, лексическая многослойность.

Annotation: this article examines the poetic work of N. D. Ilyin, a Russian poet of Uzbekistan, as a phenomenon of intercultural communication shaped at the intersection of the Russian literary tradition and the ethno-cultural code of Central Asia. The study is based on the theoretical and methodological frameworks of Y. M. Lotman, P. Nora, and the interpretive principles of C. Geertz. Particular attention is given to the poetic text as a space of semiosis and a “site of memory,” in which mechanisms of cultural representation and the transformation of collective identity are actualized. The analysis of the lexical and symbolic structure of the poetry reveals its mediating function between the universal and the local, the sacred and the mundane, the individual and the collective. Special significance is attributed to local topoi — *mahalla* and old Tashkent — as carriers of historical and cultural memory.

Key words: N. Ilyin's poetry, cultural memory, site of memory, cultural semiotics, semiosphere (Y. M. Lotman), hermeneutics (C. Geertz), collective identity, intercultural communication, poetic space, symbolism, mahalla, local identity, liminal identity, poetic semiosis, Sufi imagery, Eastern poetics, lexical stratification.

Annotatsiya: maqolada o'zbekistonlik rus shoiri N. D. Ilyinning she'rlari rus adabiyoti an'anasi bilan Markaziy Osiyo etno-madaniy kodi kesishgan joyda shakllangan madaniyatlararo muloqot fenomeni sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot Y. M. Lotman, P. Nora nazariy va metodologik yondashuvlari hamda K. Girtsning interpretatsiya prinsiplariga asoslanadi. Asosiy e'tibor she'riy matnga — semioz olami va “eslatma makoni” sifatida qaralishiga beriladi, bu yerda madaniyatning ko'rinishi va kollektivlik identifikatsiyasining transformatsiya mexanizmlari amalga oshiriladi. She'riyatning leksik va ramziy tuzilishi tahlili uning umumiy va mahalliy, muqaddas va kundalik, individual va kollektiv o'rtasidagi mediatorlik vazifasini ochib beradi. Xususi ahamiyat tarixiy — ma'naviy xotiralarning saqlovchisi sifatida mahalliy toposlarga — mahalla va qadimiy Toshkentga beriladi.

Kalit so'zlar: N. Ilyin she'riyati, madaniy xotira, eslatma makoni, madaniy semiotika, semiosfera (Yu. M. Lotman), hermenevtika (K. Girts), kollektivlik identifikatsiyasi, madaniyatlararo muloqot, she'riyat olami, ramziylik, mahalla, mahalliy identifikatsiya, chegara identifikatsiyasi, she'riy semioz, sufiy obrazlar, sharqiy poetika, leksik ko'pqavatlik.

Поэтический дискурс современной русско-язычной литературы за пределами России демонстрирует устойчивую тенденцию к интеграции локальных культурных кодов, формированию

пограничных идентичностей и переосмыслению категорий памяти и пространства. В этом контексте поэзия Ильина занимает особое место, формируясь на стыке русской и узбекской культурных традиций.

Образ махалли осмысливается в семиотической парадигме Ю. М. Лотмана как результат наложения языковых, этнокультурных и пространственных кодов.

Метод SCAMPER в преподавании

Цель любого учителя – не только научить учеников усваивать школьные предметы, но и помочь им развить навыки мышления, стать критически настроенными и креативными. Метод SCAMPER – это практичный и структурированный способ развития творческого мышления, интуиции, воображения и оригинальных идей. Роберт Эберле разработал этот метод, и изначально он использовался в качестве отправной точки для решения задач и мозгового штурма. Он появился на основе контрольного списка, составленного Осборном, который систематизировал творческие навыки в рамках этого метода. На протяжении многих лет он помогал ученикам разрабатывать новые идеи, изменять и трансформировать их. Этот метод считается отличным инструментом для развития осознанности, гибкости, оригинальности и адаптивности. [3]

Преимущества метода SCAMPER в преподавании

Метод SCAMPER широко признан весьма успешным в различных областях, включая преподавание. Давайте подробнее рассмотрим и проанализируем, как он оказался полезен в сфере образования.

Во-первых, метод SCAMPER помог учащимся достичь своих целей в изучении естественных наук и повысить их интерес к науке, технологиям и инженерии. Благодаря включению большего количества классных занятий, а также творческих и практических занятий, большему числу учащихся теперь нравится наука и математика, а не страшны им. Вместо того, чтобы заучивать материал без должного понимания, учащиеся теперь могут выбирать из нескольких творческих научных заданий из разных классов.

Во-вторых, этот метод обучения развивает у младших школьников творческое мышление и навыки решения задач. Им легче усваивать и понимать идеи и концепции в физике, математике или программировании. Неоднократно отмечалось, что потенциал детей лучше раскрывается, когда они оказываются в ситуациях, требующих изобретательности.

В-третьих, благодаря этому методу значительно улучшился исследовательский процесс, поскольку он позволяет включать в него совместную деятельность, новые концепции, критический анализ и творческие эксперименты.

Наконец, метод SCAMPER также помогает детям учиться, используя воображение. Концепция заключается в том, чтобы взять существующую идею, а затем преобразовать её и реализовать по-новому. Когда детское воображение разыгрывается, применение этого метода может помочь ему воссоздать и изобрести предметы, которые помогут ему лучше понимать уроки. Кроме того, учителя, работающие с одарёнными или талантливыми учениками, считают этот метод особенно полезным, поскольку он помогает им лучше с ними общаться. [1]

Применение метода SCAMPER

Внедрение методики SCAMPER в преподавание – несложная задача. Это можно сделать, давая ученикам домашние задания по SCAMPER между уроками или играя с ними в игры. В каждом из этих случаев необходимо сначала взять за отправную точку конкретный урок или тему. Затем постепенно начинайте задавать вопросы, следуя методике SCAMPER. Применяйте свои вопросы к ценностям, преимуществам, критическому мышлению и анализу, чтобы охватить все темы урока. Обращайте внимание на ответы всех учеников. Сохраняйте хорошие идеи для дальнейшего их изучения. Оставшиеся ответы могут быть глупыми, но это хорошо, поскольку в ходе таких занятий может появиться всё больше и больше идей, а иногда и отличные. Основная процедура: определить проблему и ее компоненты; подготовить

таблицу, выписать элементы проблемы, размещенные в столбцах; заполнить каждый столбец, ответив на контрольные вопросы по выбранному действию; выбрать наиболее интересные идеи после заполнения таблицы; отобранные идеи внедряются системно, мы разработали усовершенствованную систему для развития навыков учащихся в использовании популярных английских фраз. Согласно этой системе, основанной на технологии SCAMPER, учащимся пришлось прибегнуть к системе заданий, направленных на развитие фразеологических единиц, речи и грамматики. Трехкомпонентная модель; 3-компонентная модель: V + (d) + N + Prep + q – одна альтернатива, на основе трехкомпонентной модели языковые способности могут проявляться в единственном и множественном числе на лексическом и фразеологическом уровнях языка. В статье данные модели описываются в целом и анализируются на основе лингвистических источников. [2]

На основании полученных в ходе исследования материалов определено, что показатели развития навыков использования студентами крылатых выражений на английском языке включают 4 критерия: когнитивный, операционально-деятельностный, мотивационный и реф-

лексивный, и в соответствии с ними использовались методы. Для того чтобы продемонстрировать ведущую роль преподавателей, работающих в области образования «Английский язык и литература», в исследовании, развитие навыков использования студентами крылатых выражений на английском языке проводилось по следующим направлениям: формирование и донесение до всех студентов основ преподаваемого предмета, предоставление специальных учебно-методических указаний по использованию технологии SCAMPER в мультимедийных презентациях.

Вывод

Использование данной технологии на уроках помогает учащимся развивать творческие способности в процессе изучения современного языка. Например, изучая новые слова, они могут расширять свои высказывания, соединяя их с помощью SCAMPER, находя синонимы и антонимы. В целом, методика SCAMR повышает интерактивность уроков, помогает учащимся свободно выражать свои мысли, осваивать нестандартные подходы к решению задач и работать в команде. Это делает уроки более интересными и содержательными, а также позволяет им добиваться эффективных результатов в изучении языка.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Mohammed, A. (2016). the effectiveness of using SACAMPER strategy to develop scientific creative thinking skills and academic achievement in science subject among a selected sample of the second intermediate class pupils in Saudi Arabia. DAR ALMANDUMAH, 3(32),419–479.
2. Akhmedova M.E. –Independent tasks in the module-credit system scientific-theoretical foundations of composition|| Monograph –Medical publishing house housell LLC Tashkent-2022, 136 pages.
3. Akhmedova M.E. –PEDAGOGY|| textbook ||Medical publishing house housell LLC Tashkent-2022, 212 pages.
4. Maxmudova Sh.M. Developing student competence in use English common idiomatic language in English lesson Academia science Journal of Educational Discoveries and Lifelong 1, 69–71.
5. Xudaykulova F.X. Game Educational Technologies in Language Teaching Procedia of Engineering and Medical Sciences. Vol. 8 (2023)

Bonu QURBONOVA,
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti o'qituvchisi
qurbonovagozal@gmail.com

TAHLIL KO'NIKMASINI KLASSTER METODI ORQALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI

Annotatsiya: mazkur maqolada tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish mexanizmi haqida fikr yuritiladi. Klaster tushunchasi hozirgi kunda murakkab davrni boshidan kechirmoqda. Ta'limning mazmuni va shakli ham o'zgarib bormoqda, yangi o'quv dasturlarida fanlarni tahlil qilish ko'nikmasi, fanlarning mazmuni aks ettirishda klaster metodi orqali yangicha yondashuvlar tatbiq etilmoqda.

Kalit so'zlar: klaster metodi, tahlil, badiiy asar, obraz, syujet, mutolaa, interfaol, integratsiya, an'anaviy metod, analitik, strategiya, jamiyat.

Аннотация: в данной статье рассматривается механизм развития аналитических навыков. Концепция кластера в настоящее время переживает сложный период. Содержание и формы обучения также меняются, в новые учебные программы внедряются новые подходы, отражающие навыки анализа предметов и их содержания посредством кластерного метода.

Ключевые слова: кластерный метод, анализ, художественное произведение, образ, сюжет, чтение, интерактивный, интеграция, традиционный метод, аналитический, стратегия, общество.

Annotation: this article examines the mechanism of developing analytical skills. The cluster concept is currently going through a difficult period. The content and forms of training are also changing, new approaches are being introduced into new curricula that reflect the skills of analyzing objects and their content using the cluster method.

Key words: cluster method, analysis, fiction, image, plot, reading, interactive, integration, traditional method, analytical, strategy, society.

Bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarga kitoblar o'qitish, ular bilan tanishtirish, so'z va tushunchalar yordamida dunyoqarashni kengaytirish, axloqiy qadriyatlarni o'rgatishdir. Adabiyot orqali insoniy madaniyat, tarixiy va jamiyat hayotining muhim jabhalarini tushunish, fikrlash va hissiyotlarini shakllantirish hamda rivojlantirishiga yordam beradigan usullarni o'ylab topish lozim. O'quvchilarning tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan muammolariga yechim topish maqsadida bir nechta usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Har qanday usulni qo'llab ko'rish orqali qanday natijaga erishish mumkinligini anglab yetishimiz mumkin. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarni kitob mutolaasiga jalb qilish va ularning madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Darsjarayonlarini qiziqarli va samarali tashkil qilish maqsadida qo'llanadigan metodik yondashuvlar

adabiy ta'lim klasteri vositasi yordamida o'quvchilarni kitobxonlikka qiziqtirish va tahlil qilishni shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda klaster metodi haqida ham ma'lumotlar berib o'tish lozim. "Klaster metodi" – pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo yuzasidan erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bimalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster metodi aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi[1].

O'quvchilarning o'ziga xos imkoniyatlarini o'rganish adabiyot darslarida badiiy asar tahlili ustida ishlash, o'qib tushunish, badiiy asarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'quvchilarga bilim berish, ularga doir topshiriqlar tavsiya qilish ishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Aslida jamiyat taraqqiyotida kitob o'qish insoniyat o'ylab topgan eng g'aroyib hodisalarning biridir. Buning natijasida odamning ma'naviy dunyosi boyib, insoniylik fazilatlarini ortib bormoqda.

"Mutolaa" so'zi arabcha "o'qish", "o'rganish", "diqqat bilan o'qish", "o'qib tushunib olish" degan ma'noni anglatadi. Bugungi kunda mutolaa kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani bildirishi haqida olim A. Umarov quyidagicha fikr bildirgan. "Ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma'umot olishga yo'naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuyini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalardir". Mutolaa madaniyatining pastligi insonlarning kitobga qiziqishini yo'qotsa, ba'zilarining o'ylanmasdan qo'lga nima tushsa, shuni o'qishiga olib keladi. Shuningdek, bu jarayon asarni anglash va uni tushunish uchun kitobxondan ma'lum tayyorgarlik va saviyani talab qiladi. Bu ishning mohiyati kitobni shunchaki varaqlash emas, balki undan umumiy foydalana bilishdan to ijodiy o'qish, kitob muallifiga oshno bo'lib, uning asarini chuqur tahlil qilib, mutolaa qilishgacha boradi. Bu borada Q. Yo'ldoshev quyidagicha munosabat bildiradi: "turli adabiy asarlar bilan ish yuritilganda tahlil usullari mutlaqo o'zgarib ketmaydi, lekin o'quvchilarning asarga yondashishi, munosabat tarzi o'zgaradi"[2;18]. Bu fikrga qo'shimcha tarzda shuni aytish joizki, o'quvchi asarga qiziqishi uchun asarni oson tilda o'quvchiga yetkazish mahoratli o'qituvchiga bog'liq. Dars jarayonida kichik bir tajriba o'tkazadigan bo'lsak, misol uchun, bir xil mavzu va ikki o'qituvchi o'quvchilar ham o'sha o'sha. Lekin dars mavzusiga qanday yondashish va usul, uslub boshqa boshqa. Insonlar bir xil fikrlashlari kamdan-kam uchraydigan hodisa. Dars jarayonida berilgan mavzu va o'quvchilar qaysi usul yordamida darsni yanada yaxshiroq tushunishgan va bu mavzu uchun qaysi metodikaning samarali ekanini o'quvchilar ko'rsatib qo'ya oladi. O'qituvchilar tahlil jarayonida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi maqsadga muvofiq.

Darslikda berilgan badiiy asarning, jumladan epik turi bo'lgan asarlarning matni ustidagi ish adabiy ta'limning o'zak masalalaridan biridir.

"Yuqori sinf o'quvchilarini badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratadi"[3;16]. Ta'lim tizimimizda klasterli yondashuvning ahamiyati muhimdir. Metodist olim M. Mirqosimova ko'rsatib o'tganiday : "adabiy tahlil she'r yoki nasriy asarni ifodali o'qishdan boshlanadi; o'qish davomida ijodkor tafakkur tarzi anglanadi, o'zlashtiriladi, muhokama qilinadi, kitobxon ko'z o'ngida yaratilgan poetik manzara yoki holat ham tashqi, ham ichki harakatlar, tuyg'ular orqali idrok etiladi, his qilinadi. O'sha ta'sirchan manzarani yaratishda shoir to yozuvchi qo'llagan tasviriy vositalarga ahamiyat berilmaydi, asosiy e'tibor o'qish jarayonida mazmunga, obrazning ichki ma'nolariga jalb etiladi. Ammo tahlil jarayonida ana shu ma'nolarni ifoda etishga safarbar qilingan barcha vositalar o'rganiladi. Xilma-xil davrda yashab ijod etgan ijodkorlar yaratgan asarlarni badiiylilik, hayotiylik va ta'sirchanlik mezonlari asosida o'rganish ta'limning bosh vazifasini belgilaydi"[4;18]. O'quvchilarni kitob o'qishga rag'batlantiruvchi tizimlarni ishlab chiqish, masalan, o'qilgan kitoblar bo'yicha konkurslar, kitob o'qish tanlovlari, mukofotlar tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi. Safo Matchon qayd etishicha, "Aslida kitobxon ham yozuvchi singari ijodkor. U asar mutolaasi jarayonida muallif faoliyatini takrorlash yo'lidan boradi. Yozuvchi ijodining murakkabligi shundaki, u xayolida tug'ilgan g'oyani adabiy qahramonlarning xatti-harakati, kurashlari misolida konkretlashtirsa, kitobxon unga teskari-adabiy qahramon xatti-harakati, kurashlari tasviridan umumiy xulosalar chiqarish yo'lini tutadi"[5;49-50]. Darhaqiqat, tahlil jarayonida mana shu psixologik-ijodiy holat nazarda tutilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarning kitob o'qish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish ularni o'qishga jalb qilish, o'qish jarayonini qiziqarli va samarali qilish maqsadida qo'llanadigan metodik yondashuvlar adabiy ta'lim klasteri vositasida shakllantirishning muhim shartlaridan biridir. Interfaol ta'lim (lot. "internus"- ichki, o'zaro)- o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka, muayyan axloqiy sifatlarini o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkilotishga asoslanuvchi

ta'lim. Interfaol metodlarning mohiyatidan xabardor bo'lishda, eng avvalo, tayancha tushuncha- "interfaol" atamasining lug'aviy ma'nosi "interfaol" (ing."interact", "interaktiv", "inter"- o'zaro, birgalikda, "act"- harakat qilmoq, ish ko'rmoq) tushunchasi "o'zaro, birgalikda harakat qilmoq" ma'nosini anglatadi. Interfaol usullar o'quvchilarni faollashtirish, ularni o'qish jarayonida o'zaro aloqaga kiritish va o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Bu usullar o'quvchilarda mutolaa madaniyatini shakllantirishga ham yordam beradi. Shu bilan birga o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, ularni o'qish jarayonida mustaqil fikr yurtishga, o'rganilayotgan materialni tahlil qilishga va o'z fikrini erkin ifodalashga undashga qaratilgan o'quv metodlari to'plamidir. Ular an'anaviy ta'lim usullaridan farq qilib, o'quvchilarni diqqatini markazlashtirish, ijodkorlik va analitik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.

Adabiy ta'lim klasteri vositasida interfaol usullarni qo'llashning o'ziga xosligi shundaki, klasterda o'quvchilar birgalikda ishlaydi, o'quv jarayonida o'zaro fikr almashadilar, bu esa ulara kitobxonlikning yaxshi rivojlanishiga yordam beradi. Klasterlar o'quvchilarga bir-biriga o'rgatish, baholash, o'qilgan materialni tahlil qilish va o'z fikrlarini o'zgalar bilan muhokama qilishga yordam beradi. Klaster xaritalari asosida tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu metoddan ko'zlangan asosiy maqsad asar mazmuni,

syujet, obrazlararo bog'liqlikning ko'rgazmali tarzda o'rganishdir. Asar asosida asosiy g'oya va voqealarni markaziy nuqtaga joylashtirish, syujet rivoji, obrazlar, vaqt va joy kabi elementlarni ko'rsatishdan iborat. Natijada o'quvchi matnni mantiqiy tuzishda, asosiy fikrni ajratishda o'z malakasini oshiradi. Kitobxonlik musobaqalari usulida o'quvchilarga ma'lum bir badiiy asar o'qish uchun va tugatish uchun vaqt belgilanadi. Ma'lum vaqtdan keyin bu asar yuzasidan savol-javoblar yoki qiziqarli usullar orqali sinab ko'riladi. Ushbu metoddan ko'zlangan maqsad o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish, o'zaro raqobat orqali motivatsiya berishdan iborat. Klaster metodi orqali o'quvchilarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishi ortadi. Bunday usullar bo'lmasa o'quvchilar kitoblarni tahlil qilmasdan, oddiygina o'qib tugatishadi va ulara hech qanday tasavvur uyg'onmaydi. Dars jarayonlari ular uchun zerikarli bo'ladi va keyin ularning kitob o'qishga bo'lgan ixlosini tushirib yuboradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, adabiy ta'lim klasteri vositasida o'quvchilarning badiiy asarni turli xil metodlar orqali tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishda interfaol usullarni qo'llash, nafaqat o'quvchilarning o'qish qobiliyatini rivojlantirish, balki ularning tanqidiy fikrlashini va ijodiy yondashuvini ham oshiradi. Bu usullar o'quvchilarga o'qilgan materialni chuqurroq tushunishga yordam beradi va o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://uz.wikipedia.org>.
2. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O'qituvchi, 1996.18-b.
3. Zunnunov A. dabiyyot o'qitish metodikasi. —T.: o'qituvchi, 1992.16-b.
4. Miqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan, 2006, 18-b.
5. Matchon S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T.: o'qituvchi, 1996.49-50-b.



A light pink background with a white plus sign at the top center, a red wavy line at the top right, the text 'TADQIQOTLAR' in bold dark blue in the center, and a white plus sign at the bottom right.

Guli SHUKUROVA,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, PhD.

e-mail: guli_k_h@mail.ru.

PUBLITSISTIKA VA ADABIYOTNING O'XSHASH HAMDA FARQLI JIHLTLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada publitsistika va adabiyotning o'xshash hamda farqli jihatlari ilmiy-nazariy asosda tahlil etiladi. Ularning ijtimoiy ongni shakllantirishdagi vazifasi, badiiy-estetik va axboriy xususiyatlari tarixiy, qiyosiy hamda zamonaviy misollar asosida yoritiladi. Maqolada M. Qo'shjonov, A.Karimov, S.Umirov kabi olimlarning qarashlari, jahon adabiyoti va publitsistikasidan misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: *publitsistika, adabiyot, axborot, badiiylilik, estetik funksiya, obrazlilik, ma'naviyat, jurnalistika, globallashuv.*

Аннотация: в статье анализируются сходства и различия между журналистикой и литературой на научно-теоретической основе. На основе исторических, сравнительных и современных примеров освещаются их роль в формировании общественного сознания, художественно-эстетические и информационные особенности. В статье представлены взгляды таких учёных, как М. Кошжонов, А. Каримов, С. Умиров, примеры из мировой литературы и журналистики.

Ключевые слова: *журналистика, литература, информация, художественность, эстетическая функция, образность, духовность, журналистика, глобализация.*

Annotation: the article analyzes the similarities and differences between journalism and literature on a scientific and theoretical basis. Based on historical, comparative and modern examples, their role in shaping public consciousness, artistic, aesthetic and informational features are highlighted. The article presents the views of such scientists as M. Koshjonov, A. Karimov, S. Umirov, examples from world literature and publicism.

Key words: *publicism, literature, information, artistry, aesthetic function, imagery, spirituality, journalism, globalization.*

XXI asrda globallashuv jarayoni jamiyatning har bir jabhasiga, xususan, ma'naviy hayotiga ham bevosita ta'sir qildi. Natijada globallashuv negizida paydo bo'lgan muammolar – ijtimoiy fanlar: adabiyot, tarix, falsafa, sotsiologiya bilan uzviy ravishda jurnalistika sohasida, ayniqsa, publitsistik janrlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Zero, jamiyat hayotining dolzarb muammolari va hodisalari, ijtimoiy fikr xilma-xilligi, voqelikni dalillar asosida bayon qilish publitsistikaning asosiy tamoyili hisoblandi. Ta'kidlash joizki, publitsistik janrlarda jamiyat hayoti, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohada muammolar, inson ma'naviy olamida kechayotgan o'zgarish va yangilanishlar bilan bog'liq murakkab jarayonlar talqin va tahlil qilinadi.

Taniqli publitsist olim, jurnalist Ahmadjon Meliboyev "Badiiy publitsistikada davr ruhi" maqolasida publitsistika ijtimoiy hayot haqida xabar berishi, uni tahlil qilishi, voqea-hodisalarni jonli, ta'sirchan tasvirlashi haqida shunday deydi: "Publitsistika, ayniqsa, yozuvchi publitsistikasini bir kishining, konkret bir ijodkorning kuyunchakligi, ijodiy faolligi bilan birga jamiyatning fikrlovchi, mushohada yurituvchi ilg'or qatlami vakillarining umumlashma fikri, munosabati ham deb anglamoq zarur" [1].

Adabiyot va publitsistika insoniyat tafakkurining ikki qirrali sohasidir. Ular jamiyat hayotida beqiyos

ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy voqelikni turli usulda aks ettiradi. Adabiyot obrazlilik orqali estetik zavq uyg'otsa, publitsistika dalil va faktlarga tayanib tezkor ijtimoiy fikrni shakllantiradi. Professor A. Karimovning ta'biri bilan aytganda: "*Publitsistika jamiyatni hozirgi zamonda qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirlaydi. Adabiyot esa uni umumlashtirib, badiiy-estetik qiyofaga keltiradi*" [2: 17].

Tarixiy taraqqiyotda publitsistika va adabiyotning shakllanishiga alohida to'xtalish lozim. Yevropa tajribasida Volterning tanqidiy maqolalari, Geynening she'riy publitsistikasi keng tarqalgan bo'lsa, Sharqda Ismoil G'aspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy, Cho'lpon kabi jadidlar publitsistikasi milliy uyg'onish g'oyalarining manbayi bo'ldi. Shu boisdan publitsistika va adabiyotning rivoji bir-birini to'ldirib kelgan.

M. Qo'shjonov ta'kidlaganidek, adabiyot xalq hayotini obrazlar orqali umumlashtirsa, publitsistika bu hayotni dalil va faktlar asosida ochib beradi [3: 42]. Xususan, Cho'lponning "Adabiyot nador?" maqolasi publitsistik shaklda yozilgan bo'lsa-da, unda adabiy obrazlilik kuchli namoyon bo'ladi. Xuddi shuningdek, ingliz yozuvchisi Jorj Oruellning publitsistik maqolalari ham ijtimoiy haqiqatni obrazli tarzda ifodalashi bilan ajralib turadi.

Publitsistika – hayotni tasvirlashning alohida usuli, ijod turidir. U jamiyat hayotida, ayni paytda bo‘lib o‘tgan va o‘tayotgan ijtimoiy ahamiyatga molik voqea-hodisalarni aks ettirib ommaga yetkazadi, davrning eng dolzarb masalalariga munosabat bildiradi, yechilishi lozim bo‘lgan muammolarni keng jamoatchilikka tatbiq etadi va ayni zamon kishilari manfaatlariga xizmat qiladi.

Publitsistikada ham ko‘plab badiiy ifodalar qo‘llanadi. Esse va ocherk janrida obrazli tasvir kuchliligi seziladi. Erkin Vohidovning publitsistik maqolalaridagi lirizm yoki Abdulla Oripovning nutqlaridagi epik ruh buning yorqin namunasidir. Jahon adabiyotida esa Alber Kamyu publitsistik chiqishlarida falsafiy-badiiy obrazlar keng qo‘llangan.

Cho‘lpon ta’kidlaganidek: *“Adabiyot xalqning ruhiini uyg‘otmasa, u adabiyot emasdir”* [4: 55]. Publitsistika ham shunday ruhiy uyg‘otuvchilik vazifasini bajaradi. Jadid publitsistikasida milliy uyg‘onish g‘oyalari, istiqlool davri publitsistikasida esa erkinlik va vatanparvarlik g‘oyalari asosiy o‘rin tutadi. Bugungi kunda esa internet publitsistikasi fuqarolik jamiyatini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Har ikkala soha ham millatni yuksak ma’naviy qadriyatlarga chorlaydi. Adabiyot insoniy fazilatlarini estetik darajada shakllantirsa, publitsistika jamiyatni ijtimoiy-siyosiy faollikka yetaklaydi. Bu jihatni tarixiy misollarda ko‘rish mumkin: jadid publitsistikasi milliy uyg‘onish poydevorini yaratgan bo‘lsa, istiqlool davri publitsistikasi milliy mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qildi.

Adabiyot – badiiy-estetik zavq uyg‘otadi, inson ruhiyatini tarbiyalaydi. Publitsistika esa tezkor axborot beradi, ijtimoiy-siyosiy masalalarda safarbar qiladi. S. Umirovning fikricha: *“Publitsistikaning kuchi — undagi dalil va faktlarning ta’sirchanligidadir”* [5: 63].

Adabiyot abadiylikka intiladi. Masalan, Alisher Navoiy, Pushkin yoki Abdulla Qodiriyning asarlari yuz yillar davomida qimmatini yo‘qotmagan. Publitsistika esa zamoniy voqelik bilan chambarchas bog‘liqdir. Sh. Mamatov yozganidek: *“Publitsistika o‘z davrining guvohi va muhokimasi bo‘lsa, adabiyot davrni abadiylikka ko‘taradi”* [6: 28].

Adabiyot badiiy ifoda vositalari yordamida

ta’sirchan yoziladi. Publitsistika esa aniq, lo‘nda va dalillarga asoslangan bo‘ladi. Bugungi zamonaviy internet publitsistikasi ham tezkor va ixcham uslubga tayanadi. Masalan, bloglar yoki onlayn maqolalarda soddalik va tezkorlik ustuvor ahamiyatga ega.

Adabiyot – roman, qissa, she’r, drama. Publitsistika – maqola, reportaj, intervyu, ocherk, felyeton. Ayniqsa ocherk janri adabiyot va publitsistika orasida chegara vazifasini bajaradi. Hozirgi davrda publitsistika podkastlar, videobloglar orqali ham kengaymoqda.

Adabiyotda badiiy to‘qima haqiqatning estetik ifodasiga xizmat qiladi. Publitsistikada esa real fakt va hujjatlar asosiy manba hisoblanadi. Shu bois, publitsistika tarixiy hujjat sifatida, adabiyot esa ma’naviy-estetik meros sifatida qadrlanadi.

Adabiyotshunoslar fikricha, publitsistika “davr tili”, adabiyot esa “millat ruhi”dir. Ular bir-birini to‘ldirib keladi: publitsistika ijtimoiy jarayonlarning bevosita guvohi bo‘lsa, adabiyot ularni falsafiy-estetik darajaga ko‘taradi.

Globalashuv sharoitida publitsistika ijtimoiy tarmoqlar, bloglar orqali tezkor axborot tarqatishda muhim rol o‘ynaydi. Adabiyot esa insoniyatni umumiy ma’naviy qadriyatlarga yetaklaydigan kuch sifatida saqlanib qolmoqda. Xususan, internet publitsistikasi qisqa va aniq ifodaga tayanadi, lekin u ham adabiyot bilan chegaradosh bo‘lib, yangi badiiy publitsistika namunalarini yuzaga kelmoqda.

Jahon adabiyoti tajribasida ham publitsistika va adabiyotning uyg‘unlashuvi kuzatiladi. Masalan, Alber Kamyu va Ernest Xemingvay publitsistik faoliyati bilan ham mashhur bo‘lib, ularning badiiy asarlarida publitsistik ruh sezilib turadi.

Demak, publitsistika va adabiyot bir-biriga chambarchas bog‘liq, ammo mustaqil rivojlanadigan sohalaridir. Ularning o‘xshashligi ijtimoiy voqelikni yoritishda, farqi esa maqsad, vosita va uslubda namoyon bo‘ladi. Publitsistika davrni dalillar orqali hujjatlashtirsa, adabiyot uni badiiy obrazlarda abadiylikka ko‘taradi. Bugungi kunda internet va globalashuv jarayonida publitsistika va adabiyotning o‘zaro ta’siri yanada kuchayib, ular jamiyat ma’naviy hayotida uyg‘unlikda harakat qiluvchi ikki asosiy kuch sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Meliboyev A. “Badiiy publitsistikada davr ruhi”, “Jahon adabiyoti” jurnali, 2011. №4. 17-25-b.
2. Karimov A. *Publitsistika va uning nazariy masalalari*. – Toshkent: O‘zMU, 2002.
3. Qo‘shjonov M. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. – Toshkent: Fan, 1978.
4. Cho‘lpon. *Asarlar*. – Toshkent: Ma’naviyat, 1991.
5. Umirov S. *O‘zbek publitsistikasining taraqqiyot bosqichlari*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2010.
6. Mamatov Sh. *Adabiy ta’lim va publitsistika*. – Samarqand, 2019.
7. Vohidov E. *Nido (maqolalar, nutqlar)*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2000.
8. Orwell G. *Collected Essays, Journalism and Letters*. – London: Penguin, 1984.
9. Camus A. *Resistance, Rebellion, and Death*. – New York: Vintage, 1995.
10. Hemingway E. *By-Line: Ernest Hemingway*. – New York: Scribner, 1967.

Kamola JUMAYEVA,
Qarshi davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD)

MUHAMMADRASUL MIRZO "DEVON" I LEKSIKASINING USLUBIY-SEMANTIK BELGILARI

Annotatsiya: badiiy asarlar tili dunyo miqyosida ham, o'zbek tilshunosligida ham ko'p o'rganilayotgan ahamiyatli sohadir. Muhammadrasul Mirzo "Devon" idagi so'zlarni ichki va tashqi belgilarini tadqiq qilish so'zlarning shakl va ma'no jihatidan rang-baranglikka ega tarzida qo'llanilganligini ko'rsatadi. Mirzo Nazmiy guldastasi bo'lmish "Devon" ida lisoniy metaforaning turli-tuman xillaridan mohirona foydalanib, go'zal o'xshatishlar yaratishda eski o'zbek tilining benihoya nozik semantik imkoniyatlaridan foydalangan.

Kalit so'zlar: *leksema, zamon, makon, teonim, antroponimlar, zoonimlar, ma'shuqa, uslubiy vositalar, ko'chimlar, metafora, lingvopoetika, pari, sanam, mastona, la'l.*

Аннотация: язык литературных произведений – важная область, активно изучаемая как в мировой, так и в узбекской лингвистике. В своём поэтическом сборнике «Девон» Мирзо искусно использовал различные виды лингвистических метафор и использовал тончайшие семантические возможности древнеузбекского языка для создания прекрасных аналогий.

Ключевые слова: *лексема, время, пространство, теоним, антропонимы, зоонимы, хозяйка, стилистические приёмы, смещения, метафора, лингвопоэтика, фея, идол, мастона, ла'л*

Annotation: the language of literary works is an important area that is being studied extensively both globally and in Uzbek linguistics. The study of the internal and external signs of words in Muhammadrasul Mirzo's «Devon» shows that words are used in a way that is diverse in terms of form and meaning. In his poetic collection «Devon», Mirzo skillfully used various types of linguistic metaphors and used the extremely subtle semantic possibilities of the old Uzbek language to create beautiful analogies.

Key words: *lexeme, time, space, theonym, anthroponyms, zoonyms, mistress, stylistic devices, displacements, metaphor, linguopoetics, fairy, idol, mastona, la'l.*

Kirish. Muhammadrasul Mirzo "Devon" ida ma'shuqa sifatlarining bayoni uchun uslubiy vositalar – ko'chimlar, metaforalardan foydalanadi va bu birliklar orqali madaniy mazmun lisoniy mazmunga "ko'chish" imkoniyatini reallashtiradi.

O'xshatish badiiy tasvir vositalarining eng ko'p tarqalgan turi sifatida doimo adabiyotshunos va tilshunoslarni qiziqitirib kelgan. Odatda, o'xshatishlarning ikki turi: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar; 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi¹.

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvopoetikada narsa va hodisalarning tashqi, zohiriy o'xshashligiga asoslangan metaforik ko'chma ma'noga nisbatan lisoniy, ularning ichki, botiniy o'xshashligiga monandligiga nisbatan badiiy

metafora ifodasi ishlatiladi. "Tilda va badiiy nutqda ishlatilishiga ko'ra metaforani ikki turga bo'lish mumkin:

- a) til metaforasi;
- b) badiiy metafora.

Badiiy metaforada predmetlar orasidagi o'xshashlik asosida badiiy bo'yoq, obrazlilik yotadi. Demak, badiiy metafora til metaforasidan, dastlab, fikrni obrazli ifodalash xususiyati bilan ajralib turadi. Shuningdek, badiiy metaforada o'xshashlik yashiringan holda bo'ladi.

Badiiy metafora – obrazli, ifodali, ta'sirchan vosita. Ubadiiynutqning ta'sirchanligini, obrazlilikini kuchaytiruvchi usul hisoblanadi. Shunga ko'ra, badiiy metafora tasviriy vosita sifatida badiiy nutq jarayonida muhim vazifa bajaradi. Badiiy matndan tashqarida metaforik ma'no ifodalagan so'z predmetning nomining atamasi sifatida nominativ funksiyasida qolaveradi".

¹ Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Маънавият, 2013.5-6.

Shunga binoan Mirzo she'rlarida qo'llangan metaforaning formal strukturasi ham har xil ekanligini ko'rish mumkin. Ba'zi metaforik ma'no alohida so'z yordamida ifodalansa, boshqa so'z birikmasi, ayrimlari gap orqali ifodalanadi. Alalxusus, shakliy strukturasi ko'ra shoir she'rlaridagi ikki xil metaforani ajratish mumkin:

- 1) leksik asosli metafora;
- 2) sintaktik asosli metafora:
 - a) birikma asosli metafora;
 - b) gap asosli metafora.

Natijalar va muhokama. Mirzo nazmida qo'llangan so'zlarning ko'chma ma'nolari shoir she'riyatining lingvopoetik mohiyatini muayyanlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. U ayrim mifik obrazlar orqali, avvalo, ikkilamchi mohiyat kasb etuvchi badiiy san'atlar yuzaga keltirishni nazarda tutsa, ikkinchidan, matn yaxlitligi, uning izchil mantiqiylikni, majoziylikni belgilashda muhim vazifa bajaradi. Buni shoirning quyidagi misralarida o'z tasdig'ini topadi:

Har qachon chiqsang niqobing yuzdin olib, ey pari,

Abr aro pinhon o'lur ko'rgach yuzingni oftob (6/1).

Guluzor soqilar ilkidin mayi gulrang,

Ichgach ochdi yuzlardin har pari gulistonlar (13/1).

Ko'rinadiki, baytlarda *pari* lug'aviy birligi ikkilamchi mohiyatni o'zida mujassam etib, "ayol go'zalligi" sememasi mifologik obraz orqali voqelantirilgan.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da *pari* mifonimiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Pari [f. – go'zal ayol; yaxshilik qiluvchi pyh] 1 mif. Sharq xalqlari folklorlarida keng tarqalgan, juda go'zal qiz qiyofasidagi, nurdan yaratilgan, kishilarni ins-jinslardan saqlaydigan afsonaviy obraz; go'zallik ramzi. *Qari bilganini pari bilmas*. Maqol. *Bukri domla Maynani jinmi, parimi deb o'yladi, shekilli, turgan joyidan siljimag, allaqanday duoni pichirladi*. Sh. Toshmatov, Erk qushi²".

Ma'lumki, she'r intim lirikaning go'zal namunasi ekanligini ta'kidlash lozim. Mirzo qo'llagan mastona o'zlashma yasama so'zi 6

marta qaytarilgan. Bu leksemaning ma'nosi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da:

"Mastona [f. mastlik bilan, mast holda] poet. 1 Mastlarcha, mastlar kabi. *U bir mastona chayqalib turgan shogirdiga, bir hayratda qotib qolgan Piri Bukriyga, bir Malikul sharobga qaradi*. O. Yoqubov, Ko'hna dunyo.

2 .Aqlni oladigan darajada go'zal, chiroyli, xumor. *Mastona ko'zlar*³ kabi berilgan. Anglashiladiki, bu so'zning denotativ ma'nosi bilan she'riy matnlardagi semalari orasidagi aloqadorlik behad uzoqlashib ketgan. Garchi bu ikki semema orasidagi yaqinlik "elas-elas" sezilib tursa-da, ularni bir-birining o'rnida qo'llashning umuman iloji yo'q. Ularni faqat "go'zallik" semalarigina birlashtirib turadi, xolos.

Mastona sayr aylar chog'i qilg'ay qadin ko'rgan,

Jon arizining oning qadig'a qurbon, ey rafi (21/2).

Mastona poetonimi juft so'z sifatida takrorda o'zining denotativ ma'nosiga bir qadar yaqinligini namoyon qilishi mumkin, lekin bunday hollarda ham o'zining dastlabki lug'aviy ma'nosiga to'liq mos tushmaydi. Chunonchi:

Payopay tut qadahni to'lturub Mirzog'a mast o'lg'ach,

G'amin sharh aylasun ul ko'zlari mastona-mastona (31/1).

Tahlillar asosida aytish mumkinki, go'zallik tushunchasining konseptual xususiyatlari quyidagicha: go'zallik sifat yoki sifatlar yig'indisidir; go'zallik yoqimlilik bo'is ruhni ko'taradi, aqlni rom qiladi; go'zallik hissiyotlarni uyg'otadi; go'zallik juda jozibali va u jozibali ayol demakdir. Bu kabi tushunchalar o'rganilayotgan mumtoz badiiy matnlarda go'zallik tasavvurining konseptual asosini tashkil qiladi⁴.

Ko'rinadiki, bayozda iste'molda bo'lgan metaforalarning formal strukturasi so'z birikmasiga teng.

Xurshid yuz, jallod ko'z yori gulandomim kelur,

Nozuk badan, rangin suxan shohi naku noming kelur.

2 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. Н – Тартибли. – Тошкент: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006 222-б.

3 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. 554- б.

4 Маруфова З.Н. Келтирилган манба.21-б.

Maygun lab, shirin soʻz, zanjir zulf, quyosh yuz,

Xanjar mija, kofir koʻzu bequyosh xudkoming kelur (12/2).

Baytlarda somatik koʻchimlarning mavqei oʻz aksini topgan. Misralarda inson yuzining quyoshga **“xurshid yuz”**, koʻzining oʻldiruvchi – jon oluvchi **“jallod koʻz”**, kipriklarining nobud qiluvchilik sememasi bilan urush quroliga **“xanjar mija”**, berahmlik, beshafqatlik xususiyati **“kofir koʻz”** singari kishi aʼzolarining salbiy boʻyoqdorlik maʼnolari kuchaytirilmoqda. Odatda, neytral sememaga ega boʻlgan somatizmlar **“xurshid”**, **“jallod”**, **“xanjar”**, **“kofir”** otlari orqali majoziy salbiy sifatlar boʻrttirilgan. Demak, bunda sintaktik omil soʻz birikmasi sememasidagi semik modifikatsiya vositasi boʻlib xizmat qilgan. Qoʻllangan lisoniy asosli metaforalarni kuzatish, metaforik maʼno hosil boʻlishi va uning voqelanishida tilning yaxlit sistemaviylik qonuniyati yuzaga namoyon boʻlgan. Yaʼni koʻchma maʼnoni voqelantirishda tilning deyarli barcha sathlari hamkorligi asosiy mavqega ega boʻladi.

Xulosa va takliflar. Koʻrinadiki, Mirzo nazmiy guldastasi boʻlmish **“Devon”** idalisoniy metaforaning turli-tuman xillaridan mohirona foydalanib, goʻzal oʻxshatishlar yaratishda eski oʻzbek tilining benihoya nozik semantik imkoniyatlaridan foydalanadi. Okkazional qoʻllalanishlar asosidagi mantiq silsilasi, ijodiy-badiiy mahorat lisoniy birliklarning metaforik maʼnosining naqadar teran darajali boʻlishiga olib kelgan. Tadrijiy davomiylik, mumtoz soʻz sanʼatkorlariga ergashish hamda nutqiy erkinlik mushtarakligi va hamjihatligi goʻzal koʻchimlar hosil qilish imkonini yaratgan.

Odatda, metaforalarda maʼno mustahkamligi kuzatiladi. Usoʻz bilan oʻzining denotati (signifikati) toʻgʻridan toʻgʻri, bevosita leksik-semantik maʼno tomonidan birlashadi. Bunda belgidagi asl maʼno vazifasini bajaruvchi koʻrinishdagi turgʻunlik xossasiga ega boʻladi. Belgini faqat tavsiflash emas, balki tasvirlab ham koʻrsatish mumkin boʻladi. Belgining maʼnosi aniq chegaralarga ega boʻlmaydi. Regulyativ (preskriptiv) funksiya va shu tufayli toʻgʻri murojaat qilishning yoʻqligi metaforani belgi bilan yaqinlashtiradi, belgi hamda signallardan farqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Маҳмудов Н., Худойбергано́ва Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Маънавият, 2013-б.
- 2.Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси: монография. –Т.: Фан, 1990.18-б.
- 3.Шодмонова Д.Э. Абдулла Орипов шеърятининг лингвопоэтик хусусиятлари. (метафорик ҳодисалар мисолида): филол. фан. номз. дисс. Қарши, 2019. 69-б.
- 4.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. Н – Тартибли. –Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 222-б.
- 5.Маруфова З.Н. Мумтоз бадий матнларда “ғўзаллик” концептининг вербаллашуви: филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. –Фарғона, 2022.15-б.
- 6.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. Н – Тартибли. –Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.437-б.

Muxammad NORTOJIYEV,
Jamoat xavfsizligi universiteti, o'qituvchi
Mukhammadnortojiev@gmail.com

O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA LINGVOPRAGMATIK VOSITALARNING BADIY FUNKSIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada O'tkir Hoshimov asarlarida lingvopragmatik vositalarning badiiy funksiyasi tahlil qilinadi. Adabiy matnning kommunikativ imkoniyatlarini ochishda pragmatik yondashuvning ahamiyati ko'rsatilib, yozuvchi qahramonlar nutqida xalqona so'zlashuv unsurlari, frazeologizmlar, istehzoli birliklar va dialogik strukturalarning o'rni ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda lingvopragmatikaning nazariy asoslari hamda sotsiolingvistik yondashuv metodlari qo'llanilib, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" va "Ikki eshik orasi" romanlari misolida matnshunoslik tahlili o'tkazildi. Natijada yozuvchi ijodida milliy mentalitetni aks ettirish, qahramonlar obrazini kuchaytirish va badiiy estetik ta'sirni oshirishda lingvopragmatik vositalarning funksional xususiyatlari ochib berildi.

Kalit so'zlar: *lingvopragmatika, sotsiolingvistika, badiiy matn, O'tkir Hoshimov, xalqona nutq, frazeologizmlar, kommunikativ strategiya.*

Annotation: this article analyzes the artistic function of linguopragmatic devices in the works of O'tkir Hoshimov. The study highlights the significance of a pragmatic approach in revealing the communicative potential of literary texts and examines the role of colloquial elements, phraseological units, ironic expressions, and dialogic structures in the characters' speech. Using the theoretical foundations of linguopragmatics and sociolinguistic methods, a textual analysis of O'tkir Hoshimov's novels "Dunyoning ishlari" and "Ikki eshik orasi" was carried out. The results show that linguopragmatic devices in Hoshimov's works play a key role in reflecting national mentality, strengthening character depiction, and enhancing aesthetic and artistic impact.

Key words: *linguopragmatics, sociolinguistics, literary text, O'tkir Hoshimov, colloquial speech, phraseological units, communicative strategy.*

Аннотация: в данной статье анализируется художественная функция лингвопрагматических средств в произведениях Ўткира Ҳошимова. В исследовании подчеркивается значимость прагматического подхода в раскрытии коммуникативного потенциала литературного текста и рассматривается роль разговорных элементов, фразеологических единиц, иронических выражений и диалогических структур в речи персонажей. На основе теоретических положений лингвопрагматики и социолингвистических методов проведен текстуальный анализ романов Ўткира Ҳошимова «Дунёнинг ишлари» и «Икки эшик ораси». Результаты показывают, что лингвопрагматические средства в произведениях Ҳошимова играют ключевую роль в отражении национального менталитета, углублении характеристики персонажей и усилении эстетического и художественного воздействия.

Ключевые слова: *лингвопрагматика, социолингвистика, литературный текст, Ўткир Ҳошимов, разговорная речь, фразеологические единицы, коммуникативная стратегия.*

Kirish. O'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri O'tkir Hoshimovdir. Uning ijodi o'zbek nasrida xalq hayoti, inson taqdirleri, milliy qadriyatlar va jamiyat muammolarini chuqur aks ettirishi bilan ajralib turadi. O'tkir Hoshimov asarlari, xususan, "Dunyoning ishlari" va "Ikki eshik orasi" romanlari o'zbek

kitobxonlari qalbida alohida o'rin egallagan. Bu asarlarda insoniy fazilatlar, jamiyatdagi adolatsizliklar, oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy hayotning xilma-xil manzaralari tasvirlanadi. Yozuvchi qahramonlarining nutqiy xususiyatlari, ularning bir-biri bilan muloqoti, xalqona iboralar va hazil-mutoyiba unsurlari lingvopragmatik

tahlil uchun boy material hisoblanadi. Chunki lingvopragmatika – til birliklarining ma’no ifodalash imkoniyatlarini ularning ijtimoiy va kommunikativ vaziyatlarda qanday qo’llanishini o’rganadigan soha sifatida yozuvchi uslubini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Matnshunoslik kuzatuv – asar matnidagi til birliklarini kontekst asosida tahlil qilish.

2. Lingvopragmatik tahlil – qahramon nutqidagi pragmatik maqsad va kommunikativ strategiyalarni aniqlash.

3. Sotsiolingvistik yondashuv – shahar va qishloq, yosh va keksalar, erkak va ayol nutqi o’rtasidagi tafovutlarni o’rganish.

4. Qiyosiy metod – “Dunyoning ishlari” va “Ikki eshik orasi” romanlari misolida nutqiy birliklarning badiiy vazifalarini solishtirish.

Misol tariqasida “Ikki eshik orasi”dagi quyidagi sitatani olaylik: *“Odamzod ikki eshik orasida yashaydi: biri tug’ilish eshigi, biri o’lim eshigi. Bu eshiklardan qochib qutulgan odam yo’q.”*

O’tkir Hoshimov qahramonlari nutqida bu tamoyillar turli darajada namoyon bo’ladi. Masalan, “Dunyoning ishlari” romanida ona bolasiga pand-nasihat qilganda, **sifat va aniqlik** maksimlariga amal qiladi: *“Bolam, yolg’on gapirma, yolg’onning dumi qisqa bo’ladi. Halol so’z hamisha odamni qutqaradi.”*

Bu nutq bir vaqtning o’zida tarbiyaviy, pragmatik va ijtimoiy vazifani bajaradi.

Natija va muhokama.

Frazeologizmlarning lingvopragmatik vazifasi. O’tkir Hoshimov asarlarida xalqona iboralar, maqol va matallar qahramon nutqining tabiiyligini ta’minlaydi va milliy mentalitetni aks ettiradi. Masalan, “Dunyoning ishlari” romanida onaning nasihati shunday ifodalanadi: *“Odam bo’lish qiyin emas, odam bo’lib qolish qiyin.”* Bu frazeologik birlik lingvopragmatik nuqtayi nazardan qaralganda, kitobxonni axloqiy tanlovlar oldida hushyor bo’lishga da’vat etadi. Bunday iboralar nafaqat qahramonning nutqiy xususiyatini belgilaydi, balki o’quvchida ma’naviy mushohada uyg’otadi.

Dialoglarning sotsiolingvistik ahamiyati.

Hoshimov romanlari qahramonlari turli ijtimoiy qatlam vakillaridir. Ularning nutqidagi farqlar jamiyatdagi sotsiolingvistik tafovutlarni ko’rsatadi. “Dunyoning ishlari”da shahar ziyolilari nutqida kitobiylik va mantiqiy izchillik sezilsa, qishloq odamlari sodda va xalqona so’zlashadi. Masalan, oddiy qishloq odamining so’zi: *“Bizga katta olim bo’lishning hojati yo’q, halol bo’lsak bo’ldi.”*

“Ikki eshik orasi”da esa qahramonlar orasida avlodlararo nutqiy tafovut yaqqol ko’zga tashlanadi. Keksalar ko’proq maqol va matal ishlatga, yoshlarda zamonaviy so’zlashuv unsurlari ko’proq uchraydi. Bu holat sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan ijtimoiy o’zgarishlarni ko’rsatadi.

Ironiya va istehzoning badiiy funksiyasi.

Hoshimov ijodida istehzo va kinoya muhim lingvopragmatik vositalardan biridir. Ular yordamida yozuvchi jamiyatdagi illatlarni fosh etadi. Masalan, “Dunyoning ishlari”da mansabparast bir qahramon haqida shunday deyilgan: *“U odam xizmat qilishni emas, xizmat oldirishni yaxshi ko’rardi.”* Bu jumlada istehzo orqali qahramonning asl fe’l-atvori ochiladi. Ironik ifoda kitobxonni kuldirishi bilan birga, jamiyatdagi muammoni ham fosh etadi.

Nutqiy strategiyalar va kommunikativ vaziyat. Yozuvchi qahramonlari o’rtasidagi muloqotda turli nutqiy strategiyalar qo’llanadi: iltimos, norozilik, ogohlantirish, nasihat, mehr ifodalash. Masalan, ona bolasiga murojaat qilib deydi: *“Bolam, odam bo’lish uchun avvalo odamning ko’nglini og’ritmaslik kerak.”* Bu jumlada nasihat strategiyasi qo’llanilgan. Pragmatik jihatdan qaralganda, bunday nutq birliklari ota-onaning hayotiy tajribasini bolaga yetkazish, uni tarbiyalashga qaratilgan.

Lingvopragmatik vositalarning milliy mentalitetni aks ettirishdagi roli.

O’tkir Hoshimov asarlari milliy ruh bilan sug’orilgan. Undagi lingvopragmatik vositalar – maqol, matal, xalqona iboralar – o’zbek xalqining qadriyatlarini ifoda etadi. Masalan, “Dunyoning ishlari”dagi quyidagi jumla milliy dunyoqarashni yorqin ko’rsatadi: *“Odam bolasining ko’ngli oynadek — bir sinib ketsa, qayta tiklab bo’lmaydi.”* Bu nafaqat obrazli tashbeh, balki

pragmatik jihatdan ogohlantiruvchi va tarbiyaviy birlikdir. Kitobxon bu orqali mehr-muhabbat va insoniylikning qadrini chuqur his etadi.

Muhokama. O'tkir Hoshimov asarlarida lingvopragmatik vositalar ikki asosiy vazifani bajaradi: **Badiiy-estetik vazifa** – qahramon obrazini chuqurlashtiradi, asar tiliga ta'sirchanlik beradi. **Ijtimoiy-tarbiyaviy vazifa** – o'quvchiga ma'naviy saboq beradi, jamiyatdagi muammolarni ochib ko'rsatadi. Shu boisdan Hoshimov asarlari nafaqat badiiy jihatdan, balki lingvopragmatik jihatdan ham chuqur tadqiq etishga arzigulikdir.

Xulosa. O'tkir Hoshimov asarlari, xususan, "Dunyoning ishlari" va "Ikki eshik orasi" romanlari lingvopragmatik tahlil uchun beqiyos manbadir.

Misollarda ko'rganimizdek, onaning bolasiga qilgan nasihati, qahramonlarning hazil-mutoyiba bilan so'zlashuvi yoki istehzoli qarashlari

kitobxonni nafaqat kuldiradi, balki o'ylashga ham majbur qiladi. Bu jihatdan Hoshimov asarlari lingvopragmatik vositalarning kuchli badiiy-estetik salohiyatini namoyish etadi. O'tkir Hoshimov asarlari o'zbek milliy mentalitetini lingvopragmatik birliklar orqali aks ettiradi. Yozuvchi frazeologizmlardan keng foydalanib, qahramonlar nutqiga xalqona ohang beradi va ularning ijtimoiy kelib chiqishini aniq ko'rsatadi. Dialoglar orqali turli ijtimoiy qatlamlar nutqidagi tafovutlar ochiladi. Bu holat sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan jamiyatdagi til hodisalarini ko'rsatadi. Ironiya va istehzoli nutq jamiyatdagi illatlarni fosh qilish, kitobxonga tanqidiy fikr berish vositasi sifatida xizmat qiladi. Nasihat va ogohlantirish kabi nutqiy strategiyalar ota-ona, ustoz, keksalar nutqida ko'proq uchraydi. Bu o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Z. *Frazeologizmlar va ularning lingvopragmatik xususiyatlari*. – Qarshi: QarDU, 2017.
2. Hoshimov O. *Dunyoning ishlari*. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1998.
3. Hoshimov O. *Ikki eshik orasi*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
4. Jo'rayev M. *Lingvopragmatika asoslari*. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
5. Karimov N. *O'zbek romanlari poetikasi*. – Toshkent: Fan, 2002.
6. Normatov U. *Adabiyot nazariyasi masalalari*. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
7. O'rinboyev A. *Sotsiolingvistika asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
8. Qo'shjonov M. *O'zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: Fan, 1996.
9. Saidov S. *Adabiy matn pragmatikasi*. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
10. Shodmonov Q. *Til va jamiyat: Sotsiolingvistik tahlillar*. – Toshkent: Universitet, 2015.

Dilafroʻz ZIYADULLAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha va boshlangʻich taʼlim
nazariyasi va amaliyoti kafedra oʻqituvchisi
ziyadullayevadilafroz@gmail.com

XURSHID DAVRON NASRIDA BADIY TAFAKKURNING TAʼSIRI

Annotatsiya: maqolada ijodkor badiiy tafakkuriga taʼsir qiluvchi omillar yozuvchi Xurshid Davron asarlari misolida tahlil qilingan. Bunda muallifning “Sohibqiron nabirasi” va “Bibixonim Qissasi” badialarida tarixiy obrazlar yaratishda muallif ijodiy tafakkur mahsuli ekanligi ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: *muallif, tafakkur, tafakkur bosqichlari, ijodiy tafakkur, omillar, mustaqillik, folklor.*

Аннотация: в статье анализируются факторы, влияющие на творческое мышление автора на примере произведений писателя Хуршида Даврона. Выявлено, что создание автором исторических образов в произведениях «Внук Сахибкирона» и «История Бибиханым» является продуктом творческого мышления.

Ключевые слова: *автор, мысль, этапы мысли, творческая мысль, факторы, самостоятельность, фольклор.*

Annotation: the article analyzes the factors influencing the creative thinking of the author using the example of the works of the writer Khurshid Davron. It reveals that the author's creation of historical images in the works «The Grandson of Sahibqiron» and «The Story of Bibikhanim» is a product of creative thinking.

Key words: *author, thought, stages of thought, creative thought, factors, independence, folklore.*

Yetakchi adabiyotshunoslardan iborat mualliflar guruhiga koʻra, “badiiy tafakkurning eng umumiy va barqaror uchta: 1) arxaik yoki mifopoetik; 2) traditsionalistik yoki normativ; 3) individual-ijodiy yoki tarixiy tiplari”[1: 512] mavjud.

Oʻzbekistonda XX asrning boshlariga kelibgina anʼanaviy badiiy tafakkur qobigʻidan chiqish imkonini beruvchi ijtimoiy shart-sharoit vujudga keldi.[2: 7]

Professor D.Quronov XX asr avvalida badiiy tafakkurda kechgan yangilanishning bosh omilini shunday izohlaydi: “Hamma gap XX asr boshlari Turkiston jamiyatida shaxs maqomining oʻzgargani, insonning ijtimoiylashganida. Sodda qilib aytsak, Turkiston kishisi jamiyatning ahvoli, buguni va ertasi, mavjud holning sababi – xullas, siyosat haqida bosh qotiradigan boʻldi” [3: 366] Jamiyatdagi bu tub oʻzgarishlar ijodkor badiiy tafakkuriga ham oʻz taʼsirini koʻrsatmasdan qolmadi. Adabiyotda badiiy konsepsiya yangilanish natijasida tafakkurda ham individual-ijodiy badiiy tafakkur bosqichiga oʻtildi. Individual-

ijodiy badiiy tafakkur bosqichning asosiy farqlovchi xususiyati realistik ifodadir.

Badiiy tafakkurning bu bosqichi zamonaviy oʻzbek adabiyoti deb ataluvchi katta bir bosqichni tashkil etsa-da, oʻz ichida bir necha davrlarga ajratish mumkin.

Biz yuqoridagi fikrlar asosida badiiy tafakkur bosqichlarini belgilashdagi eng muhim omil inson konsepsiyasidir degan xulosaga kela olamiz.

Individual-ijodiy badiiy tafakkur zamonaviy oʻzbek adabiyotining soʻnggi bosqichi boʻlgan istiqlol davri oʻzbek adabiyoti vakillarining badiiy tafakkurida oʻziga xos tarzda koʻrinadi. Aynan shu davrning zabardast vakillaridan biri adib Xurshid Davron ijodida ham yangi janrlar, uslublar paydo boʻlganligini koʻrishimiz mumkin. “Sohibqiron nabirasi” qissasining yaratilish sababi shuni koʻrsatadiki, badiiy jarayonning boshlanishi hayot haqiqatini oʻrganishdan boshlanadi, yaʼni hayotda yuz berayotgan voqelik adib ongida obrazli tafakkurni yuzaga keltiradi. Ushbu tafakkur sabab badiiy niyat tugʻiladi. Ijodiy

niyat tug'ilishi bilan badiiy to'qima ishga tushib, syujetga asos bo'ladigan manzaralar va ularda faoliyat ko'rsatuvchi obrazlar yozuvchi ongida shakllana boshlaydi. Adib badiiy tafakkuriga ta'sir qilgan bir necha omillarni quyida sanab o'tamiz. Mustaqillik omili, mamlakatimizning o'z erkinligini qo'lga kiritishi eski tafakkurni ostin-ustun qilib yubordi. Oqibatda millatimizning har bir asl farzandi tafakkurida yangi g'oyalar, fikrlar paydo bo'ldi. Xalqimizning tarixi, millati dardi bilan yonib yashovchi adib Xurshid Davron ijodida ham tafakkurning yangi qirralarini namoyon qildi.

Adib badiiy tafakkuri, ijodi zamonasi va millatining dolzarb muammolarini o'zida aks ettiradi. Mustaqillik yillarida, yangi tarixiy va madaniy sharoitda, adibning ijodiy yo'li va badiiy dunyosi yangilanishni va o'zgarishni ko'rsatadi. Adibning asarlarida, ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek va Bibixonim haqidagi qissalar, uning badiiy tafakkurida mustaqillikning ta'sirini sezishga imkon beradi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi adabiyotga yangi ruh kiritdi, bunda milliy qadriyatlar va tarixiy shaxslarning roli yuqori bo'ldi. Xurshid Davronning asarlarida, ayniqsa, tarixiy obrazlarning shaxsiyati va ular bilan bog'liq davr tafakkuri orqali xalqning g'ururi va madaniy merosi aks ettiriladi. Sohibqiron Amir Temurning shaxsiyati va uning hokimiyatiga bo'lgan yuksak hurmati, Mirzo Ulug'bekning hokimiyat va ilm-fanni birgalikda olib bora olishini, yurtimiz tarixini, tarixiy figuralarni badiiy obrazlar bilan birlashtirgan holda xalqimizga haqiqat ko'zgusi bo'la oladigan asarlarni yaratganligi ham mustaqillik sharofati bilan deya olamiz. Yozuvchining asarlarida ma'lum bir tarixiy kontekstda aks etgan. Mustaqillik davrida, Xurshid Davron, o'zbek xalqi va uning tarixini yangi nuqtayi nazardan baholashga harakat qildi. Sohibqiron Amir Temurning davlat qurishdagi o'rni, xalqni birlashtirishdagi roli va milliy merosni rivojlantirishdagi muvaffaqiyatlari, uning badiiy tafakkurida alohida o'rin tutadi. Davronning "Sohibqiron nabirasi" asarida, bu figura adibning badiiy izlanishlari orqali qayta jonlanadi.

Xurshid Davronning "Bibixonim qissasi" va "Sohibqiron nabirasi" asarlari, folklor va xalq rivoyatlaridan ilhomlanib, badiiy tafakkurini shakllantirgan omillardir. Ushbu asarlarda tarixiy

voqealar va shaxslar folklor unsurlari bilan boyitilgan. "Bibixonim qissasi"da Xurshid Davron, Amir Temurning xotini Bibixonimning hayoti va faoliyatini tasvirlaydi. Ushbu asar, xalq orasida sayqallanib qolgan rivoyatlar va afsonalarga asoslanadi[4: 336]. Masalan, Bibixonimning Samarqandda madrasa qurdirgani va bu madrasa xalq orasida "Ishratxona" deb atalishi haqidagi rivoyat, folklorning ta'sirini ko'rsatadi. Adibning ushbu asarni yozishdagi maqsadi, tarixiy shaxslarning hayotini xalq rivoyatlari orqali yoritishdir. "Sohibqiron nabirasi" asarida, Amir Temurning nabirasi bo'lgan Mirzo Ulug'bekning yoshligi va ta'limi tasvirlanadi. Asarda, tarixiy voqealar va shaxslar folklor unsurlari bilan boyitilgan. Masalan, Amir Temurning Hindistonga yurishi va bu yurishdagi voqealar, xalq orasida saqlanib qolgan rivoyatlar asosida bayon etiladi[5: 57]

Muallifning ushbu asarni yozishdagi maqsadi, tarixiy voqealarni xalq rivoyatlari orqali yoritishdir. Xurshid Davronning "Bibixonim qissasi" va "Sohibqiron nabirasi" asarlari, folklor va xalq rivoyatlarining badiiy tafakkurga ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu asarlarda tarixiy voqealar va shaxslar, xalq orasida saqlanib qolgan rivoyatlar asosida tasvirlanadi. Davronning ijodi, tarix va folklorning uyg'unligini namoyish etadi. Xurshid Davron ijodida folklorning ta'siri juda katta ahamiyatga ega. U o'zining ko'plab asarlarida, xususan tarixiy va badiiy qissalarida xalq og'zaki ijodi elementlarini ijodiy jarayonlarga qo'shib, bu orqali o'z asarlarini boyitgan va chuqur mazmunli qilgan. Tarixiy va folklor unsurlarining uyg'unlashuvi Xurshid Davronning asarlari ko'pincha tarixiy voqealar va shaxslarni, xalq rivoyatlari va afsonalari bilan birlashtiradi. Masalan, "Bibixonim qissasi" asarida Bibixonimning Samarqandda qurdirgan madrasasi, xalq orasida saqlanib qolgan "Ishratxona" haqidagi rivoyat asosida tasvirlanadi. Bu yerda folklor va tarix bir-birini to'ldirib, o'quvchini nafaqat tarix bilan tanishtiradi, balki xalq ijodining ham go'zalligini ko'rsatadi. Xalq qissalari va she'rlarining badiiy ifodasi Xurshid Davron, o'z asarlarida xalq she'riyatidan ham keng foydalangan. Uning qissalarida, xususan, an'anaviy xalq she'riyatining mahorat

bilan ishlangan variantlari uchraydi. U badiiy tafakkurda folklor janrlarini joriy etishda o'ziga xos uslubni yaratdi. Shu tarzda, u o'z asarlarini qiziqarli va o'qishli qilish uchun xalq og'zaki ijodi usullarini amalga oshirgan.

Xurshid Davron o'zining nasriy asarlari orqali o'zbek adabiyotida badiiy tafakkurning chuqur, zamonaviy va ayni paytda tarixiy ildizlarga tayanadigan namunalarini yaratdi. Uning nasrida faqat syujet rivoji yoki voqealar zanjiri emas, balki ularning ichki falsafiy mohiyati, insoniy kechinmalar, milliy ong va tarixiy xotira asosiy o'rinni egallaydi. Bu jihatlar Xurshid Davron ijodini oddiy nasr emas, balki badiiy tafakkurning yuksak ifodasi sifatida qarashga asos bo'ladi.

Xurshid Davron o'z asarlarida tarixga bir tafakkur maydoni sifatida yondashadi. U tarixiy voqealarni yoki shaxslarni quruq tasvirlamaydi, balki ularni bugungi kun bilan bog'lab, o'quvchini tafakkurga chorlaydi. Masalan, "Samarqand xayoli" kabi asarlarida qadimiy shaharning timsoli orqali o'zbek xalqining o'tmishi, madaniyati va ma'naviy dunyosi chuqur tahlil qilinadi. Bu tarixga badiiy nigoh bilan qarash uslubi Xurshid Davron nasrining eng muhim xususiyatlaridan biridir.

Bundan tashqari, yozuvchining badiiy tafakkuri ramziy tasvirlar, falsafiy

mushohadalar, lirik ruhda ifodalangan tuyg'ular orqali boyitilgan. Har bir obraz, har bir tabiat manzarasi yoki tarixiy voqea o'zida chuqur ma'no va g'oyani mujassam etadi. Bu orqali yozuvchi o'quvchining nafaqat tasavvurini, balki tafakkurini, fikrlash qobiliyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xurshid Davron nasrida inson ruhi, uning iztiroblari, orzulari, izlanishlari ham markaziy o'rinda turadi. Uning nasriy qahramonlari ko'pincha real hayotiy muammolar bilan yuzlashadi, o'z o'tmishi bilan muloqotda bo'ladi, ma'naviy saboqlar chiqaradi. Bu orqali muallif hayotni nafaqat tashqi ko'rinishda, balki ichki mohiyatda ochib berishga harakat qiladi. Bu holat esa badiiy tafakkurning chuqurligi, murakkabligi va ahamiyatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Xurshid Davron nasrida badiiy tafakkur – bu estetik ifoda vositasi bo'lish bilan birga, xalq tarixini, milliy qadriyatlarni, insoniy tuyg'ularni va falsafiy mushohadalarni o'zida uyg'unlashtirgan kuchli badiiy jarayondir. Uning asarlari o'quvchini fikrlashga, anglashga, o'zini va jamiyatni teranroq tushunishga undaydi. Shuning uchun ham Xurshid Davron ijodi o'zbek nasrida badiiy tafakkur taraqqiyotining muhim bosqichi sifatida alohida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Averinsev S.S., Andreev M.L., Gasparov M.L., Grinser P.A., Mixaylov A.V. Kategorii poetiki v smene literaturnykh epox // Istoricheskaya poetika. Literaturnye epoxi i tipy xudojestvennogo soznaniya. Sb. statey. – Moskva: Naslediye, 1994. 512 s.

2. Quronov S. Badiiy tafakkur evolyutsiyasi va inson konsepsiyasi. "Ilmiy xabarnoma. Gumanitar tadqiqotlar" jurnali, № 7. 2022.

3. Kuusi P. Etot chelovecheskiy mir. – Moskva: Progress, 1988. 366 s.

4. Quronov D. Mutoalaa va idroq mashqlari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. 336-b.

5. Usmanova Z.I. Xurshid Davron ijodida tarixiy fakt va badiiy to'qima uyg'unligi. Monografiya. – Toshkent, 2024. 57-b.

Yulduz TURSUNOVA,
Qarshi davlat universiteti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi
ytursunova636@gmail.com

ABDULLA QAHHOR IJODIDA QO‘LLANGAN GAZETA, JURNAL, MEDAL VA ORDEN NOMLARINING LINGVOPOETIK TAHLILI

Annotatsiya: badiiy matndagi atoqli otlarni lingvistik va lingvopoetik jihatdan tadqiq etish mumkin. Onomastik birliklarni lingvistik tahlil qilishda mazkur birliklarning tarixiy davrdagi holati va hozirgi davrga xos xususiyatlari, fonetik, leksik, grammatik o‘zgachaliklari, tilning hozirgi jihati bilan umumiy va farqli tomonlari tadqiq qilinadi.

Ushbu maqolada o‘zbek xalqining mashhur yozuvchisi Abdulla Qahhor qissalarida qo‘llangan gemeronim va faleronimlar haqida so‘z boradi. Abdulla Qahhor qissalarida keltirilgan “Yangi yo‘l”, “Qizil O‘zbekiston” gazetalari, “Yer yuzi” jurnali, “Qizil bayroq”, “Qizil yulduz” ordenlarining nomlanishi va lingvopoetik xususiyatlari xususida ayrim mulohazalarni beramiz.

Kalit so‘zlar: *poetik onomastika, poetonim, gemeronim, faleronim, lingvistik tahlil, lingvopoetik tahlil.*

Аннотация: в художественном тексте собственные имена могут быть исследованы как с лингвистической, так и с лингвопоэтической точки зрения. При лингвистическом анализе ономастических единиц изучается их состояние в исторический период и особенности, характерные для современного времени, фонетические, лексические, грамматические отличия, а также общие и различающиеся стороны с современным состоянием языка.

В частности, в повестях Абдуллы Каххара встречаются такие примеры, как газеты «Янги йўл», «Қизил Ўзбекистон», журнал «Ер юзи», ордена «Қизил байроқ», «Қизил юлдуз». В статье представлены некоторые размышления относительно их номинации и лингвопоэтических особенностей.

Ключевые слова: *поэтическая ономастика, поэтоним, гемероним, фалероним, лингвистический анализ, лингвопоэтический анализ и др.*

Annotation: proper names in literary texts can be studied from both linguistic and linguopoetic perspectives. In the linguistic analysis of onomastic units, their state in the historical period and features characteristic of the present time are examined, as well as their phonetic, lexical, and grammatical peculiarities, along with similarities and differences compared to the current state of the language.

For instance, in Abdulla Qahhor’s novellas, such examples as the newspapers Yangi yo‘l (“New Way”), Qizil O‘zbekiston (“Red Uzbekistan”), the journal Yer yuzi (“The Earth”), and the orders Qizil bayroq (“Red Banner”) and Qizil yulduz (“Red Star”) are noteworthy. The article presents certain reflections on their nomination and linguopoetic features.

Key words: *poetic onomastics, poetonym, hemeronym, phaleronym, linguistic analysis, linguopoetic analysis, etc.*

Kirish. Onomastik birliklarni lingvopoetik tahlil qilishda badiiy asar, poetika va onomastikaning birlashishini hisobga olgan holda, soha nomini poetik onomastika deb yuritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbek olimalaridan biri D.Andaniyazova “Badiiy matndagi har qanday nom emas, balki ijodkor badiiy niyatini yoritishga xizmat qilgan nomlar poetonim termini ostida o‘rganilishini

maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Uning fikricha, ayni termin onomastik birliklardan yasaladigan poetonimlarning ichki turlarini nomlashda ham qulaydir. Shunga muvofiq olimo poetik yukli shaxs nomlariga nisbatan “antroponim” emas, balki “antropoetonim”, hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar uchun “zoopoetonim”, joy nomlariga nisbatan “topopoetonim” tarzidagi sof sohaviy terminlarni qo‘llash sohaga oid terminlarni bir

qadar tartibga solishga yordam beradi” degan fikrlarni ilgari surgan¹.

Tadqiqotchi Feruz Rajabov olimi Dilrabo Andaniyazovadan farqli o'laroq, poetonim terminini “badiiy matndagi har qanday nom emas, balki badiiy asar janri va yo'nalishiga ko'ra ijodkor badiiy niyatini yoritishga xizmat qilgan, uslubiy vosita yoki badiiy-tasviriy vositalarni yuzaga keltirgan nomlar” deb o'rganilishini muvofiq topadi. Olim poetik yukli shaxs nomlariga nisbatan “antroponim” emas, balki “poetik antroponim”, joy nomlariga nisbatan “toponim” emas, “poetik toponim”, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar uchun zoonim emas, “poetik zoonim” terminlarini qo'llaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada lingvopoetik tahlil metodidan foydalanildi. “Badiiy asar tilini o'rganishdagi ikkinchi, ya'ni lingvopoetik yo'nalish tilning xuddi shu estetik vazifasini tadqiq etishga qaratilgan. Aytish lozimki, tilning estetik vazifasining asosiy namoyon bo'lish o'rni badiiy asar matni ekan, bu vazifaning o'ziga xos xususiyatlarini faqat tilshunoslik yoki faqat adabiyotshunoslik doirasida o'rganish qiyin. Buning uchun adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, poetika kabi adabiyotshunoslik yo'nalishlari va lingvistik stilistika, til tarixi, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, grammatika kabi tilshunoslik yo'nalishlari bir-biri bilan hamkorlikda ish ko'rishi lozim. Tilning estetik vazifasi masalasi bu ikki yirik fan oralig'idagi murakkab muammodir”² – deydi M.Yo'ldoshev.

Poetonimlarning badiiy matndagi o'rni va vazifalarini aniqlashda ularning semantik yuki, uslubiy vazifasi hamda lingvokulturologik omillari inobatga olinishi lozim.

Natijalar va muhokama. Gameronim yunoncha gemero (hemero) “kun”, “sutka”, onim (onuma) “nom” degan ma'noni anglatadi. U davriy nashrlarning nomlarini o'z ichiga oladi³. Davriy nashrlar deganda gazeta va jurnallar nomlari tushuniladi. Ayrim tadqiqotchilar radio,

televideniye, video va kinoxronikal dasturlar ham gemeronim atamasi ostida o'rganilishini aytishadi⁴.

Abdulla Qahhor “O'tmishdan ertaklar” avtobiografik qissasida o'zining ijodida foydalangan davriy nashrlar haqida ma'lumot berib o'tgan: *Xayriyat indamaganim, ko'nglimga kelgan gapni ayamga aytganimda, ayam: “Bizni amaking bilan yuzko'rmas qilmoqchimidin!” deb urushib berdi. G'afforjon bilan Omina voqeasi dilimda qolib ketgan ekan, oradan olti-yetti yil o'tib, yozuvchilikka havas paydo qilganimda dastlab shuni qalamga oldim. “Yosh qizlar o'gay ota qo'lida” degan hikoya yozdim. Hikoya xotin-qizlar gazetasi “Yangi yo'l” da bosilib chiqdi. Ikki-uch yildan keyin shu haqda yana bir hikoya yozdim. Bu hikoya “Boshsiz odam” sarlavhasi bilan “Yer yuzi” jurnalida bosildi. Bu hikoyada G'afforjonni – Faxriddin, Ominani – Mehri deb atadim*⁵. Parcha yozuvchining “O'tmishdan ertaklar” qissasidan olingan bo'lib, unda *bibliyonim* (badiiy asar nomlari) lar bilan bir qatorda *gameronim* (matbuot organlari nomi) lar ham keltirib o'tilgan. “Yangi yo'l” va “Yer yuzi” jurnallari shular jumlasidandir.

“Yangi yo'l” jurnali dastlab gazeta shaklida bosilgan. 1924-yil 1-yanvardan boshlab ushbu gazeta chop etila boshlangan. Dastlab ikki haftada bir marta, keyinchalik haftada bir martadan chiqarilgan. Gazetaning asosiy mavzusi xotin-qizlar erkinligi hisoblangan. Gazeta ilk kezlarda xotin-qizlarga tekin tarqatilgan. Dastlab taniqli shoir Elbek ushbu gazetani chiqarish, materiallarini tuzatish va tartibga solish bilan shug'ullangan. Lola Sayfullina, Sobira xonim kabi ayollar bir qancha vaqt muharrir bo'lib ishlashadi. “Yangi yo'l” gazetasi 1925-yil dekabrda jurnalga aylantirilgan. Jurnal 1936–1950-yillarda “Yorqin turmush”, 1950–1965-yillarda “O'zbekiston xotin-qizlari” va nihoyat 1966-yildan “Saodat” nomi bilan chop qilingan. Ushbu jurnal hozirgi kunda o'zbek xotin-qizlari hayotini faol yoritib kelayotgan yetakchi nashrlardan hisoblanadi⁶. Parchada mazkur jurnal nomi muallifning ijodiy

1 Анданиязова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. Филология фанлари буйича фалсафа доктори (Phd) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. 12-б.

2 Yo'ldoshev M. Ko'rsatilgan asar. – Toshkent, 2008. 5-b.

3 Подольская, Н.В. Словарь русской ономастической терминологии/ Н.В. Подольская. – М.: Наука, 1988. 46

4 Крюкова И.В. Рекламное имя: от изобретения до прецедентности. Волгоград: Перемена, 2004. – С.32

5 Abdulla Qahhor. O'sha asar.289-b. (06.08.2024.)

6 Shomurodova S. “Yangi yo'l” dan “Saodat” gacha // “Jadid” gazetasi. 2024-yil 8-mart. 11-son. <https://jadid-media.uz> (02.10.2024.)

uygʻonishi, jamiyatdagi muammolarni ilgari surishi kabi niyatlari bilan uygʻunlashgan. Bu orqali yozuvchi xalqni ham yangicha tafakkurga, ijtimoiy uygʻonishga chorlaydi. Shu sababli nom katta gʻoyaviy yuk olgan.

“Yer yuzi” jurnali 1925-yil noyabr oyidan boshlab chiqa boshlagan. Jurnal oʻzbek tilidagi dastlabki ommaviy ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy va rasmi-bezakli nashrlardan boʻlgan. “Yer yuzi” jurnalida Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Choʻlpon, Shokir Sulaymon, Botu, Otajon Hoshim kabi ijodkorlarning asarlari muntazam nashr qilingan. Uzoq muddat maʼlum sabablarga koʻra jurnal nashr qilinmagan. 1967-yil yanvardan “Guliston” nomi bilan chiqa boshlagan⁷. Parchadagi jurnal faqat mahalliy voqealar emas, balki butun insoniyat taqdiri haqida mushohada yurituvchi manba sifatida talqin etiladi. U ijodkorning shaxsiy tajribasini umumiy jamiyat tajribasiga aylantirish imkonini ham beradi. Yaʼni, unda muallifi yozgan asarning mahalliy voqelikdan umumiy insoniylikka koʻtarilishi, badiiy tafakkur maydonining kengligi ifodalangan.

Gameronimlar haqida gap borar ekan, Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasida “Qizil Oʻzbekiston” gazetasi nomi qoʻllangan: *Aʼzamjon bugun saharda Arslonbekni kurortga kuzatib*

qoʻyibdi. Kecha kun boʻyi ikkovi birga ekan. Arslonbek “Qizil Oʻzbekiston” gazetasining kechagi sonida chiqqan “Sinchalak”dan parchani oʻqib, yozuvchidan xafa boʻlibdi: “Men Saidaxonni oʻshanda sinchalak degan boʻlsam, keyinroq bu xatoni oʻrtoq Nosirovning oldida tuzatgan, kolxozchilarning umumiy majlisida ham toʻgʻirlaganman, oʻziga qoʻl berib, kichkina, nimjon boʻlsang ham, osmonni koʻtarguli quvvating, gʻayrating bor ekan, deganman, shuni yozsin-da, nima qiladi oʻtgan gaplarni esga solib”, – debdi⁸. Mazkur nomni tahlil qilishda izohli lugʻatlarga murojaat qilish mumkin. Qizil soʻzi izohli lugʻatlarda 1) qon rangidagi, qirmizi, alvon; 2) yuzning, badanning shu tusga moyil rangi; qizillik; 3) koʻchma maʼnoda vino; koʻchma eskirgan maʼnoda Oktyabr inqilobi, shoʻro tuzumi, armiyasiga oidlikni bildiradigan soʻz kabi maʼnolarda izohlangan⁹. Bundan koʻrinadiki, kommunistik gʻoyalar yetakchilik qilgan shoʻrolar davriga oidlikni belgilash maqsadida ushbu nomdagi gazetalar shakllangan.

Xulosa va takliflar. Abdulla Qahhor asarlarida “Yangi yoʻl”, “Qizil Oʻzbekiston” gazetalari, “Yer yuzi” jurnali, “Mehnat”, “Qizil Bayroq”, “Qizil yulduz” ordenlari kabi poetik ktematonimlar ijodkorning gʻoyaviy va badiiy maqsadi uchun xizmat qilgan.

⁷ [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Guliston_\(jurnal\)](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Guliston_(jurnal)) (02.10.2024.)

⁸ Abdulla Qahhor. Sinchalak (qissa). www.ziyouz.com kutubxonasi.151-b.

⁹ <https://izoh.uz/word/qizil>. (06.08.2024.)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. –М.: Наука, 1988. – С.46.
2. Крюкова И.В. Рекламное имя: от изобретения до прецедентности. – Волгоград: Перемена, 2004. – С.32
3. Абдулла Қаҳҳор. Ўтмишдан эртақлар (қисса). – Тошкент, 1988.188-189-b.
4. Shomurodova S. “Yangi yoʻl”dan “Saodat” gacha // “Jadid” gazetasi. 2024-yil 8-mart. 11-son. <https://jadid-media.uz> (02.10.2024.)
5. Abdulla Qahhor. Sinchalak (qissa). www.ziyouz.com kutubxonasi.151-b.

Kamola ABDURASHIDOVA,
 ADTI O'zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrası o'qituvchisi
 e-mail: abdurashidova.kamola@mail.ru

MOZIYDAN AKS - SADO!

“Tarixni o'rganish vatanga sadoqat demakdir.”

Annotatsiya: maqolada Andijon viloyatining Jalaquduq tumani tarixiy, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti haqida so'z yuritiladi. Jalaquduq nomining kelib chiqishi haqida tarixiy manbalar, xalq og'zaki ijodi va mahalliy rivoyatlarga asoslangan holda turli farazlar ilgari suriladi. Tumanning qadimiy maskanlari, jumladan Oyim, Teshiktosh, Yorqishloq, Beshtol, Ko'shtepa, Hasanqovoq kabi qishloqlarning tarixi, nomlanishi, etnografik xususiyatlari ochib beriladi. Kutayba ibn Muslim kabi tarixiy shaxslar hamda zamonaviy qahramonlar va ularning xizmatlari yoritiladi. Maqola milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani asrash va kelajak avlodga yetkazish g'oyalariiga asoslanadi.

Kalit so'zlar: *Jalaquduq tarixi, toponimika, mahalliy rivoyatlar, Kutayba ibn Muslim, tarixiy manbalar, xalq og'zaki ijodi, madaniy meros, islom tarixi, qishloq hayoti, o'zlikni anglash.*

Аннотация: в статье рассматривается историческое и культурное развитие Джалакудукского района Андижанской области. Автор подробно исследует происхождение названия «Джалакудук» на основе исторических источников, устных народных преданий и археологических данных. Освещаются история и особенности ряда сел и махаллей, таких как Ойим, Тешиктош, Йоркышлак, Бештоль, Куштепа и Хасанковок, раскрываются их названия и этнографические особенности. Также внимание уделяется роли таких выдающихся личностей, как Кутейба ибн Муслим и других, внесших вклад в развитие региона. Работа подчёркивает важность сохранения исторической памяти, укрепления национальной идентичности и передачи духовного наследия молодому поколению.

Ключевые слова: *история Джалакудука, топонимика, народные предания, Кутейба ибн Муслим, исторические источники, устное народное творчество, культурное наследие, история ислама, деревенская жизнь, национальная идентичность*

Annotation: this article explores the historical, cultural, and socio-economic development of the Jalaquduq district in the Andijan region of Uzbekistan. It examines the etymology of the name “Jalaquduq” through historical records, local oral traditions, and legends. The study covers the origins and significance of local settlements such as Oyim, Teshiktosh, Yorqishloq, Beshtol, Koshtepa, and Hasanqovoq, revealing their cultural and ethnographic features. The article also highlights the influence of historical figures such as Qutayba ibn Muslim and the contributions of modern community leaders. Emphasis is placed on the importance of preserving historical memory, strengthening national identity, and educating future generations about the nation's heritage.

Key words: *history of Jalaquduq, toponymy, local legends, Qutayba ibn Muslim, historical sources, oral traditions, cultural heritage, Islamic history, rural life, national identity.*

Inson bor ekanki, qadim zamonlardan beri o'z vatani tarixini o'rganib borishga intilib kelgan. Bu borada juda ko'p izlanishlar olib borib, ko'plab tarixiy ma'lumotlarni yig'ib qoldirgan. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodini yozib olib targ'ib qilish, chuqur o'rganish tarixni aniqlashda qo'l kelgan. Haqli ravishda ayta olish mumkinki, Farg'ona vodiysining shimoliy-sharqiy darvozasi bo'lmish, go'zal tabiati va madaniy merosi, serqirra turmush tarziga ega tuman bu – Jalaquduqdir. Tuman hududida O'zbekiston Respublikasi bir tomondan

O'sh viloyati, ikkinchi tomondan Jalolobod viloyatining Suzoq tumani orqasi Qirg'iziston Respublikasi bilan tutashgan.

Jalaquduq yerning novsimon atrofi past-baland mintaqasiga joylashgan. Iqtisodiy ahamiyatga molik tumandir. Bu yerga bahor kechroq keladi. Lekin quyosh harorati yaxshi ekanligi yetarli kuch-quvvat baxsh etadi. Jalaquduqdan Andijonsoy, Shaxrixonsoy oqib o'tadi. Janubiy Olamushuk, Teshiktosh, Oyim, Yorqishloq singari unumdor yerlarga ega

bo'lgan hududlar mavjud. Aholisi mehnatkash, mehmondo'stdir. Tumanning tarixi ko'p asrlik voqeliklarga boydir. Tarixga nazar tashlar ekanmiz, bizni bugungacha saqlanib qolgan nomlarning kelib chiqishi qiziqtiradi. Bu nom va atamalar qanday qilib yuzaga kelgan, juda qadim zamonlar osha tildan tilga o'tib keladi, boisi nima?

Mazkur savollarga javob topish uchun izlanamiz, tarixiy kitoblarga murojaat qilamiz, xalq og'zaki terminlarini o'rganib, fikr yuritamiz.

Jalaquduq atama nomi qanday kelib chiqqan?

Atoqli tarixchi olim — akademik Bo'riboy Axmedov va professor Abdug'ofur Nabiyevlarning ma'lum qilishicha, miloddan avvalgi I asrlarda Farg'ona vodiysining markaziy shahri Ershi (hozirgi Marxamat tumanidagi Mingtepa)ga qilgan muvaffaqiyatsiz hujumidan orqaga qaytayotgan Xitoy qo'shinlari Jiyda mozor yaqinidagi yalanglikda to'xtaydilar va Ershi qal'asi himoyachilaridan o'rgangan Jala shaklida quduq qazib suv chiqarish uslubini qo'llashadi. O'sha Jala quduqlaridan suv chiqqach, askarlar bir necha vaqt nafas rostlaydilar. Xitoyliklarning qazib ketgan jala quduqlari asrlar va yillar o'tgach talaffuzda osonlashib "Jalaquduq"ga aylangani to'g'risida farazlar bor.

Jalaquduqlik keksalarning aytishicha, qadimgi Bo'ston, Qorasadoq, Oq Echki, Toshloq, Dungqishloq, Urgi qishloqlarida zovurlar, buloqlar ko'p bo'lgan. Yerlari qora tuproqli, zaxkam edi. Odamlar zovur va buloqlarga g'ajava solib baliq ovlagan. G'ajavani jelek deb ham atashgan. Jelek so'zi "jela" deb ham yuritilgan. Jelalar tashlanadigan chuqur quduqlar asta-sekin "Jalaquduq" deb atalgan. Dehqonchilik va chorvachilik uchun sersuv bo'lgan bu joylarga daraxtlar ekilgan, mevazorlar barpo etilgan, odamlar yashaydigan kulbalar paydo bo'lgan.

Savol tug'ilishi joizdir: **Nima uchun tumanga Jalaquduq nomi berilgan?**

Tumanni tashkil etish ta'sis yig'ilishi Sufi qishlog'ida o'tkazilgan bo'lsa-da, o'sha 1926–1927-yillarda tuman ma'muriyati joylashadigan maqbul bino yo'q edi. Shu sababli ma'muriy bino Jalaquduq qishlog'ida musodara qilingan boylarning uy-xovlisida joylashtirilgan. Ish yuritishda muhr va shtampga tumanning manzilgohi yozilgan. Manzilgoh Jalaquduq qishlog'i bo'lganligi sababli bu nom tuman atamasiga ham qo'shilgan.

Jalaquduq nomiga moziyning guvohligi:

Tuman tarixiga nazar tashlar ekanmiz, butun

diqqatimiz uning o'tmishiga, ya'ni moziyga jalb etadi. Islomiy manbalarda keltirilishicha, sarkarda Qutayba yashagan o'rta asrlardayoq (660–715- yillarda) bu muzofotlar, ya'ni tuman hududidagi Kot qishlog'i ma'lum va mashhur bo'lgan.

Manbashunos olim Muhammadjon Abdurahmonovning ma'lumotlariga ko'ra: arablarning minglab harbiy yurishlarida shuhrat qozongan, o'nlab mustahkam qal'alarni zabt etgan mashhur sarkarda Qutayba ibn Muslim Buxoriy O'rta Osiyo va Qashqar vohasiga kelib yetgan. Qutayba Xalifa Muoviya ibn Abu Sufyon (661–680-y.) bilan hamfikir edi. Xalifaning farmoniga binoan, harbiy yurishlar qiladi va 712–714-yillar mobaynida Farg'ona taraflarini zabt etadi. Keyin ichki nizolar oqibatida dushmanlari tomonidan o'ldirilgan. Qutayba ibn Muslimning jasadi Farg'ona vodiysida mashhur bo'lgan Kot qishlog'idagi Roboti Sarxanga dafn etilgan. Usha Kot qishlog'i Jalaquduq tumanidagi "Paxtakor" qishlog'ining G'alaba uchastkasi o'ramida bo'lib, Roboti Sarxang mozorbuva masjidi va unga tegishli joylardadir. Bu joy mashhur tarixchi Narshahiyning "Buxoro tarixi" kitobida yozilishicha, juda gavjum bo'lib, chor atrofdan ziyoratchilar kelib turgan.

Shundan ham bilish mumkinki, Jalaquduq hududidagi hayot moziyga borib, zamonlar o'tishi bilan yangi shakl va mazmunga boy bo'lib bormoqda.

Tarixchi Abu Ja'far Narshahiyning 944-yilda yozilgan "Buxoro tarixi" kitobida yozilishicha, Qutayba ibn Muslim qabri Andijon viloyati Jalaquduq tumani, qadimgi Sufi qishlog'i Qamchimazor MFY hududida bo'lib, bugungi kunda butunlay zamonaviy, mahoratli, salobatli va ko'rkam qiyofa kasb etib turibdi. Tarixiy manbalarga tayanib, shuni aytish joizki, Qutayba ibn Muslim 715-yilda vafot etgan deyilsa, u 55 yoshida dunyoni tark etgan. Tug'ilgan yili 660-yilga to'g'ri keladi.

Ko'plab tarixiy manbalarda Qutayba ibn Muslim Andijon viloyati Jalaquduq tumani, "Paxtakor" fermerlar uyushmasiga qarashli Qilichmozor qishlog'ida joylashgan qabristonga dafn etilgan deyiladi. Bu fikrni V.V. Vortold, B. G'ofurov, B. Ahmadovlar ham tan olgan. Haqiqatan ham mozorbuva qishlog'iga kirsangiz, Qutayba ibn Muslim ziyoratgohiga ko'zingiz tushadi. Bu masjid va ziyoratgohni shu yerlik aholi avaylab-asrab kelishgan. Yo'qolib ketishiga yo'l qo'yishmagan, paxton etishmagan. Namozlar o'qilib ketilgan, sumalaklar pishirilgan, oshlar damlangan.

Qishloq aholisi orasida biri bo'lgan Saydaminxo'ja Isomiddinov 60 yil avval ziyoratgoh va masjidni o'z mablag'i hisobiga temir panjaralar bilan o'rab, atrofini himoya qilib, parvarish qilgan.

Qodirxon Saydullaev, Xasanxo'ja Akbarov, Saydkori Sobirov, Abduvahob Islomov singari musulmonlar masjidlarda namoz o'qishgan. Mag'firatxon Saydullaeva esa qozonlarda sumalaklar pishirib, to'y va marosimlarda o'z hissalarini qo'shgan.

Imom Qutayba ibn Muslimga Allohning rahmati bilan O'rta Osiyoda islom dinini keng yoyish yo'li ochilgani ortidan bu muqaddas zamin katta olimlar, donishmandlar, faylasuflar, buyuk qudrat va aql-tafakkur sohiblarini yetishtirdi. Ularning qoldirgan ma'naviy va madaniy meroslari dunyo hayotini hanuz munosib yo'lga solishda xizmat qilmoqda.

Qodirxon tog'a Saydullaev, uning turmush o'rtog'i Mag'firatxon, o'g'li Oyi Saydullaeva, maktab direktori Komiljon Tomboyev, uning o'g'illari Ohdiboboev, shahar hokimi bo'lib ishlagan Odiljon Tomboyev, Ichki Ishlar xodimi Azamatjon Tomboyev, shifokor Alijon Tomboyev, o'qituvchi Sotvoldixon Rahmonov, Ikkinchi Jahon urushi ishtirokchisi Anubiy Olamushuk posyolkasi 20-maktabida uzoq yillar direktorlik qilgan Xomidjon domla Qosimov, filolog Isroiljon Isomiddinov, kimyogar Murodjon Xasanov, oliy ma'lumotli shifokor Munavvarxon Emalxo'jayeva, Sanobarxon Kuchkarova, neft konlari yetakchi muhandisi katta texnolog Matkarim Qodirov hamda uning o'g'li, Iqtisod fanlari doktori, professor Abdumalik Qodirov singari fidoyi kishilar haqida so'zlab, ularning xizmatlarini e'tirof etmaslik mumkin emas. Bu Mozorbuva qishlog'i ana shunday voqealarga boy tarixiy maskandir.

Jalaquduq aholisi manzillari: Teshiktosh tuman chegarasida joylashgan bo'lib, Andijon va Paxtaobod tumanlariga eshik vazifasini bajaradi. Hudud "Teshiktosh" nomini adirliklar yonida joylashgan katta g'ordan olgan. Savdogarlar yoz faslining jazirasidan qochib, ushbu g'orda dam olishgan. Qo'qonliklar ushbu g'orni ko'rib, uning teshigiga ishora qilib, "Teshiktosh" deb atashgan. Teshiktoshda joylashgan "Orom" choyxonasi soya-salqin joyda joylashgan bo'lib, uning barpo etilishida Sharof Rashidovning hissasi katta bo'lgan.

Oyim qishlog'i esa o'z taraqqiyoti va el og'ziga tushishida muhim ahamiyatga ega. Andijon begi Rahmonqul Dodho ushbu hududga tez-tez tashrif

buyurardi. Uning qizi Moxlaroyim Qo'qon xoni Umarxonga uzatilgan. Qishloq haqida eshitgan Xonbegim ham eri bilan bu yerga tashrif buyurgan.

Moxlaroyim – Nodirabegim o'z davrining yetuk shoirlaridan biri bo'lib, har yili kuz oylarida o'z mulki hisoblangan o'rdaga kelib, ijod qilgan. Shoiraning ta'siri ostida qishloq hayoti ham o'zgardi, qiyofasi chiroylandi, obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Qishloqqa Farg'ona vodiysi va boshqa hududlardan ishbilarmonlar hamda hunarmandlar taklif qilindi. Aholi yashash joyini shoiraning sharafiga "Oyim" deb atay boshladi. Ilgari Oyim qishlog'ining darvozasi, ya'ni O'rda darvozasi, hozir Qo'qondagi muzeyda saqlanmoqda.

1929-yilda qishloq "Oyim" tarkibiga kirib, qo'shni Dardoqtepa, Qizil Tukay, Teshiktosh va Kurtki qishloqlari bilan birgalikda Oyim tumani tashkil etilgan edi. 1959-yilda esa Oyim tumani tugatilgan.

Sulton ena qadamjosi yonidan adir bo'ylab yo'l tushgan bo'lib, bu yo'l janubiy Olamushuk ishchilar shaharchasi va Qatortol qishlog'i fuqarolar yig'ini hududidagi yashash joylarini birlashtiradi. Kondi adirligi, Anhorlarga yaqin tepalikda joylashgan Sulton ena qabri mavjud bo'lib, u Qutayba ibn Muslimning xotini hisoblanadi. U uch o'g'il ko'rgan va kofirlar bilan bo'lgan urushlarda vafot etgan. Sulton ena g'orga kirib g'oyib bo'lgan, ammo hozirda uning ziyoratgohi qayta tiklanmoqda.

Jalaquduq tumani past-baland novsimon tog'li hududda joylashgan bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega. Bu yerda bahor kechroq keladi, biroq quyosh harorati yetarli bo'lib, qishloq xo'jaligi uchun qulay sharoit yaratadi. Tumandan Andijonsoy va Shaxrixonsoy daryolari oqib o'tadi. Janubiy Olamushuk, Teshiktosh, Oyim va Yorqishloq kabi unumdor hududlar mavjud bo'lib, aholi mehnatkash va mehmondo'stdir. Tumanning tarixi ko'p asrlik voqealarga boy.

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, hozirgacha saqlanib qolgan nomlarning kelib chiqishi qiziqish uyg'otadi. Ushbu nom va atamalar qanday yuzaga kelgani, ularning ma'nosi qanday ekanligi haqida chuqurroq o'rganish zarur.

Yorqishloq — Turkmahalla, Moskiqishloq, Qashqarmahalla, Yangi Kurpa, Qutlug', Toshxovuz kabi mahallalar mavjud bo'lib, aholi gavjum yashaydi. Ushbu mahallalarning nomlarida ularda yashovchi xalq udumlari va urf-odatlariga yaqin ishoralar ko'p uchraydi.

Masalan, Turkmahallada turklar istiqomat qilgan, Qutlug' esa baraka ma'nosini anglatadi. "Paxta fronti" nomi esa to'rt tomon dala bilan o'ralgan va tonnalab paxta yetishtiriladigan qishloq ma'nosida ishlatilganligi ma'lum. 1923-yilda Yorqishloqda sho'rolar qishloq kengashi tashkil etilgan bo'lib, birinchi rais sifatida Niyozali Mirzayev saylangan. Bu yerda ikki kolxoz faoliyat yuritgan: "Karl Marks" va "G'alabaniy 30 yilligi". Yorqishloqdan ko'plab viloyat va Respublika miqyosida tanilgan turli kasb egalari hamda tashkilot rahbarlari yetishib chiqqan, jumladan, O'g'ilxon Teshayeva, Munisxon Ergasheva, Manzuraxon Egamova, Qodirjon Teshayevlar.

Beshtol va **Qo'shtepa** — Yorqishloqqa boraverishda, yo'lni o'ng tomonida, Oqburasoy yaqinida joylashgan ikki qishloqdir. "Qo'shtepa" qadimiy ikki tepalikka, "Beshtol" esa quchoq yetmas tol daraxtlarga ishora qilib nomlangan. Beshtol fuqarolar yig'ini 1928-yilda tashkil etilgan. Bu hudud aholisi asosan, paxtachilik, chorvachilik, sholichilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanib kelgan. Ular qadimdan Qirg'izistonning O'sh shahri aholisi bilan qon-qarindoshlarcha munosabatda bo'lishgan. Bordi-keldi, quda-andachilik va oldi-sotdi aloqalari juda qiyiq bo'lsa-da, do'stlik rishtalari mustahkam qolgan.

Katta darvoza – "Paxtakor" — hozirgi Xo'jaobod tumani chegarasidan Andijon Qorasuv yo'li bo'ylab tuman markazigacha, shuningdek, Janubiy Olamushuk yo'li bo'ylab Mozorbuva va Sulton enagacha bo'lgan hudud "Paxtakor" jamoa xo'jaligiga qaraydi. Ilgari bu yerda bir nechta mayda kolxozlar mavjud bo'lgan. Ulardan biriga raislik qilgan Mozorbuvalik Yusufjon Mamatov 1939–1940-yillarda tumandagi yoshlar ittifoqining birinchi kotibi sifatida faoliyat yuritgan. Urush yillarida harbiy qismning siyosiy rahbari bo'lgan Mamatov xalq orasida hurmatga sazovor inson edi. Hozirda Mozorbuva qishlog'idagi bir ko'cha uning nomi bilan ataladi. Mamatovlar xonadoniga kirganingizda tarixning ovozi eshitilgandek bo'ladi. Uning farzandlari ham mehnatkash, halol va sodiq insonlardir.

Hasanqovoq — bir tomoni Shaxrixonsoy, ikkinchi tomoni Andijonsoy oralig'ida va qo'shni Qo'rgontepa tumaniga tutash hududdagi aholi maskani, yashash joyi hisoblanadi. Qishloq nomi bilan birga "Qovoq" laqabini olgan Hasanboy ota Shaxrixonsoy qurilayotganda ishlayotgan odamlarga qovoqda savob uchun suv tashib xizmat qilgan odam edi. Shuning uchun qishloq "Hasanqovoq" deb nomlangan va hozir ham shu nom bilan ataladi. Jalaquduq hududida shunday tarixiy maskanlar ko'p.

Xotima. 1991-yil 1-sentabr xalqimiz hayotida tub burilish kuni bo'lib, xotiramizda doimiy saqlanib qoldi. Orziqib kutgan kunlar nihoyat keldi. Endi O'zbekiston dunyo xotirasida o'z munosib o'rni va jahon maydonida o'z ovozigacha ega. Xalqimiz hurfiylik va o'zligini anglash yo'lida dadil qadam tashladi. O'zbekiston Respublikasi tobeklik ruhiyatidan butunlay ozod bo'ldi. Endi kelajagimizga o'tkir ko'z bilan boqib, o'z taqdirimizni o'zimiz belgilash imkoniyatiga ega bo'ldik.

Bugungi O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining teng huquqli a'zosi sifatida 130 ga yaqin davlat tomonidan rasmiy tan olindi. 50 dan ortiq davlat bilan diplomatik aloqalar o'rnatildi. Bunda birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning xizmatlari beqiyosdir.

O'zbek xalqining madaniy taraqqiyoti va xalq sifatida shakllanish jarayonlari bir-biriga uzviy bog'langan holda rivojlandi. O'zbeklarning ajdodlari tarixda sezilarli iz qoldirgan: Al-Farobiy, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, At-Termiziy, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Ahmad Yassaviy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy kabi jahonga mashhur alloma va adiblar ham Turon zaminining sharaflari farzandlaridir. Ularning yaratgan asarlari bugun jahon ilm-fan xazinasida qadriyat sifatida saqlanmoqda.

Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarimizning ilmiy bilimlarini mustahkamlash, xususan, tarixni chuqurroq o'rganishni muhim vazifa sifatida belgiladi. Haqiqatdan ham o'z tariximizni bilmay turib, kelajakni ko'ra olmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mustafa Nurotoy, Suyundik. *Munavvar qadamdjolar*. – Toshkent: Oltin Meros Xalqaro xayriya jamg'armasi, 2011. 168-b.
2. Hakimjonov, Asadali. *Hikmat durdonalari*. – Toshkent: Mehnat, 1993. 192-b.
3. Muhammadjonov, A., Usmonov, K. *O'zbekiston tarixi*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2000. 256-b.
4. Shamsuddinov, Rustambek Hoji; Yusuf o'g'li, Eshon. *Istiqlol va taraqqiyot yo'lidan*. – Andijon: Andijon nashriyoti, 1992. 144-b.

Maxliyo XURRAMOVA,
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
 davlat o'zbek tili va adabiyoti
 universiteti I bosqich tayanch
 doktoranti*

HADISLARNING GENEZISI VA O'ZIGA XOS BELGILARI

Annotatsiya: ushbu maqolada hadislarining yuzaga kelishi, o'ziga xosligi haqida so'z boradi. Maqola muallifi hadislarining genezisi, ta'lim va tarbiyadagi ahamiyatini tadqiq etgan.

Kalit so'zlar: *genezis, belgi, ta'lim, ahamiyat, jamiyat, dolzarblik.*

Аннотация: в данной статье говорится о возникновении и уникальности хадисов. Автор статьи изучил генезис хадисов, их значение в образовании и обучении.

Ключевые слова: *генезис, признак, образование, значимость, общество, актуальность.*

Annotation: this article talks about the occurrence and uniqueness of hadiths. The author of the article studied the genesis of hadiths, their importance in education and training.

Key words: *genesis, sign, education, importance, society, relevance.*

Ta'lim va tarbiya jarayoni har bir davr uchun muhim hisoblangan. Ta'lim ibtidoiy shaklda paydo bo'la boshlagan davrda ham kishilarda qiziqish va rag'bat uyg'otgan. Ta'lim va tarbiya tushunchalarini bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Ikkalasi bir-birini to'ldiradi. Ta'lim berish jarayonida tarbiya ham berib boramiz. Inson ma'naviyati, axloqi, tarbiyasi har bir davrda dolzarb masala hisoblangan. Ta'limsiz tarbiya, tarbiyasiz ta'lim nolga tengdir. Shuningdek, inson ham tarbiyasi, ma'naviyati bilan go'zaldir. Qadim deganda Alloh taoloning kitobi Qur'oni Karim, "Hadis" deganda esa Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning so'zlari nazarda tutilgan¹.

Imom al-Buxoriyning "Al-adab al-mufrad" kitobiga yozilgan muqaddimada esa hadisga quyidagicha ta'rif berilgan: "Islom dinining asosiy qonuni (dastur ul-amali) bo'lgan Qur'oni Karimdan keyin uning izohlovchisi va bayon etuvchisi bo'lmish Rasulullohning so'zlagan hikmatli gaplari va qilgan ishlari, ya'ni qavllari, fe'llari va taqdirlari ul zotning hadislarini hisoblanadi²".

Hadis ilmi bilan shug'ullanuvchi olimni muhaddis deb ataymiz. Muhaddislar asosan, hadisni Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamdan qaysi yo'llar bilan, kimlar orqali rivoyat qilinib, o'zlarigacha yetib kelganini aniqlaydigan olimlardir³.

1 Pazilova Meruyert Yermekbayevna. O'quvchi ma'naviyatini hadislar vositasida shakllantirishning pedagogik asoslari: ped.fan. nomz. ... diss.– Toshkent. 2004. 27-b.

2 Imom al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. (Adab durdonalari). –T.: O'zbekiston 1990. 4-b.

3 Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. – T.: Hilol nashr 1990. 8-b.

Sunnat (hadis) esa ma'nosi Allohdan, lafzi Payg'ambaridan bo'lgan vahiydir. Din-diyonat, shariat va boshqa ma'nolarda Payg'ambarimiz alayhissalom o'z shaxsiy fikrlarini emas, Allohning vahiyini o'z iboralari bilan taqdim etganlar⁴.

Sunnat va hadis bir-birining o'rnida ishlatib kelingan istilohlardir. Ularga yaxshilab diqqat qilinsa, hadis xosroq, sunnat umumiyroq ekani ko'rinadi.

"Insonning ma'naviy-axloqiy sifatleri payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarida chuqur va keng asoslab beriladi⁵". Har bir inson tushunadi, tahlil qiladi. Umumta'lim maktablarining 5-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Adabiyot" darsligida hadislar haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: Hadis arabcha so'z bo'lib, xabar, gap, yangilik kabi bir qancha ma'nolarni bildiradi. Hadislar Qur'ondan keyingi muqaddas manba bo'lib, payg'ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ning aytgan so'zlari, qilgan ishlari, bergan ko'rsatmalari hisoblanadi.

Hadislarni roviylar (rivoyat qiluvchi, aytuvchilar) yig'gan. Roviylar esa ikki toifaga bo'lingan: sahobalar va tobeinlar.

Sahobalar – payg'ambarimizni ko'rgan, u kishi bilan suhbatda bo'lgan insonlar.

Tobeinlar esa sahobalarni ko'rib, ulardan eshitganlarini aytuvchi kishilardir.

4 Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. – T.: Hilol nashr 1990. 12-b.

5 Pazilova Meruyert Yermekbayevna. O'quvchi ma'naviyatini hadislar vositasida shakllantirishning pedagogik asoslari: ped.fan. nomz. ... diss.– Toshkent. 2004. 6-b.

Hadis ikki qism: sanad va matndan iborat bo'lgan. Sanad hadisning qachon, qanday sharoitda va kimlar huzurida aytilgani haqidagi asos, matn esa uning mazmuni hisoblanadi.

Hadislarni to'plab, ularning haqiqiyliklarini aniqlash bilan shug'ullangan olimlar muhaddis deyiladi⁶.

Umumta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Adabiyot" darsligida Imom al-Buxoriyning ilm olishdagi mashaqqatli hayot yo'li haqida va "Al jome' as-sahih" to'plamidan hadislar berilgan. "Hadislar haqida" sarlavhasi ostida hadislar haqida quyidagilarni o'qiydiz:

Shu o'rinda hadisga berilgan ta'rifga e'tibor qaratamiz. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning aytganlari, ko'rsatmalari, biror masala (narsa, voqea-hodisa, xatti-harakat) yuzasidan bergan qarorlari hadis sanaladi. Hadislarning ahamiyatini ham chuqur idrok etishimiz lozim.

Darslikda hadislar haqida, ularning hayotimizda tutgan o'рни haqida asosli fikrlar keltirilgan. Fikrni dalillash uchun hadislardan ham foydalanilgan. O'quvchi bilishi kerak bo'lgan yana bir jihat sunnat tushunchasi va uning tarkibidir. Biz quyidagilarni keltirishni lozim topdik:

Hadislar sahih, hasan va zaif deb nomlangan uch turga bo'linadi:

"Sahih hadis – to'g'ri va aql-idrokli kishi to'g'ri va aql-idrokli kishidan rivoyat qilgan, Sanadi boshidan oxirigacha uzilmay muttasil bo'lgan, shoz(z) va muallal bo'lmagan uzilmagan va nuqsonsiz musnad hadisdir".⁷

"Hasan hadis—odil, sidq va omonatda mashhur, ammo qamrovda sahih talabi darajasiga ko'tarilmagan roviy rivoyat qilgan, Sanadi muttasil bo'lib, tobeinlardan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamgacha yetib borgan, illatlardan salomat bo'lgan hadis".⁸

"Zaif hadis—tarkibida "sahih" va "hasan" hadislarining sifati bo'lmagan hadis".⁹

Hadis ikki qismdan iborat bo'ladi: sanad va matn. Roviylar silsilasi sanad,

Muhaddis – hadislarining sanadlarini, illatlarini, roviylarning ahvolini bilgan, imkoni boricha hadis

yodlagan, kutubi sittasini (olti mashhur hadis kitobini), Ahmad ibn Hanbalning "Sunan"ini, Tobaroniyning "Sunan"ini tinglagan (saboq olgan) va bularga hadis juzlaridan ming juzgacha qo'sha olgan kishidir.

Hofiz – hadis bilan shug'ullangan zotlar orasida darajasi eng yuksak bo'lgan kishidir. Payg'ambarimizning sunnatini bir-biridan tozalagan, sahih ekanligi ittifoq qilingan hadislar bilan ijti-hod sababidan "muxtalifun fiyh" bo'lgan hadislarini yod bilgan; jarh va ta'dil istilohlaridan voqif bo'lib, har biri orasidagi farqni ajrata olgan; hadisda mavhum va sahih bo'lgan lafzlarni tanigan, hadis matnlariga darj etilib (kiritilib), ularning bir parchasi holiga kelgan lafzlarni farqlab ajrata oladigan va roviylarning ahvolidan eng yaxshi tarzda voqif bo'lgan hadis olimidir¹⁰.

Har bir fan yoki janrda o'rganilish davri bo'lganidek, hadislarini o'rganish davri ham ikki davrga bo'linadi. Birinchi davr – Payg'ambar alayhissalom davridagi hadis ilmi. Bu davrda sahobalar Payg'ambarimizdan eshitgan hadislarini mushohada qilganlar, yod olganlar va boshqalarga yetkazganlar.

Ikkinchi davri – Sahobalar davridagi hadis ilmi – Rasululloh vafotlaridan keyin boshlangan. Hadislarning sahih, nosahihligi, roviyning Payg'ambarimizni ko'rgan yoki ko'rmaganligi singari xususiyatlar shu davrdan boshlangan.

"Adabiy janrda hadis deyilganda rasulullohning ezgu axloqi hamda olijanob siymosi aks etgan badiiy matn tushuniladi. Hadislarda axloqiy masalalarning ifodalanishi axloqning badiiy adabiyotdan ajralmaganligini ko'rsatadi¹¹". Qadimdan axloq, ta'lim-tarbiya badiiy adabiyotdan ajratilmagan, balki hamohanglikda o'quvchi ongiga singdirilgan.

Hadislarda jamiyatdagi har bir muammo va masalaga yechim mavjud. Ular zamon va makon tanlamaydi, qaysi asrda yashamang, u muammolaringizga o'rinli javob beradi. Insoniyat tarixida hayot yo'li ibratli, mashaqqatli bo'lgan zot Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)dir. U kishining og'izlaridan chiqqan har bir so'z, harakat nasihat, ko'rsatma sifatida qabul qilingan. Shu o'rinda ilk hadislar qachondan kitob holiga keltirilgan, degan o'rinli savol paydo bo'ladi. Birinchi hijriy asr boshida xalifalik qilgan, ko'pchilik tomonidan beshinchi roshid

6 Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. – T.: Hilol nashr 1990. 28-b.

7 Imom al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. (Adab durdonalari). – T.: O'zbekiston 1990. 197-b.

8 Imom al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. (Adab durdonalari). – T.: O'zbekiston 1990. 197-b.

9 Imom al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. (Adab durdonalari). – T.: O'zbekiston 1990. 198-b.

10 Abu Iso Muhammad at-Termiziy. Sunani Termiziy. Hadislar to'plami. VI jildlik. Tarjimon: Mirzo Kenjabek. 1-jild. –T.: Adolat. 1999. 30-b.

11 Bolibekov Alisher Abdusalomovich. Adabiy ta'lim orqali o'quvchilar axloqiy fazilatlarini takomillashtirishda hadislardan foydalanish yo'llari: ped. fan. nomz. ... diss. –Toshkent. 2008. 16-b.

xalifa deb tan olingan Umar ibn Abdulaziz Ibn Shihob az-Zuhriydan va boshqa muhaddislardan omma uchun hadis kitobi yozishni so'radi. Ibn Shihob az-Zuhriy sodda qilib, bir kitob ta'lif qildi. Boshqalar ham unga ergashdilar. Rasmiy ravishda hadis kitoblar yozish shundan boshlandi¹².

Hadislarni sahih va nosahihga ajratish nihoyatda mas'uliyatli ishdir. Bu haqida Imom al-Buxoriy o'zining "Jome'us-Sahih" kitoblarida keltirgan birinchi hadis misolida keltiramiz:

"Bizga al-Humaydiy Abdulloh ibn az-Zubayr ushbu hadisni aytdi. U Sufyondan eshitgan ekan. Sufyon Yahyo ibn Sa'id al-Ansoriydan eshitgan. U "Muhammad ibn Ibrohim at-Taymiy menga xabar berdi" degan. U esa Alqama ibn Vaqqos al-Laysiydan eshitgan. Al-Laysiy aytadiki, u Umar ibn Xattob "Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan quyidagilarni eshitdim", deydi:

"Albatta, amallar niyatga bog'liqdir. Har bir odamga niyat qilgani bo'ladi. Kimki dunyo uchun hijrat qilsa, unga erishadi. Xotin uchun bo'lsa, uni nikohlab oladi. Bas, uning hijrati – nima uchun hijrat qilsa, shuning uchun bo'ladi.

¹² Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. – T.: Hilol nashr 1990. 23-b.

Ushbu hadisning muallifi Payg'ambarimiz bo'lib, olti kishidan o'tib Imom Buxoriyga yetib kelgan. Buxoriy al-Humaydiydan hadisni eshitishi bilan darhol uni yozib qo'ymaydi. Balki hadisni sanad va matnga bo'lgan.

Sanad so'zi arab tilida "suyanchiq" ma'nosini anglatadi. Muhaddislar istilohida esa hadis matniga olib boruvchi suyanchiq yo'lga sanad deyiladi. Musulmonlarning bunday jihati musulmon bo'lmaganlarda kamdan-kam uchraydi.

Hadislarning yaralish tarixi, ular kim tomonidan aytilgani, hadislarni rivoyat qiluvchilar haqida ma'lumot bera turib bir haqli savol paydo bo'ladi. Adabiyot darslarida, darsliklarida hadislarni o'rganishdan, o'rgatishdan maqsad nima? Bundan maqsad bugun biz yashayotgan, kundan-kunga globallashtayotgan dunyodagi har bir muammoga hadislar bilan javob topamiz. Vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazayotgan millionlagan yoshlar vaqt qadrini hadisdan angelaydi. Ilm olishdan maqsadni to'liq anglab yetmagan o'qirman ilm olish islom dinida farz ekanligini hadislar orqali anglab yetadi. Bugun biz yoshlarimizning har tomonlama yetuk, har tomondan esadigan shamollarga yengil uchib ketadigan "barg" kabi bo'lishini xohlamas ekanmiz, hadislarni o'rgatishimiz, o'qitishimiz kerak. Eng avvalo, pedagoglar o'rganishimiz, hadislarni o'qitish metodikasini to'liq anglab yetishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bolibekov Alisher Abdusalomovich. Adabiy ta'lim orqali o'quvchilar axloqiy fazilatlarini takomillashtirishda hadislardan foydalanish yo'llari: ped.fan. nomz. ... diss. – Toshkent. 2008.
2. Imom al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. (Adab durdonalari). – T.: O'zbekiston, 1990.
3. Mahkamov U. I. Yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari.: Ped. Fan. dok. ... diss. – T., 1998. 286-b.
4. Mansurov M, U. Jo'rayev, M. Lafasov. Hadis ilmi saboqlari. – T.: O'qituvchi. 1990. 64-b.
5. Nosirov K. J. IX-X asrlarda O'rta Osiyo mutafakkirlarining axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalari. (al-Buxoriy va al-Farobiy asarlari misolida). Ped. Fan. nom. ... diss. – T., 2000. 135-b.
6. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish. Ped. Fan. Dok. ...diss. – T., 305-b.
7. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari.: Ped. Fan. dok. ...diss. – T., 1993. 364-b.
8. Pazilova Meruyert Yermekbayevna. O'quvchi ma'naviyatini hadislar vositasida shakllantirishning pedagogik asoslari: ped.fan. nomz. ... diss. – Toshkent. 2004.

Iroda RAXMONOVA,
 YTT “Raxmonova Iroda”
 “At-tilmiiz” o’quv markazi rahbari
 irodarakhmonova18@gmail.com

TA'LIM JARAYONIDA MENEJMENT FANINING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim jarayonida menejment fanining predmeti, maqsadi va vazifalari keng yoritilgan. Shuningdek, ta'lim tizimida menejmentning o'rni, samaradorlikka ta'siri va uning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Maqolada nazariy yondashuvlar bilan bir qatorda amaliy jihatlar ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *ta'lim, menejment, maqsad, vazifa, samaradorlik*

Annotation: this article explores the subject, purpose, and key tasks of management in education. It highlights the role of management in the educational system, its impact on efficiency, and the pressing issues in this field. Both theoretical approaches and practical aspects are considered in the analysis.

Key words: *education, management, purpose, task, efficiency*

Аннотация: в данной статье подробно раскрываются предмет, цель и основные задачи менеджмента в образовании. Рассматривается роль менеджмента в системе образования, его влияние на эффективность и актуальные проблемы в этой сфере. В статье анализируются как теоретические, так и практические аспекты.

Ключевые слова: *образование, менеджмент, цель, задача, эффективность*

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida ta'lim tizimini samarali tashkil etish va boshqarish dolzarb masalaga aylangan. Ta'lim jarayonida menejment nafaqat o'quv-tarbiya ishlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, balki ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi. Menejment fanining predmeti, maqsadi va vazifalarini chuqur o'rganish orqali ta'lim jarayonida mavjud muammolarni hal etish, yangicha yondashuvlar ishlab chiqish va samarali boshqaruv mexanizmlarini qo'llash imkoniyati yaratiladi. Shu bois, ta'limda menejment fani bugungi kunda nazariy va amaliy jihatdan o'z ahamiyatini tobora oshirib bormoqda.

Ta'limda menejment – bu ta'lim tizimini samarali tashkil qilish, boshqarish va rivojlantirish qonuniyatlarini o'rganadigan fan. Uning predmeti – ta'lim muassasalarida (maktab, kollej, litsey, oliy o'quv yurtlari va hokazo) boshqaruv jarayonlari, ular tarkibiy qismlarining o'zaro munosabatlari va rivojlanish mexanizmlaridir. Ta'limda menejment haqida so'z borganda, eng avvalo, bu soha o'zida pedagogika hamda menejmentning asosiy tamoyillarini birlashtirib turishini e'tirof etish

zarur. Shuni ham ta'kidlash kerakki, “menejment” tushunchasi pedagogika sohasi tilida nisbatan yaqinda qo'llanila boshladi. Natijada, mazkur ikki sohaga xos turli yondashuvlarning ta'limda menejment doirasida qanday uyg'unlashishi va moslashishini to'g'ri tushunish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Bugungi kunda ta'limda menejment atamasi turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Bu esa, bir tomondan, “ta'lim” va “menejment” tushunchalarining hali yagona ilmiy asosda aniq belgilab olinmaganligi, ikkinchi tomondan, mamlakatimiz ta'lim tizimida menejment fenomenining hali rivojlanish bosqichida ekani bilan bog'liq.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali **ta'limda menejment** mazmunini quyidagi ikki asosiy yondashuv orqali ko'rsatish mumkin: 1) **Ta'limda menejment** – bu ta'lim jarayonini tashkil etish va rivojlantirishga, shu jumladan, ta'lim muassasalari hamda butun ta'lim tizimini samarali boshqarishga qaratilgan faoliyat va qarorlar majmuasini anglatadi; 2) **Ta'limda menejment** – bu tashkilot xodimlarining

salohiyatini oshirish, pedagogik funksiyalarni rivojlantirish, ijobiy korporativ madaniyat yaratish va innovatsion faoliyatga rag'batlantirish orqali tashkilotning umumiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi tizimli faoliyatdir.

Shunday qilib, **ta'limda menejment**ni ikki tomonlama talqin qilish mumkin: bir tomondan – ta'lim tizimi doirasida menejment faoliyati sifatida, ikkinchi tomondan – menejment tizimi doirasida ta'limiy faoliyat sifatida. Bu ko'p qirrali yondashuvning asosiy sababi esa – **ta'limda menejment**ning fanlararo mohiyatga ega ekanligidir. Bu esa o'z navbatida, pedagogik va iqtisodiy komponentlarning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi: pedagogik jihat – ta'lim mazmuni, metodlari hamda bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va uzatish jarayonlariga taalluqli bo'lsa, iqtisodiy jihat – boshqaruv resurslari va jarayonlarining samaradorligini ta'minlashga qaratilgan.

Ta'limda menejment fanining asosiy maqsadi – zamonaviy jamiyat ehtiyojlari va global ta'lim muhitining rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqib, yuqori malakali, professional ta'lim menejerlari va rahbar kadrlarini tayyorlashdan iboratdir. Bu jarayonda bo'lajak ta'lim boshqaruvchilari va rahbarlarida quyidagi bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi:

- **samarali boshqaruv malakalari** – ta'lim muassasalarining barcha faoliyat yo'nalishlarini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va natijalarini baholash ko'nikmalari;
- **strategik fikrlash qobiliyati** – ta'lim sohasining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda moslashuvchan va innovatsion yondashuvlarni qo'llash;
- **zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari** – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli platformalar, boshqaruvning interaktiv vositalaridan samarali foydalanish;
- **innovatsion rivojlanish kompetensiyalari** – ta'lim tizimining ilmiy-texnik va metodik yangilanishini ta'minlash, ilg'or pedagogik texnologiyalar va yangicha yondashuvlarni amaliyotga joriy etish.

Shuningdek, fan doirasida quyidagi ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor beriladi:

1. Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim muassasalarini rivojlantirish: uzluksiz sifat monitoringi va baholash mexanizmlarini joriy qilish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish.

2. Talabalar uchun maqbul sharoitlar yaratish: zamonaviy, qulay va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitini shakllantirish, shaxsiylashtirilgan o'quv yondashuvlarini rivojlantirish.

3. Resurslardan samarali foydalanish: moliyaviy, moddiy-texnik, kadr va boshqa resurslarning oqilona taqsimlanishi va samarali boshqaruvini tashkil etish.

4. Talabalarning ehtiyojlarini qondirish: talabalarning shaxsiy va professional rivojlanishiga ko'maklashish, ularning o'quv jarayoni va xizmatlar sifatidan qoniqish darajasini oshirish.

5. Ta'lim sohasidagi qonun hujjatlariga rioya qilish: milliy va xalqaro normativ-huquqiy me'yorlarga asoslangan boshqaruv amaliyotini shakllantirish, ta'lim muassasalari faoliyatining qonuniyligini ta'minlash.

Ta'limda menejment fanining asosiy vazifalari – zamonaviy ta'lim tizimi ehtiyojlariga mos, yuqori malakali, strategik fikrlovchi va innovatsion rahbar kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. Buning uchun quyidagi yo'nalishlar asosida ish olib boriladi:

Ta'lim tizimining bozor iqtisodiyotiga o'tishi modernizatsiyani jadallashtirmoqda. "Ta'lim xizmatlari" (asosiy mazmun) va "ta'lim sohasidagi xizmatlar" (yordamchi xizmatlar) farqlanadi. Ta'lim xizmatlari bozori – xizmat ko'rsatuvchi va iste'molchilar o'rtasidagi hamkorlik maydoni bo'lib, talabalar uning faol ishtirokchilaridir.

Ilmiy-ma'rifiy salohiyatdan samarali foydalanish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligining muhim omilidir. Ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar multiplikativ ta'sir ko'rsatadi hamda bilimlar almashinuvi va inson kapitalining rivojlanishiga xizmat qiladi. Kuchli innovatsion raqobat ta'lim xizmatlarining uzluksiz rivojlanishini taqozo etadi. Bozor mexanizmining samarali ishlashi uchun quyidagi shartlar muhim: iqtisodiy va huquqiy mustaqillik,

raqobat muhitining shakllanishi, innovatsion mexanizmlarning rivoji va davlat hamda bozor tartibga solishning muvozanati. Shuningdek, ta'lim xizmatlari bozorida boshqaruvning asosiy vazifasi – qaror qabul qilish jarayonini ilmiy tahlillar bilan qo'llab-quvvatlashdir.

Nazariy bilimlar shakllantiriladi – ta'lim boshqaruvining ilmiy asoslari, prinsip va qonuniyatlari o'rgatiladi. Shu bilan birga, zamonaviy boshqaruv texnologiyalari asosida amaliy ko'nikmalar rivojlantiriladi: qaror qabul qilish, ularni hayotga tatbiq etish va tahlil qilish qobiliyatlari mustahkamlanadi.

Talabalar ta'lim tizimidagi muammolarni tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Innovatsion tafakkur rivojlantiriladi, yangi boshqaruv usullari va texnologiyalarini amaliyotga samarali joriy etish malakalari shakllantiriladi.

Pedagogik jarayon pedagogika fanining asosiy va fundamental kategoriyalaridan biridir. Uning samaradorligi boshqaruv asosida – noaniq maqsadga yo'naltirilgan va tartibga solingan holda ta'minlanadi. Zamonaviy tadqiqotchilar (M.M. Potashnik, V.G. Afanasyev va boshqalar) boshqaruv (menejment)ni – “maqsadga erishish san'ati”, “ta'sirlarni tashkil

qilish va amalga oshirish jarayoni” sifatida talqin etadilar. M.M. Potashnikning fikricha, boshqaruv – bu rejalashtirish, tashkil etish, nazorat va boshqarish orqali pedagogik faoliyatni maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil qilish jarayonidir. Bunda o'qituvchi, rahbar boshqaruv subyektlari sifatida jarayonni faollashtiradi va optimallashtiradi. Samarali boshqaruv izchillik, uzviylik va birlikni talab etadi; boshqaruv yondashuvlaridagi farqlar esa jarayonning natijadorligini susaytiradi.

Shuningdek, samarali rahbarlik, strategik boshqaruv, jamoa bilan ishlash va kommunikativ ko'nikmalar rivojlantiriladi. Trening va o'quv dasturlarini ishlab chiqish, ularni zamonaviy bozor talablariga moslashtirish ham muhim yo'nalishlardan biridir.

Ta'lim sifatini baholash va takomillashtirish, raqamli texnologiyalar asosida interaktiv o'quv muhitini yaratish hamda pedagogik xodimlarning motivatsiyasini oshirishga e'tibor qaratiladi.

Uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, barcha ishtirokchilar bilan samarali muloqot o'rnatish va resurslarni oqilona boshqarish orqali ta'lim sifatini oshirish va tashkilotning taraqqiyotiga erishish maqsad qilinadi. Shu bilan birga, innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi va hamkorlikka asoslangan ijobiy tashkiliy madaniyat shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Афанасьев В.Я. Теория менеджмента: учебник и практикум для акад.бакалавриата. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт, 2016. 665-с.
2. Габышева Наталья Владимировна Образовательный менеджмент: понятие и сущность. // Материалы Всероссийской научно-практической конференции “Наука и социум”, no. 7-1, 2018, 29-31 с.
3. Гончаров М. А. Основы менеджмента в образовании: учебное пособие /М.А. Гончаров. – 3-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2016. – 476 с.
4. Максимцова М.М., Комарова М.А. Менеджмент: Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, Единство, 2002. – 359 с.
5. Райченко А.В. Общий менеджмент: Учебник. – М.: ИНФРА, 2012. 383 с.
- Сетков В.И. Основы общего менеджмента (краткий курс) / В.И. Сетков. – М.: ИНФРА-М, 2003. – 169 с.
6. Поршнева А.Г., Румянцевой З.П., Саломатина Н.А. Управление организацией: Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2005. – 716 с.

Muhabbat RO'ZIYEVA,
 O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti tyutori
 Muhabbatbekzod5@gmail.com

ONA TILI DARSLARINI O'QITISH JARAYONI VA EKOLOGIK TA'LIMNING INTEGRATSIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada ekologik tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari, insonni tabiat, unda sodir bo'layotgan voqeliklarga jalb etish, inson va tabiat o'rtasidagi muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, ona tili darslarini samarali o'qitish va o'qitish jarayonida ekologik ta'limning integratsiyasi, o'quvchilarga ona tili darslari orqali bugungi kunda dolzab bo'lgan ekologik ta'limni singdirish haqida so'z boradi. Taqdim etilayotgan mazkur ishda ekologiyaning ta'lim bilan integratsiyasi xususida ayrim fikrlarga murojaat etilgan.

Kalit so'zlar: *ekologiya, ta'lim, darslik, integratsiya, muammo, metod, ekologik madaniyat.*

Аннотация: в данной статье основные цели и задачи экологического образования, приобщение человека к природе, реалии, которые в ней происходят, выявление причин возникновения проблем между человеком и природой, эффективное преподавание и интеграция экологического образования в учебный процесс, чтобы научить студентов усваивать современное образование, которое распространено сегодня, через уроки родного языка. В данной работе используются некоторые методы интеграции экологии с образованием.

Ключевые слова: *экология, образование, учебник, интеграция, проблема, метод, экологическая культура*

Annotation: in this article, the main goals and objectives of environmental education, the involvement of man in nature, the realities that occur in it, to identify the causes of problems between man and nature, the effective teaching and integration of environmental education in the teaching process, to teach students how to absorb the environmental education that is prevalent today through mother tongue lessons. In this paper, some methods are used to integrate ecology with education.

Key words: *ecology, education, textbook, integration, problem, method, ecological culture.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim jarayoniga, shuningdek, o'quvchilarning ta'lim olishi va ularga ta'lim beruvchi ustozlarni rag'batlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu esa o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ma'naviy-axloqiy yo'nalishlarni ham keng rivojlantirishni talab etmoqda. Chunki, bu demokratik jamiyat qurishning muhim omillaridan biridir. Ayniqsa, maktab ta'limini yuqori darajaga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, kelajagimizning taraqqiyoti ta'limning poydevori bo'lgan maktabda ilm olayotgan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan mustahkam tarbiyalanishi, barkamol avlod bo'lib yetishishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Respublikamizda yetuk malakali mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim tizimi barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqara oladigan ijodkor shaxsni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'limda olib borilayotgan ishlarning bosh mezonini hisoblanadi. Bu mezon asosida takomillashtirilgan, zamon talablariga javob bera oladigan dasturlar, o'quv darsliklari yaratilmoqda. Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi.

Maktab yoshidagi o'quvchilarni komil inson darajasiga ko'tarishga intilish, ma'naviyat sarchashmalaridan bahramand qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga sodiq qilib tarbiyalash davr talabidir. Buning uchun o'qituvchining o'zi ham yetuk pedagogik mahoratga ega bo'lishi, yuksak insoniy fazilatlarini o'zida mujassam etmogi lozim. Jahonda tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo'luvchi integratsiyalangan fanlar ko'pgina mamlakatlarning o'quv dasturlariga kiritilgan. Bu, ayniqsa, tabiiy fanlar yo'nalishiga ega bo'lgan integratsiyalangan fanlar jahon hamjamiyatida o'quvchilarda atrof-muhitga javobgarlikni shakllantirishning asosiy vositasi ekanligi to'g'risida xabar beradi. Shu bois mamlakatimiz umumta'lim maktabi o'quv rejaları va dasturlariga tabiat-jamiyat o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatlarni fanlararo aloqadorlikda o'rnatish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Maktabdagi har bir fan bu – integratsiyalangan kurs, mazmun jihatdan ular tabiiy fanlar bilan uzviy bog'liq, bu maktab o'quvchilari uchun tushunarli bo'lgan atrof-muhit haqidagi bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlaydi. Bu yoshdagi bolalarda tabiatni o'rganishga bo'lgan faqat emotsional joziba emas, bilim olish motivlariga ham bog'liq. O'quvchilarning bu xususiyatini hisobga olib, qiziqishlarini quvvatlash uchun bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini yangi mazmun bilan to'ldirib turishni talab etadi. Bu o'quvchilarga hayotdagi

o'zaro aloqalarni oshib borishga hamda tabiatdagi turli-tumanliksiz inson yashay olmasligini tushunib yetishga yordam beradi. Tadqiqot ko'lamining tor doiraga ko'chishi evaziga bu fanlarning har birida ixtisoslashuv muqarrar ro'y beradi. Fanlar taraqqiyotidagi ikki obyektiv xususiyat – differentsiatsiya (tarmoqlanish) va integratsiya (qo'shilish, birlashish), pirovard natijada, olamning yaxlit, umumiy ilmiy manzarasi yaralishida beqiyos o'rin tutadi. Bunday sharoitda inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sayin dolzarb bo'lib qolmoqda. Fanlar integratsiyasi o'zining tarkibiy qismiga bir yoki ikki tomonlama bir fan tushunchasini, qonuniyatini, faktini, formulasini ikkinchi fan tushunchalari, qonuniyati va formulalariga olib o'tishni ta'minlash yuklatilgan bo'lib, u o'zining prinsipial qoida va qonunlariga asosan o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, chuqurlashtirish hamda tatbiqiy jihatini kuchaytirishni maqsad qilib qo'yadi. Shu bois fanlararo o'qitish jarayonida ikki xil hodisa ro'y beradi. Bir tomondan, tilning o'z ichki qonun va qoidalari orasidagi integratsiya bo'lsa; ikkinchi tomondan, tilni boshqa fan asoslari, masalan: biologiya, fizika fanlari bilan uzviy aloqada o'qitib, o'quvchilarning amaliy ko'nikma va malakalarini yuqori saviyaga ko'tarishdan iborat. Fanlar integratsiyasi o'zining faol tarkibiy qismini yaratishi bevosita shu qaralayotgan fanlar orasida shunday bir tuzilish integrallashgan qismini yaratadiki, u nafaqat fan asoslarining ichki va tashqi tuzilishini yuzaga keltirishi bilan birgalikda, u moddiy dunyoni tushunish va bilishni ma'lum darajada ta'minlash, undan unumli foydalanish uslublarini vujudga keltiradi. Shuning uchun ham fanlar integratsiyasi tushunchasi o'zining takomil tarkibiga ko'ra chuqur tarixiy rivojlanish davriga ega. Bu jarayonda ko'plab olimlar o'zlarining fikr-mulohazalari bilan u yoki bu tomondan yondashishga harakat qilishlari, birinchidan, shu fan rivojiga munosib hissa qo'shgan bo'lsalar, ikkinchidan, o'rganilmagan boshqa jihatlarining tadqiq qilinishi mazkur fanning rivojiga munosib hissa qo'shganligini ko'rish mumkin. Fanlar integratsiyasi funksiyasi yetakchi bo'lib, u o'zi bilan boshqa fan asoslarini didaktika prinsiplariga amal qilgan holda, o'rganish va o'rgatishni har tomonlama ta'minlaydi, unumli natijalar olishga imkon yaratadi. Bu fikrni o'zining ko'p yillik ilmiy izlanishlari, kuzatishlariga tayanib, V. M. Monoxov ham fanlar integratsiyasi o'quvchilarning tabiatni

bilishi, tushunishi va undan unumli foydalanishi uchun zarurligi, bu o'quvchilarda ko'nikma va malakaning shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr bildiradi. O'quv jarayonida integratsiyalashgan ta'limdan foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Integratsiyalangan darslarning tuzilishini o'rganishning barcha bosqichlarida o'rganilayotgan materiallarning aniqligini va izchilligini, puxta o'rganilganligini va o'zaro mantiqiy aloqalarini talab qiladi. Bunga dasturdagi o'quv materialining ixcham ekanligi, bundan tashqari o'quv materialini o'rganishni tashkil etishning ba'zi zamonaviy usullarini kiritish orqali erishish mumkin. O'qitish jarayonida tabiiy fanlararo bog'lanishni amalga oshirish moddiy va ma'naviy olamni tadqiq qiluvchi turli fanlarning o'zaro hamkorligi ular rivojining tabiiy jarayoni va o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi va tafakkurini rivojlantiruvchi omil sifatida nazarda tutish zarur. Bilimlar integratsiyasi ta'limga o'zgacha yondashishni taqozo qiladi.

Chunonchi, o'quv materialini umumlashgan tizimda bayon qilish, ta'lim-tarbiya jarayonida muammoli, modulli, shaxsga yo'nalgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Umumta'lim maktablaridagi ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: dars, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ta'lim-tarbiyaviy ishlar majmuasida fanlararo aloqadorlik elementlari tarkib topadi; biologik mazmundagi ishlar fanlararo dars va darsdan tashqari vaqtda umumiy vazifalarga muvofiq tashkil etiladi; biologik bilimlarni fanlararo shakllantirishga doir ishlarni amalga oshirishda maktabning fermer xo'jaliklar va boshqa tashkilotlar, muassasalar bilan hamkorligi samarali natija beradi. Shuningdek, fanlararo o'qitishda amaliy ijodkorlikka katta e'tibor berish kerak. Amaliy ijodkorlikni tarkib toptirishda, ya'ni, avvalo o'zlashtirilgan bilimlarning yangi vaziyatlarda qo'llanilishi asosida amaliy o'quv muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal etish nazarda tutildi va amaliy jihatdan har tomonlama rivojlanishini takomillashtirish biologiyadan tabiiy fanlararo bilim berish jarayonida interfaol metodlardan majmua holida qo'llash maqsadga muvofiq.

Xulosa. mavjud manbalar o'quvchilarining ekologik bilim, tushunchalarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarga ekologik tarbiya berish, ularning ekologik tushuncha va bilimlarini boyitishning pedagogik texnologiyalarini aniqlash bugungi kunda o'ta dolzarb muammolardan biri ekanligi ayon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboev S, Azimov I. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi fanidan o'quv qo'llanmasi. – Toshkent, 2012.
2. Vohidov E. So'z latofati. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
3. Rahmatullayev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
4. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. Ilmiy-uslubiy nashr. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2009.

Nargiza XO'JANIYOZOVA,
Xorazm viloyati Bog'ot tumani 19-son maktab o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA GAMIFIKATSIYA VA STORYTELLING INTEGRATSIYASINING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida gamifikatsiya va storytelling metodlarining integratsiyasi lingvodidaktik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida kuzatish va sifat tahlili asosida ushbu metodlarning motivatsiyani oshirish, til ko'nikmalarini shakllantirish, ijodiy fikrlash va hamkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, gamifikatsiya tashqi rag'batni ta'minlasa, storytelling mazmuniy va emotsional boylik yaratadi, ularning uyg'unligi esa kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga samarali xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *gamifikatsiya, storytelling, lingvodidaktika, boshlang'ich ta'lim, kommunikativ kompetensiya.*

Аннотация: в статье рассматривается интеграция методов геймификации и сторителлинга в процессе формирования коммуникативной компетенции учащихся начальных классов с лингводидактической точки зрения. В ходе исследования на основе наблюдений и качественного анализа выявлено значение данных методов в повышении мотивации, формировании языковых навыков, развитии творческого мышления и сотрудничества. Результаты показывают, что геймификация обеспечивает внешнюю мотивацию, а сторителлинг создаёт содержательное и эмоциональное наполнение; их синергия способствует эффективному развитию коммуникативной компетенции.

Ключевые слова: *геймификация, сторителлинг, лингводидактика, начальное образование, коммуникативная компетенция.*

Annotation: this article analyzes the integration of gamification and storytelling methods in the development of communicative competence among primary school students from a linguo-didactic perspective. Based on observation and qualitative analysis, the study highlights the importance of these methods in enhancing motivation, shaping language skills, fostering creativity, and promoting collaboration. The findings indicate that gamification provides external motivation, while storytelling creates meaningful and emotional content; their synergy effectively contributes to the development of communicative competence.

Key words: *gamification, storytelling, linguodidactics, primary education, communicative competence.*

Kirish. So'nggi o'n yilliklarda ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, erkin muloqot qilishga va ijodiy yondashishga o'rgatish muhim maqsad sifatida belgilangan. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nafaqat o'qish va yozishga, balki kundalik hayotda samarali muloqot qilishga ham tayyorlanadi. Shuning uchun kommunikativ kompetensiyani shakllantirish boshlang'ich ta'lim metodikasining markaziy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kommunikativ kompetensiya – bu o'quvchining tilni to'g'ri va samarali ishlata olish, ijtimoiy vaziyatlarga mos muloqot qila olish, o'z fikrini tushunarli tarzda ifodalash qobiliyatidir. U uch asosiy komponentni qamrab oladi: lingvistik (so'z va grammatik bilimlar), sotsiolingvistik (ijtimoiy kontekstga mos nutq) va pragmatik (kommunikativ vazifani bajarishga qaratilgan til ishlatish). Boshlang'ich bosqichdayoq ushbu ko'nikmalarni shakllantirish o'quvchilarning kelgusi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Hozirgi kunda pedagogik tadqiqotlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ularni faol o'quv jarayoniga jalbetish uchun yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. An'anaviy metodlar ko'pincha passiv eshitish va takrorlashga asoslangan bo'lsa, innovatsion metodlar – jumladan, gamifikatsiya va storytelling – bolalarni faol subyekt sifatida jarayonga jalb etadi.

- Gamifikatsiya ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini kiritish orqali o'quvchining qiziqishini oshiradi, raqobat va hamkorlik muhitini yaratadi, bosqichma-bosqich rivojlanishni ta'minlaydi. U reytinglar, belgilar, vazifalarni bajarish uchun mukofotlar kabi mexanizmlar bilan ishlaydi.

- Storytelling esa o'quv jarayonini hikoya va syujetlar asosida tashkil etib, o'quvchilarni mavzuga hissiy va mazmuniy jihatdan bog'laydi. Hikoya orqali o'quvchi mavzuni chuqurroq anglaydi, dialog va monologlarda faol ishtirok etadi.

Gamifikatsiya va storytellingning integratsiyasi o'quv jarayonida nafaqat o'yin va qiziqarli muhit yaratadi, balki til o'rganishning lingvodidaktik asoslarini mustahkamlaydi. Bunday yondashuv o'quvchilarni kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi, real hayotiy nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bois, ushbu maqolada gamifikatsiya va storytelling metodlarining lingvodidaktik asoslari va ularning boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi roli ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Shunday qilib, ushbu maqolada gamifikatsiya va storytelling metodlarining integratsiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi lingvodidaktik asoslari ilmiy tahlil qilinadi va ularning samaradorligi amaliy kuzatishlar asosida ko'rsatib beriladi.

Metodlar.

Tadqiqot sifatida lingvodidaktik tahlil va pedagogik kuzatish usullari qo'llanildi. Maqsadli auditoriya sifatida 2–4-sinflarda o'qiyotgan o'quvchilar tanlandi. Eksperimental mashg'ulotlarda:

- Gamifikatsiya elementlari: reyting tizimi, virtual belgilar, topshiriqlarni bosqichma-bosqich o'tish mexanizmlari.
- Storytelling elementlari: mavzuga mos ertak va hikoyalar, o'quvchi ishtirokida tugallanadigan syujetlar, multimedia asosidagi hikoya kartalari. Til o'rgatishda multimodal resurslardan (rasm, video, audio) foydalanildi. Ma'lumotlar sifat tahlili va kuzatuv natijalari asosida umumlashtirildi.

Natijalar.

Gamifikatsiya va storytelling birgalikda qo'llanganda quyidagi natijalarga erishildi:

1. Motivatsiya oshishi – o'quvchilar o'yin orqali topshiriqlarda faol ishtirok etishdi.
2. Til kompetensiyasining rivojlanishi – hikoya asosida dialog va monolog mashqlari samarali bo'ldi.
3. Ijodkorlik va muloqot – o'quvchilar syujet davomida o'z fikrini ifodalashga harakat qildi, yangi so'z va iboralarni faol ishlata boshladi.
4. Hamkorlik – kichik guruhlarda o'yin va hikoya orqali hamkorlik ko'nikmalari shakllandi.

Kuzatishlarga ko'ra, ayniqsa, rolli o'yin shaklida integratsiya qilingan darslarda o'quvchilarning kommunikativ faolligi sezilarli darajada oshdi.

Muhokama.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, gamifikatsiya o'quvchini rag'batlantiruvchi tashqi omillarni ta'minlasa, storytelling mazmuniy boylik va emotsional muhit yaratadi. Ularning integratsiyasi lingvodidaktik nuqtayi nazardan o'quvchining tilni o'zlashtirish jarayonini tabiiy va qiziqarli qiladi. Shuningdek, bu yondashuv o'quvchilarning shaxsiy tajribasini hisobga olib, kommunikativ kompetensiyaning barcha komponentlarini – lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik ko'nikmalarni uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda gamifikatsiya va storytelling metodlarining integratsiyasi yuqori samaradorlikka ega. Gamifikatsiya elementlari o'quvchilarda raqobat, motivatsiya va qiziqishni kuchaytirsa, storytelling mazmuniy boylik, hissiy tajriba va ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu ikki metod uyg'unlashganda o'quvchilarning til o'rganish jarayoni nafaqat samaraliroq, balki qiziqarli va hayotiy ehtiyojlarga yaqin bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanganidek:

- kommunikativ kompetensiya faqat lingvistik bilimlar emas, balki muloqotning sotsiolingvistik va pragmatik jihatlarini ham o'z ichiga oladi;
- gamifikatsiya tashqi rag'batlantirish mexanizmini ta'minlaydi, o'quvchini faol ishtirok etishga undaydi;
- storytelling esa o'quvchining nutqiy faolligini oshiradi, yangi so'z va iboralarni amaliy muloqot orqali o'zlashtirish imkonini beradi;
- integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarda hamkorlik, ijodkorlik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shunday qilib, gamifikatsiya va storytelling integratsiyasi lingvodidaktik asoslangan metod bo'lib, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning nafaqat til kompetensiyasini, balki ularning ijtimoiy muloqot madaniyatini ham shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ushbu metodlarni boshqa fanlar kesimida ham qo'llash, tajribalarni taqqoslash va kengroq eksperimental tadqiqotlar olib borish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gee J.P. What video games have to teach us about learning and literacy. – New York: Palgrave Macmillan, 2007. 256 p.
2. Bruner J. Acts of meaning. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1990. 181 p.
3. Николаева С.Ю. Лингводидактика и методология преподавания иностранного языка. – Киев: Ленвित, 2016. 320 с.
4. Шодмонов А., Каримов Б. Бошланғич таълимда коммуникатив ёндашув. – Тошкент: Ўқитувчи, 2020. 210-б.

Dilyora ISABOYEVA,
Qo'qon davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

TA'LIM JARAYONIDA INTEGRATIV METODLARNI QO'LLASH ORQALI O'QUVCHILARNING O'ZARO MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: maqolada ta'limdagi integrativ metodlar bu o'quv jarayonida bir nechta fanlarning mazmunini bog'liqligidan samarali foydalanish, ularni o'zaro uyg'un holda o'rgatishni nazarda tutadigan yondashuvdir. Integrativ metodlar yordamida o'quvchida ma'lumotlarni turli nuqtai nazardan tahlil qilish, yangicha bog'lanishlar o'rnatish, hayotiy bilimlarni amalda qo'llash qobiliyati shakllanadi. Bunday yondashuv bolalarning muloqotga kirishish, guruhda faol ishtirok etish va turli mavzularda erkin fikr yuritish ko'nikmalarini faollashtiradi.

Kalit so'zlar: *metod, metodika, integratsiya, integratsiyali dars, innovatsiya, kommunikativ ko'nikma, metodologiya, bilim, ko'nikma, malaka.*

Аннотация: в статье рассматриваются интегративные методы в образовании как подход, предполагающий эффективное использование содержательной связи нескольких предметов в процессе обучения, их гармоничное преподавание. С помощью интегративных методов у учащихся формируется способность анализировать информацию с разных точек зрения, устанавливать новые связи и применять жизненные знания на практике. Такой подход активизирует у детей навыки общения, активного участия в групповой работе и свободного мышления на различные темы.

Ключевые слова: *метод, методика, интеграция, интегрированный урок, инновации, коммуникативные навыки, методика, знания, умения, компетенции.*

Annotation: the article describes integrative methods in education as an approach that involves the effective use of the content connection of several subjects in the learning process, their harmonious teaching. With the help of integrative methods, the student develops the ability to analyze information from different perspectives, establish new connections, and apply life knowledge in practice. This approach activates children's skills of communication, active participation in a group, and free thinking on various topics.

Key words: *method, methodology, integration, integrated lesson, innovation, communicative skills, methodology, knowledge, skills, competence.*

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda shakllanadigan eng muhim umumta'limiy kompetensiyalardan biri bu o'zaro muloqot ko'nikmalaridir. Ushbu ko'nikma bolalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi, o'z fikrini ifoda etishi, tengdoshlari bilan samarali hamkorlik qilishi, o'qituvchi bilan ochiq aloqada bo'lishi va ijtimoiy muhitga moslashishi uchun asosiy shart hisoblanadi. Muloqot ko'nikmasi faqatgina so'zlashuv orqali aloqa qilish bilan cheklanmaydi. U o'quvchining eshitish, tushunish, empatiya qilish, kuzatish, faktlarga munosabat bildirish, suhbatdoshning nuqtai nazarini inobatga olish,

muammoni birgalikda hal qilish kabi kompleks ijtimoiy-ma'naviy mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham o'zaro muloqot ko'nikmalari nafaqat nutqiy faollikni, balki axloqiy, emotsional va madaniy taraqqiyotni ham qamrab oladi.

Psixologik nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda muloqot ehtiyoji kuchli bo'ladi. Ular tabiiy ravishda savol beradi, tushuncha izlaydi, o'ziga qiziqarli mavzular haqida fikr bildirishga intilgan bo'ladi. Ta'limda bu ehtiyojni to'g'ri yo'naltirish, uni metodik ravishda qo'llab-quvvatlash orqali salohiyatli shaxs rivojiga zamin yaratiladi. Shu sababli, o'qitish jarayonida

o'zaro muloqotni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar, guruhda ishlash, rolli o'yinlar, kvest va keyslar, matnli muhokamalar, fikr almashishga qaratilgan tafakkur mashqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu nafaqat lisoniy ko'nikmalarni, balki ijtimoiy fazilatlarini: tinglay olish, fikrni baholash, madaniy muloqot qilish, konstruktiv munosabatda bo'lish kabi xislatlarni ham shakllantiradi.

Fanlararo integratsiya o'quvchining dunyoga yaxlit nigoh bilan qarashini shakllantiradi. Bu jarayonda turli fanlar doirasida olinayotgan bilimlar o'zaro bog'liq holda tahlil etiladi va bu orqali yosh bola ma'lumotlarni tanlash, qiyoslash, mulohaza qilish, savol berish, birga fikr yuritishga o'rganadi. Muloqot faqat nutqiy ifoda emas, balki ijtimoiy hamkorlikning bir ko'rinishi ekanini hisobga olsak, bu ko'nikmalarni shakllantirishda integrativ fanlar muhim platforma vazifasini bajaradi. Boshqa fan orqali ma'lumotni o'zlashtirish, boshqa muhitda o'rganilgan mavzularni yangi sharoitda qo'llash, bolani muloqotga majbur etadi: u guruhda fikr bildirishi, tengdoshlari bilan tafovutli fikrlarni taqqoslashi, umumiy xulosaga kelish uchun so'zlashishi zarur bo'ladi. Bunda o'quvchida tinglash, savol berish, izohlash, tushuntirish, fikrni himoya qilish kabi muloqotning turli shakllari yuzaga keladi. Tadqiqotchi D.X.Klements ta'limda fanlar o'rtasidagi bog'lanishning inson ongiga ta'siri haqida shunday deydi: "Fanlararo o'qitish o'quvchini bog'lanishlar o'rnatish, ma'nolarni tadqiq etish va tilni maqsadli muloqotda qo'llashga undaydi — bu jarayon ham kognitiv, ham kommunikativ rivojlanishni faollashtiradi."¹ Bu fikr shuni ko'rsatadiki, fanlararo integratsiya bilimlarni chuqur anglashga xizmat qilish bilan birga, muloqot orqali ta'limiy jarayonni shaxslararo munosabatlar maydoniga aylantiradi, bu esa insonning ijtimoiy kamoloti uchun zarur sharoit yaratadi. Shu sababli, boshlang'ich sinflarda integrativ o'qitish nafaqat kognitiv, balki muloqot va ijtimoiy ehtiyojlarni ham qondiruvchi qudratli pedagogik mexanizm sifatida qaralishi lozim.

Fanlararo bog'lanish ta'lim tizimida bilimlarning alohida emas, balki yaxlit shaklda o'zlashtirilishini ta'minlovchi muhim pedagogik prinsiplardan biri sifatida qaraladi. Uning ilmiy-metodik asoslari ta'lim psixologiyasi va umumiy

pedagogika sohasidagi qator nazariyalar bilan bog'liq. Avvalo, bola ongining rivojlanish xususiyatlarini o'rgangan pedagog va psixologlar inson tafakkuri ma'lumotlarni alohida fanlarga bo'lib qabul qilmasligi, balki hayotiy bog'lanishlar asosida tahlil qilishini ta'kidlaydi. Masalan, shveysariyalik psixolog Jan Piaje inson ongidagi bilimlar tizimli shakllanishini "kognitiv strukturalar" tushunchasi orqali izohlab, bilimlar o'zaro bog'liq holda o'zlashtirilsa, yaxshi mustahkamlanishini isbotlagan.² Shu nuqtai nazardan, bola tabiat, jamiyat va insonga oid tushunchalarni mos ravishda biologiya, tarix va adabiyot orqali o'rganganda, har bir fanning mazmuni boshqasi bilan to'ldiriladi, faol anglash va mulohazaga asoslangan kognitiv faollik yuzaga keladi.

Fanlararo integratsiyaning pedagogikadagi o'rni, ayniqsa, V.V.Davidov va D.B.Elkonin maktablarida ta'kidlangan "faol tahliliy o'qitish" modelida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu yondashuvda o'quvchi faqat faktlarni yodlamaydi, balki ularni tahlil qiladi, bir fan doirasida olingan bilimni boshqa fan yoki voqelik bilan taqqoslab, yangi ma'no yaratadi. Bunday faol o'qitish jarayonida o'quvchilar o'rtasida muloqot, hamkorlik va ma'no anglash jarayoni markazga chiqadi.³

Shuningdek, zamonaviy ta'lim psixologiyasidagi Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi ham fanlararo o'zaro bog'lanishni qo'llab-quvvatlaydi. Unga ko'ra, o'quvchi faqat o'zi bilishi mumkin bo'lgan darajada emas, balki tengdoshi yoki kattalar yordamida o'rganishi mumkin bo'lgan doirada ham rivojlanishi mumkin. Fanlararo integratsiya aynan shunday o'zaro o'rgatish, muloqot qilish va anglashni talab etadigan muhitni yaratadi.⁴

Pedagogik jihatdan olib qaralganda, fanlararo integratsiya ta'lim mazmunini hayotga yaqinlashtirish, o'quv faoliyatini ma'noli va qiziqarli qilish, bolada ta'limga ichki ehtiyojni uyg'otish kabi vazifalarni amalga oshirishda katta imkoniyat yaratadi. Bunday yondashuv nafaqat fanlar mazmunini bog'laydi, balki o'quvchining

² Piaget J. The Origins of Intelligence in Children. – New York: International Universities Press, 1952. 419- p.

³ Давыдов В. В., Эльконин Д. Б. Развивающее обучение и психологические основы содержания образования. – Москва: Знание, 1995. 256 - с.

⁴ Выготский Л. С. Избранные психологические исследования. – Москва: Педагогика, 1983. 320- с.

¹ Clements D.H. Digital Technologies in the Early Primary School Classroom // arXiv:1602.03361. 2016.

shaxs sifatida shakllanishiga, uning nutqiy, ijtimoiy va kommunikativ qobiliyatlarini mukammal rivojlantirishga xizmat qiladi. Integrativ o'qitish metodlari o'z mohiyatiga ko'ra, kommunikativ o'qitish texnologiyalari bilan uzviy bog'liqdir. Bu bog'lanish, avvalo, fanlararo integratsiyaning asosiy maqsadlaridan biri – o'quvchilarda fikrlash, anglash va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish ekani bilan izohlanadi. Kommunikativ texnologiyalar esa aynan shu ko'nikmalarni shakllantirish, bolalarni muloqotga undash, erkin fikr almashish, hamkorlikda yechim topish va ijtimoiy munosabat o'rnatishga yo'naltirilgan.

Kommunikativ texnologiyalarning asosiy xususiyati o'quvchini ta'lim jarayonining markaziga qo'yish va uning shaxsiy tajribasi, individual bilish tarzi, nutqiy faolligini faollashtirishdir. Shu jihatdan qaralganda, integratsiyalashgan darslarda qo'llaniladigan metodlar (rolli o'yinlar, bahs-munozaralar, ijodiy vazifalar, kvestlar, keyslar) to'g'ridan to'g'ri kommunikativ faollikni rag'batlantiradi. Bu bog'liqlik shuni ham anglatadiki, fanlarni birgalikda o'rgatish jarayonida o'quvchilar turlicha fikr bildirish, savol berish, himoyalash, shuningdek, boshqalar fikrini tinglash, fikrlash tarzini baholash va munosabat bildirish kabi kommunikativ funksiyalarni amalda bajara boshlaydi. Bu jarayonning har bir bosqichida nutq faoliyati markazda bo'ladi — bola o'qish, tinglash, guruhda ishlash, muhokama qilish, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi faoliyatlar orqali bilimni anglaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mulohazali o'qish, ma'no anglash, axloqiy munosabat va tabiatga e'tiborni shakllantirishda o'qish savodxonligi fanining mazmuniy imkoniyatlari keng hisoblanadi. Xususan, mazkur fan darsliklaridagi bir qator matnlar tabiiy fanlar va tarbiya fanlari bilan integratsiya qilishga qulay bo'lgan mavzularni qamrab olgan. Bu orqali o'quvchilarda nafaqat matnni anglash, balki o'qilgan ma'noga munosabat bildirish, axloqiy xulosa chiqarish va muloqotga kirishish qobiliyati ham rivojlanadi.

Tabiat mavzusini aks ettiruvchi matnlar orasida "Tabiat darsi" kabi she'riy parchalar bor bo'lib, unda bolalarning tabiatga bog'liq hissiy taassurotlari, atrof-muhitni qadrlashga oid fikrlari yoritilgan.⁵ Shuningdek, "Bir hovli qush" (61-70-betlar. 2-qism) nomli matnda tabiatning go'zal jihatlari, uning inson hayotidagi ahamiyati haqida gap boradi. Tabiat hodisalariga bag'ishlangan "Modda nima?", "Atmosfera", "Havoning xossalari", "Suv va uning xossalari" kabi matnlar esa tabiiy fanlardagi bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilib, integratsiya imkonini oshiradi.⁶

5 Toirova M.E. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I qism. / M.E.Toirova. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. 44-b. (Бундан кейинги иктибослар ҳам шу манбадан олинади ва унинг саҳифасини қавс ичида келтириш билан чекланамиз)

6 Malikova Y.V. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, II qism / S.V. Kosyankenko, Y.V. Malikova, O.E.Tigay, – Toshkent: "Novda Edutainment". 2023. 6-22-b. (Бундан кейинги иктибослар ҳам шу манбадан олинади ва унинг саҳифасини қавс ичида келтириш билан чекланамиз)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdelghani R., Oudeyer P. Y., Law E. *Conversational agents for fostering curiosity-driven learning in children* // arXiv:2204.03546. 2022.
2. Chomsky N. *Aspects of the Theory of Syntax*. – Cambridge: MIT Press, 2005. P. 4.
3. Duschanova N.S. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar: qiyosiy tahlil. *Academic Research in Educational Sciences*. Volume 3, Issue 3, March, 2022.
4. Haiman G. *Group communication in school environments*. – New York: Palgrave Macmillan, 2015. P. 67.
5. Indiaminov N., Babajanov B. Ta'lim samaradorligini oshirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim // *Zamonaviy ta'lim*. 2014. №8. 18-22-betlar.
6. Matkarimov M.A. "PISA" xalqaro o'quvchilarining savodxonligini baholash tadqiqotining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari/ "Zamonaviy ta'lim" jurnali, №8(93) 2020-yil.
7. Najmitdinova T.N. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: dis. kand. ped. nauk. – Toshkent, 2006. 159-b.
8. Nishonova Z. Mustakil fikr rivojlanganligining psixologik mezonlari // *Xalq ta'limi*. – Toshkent, 2001. №1. 38 – 40-b.

Muxtaram YAKUBOVA,
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH JARAYONINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI: GERMANIYA TAJRIBASI TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada ta'lim sifatini boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari Germaniya ta'lim tizimi misolida tahlil qilingan. Germaniyada ta'lim davlat va jamiyat hayotining asosiy omili sifatida qaralib, u o'zining ko'p bosqichli boshqaruv tizimi, shaffof baholash mexanizmlari va sifatni nazorat qilishda xalqaro standartlarga asoslanishi bilan ajralib turadi. Maqolada nemis maktab va oliy ta'lim tizimining o'ziga xosligi, boshqaruv darajalari, sifatni ta'minlash vositalari va ularning O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, Germaniya tajribasi, boshqaruv, baholash tizimi, ilmiy-nazariy tahlil.

Аннотация: в статье анализируются научно-теоретические основы управления качеством образования на примере системы образования Германии. Образование в Германии рассматривается как ключевой фактор развития общества и экономики, характеризуется многоуровневой системой управления, прозрачными механизмами оценки и опорой на международные стандарты качества. В работе освещены особенности немецкой школьной и высшей школы, уровни управления, инструменты обеспечения качества и возможности их интеграции в образовательную систему Узбекистана.

Ключевые слова: качество образования, опыт Германии, управление, система оценки, научно-теоретический анализ.

Annotation: this article analyzes the scientific and theoretical foundations of education quality management, focusing on the German education system as a case study. In Germany, education is regarded as a key factor of social and economic development, characterized by a multi-level governance structure, transparent assessment mechanisms, and adherence to international quality standards. The article highlights the peculiarities of German schools and higher education, levels of governance, quality assurance tools, and their possible integration into Uzbekistan's education system.

Key words: quality of education, German experience, governance, assessment system, scientific-theoretical analysis.

Kirish. Ta'lim sifatini boshqarish masalasi bugungi kunda global miqyosda dolzarb hisoblanadi. Zero, inson kapitalini shakllantirish, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish, jamiyatning barqaror taraqqiyoti ta'lim tizimining samaradorligiga bevosita bog'liq. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatini nazorat qilishda Germaniya modeli alohida ahamiyatga ega. Bu model o'zining federal boshqaruv tuzilishi, tizimlili va ta'limning barcha bosqichlarida sifatni izchil nazorat qilish mexanizmlari bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.

Germaniya ta'lim tizimi uch bosqichli tuzilmaga ega: boshlang'ich maktab (Grundschule), o'rta maktab (Sekundarstufe I va II) va oliy ta'lim. Bu tizimda har bir o'quvchi o'z qobiliyat va qiziqishlariga qarab turli yo'nalishlarga yo'naltiriladi – gimnaziya, realshule, hauptshule yoki qo'shma maktablarda o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu differensial yondashuv o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini to'liq ochishga xizmat qiladi [1].

Nemis ta'limi boshqaruvi federal, hududiy va mahalliy darajalarda tashkil etilgan. Federal vazirlik

umumiy strategiyani belgilaydi, 16 ta federal yer esa o'z hududida mustaqil ta'lim dasturlarini ishlab chiqadi, o'qituvchilar standartlarini belgilaydi. Mahalliy darajada esa maktab kengashlari o'quvchilarni taqsimlash, moliyalashtirish va tashkiliy masalalarni hal etadi. Bu tizim ta'lim sifatini boshqarishda hamkorlik va mas'uliyatni aniq taqsimlash tamoyiliga asoslangan.

Germaniya ta'lim tizimida baholashning ikki asosiy modeli qo'llanadi: 6 balli va 15 balli tizim. Bu baholash o'quvchilar bilimni chuqur va tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Baholash natijalari nafaqat individual yutuqlarni, balki ta'lim muassasalari faoliyatining samaradorligini ham ko'rsatadi. Shuningdek, xalqaro standartlar asosida akkreditatsiya jarayonlari ham ta'lim sifatini kafolatlashda muhim o'rin tutadi [2].

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Germaniya oliy ta'lim tizimi jadal rivojlandi. Universitetlarning bepul ta'lim siyosati turli mamlakatlardan iqtidorli talabalarni jalb etish imkonini berdi. Hozirgi kunda Germaniya oliy ta'limi xalqaro miqyosda nufuzli hisoblanib, Erasmus+, DAAD kabi dasturlar orqali

global ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Bu tajriba ta'lim sifatini oshirishda xalqaro standartlarga tayanishning samaradorligini ko'rsatadi.

Germaniya tajribasi O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham muhim saboqlar beradi. Xususan, ta'lim sifatini nazorat qilishda ko'p bosqichli boshqaruv tizimini joriy etish, baholash tizimlarini diversifikatsiya qilish, xalqaro akkreditatsiya mexanizmlaridan foydalanish mumkin. Shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish, ota-onalar qo'mitasi va pedagogik kengashlarning faoliyatini kuchaytirish ta'lim sifatini boshqarishda samarali vosita bo'la oladi [4].

Natijalar: Germaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatini boshqarishda asosiy e'tibor tizimligi, shaffoflik va mas'uliyatni taqsimlashga qaratilishi lozim. O'zbekiston ta'lim tizimida sifatni boshqarish jarayonlarini kuchaytirishda Germaniya tajribasidan quyidagilarni olish mumkin [5]:

1. Ko'p darajali boshqaruv – federal, hududiy va mahalliy organlar o'rtasida vakolatlarni aniq taqsimlash.
2. Baholash tizimlari – o'quvchilar bilimini aniqlashda ko'p qirrali baholash mezonlarini qo'llash.
3. Xalqaro integratsiya – xorijiy dasturlar va akkreditatsiya tizimlari orqali ta'lim sifatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish.

Germaniyada ta'lim sifatini boshqarishning samarasi, avvalo, boshqaruv darajalari o'rtasidagi vazifalar aniq taqsimlanganligidan boshlanadi: federal daraja strategik yo'nalish va ilmiy-tadqiqot siyosatini belgilasa, yer (Land) darajasida o'quv rejalari, pedagogik standartlar va kadrlarga oid me'yorlar ishlab chiqiladi, mahalliy darajada esa maktablar tarmog'ini tashkil etish, resurslarni taqsimlash va operativ boshqaruv amalga oshiriladi. Ushbu vertikal hamohanglik sifatini boshqarishda "markaz–hudud–maktab" zanjirida javobgarlik uzilishini oldini oladi va sifat ko'rsatkichlarining bir darajadan boshqasiga o'tishda buzilib ketmasligiga xizmat qiladi; ayni taqsimot mantiqi siz taqdim etgan manbada ham yadro tamoyil sifatida ko'rinadi, chunki unda federal, hududiy va mahalliy organlarning roli alohida qayd etilgan.

Sifatni ta'minlashda ichki (school-based) va tashqi (external) mexanizmlar bir-birini to'ldirishi zarur: ichki darajada maktabning o'zini o'zi baholashi, dars

kuzatuv, metodik birlashmalar ishini tizimlashtirish va PDCA sikli (rejalashtir–ijro et–tekshir–takomillashtir) bo'yicha uzluksiz jarayon yo'lga qo'yiladi; tashqi darajada esa hududiy inspeksiya yoki akkreditatsiya organlari maktab natijalarini mustaqil baholab, milliy/yer talablari bilan uyg'unligini tekshiradi. Bunday ikki konturli boshqaruvda baholashning o'lchov barqarorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi: mezonlar aniq, dalilga tayanadigan va maktablararo taqqoslanadigan bo'lishi kerak. Nemis modelida baholash ko'p yillik amaliyotga ega bo'lgan 6 balli hamda differensiallikni kuchaytiruvchi 15 balli tizim orqali modullashtiriladi; bu, bir tomondan, bilim chuqurligi va izchilligini nishonga oladi, ikkinchi tomondan, ta'lim muassasasi samaradorligini "mikrodarajadagi" o'quvchi natijalari bilan bog'lab monitoring qilishga imkon beradi.

Baholashning mazmuniy dizaynida "kontentga sodiqlik" va "kognitiv murakkablik" muvozanati saqlanmasa, sifatni boshqarish ko'r-korona reytingga aylanib qoladi. Shu bois Germaniya amaliyotida (va umuman ilg'or tizimlarda) baho – maqsad emas, balki majburiy teskari aloqa instrumenti sifatida ishlaydi: natijalar pedagogik qarorlarni (o'quv rejasi mikro-o'zgartirishlari, qo'shimcha differensial topshiriqlar, reabilitatsion kurslar) qo'llab-quvvatlaydi, o'qituvchi faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. 15 balli shkalaning nozik gradatsiyasi aynan shu teskari aloqa sifatini yaxshilashga qaratilgan: "qoniqarli" va "qoniqarsiz" o'rtasidagi oraliqlar kengaytiriladi, bu esa o'quvchining hozirgi darajasini aniqroq joylashtirishga va muammoli kompetensiyalarni aniqlashga yordam beradi. Siz bergan matnda keltirilgan konversiya (6 balli tizimdan 15 balliga o'tkazish) ham mezonlararo izchillik va shaffoflikni ta'minlash vositasi sifatida izohlanadi; bu, o'z navbatida, tuman/yer, hattoki maktablararo solishtirishlarda statistik adolatni oshiradi.

Xulosa va munozara. Ta'lim sifatini boshqarish jarayoni – bu nafaqat nazorat, balki ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan strategik jarayon. Germaniya tajribasi O'zbekiston uchun o'ziga xos model bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, baholash tizimining shaffofligi, boshqaruvning ko'p bosqichli tuzilishi va xalqaro integratsiya tajribasi milliy ta'lim tizimida sifatni yanada yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Globaldialog.ru – Система образования в Германии.
2. Deutschonline.ru – Оценки в Германии.
3. Yuz.uz – Германия таълим тизими ҳақида.
4. Altbach P., Teichler U. Internationalization and German Higher Education. – Springer, 2020.
5. OECD. Education Policy Outlook: Germany. – OECD Publishing, 2019.

SOLIXA ANORBOYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti o'qituvchisi
E-mail: s.anorboyeva@uzswlu.uz

TARJIMON TAYYORLASHNI TASHKIL ETISHNING UMUMIY TAMOYILLARI: ISPAN TILI MISOLIDA

Annotatsiya: ushbu maqola tarjima faoliyatining poydevorini tashkil etuvchi muhim hodisa ya'ni tarjima kompetensiyasiga bag'ishlangan. Muallif asosiy e'tiborni yozma hamda og'zaki tarjimaga qaratgan bo'lib, oliy ta'lim tizimida bakalavr va magistratura bosqichlarida tahsil olayotgan talabalarning tarjimonlik kompetensiyasini shakllantirish tahlil qilinadi. Kasbiy tayyorgarlik bilan bog'liq muammolar aniqlanadi va mumkin bo'lgan yechimlar taklif qilinadi. Tadqiqotda tarjimashunoslikdagi an'anaviy qarashlar va yangi yondashuvlar solishtiriladi.

Kalit so'zlar: *tarjimonlarni kasbiy tayyorlash, bakalavriyat, magistratura, tarjimon kompetensiyasi, tarjimon malakasi.*

Аннотация: данная статья посвящена важному явлению, составляющему основу переводческой деятельности, а именно переводческой компетентности. Автор акцентирует внимание на письменном и устном переводе, а также анализирует формирование переводческой компетенции студентов, обучающихся на уровне бакалавриата и магистратуры в системе высшего образования. Выявлены проблемы, связанные с профессиональной подготовкой, и предложены возможные решения. В исследовании сравниваются традиционные взгляды и новые подходы в переводе.

Ключевые слова: *профессиональная подготовка переводчиков, бакалавриат, магистратура, компетенция переводчика, компетенция переводчика.*

Annotation: this article is devoted to an important phenomenon that forms the basis of translation activity, namely translation competence. The author focuses on written and oral translation, and also analyzes the formation of translation competence of students studying at the bachelor's and master's levels in the higher education system. The problems associated with professional training are identified and possible solutions are proposed. The study compares traditional views and new approaches in translation studies.

Key words: *professional training of translators, bachelor's degree, master's degree, translator competence, translator competence.*

Kirish. Tarjimonlik kompetensiyasi tushunchasi haqida olimlar turlicha ta'riflar berish bilan bir qatorda, ba'zilar "tarjima kompetensiyasining turli subguruhlar mavjudligi" haqida yozishni yoqtiradilar, boshqalar esa, "bu turdagi kompetensiyaning bilim, qobiliyat, malaka, ko'nikma, o'quv kabilardan tarkib topishini" ko'rsatib o'tadilar. Shuning bilan birgalikda, tarjima kompetensiyasining tarkib topishi, mohiyati borasidagi fikr-mulohazalar tarjimashunoslik fanida yangi yo'nalishlar yuzaga kelishi barobarida o'zgarib turadi. Buni, ayniqsa, keyingi o'n yilliklar mobaynida tarjima nazariyasida shakllangan modellar, qarashlar ta'sirida bildirilayotgan fikrlarda ko'rish mumkin. Bizning fikrimizcha, "kompetensiya" erkin tushuniladigan tushuncha bo'lib, har bir insonning umumlashtirilgan bilim va malakalar jamlanmasidir. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, qobiliyat esa professional kompetensiyaning dastlabki ko'rinishlaridan biridir. Tarjimonlik kompetensiyasi – bu tarjimonning tarjima faoliyatini samarali va sifatli bajarishi uchun zarur

bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi. Tarjimonlik kompetensiyasi tarjimonning lingvistik, madaniy va texnologik bilimlarini, shuningdek, tarjima jarayonini boshqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Buning uchun maxsus tarjimaga ixtisoslashgan fan yoki kurslarda bilim olish samarali natijalarni beradi. Kompetensiyaning muayyan subguruhlariga taqsimlab o'rganilishi, so'zsis, tarjima faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim zaxirasi, ko'nikma va qobiliyat namunalarini tizimlashtirilgan holda tasvirlashga imkon beradi. Ammo bunday tizimlashtirish didaktik maqsadga to'liq javob bermaydi. Shuningdek, tarjima kompetensiyasini turli xususiyatlarning oddiy majmuasi sifatida qaralishi ham metodik ko'rsatmalar taklif qilish uchun dasturul-amal bo'lib xizmat qilmaydi. Fikrimizcha, mazkur yondashuvlar bir-birini to'ldirganida, ma'lum juftlikda metodik qiymatga ega bo'la oladi. Tarjimoni asliyatning oddiy aksi, uning faqatgina qayta yaratilishidan iborat emasligini e'tirof etishdan chekinadigan mutaxassis qolmagan bo'lsa

kerak. Tarjimonning vazifasi muqobil variant yoki ekvivalentni topishdan iborat bo'lsa, unda uning ekvivalentlik borasidagi tushunchasi individualdir. Hatto u barcha mavjud bo'lgan va shakllanishi mumkin bo'lgan ekvivalentlardan xabardor bo'la turib, ularning qaysilarini inkor etish hamda qay birini tanlash "erkinligi" imkoniga ega.

Asosiy qism. Tarjimondan har qanday holatda ham professionalizm, ya'ni tarjima faoliyati uchun zarur bo'lgan kasbiy bilim va mahoratni to'liq egallash talab qilinadi. Biroq kasbga oid sifatlar har doim bir xilda faollasha olmaydi, chunki ularning namoyon bo'lishi turli omillarga bog'liq. Bunday omillar qatoriga tarjima turi, matnning qaysi sohaga oidligi, janr xususiyatlari kabilar kiradi. Ajratilayotgan komponentlar orasida tarjima strategiyasi eng muhim komponent hisoblanadi, chunki strategiya tanlovi maqsadga binoan reja tuzilishini, kechayotgan tarjima jarayoni va uning ilk natijalarini baholash kabi faoliyat turlarini aks ettiradi. "Shuningdek, tarjima samarasi uchun muhim bo'lgan psixofiziologik komponentlar xotira, diqqat, tanqidiy munosabat, qat'iyat kabi ruhiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, ijodkorlik, tahlil qilish, umumlashtirish, mantiqiy asoslash kabi kognitiv harakatlarni ham qamrab oladi" [1; 93-b.].

D. Kelly va G.Shreve kabi tadqiqotchilar taklif qilishgan tasniflar yuqoridagi guruhlanishning qariyb takrori bo'lish bilan birga, ba'zi qo'shimchalarga ham ega. Jumladan, D.Kelly bu qatorga tarjima jarayoniga jalb qilingan boshqa kishilar bilan ishlash malakasini aks ettiruvchi shaxslararo muloqot kompetensiyasini ham kiritadi [4; 23-b.], G.Shreve asosiy e'tiborni matn

shakllantirish qoidalari majmuasiga qaratadi [2; 24-b.].

E. Komissarovning konsepsiyasiga ko'ra [3; 76-b.], tarjima kursining asosiy vazifasi – yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir, ular tarjimalarni professional darajada amalga oshirishga qodir bo'lishi talab etiladi. Shu sababli, kursning muhim qismi professional tarjimonlik ko'nikma va mahoratlarini rivojlantirishga, tarjima strategiyalari va texnikalarini o'zlashtirishga hamda turli murakkablik darajasiga ega matnlarni tarjima qilish bo'yicha tajriba to'plashga bag'ishlanadi.

N.Vyazovovanning V.Komissarovdan keltirishicha, "professional tarjimonlik kompetensiyasini shakllantirish jarayonida o'ziga xos lingvistik shaxs shakllanadi. Bu shaxs oddiy, tarjima bilan shug'ullanmaydigan shaxslardan bir qator jihatlari bilan farqlanadi. Ushbu farqlar nutqiy kommunikatsiyaning barcha asosiy jihatlarida namoyon bo'ladi: lingvistik, matn yaratish, kommunikativ, shaxsiy va kasbiy-texnik jihatdan" [5; 77-b.].

Ko'rinib turibdiki, turli mualliflar tarjima kompetensiyasini turli rakursdan o'rganib ajratib ko'rsatadilar, ba'zan bir mazmunni anglatuvchi kompetensiyaga boshqa nom beradilar, yoki aksincha, bir terminni turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatadilar, bu esa o'rganilayotgan muammoni tushunishni qiyinlashtiradi [6; 77-b.].

Yuqoridagi olimlarning tarjima kompetensiyasi va uning tarkibi haqidagi fikrlarini o'rganib, bizningcha, quyidagi tarjima kompetensiyalariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Tarjimonlik kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari haqida olimlarning fikrlari:


V.Komissarov – kasbiy yo'naltirilgan tarjimonlik kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tadi:	1) Lingvistik kompetensiya – bu ona tili va chet tilida retseptiv (qabul qilish) va produktiv (ifodalash) jihatdan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish; 2) Matn yaratish kompetensiyasi – bunda ona tili va chet tilida matn yaratish qoidalari bilish, turli funksional uslub, janr va turdagi matnlarni asl nusxasiga mos ravishda tarjima qila olish nazarda tutiladi; 3) Kommunikativ kompetensiya – chet tilidagi matn mazmunini imkon qadar to'liq va aniq ifodalab bera olish qobiliyati; 4) Texnologik kompetensiya – tarjima jarayoniga oid maxsus bilimlarga ega bo'lish, asosiy tarjima strategiyalari va usullarini qo'llay olish;
Nicole Martínez Melis va Amparo Hurtado Albir tarjima kompetensiyasining quyidagi komponentlarini ajratib ko'rsatadilar:	1) Ikki til orasidagi kommunikativ kompetensiya. 2) Ekstralingvistik kompetensiya. 3) Transferensial kompetensiya. 4) Instrumental-kasbiy kompetensiya. 5) Psixofiziologik kompetensiya. 6) Strategik kompetensiya.
A.Nyubert tarjima kompetensiyasini quyidagi turlarga ajratadi:	1) til kompetensiyasi (language), 2) predmet kompetensiyasi (subject) va 3) transferensial kompetensiya (transfer) kabi turlarga ajratadi.

Bizning fikrimizga ko'ra:	1) <i>Lingvistik kompetensiya</i> – tarjimonning bir yoki bir nechta tillarni mukammal bilishi, leksik, grammatik, sintaktik va stilistik bilimlarga ega bo'lishi va ularda to'g'ri muloqot qilish qobiliyati. 2) <i>Kommunikativ kompetensiya</i> – auditoriya ehtiyoji va til me'yorlarini hisobga olgan holda chet tilida berilgan matnning mazmunini to'g'ri yetkazish qobiliyati. 3) <i>Matnni shakllantirish</i> – ma'lum bir kommunikativ vazifaga muvofiq har xil turdagi matnlarni yaratish, matnning alohida qismlari o'rtasidagi munosabatni baholash va matnni izchil nutqning butunligi sifatida qabul qilish qobiliyati;
---------------------------	---

Demak, tarjimashunoslik juda ko'p sonli o'zaro bog'liq fanlar ma'lumotlariga asoslanishi mumkinligi hamda texnologiyalarning jadal rivoji sababli tarjima kompetensiyasi ko'plab turlarga ajratilishi mumkin.

Tarjimonlik yo'nalishidagi talabalar og'zaki nutqini o'stirish tili o'rganilayotgan mamlakat tili va madaniyatini bir vaqtda o'rgatishdan boshlanishni taqozo qiladi. Har qanday tarjima jarayoni ikki til – ikki madaniyatning o'zaro muloqoti bo'lib, madaniyatlararo muloqot to'g'ri, xolis talqin qilinishi bilan birga madaniyatlararo muloqotni o'rganishga katta o'rin beriladi. "Shuningdek, tarjimon tayyorlashning

lingvomadaniy muammolari madaniyatlararo muloqotning o'zni, tarjimada madaniy moslashish holatlari hamda chet til darsi madaniyatlararo uchrashuv chorrahasi sifatida o'rganishni taqozo qiladi" [7; 64-b.]. Tarjima nutqiy fikrlash faoliyatining maxsus bilim, mahorat talab qiladigan va sezilarli darajada intuitiv ravishda kechadigan juda murakkab turi hisoblanadi. Ispan tiliga o'qitishda talabalarda tarjimonlik kompetensiyasini shakllantirish hamda tarjimon tayyorlashni tashkil etishning ham quyidagi umumiy tamoyillarini o'zlashtirish zaruriyati vujudga keldi, ya'ni:



Tarjimon tayyorlashni tashkil etishning umumiy tamoyillari

Tarjimon tayyorlashni tashkil etishning umumiy tamoyillariga berilgan ta'riflar:

Tarjimonlarni tayyorlashda shaxs sifatida yondashuv tamoyili.	Tarjimon faoliyatini professionalashtirish ushbu kasbga nisbatan qo'yiladigan talablarni aniqlab olish zaruratini shart qilib qo'ydi. Professional vakolatli tarjimonlik faoliyati subyekti tavsifini, ishini mahorat darajasida bajarish uchun unda bo'lishi shart bo'lgan bilimlar va kognitiv salohiyatni ko'rib chiqish imkonini beradi. Ushbu tamoyilga asosan, o'qitish tizimi professional guruh a'zosi sifatida faoliyat olib boruvchi tarjimon shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.
Tarjimonlarni tayyorlashda faoliyatli yondashuv tamoyili.	O'qitishning faoliyatli yondashuviga ko'ra tarjimonlik vakolati professional vazifalarni bajarish jarayonida shakllanadi. Bunda tarjimon faoliyatini o'rganish uning asosiy bosqichlari – tarjimaga tayyorgarlik ko'rish, xorijiy tilni tushunish, tarjima tilida tushunarli matn tuzish, o'girilgan matnni tuzatish, shuningdek, ularning har biri bo'yicha professional tarjimonlik vazifalarini aniqlab olish imkonini beradi.
Tarjimonlar tayyorlashda ijtimoiy-madaniy yondashuv tamoyili.	Ma'lum bir ijtimoiy muhitda aytilgan so'z yuzaga kelishi sababli ijtimoiy institut tushunchasidan keng foydalanish imkonini beradi. Har qanday hamkorlikdagi faoliyat institutsion shartlangan ko'rinishda bo'lib, fan, din, maktab, oila va boshqa jamoaviy birlashmalar tegishli ijtimoiy institutlar sifatida o'rganiladi. Tarjimon uchun boshqa tildagi matnni tushunish va o'girishda matnni yuboruvchi va uni qabul qilib oluvchining fe'lini bilish ham muhim hisoblanib, ijtimoiy shaxs sifatida boshqa shaxslar bilan birga amalga oshiriladigan harakatlar asosida faoliyat olib boradi.

Tarjimonlarni tayyorlashda diskursiv yondashuv tamoyili	Professional yo'naltirilgan tarjima spesifikasi, tarjimaning ushbu turi uchun ishlab chiqilgan strategiya va tarjimonning o'ziga qo'yiladigan talablar professional faoliyat predmeti bilan belgilanadi. Mazkur faoliyat obyekti va predmeti professional yo'naltirilgan matn bo'lib, tarjimon madaniyatlararo munosabatlar ishtirokchisi sifatida boshqa tildagi matnning tuzilishiga ta'sir ko'rsatadigan va tarjimon ushbu matnni ona tiliga o'girishda inobatga olishi lozim bo'lgan barcha tarixiy, ijtimoiy, madaniy, vaziyatli omillarni hisobga olishi shart.
--	---

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirda O'zbekistonning har sohada turli mamlakatlar bilan jadal rivojlanayotgan hamkorliklar sharoitida, xorijiy tilda ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatadigan, muayyan sohaning terminologiyasi, professional faoliyat va original materiallar bilan ishlashga qodir, malakali hamda sifatli tarjimon-mutaxassislarni tayyorlash vazifasi ilgari qo'yilyapti. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimining sifati deganda, yetishib chiqayotgan yosh mutaxassisning zamon talablariga javob bera oladigan professional tayyorgarligi, uning "professional kompetensiyasi" tarzida tushunilmoqda. Lekin tarjimon to'laqonli professional kompetensiyaga ega bo'lishi uchun yetarli malaka hamda tajribaga ham ega bo'lmog'i lozim. Tarjima – yangi axborot manbasidir va ushbu yangi axborot nomlanishi, lisoniy belgi olishi zarur. Mazkur zaruratning qondirish maqsadi ijodkorlik, kreativlikni uyg'otadi. Bu turdagi ijodkorlikka yangi muhit va diskursiv sharoitga moslashayotgan aslyat matni undaydi, tarjimon esa yangicha shakl va mazmun munosabatini tanlaydi. Natijaga erishish,

o'z navbatida, tarjima vaziyati bilan bog'liq. Tajribali tarjimon yuzaga keladigan vaziyatlarni tezda farqlash va ularga mos ravishda faoliyat yuritishga qodir, albatta. Vaziyatlarning muntazam o'zgarib borishi esa, tarixiylik (historicidad) xususiyatini yuzaga keltiradi. Belgilangan rejani amalga oshirishning turli yo'llari mavjud, lekin muayyan vaziyatda tarjimon eng to'g'ri va ma'qul yo'lni tanlashga majbur. Demak, zamon va makon tarjima jarayoni samarali kechishiga turtki beradigan omillardir. Tarjima kompetensiyasining sanab o'tilgan ko'rsatkichlari bir-biridan ayri holda namoyon bo'lishini tasavvur qilish qiyin, ular o'zaro bog'liqlikda faollashib, yagona bir majmuani tashkil qiladilar. So'zsiz, aniq bir maqsad, tarjima rejasi umumiy kompetensiyaning u yoki bu qismini oldingi o'ringa surishi mumkin. Tarjimonning lisoniy faoliyati boshqa tildan foydalanuvchi shaxslarnikidan tubdan farq qilishi aniq. Lekin tarjimonlar zimmalaridagi murakkab vazifani bajarish uchun aynan boshqalardan farqlanuvchi bilim va tajribaga ega bo'lishlari shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barinas Translation Consultants. Electronic recourse: www.barinas.com/what_is_a_translator.htm(translation history).
2. Herbert J. Manual del Intérprete. Comment on devient l'interprète de conférences. / J.Herbert. – Genève, 1952. – 113 p.
3. Solikha, A. (2024). DEVELOPMENT OF TRANSLATION COMPETENCE OF STUDENTS IN SPANISH LANGUAGE COURSES. ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР, 2(3), 9–12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11178339>
4. Анорбоева С. (2024). ПОДГОТОВКА ПЕРЕВОДЧИКОВ С ИСПАНСКОГО ЯЗЫКА И СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕРЕВОДЧИКА. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 176-180. <https://doi.org/10.2024/5mckbz69>
5. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. Курс лекций. – М.: ЭТС, 2000. 192 с.
6. Солиха Анорбоева, Нилуфар Сабирова. Современная модель профессиональной компетенции переводчика в контексте системы подготовки переводчиков в вузах. –O'zbekiston: til va madaniyat, Lingvistica. 2024. 110-127.
7. Шевнин А.Б Категория качества перевода и эрратология // Проблемы перевода и межкультурной коммуникации: науч.-метод. вестник – Вып.2.– Перм: Изд-во Перм. гос. техн. ун-та, 2006. – С. 60–63.

G'aziza ASHUROVA,
O'zDJTU erkin tadqiqotchisi

XORIY TIL SIFATIDA KOREYS TILINI O'QITISHDA OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMALARINING LINGVODIDAKTIK AHAMIYATI

Annotatsiya: mazkur maqolada koreys tili o'qitish metodikasida og'zaki nutqning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Til o'qitish jarayonida og'zaki nutq kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari, metodik tamoyillari hamda amaliy usullari yoritilgan. Dialog va monolog mashqlari, audiovizual vositalar, interfaol metodlar hamda til muhitini yaratish kabi usullarning samaradorligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, o'quvchilar duch keladigan grammatik, talaffuz va psixologik qiyinchiliklar hamda ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Maqola natijalarida og'zaki nutqni rivojlantirishning o'quvchilarning lingvistik va madaniy kompetensiyasini oshirishdagi muhim o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: koreys tili, o'qitish metodikasi, og'zaki nutq, kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar, madaniy kompetensiya, talaffuz, nutq etikasi.

Аннотация: в данной статье проанализированы роль и значение устной речи в методике преподавания корейского языка. Освещены теоретические основы, методические принципы и практические способы формирования компетенции устной речи в процессе обучения языку. Показана эффективность таких методов, как диалогические и монологические упражнения, аудиовизуальные средства, интерактивные методики, а также создание языковой среды. Кроме того, рассмотрены грамматические, фонетические и психологические трудности, с которыми сталкиваются учащиеся, и пути их преодоления. В результате статьи обоснована важная роль развития устной речи в повышении лингвистической и культурной компетенции учащихся.

Ключевые слова: корейский язык, методика преподавания, устная речь, коммуникативный подход, интерактивные методы, культурная компетенция, произношение, речевой этикет.

Annotation: this article analyzes the role and significance of oral speech in the methodology of teaching the Korean language. Theoretical foundations, methodological principles, and practical approaches to developing oral communication competence in the language learning process are highlighted. The effectiveness of methods such as dialogue and monologue exercises, audiovisual tools, interactive techniques, and the creation of a language environment is demonstrated. Furthermore, grammatical, pronunciation, and psychological difficulties faced by learners, as well as ways to overcome them, are examined. The findings substantiate the crucial role of oral speech development in enhancing learners' linguistic and cultural competence.

Key words: Korean language, teaching methodology, oral speech, communicative approach, interactive methods, cultural competence, pronunciation, speech etiquette.

Kirish. Globallashuv jarayonida koreys tiliga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortmoqda. Koreya Respublikasi iqtisodiy, madaniy va texnologik jihatdan jadal rivojlanib borayotgani, shuningdek, K-drama, K-pop kabi ommaviy madaniyat hodisalarining keng tarqalishi bu tilni o'rganish istagini kuchaytirmoqda. Til o'qitish jarayonida og'zaki nutq kompetensiyasini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Chunki tilning asosiy kommunikativ vazifasi insonlar o'rtasidagi bevosita muloqotni ta'minlashdir. Shu bois, koreys tili o'qitish metodikasida og'zaki nutqni rivojlantirish nafaqat lingvistik bilimlarni, balki ijtimoiy-madaniy kompetensiyani ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism.

1. Og'zaki nutqning metodik ahamiyati.

Koreys tili o'qitish metodikasida og'zaki nutqni rivojlantirish darsning asosiy maqsadlaridan biri sifatida qaraladi. O'qituvchi nafaqat grammatik bilimlarni, balki talaffuz, intonatsiya, nutq tezligi va muloqot odobiga oid ko'nikmalarni ham shakllantirishi lozim. Shu jihatdan, og'zaki nutq metodikasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- **Kommunikativ yondashuv** – o'quvchini real hayotiy vaziyatlarda muloqot qilishga tayyorlash.

- **Interfaol usullar** – rolda o'ynash, suhbat, munozara, savol-javob mashqlari.

Madaniy kontekst – koreys tilidagi muloqot odoblari, nutq etikasi, ijtimoiy tabaqalanish (존댓말 va 반말) farqlari.

- **Misol:** – A: 안녕하세요? 오늘 날씨가 참 좋네요.
- – B: 네, 그렇죠. 주말에 뭐 하실 거예요?
- – A: 친구하고 같이 영화 볼 거예요.
- (Salom, bugun ob-havo juda yaxshi. — Ha, to'g'ri. Dam olish kunida nima qilasiz? — Do'stim bilan kino ko'raman.)

- **Rolda ijro etish (role-play)** – Restoranda ovqat buyurtma berish, mehmonxonada xona band qilish yoki aeroportda muloqot qilish kabi hayotiy vaziyatlar sahnalashtiriladi. **Misol:** “한식당에서 김치찌개 주문하기” (Koreys restoranida kimchi sho'rvasini buyurtma qilish).

- **Audiovizual vositalardan foydalanish** – serial, reklama yoki intervyu parchalarini tinglab, keyin ularni tahlil qilish va muhokama qilish. **Misol:** “미생” serialidan qisqa dialogni tinglab, undagi talaffuz va intonatsiyani qayta takrorlash.

Integrativ yondashuvning koreys tilidan nutq va akademik yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda samaradorligini

o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari bu yondashuvning afzalliklarini yaqqol ko'rsatdi. Eksperimental guruhdagi o'quvchilarning nutq va yozuv ko'nikmalaridagi sezilarli o'sish, nazorat guruhi bilan solishtirganda, integrativ yondashuvning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning nafaqat til ko'nikmalarini, balki motivatsiyasini ham oshirishga yordam berdi. Birinchidan, eksperimental guruhdagi nutq ko'nikmalaridagi 35% o'sish integrativ yondashuvning kommunikativ metodlarni qo'llash orqali erishilganligini ko'rsatadi. Task-based language learning va corpus texnologiyasining birgalikda qo'llanishi o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini oshirishga katta yordam berdi. Mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning erkin fikr bildirishlari va o'zaro muloqot qilishlari ularning nutq ko'nikmalarini rivojlantirdi. Ikkinchidan, yozuv ko'nikmalaridagi 40% yaxshilanish ham bu yondashuvning samaradorligini isbotlaydi. Yozma topshiriqlar va matnlarni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar grammatik qoidalarini amalda qo'llashni o'rganishdi.

2. Og'zaki nutqni rivojlantirish usullari.

Og'zaki nutqni rivojlantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- **Dialog va monolog mashqlari** – kundalik mavzularda gaplashish, fikr bildirish, voqeani hikoya qilish.
- **Audiovizual materiallar bilan ishlash** – koreys filmlari, intervyular, podkastlar orqali eshitib tushunish va takrorlash.
- **Jamoaviy ish** – guruhlarda rol o'yinlar, taqdimotlar, suhbatlar.
- **Til muhitini yaratish** – dars jarayonida imkon qadar faqat koreys tilida muloqot qilish.

3. Qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish

O'quvchilar og'zaki nutqda quyidagi qiyinchiliklarga duch keladi:

- Grammatik qurilmalarning murakkabligi.

Talaffuzdagi farqlar (masalan, 받침 tovushlari).

- So'z boyligining yetarli emasligi.
- Nutqiy ishonchsizlik va uyatchanlik.

Bu muammolarni hal qilish uchun o'qituvchi muntazam

ravishda lug'at boyligini oshirish, talaffuz mashqlarini bajarish, muloqotga rag'batlantiruvchi interfaol topshiriqlar berish va ijobiy psixologik muhit yaratishi zarur.

Audiovizual matnlar bilan ishlash jarayoni bir nechta bosqichlardan iborat: tayyorgarlik (yangi til materiali bilan ishlash, ehtimollik prognozini o'rganish, qisqa muddatli va og'zaki-mantiqiy xotirani rivojlantirish va boshqalar); materialni bevosita ko'rish (bunda kompyuter dasturlari keng qo'llaniladi); yangi ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlash bilan birgalikda darajani tekshirish, ma'lumotni tushunish (turli xil mashqlar va topshiriqlar uchun variantlar)

Koreys tilini o'rgatishda madaniy elementlar nutq jarayonini boyitadi. Masalan, rasmiy va norasmiy muloqot shakllarini farqlash (존댓말 va 반말), milliy bayramlar (설날, 추석) haqida suhbat qurish yoki milliy taomlar nomini (김치, 불고기, 잡채) to'g'ri talaffuz qilish va ularning tayyorlanish jarayoni haqida gapirish.

Koreys tilida o'zbek tilida mavjud bo'lmagan tovushlar (ㅇ, ㄹ, ㅁ, ㅂ) o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi. Maxsus talaffuz mashqlari, she'r yoki qo'shiqlar orqali bu to'siqlar yengib o'tiladi. **Misol:** “사랑해” (saranghe – seni sevaman) iborasini intonatsiya bilan takrorlash orqali talaffuzni yaxshilash.

Xulosa. Koreys tili o'qitish metodikasida og'zaki nutqni rivojlantirish o'quvchilarning lingvistik, madaniy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishning eng muhim omillaridan biridir. Audiovizual va audiolingual usullar kundalik holatda deyarli qo'llanilmaydi, ammo aksariyat universitet va institut o'qituvchilari vaqti-vaqti bilan shunday usullar asosida mashg'ulotlar olib boradilar. Bu usul umumiy ta'lim dasturini diversifikatsiya qilish va talabalarni qiziqtirish imkonini beradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilar nafaqat koreys tilida erkin muloqot qilishni, balki Koreya jamiyatining madaniy qadriyatlarini ham anglab yetadilar. Natijada, og'zaki nutq bo'yicha puxta tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslar xalqaro maydonda ham muvaffaqiyatli muloqot olib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пугачев А.А. Теория и практика создания электронных учебников. Вестник Вост. Сиб. Института МВД России, 2000, № 3.
2. Носов Н. Образование и виртуальная реальность. Дистанционное и виртуальное обучение. Дайджест рос. и зарубеж. прессы. 2000, № 11.
3. Parpiyev.A, Marahimov.A., Hamdamov.R., Begimkulov. U., Bekmuradov.M, Taylokov N. Yangi axborot texnologiyalari. – T., 2008, 104-bet.
4. Allanazarova, M., Tashtemirova, M., Xaratova S., Sadiqova, M., & Jalilova, M. (2020). Verbalization of concept “water and fire” in English linguoculturology. Journal of critical reviews, 7(2), 382-386.
5. Садикова Махбуба Бахтияровна, Нигора Газиевна Бухарова, и Матлуба Сатвалдиевна Мухамедова. «Активизация лексического минимума для развития навыка монологической речи.» Academy 6 (45) (2019): 56- 57.
6. Baxtiyarovna Sadikova Makhbuba, and Almardanova Zulfiya Chorievna. “Teaching Technical Vocabulary in Esp.” European Journal of Higher Education and Academic Advancement 1.2 (2024): 151-154

Mazmuna OTABOYEVA,
Qo'qon davlat universiteti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD
mazmuna.rahimovna@gmail.ru

Mohinabonu RUSTAMOVA,
Qo'qon davlat universiteti
filologiya fakulteti Xorijiy til va adabiyoti
(Ingliz tili) yo'nalishi talabasi
mohinaxonrustamova@gmail.com

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XUSHMUOMALALIK STRATEGIYASINING MADANIYATLARARO FARQLARI

Annotatsiya: ushbu maqola tilshunoslikda til va jamiyat o'zaro aloqasini o'rganuvchi sohalarda, xususan, sotsiolingvistika va pragmatika doirasida markaziy o'rinni egallab kelayotgan xushmuomalalik masalasiga bag'ishlanadi. Hatto bu mavzu bo'yicha ilmiy doiralarda jiddiy bahs-munozaralar ham olib borilgan. Bu maqolada o'zbek va ingliz xalqlaridagi xushmuomalalik strategiyasining muhim xususiyatlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *xushmuomalalik, tilshunoslik, madaniy farqlar, sotsiolingvistika, pragmatika, xushmuomalalik strategiyalari, ingliz tili, o'zbek tili, madaniyatlararo muloqot.*

Аннотация: данная статья посвящена проблеме вежливости, которая занимает центральное место в лингвистике, изучающей взаимоотношения языка и общества, особенно в социолингвистике и прагматике. В научных кругах по этому вопросу ведутся серьёзные дискуссии. В статье рассматриваются важные особенности стратегий вежливости у узбеков и англичан.

Ключевые слова: *вежливость, лингвистика, культурные различия, социолингвистика, прагматика, стратегии вежливости, английский язык, узбекский язык, межкультурная коммуникация.*

Annotation: the study of politeness holds an integral role in linguistics, particularly in sociolinguistics and pragmatics, which examine the interplay between language and society. Evenly, this topic has sparked significant scholarly debate. This article explores the key factors of politeness strategies in Uzbek and English languages.

Key words: *politeness, linguistics, cultural differences, sociolinguistics, pragmatics, politeness strategies, English language, Uzbek language, intercultural communication.*

Kirish. Xushmuomalalik strategiyasi bu lingvopragmatika, madaniyatlararo kommunikatsiya va sotsiolingvistika sohalarining kesishgan nuqtasiga tegishli ilmiy yo'nalishidir. Insonlar o'rtasidagi muloqot nafaqat axborot almashinuvi, balki o'zaro hurmat, o'dob va madaniyatning yuksak belgisi hisoblanadi. Ma'lumki, har bir xalqning o'ziga xos nutq madaniyatida tamoyillari va me'yoriy uslublari mavjud. Ingliz va o'zbek xalqlarining vakillarining xushmuomalalik uslublari ham o'z milliy-madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq. Ushbu maqolada xushmuomalalik strategiyasining lingvopragmatik va madaniyatlararo farqlari atroflicha muhokama qilinadi va o'rganiladi.

Adabiyotlar tahlili.

Nutqdagi xushmuomalalik tushunchasi universal hodisa bo'lib, u yuqorida ta'kidlaganimdek, turli madaniyatlarda turlicha ifodalanadi va baholanadi. Har ikkala madaniyat ham o'zlarini ifodalash uchun va madaniyat haqidagi bilim va tushunchalarni namoyish qilish uchun tildan bevosita foydalanadi. Madaniyatlararo muloqot nazariyasida Edward T.

Hall (1976) tomonidan ilgari surilgan "High-context vs Low-context" madaniyatlar farqlari xushmuomalalik strategiyalariga bevosita ta'sir qiladi. O'zbek madaniyati yuqori kontekstli (high-context) bo'lib, noverbal ishoralar, mavhumlik, va bilvosita ifodalarga urg'u beradi. Ingliz madaniyati esa past kontekstli (low-context) bo'lib, aniq, to'g'ridan to'g'ri ifodalashni afzal ko'radi. Nutqdagi jozibadorlik tushunchasi qolgan xalqlarga solishtirganda ancha ildiz otgan tushuncha bo'lib, bu madaniyatda insonlar tildan hurmat va hayrat tuyg'ularini yaratish uchun foydalanadilar, shuningdek, o'z mavqeyini ko'rsatish va o'z madaniyatlarini tushunishlarini namoyon qilish uchun ham qo'llaniladi, masalan, o'zbeklar suhbatdoshiga hurmat va iltifot ko'rsatish uchun hurmat va odobli so'zlardan, fan tili bilan aytganda "yumshoq iboralardan" foydalanadilar. Bundan farqli o'laroq, ingliz xalqi kamroq rasmiy va odamlar boshqalar bilan yaqinlik qilishda va aloqa hissi yaratish uchun o'zlari uchun qulay va sodda bo'lgan so'zlardan foydalanadilar, ya'ni ular yaqinlik hissini yaratish uchun norasmiy va hazillarni ko'proq afzal ko'rishadi. Misol uchun, inglizlar alohida ehtirom va

e'tibor ko'rsatish maqsadida idiomalar va jargonlardan talaygina foydalanadilar, o'zbek madaniyati bilan solishtiradigan bo'lsak, o'zbeklar madaniyatida hurmat va ehtirom ko'rsatish uchun gapirsalar, inglizlar o'zaro yaqinlik hissini yaratishga harakat qiladilar. O'zbeklar suhbat davomida nutqni bezash, mubolag'ali va poetik iboralardan foydalanishni va suhbatdoshini ulug'lashni ma'qul ko'rishadi, masalan, "Yuzingizdan nur yog'ilyapti", "Dilingiz bahordek yashnasin", "Ko'nglim tog'dek yorishdi" kabi iboralar o'zbek tilida muloyimlik, balki tinglovchida ham yoqimli taassurot qolishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, "Aka", "Opa", "Domla", "Boy ota", "Janoblari" kabi hurmatni ifodalaydigan murojaat shakllari doimiy ishlatiladi. Rasmiy va norasmiy vaziyatlarda ham ehtiyotkorlik bilan murojaat, sipo yondashuv, muloyimlik ustuvor hisoblanadi. Bunga qarama-qarshi tarzda, ingliz madaniyatlarida ko'proq yaqinlik, soddadillik, erkinlik birinchi o'rinda turadi. Inglizlar rasmiylikdan ko'ra qulaylik va samimiyligni ustun ko'radilar, masalan, "Hey there!", "How is it going", "Nice to see you" kabi norasmiy salomlashuv odatlari orqali o'zaro munosabatlarni mustahkamlashga intiladilar, shuningdek, ayrim idiomalar: "Break the ice", "Hit the nail on the head", "Spill the beans" kabi iboralar oddiy nutqni jonlantirib, allaqachon o'ziga xos madaniy nutq vositasiga aylanib bo'lgan. Shu tarzda, o'zbek tilida nutq ko'pincha bezakli, poetik va ehtiyotkor bo'lsa, ingliz tilida esa erkin, hazilkash va muloqotni soddalashtiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Bu ikki madaniyat rolining tili jamiyatdagi qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar va shaxslararo munosabatlarga bo'lgan yondashuvni ifoda etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

O'zbek madaniyatlarida nutqlarining jozibaliligiga yana bir yaqqol misol nutqni bezakdor qilish maqsadida she'riy nutq, jonlantirishlar va metaforadan foydalanadilar. Ma'lum bir ma'ruzachi yoki odam narsaning jozibadorligini metafora orqali "to'liq gullagan gul" singari ifodalashi mumkin. Xuddi shunday o'zbek tilidagi so'zlashuvlar ham narsaning sifatini jalb qiluvchi jumlar bilan ifodalaydi. She'riy tilda inson yoki narsaning go'zalligini ifodalash uchun "nurlı" yoki "nurlangan" sifatlaridan foydalaniladi. O'zbek tilida so'zlashuvchilar tinglovchining diqqatini o'ziga tortish uchun "Sen osmonda nur sochgan quyoshsan", "Sening go'zalliging oy kabidir" degan gulli iboralar orqali ifodalashadi. Inglizlar esa bu noziklik tushunchasini yanada bilvosita ifodalaydi, ular insonga yoki narsaga nisbatan hayratni bildirishda "Siz chiroyli ko'rinasiz" yoki yanada mavhumroq tarzda "Sizda inkor etib bo'lmaydigan joziba bor" deb bildiradilar. Nutqda jalb qilish o'zbek madaniyatining ajralmas qismidir. Bu – kimgadir hurmat va ehtirom usuli. Ba'zan hayrat, ehtirom va minnatdorchilikni bildirish maqsadida "shon-sharaf", "muborak",

"chiroyli", "muhtasham" kabi so'zlar faol qo'llaniladi. Bundan tashqari, yanada kuchli hurmatni ifodalash uchun "Alloh sizdan rozi bo'lsin", "Kuch-quvvat bersin" kabi minnatdorchilik ma'nosidagi jumlar ham keng yoyilgan. Shuningdek, nutqdagi jozibani yanada ta'sirli ifodalash maqsadida "tana tili" qo'llaniladi: ta'zim qilish, bosh silkitish va imo-ishora qilish kabilar kiradi.

Tahlillar va natijalar.

Xushmuomalalik strategiyasi ingliz tilida ham alohida hisobga olinadi. Ular suhbatdoshiga chuqur minnatdorchilik va mamnuniyatni ifodalashda samimiy nutq uslublaridan foydalanadilar: salomlashish yoki tanishuvda "Tanishganimdan xursandman", "Men buni juda qadrlayman" jumalari bilan ifodalaydilar. Ingliz madaniyatidagi og'zaki nutqdagi go'zallik va nafosatni tasvirlaganda "quyosh botishini" misol qilib keltirishimiz mumkin. Ular "Osmondagi tog'lar chiroyli", "Quyoshning botishi ajoyib" jumalari bilan ifodalaydi. Go'zallik tushunchasi subyektiv bo'lib har xil ma'noda ishlatilishi mumkin, yuqoridagi jumlada vizual tushuncha ma'nosida qo'llanilgan bo'lsa, ba'zan insonlarning fe'l-atvori, xarakteriga nisbatan ham "saxovatpesha" ma'nosini ifodalab keladi. O'zbek tiliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, go'zallik tushunchasi noziklik, nafosat, malohat tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek xushmuomalalik strategiyasida "zebo" so'zi qo'llanilib, nafaqat tashqi, jismoniy, ko'rinib turgan go'zallikni, balki nafislik va nazokatni ham o'zida mujassamlashtiradi. Shuningdek, "shirin", "latif" kabi estetik birliklar sipolik va ichki go'zallikni ifodalab keladi. Ingliz madaniyatida esa go'zallik shaxsiy didga va subyektiv dunyoqarashga bog'liq. Tilda bu tushuncha turli sinonimlar va vositali birliklar orqali beriladi: "stunning", "gorgeous", "elegant", "attractive" kabi so'zlar narsa yoki shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini va jozibasini bildiradi. Shuni tan olish kerakki, ingliz tilida ham nutqni ta'sirchan va jonli qilish maqsadida turli metaforik birliklar qo'llaniladi: "silky hair", "porcelain skin", "sparkling eyes", "graceful moves", "melodic voice" kabi ifodalar tashqi ko'rinishdagi muhim belgilarni tavsiflashda katta rol o'ynaydi. Ingliz tilida ko'proq xushmuomalalik individuallik, face-saving, yengil norasmiylikka asoslanadi. Brown va Levinson (1987) tomonidan ishlab chiqilgan "Politeness Theory" xushmuomalalik strategiyalarini ikki asosiy guruhga ajratadi:

1. Positive politeness (iliqlik va yaqinlik yaratish),
 2. Negative politeness (hurmat va masofa saqlash).
- O'zbek tilida ko'proq "negative politeness"ga asoslangan strategiyalar (ehtimolli murojaatlar, poetik iboralar) ustun bo'lsa, ingliz tilida "positive politeness" (samimiy salomlar, do'stona hazillar) keng tarqalgan.

Brown va Levinson (1987) nazariyasiga ko'ra xushmuomalalik 2 ga bo'linadi: 1. Positive politeness.

2. Negative politeness.

1. Positive politeness (ijobiy xushmuomalalik) – suhbatdoshga iliq munosabat bildirish, do'stona muomala qilish:

"I really like your idea."

"Let's do this together, shall we?"

2. Negative politeness (salbiy xushmuomalalik) – erkinlikni cheklamaslikka harakat qilish, uzr so'rab murojaat qilish:

"Sorry to bother you, but..."

"Would you mind if I...?"

3. Off-record strategies (bilvosita ifoda) – gapni bevosita emas, ishora bilan aytish:

"It's a bit cold in here, isn't it?" (ya'ni derazani yopishni istaydi)

4. Bald on record (ochiq ifoda) – rasmiy yoki do'stona vaziyatda ochiq aytiladigan gaplar:

"Close the door." (ruxsat yoki o'xshashlik kutilmaydi).

O'zbek madaniyatida esa salomlashuv va so'rashuv hurmat va ehtirom uchun eng katta belgidir. Har qanday muloqot "Assalomu alaykum", "Yaxshimisiz" jumalari bilan boshlanadi.

Rasmiylik va odobli tilda ifodalanadi: Har qanday suhbatdosh sherigiga "siz" olmoshi bilan murojaat qilishni afzal ko'radi. Katta yoshdagi yoki mansabdagi shaxslar uchun "hurmatli", "ustoz" kabi birliklar qo'shib aytiladi. Ba'zan ehtiyotkor ifodalar "Agar xato qilgan bo'lsam, kechirasiz", "Tushunmovchilik uchun uzr so'rayman" kabi jumalar ishlatiladi. Ayrim hollarda tanqidni bildirishda kinoya, ishora, xalq maqollari va metaforalardan foydalaniladi. Leech (1983) xushmuomalalikning kommunikativ prinsiplariga asoslanib, "tact", "generosity", "modesty" va "agreement" kabi maksimlarni taqdim etadi. Bu maksimlar madaniy sharoitga ko'ra turlicha ifodalanadi. Masalan, o'zbeklarda "Tilingizga salomatlik", "Yuzingizdan nur yog'ilyapti" kabi iboralar yordamida tinglovchiga iltifot ko'rsatiladi. Bu esa

nutqdagi ehtirom va jozibadorlikni oshiradi. Inglizlarda esa "You look wonderful today" yoki "I truly appreciate your point" kabi iboralar yordamida muloyimlik ifoda etiladi.

Jenny Thomas (1983) "pragmatic failure" (pragmatik muvaffaqiyatsizlik) tushunchasini kiritgan. Bu madaniyatlararo muloqotda xushmuomalalik strategiyalarining noto'g'ri talqin qilinishiga sabab bo'ladi. Masalan, inglizlar uchun hazil yoki to'g'ridan-to'g'ri murojaat do'stona niyatda bo'lsa-da, o'zbek suhbatdoshi buni hurmatsizlik deb qabul qilishi mumkin.

Xulosa. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz madaniyatlarida xushmuomalalik strategiyalari umumiy maqsadga – ijtimoiy muvozanatni saqlash va suhbatdoshga hurmat bildirishga xizmat qilsada, ularning ifoda shakllari, tayanadigan qadriyatlar va uslublari sezilarli darajada farqlanadi. O'zbek madaniyatida xushmuomalalik rasmiylik, ehtirom va ijtimoiy maqomni inobatga olgan holda ifodalanadi. Tildan foydalanishda odob, hurmat, va bilvosita murojaat shakllari ustuvorlik qiladi. Ushbu yondashuv jamiyatdagi ierarxiya, katta-kichiklik tamoyillari va an'anaviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Ingliz madaniyatida esa xushmuomalalik ko'proq shaxsiy erkinlik, individual yuzni saqlash va samimiy muloqotga yo'naltirilgan. Ingliz tilida ijobiy va salbiy xushmuomalalik strategiyalari, shuningdek, norasmiy va bilvosita ifodalar keng qo'llaniladi. Modal fe'llar, yumshatuvchi birliklar va ijobiy tasdiqlar muloqotni yengillashtiradi va suhbatdoshlar o'rtasida yaqinlik hissini kuchaytiradi. Demak, xushmuomalalik strategiyalari madaniy kontekstdan kelib chiqib farqlanadi va til o'sha madaniyatdagi ijtimoiy mezon va qadriyatlarning bevosita aksidir. Har ikki madaniyatda xushmuomalalikning o'ziga xos uslublari o'rganish va tushunish madaniyatlararo muloqotni samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu strategiyalar madaniyatda muruvvat, hurmat, kamtarlik strategiyalarini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Lakoff, R. (1973). The logic of politeness: Or, minding your P's and Q's. In *Papers from the ninth regional meeting of the Chicago Linguistic Society* (pp. 292–305). Chicago Linguistic Society.
3. Leech, G. N. (1983). *Principles of pragmatics*. London: Longman.
4. Holmes, J. (2013). *An introduction to sociolinguistics* (4th ed.). Routledge.
5. Yuldasheva, D. (2021). *Xushmuomalalik strategiyalarining lingvopragmatik tahlili (o'zbek va ingliz tillari misolida)* [PhD dissertation, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti].

Oqila TO'RAYEVA,
 Oliy toifali ingliz tili o'qituvchisi

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "BOYLIK" KONSEPTINI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

Annotatsiya: ushbu maqola ingliz va o'zbek tilida qo'llanuvchi "boylik" tushunchasini ifodalovchi birliklar, ingliz tilida mavjud bo'lgan ayrim birliklarning o'zbek tilidagi muqobili borlari va muqobili mavjud bo'lmagan birliklar tahlili to'g'risida.

Kalit so'zlar: tillar integratsiyasi, frazeologiya, frazemalar, ingliz tilida "boylik" tushunchasini anglatuvchi frazemalar, frazeologik birliklar semantikasi.

Аннотация: данная статья посвящена анализу единиц, выражающих понятие «богатство» в английском и узбекском языках, а также рассмотрению некоторых единиц английского языка, имеющих эквиваленты в узбекском языке, и единиц, не имеющих эквивалентов.

Ключевые слова: языковая интеграция, фразеология, фраземы, фраземы, обозначающие понятие «богатство» в английском языке, семантика фразеологических единиц.

Annotation: this article analyzes the units expressing the concept of «wealth» in English and Uzbek languages, examining both the existing Uzbek equivalents for certain English units and the analysis of units that lack direct Uzbek counterparts.

Key words: language integration, phraseology, phrasemes, phrasemes denoting the concept of «wealth» in English, semantics of phraseological units.

Hozirgi rivojlanayotgan fan-texnika zamonida tillarning o'zaro integratsiyasi ham jadallashib bormoqda. Ya'ni tilshunoslikning turli qatlamlariga xoslingvistikvaksikbirliklarshularjumlasidandir. Frazeologizmlar tilshunosligimizning ko'p yillardan beri e'tibor markazida bo'lgan birliklar sanaladi. Ma'lumki, frazeologik birliklarning tadqiqi dastlab adabiyotshunoslikda vujudga kelgan sanalib, badiiy asarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayonida undagi ma'lum birliklarning o'zni barqaror bo'lganligi sababli so'zma-so'z tarjima qilish yaramas edi. Natijada shu tilda mavjud frazeologik birliklar tahlil qilina boshlagan. Keyinchalik lingvistika sohasida ham bu birliklarga qiziqish uyg'onib, uning lug'at tarkibi, ma'no va shakl munosabatiga ko'ra turlari o'rganila boshlagan. Frazeologiya termini dunyo filologiyasida 1558-yilda ingliz olimi Neandr tomonidan birinchi marta qo'llangan. U badiiy asarlarni tarjima qilishda shu terminni ishlatishga majbur bo'lgan.¹

XIX asrlardan boshlab rus va yevropa lingvistik maydonida frazeologik iboralarni

o'rganishga qiziqish boshlandi. V. V. Vinogradov rus tilidagi frazeologik birliklarning uch asosiy turini ajratib ko'rsatadi: frazeologik qo'shilmalar, frazeologik birliklar va frazeologik birikmalar.² Rus tilshunosligida amalga oshirilayotgan shu kabi tadqiqot ishlari ta'siri natijasida o'zbek tilshunosligida XX asrning 50- yillaridan boshlab tadqiq qilina boshlandi va hozirgi kunga qadar ham davom etib kelmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgani kabi tillarning o'zaro aloqa almashinuvi, bir tildagi ma'lum bir matnning boshqa bir matnga tarjima qilinishi natijasida iboralar shu tilga tarjima qilinadi. Bularning ba'zilari leksema o'zlashtirishning o'zicha olish natijasi bo'lsa, ba'zilari kalkalab olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Xuddi shunday frazeologik birliklar ham hozirda chet tillardan o'zbek tiliga jadallik bilan tarjima qilinmoqda.

Masalan, ingliz tilida mavjud bo'lgan "*Filthy rich*"³- frazeologik birligi dastlab adolatsiz yo'l

1 Пинхасов. Лексикология в фразеология. –Тошкент: Ўқитувчи, 1969.54

2 Логан. П. С. м и т. Фразеология английского языка. Москва.:1959. С 4
 3 To'rayeva Oqila Halimovna, "Phraseological Units Describing The Concept Of "Wealth"" ISSN 2782-4365 УДК 37 ББК 94 Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование И Наука В Ххи Веке». Выпуск №48-1 (март, 2024). Дата выхода в свет: 04.03.2024.

bilan boyigan juda ham boy bo'lgan insonlar haqida gapirilganda ishlatilgan birlikdir. Bugungi kunda, bu fraza biroz ijobiy, ya'ni, juda boy ma'nosida ishlatilmoqda.

Misol: *"The preacher and his wife moved into a mansion; suddenly, they're filthy rich"*⁴. - Xatib va uning xotini hashamatli uyga ko'chib kirishi bilan to'satdan boyib ketishdi.

Bu birikma 16 asrga tegishli birikmalarda ishlatilgan bo'lishiga qaramasda, 1920-yillarga tegishli bo'lgan "Lima yangiliklari" Ohioda nashr etiladigan gazetada yashash tarzi qiyin bo'lgan aholi haqidagi muhokamalarda ishlatilgan.

"Rolling in dough" – bu birikma puli juda ko'p ma'nosini bildirib: "pichog'i moy ustida" frazeologik birligiga mos keladi. Bu birikma ingliz tilida juda keng ishlatiladi. Masalan: *"Don't be a fool! You know if he marries her she'll roll in wealth,"* said Korableva⁵.

–"Ahmoq bo'lma! Agar u shu qizga uylansa pichog'i moy ustida bo'ladi," dedi Korableva.

*"Deep pockets"*⁶ frazeologik birikmasi boy va boshqalarni ta'minlay olishga qodir ma'nosida ishlatilib, bu ingliz jargoni odatda katta korxona va tashkilotlar haqida ularning egalari haqida gapirilganda ishlatiladi. Garchi so'zma-so'z tarjimasi orqali o'zbekcha muqobili bo'lmasa-da, o'zbek tilida mavjud "qo'li uzun" yoki "qo'lni cho'zsa oyga yetadi" birikmasiga to'g'ri keladi.

Masalan: *The American tobacco companies have "deep pockets", although it can be used in reference to wealthy individuals (e.g., Bill Gates, Warren Buffett)*

"Money talks" — bu birikma pulning jamiyatda o'rni katta ekanligini anglatadi. ta'siri katta ekanligini anglatadi. O'zbek tilidagi "Og'zi qiyshiq bo'lsa ham, boyni bolasi gapirsin." iborasiga to'g'ri keladi.⁴

"A great fortune is (also) a great slavery." -birikmasida boylik haqida gap borayotgan bo'lsada, ba'zan qisqa muddatda orttirilgan va katta boylik insonni gangitib, shaxsiy

erkinlikni cheklab qo'yadigan omil bo'lib qolishi ham mumkin. Chunki avval pul bilan muomala qilib yurmagan inson uchun bir qancha mas'uliyat, talablar va boylikka bo'ysunish kabi sabablar tufayli shu holga tushishini ifodalaydi.

Masalan: *"Despite his immense wealth, John felt trapped by the constant demands and expectations of his social circle and business partners, demonstrating how a great fortune is a great slavery"*⁷.

Boylik va uning jamiyatdagi o'rnini ifodalovchi *"Money makes the mare go" — "Puling bo'lsa changalda sho'rva."* birikmasi boylikning muhimligini ifodalaydi. Ya'ni, boyligi bor inson har qanday vaziyatda hurmatga sazovor bo'la oladi va bunday insonlar o'zlari xohlaganday yashashlari uchun barcha sharoitni qila olishlarini bildiradi.

"Golden key opens all doors"—"Bermasa ham boy yaxshi, Yemasang ham moy yaxshi." bu birikma ma'lum bir davrda korrupsiya avj olgan jamiyatlarda pul bilan ishlarini hal qila oladigan insonlarni ta'riflash uchun ishlatiladi. Misol uchun: *"His father is a rich man so he uses his golden key to make the workers do everything he says"*⁸.

relationship." can be real example.

Boylik haqidagi *"Wealth attracts many friends"*⁹ -"Boyning oshiga to'yib bo'lmaydi, do'stiga yetib bo'lmaydi" birikmasi boy odamlar atrofida doimo do'stlari va tanishlari ko'p bo'lishi haqida bo'lib, bu do'stlar odatda ularning boyligidan foydalanish uchun atrofida yurishlarini ifodalaydi. *"A heavy purse makes (for) a light heart"* – Pul bor joyda ko'ngil shod birikmasi boylik ko'ngilga xotirjamlik va moliyaviy havfsizlikni ifodalaydi. Masalan: *"Although he was never obsessed with money, Jim acknowledged that a heavy purse makes a light heart, and he made sure to save for retirement"*¹⁰.

Born with a silver spoon in your mouth" – Bu ibora 17–18-asr Yevropasida, ayniqsa Angliyada paydo bo'lgan.

4 To'rayeva Oqila Halimovna, "Phraseological Units Describing The Concept Of "Wealth"" ISSN 2782-4365 УДК 37 ББК 94 Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование И Наука В XXI Веке». Выпуск №48-1 (март, 2024). Дата выхода в свет: 04.03.2024.

5 <https://idioms.thefreedictionary.com/to+rake+in+the+dough>

6 <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/deep-pocket>

7 <https://idioms.thefreedictionary.com/to+rake+in+the+dough>

8 <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/deep-pocket>

7 <https://langeek.co/en/vocab/subcategory/4105/learn>

8 <https://www.theidioms.com/a-golden-key-can-open-any-door/>

9 <https://biblehub.com/proverbs/19-4.htm>

10 <https://dictionary.langeek.co/en/word/215697?entry=a%20heavy%20purse%20makes%20a%20light%20heart>

O'sha davrda boy va zodagon oilalar farzandlariga tug'ilgan kunida kumushdan yasalgan qoshiq sovg'a qilishgan. Kumush qimmatbaho bo'lishi bilan birga, o'sha paytda sog'liq uchun foydali deb ham hisoblangan (kumush bakteriyalarni o'ldiradi, degan qarash bo'lgan). Shuning uchun "kumush qoshiq bilan tug'ilgan" degani — bola boy oilada, tayyor sharoitda, farovonlikda ulg'ayganini anglatgan.

Don Quixote: And not everyone is born with a silver spoon¹¹.

11. *"live high off the hog"*- Bu ibora 19-asrda Amerikada paydo bo'lgan.

Cho'chqaning yuqori qismlari (masalan, bel, qovurg'a) eng mazali va qimmatbaho go'sht hisoblangan. Kambag'al odamlar esa pastki qismlarini (oyoqlari, quyruq va hokazo) yeyishga majbur bo'lgan.

11 <https://158main.com/2012/12/06/fricassee-of-words-he-was-born-with-a-silver-spoon-in-his-mouth/>

Shuning uchun kimdir "high off the hog" yashasa, u "eng yaxshi go'sht yeydi, boyona hayotda yashaydi degan ma'noni bildiradi: "Southern laborers who are eating too high up on the hog (pork chops and ham) and American housewives who "eat too far back on the beef" (porterhouse and round steak) are to blame for the continued high cost of living, the American Institute of Meat Packers announced today"¹².

12. *"Made of money"* - "Meni puldan yasalgan deb o'ylayapsanmi?" — ya'ni, "Men bunchalik boy emasman.") Bu birikma ko'pincha kinoua tarzida kimgadir pul manbai deb qarashda ishlatiladi. Example: *"So when a quintet of electrical cords rises up to become the outline of a man made of money, or when an arctic ocean flows into a pair of green shorts, something other than accident is in operation.—Susan Tallman, The New York Review of Books, 12 Dec. 2022"*¹³.

12 <https://www.gingersoftware.com/content/phrases/high-on-the-hog>

13 <https://www.merriam-webster.com/dictionary/made%20of%20money>

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent, 2005. 260-b.
2. Логан. П. С м и т. Фразеология английского языка. — Москва, 1959. 208-с.
3. Пинхасов. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексиколосия ва фразеология. —Тошкент: Ўқитувчи, 1969. 80-б.
4. Ш. Шоабдурахмонов, М. Асқарова, А. Ҳожиёв, И. Расулов, Х. Дониёров. Ҳозирги ўзбек адабий тили (I қисм). — Тошкент: "Ўқитувчи" 1980. 446-б.
5. To'rayeva Oqila Halimovna, "Phraseological Units Describing The Concept Of "Wealth"" ISSN 2782-4365 УДК 37 ББК 94 Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование И Наука В Хxi Веке». Выпуск №48-1 (март, 2024). Дата выхода в свет: 04.03.2024.
6. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз.— 2-е изд., перераб.— М.: Высш. шк., Дубна: Изд. Центр "Феникс", 1996. 381-с.

Internet saytlar

1. <https://idioms.thefreedictionary.com/to+rake+in+the+dough>
2. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/deep-pocket>
3. <https://langeek.co/en/vocab/subcategory/4105/learn>
4. <https://www.theidioms.com/a-golden-key-can-open-any-door/>
5. <https://biblehub.com/proverbs/19-4.htm>
6. <https://dictionary.langeek.co/en/word/215697?entry=a%20heavy%20purse%20makes%20a%20light%20heart>

Sanobar G'OPPOROVA,
Qarshi tumanidagi 33-maktab o'qituvchisi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MUBOLAG'ANING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida mubolag'aning (hyperbole) lingvistik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida yoritiladi. Mubolag'aning semantik kengayish, emotsional-ekspressiv ta'sir, madaniy obrazlilik kabi jihatlari ikkala til materiallari asosida o'rganiladi. Tahlil davomida ingliz tilida mubolag'alar qisqa, standart va universal shakllarda ifodalanishi, o'zbek tilida esa xalqona ramzlar, folkloriy obrazlar orqali ifodalanishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: *mubolag'a, hyperbole, til pragmatikasi, stilistik vosita, qiyosiy tahlil, badiiy tasvir, emotsional ifoda, madaniyatlararo kommunikatsiya.*

Аннотация: в данной статье на основе сравнительного анализа рассматриваются лингвистические и прагматические особенности гиперболы в английском и узбекском языках. Изучаются такие аспекты гиперболы, как семантическое расширение, эмоционально-экспрессивное воздействие и культурно-образное выражение. В ходе анализа показано, что в английском языке гиперболы, как правило, выражаются в кратких, стандартизированных и универсальных формах, тогда как в узбекском языке они опираются на народные символы и фольклорные образы.

Ключевые слова: *гипербола, прагматика языка, стилистическое средство, сравнительный анализ, художественное выражение, эмоциональная экспрессия, межкультурная коммуникация.*

Annotation: this article presents a comparative analysis of the linguistic and pragmatic features of hyperbole in English and Uzbek. It explores aspects such as semantic expansion, emotional-expressive impact, and cultural imagery in both languages. The analysis reveals that while English hyperboles are typically expressed in short, standardized, and universal forms, Uzbek hyperboles often rely on folkloric imagery and traditional cultural symbols.

Key words: *hyperbole, linguistic pragmatics, stylistic device, comparative analysis, figurative expression, emotional impact, intercultural communication.*

Tilshunoslikda badiiy tasvir vositalari orasida mubolag'a (hyperbole) alohida o'rin tutadi. Mubolag'a hodisasi inson tafakkuri, emotsional kechinmalari va estetik dunyoqarashini til orqali namoyon etishda muhim vazifani bajaradi. Uning asosiy xususiyati – reallikdagi voqelikni ma'lum darajada bo'rttirib, kuchaytirib yoki haddan tashqari kattalashtirib ifodalash orqali tinglovchi yoki o'quvchida kuchli ta'sir uyg'otishidir. Shu bois mubolag'a nutqning nafaqat stilistik, balki pragmatik imkoniyatlarini ham kengaytiruvchi vosita sifatida o'rganiladi.

Bugungi kunda tilshunoslikning alohida yo'nalishlaridan biri sifatida pragmatika til birliklarining kommunikativ sharoitda qanday vazifani bajarishini tadqiq etadi. Mubolag'a esa pragmatik hodisa sifatida nutqda maqsadli qo'llanilib, muallif yoki so'zlovchining hissiy holatini kuchaytiradi, tinglovchi e'tiborini jalb etadi hamda axborotni ta'sirchanroq qabul qilishiga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan, ingliz va o'zbek tillarida mubolag'aning qo'llanish xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish ularning semantik, stilistik va madaniy jihatlari ochib berishda muhimdir.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, ingliz va o'zbek tillaridagi mubolag'a nafaqat umumiy nutqiy ehtiyoj mahsuli, balki milliy dunyoqarash va madaniyat bilan ham chambarchas bog'liq. Masalan, ingliz tilidagi mubolag'alar ko'proq standartlashgan, qisqa va universal shakllarda ifodalansa, o'zbek tilida mubolag'alar folkloriy obrazlarga, xalqona taqqoslashlarga boydir.

Maqolaning maqsadi – ingliz va o'zbek tillarida mubolag'aning pragmatik xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlash hamda real nutqiy misollar orqali ko'rsatib berishdan iborat.

Aristotelning "Poetika" asarida mubolag'a inson tafakkurining tabiiy mahsuli sifatida qayd etilgan bo'lib, u til va adabiyotda hissiylikni oshirishga qaratilgan eng qadimiy stilistik figuralardan biri hisoblanadi.

Lingvistik nuqtayi nazardan mubolag'a – bu semantik o'zgarish hodisasi bo'lib, real miqdor yoki sifatni ortiqcha ko'rsatish orqali yangi ekspressiv ma'no hosil qiladi. Bu jarayonda so'z yoki ibora o'zining odatiy denotativ ma'nosidan chekinib, konnotativ, ya'ni hissiy bo'yoqdor ma'noga ega bo'ladi. Masalan:

Ingliz tilida: *"I'm starving"* (so'zma-so'z: "Men ochlikdan o'lyapman") – aslida "juda ochman" degan kuchaytirilgan ma'no anglatadi.

O'zbek tilida: "Bir kun ko'rmasam, yuz yil ko'rmagandek bo'laman" – vaqtni kuchaytirib ifodalash orqali sevgining kuchini ko'rsatadi.

Demak, mubolag'a til birliklarining semantik diapazonini kengaytiradi, ularga qo'shimcha ekspressiv bo'yoq beradi va nutqda ma'lum pragmatik vazifani bajaradi.

Pragmatika til birliklarining muloqotdagi vazifasi, ya'ni ular qanday maqsadda va qanday ta'sir ko'rsatish uchun ishlatilishini o'rganadi. Shu nuqtayi nazardan mubolag'a — bu nutqiy strategiya bo'lib, uning asosiy pragmatik mohiyati quyidagilardan iborat:

1. Emotsional-ekspressiv ta'sir. Mubolag'a tinglovchining his-tuyg'ulariga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, "He cried rivers of tears" (U daryo bo'lib yig'ladi) iborasi oddiy "ko'p yig'ladi" degan ma'noni kuchliroq emotsional ta'sir bilan yetkazadi.

2. E'tiborni jalb qilish va muhim g'oyani urg'ulash. Mubolag'a so'zlovchi uchun muhim bo'lgan fikrni alohida ajratib ko'rsatadi. Masalan, o'zbek tilida "Bir og'iz gap bilan butun dunyoni ag'darib tashladi" kabi iboralar gapning ta'sir kuchini oshiradi.

3. Ijtimoiy-madaniy qiymat. Har bir xalqning mubolag'alari uning madaniy qarashlarini aks ettiradi. Masalan, ingliz tilida *"I'm buried in work"* (so'zma-so'z: "Ishga ko'milganman") iborasi ko'proq shaxsiy bandlikni bildirsa, o'zbek tilida "Ishim boshimdan oshib ketdi" iborasi xalqona obraz orqali ifodalanadi.

4. Nutqiy strategiya sifatida moslashuvchanlik. Mubolag'a ko'pincha hazil, kinoya yoki dramatik ohangda ishlatiladi. Kontekstga qarab u ijobiy (maqtash), salbiy (tanqid) yoki neytral (oddiy ta'kidlash) vazifani bajarishi mumkin.

Ingliz tilida mubolag'a stilistik figura sifatida juda keng tarqalgan bo'lib, u nafaqat badiiy adabiyotda, balki kundalik muloqot, publitsistik matnlar va hatto reklama nutqida ham faol qo'llaniladi. Ingliz tilida mubolag'aning o'ziga xosligi, avvalo, uning qisqa, lo'nda va standartlashgan shakllarda kelishida ko'rinadi.

1. Miqdorni bo'rttirish.

Ingliz tilida mubolag'aning eng keng tarqalgan turi son va miqdorlarni haddan tashqari oshirib ko'rsatishdir:

"I've told you a thousand times." – "Men senga ming marta aytdim."

"I waited for ages." – "Men asrlar davomida kutdim."

Pragmatik tahlil: bu ifodalar real son yoki vaqtni emas, balki gapiruvchining sabrsizligi yoki bezoriligini ifodalaydi.

2. Hajm va og'irlikni oshirish.

Ko'pincha narsalarning kattaligi yoki og'irligi mubolag'a orqali ifodalanadi:

"This suitcase weighs a ton." – "Bu chamadon bir tonna turadi."

"He's as big as a house." – "U uydek katta."

Pragmatik tahlil: bunday ifodalar tinglovchi tasavvurida kuchli obraz yaratadi va predmetning real og'irligini kuchaytirib ko'rsatadi.

3. Hissiy holatni kuchaytirish.

Ingliz tilida his-tuyg'ular mubolag'a orqali ko'pincha dramatik tusda beriladi:

"I'm dying of boredom." – "Zerikishdan o'lyapman."

Pragmatik tahlil: bu kabi mubolag'alar emotsiyani kuchliroq aks ettirib, tinglovchi ham o'sha hissiyotni his qilishiga yordam beradi.

4. Vaqt va masofani bo'rttirish.

"It took forever to get here." – "Bu yerga kelish abadiylikka cho'zildi."

Pragmatik tahlil: bunday mubolag'alar kutishning uzoqligi yoki masofaning kattaligini subyektiv tarzda ta'riflaydi.

5. Badiiy adabiyotdagi qo'llanilishi.

Ingliz adabiyotida, xususan, Shekspir asarlarida mubolag'a keng qo'llaniladi:

"Will all great Neptune's ocean wash this blood clean from my hand?" (Shakespeare, *Macbeth*)

"Neptunning buyuk okeani ham bu qonlarni mening qo'limdan yuvib tashlay olarmikin?"

Pragmatik tahlil: bu ifoda qahramonning ruhiy azobini haddan tashqari kuchli qilib ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. 56-b.
2. Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019. 312-b.
3. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq, 2018. 280-b.
4. William Shakespeare. Romeo and Juliet. – London: Penguin Classics, 2005. 254-p.
5. George Lakoff, Mark Johnson. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. 256-p.

Dilorom FAYZIYEVA,
TOSHDOTAU 3-kurs tayanch doktoranti

SULAYMON BOQIRG'ONIY HAYOTI VA IJODINING O'RGANILISHI

Annotatsiya: maqolada tasavvuf adabiyotining yirik namoyandasi Sulaymon Boqirg'oniyni hayot va ijod yo'li, Boqirg'oniyni ijodining o'rganilishi, uning din va tasavvuf, ishq va axloqdan saboq beruvchi hikmatlari bilan bir qatorda "Boqirg'on kitobi" haqida gap boradi. S.Boqirg'oniyni o'zbek adabiyoti tarixida va tasavvuf ta'limotida tutgan o'rni xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Sulaymon Boqirg'oniyni, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, "Hakim ota risolasi", Shayx shoir, Kul Sulaymon, Hakim Sulaymon, Hakim ota, so'fiyona she'rlar, "Boqirg'on kitobi", Qur'oniyni va tasavvufiy g'oyalar.*

Аннотация: в статье рассказывается о жизни и творческом пути Сулеймана Бакыргани, крупного представителя суфийской литературы, изучении творчества Бакыргани, его мудрости, дающей уроки о религии и мистике, любви и нравственности, а также о "Книге Бакыргани". Обсуждается роль С. Бакыргани в истории узбекской литературы и мистики.

Ключевые слова: *Сулейман Бакыргани, Ахмед Ясави, Алишер Навои, "трактат Хакима Ота", Шейх-поэт, Кул Сулейман, Хаким Сулейман, Хаким Ота, суфийские стихи, "Книга Бакыргани", Коран и мистические идеи.*

Annotation: the article talks about the life and creative path of Suleyman Bakirgani, a major representative of Sufism literature, the study of Bakirgani's work, his wisdom that teaches lessons about religion and mysticism, love and morality, as well as the "Book of Bakirgani". The role of S. Bakirgani in the history of Uzbek literature and mysticism is discussed.

Key words: *Suleyman Bakirgani, Ahmad Yasawi, Alisher Navoi, "treatise of Hakim Ota", sheikh-poet, Kul Suleiman, Hakim Suleiman, Hakim Ota, Sufi poems, The "Book of Bakirgan", The Quran and mystical ideas.*

Mustaqillikka erishgan yilimizdan boshlab milliy qadriyatlarimizga, ota-bobolarimiz merosiga alohida e'tibor va diqqat qaratila boshlandi. Natijada ko'pgina avliyo va allomalarimizning boy madaniy merosi qaytadan tiklandi va asarlari nashr etildi. Shunday ulug' zotlardan biri Xoja Ahmad Yassaviyning uchinchi xalifasi, yassaviya tariqatining yetuk namoyandasi, o'z fazilatlarini bilan "Hakim" unvoniga sazovor bo'lgan Sulaymon Boqirg'oniyni – Hakim otadir. Hakim otaning hayoti va ijodi haqida ko'plab buyuk allomalar va olimlar o'z asarlarida ketirib o'tganlar va fikr yuritganlar. Sulaymon Boqirg'oniyni (Hakim ota) Xoja Ahmad Yassaviyning uchinchi xalifasi, turkiy xalqlar tarixida hikmatlari va dostonlari bilan mashhur bo'lgan mutasavvuf shoiridir. Uning hayoti va faoliyati haqida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Sulaymon Boqirg'oniyni hayoti haqida birinchilardan bo'lib, Alisher Navoiy "**Nasoyim ul-muhabbat**" tazkirasida ma'lumot beradi: "Hakim ota oti Sulaymondur. Xoja Ahmad Yassaviyning murididir. Hamonki, bir kun Xoja tabxe (ovqat pishirish) buyurg'ondurlarki, matbaxiy (oshpaz) o'tun yetmaydur deb kelgandur. Alar as'hobg'a degandurlarki, yozidin o'tun terib kelturung va ul zamon yog'in yog'odur ekandur. As'hobkim,

o'tun teribturlar, matbaxga (oshxonaga) kelguncha yog'in jihatidan o'tunlar ho'l bo'lg'ondur. Hakim ota tergan o'tunlarni to'nig'a chirmab, quruq kelturgandur. Xoja hazratlari degandurlarki, ey farzand, hakimona ish qilding va olarg'a bu laqab andin qolg'ondur va Hakim otag'a hikmat tili go'yo bo'lubtur".¹

Alisher Navoiy Hakim otaning hikmatlari turkiy xalqlar orasida shuhrat topganligini ta'kidlab, bir misol keltiradi:

*Tiki turg'on tubadur,
Borg'onlarni yutadur.
Borg'onlar kelmas bo'ldi,
Magar manzil andadur.*

Boqirg'oniyni Yassaviyning munosib shogirdi ekanligini ta'kidlaydigan ko'p naql va hikoyatlar yaratilgan. 1911-yilda yozilgan Jo'yborizoda qalamiga mansub "**Manoqib**"da aytilishicha,² Hakim ota (Hazrat Sulaymon) Qur'oni karimga o'zgacha hurmat ko'rsatib, darsga borayotib, Mus'hafni boshi uzra ko'tarib olar ekan. Buni ko'rgan Ahmad Yassaviy hazratlari uni

¹ Jo'yborizoda. Manoqib. Qo'lyozma. 1911-yil. 27-b.

² Faxriddin Ali Safiy. Rashxot (Nashrga tayyorlovchilar M.Xasaniy, B.Umurzoq). – Toshkent, 2003.

shogirdlikka taklif etadi. Hakim ota u zotning qo'lida ta'lim olib, o'n besh yoshida muridlikni qabul qiladi.

Ba'zi manbalarda aytilishicha, Sulaymon Boqirg'oniyning "hakim" laqabiga sazovor bo'lishi Xizr alayhissalom bilan bog'liq ekan. Bir kuni Ahmad Yassaviy taom tayyorlash uchun bir miqdor o'tin terib keltiringlar, deb shogirdlarini o'tinga yuboradi. O'sha asnoda kuchli yomg'ir yog'ib, hammaning o'tinlari ho'l bo'ladi. Yosh Sulaymon boshqa do'stlaridan farqli o'laroq, yomg'ir yog'ganini hisobga olib, dashtdan tergan o'tinlarini kiyimlariga chirmab, ustozining huzuriga quruq keltirgan. Boshqalarning o'tinlari tutab turgan bir paytda, Sulaymonning o'tinlari yongan. Yassaviyga mehmon bo'lib kelgan Xizr alayhissalom bu voqeani kuzatib, Sulaymondan sababini so'ragan va javobidan mamnun bo'lib, "hakimona ish qilding", degan. Sulaymonning tadbirkorligidan mutaassir bo'lgan Xizr alayhissalom unga "Bundan so'ngra laqabing Hakim bo'lsin. Jim yurma, fayz izhor qil", degan ekan. Shu, shu Sulaymon hikmatlar ayta boshlagan ekan. Faxriddin Ali Safiy **"Rashahot ayn ul-hayot"** asarida yozishicha:³ "Va hikmatlarekim, olar turkiy tili bila darveshlarning muomalalarida aytibturlar, Turkistonda ma'ruf va mashhur turur. Va favoyidi anfoslarining jumlasidin bu masalkim, xalq ehtiromida va vaqt ig'tinomida (g'animat bilishda) oytubdurlar:

"Har kim ko'rsang Xizr bil,

Har tun ko'rsang qadr bil"...

"Maskani Hakim oto Xorazm viloyati erdi. Ul yerda dori dunyodan rihlat qildilar. Mavzeikim, oni Oqqo'rg'on derlar, ya'ni Oq qal'a va qabri muboraklari ul joyda ma'ruf va mashhurdir". Nufuzli manbalardan biri Muhammad Olim Shayx Azizonning (1564-1631/32) **"Lamahot"** asarida shunday naql keltiladi: "Hazrati Sultonning yer osti uylari torlik qilib qolar edi. Shunda: "Hakim ota, bu uyni kengaytir", desalar, u kishi yelkalari bilan ishorat qilganlarida keng bo'lib, hamma xaloyiq sig'ar edi. Naql qiladilar, Hakim otaning aziz xotiralaridan shu kechibdiki, ko'pchilik xalq irshod maqomiga yetishdi. Bu kamina qoldi. Shu payt Hazrati Sulton buyurdilar: "Biz istar edikki, hayotlik chog'imizda bir bo'lsak, vafotimizdan so'ng bir joyga dafn qilinar edik. Endi sizga (shayxlik qilish uchun) batamom ruxsat berdik, xalifa qildik. Endi siz Xorazmga borib, toliblarni tarbiya qiling".

Haziniy **"Javohir ul-abror"**da Ahmad Yassaviy shogirdlari qatorida Hakim otani ham tilga oladi. U zotning Piri Turkistonning amri bilan Bobo Mochin, Imom Marg'oziy kabi kishilarning tavba qilib,

Yassaviyga murid bo'lishlari uchun ma'naviy ta'sir ko'rsatganligini ta'kidlaydi. Yana mazkur manbada aytilishicha, Yassaviy hikmatlarida ko'p uchraydigan **"xumi ishq"** iborasining kelib chiqishi ham Hakim ota bilan bog'liq ravishda qayd etilgan. 1864-yilda muftiy Mavlaviy G'ulom Sarvar Sohib Lohuriyning fors tilida yozilgan **"Xazinat ul-asfiyo"** (Kompur. Munshiy. Navalkishvar matbaasi) asarida yozilishicha, Xoja Hakim ota quddisa sirruhu Ahmad Yassaviy vafot topganidan so'ng yigirma yil Haq toliblarini irshod qilish bilan mashg'ul bo'lgan. Uning vafoti besh yuz sakson ikki (582-hijriy, milodiy 1186-y.) vafot qilgan. Nurga to'la maqbarasi Oqqo'rg'on mavzesidadir". Boqirg'oniyning tug'ilgan yili haqida esa turli xil qarashlar mavjud.

Manbashunos olim Ziyoyev Abdumannopning ta'kidlashicha, Hakim ota 1125- yili Qarnoq tuprog'ida tug'ilib o'sgan bo'lib, ota-onasi bilim olishi uchun uch yoshida mulloga beradi. Xoja Ahmad Yassaviy uning ziyrakligini ko'rib, 7 yoshida o'ziga shogird qilib oladi. Boqirg'oni ustozidan mukammal ilm oladi. 20 yil ustoziga xizmat qilib kamolga yetganidan keyin uch yil Shom davlatida bo'lib, u yerda muridlar orttiradi. Undan keyin o'z yurtiga qaytib, ustoz kabi pirlik vazifasini bajarishga kirishadi. Pirining amri bilan hamma narsadan kechib, Xorazm yurtining "Beynav orqasi" degan yeriga boradi va u yerda faoliyatni davom ettiradi. Xizmat paytida karomotlar ko'rsatadi va Xorazm podshosi Bug'roxon unga 14 yashar sohibjamol qizi (Rayhona), ya'ni Anbar bibini nikohlab beradi. Bu nikohdan Mahmud Xo'ja, Asqar Xo'ja va Hubbi xo'jalar dunyoga keladi. Olim fikrini davom ettirib aytadiki, Xoja Ahmad Yassaviy shogirdi Sulaymon Boqirg'oniyni "Yassaviya" ta'limotini, ya'ni tariqatini "shimoldagi cheksiz hududlarni egallab yotgan sahroyi turkiy qabilalari orasida islomni yanada keng yoyish" va tarqatish uchun jo'natadi. Boqirg'oni esa ustoz topshirig'ini a'lo darajada bajarib, 1186-yil o'zga yurtlarda bu foni dunyodan ko'z yumadi. Olim Boqirg'on taxallusi haqida ham to'xtalib shunday deydi: "Hakim ota Sulaymonga berilgan "Boqirg'oni" degan taxallusning sababi shuki, Boqirg'oni manzilga yetib kelganda tayoq bilan tuyani urgan, oq tuya (teva) shunda baqirgan. Hakim otaning taxallusi ham shu voqeadan kelib chiqqan... Bizning nazarimizda, "Boqirg'on" shahriga nom bobomiz Hakim ota Sulaymon Turkiston (Yassi) ning Qarnog'idan, Xorazm yurtiga borib yashagan paytlaridan keyin berilgan". Bugungi kunga qadar, izlanishlar olib borayotgan barcha olimlarimiz va shu soha mutaxassisleri Sulaymon Boqirg'oniyni Xorazm yurtining "Oqqo'rg'on" qishlog'ida tug'ilgan deb hisoblab kelishgan. Ba'zi birlar esa, tug'ilgan

³ Sulaymon Boqirg'oni Boqirg'on kitobi (Nashrga tayyorlovchilar: I. Haqulov, S. Rafiddinovlar). – Toshkent, 1991-yil.

joyi va sanasi ma'lum emas, deyishadi. Darhaqiqat, bir qator shajaralar va nasabnomalarni ko'zdan kechirganimizda, Boqirg'oniyniing ajdodlari islomning ilk xalifasi Abubakr Siddiq roziyallohu anhuga borib taqalishini tasdiqlaydi va ularda tug'ilgan joyi haqida shunday xabar beradi: "Sabronda (Turkistonda) Adog' yerinda Cho'rloq arig'i boshindagi chashma bo'yida (ya'ni Qarnoqda) Sulaymon tug'ildi", deyiladi.

Ammo Boqirg'oniyni bugungi Qoraqalpog' Respublikasidagi Qo'ng'iro't shahrida tug'ilganligini da'vo qiluvchi olimlardan Umrboy Embergenov va Jabborbergan Shomurodovlar **"Sulaymon Boqirg'oni"** (Hakim ota) kitoblarida yozishlaricha, Boqirg'oniyniing tug'ilgan yili noma'lum. Vafot sanasi ilmiy adabiyotlarda ikki xil ko'rsatib kelingan. Birinchisi, 1186-yil, ikkinchisi, 1192-yil. Lekin mualliflarning e'tiroficha, Boqirg'oni 1129-yil tug'ilib, 1192-yil 63 yoshida vafot etgan. Shuningdek, mualliflar Boqirg'oni hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Qo'ng'iro't shahrida, tug'ilgan deb bir qator dalillar keltirib o'tishgan.⁴ Mazkur mualliflar shajara, nasabnomalarga sof ilmiy asar sifatida qarashmagan. Ularning ta'kidlariga ko'ra, kitobga Hakim otaning ba'zi shajara-nasabnomalarini ham kiritishgan. Mualliflar "Shajara yuz foiz tarix emas, yuz foiz afsona ham emas", deb shajarlarda keltirilgan Boqirg'oniyniing tug'ilgan joyi haqidagi ma'lumotlarga yetarli e'tibor berishmagan. Lekin kelajakda bu shajara-nasabnomalarning ilmiy muomalaga doxil qilinishidan va Boqirg'oni avlodlarining hayotiga doir mavhumliklarga oydinlik kiritilishidan umid qilib qolganlar. Turk olimi A. Go'zal Hakim otaning

bir hikmatidagi ishoradan kelib chiqib, uning 594 /1137-38-yilda tug'ilgani va 95 yil umr ko'rib, 1232-yilda vafot etgani haqida yozadi va bu sananing (G'ulom Sarvar Lohuriyning) "Xazinat ul-asfiyo" tazkirasidagi sana bilan barobar ekanini eslatib o'tadi.

Hasanxoja Nisoriyning **"Muzakkiri ahhob"** tazkirasida Hakim otaning silsilasi qayd etib o'tilgan. Asardagi Abulxayrxon avlodi (shayboniylar) sulolasidan bo'lgan Jonibek sultonning o'g'li Rustam sulton haqida so'z borganda, uning qaysi silsila shayxlaridan ma'naviy ozuqa olgani haqida shunday deyiladi: "Rustam sulton Shayx Xudoydodning o'rinbosari bo'lmish Xoja Mulloyi Nuriyga ham inobat ko'zi bilan boqqan. Ulardan keyin hazrat Mavlono Vali Kuhzariyga inobat qilganlar. Vali Kuhzariy esa hazrat Shayx Xudoydodning muridlaridir. Shayx Xudoydod Shayx Jamoliddinning muridi, alar esa hazrati Shayx Xodimning muridi, alar bo'lsa hazrati Shayx Mavdudga murid bo'lganlar, alar hazrati shayx Alishayx muridi, alar hazrat Elamon Otoning muridi, alar hazrat Sadr otoning muridi va alar hazrat Zangi otaning muridi, alar hazrat Hakim Otoning muridi, alar hazrat Xoja Ahmad Yassaviyning muridi, alar hazrat Xojagon (ruhlarini Olloh taolo muqaddas qilsin) silsilai zahabiga bog'lovchi Jahriya silsilasining yig'ilishgohi hazrat Xoja Yusuf Hamadoniyniing muridi bo'lganlar".

Xulosa qilib aytganda, Sulaymon Boqirg'oni ijodining o'rganilishi bugun ham davom etmoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uning hikmatlarini yangi manbashunoslik yondashuvlari, filologik tahlillar va tasavvufiy-falsafiy izohlar asosida qayta yoritmoqda. Shoirning badiiy merosi esa bugungi avlodni ham ruhiy poklik, ezigulik va ma'naviy yuksalishga undovchi bebaho manba bo'lib qolmoqda.

⁴ Sulaymon Boqirg'oni Boqirg'on kitobi (Nashrga tayyorlovchilar: I. Haqqulov, S.Rafiddinovlar). – Toshkent, 1991-yil.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to'plami. – Toshkent: "Fan", 2001-yil.
2. Ahmad Yassaviy Sulaymon Boqirg'oni HIKMATLAR (Nashrga tayyorlovchi Ergash Ochilov) – Toshkent: "O'zbekiston", 2013.
3. Faxriddin Ali Safiy. Rashaxot (Nashrga tayyorlovchilar M.Xasaniy, B.Umurzoq). – Toshkent, 2003.
4. Sulaymon Boqirg'oni Boqirg'on kitobi (Nashrga tayyorlovchilar: I. Haqqulov, S.Rafiddinovlar). – Toshkent, 1991-yil.

BERUNIY ASARLARIDA BADIY IFODA SHAKLLARINING ADABIY MEROSDAGI O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asarida keltirilgan hindlarning adabiy-estetik qarashlari tahlil qilinadi. Hindlarning ilm va badiyatni uyg'unlashtirgan holda tasvirlash an'analari ochib beriladi. Beruniy hindlarning ilmiy qarashlarini nafaqat ilmiy, balki adabiy manbalar orqali ham talqin etib, ularning estetik tafakkurini haqqoniy tarzda yoritgan.

Kalit so'zlar: *Beruniy, she'r, ilm va adabiyot uyg'unligi, shlokalar, badiiy-estetik tafakkur, she'riy parchalar, she'riy turkum.*

Аннотация: в данной статье работе анализируются литературно-эстетические взгляды индийцев, изложенные в труде Абу Райхона Беруни «Индия». В произведении раскрываются традиции индийцев, основанные на гармоничном сочетании науки и художественного слова. Беруни интерпретирует их научные взгляды не только через научные источники, но и посредством литературных текстов, правдиво отражая эстетическое мышление индийцев. С этой точки зрения рассматриваются поэтические фрагменты, которые демонстрируют художественно-эстетические особенности индийской мысли.

Ключевые слова: *Беруни, стих, единство науки и литературы, шлоки, художественно-эстетическое мышление, поэтические отрывки, поэтический цикл.*

Annotation: this in the article analyzes the literary and aesthetic views of the Indians presented in Abu Rayhan al-Biruni's “India”. It reveals the traditions of depicting the integration of science and literature in Indian thought. Al-Biruni interprets the scientific views of the Indians not only through scientific but also literary sources, thereby authentically highlighting their aesthetic thinking.

Key words: *Biruni, poetry, harmony of science and literature, shlokas, artistic and aesthetic thinking, poetic excerpts, poetic cycle.*

Sharq ilmiy va adabiy merosida ilm ahlining she'riyatga murojaati keng tarqalgan. Abu Rayhon Beruniy ham o'z davrining adabiy an'alaridan chetda qolmagan. Uning ayrim asarlarida she'riy parchalar uchraydi. Olim ilmiy g'oyalarini ba'zan she'riy ifodada bayon qilgan, bu esa asarlarning nafaqat mazmuniy, balki badiiy qimmatini ham oshirgan. Beruniy ilmiy merosini o'rganish davomida “Hindiston” nomli 2-to'plamida ana shunday she'riyatga aloqador ilmiy izlanishlarni ko'rish mumkin. Ushbu asarni Beruniy “Kitab taxrir ma li-l-Hind min makula makbula fi-l' aql au marzula” deb nomlagan. Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan qarashlarini anglatish kitobi. Nemis sharqshunosi E.Zaxau 1887-yil Londonda bu asarning arabcha matnini, 1888-yil inglizcha tarjimasini nashr etgan.¹

¹ Alberuni's India. An Account etc. An English edition, with notes and indices by E.Sachau, London, 1888

Sharqshunos olim V.R.Rozen esa bu asar haqida shunday deydi: “Bu-o'z hassosligi bilan yagona yodgorlik bo'lib, na Sharqning va na G'arbning butun qadimgi hamda o'rta asrlar adabiyotida tengi yo'qdir”.²

Haqiqatdan ham Beruniy bu asarda hindlarning madaniyatini, dinlarini, ularning turli urf-odatlarini va tarixini chuqur yoritib berishga harakat qilgan. Ularning tarixiga oid turli rivoyatlar keltirib o'tgan.

Asar 80 bobdan iborat bo'lib, uning XIII bobi hindlarning grammatika va she'riyat haqidagi kitoblari bayoniga bag'ishlanadi. “Hindiston” o'z davrida noyob manba bo'lib, hind xalqi madaniyatini chet ellik olim ko'zidan ilmiy tarzda ko'rsatib bergan yagona asar sifatida qadrlanadi. U nafaqat Sharqda, balki Yevropa olimlari orasida ham katta qiziqish uyg'otgan.

² “Хиндистон”нинг нашр этилган арабча матнига тақриздан; ЗВО, 1888, III. -147-6.

Beruniy bu asar orqali xalqlar madaniyatini o'rganishda taqqoslash, xolislik va ilmiy kuzatuv usullarini qo'llagan. Shu bois "Hindiston" bugungi kunda ham etnografiya, tarix va adabiyotshunoslik uchun bebaho manba bo'lib qolmoqda. Bu ikki fan tarmog'i boshqa ilmlarni o'rganishga vosita bo'ladi. Hindlar bu ikki fandan *Viyakarana* deb ataladigan til ilmini ilgari qo'yadilar. *Viyakarana* – ular so'zlarini tuzatadigan Grammatik qoidalar, xat yozishda balog'atli, nutq so'zlashda fasohatli va yetuk usta darajasiga yetaklaydigan ilmlardan iborat.

Chandas aruz ilmiga muqobil turadigan she'r vaznlaridan iboratdir. Hindlar chandasga juda muhtojlar deydi Beruniy. Chunki ularning kitoblari nazm bilan tuzilgan. Yodlashni osonlashtirish, zarurat bo'lmasa turli ilmlarda kitobga murojaat qilavermaslik uchun kitoblarini nazm bilan tuzishni maqsad qilib olganlar. Hindlarning ko'plari ma'nosini bilmasa ham manzum asarlarni berilib, barmoqlarini shaqillatib shodlanib o'qiydilar. O'rganish oson bo'lsa ham, sochma (nasriy) asarlarni rag'bat qilmaydilar.

She'r vazni san'atini dastlab Pingala (she'r vazni – metrikani) va Chalitu yuzaga chiqargan. Bu haqida eng mashhuri "Gaysita" bo'lib kitob tuzuvchining nomi bilan atalib, shu bilan o'lchanadi. Hindlarning vaznlar hisobi haqida tuzilgan maqolalarining ko'p qismini mutolaa qilolmadim. O'lcham qoidalarini aniqlab biladigan darajada emas deydi Beruniy. Kitoblari ko'proq shlokalardan iborat. Shloka-Sanskrit tilidagi katta she'riy band bo'lib, 4 ta yarim satrdan (pada) tashkil topadi. Har bir yarim satrda taxminan 8 ta bo'g'in (mora) bo'ladi. An'anaviy metrik she'riy shaklga asoslangan. (anushtubh) Beruniy shu shlokalari tufayli risola yozishda qiynalganini aytgan. Hindlar sochma asarga nafrat bilan qaraydi deydi.

Bo'g'inlarni sanashda sukunli (harakatsiz) va harakatli harflarni Halil ibn Ahmad va aruzchilarimiz tasvirlaganidek tasvirlaydilar. Hindlarning fikriga ko'ra turoq harflari 4 tadan kam bo'lmasligi kerak. Ko'pi bilan 26 ta va vritta soni 3 ta bo'ladi. Chunki "Veda" kitobida turoq shunday berilgan.

Yunonlarning kitoblaridan tushunilishicha, she'r turoqlarida hindlarning yo'nalishiga amal

qilganlar. Chunki Galen o'zining "Qatajanus" kitobida bunday deydi: "Menekrat yuzaga chiqargan turli so'laklari bilan tayyorlangan dorisini Demokrat vaznga tushirilgan uch turoqli she'r bilan tavsif qilgan".

Yetti qaroqchi yulduzlari to'g'risida — "Hindiston" kitobining qirq beshinchi bobi shunday nomlangan. Beruniy bu bobda yetti qaroqchi yulduzlari turkumining o'rni, qarakatlari nomlari to'g'risida mufassal so'zlaydi. Boshlanish qismida esa bu turkum to'g'risidagi quyidagi afsonani hikoya qiladi: Yetti qaroqchi yulduzlari hindlar tilida Saptarasha deb atalgan. Buning ma'nosi yetti risha demakdir. Ular go'yo yetti zo'hd bo'lishgan, halol mehnat bilan tirikchilik o'tkazishgan. Ularning o'rtasida As-Suho degan soliha ayol yashagan. Ularning ovqatlari hovuzlardagi nilufar tanalaridan iborat edi. Din paydo bo'lgach, ulardan uni berkitdi. Har birlari bir-birlaridan uyalib, diniy qasamlar bilan ont ichdilar. Bu ishlari dinga ma'qul bo'lganidan, din ularni e'zozlab, hammalarini osmondagi hozirgi o'rinlarga ko'tardi. Beruniy bu hikoyadan so'ng hindlarning kitoblari qofiyali she'rlar bilan tartib qilinganini eslatadi. Hindlarning turli ta'riflarini she'r bilan amalga oshirishni yoqtirganlarini ta'kidlaydi. Shundan so'ng yetti qaroqchini sifatlovchi quyidagi she'rni keltiradi:

Shimol tomon bu yulduzlar bilan ziynatlangan,
U marvarid terilgan shodan va oq nilufarga bog'langan,

Marjonlarni (bo'yniga) taqqan go'zal Raqqosa qizning aylanib o'ynab turishidek Qutb atrofida aylanib turadi.

Beruniy "yetti qaroqchi" deb ataluvchi ushbu she'riy turkum orqali madaniy mifologik ramzlarni ifodalashga harakat qilgan. Yetti qaroqchini yetti buyuk donishmand timsolida tasavvur qiladi. Ular osmon yulduzlari bilan bog'liq bo'lib, muqaddas bilim va adolat ramzidir. She'r hindlarning tasviriy uslubini ko'rsatadi. Marvarid-yulduz, nilufar-omon jilosi metafora va tashbeh bo'lib keladi. Bundan tashqari hindlarning adabiy uslubida kosmologik timsollash usullarini ko'rish mumkin. Masalan, osmon jismlarini odam, hayvon, buyum yoki afsonaviy qahramon sifatida ularning she'riyatida yetakchilik qiladi.

Beruniy ilmiy asarlarida ko'plab she'riy parchalarni keltirish orqali o'z fikrlarini yanada jonliroq va ta'sirchanroq ifodalaydi. Bu usul o'sha davrning ilmiy-adabiy muhitida keng tarqalgan bo'lsa-da, Beruniy uni o'ziga xos uslub darajasiga ko'targan.

Birinchidan, u she'riy iqtiboslarni ilmiy fikrni kuchaytirish uchun ishlatadi. Masalan, falsafiy qarashlarni izohlar ekan, mashhur shoirlardan keltirilgan baytlar ilmiy dalilni yanada mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, she'riy parchalar ilmiy matnga badiiylilik baxsh etadi. Shu orqali quruq nazariy fikrlar estetik tus oladi, o'quvchi ilmiy ma'lumotni qiziqish bilan o'qiydi.

Uchinchidan, Beruniy o'z davrida keng tarqalgan adabiy an'analarni davom ettiradi. "Hindiston" asarida hindlarning shlokalarini, "Geodeziya" va "Qonuni Mas'udiy"da esa arab va fors shoirlari baytlarini keltirishi bunga yorqin misoldir.

Demak, Beruniyning ilmiy asarlarida she'riy parchalar nafaqat bezak vazifasini bajaradi, balki uning ilm va adabiyot o'rtasidagi uyg'unlikka intilganini ham ko'rsatadi. Bu jihat olimning ilmiy merosini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham qimmatli qiladi. Manbaga murojaat vositasi sifatida Beruniy ko'p hollarda she'riy parchani shunchaki badiiy bezak uchun emas, balki dalil sifatida keltiradi. Masalan, hindlarning diniy va falsafiy qarashlarini izohlar ekan, ularning

muqaddas matnlaridan she'riy shakldagi shlokalarni keltiradi. Bu o'quvchiga manbaning asl ruhini his qilish imkonini beradi. She'riy parchalar orqali u ba'zan tarbiyaviy xulosalar beradi. Masalan, insonning o'zini tarbiyalashi, ilmning ahamiyati yoki hayotning o'tkinchiligi haqida bayt keltirish orqali ilmiy izoh axloqiy nasihat bilan uyg'unlashadi.

Beruniy ilmiy bilimlarini adabiyot va mifologiya bilan uyg'un holda shakllanganligini ko'rsatib bera olgan. Bunga o'xshash namunalarda hindlarning adabiy-estetik tafakkurini hamda ilm va she'riyat birligidagi yondashuvini ochib beradi. Beruniy "Hindiston" asarida hindlarning ilmiy qarashlari bilan birga ularning adabiy-estetik an'analarni ham yoritadi. Yulduzlar va osmon hodisalari she'riy timsollar orqali tasvirlanib, ilm bilan badiiy obraz uyg'unlashganini ko'ramiz. Bu holat hindlarning bilim olish jarayonida nafaqat ilmiy tafakkur, balki badiiy tafakkurida ham muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Beruniy esa buni kuzatuvchi olim sifatida haqqoniy tarzda qayd etadi. U shlokalalar, mifologik obrazlar va adabiy timsollar orqali hindlarning estetik tafakkurini ilmiy asosda yoritadi. Shu jihatdan "Hindiston" asari nafaqat tarixiy-etnografik, balki adabiy manba sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Beruniy ilmiy merosining badiiylilik bilan boyiganligi uni Sharq uyg'unish davrining nafaqat buyuk olimi, balki adabiyotshunoslik taraqqiyotiga ham hissa qo'shgan mutafakkir sifatida ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qayumov A. Beruniy va adabiyot/Asarlar. 9-jild. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2014.
2. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. – Toshkent: "O'zbekiston", 2022. Karimov N.
3. Beruniy. Hindiston. – T.: Fan, 1965.
4. Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T.: O'zbekiston, 2020.
5. A.Qayumov. Beruniy va adabiyot. – T., 1974.
6. Alberuni's India. An Account etc. An English edition, with notes and indices by E.Sachau, London, 1888
7. "Хиндистон"нинг нашр этилган арабча матнига тақриздан; ЗВО, 1888, III.

Malika SUYUNOVA,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti

“ZAHARLI HAYOT YOXUD ISHQ QURBONLARI” HAQIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning o'zbek dramaturgiyasida tutgan o'rni, xususan, uning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” dramasi haqida ba'zi tahliliy fikrlar beriladi.

Kalit so'zlar: *dramaturgiya, drama, tragediya, komediya, jadidchilik harakati, “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”*

Annotation: this article provides some analytical thoughts about Hamza Hakimzoda Niyoziy's role in Uzbek dramaturgy, particularly his drama “Poisonous Life or Victims of Love.”

Key words: *dramaturgy, drama, tragedy, comedy, Jadid movement*

Аннотация: в данной статье приводятся некоторые аналитические размышления о роли Хамзы Хакимзаде Ниязи в узбекской драматургии, в частности, о его драме «Ядовитая жизнь или жертвы любви.»

Ключевые слова: *драматургия, драма, трагедия, комедия, движение джадидов*

Ko'p yillik tarixga ega bo'lgan adabiyotimiz o'zining o'chmas siymolariga egadir. Bu siymolar o'z ma'naviy olamining kengligi bilan birgalikda millatning haqiqiy himoyachisi, jonkuyari bo'lib, adabiyot va tarix zarvaraqlaridan o'rin olgan, o'zbek xalqining turli davrlardagi turli qahramonlari sifatida iz qoldirgan. Shunday bir davr borki, u davr millatparvarlarining aksariyatini yurtning haqiqiy qahramonlari deyishimiz mumkin. Ulardan biri Hamza Hakimzoda Niyoziydir. Mustaqillik davrigacha Hamzachalik ko'p o'rganilgan va turlicha talqin qilingan ijodkorlar sanoqlidir, uning ijodiga oid qarashlar adabiyotning siyosiy tuzumga qaramligi oqibatida o'zgarib turdi. XX asr boshida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy voqealar Hamza hayotiga, uning ijodkor sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgani biz uchun yangilik emas. Hamza o'z asarlari orqali millatni jaholat, istibdod, ilmsizlik tufayli xorlikka, yo'qsillikka yuz tutishdan ogohlantiradi. Buning asosiy malhami esa faqatgina ilm-u ma'rifatda ekanligini ta'kidlaydi, shuning uchun ijodining asosiy qismi millatni uyg'otuvchi hayqiriqlarga to'la she'riy asarlardan iborat. Shuningdek, bu yo'lda sahna asarlarini ham asosiy vosita deb bilgan dramaturg ijodida bir qancha pyesalar borki, ulardagi obrazlar tilidan xalqqa murojaat qilinib, uyg'oqlikka, ma'rifatga chorlangan:

*Tashlab Nihon ko'ngilda bo'lgan illatni,
 Kinu bug'zu adovat, fisqu g'iybatni,
 Sunniy, shiiy so'zlarni barbodlashaylik,
 Millat yo'lin ko'plashub obodlashaylik.
 Ufatlashub, yozlashub ham qishlashaylik,
 Teatr yasab, konsertlar, olqishlashaylik.*

Ma'lumki, har bir umumbashar mavzusini ko'tarib chiqqan dramatik asarlar markazida insonlarning o'ziga xos individual xususiyatlari ulkan voqealar zaminida ochib beriladi. O'zbek dramalarining tub o'zagi ham ana shu konsepsiya asosida uzviy bog'lanish aks etadi. Drama janri o'z davri muammolariga juda hozirjavob janrlardan. Dramaning o'ziga xos xususiyati shundaki, davr muammolari bilan bir qatorda shu davr insonlarini qiynayotgan muammolar ham olib chiqiladi.

Bugungi kungacha bo'lgan dramaturglar orasida Hamzachalik so'zga mohir bo'lish bilan birgalikda, davr ruhini ham asarlariga singdira olgan ijodkorni uchratishimiz qiyin. “Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zbek dramaturgiyasining asoschilaridan biri bo'lish bilan birgalikda, birinchi o'zbek kompozitori, o'zbek sahnasining birinchi rejissori va aktyori hamdir”¹. U boshlab bergan dramaturgiya, musiqa va teatr san'ati yuksak badiiy va g'oyaviyligi bilan o'zbek teatri va dramaturgiyasi taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Ijodkor teatrning katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini juda yaxshi bilgani holda, teatrni kishilarning ko'ngil ochadigan joyi deb emas, balki jamiyatdagi ilg'or g'oyalarni tarqatuvchi, tomoshabinga estetik tarbiya beruvchi maskan sifatida qarar edi. Shuning uchun o'z sahna asarlarida jamiyatning og'riqli nuqtalarini olib chiqqa boshladi. Jumladan, uning «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» dramasi ham bevosita jadid ma'rifatparvarligi ruhida yozilgan bo'lib, dramada jaholat, qoloqlik, mutaassiblik ilm-ma'rifat, taraqqiyot fidoyilari Mahmudxon va Maryamxonlarni fojiga olib keladi. Ushbu 4 pardali tragediya 1915-yilda yozilib, 1916-yilda Toshkentda «Matbaayi G'ulomiya»da mashhur ma'rifatchilardan, Hamzaning yaqin do'sti, savdogar boy Saidnosir Mirjalolov (1884-1938) noshirligida bosmadan chiqqan. Muallif asarning janrini «Turkiston maishatidan qiz va kuyov fojiasi» deb belgilaydi². Asarning bosh qahramonlari Maryamxon va Mahmudxonlar — zamonasining ilg'or ziyolilari. Ular millat farzandlarini ilm-ma'rifatli qilishdek ulug' orzular og'ushida, katta maqsadlar bilan yashaydilar, ularning sevgisi ham nihoyatda pokiza va samimiy. Dramaturg asarda ayniqsa Maryam obraziga alohida e'tibor qaratadi, uning butun qarashlari Mahmud obrazidan ko'ra Maryam

1 Рахмонов М. Хамза Хакимзода Ниёзий ва ўзбек театри. – Тошкент, 1959.

2 Долимов У. Хамза Хакимзода Ниёзий. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Ма’навият, 2004

qiyofasida namoyon bo'ladi³. Dramturg odatda asar bosh qahramonini birdan sahnaga olib chiqmaydi. Avvalo, bosh qahramon ruhiyatini, xarakterini ro'yobga chiqaruvchi muhitni, qahramonlar va vaziyatni tasvirlaydi. Bu orqali esa tomoshabin eng avvalo, ijtimoiy muhit haqida ma'lumotga ega bo'ladi. "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" dramasi birinchi pardasi Mahmudxon hujrasining ta'rif bilan boshlanadi, – "Mahmudxon hujrasi, ovrupocha ziynatlangan bir hujra bo'lib, bir tarafda – ishkof ichida kitoblar, xaritalar, ramkada kartinalar. Bir tarafda – temir karovot, bir tarafda – bir dona stol, uch-to'rt dona taburatka, bir devoriy soat shaklida parda ochilur"⁴. Asarga kirshdan boshlab bosh qahramonning ziyoli shaxs ekanligi, "ovrupocha ziynatlangan" xona tasvirida esa davr ruhiyati haqida xabar beriladi. Sekinlik bilan Yevropaga yuzlanayotgan ziyolilar hayoti, xonaning ziynatlanishi, balki unda joylashgan har bir mebel, ashyo ijodkorning e'tibori qaratilgan narsani asar boshidan sezdiradi. Kitoblar har bir ziyoli musulmon xonadonida kuzatilishi mumkin bo'lgan narsa, ammo mutaassiblik avj olgan o'sha davrda kartinalarning uylarga osilishi kamdan-kam kuzatiladigan holatdir. Xarita esa rivojlanayotgan yurtlardan oladigan narsalari borligiga xalqqa ishoratdek. Hamza asar matnida hayotiy konfliktlar va dramatik vaziyatlar talqinini sahna variantiga juda yaqinlashtiradi. Biz ko'rib o'tayotgan monolog va dialoglar, izohlar, remarkalar, holatlar va xarakterlar tasviri teatr sahnasida namoyish qilinayotgandek taassurot qoldiradi. Aytish mumkinki, Maryamxon va Mahmudxonni bog'lab turgan narsa muhabbatning o'zigina emas, jamiyat, millat oldidagi mas'uliyat hamdir.

Maryamxonning ilmiy ayol bo'lib shakllanishida Mahmudxon vosita shaxs sifatida xizmat qilgandek tasavvur uyg'otadi. Bu Maryamxonning quyidagi monologi orqali yanada aniqroq ko'zga tashlanadi. "...man faqira eski maktabdagina tahsil etdim. Lekin har bir milliyat va insoniyat hayot masalalarin bori sizning marhamatingiz va ma'naviy bir yordamingizgina orqali tanudim.

G'azeta kabi hayoti milliya ochqichlarida sizning harakatingiz orqali banim qo'limga tushdi⁵".

3 Долимов У. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Ма'навият, 2004

4 "Захарли ҳаёт ёхуд ишқ қурбонлари". Ниёзий Ҳ.Ҳ. Тўла асарлар тўплами тўртинчи том. – Тошкент: Фан, 1989.

5 "Захарли ҳаёт ёхуд ишқ қурбонлари". Ниёзий Ҳ.Ҳ. Тўла асарлар тўплами тўртинчи том. – Тошкент: Фан, 1989.

Maryamxonning keyingi o'rinlar yetakchi obrazga aylanib Mahmudxonni vatanparvarlikka chorlashi namoyon bo'la boradi. " ... afandim, emdi tezdan ijti'od etingizki, ikkovimiz qo'limizni tugushib, zulmatda qolmish bu millatni, siz quyoshi bo'lganda, man mohi toboni bo'lub, qorong'u vatanni yorutaylik; sizda erlarimizning holidan, ban mazluma oilalarimizning holidan g'azetalarga yozushib, bir-birlarimizni ogohlashtiraylik. Garchi siz tijoratda bo'lsangiz-da, chin maqsadingiz bo'lgan qizlar maktabi ochaylik, ban ma'naviy, siz moddiy xizmatda bo'ling, qadrsiz xamshiralimizning kasod o'lmish bozorlarini ilmi naqdiy bila ko'tarishaylik. ...Man garchi zohiran bir kosib qizi, ammo sizning yordamingiz ila millat qizi o'lub, ma'nan ma'rifat va milliy xizmat bilagina man zohir faqirligim iltifotga olunmaganda, islomiyat, insoniyat, milliyat, uzasindan harakatda o'lmog'ingiz bir marjiydir"

Hamza Hakimzoda Niyoziyning faoliyatidagi bu obrazlar orqali ijtimoiy-siyosiy tanqid, estetik yangilanish va milliy uyg'onish ifodasi, islohot vositasi sifatida dramaturgiyaning zamonaviy shakllari yuzaga keldi. Garchi, bu asarlar ko'pincha mafkuraviy to'siqlarga duch kelgan bo'lsa-da, ular xalq ongini uyg'otishda muhim rol o'ynadi. Hamza milliy kontekst – jadidchilik harakati, islom dini mutaassibliyi va xalqning ma'rifatga intilishi davrida qalam tebratgan. Uning ko'pchilik dramalari markazida konkret ijtimoiy-madaniy muammolar, xususan, u yaratgan obrazlar orqali diniy va feodal konservatorlik mutaassiblarining yuzi oshkora ochiladi. «Shariat zolim emas, xoin emas... Shariat har kimni baxtiyor qilgan. Shariatda hurriyat bor, musovot bor, adolat bor. Shariatda jabr — harom». Maryamxonning bu hayqirig'i o'quvchini bir siltalab yuborganday bo'ladi. Asarning ikki yosh qahramoni Maryam va Mahmud zamonasining hal qiluvchi kuchlari mutaassiblarga (asar yozilgan davrda ular hal qiluvchi kuch edi) qarshi kurashadilar. Tomonlar o'rtasidagi kurash eng yuqori nuqtaga ko'tarilib, ularning istiqbol haqidagi yuksak orzulari chilparchin bo'ladi. Natijada, illosiz qolgan yoshlar mavjud tuzumga, feodal tartiblarga, jaholatga, mutaassiblarga qarshi isyon sifatida o'z hayotlariga qasd qiladilar. Bu esa jismonan o'lim sifatida achinish tuyg'usini uyg'otish bilan birga, ularning ma'naviy g'alabasi sifatida namoyon bo'ladi. Hamza Hakimzoda Niyoziy bu dramasi orqali aholining qalbida mavjud bo'lgan jaholat, diniy mutaassiblik, adolatsizlik va bid'atlarga qarshi jiddiy tanqidni yoritgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Долимов У. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: "Ма'навият", 2004
2. Раҳмонов М. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий ва ўзбек театри. – Тошкент, 1959
3. "Захарли ҳаёт ёхуд ишқ қурбонлари". Ниёзий Ҳ.Ҳ. Тўла асарлар тўплами тўртинчи том. – Тошкент: Фан, 1989.

Navruzgul TURDIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
o'zbek adabiyoti yo'nalishi tayanch doktoranti.
turdiyevanavruzgul@gmail.com



LUQMON BO'RIXON HIKOYALARIDAGI INDIVIDUAL OBRAZLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada yozuvchi Luqmon Bo'rixonning hikoyalaridagi obrazlardagi o'ziga xosliklar va xususiyliklar aniqlandi. Hikoyadagi obrazlarning poetik jihatdan mukammalligi tekshirildi. Hikoyaning mavzusi va g'oyasi, individual obrazlarning asosiy xarakteriga mosligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: *individual obraz, mavzu, detal, estetik ideal, xarakter.*

Аннотация: в статье выявляются специфика и особенности образов в рассказах писателя Лукмона Борихона. Проверяется поэтическое совершенство образов в рассказе. Определяются тема и идея рассказа, соответствие главного героя отдельным образам.

Ключевые слова: индивидуальный образ, тема, деталь, эстетический идеал, персонаж.

Annotation: this article identifies the unique features and characteristics of the characters in the stories of the writer Luqman Borikhon. The poetic perfection of the characters in the story is examined. The theme and idea of the story, the correspondence of individual characters to the main character are determined.

Key words: *individual character, theme, detail, aesthetic ideal, character*

Kirish. Luqmon Bo'rixon hikoyalarida inson qanday bo'lsa, o'shanday badiiy tasvirda ifodalanganini ko'ramiz. Individual obrazlarida bu yaqqol o'z aksini ko'rsatgan. "Badiiy obraz – bu inson ongidagi alohida hayotiy hodisaning aksigina emas, balki ijodkor tomonidan aks ettirilgan va u yoki bu moddiy vositalar va belgilar yordamida yangidan yaratilgan hodisani qaytadan aks ettirishdir" [1:2]. Badiiy obrazning muhim xususiyati xususiylikdir. Bu haqida rus olimi S. Petrov ham quyidagicha g'oyani ifodalaydi: "Har qanday badiiy obraz, bu inson, jonzot, predmet, tabiiy hodisa yoki shunga o'xshash narsalar bo'lishidan qat'i nazar, ko'z oldimizda yagona qiyofada gavdalanadi" [2:122]. Yozuvchi ham obrazni o'z o'ylarida ma'lum qiyofaga keltirib, o'zining badiiy-estetik qarashlari bilan sug'orib, uni o'z ijodida namoyon qiladi. Obrazda ham badiiy to'qima ahamiyatli hisoblanadi. Nazariya kitoblarida olimlar obrazning umumlashtirish darajasiga ko'ra turlarga ajratganligini ko'ramiz. "Umumlashtirish darajasiga

ko'ra ham badiiy obrazning qator ko'rinishlari – individual obraz, xarakter, tipik obraz kabilar ajratiladi. Individual obraz deyilganda o'zigagina xos bo'lgan fe'l-atvori, gap-so'zlari, betakror xarakter xususiyatlari bilan namoyon bo'luvchi, obrazlar tushuniladi" [3]. Obrazning individual qirrasini deyarli barcha asarlarda uchratish mumkin. Individuallik insonga xos xususiyat bo'lgani holda buni obrazda ham ko'ramiz.

Asosiy qism. "Qorxat" hikoyasining qahramoni ham beg'ubor qalb egasi, o'z xayollari bilan yashaydigan obrazdir. Zarifda baxtli bolalik xotiralari bor. U hozir ishga qunishib kelib, qunishib ketishidan hayot tashvishlariga berilib ketgan odamlar toifasiga kirib qolgan. Ammo unda beg'uborlik, samimiylik saqlanib qolgan. Uni baxtli bolalik xotiralari-yu, quvnoq yuragini birgina qor uchqunlari uyg'otib yubordi. Yaxshilik qilishga talpinadigan, qalbi pok odamlar yoshligini qo'msab turishadi. Bolalikda beg'ubor kunlar ko'p bo'lgani sababidan ham bolalik qo'msab eslanar. Ba'zi insonlar o'zlarining haqiqiy

xarakterlarini har doim hamma joyda ham oshkor qilavermaydi. Vazmin insonning sho'xligini ko'rib qolishsa, unga hazillar qilib gap otishadi. Atrofdagilarga bu holat o'zgacha ko'rinadi. Zarifning ham shodonligi hamxonasi Sayfullani ajablantirdi. Sayfulla Zarifni yo lavozimi oshayotgan, yo ichib olgan deb o'yladi. Og'ir-bosiq yigitning beva ayol Zahroga xat yozishi tabiiyki, barchani shubhalantiradi. Qorxat orqasidan, beva ayolni xursand qilaman deb Zarifning o'zining dili xira tortdi. Atrofimizda bizga xarakteri ochilmagan insonlarning salmog'i ko'p. Biror kishi bilan suhbatlashishda ehtiyotkorlik talab etiladigan bo'lib qoldi. Siz hali kashf qilmagan kimsa, nelarga qodirligini bilmaysiz. Zahro ham jim, ma'yus, tund yurgani bilan ichidan pishgan ayollarning adabiyotdagi obrazidir. U jim yurgani bilan boshliq bilan "yaxshigina" munosabat o'rnatib olgan. Bunday tipdagi ayollarning qandaydir manfaatli istak va xohishlari bo'ladi. Zahro ham anchadan buyon ukasini ishga kiritish payida bo'lganlardan ko'rinadi. Zarifning ishi oqlab bo'lmas vaziyat hisoblanadi. U yaxshi niyat bilan yaxshilik qilib, beva ayolning ko'nglini ko'tarishni istadi, ammo uning tutgan yo'li g'ayrioddiylik sabab o'zini oqlamadi. Bundan tashqari, xatning mazmuni ham ikki xil ma'noni anglatardi. Nozik iltimosingizni bajaraman, deb yaqindan tanish bo'lmagan ayolga xat yozish shubhali tuyulishi turgan gap. Zarifda o'ziga xos xarakter, o'y va o'zini tutish bor. Bunday holatni jamiyat har doim ham to'g'ri qabul qilmaydi, bu normal holat ham hisoblanadi. "Cho'ldan kelgan tashvish" hikoyasidagi Ulash aka obrazi o'zining nafaqat nutqi bilan, o'zgalarda uchramaydigan qalb, mehr-oqibati borligi va sodda, izlanuvchanligi bilan ajralib turadi. She'riyatga muhabbati kuchliligi sabab uni atrofdagilarning gaplari qiziqitirmaydi. Oddiy agronom bo'lishiga qaramasdan adabiyotga ixlosmandligi, kashfiyot qilish haqidagi shirin o'ylari kitobxonning hurmatiga sazovor qiladi. Individual obrazda o'ziga xos xarakter bilan birga, boshqa obrazlardan ajralib turadigan nutq va munosabat shakli ham bo'ladi. Individual obraz murakkab, ko'p qirrali, qarama-qarshi xarakter xususiyatlariga ega bo'lishi mumkin, bu esa o'quvchi uchun asarga qiziqishini yanada orttiradi. Adibning "Sinov muddati" hikoyasi ham o'zining hayotiyiligi, bugungi kunning ba'zi bir yoshlarining qiyofasini chizishi bilan diqqatga sazovordir. Hikoyani o'qigan insonda yaxshi bola va yomon bola haqidagi ertakdagi fikrlar ham xayolda

jonlanadi. Hikoya qahramonlari Sobir va Jasur ismli ikki o'rtoq. Bu ikkalasi o'rtoq bo'lishiga qaramasdan xarakterlari turlicha bo'lgan yigitlardir. Sobir kamgap, kitobni sevadigan, olg'a intiluvchan ammo biroz omaddan yiroq yigit. O'qishga ikki marotaba topshirib kirolmadi, harbiy xizmatga ham sog'ligi sababli bora olmadi. Jasur esa uning aksi sergap, mahmadona, yo ish bil, yo til desa, til bilaman deydiganlardan bo'ladi. O'zining holini o'zi biladigan, omadi ham kelib harbiy xizmatni o'tab kelib, durustgina ishga ham qabul qilinganlardan. Hayotda hamma omadi kelganlar ham o'z o'rniga munosib bo'lganlar emas. Jasur Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining tuman bo'limiga qutqaruv xizmatiga qabul qilinganini rosa maqtanib Sobirga aytib beradi. Har doimgiday gap bo'yicha Jasurdan o'tadigan bo'lmadi. Hayot ham Jasur va Sobirni sinab ko'rdi. Hayotning sinovidan Jasur o'ta olmadi. O'zini g'alvalardan olib qochishga harakat qilib yuradigan Jasurning otasini Sobir qutqarib qoldi. Avariya sodir bo'lganini ko'rgan Jasur Sobirning odamlarni qutqaraylik deya undashlariga qaramay, o'z jonining g'amini yeb qochib qoldi. Avariya bo'lgan mashinada esa Jasurning otasi ham bor edi. Jasurda ham, Sobirda ham o'ziga xos dunyoqarash bor. Jasur faqatgina o'zining manfaatlarini o'ylaydigan yigitning obrazidir. Ismi ham unga adashib qo'yilgan deysiz. Jasurning qanaqa ekanligini do'stlari ham bilishadi. Harbiy xizmatga ketayotganda shu yoqda qo'mondon bo'lib qolib ketaman deb, jar solgan yigitdan hech kim nega qolib ketmading deb so'ramaydi. Bunday holatlar ko'p bo'lib turishidan dalolat beradi. Sobir ismi ham o'ziga mos, hayotning kichik muvaffaqiyatsizliklari uni o'zining haqiqiy insoniy qiyofasiga putur yetkazmagan. Sabr bilan oldinga harakat qilayotgan, vaqtini unumli o'tkazayotgan obrazdir. Avvalo, inson hayotning sinovidan o'tmog'i kerak. Universitetga o'qishga kirish, ishga qabul qilinishlar hayotning sinovlari oldida hech narsa bo'lmay qoladi. "Cho'ldan kelgan tashvish" hikoyasidagi Ulash aka obrazi ham tilining shevalarga boyligi, nutq ohangi, xarakteridagi o'ta soddalik va samimiylik bilan nafaqat hikoyadagi boshqa obrazlardan, yozuvchining obrazlar tizimidagi boshqa obrazlardan ham farq qiladi. O'zi agronom bo'lsa-da, adabiyotga ixlosmandligi, odamlarning uning ustidan kulishlariga parvo qilmasligi, ko'ngli soflidan dalolat beradi. "Qo'lga tushgan qorbobo" hikoyasidagi Sobirning onasini individual obraz deb

olsak bo'ladi. Bu obraz televizorda ko'ringan har bir narsani davlatniki deb nevaralariga aytadi. Hatto hazillashib, o'g'li Sobirni ham mening o'g'lim emas, davlatniki deydi. Nevaralari ham televizorda ko'rgan narsani davlatniki deyishga odatlangan. "Dard" hikoyasidagi O'lmas muallimning ayoli turmush o'rtog'iga munosabati jihatidan ajralib turadi. O'lmas muallim yigirma besh yildan beri maktabda tarix fanidan dars beradi. U doim lotoreyadan katta yutuqli narsa yutib olishni orzu qilgan. O'quvchilarning qiy-chuvlaridan boshi og'riydigan bo'lib qolgan. Yaqinda hamkasbi jismoniy tarbiya o'qituvchisi Ummat lotoreyadan "Jiguli" moshinasini yutib oladi-yu, hamma uni tabriklaydi. O'lmas muallimga hamma boyib ketyotgan-u, o'zi orqada qolib ketyotgandek ko'rinadi. Maktabdagi muhitdan, doimgi hayot tarzidan charchagan. Ummatning lotoreyada mashina yutib olgani unga yomon ta'sir qilib, boshi og'rib uyiga boradi. Ayoli Sanobar farosatli, erini hurmat qiladigan obrazdir. U eri boshi yorilgudek bo'lib kelganda g'amxo'rlik bilan ko'rpaga o'raydi. Isiriq tutatadi. Eri unga qaraganda, erining fe'l-atvori o'ziga ma'lum bo'lgan ayol, irim-sirim deb o'ylamang, isiriq foydali-da, deya mudofaaga o'tadi. Erining kasbi yaxshiligini uqtirmoqchi bo'ladi. Erining cho'lga ketib yashash fikri noo'rinligini bilsa-da, qarshilik qilmaydi. Sanobar obrazi Luqmon Bo'rixon hikoyalaridagi obrazlar tizimida itoatkor ayolligi bilan ajralib turadi. Hikoyada O'lmas muallim o'qitgan Ibodat obrazi ham bor. U doktor bo'lib ishlaydi. O'lmas muallimning isitmasi qirqqa chiqib ketganda uni kasalxonaga olib kelishadi. Ibodat muallimiga g'amxo'rlik qilib, ustozining o'tgan darslarini maqtab, kurortga borishi kerakligini va bu uchun o'zi yordam berishini aytadi. "Qaydasan,

muhabbat" hikoyasining qahramoni Ozod ismli ko'rkam yigit. Muallif uning portretini bekorga keltirmagan. Ozod – juda tantiq, xohlagan qizi bilan hazillashib, tegajog'lik qilib ketaveradigan yigit. Uning do'sti, xonadoshi Qahhor faqat bir qizni Iqlimani sevadi. Tun-u kun faqat Iqlima haqida o'ylaydi. Unga buyuk tuyg'u muhabbat nasib etgan. Qahhor sevgilisining qo'llarini ilohiy deb biladi. Ozodga esa sevgi degan tuyg'u begona. Unga ilohiy tuyg'u nasib etmagan. Hikoyaning so'nggi yumorga boy. Ozod Saodat ismli hamshira qizni sevib qoldim deb rosa o'ylaydi. Uchrashuvda Saodatning Ozodni unutib yuborganini bilgan Ozod o'quvchini hayron qoldiradigan ish qiladi. Saodat uchun yelib-yugurib olib kelgan surmasini otib yuborib, Saodatning yoniga kelayotganda uchrashib qolgan qizi bilan sevishishga qaror qiladi. Kitobxonda esa yengil kulgu paydo bo'ladi. Ozod sen bo'lmasang boshqasi deb muhabbat ko'yida qizlarni almashtirib ketaveradigan, muhabbatni tushunmagan individual obrazdir. Bu obrazi orqali yozuvchi sevgi muqaddas tuyg'u ekanligini o'zining salbiy, yengil kulgu uyg'otish yo'li bilan muhabbat haqidagi estetik ideal aslida boshqacha bo'lishi kerakligi uqtiradi.

Xulosa. Yozuvchining individual obrazlari o'zining nutqi, tashqi ko'rinishi va xarakter xususiyati bilan hikoyalarga husn bag'ishlab turadi. Bu kabi obrazlar o'zining individualligi va hikoyaning mavzusi va g'oyasiga mos tushishi bilan ajralib turadi. Insonning qanday ekanligi uning qilgan yaxshi ishlari bilan o'lchanganidek, asarda yozuvchining mahorati obrazlarga alohidalik badiiyatini bera olganligi bilan ham o'lchanadi. Luqmon Bo'rixonni bu borada o'z maqsadiga erishgan deya olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тюнькин К.И. Учение Белинского о художественности: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва: МГУ, 1956.
2. Петров С.М. Реализм. – Москва: Просвещение, 1964.
3. [https:// azkurs.org](https://azkurs.org)
4. Bo'rixonov L. Begonalar yurmas bu yerda. – Toshkent, 2019.

Ellora ISAQOVA,
ToshDO'TAU 1-kurs tayanch doktoranti
isaqovaellora@gmail.com

AN'ANAVIY SYUJETNING O'ZGACHA TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada turkiy va arab xalqlari orasida mashhur bo'lgan Layli va Majnun sevgisiga bag'ishlangan Nosirxoja valadi Mansurxojaning "Layli va Majnun" dostoni g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlilga tortilgan. Bunda dostonning syujeti, ayrim motivlari, doston tarkibidagi janrlar va ularning dostonidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: doston, yozma adabiyot, vazn, motiv, qissa, syujet, obraz, variant, g'azal, muxammas, murabba', mustahzod

Аннотация: в статье анализируются идейно-художественные аспекты эпической поэмы "Лейли и Меджнун" Насирходжи Валади Мансурходжи, посвящённой любви Лейли и Меджнуна, популярной среди тюркских и арабских народов. В статье даются сведения о сюжете эпоса, некоторых мотивах, жанрах и их значении в эпосе.

Ключевые слова: эпос, письменная литература, стих, мотив, рассказ, сюжет, образ, вариант, газель, мухаммас, мурабба, мустахзод

Annotation: this article analyzes the ideological and artistic aspects of the epic poem "Leyli and Majnun" by Nasirhoja Valadi Mansurhoja, which is dedicated to the love of Leyli and Majnun, which is popular among the Turkic and Arab peoples. It provides information about the plot of the epic, some motifs, genres in the epic and their significance in the epic.

Key words: epic, written literature, verse, motif, story, plot, image, variant, ghazal, muhammas, murabba, mustahzod

Sharq mumtoz adabiyoti taraqqiyotida mashhur ishqiy qissalar alohida o'rin tutadi. Ana shunday yuksak badiiy an'anaga aylangan syujetlardan biri – bu "Layli va Majnun" voqeasidir. Dastlab arab qabilalari orasida og'zaki rivoyat shaklida tarqalgan bu qissa o'zining chuqur ma'naviy mazmuni va universal g'oyaviy mohiyati bilan turli xalqlar adabiyotiga kirib bordi. Asarning asosiy g'oyasi – insoniy muhabbatning beqiyos qudratini ulug'lash, sadoqat va vafodorlik timsolini yaratish, muhabbatni ilohiylik darajasiga ko'tarishdir. Shu bois "Layli va Majnun" syujeti asrlar davomida qayta-qayta yaratilgan va har bir davr adabiy jarayonida yangicha talqin topgan. Bu syujetning eng mashhur adabiy talqinini XII asrda Nizomiy Ganjaviy yaratdi. Keyinchalik Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy singari buyuk shoirlar uni o'z xalqi tili va ruhiga mos holda qayta yozdilar. Ayniqsa, Alisher Navoiyning "Xamsa" tarkibiga kiruvchi "Layli va Majnun" dostoni turkiy adabiyotda mazkur syujetning eng yuksak badiiy namunasi sifatida qadrlanadi.

"Layli va Majnun" syujetining turli davrlarda qayta talqin etilishi uning Sharq adabiy tafakkurida barqaror badiiy arxetip sifatida shakllanganidan dalolat beradi. Har bir ijodkor bu voqeani umumiy syujet asosida qayta yozar ekan, unda o'z davrining ijtimoiy-ma'naviy

muammolarini, estetik qarashlarini va milliy ruhiyatini mujassamlashtirgan. Shu bois mazkur qissa nafaqat ishqiy-romantik syujet sifatida, balki Sharq mumtoz adabiyotining turli bosqichlarini bog'lovchi umumiy badiiy hodisa sifatida ham ahamiyatlidir.

Bugungi kunda "Layli va Majnun" syujeti nafaqat mumtoz adabiyotshunoslikda, balki zamonaviy komparativ tadqiqotlarda ham muhim o'rin egallamoqda. Chunki u turli madaniy muhitlarda qayta ishlab chiqilgan, milliy adabiyotlar o'rtasida mushtaraklik yaratgan hamda Sharq poetikasining boy imkoniyatlarini ochib bergan betakror badiiy merosdir. Bizning tadqiqotimizda ham xorazmlik ijodkor Nosirxoja valadi Mansurxojaning "Layli va Majnun" dostoni tahlil qilinadi.

Nosirxoja valadi Mansurxoja haqida adabiy manbalarda ma'lumot uchramaydi. Lekin uning "Layli va Majnun" dostonining O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi davlat Adabiyot muzeyi qo'lyozmalar xazinasida saqlangan nusxalari 2014-yilda tabdil qilinib kitob holda nashr etilgan. Biz ushbu tabdil asosida dostonning g'oyaviy-badiiy jihatlari haqida fikr yuritamiz. Mazkur namuna xorazm lahjasida, xalq kitoblari ruhida yozilganligi dostonning eng ahamiyatli jihatlardan biri. Boisi unda she'riy parchalar o'zni juda ham beqiyos.

Doston tarkibida ham 15 ta gʻazal, 15 ta murabbaʼ, 16 ta muxammas, 6 ta mustazod, 1 ta musaddas, 1ta munojot va 2 ta masnaviy janridagi sheʼrlar keladi. Dostonning boshlanish qismida Layli va onasi oʻrtasidagi suhbat aytishuv tarzida keladi. Dostondagi sheʼriy parchalar umumiy 1193 misrani tashkil etadi. Maʼlumki, gʻazal, murabbaʼ, muxammas, musaddas, mustazod kabi sheʼrlar bilan boyitilgan dostonlar soʻz va soz birligida ijro etishga moʻljallangan boʻladi. Bu esa Xorazm dostonchiligi taʼsiridir. Nosirxoja valadi Mansurxojaning dostoni ham shu usulda yozilgan. Uning tom maʼnodagi xalqchil shoir boʻlganligi, xalqning dili tubida, tili uchida turgan fikrlarni topib sheʼrga solgani, koʻngilga yaqin, yurakka jiz etib tegadigan, oʻquvchini toʻlqinlantiradigan, tuygʻularini qitiqlaydigan soʻz va iboralar, misralarni topib qoʻllagani, taʼsirchan soʻz, ibora va misralarni radifga chiqarib, asosiy urgʻuni shunga berganida ham yaqqol namoyon boʻladi.

Dostonda uchraydigan 15 gʻazal shoir fikrini isbotlabgina qolmay, dostonning umumiy mazmunini ochishga ham xizmat qiladi. Gʻ. Aliyevning maʼlumot berishicha, “Layli va Majnun” dostoni tarkibiga gʻazallarning kiritilishi Ashraf Marogʻiydan boshlanadi. Fuzuliy ham oʻzining “Layli va Majnun” dostonida Ashrafning bu anʼanasini davom ettiradi[3,26].

Nosirxoja dostoni tarkibiga kiritilgan jami gʻazallar 90 baytni tashkil etadi. Gʻazallarning 2 tasi Layli, 10 tasi Majnun, 1 tasi Zayd, 1tasi Laylining onasi va 1 tasi Sayyid bani Omiriy tilidan aytilgan.

Nosirxoja dostonining syujet tarkibiga 12 ta murabbaʼ kiritilgan. Maʼlumki, murabbaʼ janrining kelib chiqishi xalq ogʻzaki ijodiga borib taqaladi. Turkiy adabiyotda bu janrni ilk marotaba Ahmad Yassaviyning ijodida koʻrishimiz mumkin. Undan soʻng Mashrab, Ogahiy, Avaz Oʻtar, Muqimiy kabi ijodkorlar bu janrda barakali ijod qilishdi. Nosirxoja murabbaʼlarining umumiy hajmi 153 bayt.

Alisher Navoiy ham, Nosirxoja ham dostonning asosiy voqealarini qahramonlarning tugʻilish tasviri bilan boshlaydi. Qaysning dunyoga kelishi, ota-onasining farzandini koʻz qorachigʻidek asrab, maʼlum bir yoshga yetgach, maktabga yuborishi tasvirlari ketma-ketlikda yoritib boriladi. Qays va Laylining ilk uchrashuvi natijasida ikki oshiq qalbiga ishq oʻti tushishi bilan asarda syujet qizgʻin tus ola boshlaydi.

Asarda Majnun va Navfalning ilk uchrashuvi tasviri ham dostonning navbatdagi voqealar qulfini ochish uchun kalit vazifasini oʻtaydi. Qahramonlarning uchrashuvi har ikki dostonida ham bir xil tasvirlanadi. Yaʼni Navfal Majnun bilan doʻst tutunib, unga yordam qoʻlini choʻzadi. Navoiy dostoniga Navfalning qizi

va Majnunning nikoh syujetini kiritadi. Bu voqealar Nosirxojaning dostonida oʻzgacha talqinda davom etadi. Dastavval Majnunga doʻstlikni va Laylini olib berishni vaʼda qilgan Navfalning niyatini yozuvchi keyingi oʻrindakeltiriboʻtadi, yaʼni “Ammo, Navfal gʻarazi bul erdikim, Majnun Laylini ishqida bir necha soʻzlarni oshiqona aytur erdi, uni soʻzlariga Navfal shoh zavq qilur erdi”. Shu boisdan Majnunga Laylini olib berishni kechiktirib yuradi. Majnun undan soʻrayvergach sovchi yuboradi. Keyingi voqealar sovchilik, jang boʻlishi, Layli qabilasidagilardan koʻpchilikning oʻlimi Navoiy dostoniga oʻxshash. Urushning yakuni esa Nosirxoja dostonida boshqa tarafga yoʻnalgan. Layli jamoasidan koʻp odam qirilgach, Layli jamoasi va odamlari Navfalning xizmatiga keladi. Ular Navfalga Majnun devonaligini, Laylini olsa, bir kun oʻldirishi mumkinligini aytishgandan soʻng u Majnunning Layli qabilasiga zafar tilaganini eslab uning devonaligiga ishonadi. Majnun esa uning bu ishini sotqinlik deb baholaydi, ular oʻrtasidagi doʻstlik barham topadi. Nosirxoja Majnun va Navfal orasidagi munosabatni navbatma-navbat hikoya qilib boraveradi. Navoiy esa, dostonning ayni oʻrnida qahramonlar ruhiyatida tub burilish yasaydi va shu orqali voqealar kulminatsiyasi koʻzga tashlanadi. Birinchidan, Navfalning qizi Majnunga koʻnglini ochib, sevgani borligini aytadi va Majnun otasining toʻydan koʻzlagan maqsadi barbod boʻladi. Navfalning ham orzusi amalga oshmaydi. Layli va Ibn Salom bilan ham shunday voqea yuz beradi va ikki oshiq diydor ilinjida sahroga chiqib ketadilar. Ikkinchidan, dostonning yana bir oʻrni eʼtiborimizni tortadiki, bu `bilan Navoiyning doston yozishdan, Majnunni junun qilishdan asl maqsadi anglashilgandek boʻladi. Layli va Majnun sahroda uchrashib, poklikdan ayri boʻlmagan holda bir-birining vasliga qonib, mehr va muhabbatdan lazzatlanib, tong ottiradilar. Ammo ruhiyat va qalbdagi jununlik ularni tark etmaydi. Navoiy bu bilan ikki oshiqning ishqiy jismlar uchrashuviga asoslangan emas, balki bundan ming karra ulugʻ va sharaflidir, degan maʼnoni singdiradi. Layli va Majnun bu buyuk yoʻlga birga chiqqan hamrohlardir. Bulardan koʻrib turibmizki, ikki ijodkorda Navfal obrazi turli vazifalarni koʻrsatish uchun xizmat qiladi. Navoiyda Navfal obrazi asl sevgini tushungan, doʻstlikni hurmat qiladigan, insoniy tuygʻular himoyachisi sifatida kelsa, Nosirxoja dostonida esa anʼanaviy syujetdagi obraz dostonga kiritilgandek tuyuladi, goʻyo.

Alisher Navoiy ham, Nosirxoja ham dostoniga Majnun otasining oʻgʻlini toʻgʻri yoʻlga solish uchun qilgan harakatlari va nasihatlarini kiritadi. Voqealar ketma-ket sodir boʻladi. Majnun jununlikni tark etmaydi. Ota-onasi esa farzandining dardi bilan azob

chekib yashaydi. Shu o'rinda Majnun ruhiyatini ostin-ustun qilib yuborgan voqea sodir bo'ladi. Navoiyning dostonida Majnun ota-onasi, Nosirxojaning dostonida esa Majnun otasi vafot etadi.

Navoiy dostonida Layli va Majnun otalari timsolini yaratishda sharqona xarakter, odob-axloqdan bir zum bo'lsa ham chetga chiqmaydi. Ota qalbidagi or, qonidagi qat'iyatlilik o'quvchi ko'z o'ngida vazmin, mulohazali shaxsni gavdalanitiradiki, bu dostonning yanada hayotiy chiqishi uchun zamin yaratadi. Doston voqealari davomida ikki oshiq muhabbati el og'ziga tushgach, Laylining otasi g'azab bilan Majnun otasiga maktub yo'llaydi. Tabiiyki, maktubning zaharxanda mazmuni alamidan Majnun otasi o'g'lini zanjirband qilib qo'yadi. Nosirxoja dostonida esa bu holat biroz farqli. Majnun devonavor holga tushgach, onasi Majnun holidan otasini xabardor qilgach, Sayyid bani Omiriy qabilasi bilan kengashib, Layliga sovchi bo'lib boradi. Laylining otasidan "Ey Sayyid, bori so'zingizni jon-u dil birlan qabul qilur erdik va ammo o'g'lungiz devonamijoz va xotiri parishonlikdin sihat bo'lmasa, bu so'zni qabul qilmasmiz. O'zimizni ko'ra-bila yonar o'tg'a urmasmiz" degan javobni olishgach, Majnun holati yanada yomonlashadi. Uning bu holatidan xavotirlangan otasi uni zanjirlaydi. Alisher Navoiy Majnunga faqat otasining tilidan nasihat etsa, Nosirxoja esa doston tarkibiga Majnunga otasining ham, onasining ham nasihatini kiritadi. Nosirxoja dostonida onalar biroz aktivlashganini ko'ramiz. Majnun onasi maktabga o'qish uchun borish kerakligi haqidagi o'g'luga bergan nasihati, Laylining onasi esa u bilan doimiy sirdosh bo'lishi onalar obrazi faolligidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy dostonida Majnun otasi bilan dardlashib, ota-onasiga bergan azoblari uchun pushaymon ekanligini bildirib, bo'yniga ip solib, "Sizning itingiz bo'lay" deb otasining qo'lga tizginini tutsa, Nosirxoja dostonida Majnun otasi uni majburlab olib ketadi va zanjirlaydi.

Nosirxojaning dostonida Majnun otasi Majnunga nisbatan nihoyatda yumshoqlik bilan munosabatda bo'lishiga qaramay, Majnun o'z otasiga nisbatan itoatsizlik qiladi. Alisher Navoiyning Majnuni esa ruhiy holati eng cho'qqiga chiqqan taqdirda ham hech qachon ota-onasining yuziga tik boqmaydi. Navoiyning falsafasi shundaki, Majnun nafaqat komil ishq sohibi, balki mukammal odob egasi hamdir.

Ikki mohir ijodkor dostoniga Ka'ba ziyoratining tasvirini qo'shadilar. Lekin Navoiyda Ibn Salom bilan bog'liq tasvir Majnun Ka'ba ziyoratiga borishidan oldin sodir bo'lgan bo'lsa, Nosirxoja dostonida Ka'ba ziyoratiga borganidan keyin tasvirlanadi.

Nosirxojada hushdan ketish motivi jazba yetishi bilan bog'liq emas, boshqacha aytganda, so'fiyona asosga ega emas. U Navoiy Majnunidan farqli o'laroq, Laylining siymosini har gal ko'rganida, hushdan ketavermaydi, Ka'bani ziyorat etganida ham hushini yo'qotmaydi. Bu holatlar Nosirxojaning Majnuni ilohiy mazhar emas, balki Yaratganning yaratig'i bo'lgan Layliga muhabbat qo'ygan oshiq ekanligini ko'rsatadi. Dostonda Laylining hushdan ketish holatiga duch kelamiz. Laylining ishq ham tobora kuchayadi. Majnun uning ishqida zabun holga yetganini eshitgandan so'ng Laylining hushini yo'qotishi tasviri mavjud.

Xulosa. Navoiy dostonida uchramaydigan, Xorazm shoirining o'ziga xos ijod yo'nalishini namoyon qiladigan g'azal, muxammas, mustahzod va murabba'lar esa qahramonlar ruhiy holati va voqealar rivojiga mutanosib ravishda bitilganki, ular orqali kitobxon oshiq-ma'shuqlarning iztiroblariga sherik bo'ladi, ularning tuyg'ularini o'z qalbiga ko'chiradi, boshqacha aytganda, asar qahramonlari bilan birga yashay boshlaydi. G'azal va murabba'larda har bir voqelik va qahramonlar ruhiyatiga mos ravishda turli she'riy o'lchovlar va qofiyalardan foydalanganligi ijodkor badiiy mahoratini ko'rsatuvchi yana bir omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nosirxoja valadi Mansurxoja. Layli va Majnun. Tabdil va nashrga tayyorlovchi Jo'rayev K. – Jizzax: "Sangzor", 2014.
2. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Тошкент: "Академнашр", 2013.
3. Абдулҳақимова Ю. Алишер Навоий ва Муҳаммад Фузулий "Лайли ва Мажнун" дostonларининг қиёсий таҳлили. дисс., 2022.

Durdona ANVAROVA,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti

TURKOLOGIYADA KORPUSGA ASOSLANGAN LUG'AT BAZASINI YARATISH MASALALARI VA ULARNING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIGA TATBIQI

Annotatsiya: ushbu maqola turkologiya sohasida korpusga asoslangan omonimlarning tarjima lug'at bazasini yaratishning nazariy va amaliy masalalarini ko'rib chiqadi. Unda lingvistik korpuslarning lug'atshunoslikdagi ahamiyati, ulardan foydalanishning afzalliklari va turkiy tillar uchun, xususan, o'zbek tili uchun shunday bazalarni shakllantirishdagi asosiy qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Maqolada korpusdan olingan ma'lumotlar asosida lug'atshunoslik tahlili, so'z chastotasi, kollokatsiyalar va semantik aloqalarni aniqlash metodologiyasi muhokama etiladi. O'zbek tilshunosligida korpusga asoslangan yondashuvlarning joriy holati va istiqbollari, shuningdek, bunday bazalarni yaratish orqali erishilishi mumkin bo'lgan ilmiy va amaliy natijalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: korpus lingvistikasi, turkologiya, o'zbek tilshunosligi, omonimlarning tarjima lug'at bazasi, lug'atshunoslik, chastotali lug'at, kollokatsiya, semantika, tabiiy tilni qayta ishlash.

Annotation: this article examines the theoretical and practical issues of creating a corpus-based homonymy lexical-translated database in Turkology. It analyzes the significance of linguistic corpora in lexicography, the advantages of using them, and the main challenges in forming such databases for Turkic languages, particularly for the Uzbek language. The methodology of lexicographical analysis, word frequency, collocation, and semantic relations based on corpus data is discussed. The current state and prospects of corpus-based approaches in Uzbek linguistics, as well as the scientific and practical results that can be achieved through the creation of such databases, are highlighted.

Key words: corpus linguistics, Turkology, Uzbek linguistics, lexical database of homonymy, lexicography, frequency dictionary, collocation, semantics, natural language processing.

Аннотация: в статье рассматриваются теоретические и практические вопросы создания корпусной лексико-переводной базы данных омонимии в тюркологии. Анализируется значение лингвистических корпусов в лексикографии, преимущества их использования и основные проблемы формирования таких баз данных для тюркских языков, в частности для узбекского. Обсуждается методология лексикографического анализа, частотности слов, коллокации и семантических связей на основе корпусных данных. Освещены современное состояние и перспективы корпусных подходов в узбекской лингвистике, а также научные и практические результаты, которые могут быть достигнуты при создании таких баз данных.

Ключевые слова: корпусная лингвистика, тюркология, узбекское языкознание, лексическая база данных омонимии, лексикография, частотный словарь, коллокация, семантика, обработка естественного языка.

Zamonaviy tilshunoslikda tillarni tadqiq qilish va tavsiflashda korpus lingvistikasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Katta hajmdagi matnlar korpuslari, ya'ni raqamlashtirilgan va maxsus dasturiy ta'minotlar yordamida qayta ishlash mumkin bo'lgan matnlar to'plamlari til hodisalarini empirik asosda o'rganish uchun beqiyos imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, lug'atshunoslik

sohasida korpusga asoslangan yondashuv an'anaviy lug'at tuzish usullarini tubdan o'zgartirib, tilning real qo'llanilishi haqida obyektiv va statistik jihatdan asoslangan ma'lumotlarni taqdim etadi.

Turkologiya – turkiy tillarni o'rganuvchi fan sohasi ham ushbu innovatsion metodologiyadan samarali foydalanish imkoniyatiga ega. Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili aglyutinatib xususiyatga ega bo'lib, bu

ularning morfologik tuzilishini murakkablashtiradi va korpusga asoslangan tahlillarda o'ziga xos yechimlarni talab qiladi. O'zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi va uning lug'atshunoslikka tatbiqi bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da, keng ko'lamli, standartlashtirilgan va ochiq kirish imkoniyatiga ega bo'lgan lug'at bazalarini yaratish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqola Turkologiyada, xususan, o'zbek tilida korpusga asoslangan omonimlarning tarjima lug'at bazasini yaratishning nazariy asoslari, amaliy qiyinchiliklari va istiqbollarini muhokama qilishga qaratilgan. Biz bunday bazalarning afzalliklarini, ularni shakllantirishdagi asosiy bosqichlarni va o'zbek tilshunosligiga tatbiq etishning ahamiyatini yoritib beramiz. Turkologiyada va umuman, tilshunoslikda korpusga asoslangan tadqiqotlar so'nggi yillarda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo'nalishdagi ishlar asosan, ikki asosiy yo'nalishda olib borilmoqda: birinchisi, lingvistik korpuslarni yaratishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish; ikkinchisi, mavjud korpuslardan foydalangan holda lingvistik hodisalarni, jumladan, lug'atshunoslik masalalarini o'rganish. Tilshunoslik korpuslarini yaratish va ularning ahamiyati borasida G. Leech (1991), J. Sinclair (1991) kabi xorijlik olimlar, shuningdek, M. N. Churikova (2015), A. A. Kibrik (2003) kabi rus tadqiqotchilari fundamental ishlar olib borgan. Ular lingvistik korpuslarning ta'rifi, turlari, tuzilishi, annotatsiya qilish usullari va tilshunoslikdagi o'rni haqida batafsil ma'lumot berishgan. Jumladan, Sinclair o'zining "Corpus, Concordance, Collocation" asarida korpuslarning so'zlarning birikish xususiyatlarini (kollokatsiyalar) o'rganishdagi beqiyos imkoniyatlarini ko'rsatib o'tgan. Teubert va Cadre (2004) esa korpuslarning lug'at tuzish jarayonini qay darajada tubdan o'zgartirganligini tahlil qilganlar. Bu ishlar korpusga asoslangan lug'atshunoslikning nazariy negizini tashkil etadi.

Turkiy tillarda korpus lingvistikasi va lug'atshunoslik masalalariga kelganda, bu sohada hali keng qamrovli tadqiqotlar yetarli emas. Turk tili uchun ba'zi korpuslar yaratilgan bo'lsa-da, o'zbek tili uchun yirik va to'liq annotatsiyalangan korpuslar deyarli yo'q. O'zbek tilshunosligida korpus lingvistikasining nazariy asoslari va uning qo'llanish

imkoniyatlari N. Abduraxmonova (2018) kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. N. A. Berdimuratov o'zining "Lingvistik korpuslar: nazariya va amaliyot" asarida korpuslarning o'zbek tilshunosligi uchun ahamiyatini tahlil qilgan va ularni yaratishdagi dastlabki qadamlar haqida yozgan. N. Z. Zakirova (2020) esa o'zbek tili korpusini yaratishda yuzaga keladigan muammolarni, xususan, aglyutinatil til xususiyatlarini hisobga olgan holda morfologik tahlilning murakkabligini ko'rsatib o'tgan.

Shuningdek, lug'atshunoslikda korpus ma'lumotlaridan foydalanish bo'yicha, xususan, chastotali lug'atlarni tuzish borasida V. A. Moskovich va R. M. Frumkina kabi rus olimlarining ishlari muhim. Ular korpus ma'lumotlari asosida so'zlarning qo'llanish chastotasini aniqlash metodikalarini ishlab chiqqanlar. Biroq, o'zbek tili uchun bunday tizimli chastotali lug'atlar hali yaratilmagan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, korpus lingvistikasi lug'atshunoslikda samarali vosita bo'lib, u tilning haqiqiy qo'llanilishi haqida obyektiv va statistik ma'lumotlarni taqdim etadi. Ammo turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili uchun keng ko'lamli, standartlashtirilgan va annotatsiyalangan korpuslar hamda ularga asoslangan lug'at bazalari yaratish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Mavjud tadqiqotlar asosan, umumiy nazariy asoslarga qaratilgan bo'lib, aynan o'zbek tili omonimlarining tarjima lug'at bazasini korpusga asoslangan holda yaratishning amaliy va texnologik jihatlarini bo'yicha chuqur tahlil va eksperimental ishlar yetarli emas.

Ushbu tadqiqotda Turkologiyada, xususan, o'zbek tilshunosligida korpusga asoslangan omonimlarning tarjima lug'at bazasini yaratish masalalarini o'rganish maqsadida nazariy-tahliliy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot bir necha bosqichda amalga oshirildi:

1. Nazariy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish: korpus lingvistikasi, kompyuter tilshunosligi va lug'atshunoslik bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, dissertatsiyalar hamda ilmiy maqolalar chuqur tahlil qilindi. Bu bosqichda lingvistik korpuslarning turlari, ularni yaratish prinsiplari, annotatsiya qilish usullari, shuningdek, korpus ma'lumotlaridan lug'atshunoslikda foydalanish metodologiyalari o'rganildi.

2. Mavjud korpus resurslarini qiyosiy tahlil qilish: turk tillari oilasiga mansub bo'lgan

boshqa tillar (masalan, turk tili, ozarbayjon tili, qozog'iston tili) uchun yaratilgan korpuslar va ularga asoslangan lug'at bazalari o'rganildi. Ularning tuzilishi, annotatsiya darajasi, qamrovi va foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Bu tahlil o'zbek tili uchun shunday bazalarni yaratishda qanday tajribalarni inobatga olish kerakligini aniqlashga yordam berdi.

3. O'zbek tilining xususiyatlarini hisobga olish: o'zbek tilining aglyutinativ tabiati, morfologik murakkabligi va fonetik-fonologik xususiyatlari korpusni qayta ishlash va lug'at bazasini shakllantirish jarayonlariga qanday ta'sir etishi nazariy jihatdan tahlil qilindi. Xususan, lemmalash (so'zlarni bosh shakliga keltirish) va so'z turkumlarini belgilash (POS-tagging) jarayonlaridagi muammolar va ularni yechish yo'llari ko'rib chiqildi.

4. Lug'at bazasi strukturasi va mazmuni bo'yicha takliflar ishlab chiqish: korpusdan olinadigan ma'lumotlar (so'z chastotasi, kollokatsiyalar, kontekstlar, semantik ma'nolarning variantlari)

asosida lug'at yozuvlarini shakllantirishning optimal tuzilmasi bo'yicha nazariy takliflar ishlab chiqildi. Bu takliflar zamonaviy lug'atshunoslik talablariga va o'zbek tili xususiyatlariga mos kelishi nazarda tutildi.

5. Amaliy tatbiq etish istiqbollari aniqlash: yaratiladigan korpusga asoslangan lug'at bazasining o'zbek tilshunosligi, til o'qitish, kompyuter lingvistikasi va boshqa amaliy sohalaridagi tatbiq etish istiqbollari, shuningdek, uning ilmiy ahamiyati ko'rib chiqildi.

Ushbu tadqiqotda eksperimental ma'lumotlar to'planmagan holda, asosan, nazariy tahlil va mavjud adabiyotlar hamda texnologik yutuqlarni sintez qilish orqali xulosalarga erishildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Turkologiyada, xususan, o'zbek tilshunosligida korpusga asoslangan omonimlarning tarjima lug'at bazasini yaratishning dolzarbligi va uning bir qator nazariy-amaliy imkoniyatlari aniqlandi. Quyidagi jadvalda tadqiqotning asosiy natijalari jamlangan:

Ko'rsatkichlar / Natijalar	Nazariy asoslar	Amaliy ahamiyat	Qiyinchiliklar va yechimlar
Korpusga asoslangan lug'atshunoslikning ustunliklari	Obyektivlik, empirik asos, real til qo'llanilishi	Lug'atlarning ishonchligi, chastota ma'lumotlari, kollokatsiyalar, frazeologik birliklar	—
O'zbek tilining xususiyatlari	Aglyutinativlik, morfologik boylik, variantlar	Taniqli lug'atlarni boyitish, til o'qitishni takomillashtirish	Morfologik tahlil murakkabligi, maxsus algoritmlar va vositalar zarurati
Lug'at bazasining tarkibi	So'zning bosh shakli, qo'llanish chastotasi, kollokatsiyalar, misol gaplar, semantik ma'nolar	Keng qamrovli, tizimli va foydali ma'lumotlar bazasi	Matnlarni to'plash, annotatsiya darajasini standartlashtirish
Amaliy tatbiq sohalari	Tilshunoslik, pedagogika, IT (NLP)	Ta'lim jarayonini optimallashtirish, mashina tarjimasi, avtomatik xulosa qilish, nutqni tanish	Dasturiy ta'minotlar yetishmasligi, integratsiyaning murakkabligi
Mavjud resurslar holati	Kichik korpuslar, cheklangan annotatsiya, ochiq kirishning yo'qligi	—	Yirik, vakillik korpuslar yaratish zarurati, standartlashtirish, hamkorlik
Istiqbollar	Tilni chuqur o'rganish, yangi lingvistik nazariyalarni shakllantirish	Ilmiy-tadqiqot ishlarining sifatini oshirish, zamonaviy til texnologiyalarini rivojlantirish	Moliyaviy resurslar, malakali kadrlar, institutsional qo'llab-quvvatlash

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Turkologiyada, xususan, o'zbek tilshunosligida korpusga asoslangan omonimlar tarjima lug'at bazasini yaratish bugungi kunning dolzarb ilmiy va amaliy

vazifalaridan biridir. An'anaviy lug'at tuzish usullari ma'lum darajada subyektivlikka asoslangan, korpusga asoslangan yondashuv tilning real qo'llanilishi haqida obyektiv, miqdoriy va tizimli

ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, lug'atlarning sifatini oshirish, ularni aniqroq va to'liqroq qilish uchun muhim zamin yaratadi.

O'zbek tilining aglyutinatib tabiati korpusni qayta ishlashda, xususan, morfologik tahlil (lemmalash) jarayonida o'ziga xos qiyinchiliklarni tug'diradi. Bu, har bir so'z shaklini uning bosh (lug'at) shakliga keltirishni va grammatik xususiyatlarini (so'z turkumi, son, kelishik va b.) aniqlashni talab qiladi. Hozirgi kunda o'zbek tili uchun samarali va yuqori aniqlikdagi morfemik analizatorlar va POS-taggerlarning yetishmasligi mazkur sohadagi ishlarni sekinlashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli, dastlabki bosqichda shu yo'nalishdagi dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish ustuvor vazifa bo'lishi kerak.

Mavjud resurslarning cheklanganligi ham muhim muammo hisoblanadi. O'zbek tilida keng ko'lamli, balanslangan va annotatsiyalangan matn korpuslari deyarli yo'q. Kelajakdagi ishlar uchun turli janrlar (badiiy adabiyot, ilmiy matnlar, publitsistika, og'zaki nutq transkripsiyalari) va davrlarni qamrab oluvchi reprezentativ korpus yaratish zarur. Bu korpus to'plangan matnlarni standart formatlarga keltirish va ularni to'g'ri annotatsiya qilish (morfologik, sintaktik, semantik belgilash) orqali boyitilishi kerak.

Yaratiladigan lug'at bazasining amaliy ahamiyati juda keng. Birinchidan, o'zbek tilini o'qitish va o'rganish jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi. O'quvchilar va chet tilini o'rganuvchilar so'zlarning real qo'llanishini, eng ko'p uchraydigan kollokatsiyalarni va chastotali ma'nolarni bilish orqali tilni samaraliroq o'zlashtira oladilar. Ikkinchidan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)

sohasida, xususan, mashina tarjimai, nutqni tanib olish, avtomatik xulosa qilish kabi texnologiyalarni rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'ladi. Uchinchidan, o'zbek tilshunosligining o'zida, xususan, leksikologiya, leksikografiya, semantika va sintaksis yo'nalishlarida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Turkologiyada korpusga asoslangan omonimlarning tarjima lug'at bazasini yaratish kompleks yondashuvni talab etuvchi, uzoq muddatli loyihadir. Bu loyiha lingvistlar, dasturchilar va boshqa mutaxassislar o'rtasidagi samarali hamkorlikni, shuningdek, davlat va ilmiy muassasalar tomonidan institutsional qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Bunday baza yaratilganda, o'zbek tilshunosligi yangi bosqichga ko'tariladi va til texnologiyalari sohasida sezilarli yutuqlarga erishiladi.

Korpusga asoslangan omonimlarning tarjima lug'at bazasini yaratish Turkologiya, xususan, o'zbek tilshunosligi uchun ulkan salohiyatga ega bo'lgan zamonaviy yondashuvdir. Bu nafaqat lug'atshunoslik amaliyotini tubdan o'zgartiradi, balki tilni chuqurroq o'rganish, uning real qo'llanilishini aniqlash va turli sohalaridagi amaliy ehtiyojlarni qondirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

O'zbek tilining o'ziga xos agglyutinatib xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus resurslar va dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish, shuningdek, ilmiy hamkorlikni kengaytirish ushbu sohadagi muvaffaqiyatning kalitidir. Korpusga asoslangan omonimlarning tarjima lug'at bazasining shakllantirilishi o'zbek tilining ilmiy tavsifini yangi bosqichga olib chiqadi, til o'qitish metodikasini takomillashtiradi va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirishga asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бердимуратов, Н. А. Лингвистик корпуслар: назария ва амалиёт. – Тошкент: "Fan" nashriyoti, 2018.
2. Закирова, Н. З. Ўзбек тили корпусини яратиш муаммолари. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари, 2(1), 2020. 125-130.
3. Кибрик, А. А. (2003). Очерки по общим и прикладным вопросам языкознания. – Москва: Эдиториал УРСС.
4. Чурикова, М. Н. (2015). Корпусная лингвистика: учебное пособие. – Москва: Флинта.
5. Leech, G. (1991). An Introduction to English Lexicography. Longman.
6. Sinclair, J. (1991). Corpus, Concordance, Collocation. Oxford University Press.
7. Teubert, W., & C. C. Cadre. (2004). Text Corpora and Dictionary Making. In The Oxford Handbook of Lexicography (pp. 59-71). Oxford University Press.

Shoira SAYDULLAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU tayanch doktoranti

TARIXIY VA BADIY HAQIQATNI TAHLIL QILISHDA METODIK YONDASHUVLAR

(“KO’HNA DUNYO” ROMANIDAGI ABU UBAYD AL-JUZHONIY OBRAZI TAHLILI)

Annotatsiya: mazkur maqola Odil Yoqubovning “Ko’hna dunyo” romani misolida tarixiy qahramonlarning haqiqat va badiiyat o’rtasidagi murakkab munosabatlarini tadqiq qiladi. Xususan, Abu Ubayd al-Juzhoni obrazining tarixiy manbalardagi ma’lumotlar bilan solishtirilishi orqali badiiy asardagi haqiqatning darajasi tahlil qilinadi. Maqolada tarixiy va badiiy haqiqatlarni o’rganishda foydalaniladigan turli metodlar, jumladan, tarixiy manbalarga asoslangan tahlil, badiiy interpretatsiya, tanqidiy solishtirish va ilmiy izlanishlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, maqola adabiyot o’qituvchilari va talabalar uchun mazkur metodlarni qo’llash orqali tarixiy romanlarni chuqur anglash, obrazlarning tarixiy yoki badiiyligini aniqlash imkoniyatlarini ko’rsatadi.

Kalit so’zlar: *Abu Ubayd al-Juzhoni, Ibn Sino, tarixiy qahramon, badiiy haqiqat, tarixiy haqiqat, “Ko’hna dunyo” romani, tarixiy manbalar, badiiy obraz, solishtirma tahlil, adabiyot o’qitish metodikasi.*

Аннотация: в статье рассматривается сложная взаимосвязь реальности и вымысла в образах исторических героев на примере романа Одила Якубова «Древний мир». В частности, анализируется уровень реальности в художественном произведении путем сопоставления образа Абу Убайда аль-Джузжани с информацией из исторических источников. В статье подчеркивается важность различных методов, используемых при изучении исторических и художественных истин, включая анализ на основе исторических источников, художественную интерпретацию, критическое сравнение и научное исследование. Также в статье показаны возможности, которые преподаватели литературы и студенты могут использовать для глубокого понимания исторических романов и определения исторической или художественной природы образов, используя эти методы.

Ключевые слова: *Абу Убайд аль-Джузжани, Ибн Сина, исторический герой, художественная правда, историческая правда, роман «Древний мир», исторические источники, художественный образ, сравнительный анализ, методика преподавания литературы.*

Annotation: this article examines the complex relationship between reality and fiction of historical heroes using the example of Odil Yakubov’s novel “The Ancient World”. In particular, the level of reality in a work of art is analyzed by comparing the image of Abu Ubayd al-Juzhoni with information from historical sources. The article highlights the importance of various methods used in the study of historical and artistic truths, including analysis based on historical sources, artistic interpretation, critical comparison, and scientific research. The article also shows the possibilities for literature teachers and students to deeply understand historical novels and determine the historical or artistic nature of images by using these methods.

Key words: *Abu Ubayd al-Juzhoni, Ibn Sina, historical hero, artistic truth, historical truth, the novel “The Ancient World”, historical sources, artistic image, comparative analysis, literature teaching methodology.*

Odil Yoqubovning “Ko’hna dunyo” romanini o’qir ekanmiz, undagi qahramonlar taqdiri, voqealar rivoji, siyosiy-ijtimoiy tuzum zo’r mahorat bilan yozilganki, tariximizning u yoki bu qiyofasini ro’yi rost ko’rgandek bo’lamiz. Aslida-chi, bu kabi tarixiy romanlardagi voqealar, obrazlar chindan o’tmishda mavjud bo’lganmikin? Bu kabi savollar asarni chuqurroq tahlil qilishga undaydi.

Dunyo adabiyotshunosligida badiiy asar tahlilining filologik, estetik, formal, biografik, tarixiy-madaniy, qiyosiy-tarixiy, genetik, sotsiologik, ijtimoiy-genetik, tarixiy-funksional, statistik, lingvistik, psixologik, immanent va boshqa qator usullari ishlab chiqilgan [5: 12]. Bu tahlil metodlari bugun psixoanalitik, struktural, mifologik, ekzistensial, germeneytik, psixokritik, semiotik,

lingvostatik, sinergetik, lingvopoetik, kompleks analiz, fenemologik tahlil metodlari bilan boyib bormoqda [6: 139]. Mazkur metodlar mohiyatini chuqur anglash va ularni adabiyot darslarida to'g'ri qo'llay olish adabiyot o'qitish metodikasi fanining muhim vazifalaridan biridir.

Tarixiy asarlarda aks etgan tarixni qadimgi manbalar va tarixiy asarlar asosida qiyosan o'rganish, badiiy haqiqat qanchalik tarixiy haqiqatni aks ettirganligini tadqiq qilish masalalari ko'plab adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilgani ma'lum. [7.127; 8.184; 9.215; 10.64 va boshq.]

Adabiyot o'qituvchisi sifatida "Ko'hna dunyo" romanini talabalar bilan birgalikda muhokama qilinganda yuqoridagi masalani, ya'ni asardagi qahramonlarning prototip yoki badiiy obraz ekanligini bir nechta metodlar orqali tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Roman boshqa janrlardan voqelikni keng qamrovda badiiy obrazlar vositasi orqali ifodalashi bilan ajralib turuvchi epik turga kiradi [7: 9]. Shunga ko'ra mazkur janrning ma'lum davr bilan bog'liq voqealarni bayon etishdagi imkoniyati katta.

Badiiy asarlarda tarixiy qahramonlar ko'pincha ikki qatlamda tasvirlanadi: ularning tarixiy shaxs sifatidagi roli va muallifning badiiy talqini. Masalan, Odil Yoqubov "Ko'hna dunyo" asarida tarixiy voqeliklarni o'ziga xos badiiy talqin orqali jonlantiradi, shu bilan birga o'quvchiga o'sha davr ijtimoiy-siyosiy holatini, insonlarning ichki dunyosini chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Bu esa asar obrazlarining aniq tarixiy shaxslar yoki ularning umumlashtirilgan badiiy prototiplari ekanligini aniqlashni muhim qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, "Ko'hna dunyo" romanidagi qahramonlarni tahlil qilishda tarixiy manbalar va ma'lumotlar bilan taqqoslash, shuningdek ularning badiiy talqinda qanchalik o'zgartirilganini ko'rib chiqish lozim. Bu tahlil natijalari orqali asarning tarixiy haqiqat bilan badiiy haqiqat o'rtasidagi munosabatlari yanada ravshan bo'ladi.

Romanda Abu Ubayd al-Juzjoniy obraziga duch kelamiz. U Ibn Sinoning shogirdi sifatida asardagi voqealarni qayd etgan va uning yozib qoldirgan xotiralari tadqiqotlarda ham muhim manba hisoblanadi. Mazkur qahramon haqiqiy tarixiy shaxsmi yoki adabiy tasavvur asosida yaratilgan

obraz ekanligi masalasi ilmiy-tarixiy manbalar orqali muhokama qilinishi kerak bo'lgan mavzu sanaladi. Oliy o'quv yurti talabalariga tarixiy va badiiy haqiqat masalasini tahlil qilishni tizim asosida o'rgatish ma'lum metodlardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonni o'qituvchi quyidagi metodlarni qo'llash orqali o'rgatishi mumkin:

– **Tarixiy manbalarni tahlil qilish.** Talabalarga tarixiy haqiqatni aniqlash uchun asl manbalar, hujjatlar, arxiv materiallari va tarixiy shaxslar hayoti bilan bog'liq dalillarni tahlil qilishni o'rgatish. Bu metodda talaba voqealarni kontekstda ko'rib, faktlar va fikrlarni farqlay oladi.

– **Badiiy asarlarni interpretatsiya qilish.** Badiiy asarlardagi voqelikni muallifning ijodiy yondashuvi, dunyoqarashi va badiiy qobiliyatiga bog'liq ekanligini tushuntirish. Talabalarni badiiy matnda obrazlarning ruhiy olamini, ijodiy tafakkurini aniqlash va ularni tarixiy haqiqat bilan taqqoslashga o'rgatish.

– **Taqqoslash va tanqidiy tahlil.** Tarixiy va badiiy manbalarni solishtirish orqali haqiqatning turli qirralarini ochib berish. Bu usul talabalarni fikr yuritishda tanqidiy fikrlashga undaydi.

– **Ilmiy tadqiqot metodlari.** Seminarlar, konferensiyalar tashkil qilib, talabalarni mustaqil izlanish, ilmiy maqolalar yozish, muammoli savollarga javob izlashga rag'batlantirish.

– **Loyihalar va amaliy ishlar.** Tarixiy va badiiy mavzularda kichik loyihalar yaratishga, badiiy asarlarni tahlil qilishga va ularni tarixiy haqiqat bilan bog'lashga yo'naltirish.

Ma'lumotlarni taqqoslash metodi tarixiy va badiiy haqiqatni tahlil qilishda asosiy va muhim metodlardan biridir. Bu metodda ilmiy tadqiqotchi voqea-hodisalar, dalillar, tarixiy shaxslar faoliyati va ularning talqinlari o'zaro solishtiriladi, ularning farq va o'xshashliklari aniqlanadi. Tarixiy manbalar va badiiy asarlar orasidagi tafovutlar, ularning mualliflarining qarashlari, voqea-hodisalarni talqini va tarixiy kontekstidagi ta'sirlar tahlil qilinadi.

Bu metodning asosiy jihatlari quyidagilar:

– Tadqiqotchi mavjud manbalarni va mualliflarni tanqidiy nazar bilan ko'rib chiqadi, ular orasidagi tafovutlarni aniqlaydi.

– Tarixiy voqea yoki hodisa turli manbalarda turlicha talqin etilganida, qaysi talqin ko'proq faktlarga mos kelishini baholaydi.

– Mualliflarning dunyoqarashi, ilmiy pozitsiyasi va ma'lum fikrlarining yuzaga kelish sharoitlari inobatga olinadi.

– Tanqidiy yondashuv bilan har qanday bir tomonlama, bo'rttirilgan yoki kamaytirilgan talqinlardan saqlanishga urg'u beriladi.

– Bu metod ilmiy tadqiqotchidan chuqur tayyorgarlik, tarixiy kontekstni yaxshi tushunish, hamda manbalarni keng qamrovli o'rganishni talab qiladi.

Biz tahlil etmoqchi bo'lgan Abu Ubayd al-Juzjoni obrazini mazkur metod asosida ko'rib chiqamiz. Dastlab ushbu qahramonning romandagi o'rniga to'xtalamiz.

Romanning 5-bobi Abu Ubayd al-Juzjoni yozib qoldirgan xotiralarga asoslanib bayon etilgan. Unda Ibn Sino asarlari nusxalarining bir necha xattotlar tomonidan yozib olinish jarayonlari haqida so'z boradi. Shayx (Ibn Sino)ning iztiroblari, sulton Mahmud G'aznaviydan qochib yurishga majbur bo'lish voqealari Juzjoniyl tilidan hikoya qilinadi [4:71,72,73].

Ushbu asarning 15-bob 1-qismini-da Juzjoniyl xotiralari egallagan bo'lib, unda ustoz va shogirdning hanuz davom etayotgan darbadarlik holatlarini ko'ramiz: *“Subhi sodiq shahar darvozasidan chiqdik. Men shayxdan “qayga boramiz?”, deb so'radim. Shayx uf tortib: “Qayga bosh qo'yishni o'zim ham bilmaymen, o'g'lim, –dedi. – Mana tavallud topgan yurtimni tark etib, musofirlik jandasini kiyganimga chorak asr bo'ldi. Ammo qayga muqim qo'nib, qachon halovat topamen, o'zim ham bilmaymen. Ehtimol, Bag'dod tomon ravona bo'lurmiz, bolam”* [4:181].

Yuqoridagi parchada Ibn Sinoning shogirdiga “bolam”, “o'g'lim” deb murojaat qilishi uning Juzjoniylga bo'lgan naqadar cheksiz mehr-muhabbatini ifodalaydi. Mazkur bobning 2-qismida esa Abu Ubayd al-Juzjoniyl obrazi bevosita ishtirok etadi.

Asarning keyingi rivoji 22-bob 1-24-bob 1-qismi va xotima qismi ham Juzjoniyl xotiralari asosida yozilgan. Qolgan holatlarda ushbu obraz muallif tomonidan syujetga singdirib yuboriladi.

Qahramonning xarakteri, harakatlari va qarorlarini ko'rib chiqish asar muammolarini va mavzularini to'liq tushunishga imkon beradi. Qahramonning qanday vaziyatlarga uchrashi va

ularga qanday munosabatda bo'lishi asar g'oyasini aniqlashda muhimdir. Talabalar qahramonlar orqali asarga yanada qiziqib, o'zlarini ularning o'rnida ko'rishga harakat qilishadi. Bu esa o'qish jarayonini qiziqarli va mazmunli qiladi. Shu sababli qahramonning asardagi ishtirokini izchil va chuqur tahlil qilish adabiyot ta'limining muhim qismi hisoblanadi. Bu nafaqat asarni tushunish, balki talabalarning tafakkur doirasini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Keyingi bosqichda mazkur qahramon haqidagi ma'lumotlar to'planadi. Ya'ni Abu Ubayd al-Juzjoniyl bilan bog'liq asarlar, ilmiy maqolalar va internet ma'lumotlari ko'rib chiqiladi.

“O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”da Ibn Sino haqidagi ma'lumotlar berilgan bo'lib, unda Abu Ubayd al-Juzjoniyl bilan bog'liq quyidagi o'rinlar mavjud: *“...Ibn Sino Jurjonda 1012-1014-yillarda yashaydi, lekin shu qisqa vaqt ichida uning hayotidagi muhim voqealardan biri Abu Ubayd Juzjoniyl bilan uchrashuv va bir umrga do'stlashuv sodir bo'ladi. U Ibn Sinoga nafaqat shogird, balki sodiq do'st ham edi. U Ibn Sino bilan olimning so'nggi damigacha, 25 yil davomida birga bo'ladi. Ibn Sino tarjimai holining yozilib qolishi, ko'pgina asarlarining ta'lifi va tartibga tushishi hamda ularning keyingi avlodlarga kelishida Juzjoniylning xizmati katta* [1: 54].

Bu ma'lumotlar Juzjoniylning Ibn Sinoning shogirdi va yaqin do'sti bo'lganligini ko'rsatadi. Mana bu parchada ham unga ishora bor:

“Jurjondalik vaqtida Ibn Sino ham ilmiy ijod bilan shug'ullandi, ham tabib sifatida faoliyat ko'rsatdi. Bu yerda u shogirdining iltimosiga ko'ra mantiq, falsafa va boshqa fanlarga oid bir nechta risola yozdi va eng muhimi “Tib qonunlari”ning dastlabki qismlarini yaratdi” [1: 54].

Bundan tashqari Abu Ubayd al-Juzjoniyl haqida ko'plab maqolalar yozilgan bo'lib, unda bu shaxs bilan bog'liq ma'lumotlarni to'liqroq ko'rishimiz mumkin.

Juzjonda X asr oxiri va XI asrning birinchi yarmida yashagan Abu Ubayd Abduvohid ibn Muhammad Juzjoniyl tibbiyot, riyoziyot, falakiyot ilmining yetuk allomasi sifatida tanilgan.

U Abu Ali ibn Sinoning yaqin do'sti va shogirdlaridan bo'lgan. Abu Ubayd Abduvohid ibn Muhammad Juzjoniylning ilm olamidagi eng katta

qilgan xizmati shuki, u ibn Sinoning vafotidan so'ng, "Kitabushshifo" asarida ibn Sinoning tarjimai holi, hayoti va faoliyati to'g'risidagi aniq ma'lumotlar keltirilgan. Bu asar ibn Sino haqidagi eng ishonchli manba bo'lib, ayni paytda O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Kiftiy, Ibn Abu Usaybiya, Bayhaqiy va Shahrazuriy kabi tarjimai hol yozadigan allomalar Abduvohid ibn Muhammad Juzjoniylar ibn Sinoning hayotiga oid bergan ma'lumotlari haqida o'z fikrlarini bildirgan.

Bugungi kunda Abduvohid ibn Muhammad Juzjoniylarning "Kitabu kayfiyat aflok" astronomiyaga oid asarining uch nusxasi mavjud bo'lib, unda sayyoralarning joylashuvini bir-biriga taqqoslab o'rganishga oid usullar xulosasi yozilgan. Ushbu nusxalar Londonda (Oxford, Bodleian Library, Thurston 3, Marsh 720; Leiden, Oriental, nr. 174/2 raqam ostida) saqlanmoqda.

Uning "Xilasus tarkibil aflak" asari ham astronomiyaga oid bo'lib, Mashhadda (nr. 5593/9 raqam ostida) saqlanmoqda. Alloma asarlarida keltirgan iqtiboslarini astronom Qutbiddin Sheroziy qattiq tanqid qilib, "yaroqsiz va aniq xatolar" deb ta'riflagan. Ammo XVI asrning ikkinchi yarmida yashagan astronom Nosiriddin Tusiy "Risala si fasl Chag'iniy al-Mullahas fil haya" asarida usturlubning qo'llash uslubini keltirgan va Muhammad Juzjoniylarga atab qasida ham bitgan [2].

Tarixchi, atoqli o'zbek sharqshunosi, manbashunos, faxriy professor Bo'riboy Ahmedov o'zining "Tarixdan saboqlar" asarida ham mazkur shaxs bilan bog'liq qimmatli ma'lumotlarni yozib

qoldirgan: "...Uning ish kuni tartibi to'g'risida shogirdi bunday deb yozgan edi: "U (Ibn Sino) tong otmasdan uyg'onar va "Kitob as-shifo" ustida ishlar edi, tong otgach esa shogirdlarini qabul qilardi. Ertalabgi vaqti shogirdlar bilan band bo'lardi. Bu paytda hovli bemorlar bilan gavjum bo'lar edi... Ibn Sino to'peshin namozigacha shogirdlari bilan mashg'ulot o'tkazar edi..." Ammo shunga qaramay, Abu Ubayd Juzjoniylarning ta'kidlashicha, u (Ibn Sino) bir kunda ba'zan ellik varaqqacha ilmiy asarlar yozgan"[3:50].

Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo" romani qahramoni Abu Ubayd al-Juzjoniylar haqidagi tarixiy ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur obraz nafaqat badiiy asarning konstruksiyasida muhim o'rin tutadi, balki tarixiy haqiqatga ham asoslangan. Ilmiy nuqtayi nazardan qaralganda Juzjoniylar o'z zamonasining nufuzli va yetuk allomalari qatorida bo'lgan tarixiy shaxsdir.

Tarixiy manbalar va arxiv hujjatlari uning hayoti, ilmiy faoliyati hamda asarlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. U o'z davrida tibbiyot, falsafa, matematika va falakiyot sohalarida chuqur bilimlarga ega bo'lib, Ibn Sino kabi buyuk olimlarning yaqin do'sti va shogirdi sifatida tanilgan. Shuningdek, uning ilmiy merosi va tarjimai holi asar qahramonini yaratishda muallif uchun asosiy material bo'lib xizmat qilgan. Ushbu xulosalar nafaqat badiiy tahlil uchun, balki tarixiy va madaniy kontekstni chuqurroq tushunish uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lib, asarning ilmiy-estetik qadriyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. –Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.704-b.
2. Bukhari.uz. Abu Ubayd Abduvohid ibn Muhammad Juzjoniylar. Daurbekova I., Halimova D. 2021.
3. Ahmedov B., Tarixdan saboqlar. –Toshkent: O'qituvchi, 1994.431-b.
4. Yoqubov O. Ko'hna dunyo. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.432-b.
5. Karimov.B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. –T.: Muharrir. 2011. 12-bet
6. Z.Mirzayeva, K.Jalilov, O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. –T.: Academ space, 2024.296-b.
7. Nosirov A. Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini ("Yulduzli tunlar" romani misolida): Filologiya fanlari nomzodi. ...dis. –Toshkent, 1999.127-b.
8. Abdusamatov H. Tarix va badiiy talqin. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1995. 184-b.
9. Abdug'afurov A. Qalb qaridagi qadriyatlar. –Toshkent: O'qituvchi, 1988.215- b.
10. Alimov P. Tarix, shaxs, badia. –Toshkent: O'zbekiston, 1991.64-b.

Dilobod ABDURAIMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktranti
dilobodabduraimova6@gmail.com



TA'LIMDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASIGA OID TESTLARNI YARATISH VA BAHOLASH

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili ta'limida tinglab tushunish (eshitib tushunish) ko'nikmalarini shakllantirish, baholash zarurati va testlar yaratish metodikasiga e'tibor qaratadi. Maqolada ta'limning maqsadi, baholash jarayonining komponentlari, bugungi kundagi test tizimi haqida fikr yuritilgan va misol tariqasida tinglab tushunish ko'nikmasiga oid test keltirilgan.

Kalit so'zlar: darslik, test, tinglab tushunish, ko'nikma, malaka, tajriba, savol, topshiriq.

Аннотация: в этой статье уделяется внимание формированию и оценке навыков аудирования (восприятия на слух) в обучении родному языку, а также методике составления тестов. В статье рассматриваются цель обучения, компоненты процесса оценки, современная система тестирования, и в качестве примера приводится тест, направленный на проверку навыков аудирования.

Ключевые слова: учебник, тест, аудирование, навык, квалификация, опыт, вопрос, задание

Annotation: this article focuses on the formation and assessment of listening comprehension skills in native language education, as well as the methodology for creating tests. The article discusses the purpose of instruction, the components of the assessment process, the current testing system, and, as an example, presents a test aimed at evaluating listening comprehension skills.

Key words: textbook, test, listening comprehension, skill, experience, question, task.

Bugungi kunda ta'limning bosh maqsadi faqat bilim berish emas, qobiliyat va fazilatlarni rivojlantirish. Kam vaqt sarflab, sifatli natijaga erishishni talab etayotgan bugungi tezkor zamonda ta'limdan bilimli emas, balki bilimni hayotda qo'llay biladigan moslashuvchan avlodni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu esa ta'lim jarayonida muhim vazifalarni kun tartibiga chiqarmoqda. Ma'lumki, jahon pedagogikasida "ta'lim uchburchagi" degan tushuncha mavjud, bu ta'lim jarayonining uchta asosiy komponenti hisoblanadi. Bu haqida bir qancha olimlar o'z fikrlarini bildirgan. Jumladan, ingliz olimi J. Orlando ¹ "o'quv rejasi, o'qitish va baholash ta'limning uchta asosiy tarkibiy qismi", degan. Umuman olganda, baholash umumiy o'rta ta'limda ta'lim oluvchilarning o'qitish jarayonida Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida belgilangan malaka talablarini egallash darajasini aniqlash uchun mexanizm va mezondir. Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hozirgi kunda asosan, test topshiriqlari ko'rinishida. Tizimimizda test olish bo'yicha qariyb 30 yillik tajriba bo'lsa-da, test tuzish metodikasi takomillashmadi. "Test" deyilganda 4ta muqobil javobli variant tushuniladi. Vaholanki, testologiyada testning tuzilishi va metodikasiga ko'ra bir qancha turlari mavjud. Bugungi kunda Ona tili ta'limida o'quvchilarning baholanishi kerak bo'lgan konstruktligiga ham o'zgarish kiritgan holda, o'quvchilarning xotirasini emas, ushbu fan bilan bog'liq ko'nikmalarini, o'rgangan bilimlarini qanday qo'llay

olishini tekshirishimiz kerak. O'quvchilarning 4 ta bilim va ko'nikmalari qatorida, tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish va uni baholashga alohida e'tibor berishimiz zarur.

O'quvchilarning tinglab tushunish malakasini baholashning psixofiziologik asoslari. Psixolingvistikaga oid bo'lgan adabiyotlardan ma'lumki, insonlar o'rtasidagi muloqot jarayoni 4 ta kognitiv malaka asosida amalga oshadi. Mazkur nutqiy ko'nikmalar o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi. Bu ko'nikmalar og'zaki va yozma nutq bilan bog'liq. So'zlash va tinglab tushunish ko'nikmalari og'zaki nutq bilan bog'liq bo'lsa, yozish va o'qib tushunish yozma nutq bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek, mazkur ko'nikmalar muloqot jarayonida mazmunni ifodalash yoki idrok qilishi nuqtayi nazardan ham bir-biridan farqlanadi. Umuman, bu jarayonlar psixolingvistikada kodlash (fikrni signallar: tovush yoki grafemalar bilan ifodalash) va dekodlash (grafemalar yoki tovush bilan ifodalangan ma'lumotlarni idrok qilish) jarayoni deb yuritiladi. Bu tushunchalar psixolingvistik tadqiqotlarda o'rganilgan va ilmiy asoslangan.

Dekodlash jarayoni psixologiyada nutqiy persepsiya deb ataladi. Persepsiya – bu insonning borliqni idrok etish jarayoni. Nutqiy persepsiya esa bu verbal va vizual birliklar yordamida borliqdagi hodisalarni idrok etish, talqin qilish va tushunish jarayonidir. Idrok qilish tinglab tushunish yoki o'qib tushunish tarzida amalga oshadi. Tinglab tushunish og'zaki nutqda ifodalangan ma'lumotlarni anglash, fahmlash, idrok qilish demakdir.

¹ Shihab Jimaa. The impact of assesment on students learning. //Procedia – Social media Behavioral Sciences 28 (2011)

Ona tilini o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi topshiriqlar tuzish va ushbu ko'nikmani baholash alohida ahamiyatga ega. Quyida 7-sinf o'quvchilari uchun tinglab tushunish ko'nikmasini tekshirish uchun Test variantini ko'rishingiz mumkin. Variant bo'limlardan iborat, A2 darajada B1 va B2 darajadagi topshiriqlardan ketma-ket foydalanilgan.

1-BO'LIM. Siz bir nechta gap tinglaysiz va ushbu gapga mos eng to'g'ri javobni tanlang (A. B. C). Har bir dialog ikki martadan eshittiriladi.

Bugun mening ishlarim juda ham ko'p edi. UZR, siz bilan borolmayman. Vaqtimni taqsimlay olmayapman.

- A) Men bandman
- B) Men yo'ldaman
- C) Metroda

1. Aytishlaricha bugun "Muqimiy" nomidagi davlat teatri-da juda ham qiziqarli spektakl premyerasi bo'lar ekan

- A. Mening vaqtim yo'q
- B. Universitet yonida
- C. Birga boramizmi

2. Men ertaga Amerikaga ketyapman. Endi o'qishimni o'sha yerda davom ettirmoqchiman.

- A. Samolyot nechida uchadi
- B. Albatta, men xohlamayman
- C. Mening yodimdan ko'tarilibdi

3. Durdona kecha biz bilan zooparkni aylanishga bormoqchi eding. Nima uchun bormading?

- A. Bandman
- B. Kechirasiz
- C. Ishim bor edi

4. Assalomu aleykum, xush kelibsiz! Sayohat agentligimizga uchun, qanday maqsadda keldingiz?

- A. Juda ham xursandman.
- B. Rahmat, sog' bo'ling
- C. Onam bilan aylanmoqchi edim

5. Ertaga mening birinchi o'qish kunim!

- A. Men shu yerdaman
- B. Uchrashganimdan xursandman
- C. Omad tilayman.

2-BO'LIM. Siz bu yerda bir nechta e'lonlarni tinglaysiz va savollarga javob berasiz.(A. B. C) Har bir e'lon ikki martadan qaytariladi.

E'lon -1. Diqqat, hurmatli yo'lovchilar! Sizga ma'lum qilamizki, London shahriga uchadigan HY-590 air reysi os-

monda quyuq tuman paydo bo'lgani tufayli 3 soatga kechikmoqda. Dastlabki uchish vaqti soat 15:00 edi, endilikda samolyot 18:00 da jo'naydi.

Iltilimos, qo'shimcha ma'lumotlar uchun parvoz ma'lumotlarini kuzatib boring yoki xizmat ko'rsatuvchi xodimlarimizga murojaat qiling. Sizni xabardor qilib turamiz va bizni tanlaganingiz uchun rahmat!

Agar sizda qo'shimcha savollar bo'lsa, ma'lumot stoli yoki xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qilishingiz mumkin.

Kechikish va noqulayliklar uchun uzr so'raymiz. E'tiboringiz va tushunganingiz uchun tashakkur.

6. Reys nima uchun kechiktirildi?

- A) Yomon ob-havo tufayli
- B) Yo'lovchilar kechikkani uchun
- C) Texnik sabablarga ko'ra

7. HY-590 reysi necha soatga kechikmoqda?

- A) 1-kun
- B) 3 soat
- C) 1 soat 30 daqiqa

2-E'lon. Hurmatli mijozlar, sizni Next Mall savdo majmuasiga taklif qilamiz! Bizning erkaklar kiyim do'konimizda 30% chegirma bor, bu foydali taklif dushanba soat 6:00 gacha amal qiladi. Shunday imkoniyatni qo'ldan chiqarib yubormang!

Shuningdek, Next Mallda bolalar va ayollar kiyimlari do'koni ham mavjud. Siz o'zingiz va oilangiz uchun eng zo'r tanlovlarni topishingiz mumkin.

E'tiboringizga shuni ham taqdim etamizki, savdo majmuasi 00:00 gacha ochiq va aylanib yurishingiz mumkin. Sizni kutib qolamiz!

Hurmat bilan, Next Mall jamoasi

8. Chegirmalar mavjud do'konni ko'rsating?

- A) Bolalar do'konlarida
- B) Erkaklar do'konida
- C) Ayollar do'konida

9. Chegirmalar qachongacha amal qiladi?

- A) Dushanba soat 23:00 gacha
- B) Juma kuni tushlikkacha
- C) Dushanba kuni soat 6:00 gacha

Ushbu topshiriq yordamida o'quvchilarning tinglab tushunish qobiliyatini aniqroq baholash mumkin. Har bir usulni darslarning maqsadlari va o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda mos ravishda qo'llash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2022.
2. Lord F. and Novick M. (1968) Statistical Theories of Mental Test Scores. – Reading, MA: Addison-Wesley Pub.
3. Dr. Bob Kizlik. Measurement, Assessment, and Evaluation in Education. [http://www.adprima.com/measurement.htm]
4. Bastanfar, Ali. "Alternatives in assessment" Islamic Azad University, Khoy, Iran (2012).[https://www.academia.edu/download/43362488/DrJJ-Measure-assess-evaluate-ADPRIMAn-more-7052012.pdf]
5. Sh.Egamberdiyev v.b. (2024) 4K ko'nikmalarini baholash rubrikalari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Bookmany print.
6. Bloom, B. S., Engelhart, M. D., Furst, E. J., Hill, W. H., & Krathwohl, D. R. (1956). Taxonomy of Educational Objective

Madina ISMATOVA,
Toshkent Davlat Pedagogika universiteti
tayanch doktranti
ismatovamadina2407@gmail.com



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA CHET TILINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASPEKTLARI

Annotatsiya: ushbu maqola umumta'lim maktablarida chet tilini o'qitishning nazariy asoslari va ilmiy yondashuvlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada zamonaviy til o'qitish nazariyalari, pedagogik yondashuvlar va metodologik tamoyillar keng o'rganilgan. Tadqiqot natijalarida maktab muhitida chet tilini samarali o'qitish uchun kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *chet tili o'qitish, nazariy asoslar, umumta'lim maktab, til o'rganish, pedagogik yondashuvlar, metodologiya*

Annotation: this article is devoted to the analysis of the theoretical foundations and scientific approaches to teaching a foreign language in secondary schools. The article extensively explores modern language teaching theories, pedagogical approaches, and methodological principles. The results of the study show the need for an integrated approach to the effective teaching of a foreign language in the school environment.

Key words: *foreign language teaching, theoretical foundations, secondary school, language learning, pedagogical approaches, methodology*

Аннотация: данная статья посвящена анализу теоретических основ и научных подходов к преподаванию иностранного языка в общеобразовательных школах. В статье подробно рассмотрены современные теории обучения языку, педагогические подходы и методологические принципы. Результаты исследования указывают на необходимость комплексного подхода к эффективному преподаванию иностранного языка в школьной среде.

Ключевые слова: *преподавание иностранного языка, теоретические основы, общеобразовательная школа, изучение языка, педагогические подходы, методика*

Kirish. Globallashuv jarayonlari va xalqaro aloqalarning kengayishi sharoitida chet tillarini puxta egallash zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Umumta'lim maktablarida chet tilini o'qitish tizimining samaradorligini oshirish pedagogika fanining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi [1]. XXI asrda til o'rganish jarayoni shunchaki grammatik qoidalar va lug'at boyligini egallashdan ancha kengroq tushunchaga aylandi. Zamonaviy ta'lim paradigmasi til o'qitishni madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida qarashni taqozo etmoqda.

Chet tilini o'qitishning nazariy aspektlari ko'p qirrali muammoni tashkil etadi. Bu jarayonda psixolingvistik, pedagogik, metodologik va ijtimoiy omillar o'zaro ta'sirlashadi. Til o'rganish mexanizmlari haqidagi ilmiy qarashlar doimiy rivojlanib, yangi nazariyalar va yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Behavioristik nazariyadan boshlab, kognitiv yondashuv, ijtimoiy-madaniy nazariya va kommunikativ metodologiyagacha bo'lgan yo'l tilshunoslik va pedagogika fanlarining integratsiyasini namoyon etadi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda chet tilini o'qitishning nazariy aspektlarini o'rganish uchun adabiyotlar tahlili metodidan foydalanildi. Til o'rganish nazariyalarining tarixiy rivojlanishini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, XX asr boshlarida dominant bo'lgan audio-lingual metod asosan behavioristik psixologiyaga asoslangan edi [2]. Bu yondashuvda til o'rganish takrorlash

va mustahkamlash asosida hosil bo'ladigan odat tizimi sifatida qaralgan. Biroq keyingi tadqiqotlar shuni isbotladiki, til o'rganish mexanizmi ancha murakkab jarayon bo'lib, unda ijodkorlik, tushunish va kommunikativ ehtiyojlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Chomskiy tomonidan ishlab chiqilgan transformatsion-generativ grammatika nazariyasi til o'rganishga yangicha qarashni shakllantirdi [3]. Bu nazariya bo'yicha, inson miyasida til o'rganish uchun maxsus mexanizm – "til o'rganish qurilmasi" (Language Acquisition Device) mavjud. Bu konsepsiya chet tili o'qitishda grammatik qoidalarining ahamiyatini qayta ko'rib chiqishga olib keldi va til tizimining ichki mantiqini tushunishga yo'naltirilgan yondashuvlarni rivojlantirishga zamin yaratdi.

Kommunikativ yondashuv XX asr 70-yillarida paydo bo'lib, chet tili o'qitishda inqilobiy o'zgarishlar yaratdi [4]. Bu metodning asosiy prinsipi tilni muloqot vositasi sifatida o'rganishdir. Kommunikativ yondashuv doirasida til bilimi va til qobiliyati o'rtasida farq qilinadi. Til bilimi grammatik qoidalar va leksik birliklarni bilishni anglatadi, til qobiliyati bu bilimlarni real muloqot vaziyatlarida qo'llay olish ko'nikmalarini ifodalaydi. Kognitiv yondashuv til o'rganishni umumiy kognitiv rivojlanish jarayonining bir qismi sifatida ko'radi [5]. Bu nazariya bo'yicha, til o'rganish jarayonida xotira, diqqat, fikrlash kabi kognitiv jarayonlar faol ishtirok etadi.

Ijtimoiy-madaniy nazariya Vygotskiy g'oyalariga asoslanib, til o'rganishni ijtimoiy muloqot orqali sodir bo'ladigan jarayon deb hisoblaydi [6]. "Yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi chet tili darslarida kollektiv ishlash va o'qituvchi yordamining ahamiyatini ko'rsatadi. Rus pedagogi va metodisti I.L.Bim tomonidan ishlab chiqilgan tizimli-faoliyat yondashuvi chet tili o'qitishning murakkabligini hisobga olgan holda kompleks metodologiya taklif etadi [7]. Bu yondashuvda til o'qitish faoliyati tizimi sifatida qaralib, uning barcha komponentlarining o'zaro bog'liqligi ta'kidlanadi.

O'zbek metodistlari M.Yo'ldoshev va S.Jalolov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mahalliy sharoitda chet tilini samarali o'qitish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan [8]. Ular o'zbek maktablarida ingliz tilini o'qitishda ona tili interferensiyasini bartaraf etish va milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga olish masalalarini ko'rib chiqdilar. Zamonaviy adabiyotlarda chet tili o'qitishning yangi yo'nalishi – yakuniy kompetensiyalarga yo'naltirilgan ta'lim kengroq o'rganilmoqda [9]. Bu yondashuvda til o'rganishning natijasi konkret kompetensiyalar – kommunikativ, madaniyatlararo, o'rganish kabi ko'nikmalarda ifodalanadi. Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan UmumYevropa til kompetensiyalari tizimi (CEFR) bu sohada xalqaro standart hisoblanadi.

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili natijasida umumta'lim maktablarida chet tilini o'qitishning nazariy asoslari bir necha asosiy yo'nalish bo'yicha tahlil qilinishi mumkin. Birinchi navbatda, til o'rganish jarayonining psixologik mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chet tilini o'rganish ona tilini o'zlashtirishdan sezilarli farq qiladi. Ona tili tabiiy muhitda va erta yoshda o'zlashtirilsa, chet tili ko'pincha formal ta'lim sharoitida va kechroq boshlangan yoshda o'rganiladi.

Maktab yoshidagi o'quvchilarning kognitiv rivojlanish xususiyatlari chet tili o'qitish metodologiyasini belgilashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. 7-10 yosh oralig'idagi o'quvchilar konkret fikrlash bosqichida bo'lib, ular vizual va

auditiv modallik orqali ma'lumotni yaxshi qabul qiladilar. Shu sababli boshlang'ich sinflarda o'yinli metodlar, ko'rgazmali qurollar va interaktiv usullar samaraliroq natijalarga olib keladi [10].

O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar (11-14 yosh) formal operatsion fikrlash bosqichiga o'tish davrida bo'lib, ular abstrakt tushunchalarni ham tushuna oladilar. Bu bosqichda grammatik qoidalarni ongli ravishda o'rganish, til tizimining mantiqini anglash imkoniyatlari paydo bo'ladi. Biroq shu bilan birga, bu yoshdagi o'quvchilarda motivatsion omillar o'zgarib, ijtimoiy qabul qilinish ehtiyoji kuchayadi.

Yuqori sinf o'quvchilari (15-17 yosh) uchun chet tili o'rganish kelajakdagi professional faoliyat bilan bog'liq bo'lib qoladi. Bu davrda o'quvchilar o'zlarining karyera rejalari va hayotiy maqsadlarini aniqlashtira boshladilar, shuning uchun chet tili o'rganishda pragmatik motivatsiya kuchayadi.

Kommunikativ kompetensiya rivojlantirish masalasi zamonaviy chet tili o'qitishning markaziy yo'nalishlaridan biridir. Bu kompetensiya nafaqat til tizimini bilishni, balki turli xil kommunikativ vaziyatlarda til vositalaridan to'g'ri foydalanish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiga lingvistik, pragmatik va ijtimoiy-madaniy komponentlar kiradi.

Xulosa. Umumta'lim maktablarida chet tilini o'qitishning nazariy aspektlari ko'p qirrali va doimiy rivojlanayotgan soha hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, samarali chet tili o'qitish uchun turli nazariyalar va yondashuvlarning sintezi zarur. Behavioristik, kognitiv, kommunikativ va ijtimoiy-madaniy nazariyalarning har biri til o'rganish jarayonining ma'lum jihatlarini ochib beradi, lekin hech biri yakka holda to'liq yechim bera olmaydi. Maktab sharoitida chet tilini o'qitishda yoshga mos yondashuv, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish muhim tamoyillar hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanish bilan birga, o'qituvchining professional mahoratini doimiy rivojlantirish zaruriyati ta'kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
2. Skinner, B. F. (1957). *Verbal Behavior*. Appleton-Century-Crofts.
3. Chomsky, N. (1965). *Aspects of the Theory of Syntax*. MIT Press.
4. Savignon, S. J. (2017). *Communicative Competence: Theory and Classroom Practice*. McGraw-Hill Education.
5. McLaughlin, B. (1987). *Theories of Second-Language Learning*. Edward Arnold.
6. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
7. Бим, И. Л. (2001). *Методика обучения иностранным языкам как наука и проблемы школьного учебника*. Русский язык.
8. Йўлдошев, М., & Жалолов, С. (2006). *Чет тили ўқитиш методикаси*. Ўқитувчи.
9. Council of Europe. (2020). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment*. Cambridge University Press.
10. Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Education Limited.

Gulmira QURBONOVA,
QarDU 1-kurs tayanch doktranti
qgulmira34@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0003-4973-0311>

FAOLIYATLI YONDASHUVNING NUTQIY LINGVISTIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada faoliyatli yondashuvning nutqiy lingvistik kompetensiyani rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot zamonaviy ta'lim tizimida faoliyatli yondashuvning nazariy asoslari, amaliy qo'llanilishi va talabalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishdagi samaradorligi masalalariga bag'ishlangan. Natijalar faoliyatli yondashuvning talabalarning kommunikativ qobiliyatlari, til tizimi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *faoliyatli yondashuv, nutqiy lingvistik kompetensiya, pedagogik imkoniyatlar, til ta'limi, kommunikativ faoliyat, ta'lim metodikasi.*

Annotation: this article analyzes the pedagogical potential of the active approach in the development of speech linguistic competence. The study is devoted to the issues of theoretical foundations, practical application of the active approach in the modern education system and its effectiveness in the development of students' speech activity. The results show the positive impact of the active approach in the development of students' communicative abilities, knowledge and skills in the language system.

Key words: *active approach, speech linguistic competence, pedagogical potential, language education, communicative activity, educational methodology.*

Аннотация: в статье анализируется педагогический потенциал деятельностного подхода в развитии речезыковой компетенции. Исследование посвящено вопросам теоретических основ, практического применения деятельностного подхода в современной системе образования и его эффективности в развитии речевой активности учащихся. Результаты показывают положительное влияние деятельностного подхода на развитие коммуникативных способностей, знаний и умений учащихся в системе языка.

Ключевые слова: *деятельностный подход, речезыковая компетенция, педагогический потенциал, языковое образование, коммуникативная деятельность, методика обучения.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi talabalarning nafaqat bilim olishini, balki ularning faol, mustaqil va ijodiy fikrlashga qodir shaxs sifatida shakllanishini talab qiladi. Bu kontekstda faoliyatli yondashuv ta'limning asosiy paradigmalaridan biriga aylanib, talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi [1]. Nutqiy lingvistik kompetensiya zamonaviy ta'lim standartlarining asosiy komponentlaridan biri bo'lib, talabalarning til tizimi bo'yicha bilimlar, nutqiy faoliyat ko'nikmalari va kommunikativ qobiliyatlarining yagona majmuasini tashkil etadi [2].

Faoliyatli yondashuv nazariyasining asoschisi L.S. Vigotskiy va A.N. Leontyevning tadqiqotlari asosida ta'lim jarayonida talabalarning faol ishtirokini, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyat qobiliyatlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Nutqiy lingvistik kompetensiya kontekstida bu yondashuv talabalarning til materialini passiv qabul qilishi emas, balki faol ravishda qayta ishlashi va amaliy faoliyatda qo'llashini nazarda tutadi [3]. Zamonaviy til ta'limi metodikasida faoliyatli yondashuvning ahamiyati tobora ortib bormoqda, chunki u talabalarning kommunikativ faoliyatini rivojlantirish, real hayotiy vaziyatlarda til

vositalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot muammosining dolzarbligi zamonaviy ta'lim tizimida an'anaviy reproduktiv metodlarning cheklanganligida namoyon bo'ladi. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar nazariy bilimlarni yaxshi egallasalar ham, real kommunikativ vaziyatlarda ulardan samarali foydalana olmaydilar [4]. Bu holatda faoliyatli yondashuv talabalarning nutqiy lingvistik potensialini to'liq ochishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqot adabiyotlar tahlili metodologiyasiga asoslangan bo'lib, faoliyatli yondashuv va nutqiy lingvistik kompetensiya masalalariga oid o'zbek, rus va xorijiy manbalar tahlil qilingan. Faoliyatli yondashuvning nazariy asoslari A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasiga borib taqaladi. Uning fikriga ko'ra, har qanday faoliyat maqsad, motiv va vositalarning yagona tizimini tashkil etadi [5]. Til o'rganish kontekstida bu yondashuv talabalarning nutqiy faoliyatini maqsadli, motivatsiyalashgan va vositalarga boy jarayon sifatida tashkil etishni ko'zda tutadi. Zamonaviy tadqiqotchilar faoliyatli yondashuvning asosiy tamoyillarini quyidagicha belgilaydilar: faoliyat xususiyati, maqsadlilik, ijtimoiy xarakter, ong va faoliyatning birligi [6].

Nutqiy lingvistik kompetensiya tushunchasi- ning evolyutsiyasini kuzatish mumkin. N. Chomskiyning generativ grammatika nazariyasidan boshlab, bu tushuncha talabalarning nafaqat grammatik qoidalarni bilishi, balki ularni kommunikativ maqsadlarda qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga olishi kerakligini ko'rsatadi [7]. D.H. Hymesning kommunikativ kompetensiya modeli nutqiy lingvistik kompetensiyaning to'rt asosiy komponentini belgilaydi: grammatik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, diskurs kompetensiyasi va strategik kompetensiya. Bu model zamonaviy til ta'limi metodikasida keng qo'llaniladi va faoliyatli yondashuv bilan organik ravishda bog'liqlidir [8].

Rossiya va MDH mamlakatlari tadqiqotchilarining ishlarida faoliyatli yondashuvning amaliy aspektlari chuqur o'rganilgan. I.A. Zimning tadqiqotlari shuni

ko'rsatadiki, faoliyatli yondashuv talabalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda eng samarali usullardan biri hisoblanadi [9]. Uning fikriga ko'ra, til o'rganish jarayonida talabalar passiv tinglovchilar emas, balki faol ishtirokchilar bo'lishi kerak. Bu yondashuv talabalarning til materialini chuqurroq tushunishi va uzoq muddatli xotirada saqlanishiga yordam beradi.

Xorijiy tadqiqotlarda faoliyatli yondashuvning zamonaviy talqinlari konstruktivist va kommunikativ metodlar bilan bog'liq holda rivojlanmoqda. J. Dewey va J. Piaget kabi tadqiqotchilarning ishlari talabalarning faol tajriba orqali o'rganishi konseptsiyasini rivojlantirgan. Zamonaviy kontekstda bu yondashuv task-based learning, project-based learning va collaborative learning metodlari orqali amalga oshiriladi [10].

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili natijalariga ko'ra, faoliyatli yondashuv nutqiy lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda bir qancha asosiy pedagogik imkoniyatlarga ega. Yondashuv talabalarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Faoliyat nazariyasiga asosan, talabalar o'zlarini nutqiy faoliyatning faol subyekti sifatida his qilganda, ularning ichki motivatsiyasi kuchayadi va o'rganish jarayoni yanada samarali bo'ladi. Faoliyatli yondashuv talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. An'anaviy metodlardan farqli o'laroq, bu yondashuv talabalarni real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi, ularning spontan nutqiy faoliyat qobiliyatlarini rivojlantiradi. Talabalar nafaqat grammatik qoidalarni o'rganadilar, balki ularni amaliy kontekstda qo'llashni ham o'rganadilar.

Faoliyatli yondashuv talabalarning meta-kognitiv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar o'z o'rganish jarayonini nazorat qilish, xatolarini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Faoliyatli yondashuv til o'rganishning ijtimoiy-madaniy kontekstini hisobga oladi. Talabalar tilni nafaqat grammatik tuzilma sifatida emas, balki madaniy-ijtimoiy faoliyat vositasi sifatida o'rganadilar. Bu

esa ularning sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Faoliyatli yondashuv talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Muammoli vaziyatlarni hal qilish, loyihalar ustida ishlash, guruh muhokamalarida faol ishtirok etish talabalarning ijodiy potensialini ochishga yordam beradi. Yondashuv talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Har bir talaba o'z qobiliyatlari, qiziqishlari va o'rganish uslubiga mos ravishda rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Faoliyatli yondashuv zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashish qobiliyatiga ega. Raqamli vositalar, multimedia materiallar va interaktiv dasturlar bu yondashuvning samaradorligini yanada oshiradi. Faoliyatli yondashuv talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Talabalar o'rganish jarayonining faol ishtirokchilari bo'lib, o'z

maqsadlarini belgilash, reja tuzish va natijalarni baholash qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Xulosa. Faoliyatli yondashuv nutqiy lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda keng pedagogik imkoniyatlarga ega bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimining asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Adabiyotlar tahlili natijalariga ko'ra, bu yondashuv talabalarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi, metakognitiv qobiliyatlarni shakllantiradi va ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi. Faoliyatli yondashuv an'anaviy reproduktiv metodlarning kamchiliklarini bartaraf etib, talabalarni real hayotiy vaziyatlarda til vositalaridan samarali foydalanishga tayyorlaydi. Shuningdek, o'qituvchilarning professional tayyorgarligini oshirish, faoliyatli yondashuvning amaliy tatbiq etilishini ta'minlaydigan o'quv-uslubiy majmualar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Леонтьев, А.Н. (2004). Деятельность. Сознание. Личность. Москва: Смысл.
2. Зимняя, И.А. (2003). Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования. Высшее образование сегодня, 5, 34-42.
3. Vigotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press.
4. Хуторской, А.В. (2002). Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. Народное образование, 2, 58-64.
5. Леонтьев, А.А. (1997). Основы психолингвистики. Москва: Смысл.
6. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Chomsky, N. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge: MIT Press.
8. Hymes, D.H. (1972). On Communicative Competence. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
9. Зимняя, И.А. (2001). Лингвопсихология речевой деятельности. Москва: Московский психолого-социальный институт.
10. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.

Maftuna RAHIMOVA,
 Qo'qonDU doktranti
 m-r.83@mail.ru

MANTIQIY TAFAKKUR VA TIL: MA'NAVIY O'SISHNING IKKI UNSURI

Annotatsiya: ushbu maqolada til va mantiqning shaxsning ma'naviy o'sishidagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilinadi. Til va mantiq o'rtasidagi uyg'unlik shaxsning fikr yuritish madaniyatini va ma'naviyatini shakllantiradi, ularning birlashuvi shaxsni ongli va axloqiy jihatdan yetuk qilishga xizmat qiladi. Maqolada tilning nafaqat muloqot vositasi, balki ma'naviyatni saqlovchi va uni avloddan-avlodga yetkazuvchi vosita sifatidagi roli ham ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *til, mantiq, ma'naviy o'sish, tafakkur, mantiqiy fikr, jamiyat, ta'lim, yoshlar tarbiyasi.*

Аннотация: статья посвящена углубленному исследованию роли языка и логики в духовном росте личности. Гармония между языком и логикой играет важную роль в формировании культурного уровня мышления и духовной зрелости личности. В статье подчеркивается, что язык является не только средством коммуникации, но и инструментом сохранения и передачи культурных и духовных ценностей, что отражает мировоззрение народа.

Ключевые слова: *язык, логика, духовное развитие, мышление, логическое мышление, общество, образование, воспитание молодежи.*

Annotation: this article provides an in-depth examination of the role of language and logic in the spiritual growth of an individual. The harmony between language and logic plays a crucial role in shaping intellectual culture and spiritual maturity. The article emphasizes that language is not only a tool for communication but also a means of preserving and transmitting cultural and spiritual values, reflecting the worldview of a society.

Key words: *language, logic, spiritual growth, thinking, logical reasoning, society, education, youth upbringing.*

Zamonaviy jamiyatda ma'naviy yuksalish inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Bugungi kunda har bir shaxsning intellektual salohiyati, fikrlash madaniyati va axloqiy qarashlari jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shaxsning ma'naviy kamolotida mantiqiy fikr va til asosiy o'rin egallaydi. Chunki til orqali inson o'z fikrlarini ifodalaydi, muloqotga kirishadi, bilimlarni egallaydi va o'zgaralar bilan tajriba almashadi. Mantiq esa tafakkurning tartibga solinuvchanligi, fikr yuritishning asoslangan va tizimli bo'lishini ta'minlaydi. Shu bois, bu ikki unsur — til va mantiq, shaxs ma'naviyatining shakllanishida o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi hodisalardir.

Til va mantiq o'rtasidagi munosabatni tahlil qilishda ularning o'zaro aloqasi va ta'sirini ko'rib chiqish zarur. Til insonning ichki dunyosini tashqi olamga yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. Biroq bu faqat so'zlarni va grammatikani bilish emas, balki fikrlarni aniq va to'g'ri tarzda ifodalashni anglatadi. Mantiqiy tafakkur esa shaxsning o'z fikrlarini mantiqiy asosda bayon etishini ta'minlaydi. Til va mantiq o'rtasidagi uyg'unlik, odamning fikrlarini yanada chuqurroq va mantiqan to'g'ri ifodalashga yordam beradi.

Mantiq til yordamida insonning muloqotini to'g'ri tashkil qilishga, fikrlarning izchilligini saqlashga yordam beradi. Aksincha, mantiqsiz til fikrlarning chalkash va noaniq bo'lishiga olib keladi. Shunday

qilib, til va mantiq bir-birini to'ldiruvchi ikki muhim unsur sifatida shaxsning fikrlash madaniyati va ma'naviyatining shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega.

Ma'naviy o'sishning tarixiy rivojlanishini ko'rib chiqishda til va mantiqning alohida roli borligini ta'kidlash lozim. Qadimgi falsafa va mantiq ta'limida til va mantiqning o'zaro ta'siri muhim o'rin tutgan. Masalan, Aristotelning "Organon" asarida mantiqiy fikrlash tizimi til orqali taqdim etilgan dalillarga asoslangan edi. Shu tariqa, qadimgi yunon falsafasida tilning mantiqiy tafakkur bilan bog'lanishi, ularning o'zaro uyg'unligi shaxsning ma'naviy yuksalishining asosini tashkil etgan. Sharqda esa Al-Forobiy, Ibn Sino va Alisher Navoiy kabi buyuk olimlar til va mantiqning shaxsiy kamolotdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaganlar.

Forobiy mantiq ilmining mohiyati va vazifasi haqida „Mantiq to'g'risidagi risolaga muqaddima“ asarida shunday deydi: „Bu shunday bir san'atki, u har doim odam notiqlikda adashib qoladigan bo'lsa, to'g'ri fikrlashga olib keluvchi va aql yordamida biror bir xulosa qilinadigan bo'lsa, xatolarning oldini oluvchi narsalarni o'z ichiga oladi. Uning aqlga nisbatan munosabati grammatika san'atining tilga nisbatan munosabati kabi. Grammatika odamlar nutqini to'g'rilagani kabi, u shuning uchun ham vujudga kelgan, mantiq ilmi ham xato kelib chiqishi mumkin

bo'lgan joyda tafakkurni to'g'ri yo'ldan olib borish uchun aklni to'g'rilab turadi"[3,537b].

Forobiy mantiq ilmidagi: tushuncha, muhokama, xulosa, isbot va boshqalarni tahlil qiladi. U induksiya, deduksiya va sillogizm (qiyoslash) haqida batafsil ma'lumot beradi. Shuningdek, olim hech qanday dalil isbotsiz bilinadigan fikrlarni 4 ga taqsimlaydi:

- maqbulot (ya'ni maqbul bo'lgan fikrlar);
- mashhurot (ya'ni, mashhur bo'lgan);
- mahsulot (ya'ni sezish va idrok natijasida bo'lgan);
- boshlang'ich ma'qulot (ya'ni bilim tushunchalar) [3,538b].

Forobiy ularning har birini mufassal tasvirlaydi. Olim mantiq ilmi va uning maqsad hamda vazifalari, voqelikni bilishdagi o'rnini aniq ko'rsatib bera olgan. Forobiyning mantiq ilmi haqidagi qarashlari hozir ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q, ular oliy o'quv yurtlarida qo'llanma vazifasini o'tamoqda.

Al-Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida ma'naviy o'sishni, ayniqsa, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning jamiyatda muhim ahamiyatga ega ekanligini bildirgan. U mantiqni insonning ruhiy, axloqiy va ma'naviy kamolotini shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida ko'rgan. Forobiyning fikriga ko'ra, to'g'ri mantiqiy fikrlash o'z-o'zini anglash va jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatni his qilish uchun zarurdir. **Ibn Sino** esa mantiqiy fikrlashni bilishning asosiy qismi sifatida ko'rgan va bu jarayonni ilmiy izlanishlar uchun asos sifatida belgilagan. Ibn Sino "Shifo kitobi"da mantiqiy tafakkurni insonning aqliy va ma'naviy o'sishida muhim rol o'ynaydigan vosita sifatida qaragan [1,78b]. U, shuningdek, tilni mantiqni tushunish va uni boshqalarga etkazishda asosiy vosita deb bilgan. Ibn Sino mantiqiy fikrni shakllantirishda ilmiy aniq dalillarga tayangan holda ishlashni ta'kidlagan. **Alisher Navoiy** o'zining asarlarida til va mantiqning ma'naviy va axloqiy yuksalishdagi o'rniga katta ahamiyat bergan. Uning "Xamsa" asarlarida fikrlarning mantiqiy asosda bayon etilishi, axloqiy qadriyatlarining til orqali ifodalanganligi, shaxsning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi. Navoiy tilni nafaqat aloqa vositasi sifatida, balki insoniyatni yuksaltiruvchi, uning ruhini poklaydigan kuch sifatida ko'rgan [2:378].

Bugungi kunda, jamiyatning rivojlanishida ham til va mantiqning o'zaro aloqasi hali ham dolzarbdir. Falsafa va mantiqni til orqali o'rganishning zamonaviy usullari bilimlarni chuqurroq tushunishga va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimida til va mantiqning o'rganilishi shaxsning ilmiy va ma'naviy kamolotida katta ahamiyatga ega. O'quvchilar va talabalar orasida mantiqiy tahlil qilish, mustaqil fikr bildirish va aniq dalillarga asoslanib munozara yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish — nafaqat ilmiy, balki ma'naviy tarbiyaning ham muhim qismidir. Ta'lim jarayonida til va mantiqni birgalikda o'rganish, shaxsning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Mantiqiy fikrning shakllanishi uchun tilning aniq va to'g'ri ishlatilishi zarur. O'quvchilarni fikr yuritishda lo'nda, mantiqiy va tizimli bo'lishga o'rgatish, kelajakda ularning mustaqil va ongli shaxslar sifatida jamiyatda faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

Kundalik hayotda til va mantiqning o'zni katta. Insonlar o'z fikrlarini boshqalar bilan muhokama qilishda, qarorlar qabul qilishda va axloqiy tanlovlar qilishda til va mantiqdan foydalanadilar. Misol uchun, ish joyida yoki oilada qarorlar qabul qilishda mantiqiy asoslangan fikrlar yordamida adolatli va to'g'ri qarorlar qabul qilinadi. Shuningdek, shaxsning til madaniyati va mantiqiy fikrlash qobiliyati ijtimoiy muloqotda o'zini qanday tutish, boshqalar bilan muomala qilishda ham ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda, jahonning turli burchaklarida ishlash va yashash uchun kerakli bo'lgan mantiqiy fikrlash va samarali muloqot qilish qobiliyatlari, shaxsning ijtimoiy faolligini va muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlaydi.

Zamonaviy jamiyatda til va mantiqni noto'g'ri ishlatish natijasida yuzaga kelayotgan muammolar ko'p. Masalan, noto'g'ri tushunishlar, so'zlarning ma'nosini noto'g'ri izohlash va mantiqsiz xulosa chiqarish muammolari mavjud. Jamiyatda til va mantiqning uyg'un ishlatilmasligi, shaxslarning noto'g'ri qarorlar qabul qilishiga olib keladi. Shuning uchun, til va mantiqni to'g'ri ishlatish, insonning ma'naviy va axloqiy yuksalishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, til va mantiq — shaxsning ma'naviy kamolotida beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan ikki muhim unsurdir. Til va mantiqning uyg'unligi, insonning fikrlash doirasini kengaytiradi va uning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlaydi. Ma'naviy yuksalish sari intilgan har bir shaxs, avvalo, o'z tafakkurini mantiqiy asosda shakllantirishi, so'zni qadrlashi va til madaniyatiga hurmat bilan yondashishi zarur. Maqolada ta'kidlanganidek, til va mantiqni birgalikda o'rganish shaxsni ongli hayot tarziga, axloqiy va ilmiy rivojlanishga olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ergashov O. Ibn Sinoning mantiq ilmi rivojiga qo'shgan hissiyati va mantiqqa oid asarlari // Ta'limda raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. 2024, 35-to'plam. 78-bet.
2. Yo'ldashev A. Alisher Navoiy asarlarida so'z tavsifi. FarDU. Ilmiy xabarlar. 2023, 2-son. 378-bet.
3. Xosilmurodov I. Abu Nasr Forobiyning mantiq ilmi haqida oid qarashlari. — Jizzax, 2024. 537-538-betlar.

Mavjuda QARAYEVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti doktoranti.
mustafoyim0207@gmail.com

GENDER LINGVISTIKASINING RIVOJLANISH TARIXI VA YONDASHUVLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada gender lingvistikasi fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayoni, uning nazariy yondashuvlari hamda zamonaviy paradigmalari tahlil qilinadi. Gender va til o'zaro qanday ta'sir qilishi, ijtimoiy-madaniy kontekstda erkak va ayol nutqidagi farqlar, shuningdek, lingvistik tadqiqotlarda gender omilining ahamiyati yoritiladi. Maqolada klassik nazariy qarashlar, zamonaviy ilmiy izlanishlar va ularning qo'llanilish sohasi misollar yordamida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *gender lingvistika, sotsiolingvistika, til va jamiyat, nutq farqlari, tilshunoslik paradigmalari.*

Аннотация: в статье анализируется возникновение и развитие гендерной лингвистики, её теоретические подходы и современные парадигмы. Обсуждаются вопросы взаимодействия гендера и языка, различия в мужской и женской речи в социокультурном контексте, а также значение гендерного фактора в лингвистических исследованиях. В статье рассматриваются классические теоретические взгляды, современные научные исследования и области их применения на примерах.

Ключевые слова: *гендерная лингвистика, социолингвистика, язык и общество, речевые различия, языковые парадигмы.*

Annotation: this article analyzes the emergence and development of the discipline of gender linguistics, its theoretical approaches and modern paradigms. It discusses how gender and language interact, the differences in male and female speech in a sociocultural context, and the importance of the gender factor in linguistic research. The article examines classical theoretical views, modern scientific research and their areas of application using examples.

Key words: *gender linguistics, sociolinguistics, language and society, speech differences, linguistic paradigms.*

Kirish. Gender lingvistikasi tilshunoslikning so'nggi o'n yilliklarda jadal rivojlanib kelayotgan yo'nalishlaridan biridir. Bu soha til va ijtimoiy jins (gender) o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganadi hamda tilning erkaklar va ayollar nutqida qanday namoyon bo'lishini tahlil qiladi. Mazkur fan sohasi 1970-yillardan boshlab alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllana boshlagan bo'lib, u sotsiolingvistika, pragmatika va madaniyatshunoslik bilan bevosita uzviy bog'langan.

Gender lingvistikasining shakllanishida Robin Lakoffning "Language and Woman's Place" (1975) asari muhim rol o'ynagan. U ayollar nutqidagi til vositalari va ularning ijtimoiy maqomi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan. Shundan so'ng ko'plab olimlar til va gender munosabatlarini tadqiq etib, bu sohada yangi yondashuv va paradigmalarining paydo bo'lishiga zamin yaratdilar [Lakoff, 1975: 42].

Bugungi kunda gender lingvistikasi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etmoqda. U ta'lim, ommaviy axborot vositalari, siyosat, adabiyot va boshqa ko'plab sohalarda tilni tahlil qilishda qo'llaniladi. Gender stereotiplari, kommunikativ

strategiyalar va nutq uslublaridagi farqlar ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynaydi. Shu bois ushbu maqolada gender lingvistikasining tarixiy rivojlanishi, asosiy yondashuvlari hamda zamonaviy paradigmalari ko'rib chiqiladi.

1 Tarixiy asoslar. Gender lingvistikasining shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Avvaliga bu yo'nalish sotsiolingvistikaning tarkibiy qismi sifatida qaralib, unda jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlarining nutqiy xususiyatlari, xususan, erkak va ayol nutqi o'rtasidagi farqlar o'rganilgan. Ushbu davrda tilning ijtimoiy funksiyasi keng muhokama qilinib, shaxsning jamiyatdagi mavqei va jinsi uning nutqiy strategiyalari hamda til vositalaridan foydalanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ilmiy dalillar bilan asoslandi. 1970-yillardan boshlab esa bu mavzu mustaqil ilmiy tadqiqot sohasi sifatida shakllanib bordi. Bu jarayon nafaqat AQSh va Yevropada, balki boshqa tillarda olib borilgan lingvistik izlanishlarda ham ko'zga tashlandi.

Robin Lakoffning yuqorida qayd etilgan "Language and Woman's Place" (1975) asari gender lingvistikasining alohida yo'nalish sifatida

shakllanishida poydevor bo'ldi. U ayollarning til vositalaridan foydalanishidagi o'ziga xos xususiyatlarni ijtimoiy tengsizlik kontekstida tahlil qilib, jamiyatdagi gender rollarining nutqda qanday namoyon bo'lishini ko'rsatib berdi. Lakoff ayollar nutqidagi so'zlovchining ishonchsizligini yoki kamroq hokimiyatni bildiruvchi uslublarni "defitsit yondashuvi" orqali izohladi. Bu esa, o'z navbatida, ilmiy doiralarda keng bahsmunozaralarga sabab bo'lib, keyingi tadqiqotlarning metodologik yo'nalishini belgilab berdi.

Robin Lakoffning yuqorida tilga olingan asari bilan bir qatorda, Dale Spender, Deborah Tannen va boshqa tadqiqotchilar ham til va gender o'rtasidagi munosabatlarni chuqur o'rganib, erkaklar va ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy rollari til orqali qanday namoyon bo'lishini yoritdilar [Spender, 1980: 15]. Ularning ishlari nafaqat nazariy tushunchalarni boyitdi, balki lingvistik hodisalarni tahlil qilishda gender omilini markaziy kategoriya sifatida qarash imkonini yaratdi. Masalan, Spender erkaklar tilining "ustunlik"ni ta'minlovchi mexanizmlarini ko'rsatib bergan bo'lsa, Tannen ayollar va erkaklar nutqidagi farqlarni kommunikativ strategiyalar nuqtayi nazaridan tahlil qildi.

1980-yillarda feministik tilshunoslik jadal rivojlanib, gender lingvistikasining nazariy asoslarini mustahkamladi. Bu davrda ayollar nutqining "quyi maqomda" talqin qilinishi va erkaklar nutqining "ustunlik" ramzi sifatida baholanishi keng muhokama qilindi. Ayniqsa, feministik nazariya doirasida til va hokimiyatning o'zaro bog'liqligi masalasi dolzarb bo'lib qoldi. Tadqiqotchilar til nafaqat muloqot vositasi, balki ijtimoiy hukmronlik va tengsizlikni mustahkamlash quroli sifatida ham xizmat qilishi mumkinligini ta'kidladilar. Shu sababli, tilshunoslikdagi gender tadqiqotlari faqat lingvistik shakllarni emas, balki ularning ijtimoiy-madaniy mazmunini ham yoritishga yo'naltirildi [Tannen, 1990: 67].

Bu davrda olib borilgan tadqiqotlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular tilni faqat erkak va ayol nutqi o'rtasidagi farqlar orqali emas, balki kengroq ijtimoiy tizimning bir qismi sifatida tushunishga yordam berdi. Natijada gender lingvistikasida "dominatsiya nazariyasi" va "farqlar nazariyasi" kabi asosiy yondashuvlar shakllandi. Dominatsiya nazariyasiga ko'ra, erkaklar nutqi ijtimoiy hokimiyatni mustahkamlasa, ayollar nutqi subordinatsiyani aks ettiradi. Farqlar nazariyasi esa bu tafovutlarni qarama-qarshilik emas, balki turli kommunikativ ehtiyojlar va strategiyalarning mahsuli sifatida izohlaydi. Bu yondashuvlar keyingi tadqiqotlar uchun muhim metodologik asos yaratdi.

Shu tariqa, gender lingvistikasining XX asr oxiridagi rivojlanish bosqichi uni mustaqil fan sohasi sifatida shakllantiribgina qolmay, balki til va jamiyatning o'zaro ta'sirini o'rganishda yangicha ilmiy paradigma paydo bo'lishiga ham zamin yaratdi. Tilni gender nuqtayi nazaridan o'rganish orqali ijtimoiy stereotiplar, hokimiyat munosabatlari va kommunikativ xulq-atvorning chuqur ildizlari ochib berildi. Bu esa zamonaviy lingvistika doirasida genderni fundamental tushuncha sifatida qarash imkonini berdi.

2. Nazariy yondashuvlar.

Gender lingvistikasi doirasida bir nechta nazariy yondashuvlar shakllangan:

1.Dominatsiya nazariyasi. Bu yondashuvga ko'ra, erkaklar nutqi ijtimoiy va siyosiy hokimiyatni ifodalaydi, ayollar esa subordinatsiya holatida bo'ladi. Nutqiy tengsizlik jamiyatdagi gender tengsizlikni mustahkamlaydi [Zimmerman & West, 1975: 125]. Ushbu nazariya doirasida erkaklarning suhbatni tez-tez bo'lishi, ayollarning esa ko'proq tinglovchi rolda bo'lishi kuzatilgan. Shuningdek, bu yondashuv tilning hokimiyatni saqlash va ijtimoiy tuzilmalarni barqarorlashtirishdagi vositachilik funksiyasini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda ayollar nutqining "kamroq nufuzli" deb baholanishi til va jamiyatning o'zaro ta'sirini yaqqol namoyish etadi. Demak, dominatsiya nazariyasi tilni nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki kuch va hukmronlik mexanizmi sifatida ham o'rganish zarurligini ta'kidlaydi.

2.Farqlar nazariyasi. Deborah Tannen tomonidan ilgari surilgan bu yondashuv erkaklar va ayollar nutqidagi farqlarni qarama-qarshilik emas, balki turli kommunikativ strategiyalar natijasi sifatida izohlaydi. Erkaklar ko'proq raqobatga asoslangan uslublardan foydalansa, ayollar hamkorlik va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan uslublarni afzal ko'radilar [Tannen, 1990: 43]. Bu nazariya ijtimoiy muloqotdagi kelishmovchiliklarning ko'p hollarda "notanish madaniyatlar" o'rtasidagi tafovut sifatida talqin qilinishiga imkon beradi. Masalan, erkak va ayollar o'rtasidagi tushunmovchiliklar nutqiy strategiyalarning qarama-qarshiligidan emas, balki kommunikativ qadriyatlarining farqliligidan kelib chiqadi. Shu bois, farqlar nazariyasi gender lingvistikani konflikt emas, balki ko'p madaniy yondashuv sifatida talqin qilishga yordam beradi.

3.Performativ yondashuv. Judith Butlerning nazariy qarashlariga asoslangan bu yondashuv genderni ijtimoiy konstrukt sifatida talqin qiladi. Ya'ni gender insonlarning nutqiy va kommunikativ faoliyati orqali "ijro etiladi" va doimiy ravishda qayta ishlab chiqiladi [Butler, 1990: 12]. Bunda til genderning

doimiy ravishda shakllanish jarayoni sifatida ko'riladi. Masalan, insonlarning kundalik muloqotda qo'llaydigan murojaat shakllari, ovoz ohangi yoki hatto tana tilidagi signallar ham genderning ijtimoiy namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, performativ yondashuv genderni "barqaror kategoriya" emas, balki doimo qayta quriladigan dinamik jarayon sifatida tushuntiradi.

Ushbu yondashuvlarning barchasi til va gender munosabatlarini turli rakurslardan o'rganishga imkon yaratdi hamda gender lingvistikasining metodologik asosini kengaytirdi. Shuningdek, ularning turlicha nazariy qarashlari tadqiqotchilarga murakkab sotsiolingvistik hodisalarni keng qamrovda tushuntirish imkonini berdi.

3. Zamonaviy paradigmalari. XXI asrda gender lingvistikasi yanada diversifikatsiyalashdi. Zamonaviy tadqiqotlarda nafaqat erkak va ayol nutqi, balki turli jinsiy identifikatsiya va gender ifodalarning til orqali qanday namoyon bo'lishi ham o'rganila boshlandi. Masalan, neytral jins shakllarining qo'llanilishi, LGBTQ+ jamoalar nutqi va internet diskursidagi gender ifodalari keng tadqiq etilmoqda [Cameron, 2005: 87]. Bu esa lingvistika fanida genderni faqat "ikkilik tizim" (erkak-ayol) sifatida emas, balki ko'p qirrali, murakkab va dinamik fenomen sifatida talqin qilishga olib kelmoqda.

Shuningdek, ko'p tillilik kontekstida gender masalalari ham diqqat markaziga tushmoqda. Har bir til o'zining grammatik, leksik va pragmatik xususiyatlariga ko'ra genderni turlicha ifodalaydi. Masalan, o'zbek tilida jins grammatik kategoriyasi mavjud emas, ammo leksik birliklar orqali genderni farqlash kuzatiladi. Ingliz tilida esa ayrim jinsga bog'liq bo'lgan olmoshlar va so'zlar gender farqlarini aks ettiradi. Bundan tashqari, ispan, nemis yoki fransuz tillarida jins grammatik kategoriya sifatida mavjud bo'lib, tilning genderga munosabatini yanada murakkablashtiradi. Bu holat ko'p tillilik sharoitida gender lingvistikasining qiyosiy tahlilini olib borish zarurligini ko'rsatadi.

4. Amaliy qo'llanilishi. Gender lingvistikasi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Ta'lim jarayonida o'qituvchilarning til uslublarida gender stereotiplari mavjudligi o'quvchilarning o'zini anglashi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu stereotiplar qiz bolalar va o'g'il bolalarning o'z qobiliyatlarini turlicha baholashlariga sabab bo'lib, ta'limdagi tengsizlikni kuchaytirishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun zamonaviy pedagogik metodlarda genderga nisbatan neytral va inklyuziv til qo'llash muhim hisoblanadi. Ommaviy axborot

vositalarida gender stereotiplari matnlar, reklama va teleko'rsatuvlarda keng qo'llanilib, ijtimoiy ongga singib ketadi [Mills, 2008: 54]. Media tilida erkaklarni faol, ayollarni esa passiv sifatida tasvirlash jamiyatda gender rollarini mustahkamlaydi. Shu bois, media lingvistikasida genderga oid tahlillar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Siyosat va diplomatiya sohasida ham genderga oid til ishlatilishi muhim o'rin tutadi. Nutqdagi gender neytrallik siyosiy diskursda tenglikni targ'ib qilishning muhim vositalaridan biridir. Masalan, rasmiy hujjatlarda yoki siyosiy nutqlarda gender neytral terminlardan foydalanish demokratik qadriyatlarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikda ham gender lingvistikasining metodlari asarlarni tahlil qilishda qo'llanilmoqda. Bunda matnning qahramonlari, ularning nutqiy xususiyatlari va tarjima jarayonida genderga xos elementlarning qanday aks ettirilishi chuqur tahlil qilinadi. Bu esa tilshunoslik va adabiyotshunoslik orasidagi chegarani kengaytirib, gender tadqiqotlarini ko'p qirrali fanlararo yo'nalish sifatida mustahkamlaydi.

Xulosa. Gender lingvistikasi bugungi kunda tilshunoslikning dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Soha taraqqiyotining turli bosqichlari shuni ko'rsatadiki, dastlab tadqiqotlar, asosan, ayollar nutqidagi o'ziga xosliklarni aniqlashga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik erkaklar va ayollar nutqidagi farqlar, til va hokimiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar, hamda genderning ijtimoiy konstrukt sifatida shakllanishi kabi fundamental masalalar ilmiy e'tibor markaziga chiqdi. Bu esa gender lingvistikasi nafaqat empirik kuzatuvlar, balki nazariy yondashuvlar bilan ham boyib, mustaqil ilmiy yo'nalishga aylanganidan dalolat beradi.

Dominatsiya nazariyasi, farqlar nazariyasi va performativ yondashuv kabi turli metodologik qarashlar til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni turli rakurslardan talqin qilish imkonini berdi. Dominatsiya yondashuvi til orqali kuch va hokimiyatning gender bo'yicha taqsimlanishini ko'rsatsa, farqlar nazariyasi erkak va ayol nutqidagi tafovutlarni kommunikativ strategiyalarning xilma-xilligi sifatida tushuntirdi. Performativ nazariya esa genderning barqaror emas, balki nutqiy amaliyotda doimiy ravishda qayta yaratiladigan ijtimoiy konstrukt ekanini ilmiy asoslab berdi. Ushbu yondashuvlarning integratsiyasi gender lingvistikasining metodologik doirasini sezilarli darajada kengaytirdi.

XXI asrga kelib, gender lingvistikasi yanada diversifikatsiyalanib, nafaqat an'anaviy erkak va

ayol nutqini, balki turli jinsiy identifikatsiyalarni, ko'p tillilik sharoitida gender ifodalarini, internet va raqamli diskursdagi gender namoyonlarini ham qamrab ola boshladi. Masalan, LGBTQ+ jamoalar nutqi, neytral jins shakllarining paydo bo'lishi, shuningdek, turli tillarda genderning grammatik, leksik va pragmatik darajalarda aks etishi yangi tadqiqot yo'nalishlarini ochib berdi. Bu jarayon tilning nafaqat lingvistik, balki sotsiokulturniy va ideologik funksiyalarini ham keng qamrovli tarzda tahlil etish imkonini yaratdi. Amaliy nuqtayi nazardan, gender lingvistikasining ahamiyati yanada kattadir. Ta'lim tizimida gender stereotiplarning mavjudligi o'quvchilarning o'z-o'zini anglash jarayoniga bevosita ta'sir etishi mumkin, shu bois pedagogik kommunikatsiyada gender neytral yondashuvni joriy etish dolzarbdir. Ommaviy axborot vositalarida, reklama va siyosiy nutqda

gender ifodalarining qanday qo'llanishi ijtimoiy ongning shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikda gender lingvistikasi asarlarni yangi badiiy va semantik rakurslardan tahlil qilish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, gender lingvistikasi tilning ijtimoiy o'rni va uning jamiyatdagi kuch munosabatlari bilan bog'liqligini chuqurroq anglash imkonini beruvchi muhim ilmiy sohaga aylandi. Uning nazariy yondashuvlari va amaliy tatbiqlari global ijtimoiy jarayonlarda gender tengligini ta'minlash, stereotiplarni yengib o'tish va teng huquqli kommunikatsiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusida bu yo'nalishning yanada rivojlanishi tilshunoslikning yangi paradigmalari shakllanishida, madaniyatlararo muloqotda va ijtimoiy siyosiy barqarorlikni ta'minlashda beqiyos ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff, R. *Language and Woman's Place*. – New York: Harper & Row, 1975. 214-b.
2. Spender, D. *Man Made Language*. London: Routledge & Kegan Paul, 1980. 192- b.
3. Tannen, D. *You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation*. – New York: Ballantine Books, 1990. 330-b.
4. Zimmerman, D. H., & West, C. "Sex Roles, Interruptions and Silences in Conversation." In: Thorne, B., & Henley, N. (eds.), *Language and Sex: Difference and Dominance*. – Rowley: Newbury House, 1975. 125–154-b.
5. Butler, J. *Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity*. – New York: Routledge, 1990. 236-b.
6. Cameron, D. *Gender and Language: Theory and Practice*. London: Routledge, 2005. 210-b.
7. Mills, S. *Language and Sexism*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. 280-b.
8. Holmes, J. *Women, Men and Politeness*. – London: Longman, 1995. 276-b.
9. Coates, J. *Women, Men and Language: A Sociolinguistic Account of Gender Differences in Language*. 3rd ed. – London: Routledge, 2015. 312-b.
10. Eckert, P., & McConnell-Ginet, S. *Language and Gender*. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013. 398 - b.
11. Sunderland, J. *Gendered Discourses*. – London: Palgrave Macmillan, 2004. 248-b.
12. Hellinger, M., & Bussmann, H. (eds.). *Gender Across Languages: The Linguistic Representation of Women and Men*. – Amsterdam: John Benjamins, 2001. 350-b.
13. Bergvall, V. L., Bing, J. M., & Freed, A. F. (eds.). *Rethinking Language and Gender Research: Theory and Practice*. – London: Longman, 1996. 280-b.
14. Cameron, D., & Kulick, D. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. 190-b.
15. Weatherall, A. *Gender, Language and Discourse*. – London: Routledge, 2002. 224 - b.

Madina ABDULLAJONOVA,
ToshDO'TAU tayanch doktranti
madinaabdullajonova0999@gmail.com

DISGRAFIYANING NEYROLINGVISTIK TADQIQI: GENDER JIHATDAN FARQLANISH VA GENETIK MOYILLIK

Annotatsiya: mazkur maqolada disgrafiyaning zamonaviy talqinlari, uning etiologiyasi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Disgrafiya yozma nutq faoliyatida yuqori aqliy funksiyalar bilan bog'liq murakkab buzilish sifatida ko'rib chiqiladi. Xususan, maqolada gender tafovutlari va genetik omillar masalasi alohida o'rganiladi. Jahon miqyosidagi tadqiqotlar natijalari qiyosiy ko'rib chiqilib, o'g'il bolalarda yozuvdagi buzilishlar qizlarga nisbatan ko'proq uchrash tendensiyasi qayd etiladi. Shu bilan birga, egizaklar ustida olib borilgan izlanishlar yozuv buzilishlarida genetik komponentning mavjudligini ko'rsatadi. Biroq, mazkur masalaning bir qator jihatlar, jumladan, gen-muhit o'zaro ta'siri, til va madaniy omillarning roli hali ham to'liq ochilmagan. Tadqiqot natijalari asosida, kelgusida ko'p fanli yondashuv asosida keng qamrovli qiyosiy tadqiqotlar o'tkazish zaruriyati ta'kidlanadi. Ushbu izlanishlar nazariy jihatdan yozma nutq buzilishlarini chuqurroq anglashga, amaliy jihatdan esa logopedik va pedagogik faoliyatda samarali korreksiya usullarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *disgrafiya, disleksiya, yozma nutq buzilishlari, gender tafovutlari, genetika, neyrolingvistika, logopediya, pedagogika, funksional magnit-rezonans tomografiya.*

Annotation: this article analyzes contemporary interpretations of dysgraphia, its etiology, and the factors influencing its development. Dysgraphia is considered a complex disorder of written speech activity associated with higher mental functions. In particular, the article specifically examines the issues of gender differences and genetic factors. The results of international studies are compared, noting the tendency for writing disorders to occur more frequently in boys than in girls. At the same time, research on twins demonstrates the presence of a genetic component in writing disorders. However, several aspects of this issue – such as gene–environment interactions and the role of linguistic and cultural factors – remain insufficiently explored. Based on the results of the study, the necessity of conducting large-scale comparative research grounded in multidisciplinary approaches is emphasized. These investigations are expected to contribute theoretically to a deeper understanding of written language disorders and, in practice, to the development of effective correction methods in speech therapy and pedagogy.

Key words: *dysgraphia, dyslexia, written language disorders, gender differences, genetics, neurolinguistics, speech therapy, pedagogy, functional magnetic resonance imaging.*

Аннотация: в данной статье анализируются современные трактовки дисграфии, её этиология и факторы, влияющие на развитие. Дисграфия рассматривается как сложное нарушение письменной речи, связанное с высшими психическими функциями. В частности, в статье отдельно изучаются вопросы гендерных различий и генетических факторов. Сопоставляются результаты исследований, проведённых в мировом масштабе, и отмечается тенденция более частого проявления нарушений письма у мальчиков по сравнению с девочками. Кроме того, исследования на близнецах демонстрируют наличие генетического компонента в нарушениях письма. Однако ряд аспектов данной проблемы, включая взаимодействие гена и среды, роль языковых и культурных факторов, остаются до конца не раскрытыми. На основе результатов исследования подчёркивается необходимость проведения в будущем широкомасштабных сравнительных исследований на основе междисциплинарного подхода. Эти изыскания будут способствовать более глубокому теоретическому пониманию нарушений письменной речи и, с практической точки зрения, разработке эффективных методов коррекции в логопедической и педагогической деятельности.

Ключевые слова: *дисграфия, дислексия, нарушения письменной речи, гендерные различия, генетика, нейролингвистика, логопедия, педагогика, функциональная магнитно-резонансная томография (фМРТ)*

Kirish. Disgrafiya yozma nutq faoliyatida ishtirok etadigan yuqori aqliy funksiyalarning buzilishi natijasida kelib chiquvchi, o'ziga xos, takrorlanuvchi xatolar orqali namoyon bo'ladigan yozish jarayonining qisman buzilishidir. Disgrafiya muntazam ravishda takrorlanadigan xatolar orqali namoyon bo'ladi: harflarni almashtirish, so'z tarkibiga keraksiz harflarni kiritish va aksincha – harf, bo'g'in, hattoki butun boshli so'zlarni qoldirib ketish, o'qib bo'lmas darajada tushunarsiz shaklda yozish va hokazolar. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda disgrafiya ko'p omilli hodisa sifatida baholanadi. Uning kelib chiqishi neyrobiologik, neyrolingvistik, ijtimoiy-pedagogik va irsiy omillarning murakkab o'zaro ta'siri bilan izohlanadi. Biroq mazkur buzilishning ko'plab jihatlari hali ham ilm-fan uchun to'liq ochilmagan, bu esa uni chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

Xususan, disgrafiya va gender tafovutlari masalasi hanuz ilmiy bahs markazida qolmoqda. Bir qator tadqiqotlar erkaklarda yozuvdagi buzilishlar ayollarga nisbatan ko'proq uchrashini ko'rsatgan bo'lsa-da, boshqa izlanishlarda gender tafovutlari sezilarli darajada emasligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, disgrafiya va irsiyat o'rtasidagi bog'liqlik ham to'liq o'rganilmagan. Egizaklar ustida olib borilgan tadqiqotlar (John C. DeFries, 1997; Simon E. Fisher, 2006) yozuv buzilishlarida genetik komponent mavjudligini isbotlagan bo'lsa-da, aniq genlar, ularning ishlash mexanizmlari va muhit bilan o'zaro ta'siri masalasi haligacha ochiq qolmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonda bu borada maxsus molekulyar-genetik tadqiqotlar deyarli yo'qligi muammoni yanada dolzarblashtiradi.

Shunday qilib, disgrafiya bo'yicha mavjud ilmiy izlanishlar muammoning ko'plab qirralarini yoritgan bo'lsa-da, uning gender va irsiyat omillari bilan bog'liq jihatlari hali ham yechimini topmagan masalalar qatoriga kiradi. Shu sababli, ushbu yo'nalishlarni kompleks tarzda o'rganish, ko'p fanli (lingvistika, neyropsixologiya, genetika, pedagogika) yondashuv asosida izlanishlarni davom ettirish zarur.

Mazkur maqolada aynan mana shu haligacha yechimini to'liq topmagan jihatlar – disgrafiya va gender tafovutlari, disgrafiya va irsiyat omillari mavjud ilmiy natijalar asosida tahlil qilinadi. Ushbu masalalarni chuqur o'rganish nafaqat nazariy ahamiyatga, balki amaliy logopedik va pedagogik faoliyat uchun ham beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur maqolada mavjud xalqaro ilmiy adabiyotlar va tadqiqot

natijalari tahlil qilindi. Yozma nutq buzilishlariga oid statistik ma'lumotlar, egizaklar ustida olib borilgan izlanishlar hamda funksional magnit-rezonans tomografiya asosida o'tkazilgan neyropsixologik tadqiqotlar qiyosiy o'rganildi.

Shuningdek, Karbasi S.A. va hamkorlari (2011), Jessup B. va hamkasblari (2008), McKinnon (2007), Johny Daniel va Hsin Wang (2023), Berninger V. W. (2008), Olson R.K. va boshqalar (2013) tomonidan olib borilgan empirik izlanishlar natijalari tahlil qilindi. Genetik asosga oid ma'lumotlarni berishda Pennington (1991), Olson va hamkorlari (2014), Scerri va Schulte-Körne (2009, 2010) kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalariga tayanildi.

Natijalar. Yozma nutq faoliyati neyropsixologik rivojlanishning muhim ko'rsatkichi bo'lib, u qiz va o'g'il bolalarda turlicha shakllanishi mumkin. Nutq va til buzilishlariga oid xalqaro ilmiy izlanishlar nutqiy buzilishlarga duch kelish ehtimoli o'g'il bolalarda qizlarga nisbatan yuqoriroq ekanini ko'rsatadi. Masalan, Karbasi S.A. va hamkorlari (2011) tomonidan Eronning taxminan 8000 nafar boshlang'ich maktab o'quvchilari ishtirokida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, nutq, til va kommunikativ buzilishlar o'g'il bolalarda 16,7 foizni, qizlarda esa 12,7 foizni tashkil etgan [1]. Shunga o'xshash tarzda, Jessup B. va hamkasblarining Avstraliyada maktabgacha yoshdagi 300 nafar bola namunasi asosida o'tkazgan tadqiqoti (2008) natijasida nutq buzilishlarining umumiy o'g'il-qizlar nisbati 1,7:1 ekanligi aniqlangan [2]. Boshqa bir keng ko'lamli avstraliyalik tadqiqotda esa (McKinnon va b., 2007) 10 000 dan ortiq boshlang'ich maktab o'quvchilari tahlil qilingan bo'lib, tajriba natijasida 2,29 foizi o'g'il bola va atigi 0,77 foiz qiz bola ishtirokchilarga turli shakldagi nutq va til buzilishlari tashxisi qo'yilgan [3]. Shuningdek, Tayvanda olib borilgan uzoq muddatli kuzatuvlar ham mazkur tendensiyaning tasdiqlaydi: maktab yoshidagi bolalarda nutq va til buzilishlari tashxisi bo'yicha jinslar nisbati 2004-yilda 1,63:1 bo'lgan bo'lsa, 2010-yilda ushbu ko'rsatkich 1,99:1 gacha ortgani qayd etilgan [4]. Yozuvdagi buzilishlar yoki disgrafiya kelsak, bu borada o'g'il bolalarning ustunligi ko'proq qayd etilgan. Ayrim tadqiqotlarda disgrafiya uchun o'g'il-qizlar nisbati 1,5:1 sifatida aniqlangan [5]. Bundan tashqari, yozuv bo'yicha o'tkazilgan baholashlarda (Olson R.K. va b., 2013) qizlar o'g'il bolalarga qaraganda bir qator yozuv bilan bog'liq topshiriqlarda yaxshiroq natijalarni ko'rsatgan [4]. Shuningdek, erkaklarda imlo (orfografiya) bo'yicha ham ayollarga nisbatan yuqori darajada nuqsonlar kuzatilgan [6].

Boshqa bir qator izlanishlarda esa gender tafovutlari mutlaq emasligi, ularni ijtimoiy-madaniy sharoit, ta'lim tizimidagi yondashuvlar, shuningdek, metodologik yondashuvlar belgilab berishi mumkinligi ta'kidlanadi. Masalan, AQShda Quinn J.M. va Wagner R.K. tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'g'il bolalarda disleksiya tarqalishining yuqoriligi asosan, o'qishdagi qiyinchiliklarning og'ir darajalari bilan bog'liq [7]. Xususan, o'qish baholashlarida eng past ko'rsatkichni qayd etgan o'quvchilar orasida o'g'il-qizlar nisbati 2,4:1 ni tashkil etgan. Shu bilan birga, o'qib tushinishdagi qiyinchiliklarni o'rganishga qaratilgan uzoq muddatli egizaklar tadqiqotida gender tafovutlari minimal darajada bo'lib, nisbat 1,1:1 ni tashkil qilgan. [4]. Yozuvdagi texnik xatolarni baholashda erkaklarda ko'proq disgrafiya belgilari qayd etilgan bo'lsa, tilshunoslik va semantik jarayonlar bilan bog'liq xatolarda gender tafovutlari kamroq kuzatilgan.

Shuningdek, genetik va neyrofiziologik omillarni hisobga olgan tadqiqotlarda ham genderning disgrafiya ta'siri turlicha talqin qilinadi. Masalan, Shaywitz S.E. tomonidan olib borilgan keng qamrovli izlanishlarda disleksiya va unga yaqin yozma nutq buzilishlari o'g'il bolalarda qizlardagiga qaraganda ikki baravar ko'proq aniqlangan [8]. Biroq keyingi tadqiqotlar ta'lim muhitidagi farqlar va diagnostika mezonlari bu tafovutni kuchaytirishi mumkinligini ko'rsatadi [7].

Disgrafiya aloqador yana bir dolzarb muammolardan biri disgrafiya va genetik moyillik masalasidir. Disgrafiya kelib chiqishida genetik omillarning muhim rol o'ynashi haqidagi ilmiy qarashlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshladi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida yozma nutq buzilishlarining, xususan, disgrafiyaning ko'plab hollarda oilaning bir qancha a'zolarida mavjud bo'lishi aniqlangan (Pennington B.F. 1991) [9]. Bunday kuzatuvlar irsiyatning disgrafiya rivojlanishidagi o'rnini borligidan dalolat beradi. Egizaklar ustida olib borilgan tadqiqotlar bu farazni tasdiqladi. Masalan, Olson R.K. va hamkorlari monozigot egizaklarda disgrafiya va unga yaqin yozma nutq buzilishlari dizigotik egizaklardagiga qaraganda yuqori darajada mos kelishini aniqlagan [10]. Bu natijalar genetik komponentning muhimligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, epigenetik mexanizmlar va muhit omillari ta'siri ham e'tibordan chetda qolmasligi zarur.

Genetik izlanishlarda ba'zi lokuslar va genlar yozma nutqdagi buzilishlar bilan bog'lanishi mumkinligi

ko'rsatilgan. Masalan, DCDC2 va KIAA0319 genlarining disleksiya bilan aloqadorligi qayd etilgan [11], bu esa ularning disgrafiya mexanizmlarida ham ishtirok etishi ehtimolini oshiradi.

Disleksianing (shu jumladan, disgrafiya) genetik asoslari murakkab bo'lib, bir nechta xromosomalar bilan bog'liq va ko'plab genlarni o'z ichiga oladi. Masalan, so'zlarni o'qish aniqligi, o'qish tezligi, fonologik dekodlash tezligi turli xromosomalar bilan bog'liqligi kuzatilgan [6]. Misol uchun, 15-xromosomadagi genlar yomon o'qish va imlo, 6-xromosomadagi genlar fonemik xabardorlik bilan bog'liq. Nutqiy buzilishga ega shaxslar va ularning oila a'zolari funksional magnit-rezonans tomografiya orqali tekshirilganda differensial miya faollashuviga ega ekanligi qayd etilgan. Bu nutq buzilishlariga genetik moyillik taxminlarini qo'llab-quvvatlaydi [12].

Muhokama. Yozuvdagi buzilishlar, xususan, disgrafiya bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar gender tafovutlarining mavjudligini barqaror tarzda tasdiqlaydi. Shunga qaramay, gender tafovutlari masalasi hali yakuniy ilmiy xulosaga ega emas. Mavzu doirasidagi bahslar asosan tadqiqot metodologiyasidagi farqlarga borib taqaladi. Erkaklarda disgrafiya ko'proq uchrashi haqidagi ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, bu tafovutning biologikmi yoki ijtimoiy omillar bilan izohlash mumkinligi hamon bahsli masala bo'lib qolmoqda. Shu sababli mazkur sohada keng qamrovli, turli tillar va madaniy sharoitlarni qamrab olgan qiyosiy tadqiqotlar o'tkazish ehtiyoji dolzarbdir.

Mazkur holat ilmiy jihatdan yozuvdagi buzilishlarni aniqlash va tahlil qilishda gender omilini alohida inobatga olish zarurligini anglatadi. Amaliy nuqtayi nazardan esa, ta'lim jarayonida o'g'il bolalar uchun maxsus pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish, qo'shimcha psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash choralarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, genetika sohasi rivojlanishda davom etar ekan, disgrafiya kabi ta'limiy nuqsonlarning genetikasi haqida ko'proq ma'lumotlar paydo bo'lishi mumkin. Disleksiya rivojlanishiga genetik omillar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadigan geterogen holat bo'lishiga qaramay, molekulyar-genetik tadqiqotlardan olingan natijalarni izohlashda muayyan qiyinchiliklar mavjud. Birinchidan, o'qish jarayonini ta'minlovchi genetik mexanizmlarga tilning xususiyati qanday ta'sir qilishi masalasi hali chuqur tadqiq etilmagan. Ikkinchidan, hatto bir xil yozuv tizimi doirasida ham genetik farqlarning mavjudligi ehtimoli

ochiq qolmoqda; bunda etnik tafovutlar, lingvistik xususiyatlar va til fonologiyasi hisobga olinishi zarur. Uchinchidan, yozma nutq buzilishlari irsiyat bilan bir qatorda, ta'lim sifati, oilaviy nutq muhiti, individual psixolingvistik rivojlanish kabi ijtimoiy va pedagogik omillarga ham bog'liq.

Umuman olganda, genetik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, genlar to'g'ridan-to'g'ri disgrafiya olib kelmaydi. Biroq, miyaning ba'zi funksiyalari disgrafiya hissa qo'shishi mumkin bo'lgan genetik asosga ega. Demak, disgrafiya faqat genetik nuqson sifatida talqin qilish to'g'ri emas.

Shu bois, kelajakdagi ilmiy izlanishlar genom darajasida chuqurlashtirilgan tahlillar, irsiy va muhit omillarining o'zaro ta'sirini modellashtirishga, turli tillar, madaniyatlar va mintaqaviy populyatsiyalarni

qamrab olishga yo'naltirilishi zarur. Bu nafaqat nazariy nuqtayi nazardan, balki amaliy logopedik diagnostika va individual korreksiya dasturlarini ishlab chiqishda ham beqiyos ahamiyatga ega.

Xulosa. Disgrafiya ko'p omilli, murakkab yozma nutq buzilishi bo'lib, uning rivojlanishida gender va genetik omillar muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar o'g'il bolalarda disgrafiya ko'proq uchrashini ko'rsatsa-da, bu tafovutning biologik yoki ijtimoiy ildizlari hali ham bahsli masala. Genetik tadqiqotlar muhim natijalar bergan bo'lishiga qaramay, gen va muhitning o'zaro ta'siri chuqur o'rganilmagan.

Kelajakdagi izlanishlar multidisiplinar yondashuv asosida olib borilishi, logopedik va pedagogik amaliyot uchun yangi korreksion strategiyalar ishlab chiqilishiga xizmat qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karbasi, S. A., Fallah, R., & Golestan, M. (2011). The prevalence of speech disorder in primary school students in Yazd-Iran. *Acta Medica Iranica*, 49(1), 33–37.
2. Jessup, B., Ward, E., Cahill, L., & Keating, D. (2008). Prevalence of speech and/or language impairment in preparatory students in northern Tasmania. *International Journal of Speech-Language Pathology*, 10(5), 364–377. <https://doi.org/10.1080/17549500802149586>
3. McKinnon, D. H., McLeod, S., & Reilly, S. (2007). The prevalence of stuttering, voice, and speech-sound disorders in primary school students in Australia. *Language, Speech, and Hearing Services in Schools*, 38(1), 5–15. [https://doi.org/10.1044/0161-1461\(2007/002\)](https://doi.org/10.1044/0161-1461(2007/002))
4. Daniel, J., & Wang, H. (2023). Gender differences in special educational needs identification. *Review of Education*, 11(1), 34–37. <https://doi.org/10.1002/rev3.3522>
5. Berninger, V. W., & Fuller, F. (1992). Gender differences in orthographic, verbal, and compositional fluency: Implications for diagnosis of writing disabilities in primary grade children. *Journal of School Psychology*, 30(4), 363–382. [https://doi.org/10.1016/0022-4405\(92\)90004-O](https://doi.org/10.1016/0022-4405(92)90004-O)
6. Berninger, V. W., Nielsen, K. H., Abbott, R. D., Wijsman, E., & Raskind, W. (2008). Gender differences in severity of writing and reading disabilities. University of Washington.
7. Quinn, J. M., & Wagner, R. K. (2015). Gender differences in reading impairment and in the identification of impaired readers: Results from a large-scale study of at-risk readers. *Journal of Learning Disabilities*, 48(4), 433–445. <https://doi.org/10.1177/0022219413508323>
8. Shaywitz, S. E., Shaywitz, B. A., Fletcher, J. M., & Escobar, M. D. (1990). Prevalence of reading disability in boys and girls: Results of the Connecticut longitudinal study. *JAMA*, 264(8), 998–1002. <https://doi.org/10.1001/jama.1990.03450080084036>
9. Pennington, B. F. (1991). *Diagnosing learning disorders: A neuropsychological framework*. Guilford Press.
10. Olson, R. K., Keenan, J. M., Byrne, B., & Samuelsson, S. (2014). Genetic and environmental influences on writing and their relations to language and reading. *Scientific Studies of Reading*, 18(1), 1–16. <https://doi.org/10.1080/10888438.2013.827366>
11. Scerri, T. S., & Schulte-Körne, G. (2010). Genetics of developmental dyslexia. *European Child & Adolescent Psychiatry*, 19(3), 179–197. <https://doi.org/10.1007/s00787-009-0081-0>
12. Chung, P. J., Patel, D. R., & Nizami, I. (2020). Disorder of written expression and dysgraphia: Definition, diagnosis, and management. *Translational Pediatrics*, 9(Suppl 1), S46–S54. <https://doi.org/10.21037/tp.2019.10.02>

Ro'zixol PANJIYEVA,
 Termiz davlat universiteti,
 Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti
 E-mail: panjiyevarezixol@gmail.com

TARIXIY REALIYALARNING TARJIMADA EKVIVALENTINI TOPISH MUAMMOLARI VA ULARNING PRAGMATIK TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada tarixiy realiyalarning tarjimada ekvivalentini topish muammolari va ularning pragmatik talqini keng yoritilgan. Realiza tushunchasi, uning turlari hamda etnomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, o'zbek-ingliz tillarida tarixiy realiyalarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan semantik va pragmatik qiyinchiliklar misollar orqali ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy realiya, atamalar, tarjima nazariyasi, ekvivalent, pragmatika, adaptatsiya, transliteratsiya.

Annotation: this article extensively discusses the problems of finding the equivalent of historical realities in translation and their pragmatic interpretation. The concept of reality, its types and ethnocultural characteristics are analyzed. Also, the semantic and pragmatic difficulties that arise in the process of translating historical realities in Uzbek-English are shown through examples.

Keywords: historical reality, terms, translation theory, equivalent, pragmatics, adaptation, transliteration.

Аннотация: в данной статье подробно рассматриваются проблемы поиска эквивалентов исторических реалий при переводе и их прагматической интерпретации. Анализируется понятие реалии, её виды и этнокультурные особенности. Также на примерах показаны семантические и прагматические трудности, возникающие при переводе исторических реалий с узбекского на английский язык.

Ключевые слова: историческая реалия, термины, теория перевода, эквивалент, прагматика, адаптация, транслитерация.

Kirish. Tarjima nazariyasida tarixiy realiyalar masalasi alohida dolzarb yo'nalish sifatida qaratiladi. Chunki realiyalar tilning faqat leksik qatlamidan emas, balki xalqning tarixi, madaniyati va turmush tarzidan ham darak beradi. Shu bois ularni boshqa tilga to'liq va aniq ko'chirish doimo murakkab jarayon hisoblanadi. Masalan, "bek", "amir", "sarkarda" kabi tarixiy atamalarning ingliz yoki rus tilidagi to'laqonli ekvivalenti yo'q, ularning ma'nosi va pragmatik yuklamasi turli tillarda turlicha ifoda etiladi [1]. Bugungi kunda globalashuv jarayoni, xalqaro aloqalar va madaniy muloqotning kengayishi tarjimada tarixiy realiyalarning to'g'ri talqin qilinishiga katta ehtiyoj tug'dirmoqda. Chunki tarixiy voqealarning noto'g'ri tarjimasida auditoriyada ma'no buzilishini, xatto tarixiy voqealarni noto'g'ri anglash holatlarini keltirib chiqarishi mumkin [2].

Shuning uchun ham tarixiy realiyalarning tarjimadagi ekvivalentini topish va ularni to'g'ri pragmatik talqin qilish muammosi tarjimashunoslik nazariyasi va amaliyotida muhim ahamiyatga ega. Bu masala nafaqat badiiy asarlar tarjimasida, balki tarixiy hujjatlar, ilmiy maqolalar, ommaviy axborot vositalari

va turli madaniy loyihalarda ham dolzarbdir.

Realiza so'zi lotincha realia kalimasidan olingan bo'lib, u ashyoviy, haqiqiy degan ma'nolarni anglatadi. O.S.Axmanovning "Slovar lingvistikicheskikh terminov"da unga quyidagicha ta'rif beriladi: "Realiza deganda – borliqdagi ashyoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa, muayyan mamlakatning davlat qurilishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodalovchi so'zlar, ma'lum bir tilda muloqot qilish xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik birlik tushuniladi". Realialarning muayyan koloritni aks ettirish xususiyatlari to'g'risida XX asrning 50-yillarida tilshunoslar bahs yurita boshladilar [17]. Bu borada bir to'xtamga kelish ancha murakkab kechdi. Buning asosiy sababi o'sha munozara olib borayotgan tadqiqotchilarning ishlarida aynan mazkur masala diqqat markazida bo'lgan emas. Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili natijasida realiyalarga ikki xil qarash borligini ko'rish mumkin. U ham bo'lsa, birinchisi, tarjima nuqtai nazaridan qarash, ikkinchisi esa, mamlakatshunoslik asnosida yondashish. Ayrim olimlar realiyaga ta'rif berishda to'liq bo'lmagan yoki mavhum xulosalar chiqaradilar [17].

Adabiyotlar tahlili. Tarixiy realiya tushunchasi va uning tarjimadagi o'zni to'g'risida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shular qatorida A.V.Fyodorov, V.N.Komissarov, Yu.Nayda, L.S.Barxudarov, J.Ketford kabi olimlar ekvivalentlik nazariyasi va pragmatik omillarni tadqiq etganlar [3], [4]. Ularga ko'ra, tarjimada ekvivalentlikning bir nechta turlari mavjud: formal, semantik va pragmatik. Tarixiy realiyalar esa, ko'pincha, formal ekvivalentga ega bo'lmagan holatlar qatoriga kiradi.

O'zbek tarjimashunosligida ham mazkur masalaga e'tibor qaratilgan. Xususan, H.Karimov, N.Hojiyev, Sh.Tursunov ishlarida milliy madaniy atamalar va realiyalarning tarjimadagi qiyinchiliklari yoritilgan [5]. Ularning fikricha, realiyalarning ma'no qatlami nafaqat lug'atda, balki xalqning tarixiy tafakkuri va madaniy merosida mujassamlashgan. Shuning uchun ularni tarjima qilishda oddiy semantik tenglik yetarli emas, balki pragmatik ekvivalentni topish talab etiladi.

Shuningdek, J. Piter Nyumarkning "Cultural Words" konsepsiyasida realiyalar madaniy belgilar sifatida baholanadi va ularni tarjimada saqlash (transference), tavsiflash (descriptive translation) yoki adaptatsiya qilish (adaptation) kabi usullar taklif etiladi [6].

O'zbek tilshunosligida G.Salomov, R.Fayzullayeva, K.Jo'rayev, N.G'afforovlarning tadqiqotlarida milliy xos so'zlarga muayyan darajada e'tibor qaratilgan. I.Mirzayev, X.Hamroyev, Ya.Ro'ziqulova, Sh.Sodiqova, G.Golibova, D.Abduraxmonova, E.Xolmanova, O.Sa'diqjonova, O.Nurmuhammedova, F.Habibullayeva kabi olimlarning ishlarida realiyalarning taffiqi va turlari, tasnifi masalalari yoritilgan. Shuningdek, tarjima va leksikologiya sohasida realiyalar tadqiqot obyekti sifatida tilshunoslikning bir qator yo'nalishlarida o'rganilgan.

Z.M.Kasimovanning "O'zbek tilidagi realiyalarning semantik tadqiqi" [7] nomli tadqiqotida realiyalarning lingvokulturologik birlik sifatida o'rganilishiga qaramay, mazkur tushuncha bilan bog'liq ko'plab masalalar yetarlicha hal etilmagan. Xususan, realiyalarning semantik xususiyatlari, ularning kommunikativ, emotsional-ekspressiv funksiyalari, xalqning turmush tarzi, etnik qadriyatlar va milliy munosabatlari bilan bog'liq qirralari to'liq tahlil etilmagan.

Tahlil va natija. "Realiya" atamasi tarjimashunoslikda muayyan xalqning milliy madaniyati, tarixi, turmush tarzi, geografik sharoiti va ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi til birliklariga

nisbatan qo'llanadi. Tarixiy realiyalar esa o'tmishda mavjud bo'lgan, hozirgi zamon til va madaniyatida faol qo'llanilmaydigan, ammo xalq xotirasining muhim qismi bo'lgan atamalar hisoblanadi. Masalan, "amir", "bek", "sarkarda", "qushbegi", "darug'achi" kabi tushunchalar o'zbek tarixiy manbalarining ajralmas qismi sanaladi. Tarixiy realiyalarni bir nechta turlarga ajratish mumkin. **Masalan**, siyosiy-idoraviy realiyalar, ijtimoiy-madaniy realiyalar, harbiy realiyalar, maishiy realiya va boshqalar. Bu turdagi realiyalar tarjimada katta qiyinchilik tug'diradi, chunki ularning ko'pchiligi qabul qiluvchi tilda tayyor ekvivalentga ega emas.

Tarixiy realiyalarni tarjima qilishda eng asosiy muammo – semantik moslikning to'liq ta'minlanmasligi. Masalan, "bek" so'zi ingliz tilida "lord" yoki "chief" deb tarjima qilinishi mumkin, ammo u o'zbek madaniyatidagi beklik tuzumi va uning ijtimoiy funksiyalarini to'liq ifoda etmaydi. Muammolar quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. Formal ekvivalentning yo'qligi.
2. Ma'no qatlamlarining farqliligi.
3. Stil va uslubiy farqlar.
4. Auditoriya uchun tushunarsizlik.

Bu muammolarni hal qilish uchun tarjimon turli strategiyalarni qo'llaydi: transliteratsiya, tavsifiy tarjima, adaptatsiya, izoh qo'shish va h.k. Tarixiy realiyalarni tarjima qilishda pragmatik yondashuv alohida ahamiyatga ega. Chunki realiya faqat leksik ma'no emas, balki muayyan pragmatik yuklamani ham ifoda etadi. Masalan, "amir" so'zi o'zbek tarixi uchun siyosiy-diniy kuch ramzi bo'lsa, ingliz o'quvchisi uchun u "Muslim ruler" kabi umumiy tushuncha sifatida qabul qilinadi. Auditoriya omillari tarjimon qarorlarida hal qiluvchi o'rin egallaydi:

- ✓ Ilmiy auditoriya uchun.
- ✓ Ommaviy auditoriya uchun.
- ✓ Badiiy asar tarjimasida.

Demak, pragmatik talqin – bu realiyaning ma'nosini emas, balki uning qanday qabul qilinishi va qanday kommunikativ ta'sir o'tkazishini ta'minlashdir. Quyida ayrim o'zbek tarixiy realiyalarining ingliz tiliga tarjimasida va ulardagi muammolar keltiriladi:

✓ **"Bek"** – *lord, chief, nobleman*. Bu tarjimalar realiyaning ijtimoiy tuzumdagi aniq rolini ifoda etmaydi, chunki "bek" nafaqat amaldor, balki muayyan hudud boshlig'i sifatida ham faoliyat yuritgan. Shuning uchun "bek (a local ruler in Central Asia)" tarzida izoh bilan berish maqsadga muvofiq.

✓ **“Amir”** – *emir, Muslim ruler*. Bu yerda “emir” so’zi xalqaro termin sifatida qabul qilingan, ammo har bir tarixiy kontekstda uning vakolati va ahamiyati turlicha bo’lishi mumkin.

✓ **“Sarkarda”** – *commander, warlord*. “Commander” umumiy ma’noni beradi, ammo “sarkarda”ning milliy va tarixiy ahamiyati yo’qoladi. Shu sababli izohli tarjima: *sarkarda (a traditional military leader in Central Asia)*.

✓ **“Madrasa”** – *madrasa, Islamic school*. Bu realiya ko’pgina tillarda o’z asliy shaklida saqlanib qolgan, ammo ingliz o’quvchisiga tushunarli bo’lishi uchun “Islamic religious school” kabi tavsif qo’shiladi.

✓ **“Chopon”** – *chapan, traditional robe*. Bu yerda “robe” umumiy ma’noni beradi, ammo milliy rang-baranglik yo’qoladi. Shuning uchun “chapan (a traditional Uzbek robe)” deb berish maqsadga muvofiq.

Bu misollardan ko’rinadiki, tarixiy realiyalarni tarjima qilishda faqat lug’at asosida emas, balki madaniy va pragmatik omillarni hisobga olish zarur. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, realiyalarning tarjimadagi ekvivalentini topish masalasi doimo ikki asosiy yo’nalishda hal qilinadi:

1. Asliylikni saqlash – realiya asliy shaklida tarjimada qoladi, auditoriya izoh orqali tushunadi.

2. Adaptatsiya – realiya qabul qiluvchi til madaniyatiga yaqinlashtiriladi.

Bu ikki yondashuv orasidagi tanlov tarjimonning maqsadi va auditoriyaning ehtiyojlariga bog’liq bo’ladi.

Xulosa. Tarixiy realiyalar tarjimasi masalasi tarjimashunoslik nazariyasi va amaliyotida eng murakkab yo’nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki ular tilning leksik qatlami bilan cheklanib qolmasdan, xalqning tarixi, madaniyati va ijtimoiy turmushini o’z ichiga oladi. Shu sababli realiyalarning to’g’ri tarjima qilinishi nafaqat tillararo muloqot samaradorligini oshiradi, balki milliy merosni anglash va uni boshqa madaniyatlar bilan taqqoslash imkonini ham beradi. Tahlillar shuni ko’rsatdiki, tarixiy realiyalarni tarjima qilishda asosiy qiyinchiliklar formal ekvivalent yo’qligi, ma’no qatlamlarining farqliligi va auditoriya uchun tushunarsizlikdan iborat. Bu holatlarda tarjimonning strategik qarorlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xususan, transliteratsiya, tavsifiy tarjima va adaptatsiya usullari turli holatlarda qo’llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 1975.
2. Комиссаров В.Н. Теория перевода. – М.: Высшая школа, 1990.
3. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. – Oxford: Oxford University Press, 1965.
4. Nida E. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964.
5. Ҳожиёв Н. Тилшунослик асослари. – Тошкент: Фан, 1981.
6. Newmark, P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988.
7. Kasimova Z.M. O’zbek tilidagi realiyalarning semantik tadqiqi: filol. fan. bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O’zbekiston Milliy universiteti, 2023. 56 - b.
8. Karimov H. Tarjimaning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. 215-b.
9. Hojiyev N. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 1981. 310 - b.
10. Mamajonov A. Tarjima va madaniy muloqot. – Toshkent: Akademnashr, 2016. 240- b.
11. Sa’dullaev B. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. 265-b.
12. Yusupov Sh. Tarjimada leksik-semantik qiyinchiliklar. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2020. 190-b.
13. Xojiyeva Z. Badiiy tarjimada realiyalarning ifodalanishi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. 198-b.
14. Mirzaaxmedov A. Tarjima va pragmatika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. 215-b.
15. Ziyadullaev B. Tarjima nazariyasi va uslubshunoslik. – Toshkent: Universitet, 2022. 188-b.
16. Садиқов З. Қадимги туркий реалиялар таржимаси: монография. – Наманган: [Водий медиа], 2021. 121-6.

Nafisa MURATOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti
oneidnafisa@gmail.com

TILAK VA TABRIK NUTQIY AKTLARINING VERBAL ASSOTSIATSIYALASHUVINI O'QITISHNING METODIK ASOSLARI

Annotatsiya: ta'lim-tarbiya jarayoniga, xususan, til ta'limiga ham pedagogik texnologiyani tatbiq etish dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Bu vazifani to'liq bajarish maqsadida, eng avvalo, olimlar hamda maktablar, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida ishlayotgan o'qituvchilar hamkorligida bir necha muammolarni yechish lozim. Quyida assotsiativ tilshunoslikda tadqiqotlar olib borgan tilshunoslarning fikrlariga tayangan holda, assotsiatsiyalarning tasnifini tahlil qildik. Biz bu tasnif asosida tilak va tabrik nutqiy aktlarini verbal assotsiatsiyalashni o'rgandik hamda tilak va tabrik nutqiy aktlarining verbal assotsiatsiyalashuvini o'qitishning metodik asoslarini tahlilga tortdik va turli metodlardan foydalanib o'qitish usullarini tavsiya qildik.

Kalit so'zlar: *nutqiy akt, tilak va tabrik nutqiy akti, ekspressiv leksemalar, assotsiatsiya, assotsiativ tilshunoslik, verbal assotsiatsiya, assotsiativ munosabat, psixologik assotsiatsiya, emotsional leksemalar, leksema, lisoniy birliklar, tilak va tabrik nutqiy akti, ekstralingvistik va paralingvistik vositalar, ko'chma ma'noli so'zlar, nutqiy muloqot, verbal va nonverbal vositalar.*

Annotation: the application of pedagogical technology to the educational process, in particular to language education, serves to positively solve the current problem. In order to fully fulfill this task, first of all, it is necessary to solve several problems in cooperation with scientists and teachers working in schools, academic lyceums, vocational colleges and higher educational institutions. Below, based on the opinions of linguists who have conducted research in associative linguistics, we analyzed the classification of associations. Based on this classification, we studied the verbal association of speech acts of wishes and congratulations, analyzed the methodological foundations of teaching verbal association of speech acts of wishes and congratulations, and recommended teaching methods using various methods.

Key words: *speech act, speech act of wish and greeting, expressive lexemes, association, associative linguistics, verbal association, associative attitude, psychological association, emotional lexemes, lexeme, linguistic units, speech act of wish and greeting, extralinguistic and paralinguistic means, words with mobile meaning, speech communication, verbal and nonverbal means.*

Аннотация: применение педагогических технологий в образовательном процессе, в частности в языковом образовании, способствует позитивному решению актуальной проблемы. Для полного выполнения этой задачи, прежде всего, необходимо решить ряд задач совместно с учёными и педагогами, работающими в школах, академических лицеях, профессиональных колледжах и высших учебных заведениях. Ниже, опираясь на мнения лингвистов, проводивших исследования в области ассоциативной лингвистики, мы проанализировали классификацию ассоциаций. На основе этой классификации мы изучили вербальную ассоциацию речевых актов пожеланий и поздравлений, проанализировали методические основы обучения вербальной ассоциации речевых актов пожеланий и поздравлений и рекомендовали методику обучения с использованием различных методов.

Ключевые фразы: *речевой акт, речевой акт пожелания и приветствия, экспрессивные лексемы, ассоциация, ассоциативная лингвистика, вербальная ассоциация, ассоциативное отношение, психологическая ассоциация, эмоциональные лексемы, лексема, языковые единицы, речевой акт пожелания и приветствия, экстралингвистические и паралингвистические средства, слова с подвижным значением, речевая коммуникация, вербальные и невербальные средства.*

Kirish. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya eng murakkab, shu bilan birga, eng mas'uliyatli jarayon bo'lib, olingan bilimlarni talabaga yetkazib berish, uni qay holatda o'rgatish pedagogdan bilim bilan bir qatorda mahoratni

talab etadi. Mahoratli pedagog axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o'quvchiga yetkazib berishni yo'lga qo'yish

ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga, xususan, til ta'limiga ham pedagogik texnologiyani tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Bu vazifani to'liq bajarish maqsadida, eng avvalo, olimlar hamda maktablar, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida ishlayotgan o'qituvchilar hamkorligida bir necha muammolarni yechish lozim. Jumladan: – yangi pedagogik texnologiyalarning mohiyatini aniqlash va uning nazariy asoslarini yaratish; – uning prinsiplarini ishlab chiqish; – pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llashning samarali yo'llarini tanlash va hokazo. Ta'kidlangan maqsadni amalga oshirish uchun ta'limning yangi modelini yaratish taqozo qilinadi. Modelni amaliyotga tatbiq

etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida "o'quv-tarbiyaviy jarayonini yangi pedagogik texnologiyalari bilan ta'minlash" uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Ta'lim jarayonida faol o'qitish metodlarini tanlash. Ta'lim texnologiya elementlarini tanlash va amalga oshirishda ta'lim oluvchilarning o'quv bilish faoliyatlarini e'tiborga olish lozim.

Asosiy qism. Quyidagi interfaol usullar orqali o'quv topshiriqlari o'tkazishimiz mumkin. Tilak va tabrik nutqiy aktini verbal assotsiatsiyalanishini matnlar tahlili, test ishlash usullari yanada mustahkamlaydi. Bundan tashqari, amaliy mashg'ulotlar jarayonida didaktik o'yinlar asosida bajariladigan mashq va topshiriqlarning ahamiyati katta.

Bu jarayonda **"Grafik organayzerlarni to'ldirish"** metodi.

Emotsional (tilak va tabrik) leksemalarning ijtimoiy belgisiga asoslangan verbal assotsiatsiyasi	
Doimiy shug'ullanadigan mashg'uloti, kasbiga ko'ra tilak va tabriklar:	
	Ilmingiz ziyoda bo'lsin. Shogirdlar ardog'ida yuring.
	Ilmingiz ziyoda bo'lsin.
	Pulingiz ko'p bo'lsin. Molingiz xaridorgir bo'lsin.
	Qo'lingiz yengil bo'lsin. Qo'lingiz dard ko'rmasin.
	Qo'lingiz gul bo'lsin. Qo'lingiz dard ko'rmasin.
	Qo'lingiz shirin bo'lsin. Qo'lingiz dard ko'rmasin.
	Qo'yingiz ko'p bo'lsin.
	Yo'lingiz bexatar bo'lsin.
	Hosilingiz mo'l bo'lsin, xirmoningiz ko'l bo'lsin. Xirmoningizga baraka

Bu metodga assotsiatsiyalangan tushunchalar asosida stimul so'z topiladi.

Bundan tashqari, o'qituvchi turli xil usullardan foydalanishi va mavzuning mohiyatini anglatishga yordam berishi mumkin. Masalan, biror tilshunosning nazariy qarashlari beriladi va o'quvchi shu asosda misollar topib tahlil qiladi.

D.Lufullayeva Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi monografiyasida verbal assotsiatsiyalarning hosil bo'lishi nuqtayi nazaridan tasniflab o'rganilgan va quyidagi umumlashtirilgan tasniflarni keltirgan.

Topshiriq. Mana shu tilshunosning keltirgan tasnifiga asosanib, emotsional so'zlarning verbal assotsiatsiyalashuvini badiiy matndan misollar keltirib tahlil qiling.

1. Leksemalarning semantik jihatdan o'zaro bog'liqligi.
2. Leksemalarning leksik-grammatik belgisiga ko'ra aloqasi.
3. Leksemalarning uslubiy belgisiga ko'ra aloqasi.
4. Leksemalar pragmatik belgisining mushtarakligi.
5. Leksemalarning yasallishidagi umumiylik.

6. Leksemalarning talaffuzda hamohangligi.
7. Leksemalarning dialektal belgisiga ko'ra bog'liqligi.
8. Leksemalar milliy-madaniy belgisining mushtarakligi.
9. Leksemalarning ijtimoiylik belgisiga ko'ra yaqinligi.
10. Leksemalarning gender belgisiga ko'ra aloqasi.¹

Bunday jarayonda o'quvchi to'g'ri yo'naltiriladi. Chunki unda tasnif beriladi va shunga tayangan holda tahlil qila oladi. Bu esa o'quvchining fikrlashini o'stiradi, mustaqil ishlashga undaydi, nazariy bilimlarini oshiradi va shu nazariy qarashlarga o'z fikrlarini bildiradi.

¹ Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Монография. “Мериус” – Тошкент, 2017. 39 б.

Emotsional (tilak va tabrik) leksemalar tilning turli belgisiga asoslangan holda verbal assotsiatsiyalashuvi	
1. Leksemalarning semantik jihatdan o'zaro bog'liqligi.	
2. Leksemalarning leksik-grammatik belgisiga ko'ra aloqasi.	
3. Leksemalarning uslubiy belgisiga ko'ra aloqasi.	
4. Leksemalar pragmatik belgisining mushtarakligi.	
5. Leksemalarning yasalishidagi umumiylik.	
6. Leksemalarning talaffuzda hamohangligi.	
7. Leksemalarning dialektal belgisiga ko'ra bog'liqligi.	
8. Leksemalar milliy-madaniy belgisining mushtarakligi.	
9. Leksemalarning ijtimoiylik belgisiga ko'ra yaqinligi.	
10. Leksemalarning gender belgisiga ko'ra aloqasi.	

Bu erkin assotsiatsiya metodi bo'lib, o'quvchi buni uyiga olib ketmasligi kerak, chunki xotirada o'sha vaqti kelgan tushunchalar haqiqiy tafakkurdagi assotsiatsiyadir. Verbal assotsiatsiyani o'quvchiga tushuntirishda keltirilgan metodlar, o'yinlar samarali bo'lib, shu ko'rinishdagi didaktik o'yinlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarini hosil qiladi. Ularni adabiy til normalariga amal qilishlariga amaliy yordam beradi

Xulosa. Yuqorida keltirilgan metodlar o'quvchilar idrokini shakllantiradi va ularning kreativlik darajasini oshiradi. Bunday topshiriqlarni bajarib

ko'nikma hosil qilgach, kommunikatsiya jarayonida foydalana oladi. Bu esa egallangan bilimning unumli natijasidir.

O'zbek tilida tilak va tabrik nutqiy aktlarining verbal assotsiatsiyalashuvida lingvistik va ekstralingvistik nutqiy muloqot yuzaga chiqishida nutqning ixtisoslashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Til millat madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlarini asrab-avaylab avlodlarga yetkazishda vosita vazifasini o'taydi. Bu vosita esa nutqimizda namoyon bo'lishiga qadar tafakkurda shakllanib turli muloqot shakllarida turlicha aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5058 farmoni.
2. Исқандарова Ш., Ҳошимова Н. Нутқ жараёнида ассоциацияларнинг воқеланиши // АндУ. Илмий хабарлар. – Андижон, 2010. - № 2. –Б. 85- 88.
3. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Монография. – Тошкент: Мериус, 2017.
4. Nasirov Muslimjon, Meliqo'ziyeva Malikaxon. Badiiy matnning assotsiativ tahlili. Innovation in the modern education system issue vol. 2 no. 19 (2022):
5. Ortiqova N. Maydon turlari va assotsiativ maydon xususida//Til va adabiyot ta'limi. 2022- yil 5- son. 24- 25-b.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. 285 б.
7. Сафаров Ш. Социоллингвистика ва хорижий тил таҳлили. Мулоқот шакллари ва хорижий тилларга ўргатиш. – Самарқанд, 2002. 88-89 б.

KASALLIK NOMLARI SINONIMIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada tarixiy manbalarda uchragan kasallik nomlari, ularning xalqona, milliy xususiyatlari misollar asosida tahlil etilgan hamda o'zaro tibbiy muloqot jarayonida insonlarning bir-birlarini tushunishlarini osonlashtirish uchun ularning o'rni qay darajada ekanligi xususida so'z borgan.

Kalit so'zlar: *kommunikatsiya, ruhiy holat, kasallik, salomatlik, tarixiy manba, Avesto, Kaykovus, Koshg'ariy, Abu Ali ibn Sino qalamiga mansub "Tib qonunlari".*

Аннотация: в данной статье на примерах анализируются названия болезней, встречающиеся в исторических источниках, их народные, национальные особенности, а также обсуждается, насколько они важны для облегчения взаимопонимания людей в процессе взаимного медицинского общения.

Ключевые слова: *общение, психическое состояние, болезнь, здоровье, исторический источник, Авеста, Кайковус, Кашгари, «Законы медицины» написанные Абу Али ибн Сино.*

Annotation: this article uses examples to analyze the names of diseases found in historical sources, their folk and national characteristics, and also discusses how important they are for facilitating mutual understanding between people in the process of mutual medical communication.

Key words: *communication, mental state, illness, health, historical source, Avesta, Kaykovus, Koshgari, "Laws of Medicine" written by Abu Ali ibn Sina.*

Ma'lumki, o'zaro kommunikatsiyada tilning qanday ishlashi va uning fikrlashi hamda dunyoni idrok etishga qanday ta'sir qilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradigan asosiy unsurlardan biri bu leksemalararo sinonimik munosabatning yuzaga chiqishidir. Kasallik nomlarida ushbu hodisani to'liq kuzatish uchun esa dastlab tibbiy atamalar sinonimiyasining shakllanish sabablarini ko'rib chiqish lozim. Tibbiy lug'atlarda tanlangan sinonimik qatorlarni tahlil qilish bitta tibbiy tushuncha sinonimlarining paydo bo'lishiga ta'sir qiluvchi uchta omilni aniqlash va tibbiyotning ayrim sohalarida ushbu hodisaning ishlashi uchun obyektiv zarurat sifatida tibbiy terminologiyada sinonimlar mavjudligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Sinonimiya umumiy tilda semantik munosabatlarning asosiy turlaridan biri bo'lishiga qaramay, ilmiy faktlarni nomlashda aniqlik va bir ma'nolilik tamoyiliga zid bo'lganligi sababli, ilmiy terminologiya uchun sinonimiya azaldan nomaqbul hodisa sifatida qaralib kelingan. Qanday bo'lmasin, tilshunoslar va terminologlarga sinonimlarni ishlatishdan qochish va minimallashtirish tavsiya etilgan. Biroq, Z.R.Grechuxinaning ta'kidlashicha, "terminologiya lingvistik hodisa bo'lganligi sababli, ushbu sohada tilning kommunikativ funksiyasi bilan bog'liq amaliy faoliyat, ko'pincha, qoidalarni "buzadi" yoki tibbiy terminologiyadan foydalanish me'yoriy talablarga tuzatishlar kiritadi, mavjud atamalarining variantlarini shakllantiradi"¹

¹ Гречухина З. Р. Субстантивация прилагательного в медицинской терминологии (на примерах из латинского, французского и русского языков) // Лингвистика и образование. 2022. – Т.2. – №1(5). С.19-27.

Keyinchalik, ilmiy atamalar va umumiy tilning so'zlari rasmiy hamda semantik jihatlarini nuqtayi nazaridan bir xil ekanligi isbotlangan, ammo keyinchalik ularning ma'lum farqlari namoyon bo'lishni boshlaydi hamda ushbu hodisa faqat pragmatik nuqtayi nazardan o'rganiladi, chunki atamalar ilmiy tushunchalarni qat'iy ixtisoslashgan kontekstda ifodalaydi. Terminlar ixtisoslashgan leksik birliklar sifatida ko'rib chiqila boshlandi. Ularning o'ziga xos ma'nosi ulardan foydalanish jarayonida aktuallashadi va kontekst bilan belgilanadi². Bundan kelib chiqqan holda, shuni aytish mumkinki, atamalar milliy tilning bir qismi sifatida polisemik, sinonimik, antonimik hamda graduonimik munosabatlarga kirishishi mumkin. Ya'ni, terminologik sinonimiyani inkor etib bo'lmaydi.

Ko'pincha, terminologik sinonimiya deganda bir xil tushunchani bir nechta nomlar bilan ifodalash qobiliyati tushuniladi. Boshqa bir guruh olimlarning fikriga ko'ra, sinonimlar kontekstga kiritilganda ularning ma'nosi nutqning ma'lum bir vaziyatiga, ilmiy nazariyaga va hokazolarga qarab turli xil semalarga ega bo'lishi mumkin. Sinonimiyaning bu turi, odatda, bir qancha lingvistik atamalar bilan belgilanadi:

1. Kvazinsonimlar (bir xil tushunchani bildiruvchi, ammo barcha kontekstlarda ham bir-birini almashtirib bo'lmaydigan, turli til darajalariga mansub yoki turli kommunikativ vaziyatlarda qo'llaniladigan atamalar tushuniladi).

Nefrolitiaz – buyrak tosh kasalligi;

Daltonizm – rang ko'rliigi;

² Татаринов В. А. Теория терминоведения в 3 томах: Том 1. – М.: Московский Лицей, 1996. С. 312.

Altsgeymer – xotira yo‘qolishi;
Xolelitiaz – o‘t tosh kasalligi;
Gemofiliya – qon ivimasligi;
Poliomiyelit – shol va boshqalar.

2. Parasionim (qo‘shimcha semali terminlar).

Saraton (odam yoki hayvonlarning ichki va tashqi a‘zolaridagi epiteliy to‘qimasidan rivojlanadigan, hayot uchun xavfli o‘asma) – *oqqon* (turli shakllarda, asosan, qon va suyak iligi saratonining nomidir);

Vabo (o‘tkir yuqumli kasallik nomi bo‘lib, asosan, tananing suvsizlanishi bilan bilan kechadi) – *o‘lat* (odam va hayvonlarda o‘lat tayoqchasi qo‘zg‘atadigan, yoppasiga o‘limga sabab bo‘ladigan o‘tkir yuqumli kasallik);

Mutizm (nafaqat bolalarda, kattalarda ham paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan, gapirishda, so‘zlarni talaffuz qilishdagi nuqson) – *soqovlik* (tug‘ma yoki orttirilgan bo‘lib, kishilarda so‘zlashish qobiliyatining yo‘qolishi yoki umuman bo‘lmasligi).

3. **Variantlar** (bir tizimda bir vaqtning o‘zida bir xil funksiyani bajaradigan va bir-biridan tarqalishi, chastotasi, mahsuldorligi va boshqa lingvistik xususiyatlari bilan farq qiladigan terminlar).

Zob – bo‘qoq;
Saraton – rak – o‘asma;
Shol – falaj;
Shamollash – gripp;
Gung – soqov;
Qo‘tir – ko‘rpa yara, yotoq yara.
Homilador – ikkiqat va boshqalar.

Terminologiyaga oid asarlarning tahlili ikki yoki undan ortiq atama bir tushunchaga va bir xil referentga ishora qilganda terminologik sinonimiya yuzaga keladi, degan xulosaga kelishga asos bo‘ladi. Lekin, ularning farqlanishiga til darajalari va diskursiv vaziyatlar ta‘sir qiladi. Sinonimiya ilmiy tafakkurning rivojlanishi va tadqiqotchiga voqelikning yangi kashf etilgan tomonlarini qayd etishga yordam beradi hamda ishni ancha qulaylashtiradi.

Ba‘zi olimlar, jumladan, S.I. Madjajeva³ kognitiv jarayonning belgilari sifatida sinonimlarni nazarda tutgan holda, kasalliklarning xalqarolashuvi va globallashtiruvini sinonimlar ishlashining sabablari deb hisoblaydi.

Tibbiyot atamaları sinonimlari paydo bo‘lishining tillararo sabablari jamiyatning ilmiy-texnik taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lib, ma‘lum bir kasbiy muhitda yangi tushunchalarning paydo bo‘lishi ularni nominatsiya qilish uchun neologizmlarni yaratishni talab etadi. Yangi tushunchalarga nom berishda esa shu mamlakat milliy tilida mavjud bo‘lgan so‘zlar ko‘proq qo‘llaniladi. Erishilgan natijalarning xorijiy tillarga tarqalishi, olingan so‘z, ko‘pincha, o‘zining

lingvistik ekvivalentiga ega bo‘lishiga qaramay, yangi tushunchalarni ifodalash uchun “qarzar”ning paydo bo‘lishiga olib keladi. Ya‘ni yaratilgan yangi termin tillararo keng tarqalishi evaziga o‘sha tilda mavjud kasallikning milliy nomi bilan o‘zaro munosabatga kirishishni boshlaydi. Ular osongina bir-biri bilan almashtirilishi va tibbiy kontekstda bir-biri o‘rnida ham mavjud bo‘lishi mumkin⁴. Shunday qilib, bu turdagi sinonimiyaning paydo bo‘lishi tillararo sabablarga ko‘ra, ya‘ni “qarz olish” evaziga paydo bo‘ladi, deyish mumkin. Quyidagi keltirilgan misollar asosida tahlilni ko‘rib chiqamiz:

Dizenteriya – yunoncha diz. va enteron “ichak” so‘zlaridan olingan bo‘lib, yo‘g‘on ichakning zararlanishi, ich ketish, qorinning burab og‘rishi va organizmning zaharlanishi bilan kechadigan o‘tkir infeksiya kasallik⁵.

Ichburug‘ – yo‘g‘on ichakning yallig‘lanishidan iborat o‘tkir yuqumli kasallik bo‘lib, O‘rta Osiyo sharoitida ko‘proq yoz mavsumida uchraydigan ichak xastaligidir⁶.

Ko‘rib turganingizdek, yuqorida keltirilgan ikkala misolda “dizenteriya” va “ichburug‘” nomlari o‘rtasida sinonimlik hodisasini kuzatish mumkin. Ammo, ichburug‘ nomi xalq tilidan olinganligi bois ham tushunishga oson, ham so‘zlashuv uslubida faol qo‘llanishi bilan dizenteriyadan farqlanadi.

Tibbiyotda ma‘lum yoki noma‘lum voqeliklarga oid kashfiyotlar bilan olimlar tegishli atamalarni yaratadilar, keyinchalik ular yangi bilimlar bilan birga boshqa tillarga ham o‘tadi. Masalan, tibbiyot terminologiyasi bilan bog‘liq adabiyotlarni kuzatish natijasida shu narsa aniq bo‘ldiki, tibbiyotga oid texnik tushunchalarni (tibbiy ko‘riklar, asbob-uskunalar, test va ko‘riklar) ifodalovchi terminlar o‘rtasidagi sinonimik munosabat ingliz va fransuz tillari asosida yuzaga kelishi aniqlandi.

Tibbiyot terminologiyasida sinonimlar mavjud bo‘lishining pragmatolingvistik sabablari, birinchi navbatda, turli kommunikativ vaziyatlarda tibbiy nutqning ishlashiga asoslanadi. Chunki, tibbiy nutq ikki turdagi munosabatlar bilan tavsiflanadi: **rasmiy va norasmiy**.

Birinchi holat, soha mutaxassislari, ya‘ni shifokor va uning hamkasblari o‘rtasidagi ilmiy va rasmiy darajadagi muloqot: ilmiy simpoziumlarda, konferensiyalarda yoki ilmiy maqolalarda kuzatiladi. Ushbu turdagi muloqotda shifokor uzatiladigan ma‘lumotning obyektivligini aks ettiruvchi qat‘iy ilmiy terminologiyadan foydalanadi.

“...*Mutizm tashxisi nutq terapevti va psixiatrning vakolatiga kiradi. Mutizm nafaqat bolalarda, kattalarda*

4 Shu manba. 277-b.

5 Uz.m.wikipedia.org/wiki/Dizenteria.

6 O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jild. – T.: “O‘zbekiston” nashryoti, 2021.692-b.

3 Маджаева С. И. Медицинские терминосистемы: становление, развитие, функционирование (на материале предметных областей медицины сахарный диабет и СПИД). – Астрахань, 2012. С. 277.

ham paydo bo'lishi mumkin" [uz.healthy-food-near-me.com].

Tibbiy nutqdagi norasmiy munosabatlar ikkita kommunikativ vaziyatda namoyon bo'ladi. Birinchidan, bu shifokorning o'z hamkasblari va tibbiyot xodimlari bilan kundalik vazifalarni bajarishda norasmiy sharoitda paydo bo'ladigan muloqoti bo'lsa, ikkinchisi, bu shifokorning o'z bemorlari va ularning yaqinlari bilan bo'lgan muloqot jarayonidir. Bemor bilan suhbatlashish jarayonida shifokor bemorning muammosini tushunishi va unga kasallik hamda davolanish haqida kerakli ma'lumotlarni yetkazishi uchun mutaxassis bo'lmagan kishiga tushunarli bo'lgan kundalik tilning leksik birliklarini bilishi va ulardan foydalana olishi kerak.

...Sevargul nihoyat soqovlik azobidan qutulib, burro-burro gapirib yuborganidanmi...xiyla xushhol edi [N.Qilichev. "Chig'iriq"].

Tibbiy muloqot bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qilish natijasida, kasalliklarning insonlar kundalik nutqlarida qo'llaydigan ekvivalentlari anchagina aniqlandi, deyish mumkin. Masalan, rus tilshunoslari S.I.Madjayeva va Z.R.Grechuxinalar o'zlarining tibbiy terminlar sinonimiyasi⁷ga bag'ishlangan maqolasida fransuz tilidagi ayrim tibbiy terminlarning sinonimik qatorida bu jarayonga oydinlik kiritishga harakat qilishadi. So'zlashuv nutqida ham, professional nutqda ham keng tarqalgan "ampula" sinonimi lotincha *ampula* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uning asl ma'nosi "kichkina shisha, shishadan tayyorlangan, loydan, teridan yasalgan idish" deganidir. Belgilangan obyekt bilan shaklning o'xshashligiga asoslangan metaforik ko'chirish ushbu atamaning anatomik terminologiyada keng qo'llanilishiga sabab bo'ldi. Xuddi mana shu sababga ko'ra, fransuz atamasi *ampoule* "teri ustidagi suyuqlik bilan to'ldirilgan qabariq" degan ma'noni anglatadi. Faqatgina, so'zlashuv nutqi chegarasidan tashqariga chiqib bu atama mashhur, so'zlashuv tilida "bulle" (pufak), "cloche" (qo'ng'iroq) sinonimlari

7 Маджаева С. И., Гречухина З. Р. Синонимия в медицинской терминологии: причины ее формирования. – Вестник калмыцкого университета, 2023. – № 3(59). С. 8.

ko'rinishida yangi variantlar bilan birga bimalol qo'llana oladi. Oxirgi sinonim keyinchalik "pikard" varianti bilan almashtirilgan.

Ushbu sinonimik qator tahlili shuni ko'rsatadiki, bir xil tushunchani bildiruvchi sanab o'tilgan atamalarning barchasi uchta obyektning o'zaro aloqadorligi bilan bog'liq. Chunki yuqorida sanab o'tilgan barcha nomlar o'xshash shakldagi obyektlarni (qabariq idish, to'p, qo'ng'iroq) anglatuvchi so'zlarning metaforik ko'chirilishi bo'lib, ularning shakllanishining kognitiv sababiga mos keladi. Ushbu sinonimlarning qo'llanilishi turli kommunikativ vaziyatlarni (ilmiy, kasbiy, kundalik, oddiy so'zlashuv) bildiradi. Ya'ni, ularning mavjudligi pragmatik sabablarga bog'liq. Tibbiy terminologiyada, asosan, yunon, lotin va ingliz tillaridan ildiz va shakllarning o'zlashtirilishi bu sinonimlarning paydo bo'lishida tillaro omil ekanligini ko'rsatadi.

Aytish mumkinki, ilmiy va kundalik til sinonimlarining yaqinlashuvi o'zbek tibbiyot terminologiyasida ham kuzatiladi. Ammo, milliy tildagi nomlanishning so'zlashuv uslubida o'z faolligini namoyon etishi hamda ommaviy axborot vositalari nutqida (barchaga tushunarli bo'lishi uchun) keng qo'llanilishini inobatga olgan holda ilmiy terminologik tizimga kirib bormoqda yoki o'z o'rnini tobora mustahkamlab olmoqda, deyish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek tilidagi kasallik nomlarida sinonimiya hodisasining uchrashi tibbiyot terminologiyasining boyligi va mahsuldorligini ko'rsatib beradi. Adabiy tilda bo'lgani kabi bu hodisa ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning asoslari interlingvistik, pragmatik va kognitivdir. Terminologik sinonimlarning shakllanish sabablari universalligiga qaramay, har bir tilda alohida sohadagi muloqot jarayonida uning o'ziga xos xususiyatlari amalga oshadi. Sinonimiya insonning kognitiv faoliyatining belgisi bo'lib, bu hodisaning konseptual xususiyatini isbotlaydi. Shunday qilib terminologik sinonimiya tibbiyot terminologiyasining faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun obyektiv zaruratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Авесто. Тарихий-бадий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Т.: Шарқ, 2001.409-б.
- 2.Абдулхаирова Ф.И. Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик манзараси: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2021. 23- б.
- 3.Ayniy S. Sudxo'ning o'limi. –Т.: "Sharq" nashriyoti, 1998, 132-b.
- 4."Alpomish" xalq dostoni. – Т.: "Fan" nashriyoti, 2008.
- 5.Aytmatov Ch. Asrga tatigulik kun. – Т.: "Yoshlar" nashriyot uyi, 2018.
- 6.Ибн Сино, Абу Али. Тиб конунлари: (Уч жилдлик сайланма) У. Каримов, Х. Хикматуллаев. Ж. 1 – Т.: А.Кодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1992, 304-б.
- 7.Ибн Сино, Абу Али. Тиб конунлари: (Уч жилдлик сайланма). У. Каримов, Х. Хикматуллаев. Ж. 2 – Т.: А.Кодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1992, 304-б.

Yulduzxon QOSIMOVA,
Namangan davlat pedagogika instituti
2-kurs ona tili va adabiyot yo'nalishi magistranti
Yulduzxonqosimova16@gmail.com



O'ZBEK VA TURKMAN UMUMTA'LIM MAKTAB ADABIYOT DARSLIKLARIDA XALQ DOSTONLARI O'QITILISHINING BUGUNGI HOLATI

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim tili o'zbek va turkman umumiy o'rta ta'lim maktab adabiyot darsliklarida xalq dostonlarini talqin etishning bugungi holati tahlil qilinadi. "Kuntug'mish", Go'rkut ota" kabi dostonlar misolida o'quv dasturlari, metodik muammolar va yechimlar ko'rsatilib, interaktiv metodlardan foydalanishning samaradorligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: xalq dostonlari, adabiyot darsliklari, qiyosiy tahlil, interaktiv metodlar, ijodiy topshiriqlar.

Annotation: this article analyzes the current state of interpreting folk epics in literature textbooks of general secondary schools with Uzbek and Turkmen as the language of instruction. Using the examples of the epics Kuntug'mish and The Book of Dede Korkut, the study highlights curricula, methodological challenges, possible solutions, and emphasizes the effectiveness of applying interactive methods.

Key words: folk epics, literature textbooks, comparative analysis, interactive methods, creative tasks.

Аннотация: в данной статье анализируется современное состояние интерпретации народных эпосов в учебниках литературы общеобразовательных школ с узбекским и туркменским языком обучения. На примере эпосов «Кунтугмиш», «Коркут-ата» показаны учебные программы, методические проблемы и пути их решения, освещена эффективность применения интерактивных методов.

Ключевые слова: народные эпосы, учебники литературы, сравнительный анализ, интерактивные методы, творческие задания.

Bugungi globallashuv davrida har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashda ta'lim va tarbiyaning o'zni bag'oyatda muhim o'rin egallaydi. Ta'lim tizimidagi rivojlanish davlat taraqqiyotining asosiy ustuni hisoblanadi. Sifatli ta'lim olish ehtiyojining ortayotganligi O'zbekiston fuqarolarining muhim hayotiy qadriyati sifatida kundan kunga dolzarblashib bormoqda. "Farzandlarimizni mustqil fikrlashga, zamonaviy bilim va kasb-hunarni chuqur egallashga, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi", deya o'z ma'ruzalarida ta'kidlab

o'tgan muhtaram Prezidentimizning ana shu so'zlari biz uchun hamisha ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratishimizga undovchi dasturulamal vazifasini o'taydi.

Shuningdek, adabiy ta'lim mazmunini belgilovchi maktab darsliklarini fan taraqqiyoti va jamiyatdagi o'zgarishlar asosida doimiy yangilashni ko'zda tutib, keyingi yillarda umumta'lim maktablari uchun bir muncha takomillashgan darsliklarning yangi avlodi yaratildi. "Adabiyot" fanidan Milliy o'quv dasturida o'quvchilarning adabiy personajlarning xatti-harakatlariga o'z munosabatini bildirish, berilgan fikrini asoslay olish,^[8] badiiy asarni

tahlil qilishning debochasi o'laroq, adabiyot nazariyasiga oid ayrim atamalarni o'rganish kompetensiyalarini shakllantirish hamda o'qigan asardan olgan taassurotlarini yorqin ifodalab bera olish kabi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari lozimligi nazarda tutilgan.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot o'qitish muammolari A.Zunnunov, N.Hotamov, S.Dolimov, Q.Ahmedov, H.Ubaydullayev kabi metodist olimlar tomonidan maxsus o'rganilib, uslubiy qo'llanma va monografiyalar nashr etilgan.

Shuningdek, Q.Yo'ldoshev, B.To'xliyev, S.Matchonov, R.Niyozmetova, Q.Husanboyeva, M.Mirqosimova, A.Abdurazzoqov kabi olimlarning adabiyot o'qitish metodikasiga oid monografiya, o'quv-uslubiy qo'llanma va darsliklarida ham ta'lim bosqichlarida epik asarlar, xususan, xalq dostonlarini o'qitish usullari va qonuniyatlariga bevosita daxldor jihatlar mavjud.

S.Chitti, D.Orr, M.Goldberg, T.Ellis, M.Kuek, R.Duffi kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan ishlarda xalq dostonlarini zamonaviy avlodga o'rgatishga katta ehtiyoj mavjudligi, epik asarlarni o'qitishda media vositalaridan unumli foydalanib, interaktiv darslar tashkillash lozimligini ko'zda tutgan.[4:22]

Barchamizga ma'lumki, xalq dostonlari turkiy xalqlar ma'naviyati, tarixi va milliy o'zligining eng yuksak ifodalaridan biridir. Ular asrlar davomida xalqning orzu-umidlari, kurashlarini hamda hayotiy tajribalarini badiiy obrazlarda mujassamlashtirib kelgan. Umumta'lim maktab adabiyot darsliklarida va o'quv dasturlarini o'rganish davomida shuni aytishimiz mumkinki, darsliklarga kiritilgan xalq dostonlari va ularda berilgan parchalar o'quvchining yoshi va psixologik xususiyatlariga mos ravishda tanlangan. Zero, E.Abduvalitov yozganidek, "Asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan o'quvchining ma'naviy ehtiyoji o'rtasidagi aloqani tiklash adabiy ta'limning bosh vazifasi hisoblanadi".[3:52]

Biroq bugungi kun yoshlari darslikda berilgan xalq dostonidan parchanigina o'qish bilan kifoyalanib qolayotganligi, o'quvchilarga xalq dostonlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvga bo'lgan ehtiyojning ortayotganligi, albatta,

barchamizga sir emas. Ta'lim turkman va o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarining adabiyot darsliklarida berilgan xalq dostonlarini talqin etishdagi quyidagi muammolarga duch kelamiz.

O'zbek tili yangi avlod adabiyot darsliklarida xalq dostonlarini o'qitish 8-sinfдан boshlanadi. Ushbu dostonni o'qitish uchun besh soat ajratilgan bo'lib, "Kuntug'mish"[6:25] dostoni haqida hamda dostonidan parcha berilgan. Dastlab dostonchilik maktablari va baxshilar haqida nazariy ma'lumot keltirilgan. Dostonda no'g'aylar podshosi Avliyoyi Qoraxonning o'g'li Kuntug'mish bilan Zangar shahri vazirining qizi Xolbeka orasidagi sevgi hikoya etiladi. Kuntug'mish yolg'iz va erka o'g'il bo'lishiga qaramasdan, aqlli, bilimli, elga g'amxo'r, xotini va bolalariga mehribon yigit ekanligi tasvirlanadi. Kuntug'mishning yori Xolbekaning sadoqati, mard va qanoatliligi haqiqiy o'zbek ayoliga xos fazilatlarini o'quvchiga hayotiy maktab bo'la oladi. Shuningdek, darslikda nazariy ma'lumot sifatida "Ishqiy-qahramonlik dostonlari" mavzusida fikr yuritilgan. So'ngra yuqoridagi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda jami 22 ta mavzuga oid savol va topshiriqlar keltirilgan.. Zero, professor A.Zunnunov darsliklardan olingan asar yuzasidan savol va topshiriqlarni uch guruhga bo'ladi:

- bilimlarni mustahkamlash vazifasini bajaruvchi;
- mantiqiy fikrlash usullarini egallashga imkoniyat beruvchi;
- o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llash imkonini beruvchi.[2:13]

Biroq doston yuzasidan berilgan savollarning deyarli hammasi nazariy ma'lumotlarni mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'lib, eposni hayotga bog'lab ifodalovchi murakkab topshiriqlar kuzatilmaydi. Ushbu muammoga yechim sifatida o'quvchini dostonidan berilgan parcha orqali uni to'liq variantini topishga turtki bo'luvchi interaktiv metodlardan, xususan *loyiha*, *debat*, *qiyoslash va bog'lash*, *klaster va konseptual xaritalardan* foydalanish darsni samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu usullar o'quvchini faqatgina matnni o'qishga emas, balki uni o'z hayoti bilan bog'lash, faol ishtirok etishga undaydi.

Ta'lim tili turkman umumta'lim maktablarida xalq dostonlar 6-sinfidan boshlab o'qitiladi. "Oltin meros"[7:14] mavzusi orqali hikmatlar hamda "Go'rkut ota" eposi, "Go'ro'g'li" eposidan "Go'ro'g'lining uylanishi" bobidan parchalari berilgan.

Nazariy ma'lumot sifatida "Go'rkut ota" turkmanlarning ajdodlari bo'lgan qadimiy o'g'uzlarning qahramonlik eposi ekanligi, turkmanlarning yot bosqinchilarga qarshi birlashib olib borgan janglarida ko'rsatgan mardliklari, Vatanni himoya qilganligi, ayol-qizlarning erkaklar bilan teng safda jang qilganligi haqida so'z boradi. So'ng asar yuzasidan 4 ta quyidagi savollar berilgan:

1. "Go'rkut ota" kitobi yana qanday nomlar bilan tanilgan?
2. Eposning bosh g'oyasi nimadan iborat?
3. Asar tuzilishi haqida gapirib bering.
4. "Go'rkut ota"ni o'rganishda qaysi olimlarning xizmatlarini bilasiz?

6-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olsak, yuqoridagi dostonni o'zlashtirishning o'zi yetarli deb o'ylaymiz. Bundan tashqari dostonidagi eskirgan so'zlar, og'ir she'riy ifodalar sodda, ravon tilda izohlari bilan berilmagan. Ushbu muammolarga yechim


sifatida doston *syujetini sahnalashtirish*, qahramonlarni bugungi yoshlarning ideallari bilan *qiyoslash*, *lug'atlar ustida ishlash*, o'quvchiga kichik ijodiy topshiriqlar: doston *qahramonlariga maktub yozish*, *obrazlarni xayoliy tasavvur ostida rasmini chizish* kabilarga yo'naltirish o'quvchi va o'qituvchi hamkorligini mustahkamlaydi, darsni qiziqarli tashkil etishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, adabiyot darsliklariga xalq dostonlarining kiritilishi o'quvchilarning milliy adabiy merosdan chuqurroq xabardor bo'lishi, xalq og'zaki ijodining boy qatlamlari bilan tanishishi uchun keng imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, murakkab syujetli, ko'p qirrali epik asarlarni o'zlashtirishda yoshga oid psixologik xususiyatlar, asar yuzasidan savol va topshiriqlarning taqdim etilishidagi muammolarga alohida e'tibor qaratish lozim. Mazkur qiyinchiliklarni bartaraf etishda dostonlarni yoshlar idrokiga moslashtirish, interaktiv metodlardan foydalanish, savol-javob, ijodiy topshiriqlar orqali jalb qilish samarali natija beradi. Bu yondashuv o'quvchilarda nafaqat ijodiy milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatni kuchaytiradi, balki ularning adabiy-estetik didini rivojlantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T., 2017-yil.
2. Zunnunov A. O'zbek tili va adabiyoti darsliklari mezon. – T.: O'ZPFITI. 1994. 13-b.
3. Абдувалитов Э. Умумий ўрта таълим мактабларида қардош халқлар адабиётини қиёсий ўрганиш. Пед. фан. тгфхтфдoктори (DSc) диссер. – T., 2020. 52-бет.
4. Yusufjonova N. Turkiy xalq dostonlarini qiyosiy-tipologik yondashuv asosida o'qitish texnologiyasi. nom.dissertatsiyasi. – T., 2023.
5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Barkamol-fayz-media, 2018. 352-b.
6. Musayev S., Parpiyev M., Turdigulov A. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-sinf "Adabiyot" darsligi. – T.: O'zbekiston, 2019.
7. KLYÇEW R., GURBANBERDIYEW N. EDEBIYAT. 6-njy synp üçin okuw kitaby HRESTOMATIYA. «SHARQ» NEŞIRYAT-ÇAPHANA PAÝDARLAR KOMPANIYASYNYŇ BAŞ REDAKSIYASY. – DAŞKENT, 2017. 14-46-b.
8. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/recommendations-national-curriculum-framework>.

Холида ВАЛИЕВА,
 старший преподаватель кафедры “Гуманитарных
 дисциплин” Tashkent Perfect University



СОЦИАЛЬНАЯ НЕСПРАВЕДЛИВОСТЬ ГЛАЗАМИ ТОЛСТОГО: АНАЛИЗ РАССКАЗА “ПОСЛЕ БАЛА”

Mustaqil ta'lim jarayonida xorijiy adabiyotlardan foydalanish, ingliz tilida ilmiy maqolalar yozish va xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish magistrantlarning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshiradi. Shu orqali ular global ta'lim va ilmiy maydonda faol bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Mustaqil ta'lim magistrantlarni doimiy o'z ustida ishlashga, vaqtni samarali taqsimlashga va o'z faoliyatiga tanqidiy yondashishga o'rgatadi. Natijada talabalarda mas'uliyat hissi kuchayadi va ularning shaxsiy rivojlanish jarayoni jadallashadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'limdan samarali foydalanayotgan magistrantlarda ilmiy va pedagogik ko'rsatkichlar ancha yuqori bo'ladi.

Mustaqil ta'lim orqali magistrantlar ko'proq ilmiy maqola va tezislar tayyorlaydi, xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mustaqil izlanishga ko'proq vaqt ajratgan talabalar ilmiy loyihalarda faolroq ishtirok etadi.

Mustaqil ta'lim jarayonida tayyorlangan dars ishlanmalari, metodik qo'llanmalar va amaliy mashg'ulotlar kelajakda pedagog sifatida faoliyat yuritishda katta yordam beradi. Magistrantlar mustaqil tayyorlangan materiallar orqali dars jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llashga qodir bo'lishadi.

Mustaqil ta'lim jarayonida internet resurslaridan muntazam foydalanadigan talabalar ilmiy manbalarni izlash, ma'lumotlarni qayta ishlash va natijalarni tahlil qilishda yuqori natijalarga erishadilar.

Mustaqil topshiriqlarni bajarish jarayonida magistrantlarda ijodkorlik, yangicha yondashuv va innovatsion g'oyalar ishlab chiqish qobiliyati rivojlanadi. Bu esa ularning kelajakdagi ilmiy-pedagogik faoliyatida raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Mustaqil ta'lim magistrantlarda o'z-o'zini rag'batlantirish, doimiy o'rganishga intilish va shaxsiy mas'uliyatni oshirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim samarali tashkil etilgan guruhlarda talabalar o'z tashabbusi bilan qo'shimcha ilmiy loyihalarni amalga oshiradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limning ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Biroq, uni sifatli tashkil etishda metodik qo'llanmalar yetishmasligi, nazorat va baholashning aniq mezonlari yo'qligi, talabalar motivatsiyasini oshirish zaruriyati kabi muammolar mavjud. Shu bois mustaqil ta'limni samarali tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Magistratura bosqichida talabalarni ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida mustaqil ta'limning o'рни beqiyosdir. Mustaqil ta'lim talabalarda ilmiy izlanish olib borish ko'nikmalarini shakllantiradi,

o'z faoliyatiga tanqidiy yondashishni rivojlantiradi, pedagogik tajriba orttirishga yordam beradi hamda raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon magistrantlarning kelajakda nafaqat ilmiy, balki pedagogik faoliyatini ham yuqori darajada tashkil etishiga zamin hozirlaydi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, mustaqil ta'lim samarali yo'lga qo'yilgan muhitda magistrantlarning ilmiy natijalari yuqori bo'ladi, kreativ fikrlash va yangicha pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyati rivojlanadi, shuningdek, xalqaro ilmiy maydonga chiqish imkoniyati kengayadi.

Shu bilan birga, mustaqil ta'limni tashkil etishda ayrim muammolar ham mavjud: metodik qo'llanmalar yetarli emasligi, baholash tizimining aniq va shaffof emasligi, talabalarning motivatsiyasi ba'zida past bo'lishi, raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanishda texnik to'siqlar mavjudligi kabilar. Bu holatlarni bartaraf etish uchun ilmiy asoslangan yondashuv zarur.

Olib borilgan tadqiqot davomida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- magistratura talabalarining mustaqil ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun metodik qo'llanmalar, yo'riqnomalar, topshiriqlar majmuasi va nazorat savollari ishlab chiqilishi lozim. Bu jarayon talabalarining mustaqil ishlash faoliyatini yo'naltirishga yordam beradi.

- mustaqil ta'lim jarayonida elektron kutubxonalar, xalqaro ilmiy bazalar, masofaviy ta'lim platformalari keng qo'llanilishi zarur. Shu orqali magistrantlar global

ilmiy axborotga tezkor kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

- mustaqil ta'lim samaradorligini aniqlash uchun reyting tizimi, testlar, loyiha ishlari va ilmiy maqolalar asosida baholash mexanizmlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bu jarayon talabalar faoliyatini obyektiv tahlil qilish imkonini beradi.

- magistrantlarning mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida ularni amaliy va ilmiy loyihalarga jalb qilish, grant dasturlari doirasida faol ishtirokini ta'minlash kerak.

- universitetlarda mustaqil ta'lim uchun alohida ilmiy-laboratoriya xonalari, elektron resurs markazlari tashkil etilishi magistrantlarning mustaqil izlanishlariga katta yordam beradi.

- magistrantlarni xalqaro ilmiy konferensiyalarda, onlayn seminar va vebinarlarda ishtirok etishga yo'naltirish, xorijiy professor-o'qituvchilar ishtirokida mahorat darslari tashkil etish mustaqil ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

- mustaqil ta'limda yuqori natijalarga erishgan talabalarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish ularning izlanish faolligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, magistratura bosqichida mustaqil ta'limdan foydalanish imkoniyatlarini to'laqonli amalga oshirish O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ilmiy va pedagogik salohiyatli kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Mustaqil ta'lim samaradorligi nafaqat magistrantlarning ilmiy va pedagogik faoliyatida, balki butun jamiyat taraqqiyotida ham muhim ijobiy natijalar berishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rakhimova, M. A. (2022). *The Role of Independent Learning in Higher Education*. Eurasian Research Bulletin, 6, 82–85. <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/842> geniusjournals.org.
2. Mamadaliyeva, N. I. (2024). Methodology of independent study in higher education in the credit module system. *JournalNX – A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 10(2), 38–42. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/5270> repo.journalnx.com.
3. Khayitova, S. D., & Allazov, I. S. (2025). Innovative Didactic Tools in Implementation of Independent Education in the Credit-Module System of Students of Higher Education Institutions. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education*, 3(1), 198–203. <https://doi.org/10.5281/ Multi Journals>.
4. Dustova, M. (2023). Prospects of improving independent education in the higher education system of Uzbekistan. *Intent Research Scientific Journal*, 2(3), 30–34. <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/46> [Intent Research](https://intentresearch.org).
5. Rakhimov, O. D. (2024). Digitalization of independent education in higher education. *Innovative Development in Educational Activities*. (n.d.). <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1884> [Open Idea](https://openidea.uz).
6. Mamatkulova, N. F. (2024). Importance of developing learners' autonomy in higher education institutions in Uzbekistan. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, (IJESSH). <https://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/2602> [FARS Publishers](https://farspublishers.org).

Muhayyo AVEZOVA,
Buxoro davlat universiteti
Biologiya kafedrası o'qituvchisi

MAKTABDA BIOLOGIYA FANINI O'QITISHNI INKLYUZIV TA'LIM SHAROITINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishda inklyuziv ta'lim sharoitini takomillashtirish metodikasi yoritilgan. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim jarayoniga to'laqonli jalb etilishini ta'minlaydi. Biologiya darslarini tashkil etishda maxsus pedagogik yondashuvlar, differensial topshiriqlar, vizual vositalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, o'quvchilarning individual qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda dars jarayonini loyihalash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: biologiya, inklyuziv ta'lim, metodika, innovatsion yondashuv, differensial topshiriqlar, pedagogik texnologiyalar.

Annotation: this article discusses the methodology of improving inclusive education conditions in teaching biology at secondary schools. Inclusive education ensures the full participation of students with special needs in the learning process. The effectiveness of using special pedagogical approaches, differentiated tasks, visual aids, and modern information technologies in organizing biology lessons is substantiated. Methodical recommendations for designing the learning process based on students' individual abilities and needs are also provided.

Key words: biology, inclusive education, methodology, innovative approach, differentiated tasks, pedagogical technologies.

Аннотация: в данной статье рассматривается методика совершенствования условий инклюзивного образования при преподавании биологии в общеобразовательных школах. Инклюзивное образование обеспечивает полноценное участие учащихся с особыми образовательными потребностями в учебном процессе. Обоснована эффективность применения специальных педагогических подходов, дифференцированных заданий, наглядных средств и современных информационных технологий при организации уроков биологии. Также разработаны методические рекомендации по проектированию учебного процесса с учетом индивидуальных способностей и потребностей учащихся.

Ключевые слова: биология, инклюзивное образование, методика, инновационный подход, дифференцированные задания, педагогические технологии.

Kirish. So'nggi yillarda ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni joriy etish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Inklyuziv ta'lim bu imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim jarayoniga to'laqonli jalb qilish, ularning shaxsiy ehtiyoj va imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim olishlari uchun zarur sharoit yaratishdir. O'zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator davlat dasturlari va huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular maktab ta'limi sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Biologiya fani o'quvchilarda tabiatga, tirik organizmlarga, inson salomatligiga oid bilimlarni shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, inklyuziv ta'lim sharoitida biologiya fanini o'qitish jarayonini samarali tashkil etish orqali nafaqat bilim, balki

ijtimoiy moslashuv, ekologik madaniyat va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin¹.

Ammo amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, mavjud biologiya darsliklari va o'qitish metodikasi barcha o'quvchilar, xususan, maxsus ehtiyojli o'quvchilarning individual imkoniyatlarini to'liq qamrab olmaydi. Shu bois biologiya fanini inklyuziv ta'lim tamoyillari asosida o'qitishni takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, vizual vositalar, differensial yondashuv va interaktiv metodlardan foydalanish zaruriyati tug'ilmoqda.

Mazkur ishda maktabda biologiya fanini o'qitishda inklyuziv ta'lim sharoitini takomillashtirishga oid

¹ Uzlüksiz ta'lim pedagogikasi va inklyuziv ta'lim. – Namangan: NamDU nashriyoti, 2024.

metodik yondashuvlar, tajribaviy kuzatuvlar va amaliy tavsiyalar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodikasi.

Biologiya fanini o'qitishda inklyuziv ta'limni qo'llashga bag'ishlangan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Adabiyotlarda ko'proq umumiy nazariy asoslar yoritilgan bo'lsa-da, maktab amaliyotida qo'llashga oid metodik tavsiyalar yetarli darajada ishlab chiqilmaganini ko'rish mumkin. Ayrim tadqiqotchilar biologiya darslarida maxsus moslashtirilgan o'quv materiallaridan foydalanishni tavsiya etsa, boshqalar ko'proq differensial topshiriqlar va vizual vositalarga e'tibor qaratgan. Shuningdek, xorijiy tajribada o'quvchilarning nutq va idrok imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan sensorli kartalar, rangli grafiklar, elektron dasturlar va interaktiv platformalardan foydalanish keng tarqalgan².

O'zbekiston amaliyotida esa biologiya fanida inklyuziv metodlarni qo'llash hali to'liq shakllanmagan. Ba'zi maktablarda o'qituvchilar maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun qo'shimcha tushuntirishlar beradi, dars jarayonida ko'proq ko'rgazmali qurollar, maketlar va qisqa videoroliklardan foydalanadi. Boshqa o'qituvchilar esa o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, hamkorlikda topshiriq bajarish orqali bir-biridan o'rganish imkonini yaratadi.

Tadqiqot metodikasi sifatida amaliy kuzatuvlar va dars jarayonini tahlil qilish muhim o'rin tutadi. Biologiya darslarida maxsus ehtiyojli o'quvchilarning ishtirokini kuzatish, ularga moslashtirilgan topshiriqlar berish, o'quvchilarning reaksiyasini qayd etish va natijalarni taqqoslash orqali samaradorlik aniqlanadi. Shuningdek, tajribaviy sinov darslari o'tkazish orqali turli metodlarning foydalilik darajasi amalda tekshiriladi. Masalan, oddiy laboratoriya ishini bajarishda ba'zi o'quvchilarga qo'shimcha ko'rgazma beriladi, boshqalarga esa bosqichma-bosqich ko'rsatma taqdim etiladi. Shundan so'ng qaysi usul ko'proq natija bergani aniqlanadi.

Kreativ metod sifatida o'qituvchilar biologiyani turli fanlar bilan integratsiya qilishga harakat qilmoqda. Masalan, rasm darsida hujayra tuzilishini ranglar orqali ifodalash, texnologiya darsida organlar modelini yasash, informatika darsida esa biologik jarayonlarni animatsiya shaklida yaratish samarali natija beradi. Bunday yondashuv nafaqat inklyuziv ta'lim sharoitidagi o'quvchilar uchun, balki barcha sinf a'zolari uchun darsni qiziqarli qiladi³.

Biologiya fanini inklyuziv sharoitda o'qitishda adabiyotlarda ko'p uchraydigan fikr o'quv materialini

imkoniyati cheklangan o'quvchi ham tushunadigan darajaga moslashtirishdir. Bu nafaqat kitobni soddalashtirish, balki butun dars jarayonini qayta loyihalashni talab qiladi.

Amaliyotda quyidagi usullar samarali deb topilgan:

Kuzatuv asosida metodni tanlash. Masalan, o'qituvchi "Fotosintez" mavzusini o'tishda sinfda ikki xil o'quvchi guruhini kuzatadi: biri matnni tez o'qiy oladi, ikkinchisiga esa matnni eshitish osonroq. Shu bois bir vaqtning o'zida ikkita material beriladi: qisqa matn va rasmlar bilan tayyorlangan audio slayd. Kuzatish natijasi shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar bir-biriga yordam berib, jarayonni tushunishi osonlashadi.

Laboratoriya ishini moslashtirish. Oddiy o'quvchilar mikroskopda barg hujayrasini ko'rsa, eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchiga bosqichma-bosqich rasmiy kartalar tarqatiladi: "avval bargni joylashtir", "endilikda obyektivni sozla", "endi diqqat bilan qarang". Bu kartalarning rangi turlicha bo'ladi va bu amaliy ko'rsatma jarayonni mustaqil bajara olishiga yordam beradi.

Differensial topshiriq berish. Masalan, "Inson qon aylanishi" mavzusida kuchli o'quvchilar uchun qon aylanish sxemasini chizib, jarayonni izohlash topshirig'i beriladi. Shu mavzuda qiyinroq o'quvchilar uchun esa organlarning tayyor rasmlari tarqatilib, ularni to'g'ri joylashtirish topshirig'i qo'yiladi. Shu bilan bir mavzu har xil imkoniyatga ega bolalarga moslashtirilgan bo'ladi.

Integratsiyalashgan yondashuv. Biologiya darsini tasviriy san'at bilan bog'lab, hujayra tuzilishini plastilin yordamida yasash topshirig'i beriladi. Bu ayniqsa qo'l motorikasi sust bo'lgan bolalar uchun foydali, chunki ular mavzuni qo'li bilan sezib, yodda saqlaydi. Shu jarayonda hamma o'quvchilar bir-biriga yordam beradi va dars jamoaviy shaklda qiziqarli o'tadi.

O'quvchini jarayonga faol qo'shish. O'qituvchi "Organizmlar guruhlari" mavzusida maxsus ehtiyojli o'quvchini doskaga chaqirib, hayvonlarning rasmlarini toifalarga ajratishni so'raydi. Sinfidagi boshqa o'quvchilar unga maslahat beradi⁴. Shu orqali u bola o'zini chetda emas, balki darsning faol ishtirokchisi sifatida his qiladi. Tadqiqot metodikasi sifatida ana shu jarayonlar amaliy sinov darslarida tekshiriladi. O'quvchilar qaysi usul orqali ko'proq o'zlashtirayotganini kuzatib, metodikani bosqichma-bosqich takomillashtirish mumkin bo'ladi.

Muhokama va natijalar. Mavzu: "Insonning nafas olish tizimi" Sinf: 7-sinf. Sharoit: inklyuziv ta'lim (turli imkoniyatga ega o'quvchilar bilan):

2 Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – Buxoro, 2024. №3.
3 Karimova D. Inklyuziv ta'lim sharoitida fanlarni o'qitish metodlari. 2024.

4 Boltabayev M. PhET dasturi asosida virtual laboratoriyalar yordamida biologiya darslarini tashkil etish. 2024.


Bosqich	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati	Inklyuziv yondashuv	Kutilayotgan natija
1. Tashkiliy qism	Salomlashadi, sinfda ijobiy muhit yaratadi, o'quvchilarni guruhlariga bo'ladi.	Guruhlarga joylashadi, qisqa ice-breaker o'yinida qatnashadi.	Guruhlarni imkoniyatiga qarab aralashtirib tuzadi, kuchli o'quvchi zaifroq o'quvchiga yordam beradigan tarzda joylashtiradi.	Har bir o'quvchi o'zini darsga jalb qilingan his qiladi.
2. Mavzuga kirish	Inson nafas olish tizimiga oid qisqa video namoyish qiladi.	Videoni tomosha qiladi, ko'rganlarini aytib beradi.	Eshitishda qiyinligi bo'lgan o'quvchilar uchun subtitrlar qo'yiladi, ko'rishda qiyinligi bo'lganlar uchun o'qituvchi izoh berib boradi.	Barcha o'quvchilar mavzuga kirishadi va qiziqishi ortadi.
3. Yangi bilim berish	Nafas olish tizimi organlarini maket orqali tushuntiradi.	Organlarning nomini aytadi, maketdagi qismlarni ko'rsatadi.	Qo'l motorikasi sust o'quvchilar organlarni ushlab ko'rishi uchun maketni aylantirib beradi.	Har bir o'quvchi organlarni ko'rib, eshitib yoki ushlab o'rganadi.
4. Mustahkamlash	Differensial topshiriqlar beradi: kuchli o'quvchilarga organlarning vazifasini yozdiradi, boshqalarga rasmni organ nomlari bilan to'ldirishni topshiradi.	Guruhlarda topshiriqlarni bajaradi.	Imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun sodalashtirilgan kartochkalar tarqatiladi.	Har bir o'quvchi o'z imkoniyatidan kelib chiqib bilimni mustahkamlaydi.
5. Amaliy faoliyat	Nafas olish jarayonini ko'rsatadigan kichik tajriba o'tkazadi (shar yordamida o'pkani ishlashini ko'rsatish).	Tajribani kuza-tadi, o'z fikrini bildiradi.	Eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilarga yozma izoh beriladi, boshqa o'quvchilar unga tajribani tushuntirib beradi.	Jarayonni amalda ko'rib tushunish imkoniyati yaratiladi.
6. Refleksiya va baholash	"Men bugun nimalarni o'rgandim?" savoli asosida fikr almashuv tashkil qiladi.	Har bir o'quvchi o'ziga qulay usulda fikr bildiradi: og'zaki, yozma yoki rasm chizish orqali.	Nutqi sust o'quvchilar uchun rasm chizish yoki tayyor piktogrammalar beriladi.	O'quvchilar mavzuni qayta eslab, o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi.
7. Yakuniy bosqich	Uyga vazifa beradi: "Nafas olish organlarini sog'lom saqlash qoidalarini" bo'yicha kichik taqdimot yoki rasm tayyorlash.	Uy vazifasini yozib oladi.	O'quvchining imkoniyatiga qarab uy vazifasi moslashtiriladi: kimdir matn yozadi, kimdir rasm chizadi.	O'quvchilar uy sharoitida mustaqil ijodiy faoliyatga jalb qilinadi.

Amaliy jarayon shuni ko'rsatadiki, biologiya darslarini inklyuziv sharoitda tashkil etish uchun oddiy vositalarni to'g'ri moslashtirish kifoya. Guruhli ishlash, vizual materiallardan foydalanish, differensial topshiriqlar va amaliy tajribalar barcha o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi⁵.

⁵ Shodmonova N. Bo'lajak biologiya o'qituvchilari uchun inklyuziv kompetensiyalar.2025.

Natijalar

- Imkoniyati cheklangan o'quvchilar mavzuni tengdoshlariga teng darajada o'zlashtirdi.
- Guruhli ishlash orqali kuchli va zaif o'quvchilar o'zaro hamkorlik qildi.
- Dars jarayoni interaktiv bo'lib, barcha o'quvchilar o'zini darsning faol ishtirokchisi sifatida his qildi.

Xulosa.

Biologiya fanini oddiy dars va inklyuziv dars sharoitida o'qitish samaradorligi taqqoslandi:

Inklyuziv darsda mavzuni tushunish, o'quvchilar ishtiroki va motivatsiya ko'rsatkichlari ancha yuqori.

Diagrammadan ko'rinadiki, oddiy darsda barcha o'quvchilar bir xil yondashuvda qatnashgani uchun ayrimlar chetda qolib ketadi.

Inklyuziv metodlar qo'llanganda esa individual imkoniyatlar hisobga olinadi, natijada sinfning umumiy o'zlashtirish darajasi oshadi.

Xulosa shuki, biologiya fanida inklyuziv metodik yondashuv nafaqat imkoniyati cheklangan o'quvchilar, balki barcha o'quvchilar uchun samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uzluksiz ta'lim pedagogikasi va inklyuziv ta'lim. – Namangan: NamDU nashriyoti, 2024. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/05/16/NamDU-ARM-477-Uzluksiz_talim_pedagogikasi_va_inklyuziv_talim.pdf
2. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – Buxoro, 2024. – №3. https://buxdu.uz/media/jurnallar/pedagogik_mahorat/pedagogik_mahorat_3_2024_2.pdf
3. Karimova D. Inklyuziv ta'lim sharoitida fanlarni o'qitish metodlari. – 2024. <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/145>
4. Boltabayev M. PhET dasturi asosida virtual laboratoriyalar yordamida biologiya darslarini tashkil etish. 2024. https://esijournal.uz/wp-content/uploads/2024/07/Talim_fan_va_innovatsiya_2024-yil_2-son_compressed-1.pdf
5. Shodmonova N. Bo'lajak biologiya o'qituvchilari uchun inklyuziv kompetensiyalar.2025.https://www.researchgate.net/publication/392468700_AKTABGACHA_VA_AKTAB_TA%27LIMI

Kumushoy MASHARIPOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti
xorijiy filologiya fakulteti o'qituvchisi

MAKTAB O'QUVCHILARIDA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi, uning asosiy yo'nalishlarini o'rganish, maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri ekanligi hamda lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: maktab, so'z, lug'at, lug'at tarkibi, leksikologiya, nutq, metodika.

Annotation: this article discusses the methodology of working on vocabulary in school, the study of its main directions, one of the important tasks of speech development in school, as well as improving, organizing, distinguishing and justifying its main directions of work on it, and managing the process of enriching students' vocabulary.

Key words: school, word, dictionary, dictionary structure, lexicology, speech, methodology.

Аннотация: в данной статье рассматривается методика работы со словарём в школе, её основные направления, а также то, что работа над словарём является одной из важных задач развития речи в школе. Освещаются вопросы совершенствования и упорядочивания работы со словарём, выделения и обоснования её основных направлений, а также управления процессом обогащения словарного запаса учащихся.

Ключевые слова: школа, слово, словарь, словарный состав, лексикология, речь, методика.

Kirish. So'z tilning ma'no bildiradigan asosiy birligidir. So'z va so'z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'z va iboralarning yig'indisi lug'at tarkibi yoki leksika deyiladi. Leksikologiya o'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganadigan bo'limdir. Leksikologiya lug'at tarkibidagi so'zlarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish faolligi, boyib borishi, ba'zi so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi, ma'no ko'chish hodisasi kabilarni o'rganadi. Shu sababli leksikologiya lug'at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi. Shuning uchun lug'atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim sharti hisoblanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili ulkan lug'at boyligiga ega. Besh jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati"da 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi berilgan bo'lib, bular umumiy qo'llaniladiganlaridir. Bunga o'zbek tilida nashr etilgan turli terminologik lug'atlarda, o'zbek tili sinonimlari, antonimlari, frazeologik lug'atlarida va turli izohli lug'atlarda so'zlar qo'shilsa, lug'at boyligi yana ming-minglab

oshadi. Bulardan tashqari, juda ko'p so'zlar ko'p ma'noni bildiradi. Masalan, shu izohli lug'atda bosh so'zining 40 dan ortiq asosiy va frazeologizm bilan bog'langan ma'noda ishlatilishi berilgan. Maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi:

1. *O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish.* Ona tilining lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni 8-10 ta yangi so'zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4-6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

2. *O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish.* Bu o'z ichiga quyidagilarni oladi: 1) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish; 2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish; 3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

3. *Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nafaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish.* Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarini qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. *Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nafaol lug'atiga o'tkazish.*

Tadqiqot metodologiyasi. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. O'quvchilar lug'ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va takomillashtiriladi:

1. *Atrof-muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarning o'yini va o'qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatini kuzatish.* Tabiat qo'yniga, turlijoylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko'pgina yangi nom va iboralarni o'rganadilar. O'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba badiiy asarlar hisoblanadi. O'qish darslarida o'quvchilar Oybek, H.Olimjon, M.Shayxzoda, G'.G'ulom, H.Hakimzoda, Zulfiya, X.To'xtaboyev, P.Mo'min, Q.Muhammadiy, Sh.Sa'dulla, Z.Diyor, N.Fozilov, T.Adashboyev, A.Obidjon kabi ko'pgina so'z ustalarining asarlarini o'qiydilar. Matn ustida ishlash jarayonida ko'p ma'noli so'zlar, sinonimlar, ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'zlarni, ba'zi frazeologik birikmalarni bilib oladilar.

Tahlil va natijalari. Bolalar mustaqil o'qishga o'rganganlaridan keyin ular lug'atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta ta'sir qiladi. Shuning uchun ham sinfdan tashqari mustaqil o'qish va unga rahbarlik shakllari o'quvchilar lug'atini boyitishning, nutqini o'stirishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi.

Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o'rganish darslari ko'pgina so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar. Bu darslarda o'quvchilar lug'ati tartibga solinadi, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida guruhlanadi, so'z tarkibi, so'z yasalishi, so'zlarning o'zgarishini o'rganish bilan esa lug'atga aniqlik kiritiladi; ular o'rgangan so'zlaridan o'z nutqlarida

foydalana boshlaydilar, natijada lug'atlari faollashadi. O'quvchilar lug'ati maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "Imlo lug'ati" mavjud. O'qituvchi ma'lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug'atlardan (o'zbek tilining sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug'atlaridan, turli terminologik lug'atlardan) muvaffaqiyatli foydalanadi. Masalan, predmet atamasining ma'nosini tushuntirish bilan o'quvchilar predmet keng ma'noda qo'llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe'l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi. Metodikada so'zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. *So'zni kontekst asosida tushuntirish.* Bunda o'quvchilar tushunmaydigan so'z ularga tushunarli so'zlar qo'llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi;

2. *So'z ma'nosini lug'atdan va o'qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish.* Bunda o'quvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, so'z ma'nosini mustaqil tushunib olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega;

3. *So'z ma'nosini shu so'zning ma'nodoshi yordamida tushuntirish.* Masalan, *sabo – shabada, mudofaa – himoya, sozanda – musiqachi, diyor – vatan, inshoot – bino, samo – osmon* kabi. So'zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu so'zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko'rsatish zarur;

4. *Tanish bo'lmagan so'z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo'lgan so'z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish.* Masalan, ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgo'y so'zini yolg'onchi so'ziga taqqoslab tushuntirish mumkin. Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z va so'z birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi;

5. *So'zni o'ziga yaqin tushuncha – boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish.* Bunda tushuntiriladigan so'zning izohi qisqa va aniq bo'lishi kerak. Masalan, *o'zboshimchalik* – o'z xohishicha ish tutish, ishni o'zi xohlaganicha bajarish; *mutaxassis* – biror hunar egasi; *shunqor* – uzoq uchadigan ko'zi o'tkir qush; *mesh* – mol terisidan tikilgan idish; *guldori* – gul solib qo'yiladigan idish va boshqa. Ba'zi so'zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan,

kombayn – bir vaqtning o'zida donni o'radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo'jalik mashinasi; *ekskavator* – bir vaqtning o'zida yerni qazib tuproqni yuk mashinasiga ortadigan mashina; *aerodrom* – samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo'nadigan joy va hokazo.

6. *So'zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish*. Masalan, *yantoq* – suvsiz joyda o'sadigan ninasimon tikanli o'simlik; *akula* – okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq.

7. *Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so'zlarning ma'nosini misollar yordamida tushuntirish*.

Buning uchun o'quvchilar o'rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo'lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, so'z ma'nosini tushuntirish ustida ishlash o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi. Ko'chma ma'noda ishlatilgan obrazli so'zlar va badiiy nutq birliklari matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o'qilganda, undagi allegorik, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni asarni o'qishdan oldin yoki o'qish jarayonida tushuntirib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Фан, 2007. 255- б.
2. Ўзбек тилининг изошли лугати. I т. Магруфова З.М. Таҳрири остида – М.: Русский язык, 1981. 228-б.
3. Ўзбек тилининг изошли лугати. 1 жилд. Мадвалиев А. таҳрири остида. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 624-б.
4. Rasulov R. (2020). Kelajak – til sohiblarniki. *Til va adabiyot ta'limi*, 7(7), 63-64-b.
5. Ботирова Ш.И. (2020). Об обучении студентов филологии основам анализа и литературным терминам. *Преподавание языка и литературы*, 7(7), 82-83.
6. Botirova S. (2020). The Role of Artistic Psychology in the Metaphorical Harmony of Man And the Reality of Life. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 9(4), 16-20.
7. Mardonov S., Khodjamkulov U., Botirova S., & Shermatova U. (2020). The Need to Educate Young People with the Spirit of Patriotism in the Context of Globalization. *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 166-169.
8. Botirova Sh.I. (2020). For Students of Philology Teaching Literary Conditions of Learning Basic Analysis. *Science and Education*, 1(5), 110-113.
9. Botirova Sh.I. (2020). Problematic Aspects Related To the Use of Educational Technologies And Interactive Methods In The Classroom. *International Journal of Multidisciplinary Research*, 6 (8), 539-541.
10. Botirova Sh.I. (2020). The Relationship Between Symbolically Figurative Interpretation And Psychology. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 9(9), 12-15.
11. Botirova Sh.I. (2018). Methodology And Technology of Social And Pedagogical Activity. *Теория и практика современной науки*, 1(31), 14-16.
12. Botirova Sh.I. (2018). The Role of Artistic Literature In The Spiritual Development of Youth. *Мировая наука*, 5(14), 26-28.
13. Botirova Sh.I. (2019). Poetics of artistic psychologism. *Теория и практика современной науки*, 2(44), 31-34.
14. Botirova Sh.I. (2019). Role of psychological display in characteristic of characters in the novel of an Ulugbek Hamdam. *Monografia pokonferencyjna. Science, research, development #14. Philology, sociology and culturology. V.02, London. 27.02.2019-28.02.2019*, 86-90.
15. Botirova Sh.I. (2018). Symbolic-figurative talk and psychological relations. *«Экономика и социум»*. 12(55), 114-118.

Ilmiy-metodik elektron jurnal

TAHRIR HAY'ATI:

Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov,
Jabbor Eshonqulov, Baxtiyor Daniyarov,
Abdurahim Nosirov, To'liqin Saydaliyev,
Barno Buranova, Zulxumor Mirzayeva,
Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Jovliyev,
Salima Jumayeva, Qayum Baymirov, Manzar
Abdulkayrov, Alijon Safarov, Husniddin
Norqulov, Odiljon Boynazarov, Madina
Nuriddinova, Barno Kadirova, Nargiza
Mirzayeva, Guli Shukurova, Yuldosh
Raxmatov, Ramziddin Abdusatorov, Feruza
Manukyan, Gulchexra Keldiyorova,
Gulsanam Xolikulova, Svetlana Umirova,
Xolmo'min Fayzullayev, Nilufar Namazova,
Dilbar Niyazova, Sayyora Halimova,
Shaxnoza Yunusova, Nigoraxon
Ro'zibayeva, Tadjixon Sabitova, Oqila
To'raqulova,
Mohigul Fozilova, Maxpuza Karaxodjayeva,
Dilfuza Toshniyozova, Gulboxor Ernazarova,
Normuhammad Ubaydullayev, Muxayyo
Vafoyeva, Bobomurod Mirsanov, Shaxnoza
Xudaykulova, Sharifboy Bobojonov,
Madixabonu Pardayeva, Dildora Usarova.

Bosh muharrir:

Nargiza Berdiyeva

Muharrirlar:

Bibimariyam Rahmonova,
Shabnam G'aniyeva, Bonu Do'smatova

Sahifalovchi:

Rustambek Yusupov

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefonlar:

(93) 759-43-66, (77) 003-34-33,
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.

E-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

ilmiy-metodik jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi
338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika
hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik
dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Abdulhay SOBIROV.

DAVLAT TILI - MILLAT BIRLIGI VA

JIPSLIGINING BOSH OMILI 3

Surayyo RAXIMOVA.

DIREKTOR O'RINBOSARINING KASBIY

RIVOJLANISHI VA UNING TA'LIM TASHKILOTI

SAMARADORLIGIDAGI ROLI 7

Sulaymon XAYDAROV.

OILAVIY TARBIYADA VA MAKTAB TARBIYASIDA

YUZAGA KELADIGAN RISKLAR 9

TILSHUNOSLIK

Moxigul ASRONOVA.

TIBBIY NUTQNING TUZILISHI: LEKSIK VA

SINTAKTIK O'ZIGA XOSLIKLAR..... 13

Gulbahor TOJIYEVA.

Maxliyo XOLMURATOVA

QISHLOQ XO'JALIGI TURIZM

TERMINOLOGIYASINING TARKIBIY QISMLARI VA

MAVZUIY GURUHLARI 16

Zamira DJURABAYEVA.

TIL EKOLOGIYASI BO'YICHA BA'ZI BIR

MULOHAZALAR 20

Nilufar ALIBOYEVA.

RASMIY USLUB VA UNING RAQAMLI SHAKLDAGI

NAMOYONLARI 23

Qahramon SOBIROV.

PERSONAJLAR NUTQIDA OKSIMORONLARNING

SEMANTIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI 26

Nilufarxon MAHMUDOVA.

TOPISHMOQLARDA MIQDORNI BILDIRUVCHI

SO'ZLARNING ASSOTSIATIV XUSUSIYATLARI..... 29

Mohinur ERNAZAROVA.

TILLARARO INTERFERENSIYA VA TRANSFER
TUSHUNCHASI: ZAMONAVIY NAZARIYALAR 31

Aziz YULDASHEV.

TABIY TILNI QAYTA ISHLASHDA
"REGULAR IFODA" VA "N-GRAM"
IMKONIYATLARI VA UNDA TIL KORPUSI
QIDIRUV TIZIMIDA FOYDALANISH..... 36

ADABIYOTSHUNOSLIK

Gulchehra IMOMOVA.

ROMAN STRUKTURASIDA MILLIY
XARAKTERLARNI TIPIK SHAROITLARDI
HAQQONiy TASVIRLASH ZARURATI..... 41

Sharifa ISKANDAROVA.

Odina AXMADALIYEVA.
POETIK MATNDA ARABCHA
O'ZLASHMALARNING O'RNI..... 47

Fayzulla ISKANDAROV.

FORSIY ADABIYOTDA PAYG'AMBAR NA'TI..... 49

Mohiya MAMASHARIPOVA.

LIRIK QAHRAMON TASVIRIDA
OMON MATJON MAHORATI..... 52

Humoyun AHMADOV.

SA'DIY SHEROZIYNING "GULISTON"ASARIDA
TARBIYA - NUTQ ODOBI XUSUSIDA 55

Ozoda RAJABBAYEVA.

"IRQ BITIK" QO'LYOZMASIDA MIFOLOGIK
TUSHUNCHALAR 57

Наталья ПЕТРУХИНА.

ЗВУКООПИСАТЕЛЬНЫЙ РЯД КАК
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПРИЕМ В ТВОРЧЕСТВЕ
Ф.М. ДОСТОЕВСКОГО 60

Л. Р. ШУКУРОВА.

ПОЭТИЧЕСКИЙ ТЕКСТ
КАК МЕСТО ПАМЯТИ: АНАЛИЗ ЛИРИКИ
Н. Д. ИЛЬИНА В КОНТЕКСТЕ ТЕОРИЙ
П. НОРА, К. ГИРЦА И Ю. М. ЛОТМАНА..... 63

ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYA

Muxlisa SABIROVA.

INTERNET MEDIAMATNLARIDA
IJTIMOIY STEREOTIPLIK MUAMMOSI 70

Nodirbek XASANBOYEV.

MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL
ETISH USULLARI..... 73

Шахло МАХМУДОВА.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ТЕХНОЛОГИИ SCAMPER НА ЗАНЯТИЯХ
АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА 76

Bonu QURBONOVA.

TAHLIL KO'NIKMASINI KLASSTER METODI ORQALI
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI 80

TADQIQOTLAR

Guli SHUKUROVA.

PUBLITSISTIKA VA ADABIYOTNING O'XSHASH
HAMDA FARQLI JIHLTLARI 84

Kamola JUMAYEVA.

MUHAMMADRASUL MIRZO "DEVON" I
LEKSIKASINING USLUBIY-SEMANTIK
BELGILARI 84

Muxammad NORTOJIYEV.

O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA
LINGVOPRAGMATIK VOSITALARNING
BADIY FUNKSIYASI..... 87

Dilafro'z ZIYADULLAYEVA.

XURSHID DAVRON NASRIDA
BADIY TAFAKKURNING TA'SIRI 90

Yulduz TURSUNOVA.

ABDULLA QAHHOR IJODIDA QO'LLANGAN
GAZETA, JURNAL, MEDAL VA ORDEN
NOMLARINING LINGVOPOETIK TAHLILI 93

Kamola ABDURASHIDOVA.

MOZIYDAN AKS - SADO! 96

Maxliyo XURRAMOVA.

HADISLARNING GENEZISI VA
O'ZIGA XOS BELGILARI 100

Iroda RAXMONOVA.

TA'LIM JARAYONIDA MENEJMENT FANINING
NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI 103

Muhabbat RO'ZIYEVA.

ONA TILI DARSLARINI O'QITISH JARAYONI VA
EKOLOGIK TA'LIMNING INTEGRATSIYASI..... 106

Nargiza XO'JANIYOZOVA.

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING
KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISHDA GAMIFIKATSIYA VA
STORYTELLING INTEGRATSIYASINING
LINGVODIDAKTIK ASOSLARI 108

Dilyora ISABOYEVA.

TA'LIM JARAYONIDA INTEGRATIV
METODLARNI QO'LLASH ORQALI O'QUVCHILARNING
O'ZARO MULOQOT KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI 110

Muxtaram YAKUBOVA.

TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH
JARAYONINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI:
GERMANIYA TAJRIBASI TAHLILI..... 113

SOLIXA ANORBOYEVA.

TARJIMON TAYYORLASHNI TASHKIL
ETISHNING UMUMIY TAMOYILLARI:
ISPAN TILI MISOLIDA..... 115

G'aziza ASHUROVA.

XORIJIY TIL SIFATIDA KOREYS TILINI
O'QITISHDA OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMALARINING
LINGVODIDAKTIK AHAMIYATI 119

Mazmuna OTABOYEVA. Mohinabonu RUSTAMOVA.

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA
XUSHMUOMALALIK STRATEGIYASINING
MADANIYATLARARO FARQLARI 121

Oqila TO'RAYEVA. O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "BOYLIK" KONSEPTINI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR	124
Sanobar G'OPPOROVA. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MUBOLAG'ANING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	127
Dilorom FAYZIYEVA. SULAYMON BOQIRG'ONIY HAYOTI VA IJDODINING O'RGANILISHI	129
Maftuna NORBOBOYEVA. BERUNIY ASARLARIDA BADIY IFODA SHAKLLARINING ADABIY MEROSDAGI O'RNI	132
Malika SUYUNOVA. "ZAHARLI HAYOT YOXUD ISHQ QURBONLARI" HAQIDA	135
Navruzgul TURDIYEVA. LUQMON BO'RIXON HIKOYALARIDAGI INDIVIDUAL OBRAZLAR.....	137
Ellora ISAQOVA. AN'ANAVIY SYUJETNING O'ZGACHA TALQINI	140
Durdona ANVAROVA. TURKOLOGIYADA KORPUSGA ASOSLANGAN LUG'AT BAZASINI YARATISH MASALALARI VA ULARNING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIGA TATBIQI	143
Shoira SAYDULLAYEVA. TARIXIY VA BADIY HAQIQATNI TAHLIL QILISHDA METODIK YONDASHUVLAR	147
Dilobod ABDURAIMOVA. TA'LIMDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASIGA OID TESTLARNI YARATISH VA BAHOLASH	151
Madina ISMATOVA. UMUMTA'LIM MAKTEBLARIDA CHET TILINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASPEKTLARI	153
Gulmira QURBONOVA. FAOLIYATLI YONDASHUVNING NUTQIY LINGVISTIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	155
Maftuna RAHIMOVA. MANTIQUIY TAFAKKUR VA TIL: MA'NAVIY O'SISHNING IKKI UNSURI	158
Mavjuda QARAYEVA. GENDER LINGVISTIKASINING RIVOJLANISH TARIXI VA YONDASHUVLARI	160
Madina ABDULLAJONOVA. DISGRAFIYANING NEYROLINGVISTIK TADQIQI: GENDER JIHATDAN FARQLANISH VA GENETIK MOYILLIK.....	164
Ro'zixol PANJIYEVA. TARIXIY REALIYALARNING TARJIMADA EKVIVALENTINI TOPISH MUAMMOLARI VA ULARNING PRAGMATIK TALQINI	168

Nafisa MURATOVA. TILAK VA TABRIK NUTQIY AKTLARINING VERBAL ASSOTSIATSIYALASHUVINI O'QITISHNING METODIK ASOSLARI	171
Dilnura AXMADOVA. KASALLIK NOMLARI SINONIMIYASI.....	174
Yulduzxon QOSIMOVA. O'ZBEK VA TURKMAN UMUMTA'LIM MAKTAB ADABIYOT DARSLIKLARIDA XALQ DOSTONLARI O'QITILISHINING BUGUNGI HOLATI	177
Хадида ВАЛИЕВА. СОЦИАЛЬНАЯ НЕСПРАВЕДЛИВОСТЬ ГЛАЗАМИ ТОЛСТОГО: АНАЛИЗ РАССКАЗА "ПОСЛЕ БАЛА"	180
Бибиixonим УСМАНОВА. "ТЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ"	183
Khurshid FAZLIDDINOV. COMPARATIVE STUDY OF TOOL-RELATED LEXICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK: SEMANTIC AND CULTURAL ASPECTS.....	185
BAKHTINISO ALIYEVA. STYLISTIC PECULIARITIES OF HUMAN AND MACHINE TRANSLATION	188
Gulchexra JALILOVA. ADVENTURE AS A MAIN MOTIVE IN DETECTIVE GENRE AND STAGES OF ITS FORMATION.....	191
Shakhnoza TURAEVA. ERNEST HEMINGWAY: A STUDY OF THE WRITER'S LIFE AND LITERARY LEGACY	194
Elinura ZOKIROVA. METHODOLOGICAL APPROACHES FOR OPTIMAL DEVELOPMENT AND COMMUNICATION: ENHANCING ORAL AND AURAL PROFICIENCY.....	198

PEDAGOGIKA

Mahliyo XAYDAROVA. MAGISTRATURA TALABALARINING ILMIY-PEDAGOGIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA MUSTAQIL TA'LIMDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	202
Muhayyo AVEZOVA. MAKTABDA BIOLOGIYA FANINI O'QITISHNI INKLYUZIV TA'LIM SHAROITINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI	205
Kumushoy MASHARIPOVA. MAKTAB O'QUVCHILARIDA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODLARI	209